MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA MADANIY MUHITNI YARATISHNING PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI: MUAMMO VA YECHIMLAR

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI
MATERIALLAR TO'PLAMI
2023-yil 15-may



Toshkent 2023

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

T.N.QORI NIYOZIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON PEDAGOGIKA FANLARI ILMIY TADQIQOT INSTITUTI

SCIENCE AND INNOVATION XALQARO ILMIY JURNALI

2023-yil 15-may kuni T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot institutida o‘tkazilgan

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA MADANIY MUHITNI YARATISHNING PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI: MUAMMO VA YECHIMLAR

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi

MATERIALLAR TO‘PLAMI

Toshkent-2023

ISSN: 2181-3337

“Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida madaniy muhitni yaratishning pedagogik texnologiyalari: muammo va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallar to‘plami (2023-yil 15-may) – T.: Toshkent 2023.

Ushbu to‘plamga 2023-yil 15-may kuni T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot institutida o‘tkazilgan “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida madaniy muhitni yaratishning pedagogik texnologiyalari: muammo va yechimlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani ishtirokchilarining materiallari kiritilgan.

Anjumanga qabul qilingan har bir maqolaga DOI raqam olinib, Zenodo, OpenAire, Cyberleninka, Index Copernicus va Google Scholar ilmiy bazalarida indekslandi. Shuningdek, anjuman to‘plami va har bir maqola alohida pdf formatida “Science and Innovation” xalqaro ilmiy jurnali rasmiy saytiga ham joylashtirildi.

NASHR ETISHDA QATNASHGANLAR

B.Rustamov	“Science and Innovation” xalqaro ilmiy jurnali Bosh muharriri
G.Raxmatullayeva	Mas’ul muharrir
A.Rustamov	Texnik muharrir
O.Abdullayeva	Maqolalar qabuliga mas’ul xodim
F.Sagdullayeva	Cyberleninka va Index Copernicus ilmiy bazalariga mas’ul
F.Abdumovlonova	Korrektor-muharrir
Z.Shermatova	Tahrirlovchi

TAHRIR HAY’ATI

X.I.Ibraimov	Pedagogika fanlari doktori, Professor
R.X.Djurayev	Pedagogika fanlari doktori, Akademik
R.G.Safarova	Pedagogika fanlari doktori, Professor
Sh.Q.Mardonov	Pedagogika fanlari doktori, Professor
M.Quronov	Pedagogika fanlari doktori, Professor
H.M.Tojiboyeva	Pedagogika fanlari doktori (DSc), Dotsent
D.M.Malikova	Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
O.T.Abdug‘aniyev	Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Pedagogika fanlari doktori, professor X.I.Ibraimovning umumiy tahriri ostida

© T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti
© “Science and Innovation” xalqaro ilmiy jurnali
© Mualliflar

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИ ШАВКАТ МИРЗИЁЕВ ЁШЛАРДА МАЪНАВИЯТНИ ТАРБИЯЛАШ ҲАҚИДА

Р.Х.Джураев
п.ф.д., академик

https://doi.org/10.5281/zenodo.7930703

Аннотация. *Замонавий таълимнинг асосий мақсади – жамият, давлат ва таълим олувчи шахсининг зарур эҳтиёжларини қондириш, Ўзбекистоннинг маънавий, ижтимоий-иқтисодий тараққиётига хизмат қила оладиган рақобатбардош кадрларни етиштиришдир. Кенг дунёқарашга эга бўлган, мустақил ва эркин фикрлайдиган, таълим жараёнини мақсадли моделлаштира биладиган ўқитувчи-педагог таълимнинг ёрқин истиқболини белгилаб бера олади.*

Калит сўзлар: *замонавий таълим, жамият, давлат, ёшлар, қадрият.*

Маълумки, ёш авлод тарбияси ҳамма замонларда ҳам муҳим ва долзарб аҳамиятга эга бўлиб келган. Аммо биз яшаётган XXI асрда бу масала ҳақиқатан ҳам ҳаёт-мамот масаласига айланиб бормоқда.

Ш.М.Мирзиёев

Ўқув жараёнининг асосий субъекти сифатида ўқувчининг самарали таълим олиши, “оммавий маданият” таҳдидларидан сақлана билиши, унда юксак ғоявий идеал ва эътиқодларнинг шаклланиши ҳамда одоб-ахлоқ меъёрларига амал қилиш масъулиятининг талаб даражасида бўлишида ўқитувчининг ўрни катта. Ёш авлод маънавий-маърифий тарбияси давлат аҳамиятига молик долзарб масала ҳисобланади. Ўқитувчида болаларни севиш, таълим-тарбиянинг замон талабларига монанд бўлишига интилиш, педагогик фаолиятни севиш; меҳнатсеварлик, ҳақиқатгўйлик, одоблилик; эмоционаллик, некбинлик(оптимизм); ифодали, ҳиссиётли нутқ ва педагогик такт талаб даражасида бўлиши; ижодкорлик; ташкилотчилик малакалари ва юмор ҳиссига эга бўлиши; сабрли, бағри кенг, қатъиятли, интизомли бўлиши зарур.

“Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарорида (2019 йил, 3 май) Мактабгача таълим вазирлиги, Халқ таълими вазирлиги, Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Соғлиқни сақлаш вазирлиги ва “Оила” илмий-амалий тадқиқот маркази билан биргаликда **Узлуксиз маънавий тарбия концепцияси** лойиҳасини тайёрлаш, **“Жаҳолатга қарши маърифат” ғояси** асосида жамиятда узлуксиз маънавий-маърифий тарбия ва тарғибот-ташвиқот ишларини ташкил этишнинг стратегик йўналишлари, таъсирчан, креатив ва инновацион услубларини ишлаб чиқиш**, “Маънавият фидойиси” кўкрак нишони**ни таъсис этиш каби долзарб вазифалар белгилаб қўйилгани бежиз эмас. Чунки маънавият тарбиясини талаб даражасида амалга оширсаккина, баркамол авлод тарбиясида сезиларли ютуқларга эришишимиз мумкин.

Маълумки, Президентимиз томонидан илгари сурилган 5 та муҳим ташаббус доирасида: ижтимоий, маънавий-маърифий соҳалардаги ишларни тизимли амалга ошириш асосида ёшларга эътиборни кучайтириш, ёш авлодни маданият, санъат, жисмоний тарбия ва спортга кенг жалб этиш, уларда ахборот технологияларидан тўғри фойдаланиш кўникмасини таркиб топтириш, ёшлар ўртасида китобхонликни тарғиб қилиш масалалари давлат сиёсати даражасига кўтарилди. Ушбу 5 та муҳим ташаббус таркибида айнан

Исҳоқхон Ибрат ва бошқа жадид маърифатпарварлари кўзлаган катта мақсадлар амалга ошмоқда.

Президентимиз Шавкат Мирзиёев 2016 йил 2 ноябрь куни Наманган вилояти сайловчилари билан учрашувда буюк тараққийпарвар ва маърифатпарвар Исҳоқхон Ибратнинг халқимиз маънавий-маърифий юксалиши йўлидаги беқиёс хизматларига эҳтиром рамзи сифатида унинг номини абадийлаштириш, у кишига атаб замонавий боғ яратиш, ёдгорлик мажмуаси ва “Ибрат мактаби”ни ташкил қилиш ташаббуси билан чиққан эдилар. Шундан сўнг Президентимиз раҳбарлигида Наманган вилояти Тўрақўрғон туманида Исҳоқхон Тўра Ибрат мемориал мажмуасида кенг кўламли бунёдкорлик ишлари амалга оширилди. Ҳозирги кунда мазкур жойда боғ-хиёбон, унинг ўртасида Исҳоқхон тўра Ибрат ҳайкали, миллий меъморчилик услубидаги айвон, босмахона, илғор технологиялар асосида қурилган мусиқали фаввора, чет тилларга ихтисослаштирилган 400 ўринли мактаб-интернат ва тарихий меъморчилик обидаси бўлмиш музей ишлаб турибди.

Президентимизнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида (2017 йил, 19 сентябрь) Ёшлар ҳуқуқлари тўғрисидаги халқаро конвенцияни ишлаб чиқиш таклифи билан чиқишлари, коронавирус пандемияси туфайли онлайн мулоқот режимида бўлиб ўтган 75-сессиясида (2020 йил, 23 сентябрь) эса тарихда илк бор давлат тилида - ўзбек тилида маъруза қилиб, кўпгина муҳим масалалар қаторида Ёшлар ҳуқуқлари бўйича халқаро конвенцияни қабул қилишга оид ташаббусни илгари суришлари жаҳон ҳамжамиятининг эътирофига сазовор бўлди.

Эндиликда давлат бошилиғимиз олға сураётган ғояларга кўра мактабларда маънавий-маърифий тадбирларни амалга оширишда:

- ўқувчиларнинг ёш хусусиятлари, мактаб жойлашган ҳудуд шарт-шароитларини ҳисобга олиш;

- ижодий уюшмалар, илмий марказлар билан ўзаро муносабатларни ташкил этишнинг реал имкониятларини назарда тутиш зарур.

- синф раҳбарлари, маънавий-маърифий ишлар бўйича директор ўринбосари, болалар етакчилари, мактаб психологи, маҳалла фуқаролар йиғини, оила, ота-оналар қўмиталари, вояга етмаганлар ишлари бўйича комиссиялар, ҳуқуқ-тартибот идораларининг барчаси мактаб ўқувчиларининг маънавий-ахлоқий қиёфаси талаб даражасида шаклланишига масъул ҳисобланади.

Давлат раҳбаримиз юксак маънавиятли, баркамол авлодга хос хусусиятлар доирасида қуйидаги тўрт жиҳатга асосий эътиборни қаратмоқдалар:

- янгича ва мустақил фикрлаш, ўз ҳақ-ҳуқуқини таниш ва бунинг учун курашиш;

- масъулиятлилик, ўз кучи ва имкониятларига таяниш, имкониятларини ишга сола билиш;

- ташаббускорлик, атрофида содир бўлаётган воқеа-ҳодисаларга мустақил муносабат билдира олиш;

- ватанпарварлик, шахсий манфаатини мамлакат ва халқ манфаати билан уйғунлик кўриш ва шу асосда фаолият юритиш.

Демак, булар замондош ёшларимизнинг баркамоллигини белгиловчи фазилатлардир.

Шунингдек, ушбу йўналишда ёшларда соғлом дунёқараш, жумладан, китобхонлик кўникмасини шакллантириш, интернет, ахборот-коммуникация технологияларидан

оқилона фойдаланиш маданиятини ошириш, уларда ахборот ҳуружларига қарши мафкуравий иммунитетни мустаҳкамлаш мақсадида “Бу йил ўқиш зарур бўлган 100 та китоб” туркумидан бошланғич, ўрта ва юқори синф ўқувчилари учун китобларнинг аниқ рўйхатини шакллантириш ва унинг натижаларини танлов, давра суҳбати, семинар, мунозара каби шаклларда назорат қилиб бориш зарур.

Ёшларни маънавий-ахлоқий тарбиялаш, уларда Ватанга муҳаббат туйғусини шакллантириш, миллий онги ва тафаккурини ривожлантириш ҳамиша ҳар қандай демократик жамиятнинг энг асосий мақсади ва матлаби бўлиб келган. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев "***Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизнинг софлигини асраш – давр талаби"*** мавзуидаги анжуманда сўзлаган нутқида ёш авлод тарбиясига алоҳида тўхталиб***: "Бизни ҳамиша ўйлантириб келадиган яна бир муҳим масала – бу ёшларимизнинг одоб-ахлоқи, юриш-туриши, бир сўз билан айтганда, дунёқараши билан боғлиқ. Бугун замон шиддат билан ўзгаряпти. Бу ўзгаришларни ҳаммадан ҳам кўпроқ ҳис этадиган ким – ёшлар. Майли, ёшлар ўз давринининг талаблари билан уйғун бўлсин. Лекин айни пайтда ўзлигини ҳам унутмасин. Биз киммиз, қандай улуғ зотларнинг авлодимиз, деган даъват уларнинг қалбида доимо акс-садо бериб, ўзлигига содиқ қолишга ундаб турсин. Бунга ниманинг ҳисобидан эришамиз? Тарбия, тарбия ва фақат тарбия ҳисобидан***"- дея таъкидлаган эди.

Тарбиядан мурод – баркамол, комил инсонни вояга етказишдир. Комилликнинг белгиси ҳақ йўлидан бориб, халққа фойда келтиришдан иборат. Киши ўз сўзи, амалий ишлари, нияти билан қанчалик одамларга фойда келтирса, у шунчалик комил бўлади. Комил, баркамол инсонни тарбиялаш, вояга етказиш ҳақида мусулмон Шарқи ахлоқи тарихида инсон ҳаёти учун дастуруламал қўлланма вазифасини ўтаган кўп пандномалар, халқ китоблари мавжуд бўлган. Жумладан, Кайковуснинг “Қобуснома”, Саъдийнинг “Гулистон”, “Бўстон”, Амир Темурнинг “Темур тузуклари”, Абдураҳмон Жомийнинг “Баҳористон”, Алишер Навоийнинг “Маҳбуб-ул қулуб”, Ҳусайн Воиз Кошифийнинг “Ахлоқи Муҳсиний” каби асарлари шулар жумласидандир.

Комил инсон тарбиясига бағишланган ушбу китоблар чин маънода маънавият сарчашмасини асрлардан асрларга узатган кўприк вазифасини ўтаган. Зеро, тарбия ва маънавият эгиз тушунчалардир. Маънавият халқимиз тарихига ҳурмат ва эътибор билан ёндашиш, озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт барпо этиш йўлидаги асрий орзу-интилишларга доир ҳаётий идеаллар, Ватан равнақи, эл-юрт осойишталиги, фаровон ҳаёт каби юксак ғояларнинг маъно-мазмунини теран англаб етишга хизмат қилади.

Бундай вазифаларнинг барчаси мактаб ўқитувчиси зиммасига янгидан янги талаблар юклайди. Бундай муҳим вазифаларни ҳал этишда муҳтарам касбдошларимиз бўлмиш ўқитувчиларимизга кўмак тариқасида ўқув-методик қўлланмалар яратишнинг аҳамияти катта. Жумладан, мактаб ўқувчиларини ғоявий-ахлоқий, маънавий-маърифий тарбиялашда ҳозирга қадар илгари сурилган муҳим ахлоқий ғоялар, одоб-ахлоқи ва ватанпарварлиги билан ёшларга ўрнак бўла оладиган ибратли сиймолар ҳақида маълумот берувчи педагогик нашрлар чоп эттириш зарур.

Албатта, муаммо қанчалик чигал бўлмасин, унинг ечими ҳам мавжуд. Биз маънавият тарбиясининг тарихий шаклланган институтига эгамиз. Фақат унинг имкониятларидан етарлича фойдаланишимиз, унинг имкониятларини тўлиқ ўрганишимиз лозим.

Президентимиз Шавкат Мирзиёев “Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз” асарида маънавиятга юксак баҳо бериб, бизнинг ҳавас қилса арзийдиган буюк тарихимиз, ҳавас қилса арзийдиган беқиёс бойликларимиз борлигини, худо хоҳласа, ҳавас қилса арзийдиган буюк келажагимиз ҳам бўлишини, ана шундай ёруғ келажакни аввалambор азму шижоатли, жўшқин орзу-интилишлар билан ҳаётга кириб келаётган, ҳеч кимдан кам бўлмайдиган навқирон авлодимиз, бутун Ўзбекистон ёшлари барпо этиш зарурлигини таъкидлади. Давлат раҳбаримизнинг уқтиришича, “**... ёш авлодимизда қатъий ҳаётий позиция ва Ватанимиз тақдири учун юксак масъулият туйғусини шакллантириш алоҳида муҳим аҳамиятга эга”**.

Инсон қалбида Ватан туйғусига йўғрилган МАЪНАВИЯТнинг камол топиши учун қалбан ва виждонан, ақл ва қўл билан меҳнат қилиши керак. Маънавият ва ҳалол меҳнат йўқ жойда ҳеч қачон бахт-саодат бўлмайди.

Маънавият тарбиясида чинакам ўқитувчи бу тарбиянинг таркиби миллий қадриятлар, урф-одатлар, анъаналар, маросимлар, умумбашарий қадриятлар, эзгулик, тинчлик истаги, миллий-тарихий турмуш ва тафакккур тарзи, оила туйғуси – ота-онани эъзозлаш, оила ва бўлажак насл тўғрисида қайғуриш (биз авлодларга нималарни мерос қилиб қолдиряпмиз?), саховат ва очиқ кўнгиллик, устозларга ҳурмат-эҳтиром, эзгулик, аҳил қўшничилик, иродалилик, диёнат, диний маърифатга эътиқод, кечиримлилик эканлигига ўқувчилар эътиборини тортган ҳолда, уларнинг ушбу қадриятларни англаб олишларига, бу қадриятлар ёшларнинг виждон ва иймонига сингишига алоҳида аҳамият беради ва ҳаётларида уларнинг намоён бўлишини кузатиб боради.

Маънавий қадриятлар инсон талаб ва эҳтиёжлари асосида ақл-заковат билан яратилади, уларнинг тасаввури, тафаккури, келажак орзу-истаги, эътиқоди, ахлоқ қоидаларини ўзида мужассам этади, ҳаётда сайқал топган моддий ва ахлоқий-эстетик қадриятлар, жамият аъзоларининг баркамол маданиятини шакллантиришнинг таянч воситаси бўлади.

Маънавий камолот нима? Маънавий камолот инсоннинг борлиқ ва кишилик тарихи ҳақидаги билимларни ўзлаштириши, бунда ахлоқий-эстетик қадриятларнинг тутган ўрнини англаши, одамийлик мезонлари, ахлоқ-одоб меъёрлари ҳақида изчил ва некбин нуқтаи назарга эга бўлиши, одамийлик ва савоб ишлар қилишни ҳаёт матлаби деб билиши ва уларни ўз шахсига сингдиришидир. Инсон одамийлик илмини ўзлаштириши керак. Чунки комил инсон виждон ва иймон талабларига кўра мулоҳаза юритишга қодирлиги билан дунёдаги барча тирик мавжудотлардан ажралиб туради, у ер юзидаги энг мукаммал ва мукаррам зот, оллоҳ яратган мўъжизаларнинг гултожидир.

Маънавий поклик, инсонпарварлик ва ватанпарварлик ҳамма даврда, ҳар қандай жамиятда инсоннинг энг гўзал фазилати сифатида эъзозланган, маънавий покликни тарбиялаш орқали инсонни инсонпарвар қилиб тарбиялаш ғояси олға сурилган. Зотан, маънавият – тарбиянинг асоси, ўқ илдизидир.

Ш.М.Мирзиёв “Ўзаро ишонч, яхши қўшничилик ва дўстликни янада мустаҳкамлаш – энг муҳим вазифа” маърузасида маънавият ва маърифатни тарғиб қилиш ҳар бир зиёлининг виждон иши экани, маърифатчи фидойи бўлмоғи кераклигини таъкидлайди: “Ёшларни ўқитиш, уларни маънавий ва ахлоқий тарбиялаш, уларнинг билим олиши ва ўзини ўзи камолга етказишга интилишини шакллантиришга алоҳида эътибор қаратиш лозим”, - деб уқтиради.

Шунингдек, давлат раҳбаримиз ўзининг “Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз” асарида тарихий хотира, таълим ва маърифат – тинчлик ва бунёдкорлик сари йўл эканини уқтириб, бундай дейди: “Буюк тарихда ҳеч нарса изсиз кетмайди. У халқларнинг қонида, тарихий хотирасида сақланади ва амалий ишларида намоён бўлади. Шунинг учун ҳам у қудратлидар. Тарихий меросни асраб-авайлаш, авлодлардан авлодларга қолдириш давлатимиз сиёсатининг энг муҳим устувор йўналишларидан биридир”.

REFERENCES

1. Х.Ж.Худойқулов. Ўзбек ғурури – унинг одобида. – Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси, “Фан” нашриёти. – Тошкент, 2008. – 215 б. – 16-б.
2. Шавкат Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-том. - Т.: Ўзбекистон НМИУ, 2018 й., 501 б . -162-б.
3. Ш.М.Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-том. Т.: Ўзбекистон НМИУ, 2018 й. – 501 б. – 422-б.
4. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-том. Т.: Ўзбекистон НМИУ, 2018 й. -501 б. – 29-б.

ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ ЎҚИТУВЧИЛАРИДА ПЕДАГОГИК ҚОБИЛИЯТНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

Ибраимов Холбой Ибрагимович
Т.Н.Қори Ниёзий номидаги Ўзбекистон педагогика фанлари илмий тадқиқот институти директори, педагогика фанлари доктори, профессор

https://doi.org/10.5281/zenodo.7927416

Аннотация. *Ҳар қандай мураккаб замонавий ахборот коммуникация технологиялари, интеграциялар, фан соҳасидаги оламшумул янгиликлар аввало ўқитувчи томонидан ўзлаштирилиб, сўнгра унинг билими, савияси, қобилияти эвазига талабалар онгига ва тафаккурига етказилади.*

Калит сўзлар: *олий таълим, педагогика, назарий асослар, қобилият, билим.*

Йилдан йилга ўқитувчининг касбий фаолиятига нисбатан талаблар кучаймоқда. Бу ҳозирги замон талаби. Демак, ўқитувчига нисбатан қўлланиладиган – педагогик қобилият атамаси ҳеч қачон ўз мавқеини йўқотмайди, балки тобора такомиллашиб, бойиб ва замон талабларига мос ўзгариб бораверади.

Қобилият – одам психикасининг энг муҳим ҳусусиятларидан бири бўлиб, бу хусусиятларни хаддан ташқари кенг тўлдириш имкони оқибатида қандайдир бир қобилиятнинг нисбий заифлиги, ҳаттоки шундай бу қобилият билан ҳаммасидан кўра бир-бири билан чамбарчас боғлиқ фаолиятнинг муваффақиятли бажариш имкони асло йўқ эмас [1].

Қобилият билимдан фарқ қилади. Билим – бу илмий мутолаалар натижасидир, қобилият эса инсоннинг психологик ва физиологик тузилишига хос бўлган хусусиятдир. Қобилият билим олиш учун зарурий шарт-шароит яратади, шу билан бирга, у маълум даражада билим олиш маҳсулидир. Умумий ва махсус билимларни ўзлаштириш, шунингдек, касбий маҳоратни эгаллаш жараёнида қобилият мукаммаллашиб ва ривожланиб боради.

Таъкидлаш лозимки, қобилият ўзининг мавжудлиги билан динамик тушунчадир. Қобилият фақат ҳаракатда, фақат ривожланишда пайдо бўлади. Психологик жиҳатдан қобилият ҳақида, ўзининг ривожланишдан олдин мавжуд бўлганлигидек ҳамда қобилият ўзининг тўла ривожига етиб, ўзининг ривожланиши тўхташи ҳақида сўзлаш асло мумкин эмас. Чунки қобилият доимий ривожланишда бўлиши керак.

Ўқитувчининг педагогик қобилияти тушунчасининг моҳиятли тавсифи қуйидаги жиҳатларда ўз аксини топган:

а) педагогик қобилият – касбий билим, кўникма ва малакаларнинг ўқитувчи томонидан мукаммал эгалланиши;

б) педагогик қобилият – педагогик фаолиятни муваффақиятли амалга оширилишига ёрдам берувчи ўқитувчининг касбий хусусиятлари мажмуаси;

в) педагогик қобилият – ўқитувчи педагогик фаолиятининг мукаммал ва энг олий даражаси;

г) педагогик қобилият – ўқитувчининг касбкорликка йўналтирилган муҳим сезгирлик ҳислатлари мажмуи;

д) педагогик қобилият – таълим бериш жараёнида замонавий ахборот технологиялари ва техник воситаларни, ўқитишнинг турли методларини ўқитувчи томонидан ўзлаштирилиши, танлаб олиниши ва қўллай олиш лаёқати;

е) педагогик қобилият – педагогик ва методик билимларнинг барча тармоқларига кириб келаётган интеграция ва модернизацияни тез ўзлаштирилиши ва унга мослашиб педагогик фаолият олиб бориш;

ж) педагогик қобилият – ўқитувчи касбий фаолиятининг ҳозирги замон талаблари даражасида бошқарилишини таъминлайдиган, таълим ва тарбияда мувозанатни педагогик ва психологик жиҳатдан бир маромда сақлаб, тартибга солувчи жараён [2].

Мазкур таърифлардан келиб чиқиб айтиш мумкинки, барча ҳолатларда ҳам муаллифларнинг бу борадаги мулоҳазаларини ижобий ёки салбий тоифага киритиш мумкин эмас, зеро – педагогик қобилият тушунчасига нисбатан берилган таърифлар ўз даврига монанд даражада ифодаланган. Таъкидлаш лозимки, кўпгина тадқиқотчилар педагогик қобилият деганда педагогик фаолиятни муваффақиятли амалга оширилишига ёрдам берувчи шахс хусусиятларини умумий мажмуини тушунадилар.

Йирик олим Ф.Н.Гоноболин педагогик қобилиятларни қуйидаги турларга ажратишни таклиф этади: 1) дидактик қобилиятлар; 2) академик қобилиятлар; 3) перцептив қобилиятлар; 4) нутқ қобилиятлари; 5) ташкилотчилик қобилияти; 6) авторитар қобилиятлар; 7) коммуникатив қобилиятлар; 8) педагогик хаёлот; 9) диққатни тақсимлай олиш қобилияти [3].

Педагог олим И.П.Подласий педагогик қобилиятнинг тузилишини қуйидаги тарзда аниқлаштирган:

1) ташкилотчилик – таълим олувчиларни жипслаштириш, уларнинг фаолиятини режалаштириш, жамоавий ишга жалб этиш, якунларини чиқариш;

2) диагностик –ўқув материалини танлай олиш, ўқув материалини тушунарли, аниқ, образли, ишончли ва тизимли баён эта олиш; талабаларнинг билишга қизиқишлари ва интеллектини ривожлантиришни рағбатлаш, ўқув-билув фаоллигини ошириш ҳамда танқидий фикрлашни ривожлантириш ва ижодкорликка қобилиятлилик;

3) перцептив – таълим олувчиларнинг ички оламига таъсир кўрсатиш; уларнинг эмотсионал ҳолатини холис баҳолаш, психикасидаги ўзига хосликларни аниқлай олиш кўникмаси;

4) коммуникатив – таълим олувчилар ва жамоа билан педагогик мақсадга қаратилган муносабатни ўрната олиш кўникмаси;

5) суггестив (суггестия – ишонтириш) – талабаларга эмоционал таъсир кўрсатиш;

6) тадқиқотчиликка доир – педагогик жараён ва вазиятларни англаш ҳамда объектив баҳолай олиш кўникмаси;

7) илмий-билишга доир – танланган ихтисосликка доир белгиланган ҳажмдаги илмий билимларни эгаллай олиш қобилияти;

8) гностик – объект, жараённи ва ўз фаолияти натижаларини тадқиқ этиш ҳамда олинган натижалар асосида уни корректсиялай олиш қобилияти [4].

Хориж психологиясида карьера психологияси (psychology of career) ёки карьерани ривожлантириш (career development) доирасида ўқитувчининг педагогик қобилиятини ривожлантириш концепциялари ишлаб чиқилган. Машҳур карьера назариялари орасида

психодинамик, ривожлантирувчи истиқбол, шахсий сифат, ижтимоий таълимот кабиларни ажратиб кўрсатиш мумкин.

Шундай қилиб биз, педагогик қобилиятларни фаолиятда намоён бўладиган ва уни муваффақиятли амалга оширишда ўз аксини топадиган индивидуал-психологик хусусияти, деган хулосага келдик. Тадқиқот натижалари асосида олий таълим ўқитувчисининг умумий педагогик қобилиятининг қуйидаги тузилмаси аниқлаштирилди (1.2-расмга қаранг).



1.2-расм. Умумий педагогик қобилиятлар тузилмаси

Хулоса қилиб айтганда, педагогик қобилият муаммосини назарий ва экспериментал ўрганишда комплекс ёндашув масаласига етарлича эътибор қаратилмаган. Яхлит, мажмуавий ёндашишга нисбатан талабларни тизимнинг таркибий қисмлари ёки элементлари кўламини ошириш жараёни билан фарқламаслик кўзга ташланади. Ваҳоланки, педагогик қобилият тушунчаси моҳиятини аниқлаштириш учун муҳим ҳисобланган мажмуавий ёндашувсиз, яъни назария ва амалиётда аниқ бир тизимга бирлаштирилмаган омилларга тегишли бўлган кенг кўламли маълумотларни тўплаш асосида аниқ ечимга келиб бўлмайди. Бу эса, компетенциявий ёндашув асосида педагогик қобилиятлар комплексини такомиллаштиришни тақозо этади.

REFERENCES

1. Давлетшин М.Г. Қобилият ва унинг диагностикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1997. – 134 б.
2. Халиков А.А. Педагогик маҳорат. Дарслик. – Т.: Иқтисод молия, 2012.– 424 б.
3. Гоноболин Ф.Н. О некоторых психических качествах личности учителя // Ж. Вопросы психологии. – 1995. - №1. – С.100-111.
4. Подласый В.П. Педагогика. Учебник. – М.: Высшее образование, 2006. –540 с.

ҚАДИМГИ ТУРКИЙ ЁЗМА ЁДГОРЛИКЛАР МАДАНИЙ МУҲИТ ЯРАТИШ МАНБАИ СИФАТИДА

Насимхон Раҳмонов
Филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети
Тел.: 97 711 94 08 (mobil)

https://doi.org/10.5281/zenodo.7926342

Аннотация. *В статье речь идёт об отношении к древнетюркской литературе, как к духовно-культурному явлению. Выдвигаются взгляды о том, что школьные учебники должны стать главным фактором создания культурной среды не только для учащихся школ, но и для всего молодого поколения. Опираясь на письменную литературу, которая появилась на основе манихейского и буддийского течений в начале второго тысячилетия, автор высказывает свою точку зрения относительно данного вопроса. Далее, уделено особое внимание на сущность, принципы и идеи, ставшие основой существования человечества в здоровой духовной среде и относящиеся к обоим духовным течениям. Раскрывается основная сущность таких письменных памятников, как “Хуастуанифт” (Поклонение манихейцев), “Алтун яруг” (Золотой блеск). Они олицетворяют идеи скромности, духовной бдительности и непоколебимости в вере манихеизму и буддизму. Также даются ответы на важные вопросы, к примеру: почему необходимо внедрить в учебники и учебные пособия идеи о формировании праведного поколения письменных памятников. Автор подробно останавливается на задачах о создании древнетюркской культуры у молодого поколения.*

Ключевые слова*: дидактическое содержание, древнетюркская литература, манихеизм, буддизм, благодеяние, свет, зароостризм, духовно- культурная среда.*

Қадимги туркий ёзма ёдгорликларнинг дидактик мазмунини узлуксиз таълим жараёнига сингдириш йўллари ҳақида айрим ўзбек олимлари амалиётда баъзи ишларни амалга оширганлар. Хусусан,10 синф мактаб “Адабиёт”дарсликларидан қадимги туркий ёдгорликлардан “Тўнюқуқ” битигтоши ўрин олган. Албатта бу ёдгорликнинг дарсликка киритилгани ниҳоятда ўринлидир.

Қадимги туркий ёдгорликлар ёки қадимги туркий адабиёт бугунги кунда жаҳон туркологиясининг муҳим объектларидан бири бўлиб келмоқда. Бунинг сабаби фақат қадимиятга алоқадорлиги билан эмас, балки бу ёзма ёдгорликларнинг мазмун-моҳияти, туркий халқларнинг бадиий тафаккури маҳсули бўлгани учун ҳам дунё аҳлини ҳайратга солиб келмоқда. Қадимги туркий ёзма ёдгорликлар фақат Марказий Осиёнинг турли ҳудудларидан, жумладан, Ўзбекистон ҳудудидан ҳам топилган маданий обидалардир.

Шуниси ҳам борки, кўп ҳолларда қадимги туркий ёдгорликлардаги ғояларни, дидактик мазмунни ёш авлодга етказишда ва сингдиришда янги топилган обидаларга кам мурожаат этилади. Йўлни ниҳоятда тор олиб, исломгача яратилган ёзма ёдгорликларнинг умуминсоний ғояларга, инсониятни солиҳликка, ҳалолликка, камтарона яшашга даъват қилувчи ақидаларга беписандлик билан қараш ҳам ёш авлодни кенг қамровли маданий муҳитга олиб киришга ҳалақит бераётгани аён ҳақиқат. Жумладан, милоднинг бошларидан эътиборан Туронзаминда амалда бўлган буддавийлик, монийлик оқимлари ғояларини ўзида ифода этган ёзма ёдгорликларни ёш авлодга, қолаверса, кенг жамоатчиликка етказиш бугунги таълим тизимининг муҳим вазифаларидан бири бўлиши керак, бизнингча. Зотан

маданий муҳитни пайдо қилишнинг муҳим омиллардан бири ёзма адабиёт ва уларда илгари сурилган ғоялар, ақидалардир. Қолаверса, қадимги туркий ёдгорликлар юқорида биз айтиб ўтган “Тўнюқуқ” битигтошидангина иборат эмас. Шу ёдгорлик қаторида монийлик ва будавийлик шеърлари, афсона ва ривоятлар ҳам борки, улар ўқувчиларнинг дидини ва савиясини ўстиришга, маънавий-маданий муҳитга олиб киришга хизмат қилади. Жумладан, VIII асрга яшаб ўтган шоир Апринчур тигиннинг икки шеърини, “Олтин ёруғ” асари таркибидаги афсоналардан [1, 43] танлаб олиб Адабиёт дарсликларига киритилса, мақсажга мувофиқ бўларди.

Монийлик оқими қадимги туркий маданий муҳитдаги алоҳида, ўзига хос бўлган маънавий ва фалсафий жараённинг маҳсулидир. Монийлик оқимининг асосчиси – Моний ибн Фатакдир [2,76]. Моний ёшлигида кўп саёҳат қилди: Ўрта Осиёда, Ҳиндистонда узоқ вақт яшаб, бу ўлкалардаги маҳаллий динлар, жумладан, брахманизм, буддавийлик ва насронийлик оқимларини чуқур ўрганди. Айниқса, Ўрта Осиё ва Эрон ҳудудида мустаҳкам илдиз отган зардуштийлик Монийнинг эътиборини кўпроқ жалб қилди. Шу сабабдан ўзи яратишни мақсад қилиб қўйган таълимот учун зардуштийликка таянди. Жумладан, зардуштийликда ҳам, монийликда ҳам оламнинг пайдо бўлиши ва тузилиши ҳақидаги таълимот бир асосга таянади. Бу – Хурмуздда мужассамлашган Эзгулик ва Нурга, Ахриман (монийликда Шмну)да мужассамлашган Зулмат ва Ёвузликдир.

Зардуштийликда синовдан ўтган ва инсоният ҳаётининг асосий мазмунига айланган икки қарама-қарши руҳий кучлар ўртасидаги кураш монийлик оқимида янада очиқроқ намоён бўлди. Моний тарихда биринчи бўлиб, Марказий Осиёда ўзигача яратилган бошқа диний оқимлардан фарқли ўлароқ, ҳаётга яқин ғояларни ўзида мужассамлантирган, кенг қамровли диний тизимни яратишга ҳаракат қилди.. Моний таълимоти янги, такрорланмас ёзма адабиётни пайдо қилди. Қолаверса, туркий халқлар яшаган заминдаги кенг оммага тўлиқ маълум бўлмаган, етиб бормаган шундай ёзма манбалар борки, бу ёзма манбаларнинг туркий халқлар адабиёти тарихида тутган ўрнини белгиламасдан туриб, қадимги туркий халқларнинг маълум тарихий босқичдаги маданий, ижтимоий-сиёсий мавқеини рўй-рост белгилаб бўлмайди. Милоднинг бошларидаги давр мафкураси, жамиятдаги маънавий бўшлиқ айнан шу асарлар орқали тўлдирилди. Жамиятга комил инсонни етказиб беришдай масъулиятли вазифани монийлик оқими ва бу оқимдаги адабиёт бажарди. Шу боисдан монийлик оқимининг ва унинг таъсирида ёзма адабиётнинг пайдо бўлиши тасодиф эмас, балки зарурат бўлган эди. Монийлик оқимидаги адабий ёдгорликнинг бизга етиб келган намунаси “Хуастуанифт” (Монийларнинг тавбаномаси) ва бир қатор монийлик шеърларидир[3, 80].

“Хуастуанифт”даги шайтону арвоҳларга Худойим деб сажда қилганлар оғир гуноҳга ботганларини, жамики жонзотларга, инсониятга жисмоний ва маънавий азоб бериш ҳам оғир гуноҳ экани ҳақидаги ўгитлар бугунги кунла ҳам керак. Зотан, биродаркушликнинг олдини олиш, ўзаро низоларни тинчи йўл билан бартараф қилишда мазкур диний оқимдаги ақидалар ёрдам бериши шубҳасиз. Ёки шу ёзма обиданинг 11-бобида кўтарилган ёмон хулқли инсонларни тўғри йўлга солиш, исрофгарчиликнинг қораланиши ҳақида ўгитлар ҳам бугун ҳам катта ижтимоий аҳамиятга эгадир. Ёш

авлодга ана шу ўгитларни сингдириш жамиятни соғломлаштиришга ва авлодларда руҳий собитликни уйғотишга хизмат қилиши шубҳасиздир.

Қадимги турклар яратган бугунги авлоднинг маънавий жиҳатдан юксалишига ва маънавий маданияти шаклланишига хизмат қиладиган яна бир асар “Олтун ёруғ”дир. Бу ёзма ёдгорлик милодий 1Х аср охири- Х аср бошларида санскрит тилидан қадимги туркчага эркин таржима қилинган. Бу ёзма ёдгорликнинг аҳамияти шундаки, авлодларнинг ўтмишга муҳаббат ва ҳурмат руҳида тарбиялашга бу асар ката хизмат қилиши шубҳасиз. Биз бу обидани 2009- 2013 йилларда қадимги туркчадан ҳозирги ўзбекчага табдил қилиб иккита китоб ҳолида чоп эттирган эдик[4]. Бу асарда ўз даврида кўтарилган ғоялар буддавийлик асосида шакллантирилган бўлиб, қадимги турклар маданий ҳаётида катта рол ўйнаган эди. Жумладан, “Олтун ёруғ”даги амаллар шундан иборат эдики, инсонлар қилган гуноҳларини эътироф этиб тавба қилишлари лозим. Зотан, инсонлар ёвуз, ёмон қонунларга эргашиб, ҳатто дўзахга ҳам тазйиқ ўтказган, ғазабнок бўлиб, нафрат ва нодонлиги туфайли жонзотларга зулм қилган, яхши–ёмон ишларни ажрата олмай, тана хоҳиши билан иш қилиб жонзотларга жабр қилган, тилига эрк бериб, кўнглида ёмон ишларни келтириб гуноҳ қилган, ёмон ният билан бурхоннинг танасидан қон чиқарган, тўғри, ҳақиқий нўмдан нафратланган, нўмдан нафратланиб, ундан юз ўгирган, соф ниятли руҳонийлар орасида иғво қўзғаб, жанжал чиқарган, ҳатто ота–онасини йўқ қилдирган, гуноҳу айбларни фақат ўзи қилиб қолмай, бошқаларни ҳам шундай ярамас ишларга ундаган ва ўзи бу қилмишларидан хурсанд бўлган, пок одамларга иллату гуноҳларни тўнкаган, ёмонни яхши деб мақтаб, яхшини ёмон деб қўллаб–қувватлаб, у нуқсонлидир, у шайтондир, деб ҳукм чиқарган.

Хуллас, дунёда нимаики иллатлар бўлса, инсоният шуларнинг ҳаммаси ижрочиси. Шунчалик қабоҳатга ботган инсониятнинг гуноҳлари учун афв сўраб, Хўрмузд бурхон олдида воситачи бўлади, гўё Мусо пайғамбар барча Исроил халқининг гуноҳлари учун афв сўраб Худога илтижо қилгандай. Шундай қилиб, Хўрмузд катта ижтимоий вазифа бажаради – бурхондан инсоният учун бахт сўрайди, инсониятни тўғри йўлга солишдан, яхшилик илдизини мустаҳкам қадашдан иборат вазифани амалга оширишни бурхондан илтимос қилади ва жамиятни соғлом қилиш учун курашади.

Зерван, Хўрмузд, уларнинг атрофига йиғилган барча тангрилар инсониятнинг халоскори, муҳофаза этувчиси бўлиш билан бирга, “олтун нур”ни – буддавийлик ақидаларни ёювчилардир. Бу нурга итоат этиб, унинг йўл–йўриғидан юрадиган юртнинг подшоҳи “биринчидан, соғ–саломат, хавф–хатарсиз бўлади, иккинчидан, умри узун бўлади, учинчидан, лашкарининг куч–қудрати ошиб кўпаяди, душманлари бўлмайди, тўртинчидан, эл–улус шод–хуррам, тўғри, қонун–қоида бўйича яшайди” (111, 33 а,б).

Бу ваъда эмас, балки амалга ошиши мумкин бўлган ҳақиқатдир. Қолаверса, ҳақиқат фақат шундан иборат эмас. Бурхоннинг ўгитлари, Зерванга, Хўрмуздга ва тангрилар орқали берган ўгити юртни, инсонларни маънавий томондан соғлом қилади, молпарастлик иллатидан халос қилади, иллатлардан халос бўлишнинг маҳсули сифатида инсонлар бир–бирларига меҳр–оқибатли бўладилар. Ҳукмдорга ўзининг халқи, атрофдаги душманлар ҳам совға–салом келтириб дўст тутинадиган бўладилар, бунинг натижаси ўлароқ шон–шуҳратга эришадилар, ўзлигини намоён қиладилар, ҳамманинг иззат–ҳурматига сазовор бўладилар. Подшоҳдан тортиб халқигача узоқ умр кўрадилар, тинч–омон яшайдилар (111 35 а,б – 36 а,б).

“Олтун ёруғ”дан олинган мана шу ўгитларнинг туб мағзида инсонлар ўртасидаги маънавий-маданий муҳитни соғломлаштириш, она юртини кўз қорачиғидай асраш, ҳукмдорлар билан халқ ўртасида мувофиқатни пайдо қилиш каби вазифаларни бугунги кунда авлодлар онгига сингдиришдай катта мақсадлар қўйилган, айниқса, ёш авлодга бу ўгитлар етказилганда, таълим ва маънавий-маданий муҳитнинг ўзаро уйғунлиги катта натижалар бериши шубҳасиздир. Адабиёт ҳар доим - ибтидосидан бошлаб бу жараёнга ҳамроҳ бўлиб келгани ва бугунги кунда ҳам бунга зарурат борлигини ёдимизда тутишимиз керак. Бунинг учун Адабиёт дарсликларида номоддий маданиятнинг моҳияти узлуксиз давом этиши керак деб ўйлайман.

Қисқача қилиб айтганда, қадимги туркий ёзма ёлгорликларлаги умуминсоний ғояларни ва ўгитларни адабиёт дарсликларига сингдириш бугунги кунда долзарб масалалардан бўлиб қолиши керак.

REFERENCES

1. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари. Тузувчилар филология фанлари докторлари, профессорлар Н. Раҳмонов, Ҳ.Болтабоев, 1 жилд, Тошкент, Фан. 2003.
2. Раҳмонов Н. Ўзбек адабиёти тарихи. Том 1, ССК, Алмати, 2021.
3. Раҳмонов Н. Ўзбек адабиёти тарихи. Том 1, ССК, Алмати, 2021.
4. Олтун ёруғ. 1 китоб. Сўз боши, изоҳлар, қадимги туркийдан ҳозирги ўзбек тилига табдил муаллифи Н. Раҳмон, Фан, 2009; Олтун ёруғ. 2 китоб. Сўз боши, изоҳлар, қадимги туркийдан ҳозирги ўзбек тилига табдил муаллифи Н. Раҳмонов, Фан, 2013.

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA MADANIY MUHIT YORDAMIDA O‘QUVCHILARNI MA’NAVIY-AXLOQIY JIHATDAN RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Safarova Roxat Gaybillaevna

Pedagogika fanlari doktori, professor, Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti “Uzluksiz ta’lim pedagogikasi va psixologiyasi” bo‘limi boshlig‘i

https://doi.org/10.5281/zenodo.7927164

Annotatsiya. *Umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi madaniy-ta’limiy muhit sub’ektlari orasidagi o‘zaro munosabatlar pedagogik jarayon sifatida o‘quvchilarning madaniy, ma’naviy-axloqiy rivojlanishlari uchun qulay sharoit yaratadi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi madaniy-ta’limiy muhitga nisbatan sub’ektiv yondashuv o‘qituvchilarning shaxsiy-madaniy tajribasiga bevosita bog‘liq. O‘quvchilarning ehtiyojlari, qiziqishlaridan kelib chiqqan holda madaniy-ta’limiy muhitda ular bilan ishlash usullari, vositalari, metodlari, texnologiyalari, shakllari va prinsiplari o‘qituvchi tomonidan tanlanadi.*

Kalit so’zlar: *umumiy o’rta ta’lim, madaniy muhit, madaniyat, ahloq, rivojlantirish.*

Bunda o‘quvchilarning ijtimoiy-madaniy, diniy, milliy, yosh xususiyatlari bilan bog‘liq o‘ziga xosliklari alohida hisobga olinadi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi madaniy-ta’limiy muhit ta’lim muassasasi hayotidagi o‘ziga xos jihatlarni namoyon etadi. O‘quv jarayonining barcha tarkibiy qismlari bilan birgalikda o‘quvchilarning quvvatlari, ruhiy imkoniyatlari maktab hayotiga xos bo‘lgan madaniy muhitni yaratishga ko‘maklashadi. Natijada ta’lim muassassasi o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy jixatdan rivojlantiruvchi madaniy jarayonga aylanadi.

Ta’lim muassasasining muvaffaqiyati jarayon sub’ektlarining shaxsiy qiziqishlari va manfaatlarini o‘zida mujassamlashtirida. Bunda o‘quvchizlar ota-onalar va o‘qituvchilarning manfaatlari uyg‘unlashadi va yagona maqsad sari yo‘naltiriladi. Ta’lim muassasasida o‘quvchilarning muvaffaqiyatlari boshqa barcha ko‘rsatgichlar bilan uyg‘unlashadi va madaniy ta’limiy muhitning samarali kechishiga ko‘maklashadi. buning natijasida o‘quvchiarni har tomonlama uyg‘un rivojlantirish imkoniyati vujudga keladi. Yuqori darajada tashkil etilgan madaniy ta’limiy muhitda har bir o‘quvchining yutuqqa erishishi kafolatlanadi. Buning uchun o‘quvchilar qulay tarzda uyg‘unlashtirilgan integrativ xarakterdagi o‘quv topshiriqlarini yechish layoqtiga ega bo‘lishlrai lozim. Jumladan:

maktabdagi madaniy-ta’limiy jarayonda asosiy hamda qo‘shimcha ta’lim uchun qulay sharoitning yaratilishi;

o‘quv faoliyatining turli-tuman xarakter va shaklga ega bo‘lishi;

kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta’lim standartlari va o‘quvchilarning individual layoqatlarining muvofiqlashuvi;

o‘quvchilar o‘quv faoliyatining hissiy-emotsional hamda psixologik jihatdan qulayligi va o‘quv faoliyati jadalligining ta’minlanganligi kabilar.

Madaniy-ta’limiy muhitning o‘quvchilar uchun jozibador bo‘lishi uning uzluksizligini ta’minlash orqali vujudga keladi. Uzluksiz madaniy rivojlanish jarayonida urf-odatlar va an’analarga sadoqat ruhida o‘quvchilarni tarbiyalash ustuvor o‘rin egallashi lozim. umumiy o‘rta ta’lim muassasasida yaratilgan madaniy-ta’limiy muhit pedagogik jarayonning barcha ishtirokchilar uchun qulay va jozibador bo‘lishiga erishish muhim ahamiyatga ega. Mazkur muhitning asosini istiqbolga yo‘naltirilganlik, tayanch kompetensiyalarni shakllantirishga

ustuvorlik berish, ijodkorlik uchun qulay sharoitlar yaratish, o‘yin faoliyatini amalga oshirish, madaniy rivojlanish imkoniyatiga ega bo‘lish kabi prinsiplar tashkil etadi.

Bunday ta’limiy muhitning asosiy maqsadi o‘quvchilarning madaniy-ma’naviy, axloqiy, huquqiy rivojlanishlari uchun qulay muhit yaratishdan iborat. Mazkur muhitda o‘quvchilar bilimlarni egallashga astoydil intiladilar va sifatli ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shuningdek har bir o‘qituvchining o‘z pedagogik mahoratini namoyon qilishi uchun qulay imkoniyat yuzaga keladi. Natijada bunday ta’limiy muhitda har bir o‘quvchininng madaniy jihatdan rivojlanishi bilan bir qatorda sinf jamoasidagi barcha o‘quvchilarning hamkorlikda ishlashi va madaniy-axloqiy, ma’naviy jihatdan rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlar yaratiladi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi madaniy-ta’limiy muhit yagona kompleks xarakterdagi ta’limiy jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Madaniy-ta’limiy muhitning barcha tarkibiy qismlari muayyan-mantiqiy asosga ega bo‘lgan pedagogik jarayon sifatida maktab jamoasi tomonidan loyihalashtiriladi. Umummiy o‘rta ta’lim maktablaridagi madaniy-ta’limiy muhit uchun tanlangan strategiyalarning muvaffaqiyatli tadbiq etilishi kundalik pedagogik amaliyotda quyidagi prinsiplarga amal qilish zarurligini ko‘rsatmoqda:

- an’analarning uzvuyligi va aloqadorligini ta’minlash prinsipi;
- o‘quvchilarning madaniy-ta’limiy faoliyatining rivojlanishiga erishish prinsipi;
- o‘quvchilarning layoqatlari qiziqishlxari, moyilliklarini hisobga olgan holda madaniy muhitni kengaytirish pirnsipi;
- ta’limning bir bosqichidan ikiinchisiga o‘tishda o‘quvchilarning shaxsiy, ta’limiy faoliyati ko‘lamini mustaqil tanlashlrini ta’minlash prinsipi;
- o‘quvchi va o‘qituvchilarni madaniy-ta’limiy muhitga olib kirish prinsipi;
- har bir o‘quvchining o‘z nuqtai nazarini aniqlash va namoyon etishda tengligini ta’minlash prinsipi;
- o‘quv jarayoni bilan bir qatordamaktabdagi madaniy hordiq chiqarish jarayonlarini takomillashtirishga erishish prinsipi;
- madaniy ta’limiy muhitda sub’ektlarning o‘z-o‘zlarini namoyon qilishlarida teng huquqlilikni ta’minlash prinsipi;
- madaniy-ta’limiy jarayonda o‘quv maqsadlari, vositalari, usullari, metodlari va texnologiyalari uzviyligining ta’minlanganligi prinsipi;
- har bir o‘qituvchi va o‘quvchiga uchun ta’limiy vositalarning qulayligi ta’minlanganligi prinsipi;
- madaniy-ta’limiy jarayonda reproduktiv topshiriqlarning maksimal darajada kamaytirilganligi prinsipi;
- dars va sinfdan tashqari tadbirlar jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlari samaradorligining ta’minlanganligi prinsipi;
- o‘quv faoliyatining barcha bosqichlarida o‘quvchilarning o‘zlashtirish va rivojlanish darajalari ob’ektivligining ta’minlanganlini prinsipi.

Ushbu prinsiplarga amal qilish natijasida ta’lim jarayonida madaniy-ta’limiy muhitda hisobga olish zarur bo‘lgan shartlar bajariladi. Aniq madaniy-ta’limiy jaryonda uzluksiz rivojlanish g‘oyasi o‘quvchilarning madaniy rivojlanish va o‘qib-o‘rganish motivlarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. maktabdagi madaniy-ta’limiy muhitda xalqning madaniy boyliklarini o‘zlashtirish g‘oyasini amaliyotga tadbiq etish talab qilinmoqda. Har bir o‘quvchining o‘ziga xos rivojlanish darajasi mavjud.

Umumiy o‘rta ta’lim maktabining asosiy funksiyalaridan biri har bir o‘quvchining o‘ziga xos jihatlarini aniq va ravshan ochib berishdan iborat. Mazkur jarayonda o‘quvchilarni madaniy-axloqiy jihatdan rivojlantirib, ularda fidoyilik, pozitiv dunyoqarashga ega bo‘lish, o‘z-o‘zini va o‘zgalarni hurmat qilish, bunyodkorlikka intilish kabi sifatloarni tarkib toptirish talab etiladi. Har bir o‘quvchining o‘ziga xosligi uning rivojlanish yo‘nalishini belgilaydi. Bu esa o‘z navbatida umumiy o‘rta ta’lim muassasasida o‘zining faoliyat yo‘nalishini aniqlab olish imkoniyatini yaratadi. O‘quvchilar o‘z faoliyatlari natijalarini aniq tasavvur qilib, baholash ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Natijada ularda o‘z kuchiga ishonch, yangi yutuqlarga erishishga intilish motivlari shakllanadi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablaridan madaniy-ta’limiy muhitning shakllantirilishi pedagoglar va o‘quvchilardan vaqt, kuch va sabr-toqatni talab qiladi. Bunda o‘zaro bir-birini rivojlantiruvchi munosabatlar o‘quvchilar bilan o‘qituvchilar orasida vujudgv keladi. Shu bilan biri qatorda o‘quvchilar bilan o‘qituvchilar, o‘qituvchilar bilan ota-onalar, o‘quvchilar bilan mikrosotsiumning boshqa vakillari orasida ham madaniy-ta’limiy munosabatlar shakllanadi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida madaniy-ta’limiy muhitning shakllanishiga quyidagilar asos bo‘la oladi:

1. O‘quvchi shaxsining o‘zligini namoyon qilish g‘oyasi ta’lim muassasasining madaniy-ta’limiy muhitida amalga oshadi.

2. Yaxlit, ochiq xarakterdagi, o‘z-o‘zin rivojlantiruvchi muhitni yaratish g‘oyasi ta’lim muassasasining sub’ektlarini o‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltiruvchi madaniy-ta’limiy muhitida amalga oshadi.

3. Ta’lim jarayoninn yangilash g‘oyasi esa pedagogik amaliyotda uning asosiy tarkibiy qismlarini modernizatsiyalash natijasida amalga oshiriladi. Ushbu qismlar ta’lim mazmuni, usullari, vositalari, shakl, metod va texnologiyalardan iborat.

4. Ta’lim jarayonininng barcha ishtirokchilarini madaniy-ta’limiy muhitga yo‘nltirish g‘oyasi esa jarayonning barcha ishtirokchilarini qo‘llab-quvvatlash va yo‘naltirish orqali ta’minlanadi.

5. O‘qituvchining kasbiy mahorati va kompetensiyalarini rivojlantirish g‘oyasi madaniy-ta’limiy muhitning yetakchi masalalaridan biri hisoblanadi.

6. Ta’lim muassasasida o‘quvchilarning salomatligini muhofaza qilish g‘oyasi madaniy-ta’limiy muhitning tarkibiy qismiga aylantirilishi taqozo qilinmoqda.

Madaniy-ta’limiy muhitning barcha a’zolari o‘z imkoniyatlarini namoyon qilish funksiyasini amalga oshirishlari zarur. Biz o‘quvchilar, ularning ota-onalari va pedagoglarning ta’lim muassasasidagi madaniy-ta’limiy muhitga bevosita ta’sir ko‘rsatishlari zarurligi haqidagi g‘oyani qo‘lab-quvvatlaymiz va tadbiq etishga harakat qilamiz. Buning uchun madaniy-ta’limiy muhitning barcha sub’ektlari orasida hamkorlikdagi faoliyat amalga oshirilishi zarurligini ta’kidlaymiz.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4038-son Qarorining mazmun, mohiyati.
2. Krilova N. B. Kulturologiya obrazovaniya // Novie sennosti obrazovaniya. M. : Narodnoe obrazovanie, 2000. Sb. №10. 272 s.

3. Krylova N. B. Kul'turologiya obrazovaniya // Novye tsennosti obrazovaniya. M. : Narodnoe obrazovanie, 2000. Sb. №10. 272 s.
4. Malikova D.M. Theoretical Approaches of Scientists to Dynamic Game Technologies. Procedia of Philosophical and Pedagogical Science. Volume-2 | Issue-2 Available online @https://procedia.online/index.php/philosophy.
5. Safarova Roxat Gaybillaevna. CULTURAL APPROACH AS A PRIORITY DIRECTION OF THE EDUCATIONAL SYSTEM OF UZBEKISTAN. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *10*(6), 1000–1004. Retrieved from https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/2289

БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРНИ КОНФЛИКТОГЕН ҲОЛАТЛАРГА НИСБАТАН КЎНИКМАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

Халиков Аъзам Абдусаломович
Низомий номидаги ТДПУ профессори, педагогика фанлари доктори

https://doi.org/10.5281/zenodo.7931010

Аннотация. *Таълим жараёнида ўқитувчининг конфликтологик вазиятларда ўзини бошқара олиши, конфликтларни бартараф этиши, кутилмаганда содир бўладиган зиддиятларни олдиндан кўра олиши, муносабатларни адолатли ҳал этишини белгилайдиган функциялардан моҳирона унумли фойдаланиш маданияти яхши натижаларга эришишга йўналтирилади.*

Калит сўзлар: *функция, конфликтология, конфликт, педагогик жараён, манфаатлар, зиддиятлар ечими, компромиссга келиш*

Бугунги кунга келиб, конфликтларни ҳал қилиш қобилиятини, самарали хулқ-атвор кўникмаларини ривожлантириш, конфликтли вазиятда ҳатти-ҳаракатлар стратегиясини ўргатиш билан боғлиқ ёндашувлар доираси кенгайиб бормоқда. Шубҳасиз конфликтологик муаммо педагог олимларнинг етакчи илмий – тадқиқот ишига айланиб бормоқда.

Ижтимоий-психологик ёндашувнинг бир қисми сифатида конфликтларни ҳал қилиш кўникмаларини ўргатиш учун ўқув дастурлари ишлаб чиқилган, конфликтларнинг олдини олиш ёки тугатиш бўйича кўплаб тавсиялар мавжуд (асосан бошқарув лавозимида). Замонавий ишланмалар конфликтларни тартибга солиш ва бошқаришга қаратилган. Гарчи бу асарлар конфликтнинг ижобий функцияларини тушунишга асосланган бўлса-да, уларнинг мазмуни салбий тажрибаларни бартараф этиш ва конфликтларнинг ўзаро таъсирида "ғалаба" кўникмаларини эгаллаш сифатида қурилган [1].

Ўқитувчининг конфликтологик тайёргарлиги касбий конфликтларни идрок этиш ва кейинчалик касбий конфликтда касбий функцияларни амалга ошириш учун зарур бўлган махсус, касбий йўналтирилган конфликтологик билимларни ўзлаштириш ва улардан фойдаланиш билан тавсифланади. Шу билан бирга, ўқитувчининг касбий конфликтологик тайёргарлиги нафақат таълим муҳитидаги конфликтларни олдини олиш ва ҳал қилиш кўникмалари, балки талабалар ўртасида конфликтологик компетенцияни шакллантириш билан ҳам тавсифланади.

Конфликтологик тайёргарлик, якуний таҳлилда, Н.Э.Серебровская, томонидан қуйидагича шарҳланади:

- ташкилотнинг ҳолати (махсус касбий маданият ташхисланади; ахборот маданияти бойитилади);
- конфликт иштирокчилари ва конфликтдаги муаммони чуқурроқ билишга ёрдам беради (махсус касбий, психологик, ахборот ва услубий маданият объектлари кўрсатилган);
- ақлий зўриқишни заифлаштиради (психологик маданият функцияларини қўллаб-қувватлаш);
- муаммоларни ҳал қилишнинг турли стратегиялари тўқнашуви билан бирга келадиган интеллектуал ва ҳиссий таранглikни келтириб чиқаради (методик маданиятнинг фаоллашуви мавжуд);

- конфликт иштирокчиларининг бузғунчи қарама-қаршилигини олдини олади ва меҳнат жамоаси аъзоларини бирлаштиради (коммуникатив маданият функцияларини қўллаб-қувватлаш) [4].

Конфликтологик саводхонлик ва конфликтологик компетенцияни шакллантириш ўқитувчининг конфликтологик тайёргарлигининг асосини ташкил қилади. Шунга кўра, конфликтологик саводхонлик - конфликтологик тайёргарликнинг асосий даражаси бўлиб, кундалик интуитив ва оғзаки тажрибада, шахснинг мифологик онгида намоён бўлади, бу муаммо ва қарама-қаршиликларни улар асосидаги механизмларни яхши тушунмасдан конструктив ҳал қилиш имконини беради.

Мактаб конфликтларининг типологияси хилма-хил бўлиб, қуйидаги конфликт турлари билан ифодаланади: болалар ўртасида; бола, болалар - ўқитувчи; болалар - маъмурият; ўқитувчилар ўртасида; ўқитувчи - ота-оналар; ўқитувчи - маъмурият; ота-оналар ўртасида; ота-оналар - маъмурият [2].

Умумтаълим мактабларидаги конфликтларнинг асосий сабаблари сифатида қуйидагиларни ажратиб кўрсатиш мумкин:

- етакчилик учун кураш (болалар, ўқитувчилар, ота-оналар ўртасида);
- болаларни, ота-оналарни, ўқитувчиларни маъмурият томонидан камситиш ва бошқалар;
- болалар ва катталарнинг мактабдаги муваффақияти;
- мактаб ўқувчилари ва ўқитувчиларининг моддий имкониятлари;
- болалар муваффақиятини баҳолаш;
- педагогик тажриба, ўқитувчининг профессор-ўқитувчилар таркибидаги ўрни, ўқитиладиган фанларнинг аҳамияти;
- мактаб ҳаётини қатъий тартибга солиш, назорат қилиш шакллари;
- таълим муассасасининг таркибий ва функционал муаммолари;
- нотўғри бошқарув услуби;
- ахлоқий меъёрларни бузиш ва бошқалар [3].

Тадқиқотчилар (Л.М.Митина, М.М.Рибаков) педагогик фаолиятнинг кескин вазиятларига мурожаат қиладилар:

- синфда ўқитувчи ва талабалар ўртасидаги ўзаро муносабатлар ҳолатлари (интизом ва хулқ-атвор қоидаларини бузиш, кутилмаган конфликтли вазиятлар, итоатсизлик, ўқитувчининг талабларига эътибор бермаслик, "аҳмоқона" саволлар ва бошқалар);
- ҳамкасблар ва мактаб маъмурияти билан муносабатларда юзага келадиган вазиятлар (фикрларнинг кескин фарқлари, топшириқларни ортиқча юклаш, ўқув юкини тақсимлашдаги конфликтлар, ўқув ишларини ортиқча назорат қилиш, мактабда нотўғри ўйланган янгиликлар ва бошқалар);
- ўқитувчи ва талабаларнинг ота-оналари ўртасидаги ўзаро муносабатлар ҳолатлари (ўқитувчи ва ота-оналар томонидан ўқувчини баҳолашдаги фарқлар, ота-оналарнинг болаларни тарбиялаш жараёнига эътибор бермаслиги ва бошқалар). Стрессли омилларнинг салбий таъсири ўқитувчига икки томонлама стрессни келтириб чиқаради: ахборот стресси (ахборотнинг ҳаддан ташқари юкланиши, оқибатлари учун юқори даражада масъулият билан тез қарор қабул қилиш зарурати) ва ҳиссий стресс (ҳиссий стрессларнинг пайдо бўлиши, фаолият характеридаги ўзгаришлар, хатти-ҳаракатларнинг бузилиши) [2].

“Шахснинг конфликтологик маданияти” ва “мутахассиснинг конфликтологик маданияти” тушунчаларини фарқлаш керак.

Шахснинг конфликтологик маданияти инсоннинг ижтимоий конфликтларни олдини олиш ва ҳал қилиш истаги (эҳтиёж, хоҳиш) ва қобилиятидан иборат: шахслараро ва миллатлараро. Замонавий жамиятда ижтимоий конфликтни ҳал қилиш шахсни ижтимоийлаштиришнинг энг муҳим омилидир.

Мутахассиснинг конфликтологик маданияти касбий конфликтларни идрок этиш ва кейинчалик касбий конфликт шароитида касбий функцияларни амалга ошириш учун зарур бўлган махсус, касбий ёъналтирилган конфликтологик билимларни ўзлаштириш ва улардан фойдаланиш билан тавсифланади.

Конфликтологик маданиятнинг шаклланиши мутахассислар томонидан ҳам ҳар хил йўллар билан белгиланади шундай қилиб, М.М. Рыбакованинг фикрига кўра, конфликтологик маданият инсоннинг конфликтологик тайёргарлигининг энг юқори даражасидир. Конфликтологик тайёргарлик қуйидаги таркибий қисмлардан иборат:

- конфликтологик саводхонлик – конфликтларни таҳлил қилиш ва улар билан ишлаш механизмлари ва технологияларини билишда эмас, балки уларни интуитив тушунишда намоён бўладиган асосий даража сифатида, бу шахсга умуман конфликтларни конструктив равишда ҳал қилишга имкон беради;

- конфликтологик компетенция – конфликтологик тайёргарликнинг алоҳида даражаси сифатида, бу мутахассиснинг ўқиши давомида махсус шаклланган ва ишлаб чиқилган конфликт тўғрисида илмий ва амалий билимлар тизимини олишдан иборат [4].

Шунга кўра, конфликтологик маданият – бу шахснинг конфликтологик тайёргарлигининг энг юқори даражаси. У битта комплексга боғланган ва бир-бири билан чамбарчас боғлиқ бўлган турли хил таркибий қисмлардан ("маданиятлар") иборат. Ушбу комплекснинг элементларига қуйидагилар киради: фикрлаш маданияти, ҳис-туйғулар маданияти, коммуникатив маданият, қиймат-семантик соҳа маданияти, хулқ-атвор конфликтологик маданияти. Шунинг учун:

- фикрлаш маданияти конфликт ҳақидаги назарий ғояларга асосланади ва шахснинг конфликтни оқилона таҳлил қилиш, асосий ва иккиламчи нарсаларни ажратиб кўрсатиш, ўз хатти-ҳаракатларида олинган хулосалардан фойдаланиш имкониятидан иборат;

- туйғулар маданияти-бу ҳис-туйғулар билан ишлаш билан боғлиқ кўникмалар, биринчи навбатда ўзингизнинг: ҳис-туйғуларни тушуниш, салбий ҳис-туйғулар билан ишлаш қобилияти, ҳамдардлик кўрсатиш ва бошқалар;

- коммуникатив маданият – диалог, шериклик суҳбатини ўтказишга тайёрлик;

- хулқ-атвор конфликтологик маданияти – конфликт билан бевосита ишлаш қобилияти, яъни конфликтни ҳал қилиш, унинг авж олишига ёъл қўймаслик, конфликтни бошқариш.

Юқоридаги таърифларга асосланиб, биз конфликтологик маданият тушунчасини ажратиб кўрсатишимиз мумкин.

Конфликтологик маданият – бу шахснинг ижтимоий ҳаёти ва ижтимоий фаолияти маҳсули бўлиб, у умумий маданиятнинг маълум бир тури ва тизимига айланиб, шахснинг тавсифлаш, ўрганиш ва ишлашга тайёрлиги ва қобилиятида намоён бўлади. Ушбу ишда биз аксиологик ёндашув нуқтаи назаридан маданиятни тушунамиз.

Шахснинг конфликтологик маданияти модели маълум блоклардан иборат бўлиши керак, улар биргаликда конфликтологик маданиятнинг тузилишини ташкил қилади ва ўзига хос функциялар билан белгиланади:

Назарий-ахборот блоки конфликт ҳақидаги назарий фикрлардан иборат. Бу конфликт нима эканлиги, унинг конструктив ва бузғунчи функциялари, тузилиши, конфликт динамикаси ва бошқалар ҳақидаги билимларни ўз ичига олади.

Шундай қилиб, биз хулоса қилишимиз мумкин:

- конфликт деганда манфаатлар, эътиқодлар, қадриятлар ва бошқаларнинг онгли равишда фарқланиши билан тавсифланган ижтимоий ўзаро таъсир тури тушунилади;

- ушбу тадқиқотда мутахассиснинг конфликтологик маданияти конфликтларга мойил бўлган касбий муҳитда мутахассиснинг касбий ҳаётий фаолиятининг сифат тавсифи сифатида тушунилади;

Мутахассисларнинг маданий маданиятни турлича тушунишларига қарамай, конфликтнинг муқаррар, кундалик ва тез-тез содир бўладиган ҳодиса сифатида тан олиниши конфликтли вазиятларда ўзига хос хатти-ҳаракатлар нормалари ва қоидаларини, шахснинг конфликтологик онгини ривожлантириш муаммосини долзарблаштиради, конфликтларни башорат қилиш, олдини олиш, ҳал қилиш қобилияти “шахснинг конфликтологик маданияти” тушунчасида ягона ёндашувни ташкил қилади.

REFERENCES

1. Ибрагимов Х.И. Автогенная тренировка как средство самовоспитания. – М.: Педагогический вестник, 1996. – 115 с.
2. Журавлев В.И. Основы педагогической конфликтологии / Учебник. М.: Российское педагогическое агентство, 1995. – 184 с.
3. Каримова В., Бердиев Г. Муроса қилиш одоби ёки конфликтларни бартараф этиш мумкинми? – Т.: 2003. – 44 б.
4. Рыбакова М. М. Конфликт и взаимодействия в педагогическом процессе. – М.: Педагогика, 1991. – 168 с.

КОМПАРАТИВ ПЕДАГОГИКА: АМЕРИКА МАҲАЛЛА ВА ОИЛАЛАРИДА ИЖТИМОИЙ КОМПЕТЕНЦИЯЛАР ТАРБИЯСИГА БИР НАЗАР

Муҳаммаджон Қуронов
Т.Н.Қори Ниёзий номидаги Ўзбекистон педагогика фанлари илмий тадқиқот институти халқаро тадқиқотлар бўлими мудири, педагогика фанлари доктори, профессор
Kuranov_57@mail.ru

https://doi.org/10.5281/zenodo.7927401

Аннотация. *Ўзбекистон ва АҚШдаги Президент сайловларидан кейин мамлакатларимиз муносабатлари янги босқичга кўтарилди. 2018 йилда «Ўзбекистон ва Америка Қўшма Штатлари: стратегик шериклик янги даврининг бошланиши» номли Қўшма баёнот қабул қилинди. Бу олиймақом ҳужжат икки давлат раҳбари якдил ва қатъий иродасининг ифодаси бўлди.*

Калит сўзлар: *креатив педагогига, компетенция, тарбия, стратегия.*

Янги давр ўз номи билан янги давр. У ўзаро англашув, ҳурматнинг янги даражасини бошлаб берди. Инсонлар орасида бўлганидек, халқлар орасида ҳам янада яқинроқ бўлиш учун бир-бирини янада яхшироқ билиш, таниш керак. Бунинг энг яхши дебочаси – халқларимиз орасидаги ўхшаш, инсоний фазилатлар. Вашингтондаги қабул маросимида Президентимиз Шавкат Мирзиёев“... Гарчи мамлакатларимиз географик нуқтаи назардан бир-биридан олис бўлса-да, меҳнатсеварлик, бағрикенглик ва ватанпарварлик каби қадриятлар халқларимизни бирлаштириб туради”, деди. Икки халққа хос уч қадрият – **меҳнатсеварлик, бағрикенглик, ватанпарварлик** ҳурмат билан тилга тилга олинди. Ушбу тарихий нутқда тилган олинган уч фазилат, уч ижтимоий компетенциялар халқларни бир-бирига чуқурроқ, қайтадан англата, таништира бошлади.

Оддий америкалик ота оналар. Улар қандай қадриятларга ишониб, таяниб яшашмоқда? Уларни бизга ўхшатадиган меҳнатсеварлик, бағрикенглик ва ватанпарварликлари нималарда кўринади? Уларни нималар бирлаштиради? Президентимиз тилган олган бу уч фазилат оддий америкаликлар ҳаётида қандай ўрин тутган?

Меҳнатсеварлик

Тарихан маълум, америка қадриятлари янги ерга яхши ҳаёт умидида кўчиб келган, ўз қобилият ва матонатини ишга солиб, қийинчиликларни енгиб яшаган муҳожирларнинг орзуларидан бошланган. XIX асрда машҳур бўлган, фақат ўзига ва отига ишонувчи, барча хавфларга қарши тура олувчи мард, бирсўз, таваккалчи ковбой образи маълум. Ана шу “ковбой руҳи” билан “миллат оталари” раҳнамолигида курашиб, мустақилликка чиқишди. Ўрмонлар ўзлаштирилди, конлар топилди. Саноат гуриллаб, осмонўпар бинолар қурилди. Жаҳон урушларида, “совуқ уруш”да ғолиб чиқишди. Тинчликда халқ фаровонлигига эришишди. Тадбиркорлар бойиб, саноатни ривожлантириб, ишчи ўринларини яратиб, одамларнинг самарали меҳнатига, фаровон яшашига шароит яратиб беришди. Америкаликлар буни яхши биладилар ва “бойлар бировларнинг ҳисобига яшайдилар”, деб ҳисоблашмайди. Олимлар буларга оддий америкаликларнинг ўз бахти учун ғайратли кураши, қийинчиликлар олдида енгилмай, интилавериши ҳисобига эришилган, деб ҳисоблашади.

Ростдан шундайми? Манбаларга кўра: америкаликлар бир ҳафтада 38 соат ишлашади. Бу француз, немис, австралияликларга қараганда кўпроқ. Фақат корейслар ва сингапурликлар америкаликлардан ҳам меҳнатсевар (Business Insider, 2013).

Бунда америкаликларнинг миллий ғояси - “америка орзуси”нинг роли катта. Бу ибора америка халқи моддий ва маънавий орзуларининг ифодаси. Уильям Сефайрнинг “Сиёсий луғати” да "америка орзуси” бу — “асосчи оталар” белгилаб берган идеал эркинлик ва имкониятларнинг ифодаси; америка миллатининг маънавий қудрати; агарда АҚШ тузуми америка сиёсатининг скелети бўлса, “Америка орзуси” – унинг қалби”, дейилади. “Америка орзуси”нинг таркибий қисмлари сифатида:

- Ҳалол меҳнат билан ўзини намоён қилиш (self-madeperson)
- Эркин тадбиркорлик
- Ижтимоий масъулият
- Ватандошларни ҳурмат қилиш
- Жамиятда одамнинг ҳурмат-эътибори ва ролининг ошиши эътироф этилади.

Америкаликлар тарбиясида келажакка ишонч етакчи қадрият ҳисобланади. Бу уларга туганмас оптимизм беради. Шунинг учун улар омадсизликка учрашса, бу гал “ўхшамади”. Лекин энди оқилона йўлларини топаман, деб, ишни қайтадан бошлашади.

Кейинги ўнйилликлар америкаликларнинг келажакка интилишларига кучли педагогик импульс берди. Айниқса, ахборот технологиялари уларни “олға югурувчилар”дан “олдинга сакровчилар”га айлантирди. Ҳамма нарса компьютерлашди. Интернет, сунъий йўлдошга уланган телефонлар аҳоли мобиллигини бир неча карра тезлаштириб юборди.

Америка оилаларида болалар илк ёшдан мустақил қарорлар қабул қилишга ўргата борилади. 18 ёшдан бошлаб ёшлар ота-онага юк бўлмаслик учун ота уйини тарк этиб, ўқишга, ишга чиқиб кетишади. Шундан кейин улар ота уйига қайтишмайди. Шахсий ҳаёти билан боғлиқ барча мауаммоларни ўзлари ҳал қилишади. Ёшларнинг ота-она бағрида 18 ёшдан кейин, қолиб кетишлари атрофдагиларда улар ҳақида “хом”, ҳаётга тайёр эмас”, “умуртқаси йўқми, ота-онасига юк бўлаяпти”, деган норозиликни уйғотади. Баъзан ота-она ёш ўғил-қизларига ёрдам беришади. Бироқ, буни боламиз уялмасин, деб, ими-жимида қилишади. Бошқа мамлакатлардан келганлар бой ота-онанинг оила қуриб, уй сотиб олаётган фарзандига озгина бўлса-да, қарашмаслигига ҳайрон қолишади.

Ўзбекларда эса рўзғорини алохида қил, ўзи хаёт кўрсин, эр-хотин - қўш хўкиз, аравасини ўзи тортсин деган гапига ўхшайди.

Олимлар бунинг фойдали жиҳатлари кўплигини тасдиқловчи хулосалар беришган. Масалан, психиатрлар америка жамиятида учраётган асабийлик ҳолатлари сабабини балоғатга етган ёшларнинг ота-оналаридан кеч ёки нотўлиқ ажралиб чиқишларида деб биладилар.

Ўз кучи билан муваффақиятга эришган одам жамиятга ўзининг муносиб ҳиссасини қўша олади, деб ҳисобланади. Шу боис соғлом индивидуализм принципи кўр-кўрона обрўни инкор қилади. Иш ва ҳаётда ҳақиқий обрў одамнинг ёшига эмас, балки унинг ишга ва атрофдагиларга реал таъсирига қараб белгиланади. Шу боис жамиятда замон талабларига жавоб берувчи, ҳаракатчан ёшлар ҳам катта обрў қозонишлари мумкин.

Америкаликлар «Вақт – пул”, деб билишади. Бу қоидага нафақат ишлаб-чиқаришда, балки ҳамма жойда, масалан, савдо ва хизмат кўрсатишда ҳам амал қилишади.

Жараёнларни автоматлаштириб, ҳамманинг вақтини тежашади. Айни вақтда ишчан ва ғайратли одамларни кўпроқ ҳурмат қилишади. Шунинг учун бой америкаликлар қартайиб қолганида ҳам ишлашади. Пул учун эмас, ишсиз яшай олмаслиги учун.

Социологларнинг тадқиқотларига кўра америкаликлар монохрон маданиятга мансуб халқ. Яъни улар ҳар бир ишни бирма-бир, қатъий кетма-кетликда, тартиб билан, ўзбекча қилиб айтганда – р и с о л а д а г и д е к бажаришади. Ҳатто тартибга риоя қилиш уларнинг ўша лаҳзалардаги манфаатларига зид келса ҳам. Масалан, мактаб қўнғироқ чалингач, ҳар қанча қизиқ бўлмасин, тугамаган бўлса ҳам, дарс шу заҳоти тўхтатилади.

Полихрон жамиятли маданиятга амал қилувчи мамлакатларда ишларни бир вақтда, йўл-йўлакай қилиб олиш, учрашув ёки мажлисга бироз кечикиб борилиши ва бунга аҳамият берилмаслиги ҳам мумкин. Бироқ, америкалик учун вақт алоҳида қийматга эга. Шу сабабли унда ҳаракатдан тўхташ, бекорчи гаплар учун вақт бўлмайди. Зеро муайян вақтдаги амалий натижадорлик ва фойдали фаоллик қадрланади.

Ватанпарварлик

Америкаликлар одам тўплаган пул миқдори унинг қанчалик фаоллигини ва жамият учун фойдалили даражасини кўрсатади. Айни вақтда одамлар у ҳақда нима дейишаётгани, уни қандай баҳолашаётгани ҳам жуда муҳим ҳисобланади. Шу тариқа ҳар бир одамнинг эришган муваффақият даражаси у ҳақидаги ижтимоий фикрда акс этади.

Машҳурлик америка жамиятида одамнинг муваффақиятлилик белгиси ва бу унга келажакда қўшимча имкониятлар беради. Одамларнинг эътирофи, машҳурлик жамиятда таниш-билишлар даврасини кенгайтиради. Бироқ, яқин дўстлар кам бўлади, чунки дўстлик вақт талаб қилади. Вақт эса – пул. Одатда америкаликлар нотаниш одамларга, қўшниларига яхши муносабатда бўлишади, бироқ, улар билан дўстона муносабатларга киришишмайди.

Америка телеканалларида дастурлар кўп, ранг-баранг. Оммабоп шоулар бепул бўлиб, ўртамиёна дидга мўлжалланган. Мумтоз, классик асарлар - опера, балет, симфоник мусиқа, шеърий асарлар эса тансиқ. Чунки улар қиммат баҳоланади. Улардан баҳраманд бўлиш учун пулли телеканалларга боғланиш керак.

Албатта ҳар бир америкаликни фаол, ватанпарвар, зиёли, ақлли деб бўлмайди. Америка менталитетига хос асосий қадриятлар аҳолининг кўпчилигига хос.

Америка оилалари – огоҳ оилалар. Бу ерда бирор шубҳали, қонунга зид иш билан шуғулланаётган таниши ёки қўшнисининг устидан тегишли органларга хабар бериш уят ҳисобланмайди. Америкаликлар характерининг мана шу фазилати кўплаб жиноятларнинг олдини олиб, хавфсизлик даражасини оширишга катта ёрдам бермоқда. Жиноятчилик Германия, Норвегияга қараганда кўп (ҳар 100 минг кишига 4,6та қотиллик). Бироқ, бу кўрсаткич айрим мамлакатларга нисбатан паст ва пасая бормоқда. Масалан, 2005 йилда ҳар 100 минг кишига 416та автомобиль ўғирлиги тўғри келган бўлса, 2010 йилга келиб бу рақам 239тага камайган.

АҚШда жиноятчиликнинг олдини олишга қаратилган жамоатчилик назорати йўлга қўйилган. “Халқ дружиналари” фаолият кўрсатади. Улар neighborhood Watch (Огоҳ қўшничилик) деб номланади. Одамлар гуруҳларга уюшиб, кўчаларни патрул қилиб, тартиб сақланишини назорат қилишади. “We look out for each other”, яъни (Биз бир-биримизни эҳтиёт қиламиз) шиори остида амалга оширилаётган превентив чоралар жиноятчиликнинг олдини олишда катта самара бермоқда, деб ёзади visasam.ru/emigration.

Бағрикенглик

Хайрия ва таълимга ҳомийлик қилиш жамият томонидан юксак қадрланади. Бу фалсафа гуманитаризм деб ном олган. Масалан, АҚШнинг машҳур ва бой кишиларидан Жон Рокфеллер “Сиз нима учун университет қуришга катта маблағингизни ҳадя қилаяпсиз?”, деган саволга: «Худо менга пул берди, нега мен уни Чикаго университети қурилишига сарфламаслигим керак?”, деб жавоб берган. Кўпчилик америкаликлар одам ўз умри ва бойлигининг бир қисмини инсонпарварлик мақсадларига сарфлаши керак. Ана шунда уни худо ярлақайди, одамлар ундан рози бўлади, деб ҳисоблашади. Бундан америкаликларда маънавий ва моддий қадриятлар бир-бирини тўлдириб туради, деган хулосага келиш мумкин.

Бунинг мисоллари сифатида Жаҳон хайрия индекси бўйича АҚШ 2017 йилда 139да мамлакат ичида 5-ўринни эгаллаганини (Мьянма, Индонезия, Кения, Янги Зеландиядан кейин). Ижтимоий ривожланиш даражаси бўйича 2017 йилда 128 мамлакат орасида 18-ўринни эгаллаганини. 2018 йилда 158та мамлакат орасида ўтказилган Дунё мамлакатларининг бахтиёрлик даражаси бўйича рейтинги(World Happiness Report)да 18-ўринни эгаллаганини. 2016 йили 50 мамлакат орасида ўтказилган “Миллий таълим тизими самарадорлиги индекси” тадқиқотида АҚШ биринчи ўринни эгаллаганини келтириш мумкин.

Оила тарбиясида Ватанга муҳаббат етакчи қаторда туради. Ватанпарварликдан асосий мақсад – америка жамиятининг асосини белгиловчи қадриятларни қўллаб-қувватлаш. Бу мадҳияларда, тадбирларда Американи худо ярлақаган мамлакат эканлигини тараннум қилиш ва унинг миллий қадриятларини бардавом қилишда намоён бўлади. Шу сабабли «Худо Американи асрайди, «Америка гўзалдир” каби қўшиқларни барча америкаликлар ёддан билишади ва тантанали тадбирларда, айниқса, спорт мусобақаларида бирга куйлашади. Ҳар бир футбол матчидан олдин ўн минглаб томошабинлар тик туриб руҳонийнинг ибодатини тинглагач, кетидан миллий мадҳияни айтишади. Бу ҳам ватанпарварлик ғоясининг миллий ўзликни англашни ривожига қандай ёрдам бераётганини кўрсатади.

REFERENCES

1. Safire’s New Political Dictionary. Random House, New York, 1993.
2. http://visasam.ru/emigration/canadausa/prestupnost-v-ssha.html#i-42018 йил 20 май.
3. http://www.cafonline.org/. 2018 йил 20 май.
4. http://www.socialprogressindex.com/2018 йил 20 май.
5. http://www.worldhappiness.report/2018 йил 20 май.
6. http://thelearningcurve.pearson.com/2018 йил 20 май.

УМУМИЙ ЎРТА ТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИДА ҚАДРИЯТЛИ ЁНДАШУВ АСОСИДА МАДАНИЙ МУҲИТНИ ЯРАТИШ

Сайёра Тўйчиева
Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти профессори, фалсафа фанлари доктори

https://doi.org/10.5281/zenodo.7927140

Аннотация. *Ушбу мақолада Янгиланаётган Ўзбекистон тараққиётида миллий қадриятларнинг ўрни ҳамда аҳамияти хақида фикр юритилган. Ижтимоий давлат шаклланишида шахснинг ижтимоийлашувида миллий ва умуминсоний қадриятлар, уларнинг фалсафий тушунчаси ва унинг тарихий илдизлари, бугунги тезкор жараёндаги аҳамиятига баҳо берилиб, илмий хулоса ва таклифлар берилган.*

Калит сўзлар : *Ижтимоий давлат, миллий қадрият, умуминсоний қадрият, тарих силсиласи, умумбашарий қадрият, санъат, моддий ва маънавий мерос.*

Одамзод жамиятни қандай қилиб уйғун асосда ривожлантириш, ўзи туғилиб ўсган мамлакатни янада қудратли ва обод қилиш, инсонни эркин ва бахтли этиш тўғрисида қадим қадим замонлардан буён бош қотириб келади. Ҳар бир тарихий давр кун тартибига қўйган бу мураккаб саволларга олим ва файласуфлар, сиёсатчи ва давлат арбоблари ўз билим ва тажрибаси, ўзи мансуб бўлган давр нуқтаи назаридан жавоб излаган. Чунончи, қадимий хитой донишмандлари Конфуций ва Лао Цзи, юнон файласуфлари Платон ва Аристотель, буюк мутафаккир аждодларимиз Абу Наср Форобий ва Ибн Сино каби алломаларнинг асарларини, Амир Темур ва Улуғбек каби буюк давлат арбобларининг сиёсий фаолиятини бу саволларга конкрет тарихий шароитдан келиб чиқиб берилган назарий ва амалий жавоблар сифатида қабул қилиш мумкин. Табиийки, тарихда улардан бошқа яна қанчадан қанча мутафаккир ва арбоблар ҳам бу масалаларга муайян тарзда муносабат билдириб ўтган.

Жадал ривожланиб бораётган XX1 асрда фан техника соҳасидаги тараққиёт сиёсий онгда ҳам ўз аксини топиб, инсоннинг ўзлигини англаб, умуминсоний ижтимоий тараққиёт ривожига хизмат қилишга ундамоқда. Ҳозирги кунда Ўзбекистон ижтимоий давлат ва адолатли жамият сари дадил бораётган бир пайтда, аниқ айтиш мумкинки, ижтимоий давлатни халқ фаровонлигини оширмасдан, ахолининг тобора ортиб бораётган ижтимоий эҳтиёжларини қондирмасдан шакллантириш мумкин эмас. Шунингдек, бундай давлатни юксак даражада ривож топган маънавий маърифий омилларсиз ҳам барпо этиб бўлмайди.

Бу борада янги нашрдан чиққан “Янги Ўзбекистон стратегияси” китобида давлатимиз раҳбари шундай фикр билдиради : “Биз шу аснода Ўзбекистонни инновацион, замонавий ва самарали давлатга айлантирамиз. Янги Ўзбекистон стратегияси фуқароларнинг мамлакат ижтимоий сиёсий ҳаётидаги иштирокини кенгайтириш, уларнинг орзу интилишларини рўёбга чиқариш, илғор ташаббусларини амалга ошириш, ҳаётий муаммоларини ҳал этиш, турмуш даражасини юксалтириш, мустақил равишда ўз моддий фаровонлигини ошириш учун етарли ва зарур шароитларни яратиш деганидир” **(1)** Биламизки, ижтимоий давлат шаклланишида энг асосий ўринлардан бирини шахснинг ижтимоийлашуви эгаллайди. Ижтимоийлашув ўта мураккаб жараён бўлиб, ўзбеклар азалдан ижтимоийлашган халқ ҳисобланади. Жамият тараққиётида, инсон ҳаётида ижтимоий, сиёсий ва ахлоқий қадриятларнинг ўрни беқиёс, демократик жараён ҳозирда кўп миллатли мамлакатимиз миллий қадриятларини қайта идрок этиш ва англашни талаб

қилмоқда, бу соҳаларда йиғилиб қолган муаммоларни янгича тафаккур асосида чуқур назарий мулоҳаза этишни талаб этмоқда.

Эркинлик, тенглик, биродарлик ҳамма замонларда ҳам инсоният томонидан ҳамиша эъзозланиб, қадрланиб келинган, Бироқ , ижтимоий жараёнлар таъсирида кишиларнинг қадриятлар тўғрисидаги қарашлари ўзгариб боради.Тарихий заруратга қараб гоҳ у, гоҳ бу қадрият ижтимоий тараққиётнинг олдинги сафига чиқади. Масалан, юртни ёв босганда озодлик, империя ҳукмронлиги даврида истиқлол, уруш даврида тинчлик, тутқунликда эркинлик, касал ёки беморликда саломатликнинг қадри ошиб боради. Шуни унутмаслик керакки, ҳар қандай даврда ҳам дунёнинг демократик қадриятларидан баҳраманд бўлишда аҳолининг билимдонлиги муҳим аҳамият касб этмоқда. Фақат билимли ва маърифатли жамиятгина демократик тараққиётнинг барча афзалликларини қадрлай олишини бугун ёшларга тушунтириш таълим тизими олдидаги энг устувор вазифалардан биридир. Бу борада муҳаддис олим Имом Бухорийнинг “Илмдан бошқа нажот йўқ ва бўлмағай”, деган пурҳикмат сўзлари бугунги кунда ҳам аҳамиятини йўқотмаган.

Ўзбек халқи энг қадимий ва бой миллий қадриятларга эга. Унинг асл илдизлари эрамиздан олдинги 1Х асрларга бориб тақалади. Кўҳна Шарқ оъзаки ижод асарларининг илк намуналари бўлмиш Митра, Анахита, Ардвиссура, Ветрагна каби маъбудаларга бағишланган мифларда миллий қадриятларнинг оҳанглари сезилади. Агар Митра билан Ветрагна ерда ҳаётнинг муҳимлигини адолат тинчлик эл учун фаравонликни таъминлаш учун, ривожланиш, униб –ўсиш, ҳаёт душмани зулмат ва девларга қарши курашса,бу оила мустаҳкамлиги ҳотин-қизлар ҳақ-ҳуқуқининг паймол этилмаслигини, зурриёт-наслнинг тозалигию табиатнинг паймол этилишининг олдини олишга интилади**.(2)** Демак мифлар замирида ватан, дўстлик, инсонпарварлик, болажонлик, боғ-роғлар яратиш, атроф муҳитни покиза сақлаш сингари ўзбек халқига хос удумлар ўз ифодасини топган, маънавий поклик олқишланган.

Бундай азалий қадриятлар, хусусан кўҳна халқ қўшиқлари, ривоятлар, қаҳрамонлик достонларида атрофлича тасвирланган. Маълумки, энг қадимий туркий халқ қўшиқлари бизга қадар қомусий билим соҳиби Маҳмуд Қошғарийнинг “Девону луғотит турк” асари орқали етиб келган .Соф тилшунослик моҳиятига эга бўлган бу асарда олим турли сўз ибора, атама, ном бирикмаларнинг илмий шарҳини беришда Шарқий Туркистондан тортиб Қора денгиз соҳилларигача бўлган ерларга тарқалган туркий халқлар оғзаки ижоди намуналаридан далил, мисол сифатида фойдаланган. Девондаги мисол тариқасида келтирилган шеърлар жанр, мавзу, ғоявий йўналиш жиҳатидан ранг- барангдир. Уларда ватанпарварлик, инсонийлик, дўстлик, ҳамжиҳатлик, мардлик ва жасорат, илм- ўрганиш касб –ҳунар эгаллашга даъват, катталарга ҳурмат, кичикларга шафқат, ҳалоллик, поклик, дўстлик, риё, садоқат, камтарлик, фидоийлик каби турли –туман ғоявий йўналишлар ўзининг бадиий ифодасини топган. Энг муҳими шундаки, девондаги лирик шеърларда юксак инсоний фазилатларга даъват, аждодлар сабоғига ва буюк қадриятлар мадҳ этилади. Афросиёб- Алп Эр Тўнга хақидаги бир қанча тўртликларда ватанпарварлик, юрт бутунлиги эл тинчлиги, элатлар ҳамжиҳатлиги-ю ҳаёт барқарорлигини таъминлаш борасида фидоийлик ғояси мужассамланган, туркий қавмлар бирлигини таъминлаш учун интилиш ўз аксини топган. Афросиёб элни хонавайрон, юртни пайхон қиладиган ўзаро келишмовчиликлар, талон тарожнинг олдини олган, жангдан кўра кўпинча сулҳга интилган***.(3)***

Аждодларимиз миллий қадриятларининг ўзига хос жиҳатларидан яна бири катталарга ҳурмат, ҳамиша таъзим- тавозеъда, бошини саломда, тилини ширинсуханликда тутиш, кичикларга раҳм-шафқатлик бўлиш, ҳамиша эл-юрт ташвиши билан яшашдир. Қадимги халқ ривоятлари, достонларининг етакчи ғоявий йўналиши ватанпарварлик, элини деб жонфидолик қилишдир. Агар “Тўмарис”, “Широқ”, ”Рустам”, “Чистони Элибек” сингари халқ оғзаки ижоди намуналарида инсон дўстлик, эл юрт ҳимояси йўлида жонини ҳам тикиш, халқни турли офатлардан ҳимоя қилиш сингари юксак ғоялар мужассамлашган бўлса “Зариадр ва Одатида”, “Заррина ва Стриангия”, “Сиёвуш” сингари афсоналарда миллий қадриятларимизнинг бошқа жиҳатлари ҳам тасвирланган. Агар биз Заррина ва Одатида образларида бир томондан аёллардаги матонат, сабр-бардош, аҳд-паймонга садоқат каби қадриятларни кўрсак, иккинчи томондан, ўзбек аёлларига хос иффат- назокат, шарм-ҳаё, аждодлар удумига ишонч, оила бутунлигини авайлаш сингари ғоятда ибратли жиҳатларнинг мужассамланганлигини ҳис этамиз. Заррина севгилиси Стриангия билан адолат учун курашда халқ исёнини бошқаради, зиндон азобини тортади. Хақиқат тантана қилиб, юртда осойишталик ўрнатилиб ёшлар мурод мақсадга етадиган онларда Стриангиянинг уйланганлигини билиб қолган Заррина бундай никоҳни рад этади. Аламига чидай олмаган йигит ханжар билан бағрини чок этади. Демак қиз маънавий жиҳатдан йигитдан устун. У ўзгалар оиласининг бузилиши эвазига бахтли бўлишни ўзига ор деб билади. Одатида эса аждодлар удумига риоя қилгани учун кўзлаган ниятига етади**.(4)**

Халқимизнинг энг қадимги ёзма ёдгорликларида ҳам миллий маънавий қадриятларга эътибор, уни эъзозлаш анча кучли. Бизга қадар сақланиб қолган Суғд, Ўрхун-Энасой, “Авесто” каби ёзма ёдгорликлардаги далиллар ана шу мулоҳазаларни тасдиқлайди. Юқоридаги ёзма манбааларда туркий халқлар миллий қадриятларининг кўп томонлари ўз ифодасини топган бўлиб, уларда туркий элатларни бирлигини таъминлаш ва хоқонликни мустаҳкамлашга чорлаш каби энг олий қадриятлар битилган. Юқоридаги келтирилган манбалардан кўриш мумкинки, қадриятлар катта ижтимоий, сиёсий, фалсафий, тарихий, тарбиявий аҳамиятга эга. Улар асрлар оша халқ билан бирга яшаб, ўтмиш билан ҳозирги кун ўртасидаги ворисийликни таъминлаб, уларда миллатнинг тарихи, ўтмиш ҳаёти, маданияти гавдаланади. Шунинг учун ҳам ҳар бир сиёсий тузум, ҳар бир давлат қадриятлардан ўз мақсади, ўз манфаати йўлида фойдаланиб келган ва ҳозир ҳам бу муқаддас вазифа давом этмоқда. Бугунги тезкор жараёнда бизни ташвишга солаётган муаммолардан бири -инсон ўзи яратган ижтимоий сиёсий, маданий маънавий, ахлоқий қадриятлар кўп холларда поймол қилиб келинмоқда. Бундай ҳол эса бизнинг қатор миллий қадриятларимизни йўқолиб боришига ҳам сабаб бўлаётгани ҳақиқат.

Қадрият - кишилар ҳаётида ўта аҳамиятли ҳодисадир. Уни маданият сохалари рўёбга чиқарган ҳодисалар билан боғиқликда англаш мумкин. Шунда хўжалик, техник, ижтимоий, сиёсий, бадиий, илмий, ахлоқий қадриятлар ажралади. Қадриятлар ичида энг асосийси ва умумийси ҳаётдир. Қадрият - дейилганда инсон ва инсоният учун аҳамиятли бўлган, миллат, элат ва ижтимоий гуруҳларнинг манфаатлари ва мақсадларига хизмат қиладиган табиат ва жамият ҳодисалари мажмуи тушунилади.

Айрим тадқиқотчилар уни даврнинг эҳтиёжини белгилайди, яъни тарихий хусусият касб этади деб ҳисобласа, бошқа бир тадқиқотчилар аксинча, қадрият доимий, универсал хусусиятга эга дейдилар. Баъзилари эса, қадриятни- меъёрий андоза деб атайдилар. Мазкур турли хил, ҳатто қарама-қарши фикрлардан кадриятнинг маъноси кўп қиррали эканлиги

англанади. Шонли тарих ва порлоқ келажакни ўзаро уйғунлигини яратиш ва бунга эришиш бугунги авлоднинг зиммасидаги муҳим вазифалар Қадриятларсирасига киради, инсоннинг ижтимоий борлиқдаги ўрнини илм фан, билим олиш ва янгиликларга интилиб, яратиб яшаш каби мақсадлар билан чамбарчас боғлайди. Мутахассисларнинг таъкидлашича, ҳозир ҳар кун дунёда 500 га яқин янги фаолият, касб кор тури пайдо бўлмоқда. Ҳаёт оқимининг тезлашиб, инсон фаолияти доирасининг узлуксиз кенгайиб, янгиланиб бораётгани таълим ва илм олиш зарурлигини талаб қилмоқда. Бу эса ўз навбатида, ёшлардан билим олишни, ўзини ўзи узлуксиз тарбиялаш,, маърифатли, интеллектуал салоҳиятни ва энг аввало фаол бўлишга қаратилган қадриятлардан фойдаланишни талаб этмоқда. Мазкур қадриятлар ҳаётий мақсад, идеал, намуна ва ибратлар саналади.

Қадрият - кишилар ҳаётида ўта аҳамиятли ҳодиса, уни маданият соҳалари рўёбга чиқарган ҳодиса сифатида боғлиқликда англаш мумкин. Шунда хўжалик, техник, ижтимоий, сиёсий, бадиий, илмий, ахлоқий қадриятлар ажралади. Расмий нуқтаи назардан қадриятни ижобий ва салбий, ўзига хос ва доимий, мустақил ва шартли тарзда фарқлаш мумкин. Моддий нуқтаи назардан қадрият ҳиссий (яъни оддий хис қилиш органи)- бу ҳаётий, маиший, техник, қониқиш қадрияти ва бошқа; ва маънавий-илмий, ахлоқий, эстетик, диний ва бошқаларга бўлинади. Айрим қадриятлар (хўжалик, техник, сиёсий) тарихий хусусият касб этиб, яъни маданият, давр ўзгариши билан улар ҳам ўзгариб туришини батафсилроқ ўрганиш чоғида аниқлаш қийин эмас; бошқа қадриятлар эса доимий, универсал хусусиятта эга (ахлоқий, бадиий).

Қадриятнинг ҳаётдаги ўрни ва аҳамияти баҳолаш туфайли белгиланади. Баҳолаш эса инсонларнинг эҳтиёжлари, манфаатлари, мақсадларидан келиб чиқади. Айрим ҳолларда эҳтиёж ва манфаатлар бир-бирига зид келиши мумкин. Муайян ижтимоий гуруҳ, миллат, синфлар учун олий қадрият ҳисобланган ҳодисалар бошқалар учун қадрият бўлмаслиги мумкин. Табиат ва жамият ҳодисаларини қадрият туркумига киритиш ва киритмаслик кишиларнинг эхтиёжлари, манфаатлари, орзу-истаклари, мақсадлари билан белгиланади. Юқорида таъкидлаб ўтилганидек,таълим соҳасида олиб кўрадиган бўлсак, хориж тажрибасида аксарият ҳолларда миллий ғоя халқларнинг азалий миллий қадриятларига боғлаб сингдирилган. Масалан, Жанубий Кореяда миллий ғоя халқнинг миллий ўзлиги ва ёшлар тарбияси заминига қурилган бўлиб, ёшлар онгига урф одатлар, ахлоқий идеаллар орқали сингдирилади. Шу боис ёшларни ҳаётга тайёрлашда оила, мактабгача таълимга алоҳида эътибор қаратилади. Хитойда эса, Конфуций меросидан ахлоқий асос сифатида фойдаланилади. Конфуцийликнинг беш асосий устуни ҳисобланган Яхшилик, Тўғрилик, Поклик, Донолик ва Ишончлилик каби фазилатларга таянилади. Сингапурча ислоҳотлар меъмори Ли Куан Ю эса фуқаролар фаровонлиги, демократик жараёнлар узлуксизлиги, муваффақиятга меҳнаткаш, ҳаракатчан халқ эриша олиши, демократияга ишониш лозимлиги, иқтидорли, ўз ишига содиқ, ўзи учун эмас, балки халқи ва юрти учун бирон нарса қилишга қодир халол ва лаёқатли одамларга таяниш мамлакат тараққиётининг муҳим ғоявий омили деб ҳисоблайди. Бундай ғояларга таянган ҳолда иш тутиш, Сингапур давлатини қисқа муддатларда нафақат иқтисодий, балки интеллектуал жиҳатдан ҳам энг ривожланган давлатлар қаторига олиб чиқди. Бу эса албатта, маданий маънавий қадриятларнинг асл мевасидир. Шундай экан, бизнинг янги тараққиёт босқичига қадам қўйган мамлакатимизда барча инсоний қадриятлардан фойдаланиб, миллий мақсадларга зарар етказувчи ҳар қандай иллатлар ёшлар тарбиясига эътиборсизлик, оилавий

қадриятларни менсимаслик, масъулиятсизлик, лоқайдлик, ўзибўларчилик, маҳаллийчилик, ёлғончилик, ахлоқий бузуқлик, коррупция ва бошқаларга қарши курашиш борасида ёшларни ижобий натижаларни қўлга киритишларини таъминлаш зиёлилар зиммасидаги вазифадир.

Қадриятлар ижтимоий хусусиятга эга бўлиб, кишиларнинг амалий фаолияти жараёнида шаклланади ва ривожланади. Улар моҳиятига кўра турларга бўлинади. Аввало, инсон ва унинг ҳаёти энг олий қадрият ҳисобланади. Инсон эҳтиёжларини қондиришда табиий қадриятлар: ер ва ер ости бойликлари, бошқа табиат неъматлари катта аҳамият касб этади. Инсон меҳнати, ақли билан яратилган моддий бойликлар моддий қадриятлар ҳисобланади.Маданий-маънавий қадриятларга илмий-техникавий ва интеллектуал имкониятлар яратган бойликлар мансуб. Шунингдек, жамият тараққиётида, инсон ҳаётида ижтимоий-сиёсий қадриятлар: эркинлик, тенглик, биродарлик кабилар ҳам ўрин тутади. Ижтимоий-сиёсий қадриятлар ичида истиқлол туфайли қўлга киритилган барқарорлик, тинчлик, тотувлик алоҳида аҳамиятга эга.

Қадриятлар амал қилиш доирасига кўра миллий, минтақавий ва умуминсоний турларга бўлинади. Миллий қадриятлар мураккаб ижтимоий- рухий ҳодиса бўлиб, у миллатнинг тили, маданияти, тарихи, урф-одатлари, анъаналарини, жамики моддий ва маънавий бойликларини, иқтисодий, ижтимоий-сиёсий ҳаётининг барча томонларини қамраб олади. Минтақавий қадриятлар иқтисодиёти, маданияти, тарихи, тили, дини, урф-одат ва анъаналари муштарак бўлган халқлар манфаатларига хизмат қиладиган табиат ва ижтимоий ҳодисалар мажмуасини ташкил этади. Умуминсоний қадриятлар мазмуни жиҳатдан чуқур ва кенг бўлиб, умумбашарий аҳамият касб этиши билан эътиборга молик. Умуминсоний қадриятлар барча миллатлар, элатлар ва халқларнинг мақсад ва интилишига мувофиқ келади.

Миллий қадриятлар умуминсоний қадриятлар билан қанча кўп уйғунлашган бўлса, уларнинг тараққий этишига шу қадар кенг имконият очилади. Умуминсоний қадриятлар туркумига инсоният цивилизациясининг тараққиёти билан боғлиқ бўлган умумбашарий муаммолар киради. Булар: Ер юзида илм-фанни тараққий эттириш, тинчликни сақлаш, қирғин курашларини тўхтатиш, табиатни муҳофаза қилиш ва ҳоказолардир.

Ўзбекистонда инсонпарвар, фуқаролик жамияти қурилиши авж олиб борилаётган ҳозирги глобаллашув шароитда миллий ва умуминсоний қадриятларнинг муштараклигини таъминлаш муҳим аҳамият касб этади.

Мамлакатимиз давлат мустақиллигига эришиши билан қадриятлар муаммоларини ўрганиш йилдан-йилга авж олиб бормоқда. Ҳозирги кунда илғор давлатлар ҳаётининг демократик тамойиллари ҳам инсон қадрини нечоғли юксакликка кўтариши билан баҳоланади. Ўзбекистонда кечаётган туб ўзгаришлар ,ислоҳотларнинг моҳияти ҳам ана шу тамойилдан келиб чиқади. Бу тамойилни амалга оширишда миллий ва умуминсоний қадриятлар уйғунлигига асосланганянгича дунёқараш, соғлом тафаккурнинг шаклланиши катта аҳамиятга эга. Миллий қадриятлар халқнинг кундалик ҳаёти ва турмуш тарзида ўзига хос мезон вазифасини ўтайди. Ушбу қадриятлар воситасида турли ҳодиса ва ҳолатларга, янги пайдо бўлаётган фаолият турлари ва расм-русумларга баҳо берилади.

Янгиланаётган Ўзбекистонда Учинчи Ренессанс пойдеворини яратиш жараёнида ҳам миллий ва умуминсоний қадриятларимизга эътибор бериш ва унинг тараққиёт стратегиясини амалга оширишнинг асосий омилларидан деб ҳисобланишида ҳам катта

ижтимоий аҳамият борлиги, бугунги кун қадриятлар трансформациясига эътиборли ва сергак бўлишни талаб қилади. Бу борада давлатимиз раҳбари алоҳида таъкидлаганидек: “Тарихга назар солсак, Буюк Ипак йўлининг чорраҳасида жойлашган она заминимиз азалдан юксак цивилизация ва маданият ўчоқларидан бири бўлганини кўрамиз, Халқимизнинг бой, илмий маданий мероси, тошга муҳрланган қадимий ёзувлар, бебаҳо меъморий обидалар, нодир қўлёзмалар, турли осори атиқалар давлатчилик тарихимизнинг уч минг йиллик теран илдизларидан далолат беради**”.(5)** Юқоридаги фикрлардан кўриниб турибдики, қадриятлар маънавий етук, баркамол ёшларни тарбиялайдиган қудратли куч ва жамиятимизни жаҳон ҳамжамиятига қўшувчи ишончли восита ҳамдир.

REFERENCES

1. Мирзиёев Ш.М.Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент. ”Ўзбекистон” : 2021.224 б.
2. Маҳмуд Қошғарий. Девону луғотит турк. Тошкент.”Фан”. 1 ж. 1960.490б.
3. Авесто . Тарихий адабий ёдгорлик. Тошкент. “Шарқ”. 2001. 14 б.
4. Қадриятлар ва ижтимоий тараққиёт. Тошкент.”Ўзбекистон”. 2000.116б.
5. Назаров Қ. Аксиология. Қадриятлар фалсафаси. Тошкент. “Академия”. 2011.137б.

ФОРМИРОВАНИЕ СОЦИОКУЛЬТУРНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ

А.Х. Махмудов
д.п.н, УзНИИПН имени Кары Ниязи, +998 94 6428103

https://doi.org/10.5281/zenodo.7927566

Аннотация. *В статье раскрываются методологические вопросы формирование социокультурных компетенций учащихся школы в условиях цифровой образовательной трансформации. Приводятся понимания сущностных характеристик цифровой образовательной системы в обществе для разных категорий пользователей и принципы формирования социокультурной компетенции учащихся.*

Ключевые слова: *Цифровая образовательная среда, социокультурные компетенции, школа, педагог, ученик, образовательная трансформация.*

Становится очевидным, что будущее образования за цифоровыми образовательными технологиями. Достаточно много дискусси по поводу сущности цифровой образовательной среды. Анализ литературных источников по данной проблеме позволил нам систематизировать вопросы цифровой образовательной среды в следующим образом: прежде всего цифровая образовательная среда - это кластер информационно-коммуникационных систем; во-вторых, каждая из информационно-коммуникационных систем в отдельности и в целом призваны обеспечивать инструментальное решение различных задач образовательного процесса; в-третьих, в структурном плане кластер информационно-коммуникационных систем должен быть открытым[1].

Следующим дискуссионной проблемой остается вопрос понимания сущностных характеристик цифровой образовательной среды в обществе для разных категорий пользователей[2]. Выделим три категории пользователей: учащиеся школы, педагоги школы и родители. Рассмотри каждую категорию с точки зрения возможностей и функции цифровой образовательной среды.

Для ученика школы цифровая образовательная среда прежде всего обеспечивает:

– доступ к электронному образовательному контенту, современным образовательным электронным ресурсам;

– повышение мотивации к обучению, активизации интереса к получению знаний;

– возможность обучения в любых условиях, независомо от пространства и времени;

– удобные условия расширение возможностей построения собственной индивидуальной образовательной траектории;

– интеграция образовательной организации в мировое образовательное пространство;

– доступ к передовым образовательны технологиям с целью улучшения результатов освоения образовательной программы и другие.

Цели использования цифровой образовательной среды педагогами состоят в следующем:

– перекладывание рутинной(не творческой) работы на плечи автоматизированной системы, т.е. автоматизация процессов решения типовых задач;

– автоматизация диагностических процедур и мониторинга учебно-воспитательного процесса;

– увеличение времени для творческой деятельности и индивидуализации учебной работы и другие;

Родителям цифровая образовательная среда обеспечивает:

– расширение сферы реализации образовательных возможностей для ребенка;

– снижение затрат на получение образования и дополнительного образования за счет повышения конкуренции на рынке образования;

– повышение прозрачности образовательного процесса (в том числе информирование в реальном времени об успеваемости ребенка, о его присутствии в школе и т. п.);

– облегчение коммуникации со всеми участниками образовательного процесса.

Для успешного и эффективного взаимодействия в цифровой образовательной среде от пользователей требуются такие качества, как толерантность и внимательность, а также умения быстро адаптироваться к языковой среде, т. е. обладать социокультурной компетенцией. Формирование социокультурной компетенции в цифровой образовательной среде осуществляется при реализации следующих принципов: социализации, социокультурной направленности, ситуативно-стимулирующей организации обучения[4]. Принцип социализации определяет то, что формирование социокультурной компетенции в цифровой образовательной среде является процессом и результатом, который отражает одну из главных сторон социализации. Принцип социокультурной направленности предполагает включение в образовательный контент цифровой образовательной среды учебных материалов, раскрывающих особенности культуры родной страны, края и иноязычной культуры. Интеграция такого контента в цифровой образовательной среде необходима для интерпретации ценностной основы как фактора понимания конкретных ситуаций в иноязычной среде. Принцип ситуативностимулирующей организации обучения стимулирует формирование социокультурной компетенции в цифровой образовательной среде за счет изменчивости современного мира, постоянного развития информационного общества, которое определяют готовность учащихся изменяться, отказываться от стереотипов, адаптироваться к социуму. Данные принципы определяют выбор, логику и средства формирования социокультурной компетенции в цифровой образовательной среде.

В заключении отметим, что культурное развитие в цифровой образовательной среде, объективно отставая от развития материальной сферы, не только может оказывать на нее свое влияние, но и детерминируется ей. Именно эта детерминация предопределяет среди человеческих потребностей те, которые, находясь в соподчинении с потребностями общества в целом, обладают и определенной самостоятельностью.

REFERENCES

1. Крючкова К.С., Смыковская Т.К., Филиппова Е.М. Проблема встраивания информатических дисциплин в структуру основной образовательной программы подготовки бакалавров по направлению «Педагогическое образование» в условиях перехода на ФГОС ВО 3++ // Грани познания: электрон. науч.-образов. журнал. 2018. № 3(56). С. 45–51.
2. Лобанова Н.В., Смыковская Т.К. Создание и реализация модели системы управления качеством образования образовательной организации на основе информационно-коммуникационных технологий // Современные проблемы науки и образования:

электрон. науч.-образов. журнал. 2015. № 6. С. 391. [Электронный ресурс]. URL: https://science-education.ru/ pdf/2015/6/195.pdf (дата обращения: 03.05.2019).

3. Приоритетный проект «Современная цифровая образовательная среда в Российской Федерации» («Современная цифровая образовательная среда»). [Электронный ресурс]. URL: http://government.ru/projects/selection/643/ (дата обращения: 03.05.2019).
4. Чопикашвили З.М., Ревазова С.М. Социокультурные компетенции и гуманистическая позиция студентов как субъектов образовательного процесса // Современные проблемы науки и образования. 2015. № 1-1. [Электронный ресурс]. URL: https://science-education.ru/ru/article/view?id=17589 (дата обращения: 03.05.2019).
5. Махмудов А.Х., Анарбаева Ф. У. Рақамли таълимда педагогик технологияларни қўллаш имкониятлари //Development issues of innovative economy in the agricultural sector. – 2021. – С. 476.

MALAKASINI OSHIRISH MUAMMOLARI XUSUSIDA

Sh.Q.Mardonov
T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zPFITI bo‘lim boshlig‘i, pedagogika fanlari doktori, professor
https://doi.org/10.5281/zenodo.7926730

Annotatsiya. *Qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonidagi o‘ziga xos xususiyat - tinglovchi saviyasi, tajribasi, tafakkurining yuqoriligi va o‘qish motivining anglaganligidadir. Shuning uchun malakasini oshirishni tashkil qilish bilish faoliyati sifatida ta’lim sub’ektining faol ishtirokida olib borilishi kerak.*

Kalit so’zlar: *malaka oshirish, qayta tayyorlash, pedagog, salohiyat.*

O‘qish ehtiyoji, o‘z ma’lumotini chuqurlashtirish,- deb yozadi Yu.N. Kulyutkin, - katta kishilarda amaliy hayotda va ishlab chiqarish faoliyatida paydo bo‘ladi, shuningdek, muammolarni yechish jarayonida vujudga keladi. Katta kishi egallanayotgan bilimlarini amaliy jihatlari bilan solishtirib, baholaydi. Katta kishida bilish faoliyatining motivi, faolligi va maqsadga qaratilganligi, bilimining shaxsiy mohiyati bilan belgalanadi. Bu ham bo‘lsa o‘quv jarayonida o‘qituvchilarning (tinglovchilarning) ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, shuningdek, ta’lim tizimida muhim o‘rin egallovchi muloqotning ahamiyatini eslatish joiz. Chunki malakasini oshirish jarayonidagi pedagogik muloqot darajasi va funksiyasi bilan umumiy o‘rta ta’lim maktabi, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi hamda oliy o‘quv yurtidagi muloqotdan keskin farq qilishi kerak [1].

Tadqiqotlar pedagog kadrlar malakasini oshirishning yuqoridagi talablariga javob berolmasligi, kurslardagi o‘quv rejalari real o‘quv yurti hamda pedagoglarning talab va ehtiyojlariga to‘la javob bermasligi, ularning biryoqlamaligini ko‘rsatadi.

Malakasini oshirish jarayonidagi bu kabi kamchiliklarni bartarab qilish uchun o‘quv muassasasidagi ta’limni tashkil qilishda ilm-fanning so‘ngi yutuqlari hamda ilg‘or tajribalarni, o‘quv jarayonida yangi pedagogik hamda axborot texnologiyalarini qo‘llashning aniq usullari va tipik qiyinchiliklarni bartaraf qilish yo‘llarini ko‘rsatish lozim. Ta’lim jarayonini shu talablar asosida tashkil qilish malakasini oshirish tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan professor-o‘qituvchilar mahoratiga ham oshirilgan talablar qo‘yadi. Malakasini oshirish jarayonini o‘quv muassasasi va unda ishlayotgan pedagoglar ehtiyoji bilan bog‘lash prinsiplari hamma vaqt, hamma joyda, hamma o‘qituvchilar tomonidan to‘liq amalga oshirilmay kelmoqda. Bu talabni ham malakasini oshirish tizimida, ham o‘quv muassasasida bir vaqtning o‘zida ishlaydigan mutaxassislargina amalga oshira oladilar. Faqat umumiy o‘rta ta’lim maktablari, yoki oliy o‘quv yurtlarida ishlaydiganlar malakasini oshirishidagi o‘quv xususiyatlarini chuqur tushunmaydilar, ularning mashg‘ulotlari bir yoqlama va tinglovchilarning talablarini to‘liq qanoatlantira olmaydi.

Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonini takomillashtirishni ilmiy asosda qayta qurish uchun bu jarayon tashkilotchilarning tayyorgarlik darajasi, tinglovchilar bilan muomalasi, muloqotining yuksak darajada bo‘lishi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Chunki bu tizim o‘qituvchisining vazifasi maxsus metodikalar, ta’sir etish usullari, shaxsiy va kasbiy sifatlari bilan ta’lim jarayonida tinglovchilarga yangi insonparvarlik, demokratik munosabatlarini shakllantirishning namunalarini ko‘rsatishlari zarur. Shu asosda tinglovchilardagi salbiy - «Men hamma narsani bilaman» stereotipni yo‘qotish mumkin.

Tinglovchilar faoliyati va tajribasini tahlil qilganda shunday vaziyatlarda boshqa o‘qituvchilar tajribasida uchraydigan qiyinchiliklar, ularni bartaraf qilish uchun qanday harakatlar

qilish lozimligi, o‘quvchilar bilimi turlicha bo‘lganda ta’lim mazmunini belgalashning o‘ziga xos tomonlari, o‘quvchilarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish yo‘llarini aniq misollarda ko‘rsatish muhimdir. Shuningdek, o‘qituvchilar tomonidan qo‘llaniladigan qanday usul va vositalar o‘quvchilarda bilim egallashda rag‘bat uyg‘otishi hamda o‘quv faoliyatini faollashtirib, ruhiy sifatlari va dunyoqarashi shakllanishiga asos bo‘lishini aniq misollarda ko‘rsata bilish tinglovchilarda kurs mashg‘ulotiga nisbatan qiziqish uyg‘otadi. Chunki ta’lim jarayonida o‘qituvchi kasbiy faoliyatining bosh sub’ekti – o‘quvchi, uning predmeti – o‘quvchi ma’naviy dunyosining shakllanishidir.

Tinglovchilarni asosiy faoliyatiga sifatli tayyorlash - ularning ish tajribasidan keng foydalanishni taqozo qiladi. Bu didaktik usul tinglovchilar faolligining oshishi hamda o‘qituvchi faoliyatiga ma’lum oshirilgan talablar qo‘yadi.

Yuqoridagi vazifalarning to‘g‘ri hal qilinishi quyidagi masalalarni ijobiy yechishga asos bo‘ladi:

1) kurs mashg‘ulotlari va ulardan keyingi o‘qishga bo‘lgan salbiy munosabatlar bartaraf qilinadi;

2) o‘qituvchilarda ko‘p uchraydigan - kursda bayon qilingan ma’lumotlar ularga ma’lum edi, degan noto‘g‘ri tasavvur bartaraf qilinadi.

Bayon qilingan omillar pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishida ta’limni tashkil qilishga ta’sir qiladi. Ammo ta’lim jarayoniga salbiy munosabat va o‘ziga ortiqcha ishonch ruhiy-didaktik omillar hisoblanadi. Ta’lim jarayonida o‘qituvchining katta kishi sifatida faoliyati va shaxsining xususiyati e’tiborga olinmasa, bunday holat kuchli namayon bo‘ladi. Buning oqibatida shakllangan eskicha fikrlash stereotipi bilan kasbiy faoliyatga yangi ilmiy yondashuvlar, ijtimoiy talablar orasida ziddiyatlar vujudga kelib, ta’lim-tarbiyada yuqori ko‘rsatkichlarga erishishib bo‘lmaydi. Ko‘rib chiqqanimizdek, kattalarni o‘qitishning ijtimoiy-psixologik, didaktik xususiyatlari malakasini oshirish muassasalaridan ko‘chib, maktab ta’limini tashkil qilishga ham ta’sir qiladi. Bularga asoslanish esa malakasini oshirishda o‘quv jarayonini to‘g‘ri tashkil qilish, unda o‘qituvchi va tinglovchi munosabatlarini yo‘lga qo‘yishga asos bo‘lib, an’anaviy o‘qitish metodikasidan voz kechishga olib keladi.

O‘z navbatida bu ishlarni to‘g‘ri tashkil qilish asosida qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida ta’limni tashkil qilishning yuqori saviyasiga erishish, tizim xususiyati va ta’lim sub’ekti darajasini inobatga olish mumkin bo‘ladi. U yoki bu vositalarni tanlash mezoni, ular faoliyatining kutilgan maqsadiga mos kelishidir. Chunki maqsad xuddi qonun kabi usul va harakatni belgilaydi. Bu xulosa o‘qituvchiga pedagogik ta’sir vositasi o‘quvchi, talabadan farq qilishini ilmiy asoslaydi, desak xato bo‘lmaydi.

Ta’limning bu funksiyasi yechilishi lozim bo‘lgan vazifalarni hal qilishda o‘qituvchi va tinglovchi harakatining yaxlitligini ta’minlaydi. Ta’lim jarayonini shu asosda boshqarish uning natijalariga erishishni tezlashtiradi. Shu bilan birga ta’lim beruvchilarning o‘z harakatlarini o‘zlari nazorat qilishlari uchun sharoit yaratib, o‘quv axborotini o‘zlashtirishni ham nazorat qila oladi. Bunda eng muhimi o‘quv operatsiyalarini bajarish ketma-ketligiga rioya qilish, o‘zlashtirish natijalarini nazorat qilish hamda o‘zini o‘zi nazorat usullari muhim hisoblanadi.

Buning oqibatida bilim, ko‘nikma va malakalarining kuchli va sayoz tomonlari aniqlanadi. Ta’lim jarayonida ikkiyoqlama aloqaning o‘rnatilishi, ta’limda rejalashtirilgan natija bilan erishilgan natija o‘rtasidagi o‘zaro muvofiqlik, korreksiyalash, tashxis qo‘yish imkoniyatini yaratadi.

Korreksiya, qo‘llanilgan vositalar ta’lim natijalari bilan taqqoslanganda, natijalar o‘qituvchini qanoatlantirmasa - bu tanlangan vositalarning ham yaroqsizligini anglatadi. Shu asosda ta’limni tashkil qilish, uning shakl, metod hamda vositalarini o‘zlashtirish lozimligini ko‘rsatadi. Qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonida ta’limni yo‘naltirishning mohiyati yana shundaki, bunda nafaqat o‘qituvchi faoliyatini tartibga solish, balki ularning birgalikdagi faoliyatini tashkil qilish juda muhimdir.

Bizning tadqiqotimiz mantiqi nuqtai nazardan hamda kattalar ta’limini tashkil qilish jihatdan bunday yondashuv metodologik ahamiyatga ega. Bunda ta’lim jarayonini tashxis qilishning ikki xilidan foydalaniladi. Ya’ni o‘ziga o‘zi baho berish (ham o‘qituvchi, ham tinglovchi) va ekspert baholash (tinglovchi faoliyatini o‘qituvchi) amalga oshiriladi. Bu ikki xil tashxisli baholashning muhimligi yana shundaki, unda ikki faoliyat o‘qitish va o‘qish yaqinlashadi. Bunday yaqinlashish tinglovchi kasbiy mahoratini yanada takomillashtirish uchun turtki bo‘ladi.

Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayoni tizimli tahlilining ko‘rsatishicha, uni tashkil qilishdagi eng katta kamchilik kattalar ta’limining ruhiy-pedagogik xususiyatlarini inkor qilish, shuningdek, kattalar ta’limida ham o‘quvchi va talabalarni o‘qitish usul va vositalarining qo‘llanilishi uning ta’sirchanligini keskin pasaytirib yuboradi.

Kattalar ta’limini tashkil qilishdagi avtoritar vaziyat yana bir salbiy holatga - kurs tinglovchisi shaxsiy g‘ururining paymol bo‘lishiga olib keladi. O‘z navbatida bundan kelib chiquvchi xulosa, kattalar ta’limini tashkil qilish shakli va metodlarini hamda jarayon (ishtirokchilari) sub’ektlarining o‘zaro munosabatlarini mustaqillik mafkurasi talabi asosida – erkin, ozod va mustaqil fikrlovchi fuqaroni shakllantirish tomon o‘zgartirishdir. Bunday sharoitda kattalar, ayniqsa o‘qitish, o‘rgatishda mutaxassis bo‘lgan o‘qituvchilarni o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari, ularning ijtimoiy-psixologik, fiziologik xususiyatlari asosida ishlab chiqish dolzarb muammo hisoblanadi (kattalar ta’limini insonparvarlashtirish, gumanitarlashtirish).

Kattalar ta’limida o‘qishga munosabat ularning kasbiy ehtiyojlarini hisobga olish darajasiga bog‘liq holda o‘zgaradi. Aynan shu omillarni hisobga olish kattalarnn o‘qitishda ta’limga munosabatning xarakterini va o‘qishdagi xulq-atvoriga jiddiy ta’sir qiladi.

Tadqiqotimiz jarayonida o‘tkazilgan tahlillarimiz tinglovchilar o‘qishiga munosabatining xarakteri uni tashkil qilish darajasi, o‘qituvchilar bilan tinglovchilar orasidagi munosabat va tinglovchilar o‘quv-bilish faoliyatini tashkil qilish usullariga bog‘liqligini ko‘rsatdi. Kattalar ta’limini qayta qurish faqatgina ta’lim jarayoni boshqaruv mexanizmlarini qayta qurish orqali amalga oshirilishi mumkin. Yuqorida qayd qilganimizdek, o‘quv jarayoni ta’lim sub’ekt va ob’ektlarining o‘zaro aloqadorligi tarzida quriladi. Bunda o‘zaro aloqadorlikni o‘quv vaziyatlari tarzida ham qarashimiz mumkin. Boshqacha qilib aytganda, vaziyatni sub’ektlarning o‘zaro ta’siri tariqasida ham qarash mumkin. O‘quv-pedagogik vaziyatlar o‘z mohiyati bilan ijtimoiy bo‘lib, boshqa ijtimoiy hodisalardan o‘zining sub’ekt-ob’ekt munosabatlari bilan farq qiladi. Ammo bu munosabatlar ma’lum boqichlar bilan belgilanadi. Bu jarayonlarga etalon me’yorlarining kiritilishi o‘quv jarayonini nazorat qilish uchun sharoit yaratishga mo‘ljallangandir. Ammo ta’lim-tarbiyada ulardan foydalanishda shablon va qattiq chegaralar bo‘g‘masligi (belgilanmasligi) lozim. Ularni ta’limda qo‘llash tashqi ta’sirning ichki o‘zini o‘zi nazorat qilishga o‘tkazish vositasi sifatida qarash mumkin.

Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishining hozirgi bosqichida tinglovchilar bilish faoliyati reproduktiv darajada tashkil qilinib, olingan bilim va ko‘nikmalar xotira

omboriga to‘planib, kerak bo‘lgan hollarda ulardan foydalaniladi. Ta’limni tashkil qilishning bunday shakli tinglovchilarning o‘qishda bilish imkoniyatlaridan to‘la foydalanish hamda ularning fikrlash faoliyatlarining rivojlanishiga yo‘l ochib bera olmaydi. Holbuki, malakasini oshirish jarayoni o‘quv faoliyati faol mustaqil izlanish, o‘rganish tarzida, yoki ijodiy jarayon sifatida tinglovchi nazariy bilim va amaliy tajribasidan foydalanish, uni ma’lum masalalarni kasbiy hal qilish jarayoniga jalb qilish tarzida tashkillashtirilishi lozim. Shunday qilib, pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishdagi kattalar ta’limining xususiyati tinglovchining ongli mustaqil va faol faoliyatini tashkil etishga asoslanishi, uni kasbidagi ma’lum pedagogik vaziyatlarni yechishga jalb qilishdan iborat bo‘lmog‘i lozim.

Qayta tayyorlash va malakasini oshirsh jarayoni o‘qituvchi va tinglovchining birgalikdagi murakkab va ko‘pqirrali faoliyatlaridan tashkil topadi. Bunday jarayonning mohiyati ularning individual xususiyatlari, o‘quv materialining mazmuni**,** jarayonni amalga oshirish sharoitlariga bog‘liq bo‘ladi. Bu esa kattalar ta’limiga ijodiy yondashuv hamda turli-tuman metodlarni qo‘llashni taqozo qiladi.

Shunday qilib, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonidagi ta’limni o‘qitishning boshqa shakllari bilan taqqoslash, uning o‘ziga xos tuzilishi va xususiyatlarini - ta’lim maqdsadi, ob’ektning o‘ziga xosligi, o‘qituvchi shaxsi va faoliyatining katta yoshdagi shakllangan mutaxassis sifatida namoyon bo‘lishini tasdiqladi. Bu esa tinglovchi o‘quv faoliyatining tuzilishi bilan belgilanishi, uning ta’lim jarayonining faol sub’ekti bo‘lishini taqozo qilishini ko‘rsatdi.

Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonining kamchiliklaridan biri ta’lim jarayonini tashkil etishda kattalar ta’limiga xos psixologik-pedagogik xususiyatlarni inkor qilishdir. Maktab ta’limi, yoki o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi, yoki oliy ta’limga doir metodikalar, o‘qitish usullarini asossiz ravishda kattalar ta’limiga ko‘chirish ham uning ta’sirchanligini pasaytirmoqda. Shuningdek, uning samaradorligiga salbiy ta’sir qilayotgan omillardan yana biri malakasini oshirish jarayonining avtoritar tarzda tashkil qilinishi, ya’ni kattalar ta’limida demokratik va insonparvarlik munosabatlarining yo‘qligidir. Ta’lim beruvchi o‘qituvchining diktatorligi, baholash mezonlari va o‘quv rejalarining «qattiqligi» ham tinglovchilarda o‘qishga xohishning pasayishiga yoki «qo‘rquvi»ga sababchi bo‘lmoqda. Bulardan tashqari malakasini oshirish bosqichlari va shakllari o‘rtasida uzviylik hamda qat’iylikning ma’naviy va moddiy jihatdan baholanmasligi tinglovchining malakasini oshirishga bo‘lgan rag‘batining pasayishiga sababchi bo‘lmoqda.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishining o‘ziga xos kasbiy ta’limning turi hamda kattalar ta’limining o‘ziga xosligidan kelib chiqib, mazkur tizim uchun maxsus mutaxassis o‘qituvchilarning maxsus tayyorlanmasligi ham bu tizimning rivojlanishiga salbiy ta’sir qilmoqda. Shu asosda kattalar ta’limining metodik asoslarini ishlab chiqish, malakasini oshirish tizimida yoshi hamda ruhiy-fiziologik, pedagogik faoliyati va shaxsi xususiyatlarini hisobga olish asosida malakasini oshirishni tashkil etish ilmiy-amaliy zaruriyatga aylanmoqda.

Biz izlanishimizni shakllangan ilmiy farazimizni asoslash hamda malakasini oshirish muassasalari xodimlari ish tajribalarini o‘rganish maqsadida tashkil qildik.

Bunda soha mutaxassislarining (malakasini oshirish institutlari o‘qituvchilari) aksariyati malakasini oshirish tizimidagi ta’limning umumiy o‘rta ta’lim maktablari, o‘rta maxsus, kasb-hunar kollejlari hamda oliy ta’lim maktabidagi farqini aniq tasavvur qila olmaydilar.

Jumladan, so‘ralganlardan ko‘rsatilgan ta’lim muassasalari bilan malakasini oshirish kurslarida o‘qitish farqini izohlashda: 33,3% - «malakasini oshirish kurslarida kasb mahoratini oshiradi»; 49-50% - «ha, farq qiladi»; 13,33 % - «juda ham farq qiladi» va 3,33% - javob berolmadilar. Shuningdek, ko‘rsatilgan ta’lim muassasalari orasidagi umumiylik va farqni aniq pedagogik nuqtai nazarda asoslay olmadilar.

Malakasini oshirishning o‘ziga xos tomonlarini aniq tasavvur qila olmaslik tahsil oluvchilar bilim saviyasiga ham salbiy ta’sir qiladi.

Malakasini oshirish muassasalari xodimlaridan tinglovchilarning «Ta’lim olish darajasi sizni qanoatlantiradimi?», deb so‘ralgan savolga - 51,6% - asosan qanoatlantiradi; 38,3% - uncha emas; 36,8% - qanoatlantirmasligini e’tirof etishdi.

Bundan tashqari tinglovchilardan: «Kurs davomida o‘zingiz uchun yetarli amaliy va nazariy bilim ola biladingizmi?», deb so‘ralganda - 46,6% - «ha»; 53,33% - yetarli emas; 10% - faqat amaliy bilim oldik; 16,66% - faqat nazariy bilim oladik, deb javob berishdi. Raqamlarda ifodalangan ko‘rsatkichlar (farqlar) ham bu ta’lim muassasalarida kadrlarni qayta tayyorlashni taqozo qilinishini ko‘rsatmoqda.

Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayoniniig kamchiliklarini aniqlar ekanmiz, uni takomillashtirish, quyidagi asoslarda amalga oshirilishi mumkin, deb hisoblaymiz:

1. Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish nafaqat kattalar ta’lim tizimi, balki ularning kasbiy mahoratini takomillashtirish tizimi hamdir. Shuning uchun uning mazmun, shakl va metodlari umumiy o‘rta ta’lim maktablari, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi hamda oliy ta’lim tizimlaridan farq qilishi lozim.
2. Pedagog kadrlar malakasini oshirish - ta’lim sohasi mutaxassisi faoliyatini takomillashtirish tizimi hisoblanadi. Chunonchi, malakasini oshirish tizimining boshqa ta’lim tizimlaridan keskin farqi shundaki, unda ta’lim oluvchilar ta’lim-tarbiya sohasi mutaxassisi sifatida o‘qishga yondashadilar. Tinglovchilarning mutaxassisiligi nafaqat malakasini oshirishning foydaliligi, ya’ni qanday bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lganligi nuqtai nazardan, balki ularni o‘qitgan mutaxassislarning faoliyati qay darajada amalga oshganligini ham baholashga imkon beradi.

3.Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishning yuqoridagi xususiyalari, uni amalga oshiruvchilar - ma’ruzachi, dars beruvchilardan kasbiy tayyorgarlikka egalik, kattalarning o‘ziga xos xususiyatlarini biluvchi mutaxassislar bo‘lishlarini pedagogik zaruriyatga aylantiradi.

REFERENCES

1. Кулюткин Ю.Н. Психология обучения взрослых. –Москва: Педагогика, 1985. -128 с
2. Рубинштейн Л.С. Проблемы общей психологии. / отв. Ред. Е.В. Шорохова. – Москва: Педагогика, 1973. -432 с.
3. Мардонов Ш.Қ. Янги таълимий қадриятлар асосида педагог кадрларни тайёрлаш ва малакасини ошириш. –Тошкент: Фан, 2006. -232 б.
4. Обидов Қ.Қ. Педагогларнинг узлуксиз малакасини ошириш жараёнида фаолият мотивлари ва шахсий сифатларининг ўрни. Тошкент: Фан, 2008. -100 б.
5. Малака ошириш: муаммолар, изланишлар, ечимлар. –Тошкент, 2000. -98 б.

ЁШЛАРНИ МАЪНАВИЙ АХЛОҚИЙ ҚАДРИЯТЛАР РУҲИДА ТАРБИЯЛАШДА ХАЛҚ ПЕДАГОГИКАСИНИНГ ЎРНИ

Тилегенов Аскарбай Толегенович
Т.Н.Қори-Ниёзий номидаги Ўзбекистон педагогика фанлари илмий тадқиқот институти Қорақалпоғистон филиали директори, п.ф.н., профессор

https://doi.org/10.5281/zenodo.7926592

Аннотация. *Жамиятнинг равнақи инсон ҳаёт кечираётган муҳит, ана шу инсон фаолиятининг турли соҳаларида намоён бўлаётган маънавий асосга кўп жиҳатдан боғлиқ. Мана шу маънавий асосга йиллар давомида таркиб топган халқ педагогикаси бой манбаларга эга.*

Калит сўзлар*: маънавий ахлоқий қадриятлар,ёшлар, халқ педагогикаси, тажрибалар, маънавий тарбия**,** асосий манба, халқ оғзаки ижоди, миллий урф-одатлар, анъаналар, маросимлар, халқ уйинлари.*

Халқ педагогикаси умумхалқ ижодий маҳсулининг натижаси, педагогик маданиятнинг асосий ифодаси бўлиб, унинг илдизи қадим-қадимларга бориб тақалади. У ўзида халқнинг орзу-истаклари, қарашлари, инсон, оила, ёш авлод тарбияси ҳақидаги тасаввурларни акс эттиради.

Тадқиқотчиларнинг фикрига кўра халқ педагогикаси меҳнаткаш халқ ва халқ донишмандлигининг ёш авлодни мақсадга мувофиқ кишилар этиб етиштиришдаги тарбиянинг мақсад ва вазифаларига бўлган қарашлари ҳамда халқ оммаси томонидан таълим-тарбияни амалга ошириш борасида қўлланилиб усул, восита, кўникма ва малакалар борлигини ифодаловчи тажрибалар асосида тўпланган билим ва маълумотлар мажмуидир. Бошқача қилиб айтганда, халқ педагогикаси халқ оммасининг оғзаки тарзда яратган ва авлоддан – авлодга ўтиб келаётган тарбия ҳақидаги маълумотлари-педагогик ижодлари мажмуидир.

А.Э.Измаиловнинг таъкидлашича халқ педагогикасини тадқиқ этган барча тадқиқотчиларнинг таърифича, халқ педагогикаси авлоддан-авлодга ўтган тарбия хақидаги билимларнинг йиғиндисигина эмас, балки халқнинг тарбиявий фаолияти тажрибаси асосида мазкур билимларнинг малака ва кўникмага айланиши мажмуи ҳамдир. Ҳақиқатан ҳам халқ педагогикасида фақат тарбия жараёни эмас, балки таълим жараёни ҳам асосий манба сифатида катта аҳамиятга эга бўлади. Шундай экан олимнинг фикрича халқ педагогикаси таърифида таълим ва тарбия икки томонлама жараён сифатида ўз ифодасини топмоғи керак, яъни халқ педагогикаси - халқ оммасининг тарихий ва ижтимои тажрибаси сифатида оғзаки шаклда авлоддан-авлодга ўтиб келган, тажрибада синаб кўрилган ва жамланган эмпирик билимлар, маълумотлар, малака ва кўникмалар мажмуи.

Халқ педагогикаси кенг қамровли кўп қиррали бўлиб, тадқиқотчилар унинг манбаларини қуйидагилардан иборат деб кўрсатдилар (О.Мусурмонова, Н.Ш.Алметов ва бошқалар):

1. Ўзбек халқ оғзаки ижоди.
2. Миллий урф-одатлар, анъаналар, маросимлар.
3. Халқ уйинлари ва уйинчоқлар.
4. Диний таълимотлар.

5. Халқ амалий санъати ва унармандчилик.
6. Миллий мусиқа.
7. Тасвирий санъат.
8. Рақс санъати.

Биз бу манбаларга яна халқ табобатини ҳам қўшган бўлар эдик. Зеро, халқ табобатида ҳам таълим-тарбияга оид жуда кўп қимматли манбалар мавжуд.

Мазкур манбаларнинг кўпчилиги алоҳида эмас, бир-бирига уйғун ҳолда ҳам ифодаланади.

Масалан, халқ оғзаки ижоди тартибида миллий урф одатлар, анъаналар, маросимлар, халқ ўйинлари, диний таълимотлар, халқ амалий санъати ва ҳунармандчилигига оид, миллий мусиқа, рақс санъати халқ табобати ва бошқа манбаларни ҳам учраши мумкин. Ана шу манбалардан энг муҳими халқ оғзаки ижоди бўлиб, халқимизнинг ўз тарихий-ижтимои тараққиёти давомида авлоддан-авлодга ўтиб, сайқалланиб келаётган, шахснинг маънавий-ахлоқий такомилида ўзига хос таъсир доирасига эга.

Халқ оғзаки ижоди билан тарихчилар тарихий воқеаларнинг унда қандай акс этгани билан, элшунослар халқнинг урф-одатлари билан, санъатшунослар фольклордаги мусиқа, рақс, уйини ва бошқаларни, тилшунослар унинг лаҳза ва шевалари билан, адабиётшунослар унинг ёзма адабиёт билан муносабатларини текширадилар, - дейди фольклоршунос К.Имомов. Биз эса бу таърифга педагогика фани таълим-тарбия масалалари халқ оғзаки ижодида қандай ифодалангани билан шуғулланиши, унинг ақлий, ахлоқий, мехнат, нафосат, жисмоний тарбияда муҳим манба эканлигини алохида таъкидламоқчимиз. Зеро, халқ оғзаки ижоди халқ ҳаётининг бадиий ифодаси бўлиб, халқнинг ижтимоий-тарихий, фалсафий, бадий-эстетик қарашларини ўзида акс эттиради.

Шунинг учун ҳам халқ оғзаки ижодининг қиммати, унинг маърифий, ғоявий тарбиявий ва эстетик аҳамиятга эга эканлиги билан белгиланади. У халқимизнинг узоқ тарихи, урф одати, ижтимои ҳаёти, дунёқарашининг кенглиги, ижтимои» муносабатининг хилма-хиллиги, орзу-умидларининг улуғвор ва теранлиги билан билим беради ва маънавий-ахлоқий тарбия манбаи бўлиб ҳисобланади.

Айниқса, болаларнинг ўсмирлик даврида халқ оғзаки ижодига қизиқиши ўта кучли булади. Чунки бу ёшда улар катта орзу-умидлар билан яшайдилар ва ўз орзу-умидларини юзага чиқаришда халқ оғзаки ижодига сеҳр кучига, фантазияга ишонувчанлик кучли булади.

Иккинчидан, халқ оғзаки ижодининг бадиийлиги, тилининг равонлиги, мусиқийлиги, соддалиги ҳам ўсмирларга катта таъсир этади, қизиқишини уйғотади. Айнан, ўсмирлар ўрганадиган ўрта мактаб дарслик ва дастурларида халқ оғзаки ижодининг қўшиқ, мақол, топишмоқ, эртак, достон, афсона, ривоят, асотир ва бошқа жанрлари кенгроқ ўрин олган бўлиб, уларда таълим-тарбияга оид халқ донишмандлиги ифодаланган.

Буларнинг барчаси яна икки томонлама характерга эга: биринчидан халқ оғзаки ижоди халқ педагогикасининг манбаи сифатида ёшларда маънавий-ахлоқий қадриятлар рухида тарбиялашда муҳим ўрин эгалласа, иккинчи томондан бу

қадриятларнинг ўзи ҳам халқ педагогикасининг манбаи-халқ оғзаки ижодида ўз ифодасини топган.

Қадриятнинг ўзи нима.

Қадриятлар – инсон ва инсоният учун аҳамиятли бўлган барча нарсалар (эркинлик, тинчлик, ҳақиқат, маърифат, гузаллик, яхшилик ва бошқалар), жамият ва инсон учун ижобий ва салбий аҳамиятга эга (ижтимои ҳаётда ва табиятда бўладиган яхшилик, ёмонлик, ёвузлик, гузаллик ва хунуклик) бўлган ҳолатлар йиғиндисидан иборатдир.

О. Мусурмонова қадриятга шундай таъриф берган: «Қадрият – инсоннинг маънавий эҳтиёжлари асосида пайдо бўлган, амалий фаолиятда давр синовидан муваффақиятли ўтган, ўз шакл ва мазмунида у ёки бу халқнинг маънавий оламини мужассам этган, асрлар давомида халқнинг маънавий маданиятини шакллантириш манбаи сифатида қадрланиб келинган маънавий - руҳий хатти ҳаракатлар, нарса ва ҳодисалар мажмуидир».

Демак қадриятлар инсон томонидан қадрланадиган нарсалар (шунигдек, табият, ижтимои ҳодисалар, масалан, техника ёки санъат асарлари (Тугаринов В.П.) дан иборат бўлиб, кишиларнинг талаби, ҳохиши, қизиқиши ва мақсади асосида ўзаро муносабат, ўзаро таъсир (атроф-муҳит билан, инсонлар билан) натижасида вужудга келадиган ҳолатдир. Қадриятлар мазмунан хилма-хил турларга бўлиниб, турмушнинг барча томонларини қамраб олади. Файласуф олимлар қадриятларни характерига кўра турлича тасниф этадилар. Бир гуруҳ файласуф олимларнинг фикрларига кура, улар «ҳаёт қадриятлари» ва «маданият қадриятлари» дан иборат. Иккинчи гуруҳдагилар эса маданиятнинг анъанавий бўлинишига асосланиб, қадриятларни «моддий» ва «маънавий» тарзда тасниф этадилар. Учинчи гуруҳ таснифда қадриятлар «моддий» ва «маънавий» ва «ижтимоий-сиёсий» тарзда ифодаланади. (Тугаринов В.П.)

Ёшларни маънавий-ахлоқий қадриятлар руҳида тарбиялашда иккинчи гуруҳ таснифга асосланиш мақсадга мувофиқ. Чунки, ҳозирги жамият талабига жавоб берувчи ўқувчи-ёшда ҳар иккала гуруҳга хос қадрий сифатлар мужассам булмоғи лозим.

Маънавий қадриятлар ёшларнинг характери, қамрови, шакл ва мазмунига кўра таъсир этади. Моддий фаолият моддий қадриятни яратишнинг асоси булиб, инсон ва жамият ҳаёти учун восита ишлаб чиқаришдан иборат. Маънавий фаолият турли ғоялар (илмий, фалсафий, ахлоқий, диний) йиғиндисини ташкил этган. Ҳар иккала фаолият турлари бир-бирлари билан ўзаро боғлиқ ва хамкорликда ўқувчи-ёшлар маънавиятига, жамият тараққиётига бевосита таъсир этади.

Маънавий қадриятларнинг асосийларига қуйидагилар киради: эркинлик, тенглик, одиллик, одамлар дўстлиги, маориф, тўғрилик, яхшилик, гўзаллик ва бошқалар В.П.Тугариновнинг ишида фалсафий томондан қадриятларнинг бир неча турлари кўрсатилади. Олим жамиятдаги одамларнинг ҳар хил турдаги фаолиятларини уч соҳага бўлиб кўрсатади:

1.Моддий ишлаб чиқариш соҳаси (ва шу чиқарилган махсулотларни тарқалиш жараёни ҳамда хизмат кўрсатиш киради).

2.Ижтимоий-сиёсий фаолият соҳаси (бунга жамиятнинг турмуш шаклларини сақлаш киради).

3.Руҳий-ғоявий фаолият сохаси. Бу ерда одамлар ўз ғояларини, уй-фикрларини «ишлаб чиқариш» ва тарқатиш билан шуғулланади.

Қадрият фалсафа ва ахлоқшуносликнинг қадимий ва бошланғич тушунчаларидан биридир. Бу тушунча дастлаб «бойлик», «нозу-неъмат», яхшилик маъносида қадимги юнон этикасида кенг қўлланилган. Кейинчалик, XIX асрда Ғарбий Европа фалсафасида бу тушунча маъноси ўзгариб, қадрият деб атала бошлаган. Қадрият категорияси собиқ Иттифоқда 60-йиллардан бошлаб учрайди. Республикамизда эса, бу тушунча фан ва тарғиботда 90 йиллардан кенг қўллана бошланди. Бу сўнгги йилларда халқимизнинг миллий онгининг ўйғониши, тарихий, миллий меросимизга, илғор урф-одатларимизга эҳтиёжу – эътибор ортиб бораётганлигнинг ифодасидир.

Қадрият тушунчаси дастлаб ахлоқшунослик фанининг асосчиси Аристотель асарларида кенг қўлланилган. Унинг фикрича, қадрият кўп маъноли тушунча булиб , нарса ва ҳодисаларнинг, жумладан, инсон рухининг (ақли, ҳиссиётлари, иродаси) ҳислатларини, умуман борлиқнинг сифат-ҳислатларини ифодалайди.

Бизнинг фикримизча, қадриятлар - бу инсоният учун керакли бўлган барча нарсалар, ҳолатлар улар инсонлар томонидан қадрланади. Инсоннинг кундаликли турмушида қулланилади.

Маънавий ахлоқий қадриятлар халқимизнинг миллий урф-одати, анъаналари, ёшларни тарбиялашга ва улар онгининг шаклланишида, миллий меросимизни авайлаб-асрашга, урф-одатлар, қадриятларга жалб этиш, қизиқтиришда муҳим омил эканлигини педагог-олимларимиз ўзларининг ишларида қайд этиб ўтадилар. Масалан, У.Тоштемиров, Х.Сапохонов, Р.Холматов, Л.Зохидовлар қадриятларини қуйидагича изоҳлайдилар: «Қадриятна кенг, фалсафий маънода жузъий, яъни маданий, маънавий, ахлоқий, эстетик маънода тушуниш мумкин. Фалсафий маънода инсоннинг кундалик турмушига фойдали, унинг моддий ва маънавий эҳтиёжларини қондиришга хизмат қиладиган, инсонга роҳат-фароғат бағишловчи нарса ва ҳодисалар, уларнинг хусусиятларидир. Қадрият - объектив борлиқнинг шахс ва (ҳодисалар) жамият тараққиёти учун фойдали хоссаларидир. Қадриятнинг ахлоқий маъноси шахс ва жамият тараққиёти, ижтимоий гуруҳлар (оила, миллат, жамоат), жамиятнинг ахлоқий фазилатлари, ахлоқ-одоб қоидалари, тушунчалари, қарашлари ва илғор урф-одатларидир».

Мазкур ҳодисалар шахс ва жамиятнинг ахлоқий ривожи воситаси бўлганлиги учун ахлоқий қадриятлар деб аталади.

Юқорида таъкидлаганимиздек, қадриятларни тарбиявий аҳамияти ва педагогик муаммо сифатида биринчилардан бўлиб О.Мусурмонова педагогик нуқтаи назардан тадқиқ этди. У узининг «Юқори синф ўқувчилари маънавий маданиятини шакллантиришнинг педагогик асослари» мавзуидаги докторлик диссертациясида қадриятлар, урф-одат, анъана ва халқ ижодига кенг тушунча беради. Ўқувчиларнинг булар асосида маънавий маданиятини шакллантиришнинг педагогик услубиётини ишлаб чиқади. Олима асосан қадриятлар, урф-одатлар, аънаналарни фалсафий, педагогик фольклор нуқтаи назаридан таҳлил этади. Қадриятларни

тасниф этади ва уларни турларга бўлиб кўрсатади ва тарбиявий имкониятларини илмий педагогик жиҳатдан назарий талқин этади.

Умуминсоний қадриятлар барча миллатлар манфаатига мос келадиган маънавий хазинадан иборат бўлиб, миллий қадриятлар билан ягона тарбиявий асосга эгадир. Миллий қадриятлар мазмунан маълум бир миллатнинг ғоялари, қарашлари, эътиқодлари, маънавий турмуш тарзи, орзу-истаклари, келажак мақсадини ифода этади. Умуминсоний ва миллий қадриятлар ўқувчининг кундалик фаолиятида одат, анъана тусига кириб қолгандагина маънавий шаклланишга бевосита таъсир этади. Қадриятларнинг, болаларга бўлган таъсири катталарга бўлган таъсиридан анча устун туради, чунки катталарнинг дунёқараши ва эътиқодлари, одатлари қарор топган бўлса, болаларда эндиликда уларнинг пойдевори қуйилаётган булади. Болалар ўз табиатига кўра таъсирчан бўлганликлари учун уларга борлиқ ва ундаги воқеаларнинг таъсири кучли булади».

Маънавий қадриятлар шаклан: турли характердаги маданий – маърифий ёдгорликлар, муассасалар (тарихий ансамбльлар, мақбаралар, сардоба, масжид, мадраса, хонақох в.б.); бадиий-эстетик нарса ва ҳодисалар (халқ санъати, мусиқа, лисоний ва ёзма манбалар, миллий байрам анъаналари, тўй ва мотам маросимлари билан боғлиқ турли безаклар ва б.к.); жисмоний чиниқтирувчи уйинлар (човган, кўпкари, туптош, шатранж, нард ва б.қ.); миллат, халқ тафаккур тарзини белгиловчи меҳнат қадриятлари, хунармандчиликда санъати, (кулолчилик, мисгарлик, меъморчилик, заргарлик, дуродгорлик, туқимачилик, ўймакорлик, сангтарошлик ганчкорлик, дехқончилик, чорвачилик, боғдорчилик ва б.қ.); инсон маиший турмушини ифодаловчи қадриятлар (таомлар, шарқона, уйлар, ҳайвонат олами ва б.қ.) шунингдек, инсоният маънавий ривожланишида мухим роль уйнайдиган илмий манбалар (мантиқ, фалсафа, риёзиёт, хандаса (геометрия), жабру-муқобил (алгебра), жуғрофия, илми нужум (астрономия) , адабиёт, улум ал-ислом (ислом илми); инсонпарварлик, меҳнатсеварлик, меҳр-оқибат, мурувват, ота-онага муҳаббат, ҳиммат каби маънавий-руҳий қадриятлар ҳамда адолат, тинчликсеварлик, тенглик, дўстлик, ўз-ўзини англаш, эркинлик каби ижтимоий – сиёсий мазмундаги қадриятлардан иборатдир.

Қадриятларнинг муаллифлари ва уларни авлоддан-авлодга етказувчи-бу халқ. Улар кишиларнинг ижтимои ва (сиёсий) маданий фаолиятларида пайдо бўлган ва шаклланган. Шаклан ва мазмунан ҳеч ўзгармайдиган қадриятларнинг булиши мумкин эмас. Баъзи халқларнинг қадриятлари жамиятдаги ижтимоий – иқтисодий тузумнинг ўзгариши билан мазмунан бойиши мумкин, баъзи бир қадриятлар – эса ўз умрини яшаб бўлган, янги пайдо бўлган қадриятларга ўрнини бўшатиб беришга мажбур булади жараённинг ижобий самараси шу жамиятнинг маданиятга бўлган эҳтиёжи, талаби ва муносабатига боғлиқ. Масалан, Шарқ халқларига хос меҳмоннавозлик қадимдан мавжуд бўлиб, ҳозирги кунда ҳам ўз қадрини йўқотмаган қадриятлардан ҳисобланади. Болаларни келажакка тайёрлашда уларни комил инсон этиб шакллантиришда халқ педагогикаси ва унинг муҳим манбаларидан булган халқ оғзаки ижоди маънавий қадриятларни авлоддан-авлодга етказишда муҳим восита ҳисобланади. Юқорида таъкидлаганимиздек, ўзбек халқ оғзаки ижоди намуналари халқнинг турмуш тарзи ахлоқ-одоби урф-одатлари анъаналари диний

эътиқодини ўзида мужассам этади, орзу – умидларини мехнатга ижобий муносабатини, ватанпарварлигини, муҳаббатда садоқатини, эрки, озодлиги йўлидаги мардонавор кўрашини, моддий ва маънавий эҳтиёжларини, келажак фаровон турмушга ишончини ифодалайди.

Ҳозирги вақтда ёшларни урф-одатлар, маросимлар маънавий-ахлоқий қадриятлар руҳида тарбиялаш, уларга фойдали томонларини очиб бериш, ўргатиш давр талабидир. Энг муҳими, ёшларни халқнинг урф-одат ва анъаналарини ҳамда умуминсоний қадриятларга қизиқтира билишимиз зарур.

REFERENCES

1. Мусурмонова О. Ёшларни маънавий-ахлоқий қадриятлар руҳида тарбиялаш. Услубий қўлланма. Тошкент-1996 йил.
2. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. (Маъруза матнлари учун материаллар). Тошкент-2001 йил.
3. Қорақалпоқ фольклори. Алпамыс.Қоблан. Нукус «Қорақалпоғистон» 1995 йил.
4. С.Ҳ. Носирхўжаев ва бошқалар. Маънавият асослари. Тошкент-2009 йил.

MAKTABDA IJTIMOIY-MADANIY MUHITNI TASHKIL ETISHDA PEDAGOGIK KONFLIKTLARNI BARTARAF ETISH

Ernazarova Gulnora Oblaqulovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Umumiy pedagogika kafedrasi mudiri, p.f.d., prof.

https://doi.org/10.5281/zenodo.7930978

Annotatsiya. *Maqolada maktab hayotida uchraydigan konfliktlarning umumiy tavsifi, konfliktogenlarning konfliktga imkon beruvchi, sharoit yaratuvchi ekanligi va ularning turlari, konfliktogenlar eskalatsiyasi yuzaga kelmasligi uchun bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar, konflikt mazmunining murakkab kelib chiqish vaziyatlarini anglash, ta'lim muassasalarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni tadqiq etish va ularni bartaraf etish texnologiyasini ishlab chiqish dolzarbligi masalalari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *konflikt, konfliktogen,pedagogik konfliktlar, aldash, agressiya, egoizm, konflikt vaziyat, depressiya, xudbinlik.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldagi PQ-4623-son “Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorida belgilangan vazifalar [7] ta'lim jarayoni ishtirokchilari orasida uchraydigan pedagogik konfliktlar xususiyati, sabablari, oqibati kabilarni aniqlash va ularni bartaraf etish texnologiyasini tadqiq etishni taqozo etadi.

Pedagogik konfliktlar - bu ta'lim oluvchi shaxsining ongi, faoliyatining shakllanishi va ta'lim-tarbiya olish jarayonidagi ziddiyatlar, nizolar va to'qnashuvlar majmui bo'lib, uning uzluksiz ta'lim turlarining har bir bosqichida uchraydigan ko'rinishlari va shakllari, turlariga ega.

Pedagogik konflikt masalalari O'zbekistonda G.To'ychievaning “Yoshlar va konfliktlar:

konfliktlar yechimiga o'rganish” mavzusidagi o'quv qo'llanmasida, M.T.Axmedova tomonidan pedagogik konflikt masalalari nazariy jihatdan yoritilgan [2]. Shuningdek, chet el olimlaridan I.V.Nikulinaning “Pedagogicheskaya konfliktologiya” darsligi, S.V.Banikinaning “Pedagogicheskaya konfliktologiya: sostoyanie, problemi, issledovaniya i perspektivi razvitiya” monografiyasi, D.P.Zorkinning “Osnovi konfliktologii” tadqiqotida konfliktlarni oldini olish, bartaraf etish kabi masalalar yoritilgan ?4?.

Konfliktlar hodisasini fan sifatida o'rganish XX asrning 50-yillaridan boshlangan bo'lib ushbu fan Konfliktologiya deb ataladi.

Inson o'z hayotida bolalik davridanoq boshqa insonlar bilan turli ijtimoiy munosabatlarga kirishadi. Inson hayoti boshqalar bilan bo'ladigan turli munosabatlarning uzluksizligidan iborat bo'lgan jarayondir. Ana shu munosabatlar esa har doim ham tekis, silliq va tinch davom etavermaydi. Hayotning bir tekis davom etishini turli nizo va ziddiyatlar buzib turadi. Biz ularni konfliktlar deb ataymiz [5] .

Maktabda ijtimoiy-madaniy muhitni tashkil etishda pedagogik konfliktlarni bartaraf etish har bir maktab hayotiga aloqador bo'lgan o'ziga xos jarayon bo'lib, hech bir ta`lim muassasasi ishonch bilan maskanni konfliktlardan muhofaza qilingan deb ayta olmaydi.

Konfliktlar inson hayotining ajralmas qismi hisoblanadi, chunki har bir inson o'z hayoti davomida konfliktlar bilan to'qnash keladi.

Konflikt tushunchasi lotincha conflictus so'zidan olingan bo'lib “to'qnashuv”, “ziddiyat” va “nizo” ma'nolarini anglatadi [6].

Konflikt – bu manfaatlar, maqsadlar, pozitsiyalar va qarashlarning o'zaro ziddiyatga kelishi bo'lib, u quyidagi xususiyatlarga ega:

-konfliktli vaziyat;

-konfliktli harakat;

-konfliktga sabab.

Konfliktlar tabiiy hodisa bo'lib, konflikt bilan to'g'ri munosabat o'rnatish inson tarbiyasi, uning shakllanishining zaruriy talablaridan biridir. Zamonaviy jamiyatda insonga bo'lgan turli ilmiy-texnik, ma'naviy, iqtisodiy ta'sirlarning ortib borishi odamlar to'qnash kelishi mumkin bo'lgan konflikt vaziyatlarni ham oshiradi [1].

Konflikt vaziyatga tushib qolgan vaqtimizdagina mana shu konflikt vaziyatni tahlil qilishga urinamiz. Ammo har doim ham bizning bilim va ko'nikmalarimiz konflikt vaziyatdan chiqib ketish uchun yetarli bo'lmaydi. Chunki bizning hayotiy tajribamiz kam va konfliktlar yechimi bo'yicha maxsus bilimlarni egallamaganmiz.

Maktabda ijtimoiy-madaniy muhitni tashkil etishda pedagogik konfliktlarni bartaraf etish muhim ahamiyatga ega. Chunki konfliktlar maktab hayotining har bir bosqichida kelib chiqishi mumkin bo'lib, ulardan himoyaga doim tayyor turish kerak. Konfliktlar qo'qqisdan, ularni umuman kutmagan vaqtda, konflikt kelib chiqishining umuman iloji bo'lmagan hollarda vujudga kelishi va maktab hayoti va tinchligini buzishi mumkin.

Shuning uchun konfliktlarning kelib chiqish qonuniyatlari qanday va vujudga kelgan konfliktning ildizlari va sabablarini tahlil qilish yo'llari nimalardan iborat degan masalalar dolzarblik kasb etadi.

Konflikt vaziyatda har bir tomonning o'z qarashlari, o'ylari, fikrlari tizimi majmuasi mavjud bo'lib. Mana shu o'y fikrlar tizimi xuddi mana shu tomonning o'z shaxsiy manfaatlarini anglatadi. Inson o'z shaxsiy manfaatlarisiz yashay olmadi. Har bir odamning hatto eng kichkina bolakaylarning ham o'z shaxsiy manfaatlari mavjud. Shaxsiy manfaatlar inson hayotining tabiiy ehtiyoji ekanligi aniq.

Shunday ekan, konfliktlarida xuddi mana shu shaxsiy manfaatlar ziddiyatga kirishadi. Shunday ekan, konflikt mazmuni-inson manfaatlarining holati bilan uzviy bog'liq bo'lgan voqelikka aylanadi.

Ya'ni konflikt-bu ikki yoki undan ortiq tomonlarning o'z maqsadlariga yetish yo'lidagi turli manfaatli to'qnashuvidir.

Demak, konfliktni insonlar emas, balki vaziyatlar va manfaatlar vujudga keltiradi.

Konfliktlarning kelib chiqishida “Konfliktogen”lar juda muhim rol` o'ynaydi. Konfliktogen - konfliktga imkon beruvchi, konflikt uchun sharoit yaratuvchi sifatida tarjima qilinadi.

«Konfliktogen» so'zining so'zma-so'z tarjimasi — «konfliktlarni to'g'diruvchi» degan ma'noni anglatadi ?8?.

Konfliktga olib kelishi mumkin bo'lgan so'zlar, amallar yoki harakatlar konfliktogen deb ataladi.

Konfliktogenlarning ko'pchiligini quyidagi turlarga ajratish mumkin:

-o'zini ustun qo'yish;

-agressiyaga moyillik;

-egoizm kabilar.

O'zini ustun qo'yish quyidagi amallarda namoyon bo'ladi:

O'zini ustun qo'yishning ochiq ko'rinishlari: buyruq berib gapirish, tahdid qilish, birovni niqtab turish, salbiy munosabatlar, tanqid, ayblash, birov ustidan kulish, istehzo, sarkazm, piching, kesatiq kabilar.

Yashiringan ustun qo'yish hollari: “Tinchlaning”, “Shuni ham bilmaysizmi…”, “Tushunmaysizmi?...”, “Fahmlay olasizmi?” kabi, bu vaziyatlarda tashqi ko'rinishdan mayin ohang tanlansa ham, bu holat konfliktogen holat sifatida baholanadi.

Maqtonchoqlik: o'z marralari va yutuqlari haqida ko'pirib gapirish, shu bilan birga o'zgalar marralarini pastga urish, ularni “o'z o'rniga qo'yib qo'yish” istagi.

Qat'iylik, fikr va qarashlar keskinligi: o'z fikrlarining to'g'riligiga haddan ziyod ishonish, qarashlarni bildirishdagi keskinlik, faqat o'zi to'g'ri so'z ayta olishi mumkinligiga ishonch, birovlar fikrini o'ylab ko'rmaslik. Masalan, “Sen nimani ham bilarding?...”, “Bo'ldi gapingni to'xtat…”, “Hamma-yolg'onchi…”, “Yo bugungi yoshlar buzilgan…” kabi so'zlar bilan anglashiladi.

Shuninigdek, yoshlarni qiziqtirgan musiqa, o'zini tutish, kiyinishi kabilar kattalarning jig'iga tegishi mumkin. Bunday fikrlar ochiqchasiga bildirilganda, yoki ba'zi ma'lumotlarni bolani tafakkuriga majburiy kiritishgan urinish bolgan hollarda,bolalar o'z ota onasidan ma'lum axborotlarni yashirishga tushadi, o'z odatlarini himoya qilish yo'lini tutadi.

O'z maqsadlari va fikrlarini majburiy singdirish va qabul qilinishiga harakat qilish.

Odatda, maslahat faqat maslahat so'ralgan taqdirdagina berilishi lozim. Ammo ko'pchilik hollarda biror muammo muhokama qilinayotgan bo'lsa, o'zini katta tutgan odam, yoki yoshi kattaroq odam, albattga maslahat qila boshlaydi. Maslahatni esa yo qabul qilish, yoki uni inkor qilish mumkin. Maslahat qabul qilinsa, uni bergan odam xursand bo'ladi, maslahat ochiqchasiga inkor etilsa, uni bergan odam, eng ijobiy munosabatda, “Meni mensimadi, gapimga kirmadi” deyishi mumkin.

Informatsiyani yashirish: Odamlar xayotida axborot muxim rol' o'ynaydi. Axborotni yashirish kishilarda shubha uyg'otadi. Shu bilan birga, axborotni yashirgan kishiga nisbatan ishonchsizlik vujudga keladi. Oqibatda odamlar orasi va munosabatlari buzilishi uchun asos tug'iladi.

Erkaklar ko'proq, o'z shaxsiy vaqtining qanday va nimalarga sarflanayotganligini, yoki umumiy mablag'larining miqdorini, ularning nimalarga ishlatilayotganligini, o'z xato va kamchiliklarini yashirishga harakat qilishadi.

Ayollar esa erkaklar borasidagi o'z ichki hissiyotlarini, yashirin iqtisod qilingan pul mablag'larini, erining qarindoshlariga nisbatan haqiqiy munosabatini, bolalarining ba'zi “ayblarini” yashirishga urinishadi.

Hamsuhbati so'zlarini bo'lish. Suhbat faqat bir tomonning emas, balki ishtirok etayotgan ikki tomonning muloqoti hisoblanadi. Ammo ko'pchilik hollarda ba'zi odamlar faqat o'z tuyg'ularini gapirishga e'tibor qilib, o'zga odamni eshitishga sabr-toqat qilishmaydi.Boshqa tomon ham o'z fikrlarini bildira boshlasa, uning so'zlari keskin bo'linadi, o'z hamsuhbatiga e'tiborsizlik ko'rsatiladi.

Bu bilan o'z so'zlarining boshqalar fikrlaridan muhimroq ekanini ko'rsatish, faqat o'zi gapirishga harakat qilish, boshqalarga so'z bermaslik orqali o'z ustunligini ko'rsatmoqchi bo'lishadi. O'z ustunligini doimo ko'rsatishga intilish ko'pincha boshqalar huquqlarining kamsitilishi evaziga bo'lishi ham konfliktogenning paydo bo'lishiga olib keladi.

Birovning ustidan kulish. Birovning ustidan istehzo bilan kulish, uni masxara qilish agressiyaning psixologik turlaridan hisoblanadi. Birovning ustidan kulish inson huquqlarini

buzishga yo'naltirilgan bo'ladi. Inson ustidan kulish uning nafsoniyatiga tegadi va uzoq vaqt dilda urnashib qoladi. Bolaligida mazax qilingan-“ semizlar”, “qishloqilar”, "turqi sovuq”lar keyinchalik o'z ustidan kulgan odamlarga qarshi harakat olib borgani, yoki, “birinchi muhabbati” hamma tomonidan kulgi ostiga olingan yigitlar keyinchalik o'z dushmanlaridan qaqshatgich qasos olgani borasidagi hayotiy misollar ko'p. Ko'pchilik hollarda

kulgi ostida qolgan odam qulay vaziyat poylab o'z javobini tayyorlaydi.

Aldash yoki aldashga harakat qilish eng ashaddiy konfliktogenlardan xisoblanadi. Ayollar ham, erkaklar ham o'zlarini aldashga yo'naltirilgan harakatlarni kechira olmaydilar. Odatda aldash orqali yuzaga kelgan hissiy-emotsional holat juda uzoq vaqt ongda saqlanib qoladi, hamda umr bo'yi konfliktogen rolini o'ynab keladi.

Aldash orqali odam yuragida yuzaga kelgan alam ko'p hollarda umuman yo'qolmaydi va uchib ham ketmaydi. Bu alam bot-bot odamlar orasiga yangitdan nizo solinishiga asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Agar munosabatlarda aldash vujudga kelgan bo'lsa, tomonlar munosabati barbod bo'lishi tabiiy.

Hamsuhbatining biror kamchiligi yoki muvaffaqiyatsizligini doimo ta'kidlab o'tishga harakat qilish. Birovlarning ishi yurishmaganidan xursand bo'lish, o'zi yoqtirmagan odamlarning hayotida biror kor-xol bo'lsa, undan quvonish, ba'zi odamlarning ustidan muntazam kulish, kamchiliklarni rukach qilish, mana shu holatlarda o'zini yaxshi his qilish o'zini ustun qo'yishning turlaridan biri hisoblanadi.

Muvaffaqiyatsizlik hamma bilan ham sodir bo'lishi mumkin, kamchilik va xato esa, uni tuzatilmagunicha kamchilik va xato bo'lib qoladi, agar tuzatilsa u xato bo'lmaydi.

Muvaffaqiyatsizlikdan hech kim o'zini muhofaza qilinganman deb ayta olmaydi. Shu bois, o'z do'sti, xamkasbi, o'rtog'i, qarindoshi, eri va yoki xotinining biror kamchiligini umrbod ushlab olib, doimo uni ta'kidlayverish, uni muntazam esga solish, o'z ustunligini ko'rsatish uchun rukach qilish oxir-oqibat juda katta konfliktni keltirib chiqarishi mumkin.

O'zining zimmasidagi mas'uliyatni birovlar zimmasiga yuklash. Xayotda o'z ma'suliyatidagi vazifalarda befarq yondoshish hollari uchrab turadi. Masalan, ko'p hollarda biror narsa qilib berilishiga va'da qilinadi. Ammo o'zi qilib berishi lozim bo'lgan vazifa boshqalar zimmasiga yuklatiladi. Ammo boshqalar bu vazifani bajarmaydi. Natijada orada ziddiyat vujudga keladi.

O`quvchi qizlar agressiyasi esa ochiq ifodalanmaydi. Ular orqavorotdan, asta, bilintirmay, zimdan harakat qiladi. Ularni “Sen shu ishni qilding” deb ushlab olish juda qiyin kechadi, chunki ular kuproq psixologik agressiyani tanlashadi va ishlatishadi. O'z opponentini psixologik ezish, uni taxqirlash, unga bepisand munosabatda bo'lish qizlar agressiyasining shakllari hisoblanadi.

O`quvchi o`g`il bolalalar agressiyasi darrov o'zini ayon etadi. Urish, jismoniy tazyiq, turtish, bir tushurish, bug'ish, jismoniy harakatlarni cheklash, duq qilish, shantaj - bular o`g`il bolalar kuproq qo'llaydigan agressiya turlari hisoblanadi.

O`quvchi qizlarlar agressiyada keskin ish tutmaydi, asta, zimdan ish tutadi. Birovni kamsitish, ruhiy ezish, o'z kayfiyatini birovni ezish oqibatida normallashtirish, “Kulib turib, jonini olish” ularning agressiyasiga xos. Ular urmasdan turib, boshqa insonni juda katta ruhiy tanglik holatiga olib kirib qo'yishi mumkin.

Bir qaraganda o`gi`l bola o`quvchilar agressiyasi ochiq namoyon bo'lganligi uchun bezarardek ko'rinadi. Aslida har ikki tur agressiya ham juda yomon oqibatlarga olib kelishi

mumkin. Erkaklar agressiv munosabati oqibatida opponet tomon qattiq jismoniy jarohat olishi mumkinligi ayon. Qizlar agressiyasining keng tarqalgan oqibatlaridan biri, bu — depressiyadir.

Depressiyaning oqibatlari ham insonga juda katta tashvishlar olib keladi. Depressiya xolatiga chuqur kirib ketgan odam ko'p hollarda o'z joniga suiqasd qilishi mumkin.

Agressivlikka moyillikning oldini olish ta'lim va tarbiya, insoniy qadriyatlar, diniy e'tiqod tizimida yotadi.

Inson o'zida agressiyaga moyillikni sezsa, unga qarshi o'zini to'g'ri shakllantira borishi lozim.

Agressiya u yo'naltirilgan odamning ham, uni ishlatayotgan, agressiyani qo'llayotgan odamning ham salomatligiga juda katta putur yetkazadi.

Depressiyaning oqibatlari ham insonga juda katta tashvishlar olib keladi. Depressiya xolatiga chuqur kirib ketgan odam ko'p hollarda o'z joniga suiqasd qilishi mumkin.

Agressivlikka moyillikning oldini olish ta'lim va tarbiya, insoniy qadriyatlar, diniy e'tiqod tizimida yotadi.

Inson o'zida agressiyaga moyillikni sezsa, unga qarshi o'zini to'g'ri shakllantira borishi lozim.

Agressiya u yo'naltirilgan odamning ham, uni ishlatayotgan, agressiyani qo'llayotgan odamning ham salomatligiga juda katta putur yetkazadi.

Egoizm - faqat o'z manfaatlarini ko'rish qobiliyati bo'lib, o'zbek tilida “Xudbinlik” so'ziga to'g'ri keladi. Xudbinlik forscha so'z bo'lib, ikki ildizdan tashkil topgan: “xud” — o'z, o'zim ma'nolarini bildiradi, “bin” – ko'rish ma'nosini bildiradi. Demak, xudbin so'zining ma'nosi — faqat o'zini ko'rishga to'g'ri keladi.

Doimiy agressiyaning ildizlaridan biri egoizmga borib taqaladi,

Egoizm — o'z manfaatlarini, boshqalar manfaatlarining buzilishiga qaramay, eng oliy qadriyat sifatida anglanish jarayoniga aytiladi.

Shu bois, Frantsuz lingvisti P.Buast “Xudbinlik ustidan qozonilgan- g'alaba eng sharafli g'alabadir ", deb aytgan. Frantsuz yozuvchisi S.Segyur esa, “xudbin uchun — o'tmish bo'shliq, hozir — qaqroq-cho'l, kelajak esa — ahamiyatsizdir “ deb takidlagan.

Insonning o'z -o'ziga munosabati tabiatan o'zini o'zi ma'qullash, o'zini sevish, o'ziga aro berish, o'zini chiroyli tutish, o'zini “yaxshi” inson sifatida ko'rsatish asosida shakllantiriladi.

Bolalikda kichkintoylarni o'z yuz-qo'lini orasta tutishini o'rgatayotganda biz odatda ularga “Hozir qo'llarimiz va yuzimizni yuvib, oppoqqina bo'lib olamiz”, deymiz. Mana shu oppoqqina bo'lish tartib va qoidalari har bir insonga bolalikdanoq singdiriladi.

Shu bois, insonning ichki o'zini anglashida “Men” degan tushuncha tarbiyalanishi lozim va zarur.

Inson “Men”i uni ijtimoiy xodisa sifatida shakllanishi uchun asos yaratadi. Yutuqlarga erishish, o'zini ko'rsatish, hurmatga sazovor bo'lish mana shu ichki “men”ning sayi-harakatlari asosida amalga oshiriladi.

Demak, ichki “Men”ni nimalarga yo'naltirilsa, oxir oqibat shu qadriyatlarga mutanosib xarakter va amallar shakllantiriladi. Ammo ana shu ichki “Men” boshqa yuzlab “Menlarga qarshi, ularni inkor etish emas, balki ular bilan birgalikda yashashga ko'nikkan holda tarbiyalanishi lozim.

Shu nuqtai nazardan inson ichki “Meni” bilan bog'lik ravishda sog'lom “Egoizm” va nosog'lom “Egoizm” ajratiladi.

Sog'lom egoizm insonning shaxs sifatida shakllanishi uchun energiya beruvchi kuchi hisoblalnadi.

Nosog'lom egoizm esa insonlarni o'zga inson bilan tuqnashuvi, ziddiyatlar, o'zini ustun qo'yish, kelisha olmaslik, o'zgalarni inkor qilish uchun xizmat qiladi.

Axborotlar almashinuv jarayonida, biz o'zimizning so'zlarimiz va amallarimizga emas, balki bizga aytilgan boshqa odamlarning so'zlari va amallariga ko'proq e'tiborliroqmiz. Boshqalardan kelayotgan informatsiyani diqqat bilan fil'trlaymiz, o'zimiz junatayotgan informatsiyani esa — fil`trlamasdan, tug'ri jo'natamiz. Shu nuqtai nazardan, hamma o'zgalardan kelayotgan axborotga emotsional yondoshamiz, o'zimizdan ketayotgan informatsiyani esa ko'proq shundayligicha, ya'ni boricha jo'natamiz. Buning natijasida konfliktogenlar eskalatsiyasi paydo bo'ladi.

Maktab hayotida uchrab turadigan konfliktogen vaziyatlar chuqur ziddiyatlarning kelib chiqishini ta'minlashi mumkin.

Konfliktogenlar ko'payib, ular majmuaga aylanganda, konflikt tug'iladi.

Konfliktogenlar eskalatsiyasi qonuniy ravishda konfliktga olib keladi.

Bizga kelayotgan axborotlar konfliktogenlar bilan to'lgan bo'lsa, biz unga tabiiy ravishda o'zimizdagi konfliktogenlar bilan javob beramiz. Demak, konflikt vaziyat biz junatayotgan va qabul qilayotgan axborotlar orasidagi hissiy-emotsionl hamda psixologik muvozanat buzilganda yuzaga keladi [6].

Konfliktogenlar tahdidiga uchragan odam, odatda, o'zining psixologik va emotsional holatini himoya qilishga o'tadi. Shu bois, u konfliktogenga nisbatan o'zidagi emotsional tahdid bilan munosabat bildiradi. Mazkur emotsional tahdid ko'pchilik hollarda ovoz, mimika, intonatsiyadagi agressiya bilan ifoda qilinadi. Agressiyaga doim o'ziga yarasha agressiya bilan javob qaytariladi.

Konfliktogenlar eskalatsiyasi yuzaga kelmasligi uchun:

-Konfliktogenlarning o'zingiz va atrofdagilar yuragida yig'ilishiga yo'l qo'ymaslik;

-Konfliktogenlar vujudga kela boshlaganda esa, ulardan o'z fikri va ongini ozod qilish yo'llarini qidirish;

-O'zimizda vujudga kelishi mumkin bo'lgan konfliktogenlar boshqalar ko'nglida ham yuzaga kelishi mumkinligini nazarga olishimiz darkor.

Shunday qilib, konfliktlar mazmunini bilish insonni konflikt vaziyatlarda o'zini tutish tartib-qoidalariga o'rgatadi.

Konflikt mazmunining murakkab kelib chiqish vaziyatlarini anglash esa insonni ana shunday bilimlar bilan qurollantiradi.

Ta'lim muassasalarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni tadqiq etish va ularni bartaraf etish texnologiyasini ishlab chiqish dolzarb pedago-akmeologik masalalardan biri hisoblanadi.

Muammoning zaruriyatini quyidagilar orqali belgilashimiz mumkin:

-ta'lim muassasalarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning nazariy asoslari zarurligi;

-ta'lim muassasalarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etish texnologiyasini ishlab chiqish;

-ta'lim muassasalarida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etish texnologiyasini qo'llash metodikasini ishlab chiqish.

REFERENCES

1. Abrams Peace Education Foundation. Inc., Miami, Florida, 1998; Fran Schmidt/ Alice Friedman. Fighting Fair. For families. Grace Contrino Abrams Peace Education Foundation. Inc., Miami, Florida, 1994.
2. Ахмедова М. Педагогик конфликтология. –Т.: ТДПУ. 2017. 12-бет.
3. Самарин А.Н. Конфликты в духовной сфере современного общества: состояние и проблемы урегулирования // Конфликтология. Теория и практика. 2004. №4.;
4. Шаленко В.Н. Социальные конфликты / Под ред. Добренькова В.И., Кравченко А.И. / Фундаментальная социология: в 15 томах, т.VI: Социальные деформации. Гл. 4, раздел 1. -М.: Инфра-М, 2005.;
5. Эрназарова Г.О., Исламова М.Ш. Педагогик конфликтология/ Ўқув қўлланма. –Т.: Фан ва технологиялар. 2021 й. -270 б. (Ўзбекистон Республикаси олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 30.06.2020. № 359-буйруғи, 359-132-сонли гувоҳномаси)
6. Эрназарова Г.О., Хазиева Д.Э. Необходимость конфликтологической компетентности педагога/ Национальная ассоциация ученых Ежемесячный научный журнал Том2 №69/2021DOI: 10.31618/NAS.2413-5291.2021.2.69 ISSN Print 2412-5291, 35-38 с.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 27 февралдаги ПҚ-4623-сон “Педагогик таълим соҳасини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори.www.lex.uz.
8. Handling Conflicts. Conflicts; a positive approach. Particirant’s manual. Grace Contrino Abrams Peace Education Foundation. Inc., Miami, Florida. 1997;

TA'LIM MUASSASALARIDA MADANIY MUHITNI YARATISHDA MILLIY O'QUV DASTURINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Djumaev Mamanazar
p.f.n. professor, Nizomiy nomidagi TDPU

https://doi.org/10.5281/zenodo.7927533

Annotatsiya. *Maqolada uzluksiz ta’lim tizimida fan dasturlarining uzviyligi ta’minlanmaganligi ta’lim sifati va samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ta’lim turlariaro mavzularning takrorlanishi, ayrim mavzularga haddan ziyod ko‘p soat ajratilgani, fan mazmuni deyarli nazariy ma’lumotlarga asoslanganligi hamda xalqaro tadqiqotlar singdirilmaganligi kabi muammolar va Maktabgacha ta’limni rivojlantirish sohasida davlat siyosatini muvaffaqiyatli yuritishga va ta’lim-tarbiya jarayonlarini talab darajasida tashkil xususiyatlari qaraladi.*

Kalit so‘zlar: *Maktabgacha ta'lim, boshlang‘ich ta'lim, uzluksiz ta'lim, kompetensiya, matematika, pedagogika, ta'lim va tarbiya.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-sonli qarori ilovasining 4-bandiga ko‘ra “Maktabgacha, umumiy o‘rta, profes- sional va oliy ta’lim o‘quv dasturlari va fanlarning uzluksizligini ta’minlash” vazifasi belgilangan.

Qaror ijrosiga binoan Uzluksiz ta’lim tizimida matematika fani uzviyligini ta’minlagan holda milliy o‘quv dasturi majmuasini tayyorlashning maqsad va vazifalar belgilandi.

Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi Maktabgacha ta’lim, Xalq ta’limi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’limi vazirliklari hamkorligida 32 nafar matematika fani mutaxassis olimlari, tajribali mutaxassislardan iborat ekspertlar guruhini tashkil etdi. Ular ko‘magida matematika fanidan har bir ta’lim turi uchun konsepsiyalar va alohida o‘quv dasturlari loyihalari tayyorlandi hamda Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi portaliga (http://www.uzviylik.tdi.uz) joylashtirildi. Portalga 100 ga yaqin taklif va mulohazalar kelib tushgan.

Uzluksiz ta’lim tizimida fan dasturlarining uzviyligi ta’minlanmaganligi ta’lim sifati va samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ta’lim turlariaro mavzularning takrorlanishi, ayrim mavzularga haddan ziyod ko‘p soat ajratilgani, fan mazmuni deyarli nazariy ma’lumotlarga asoslanganligi hamda xalqaro tadqiqotlar singdirilmaganligi kabi muammolar aniqlandi. Xususan,

Matematika fanidan mavjud o‘quv dasturlari qiyosiy jadvallar asosida tahlil qilindi. Birlamchi tahlillarga ko‘ra takrorlangan mavzular 9 ta, uzviyligi ta’minlanmagan mavzular 29 ta, yangilanishi zarur mavzular 94 ta, olib tashlanadigan mavzular 43 ta, xalqaro tadqiqotlar bo‘yicha kiritiladigan mavzular soni 89 ta, boshqa ta’lim turiga o‘tkaziladigani 20 ta ekanligi aniqlandi va dasturlar to‘g‘rilandi.

To‘g‘rilangan o‘quv dasturlari ikkinchi marta ta’lim inspeksiyasi saytidagi (http:// www.uzviylik.tdi.uz) muhokama portaliga joylashtirildi va ularga 150 dan ortiq takliflar bildirildi.

Keyingi bosqichda matematika fani konsepsiyasi va 5 ta o‘quv dasturi (MTM, umumiy o‘rta ta’lim, AL, KHM va OTM uchun) O‘zFA qoshidagi V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutiga, Samarqand davlat universitetiga, Urganch davlat universitetiga hamda Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligiga ekspertizaga berildi hamda ushbu ta’lim muassasalarining tajribali mutaxassislari tomonidan 1 oy davomida ko‘rib chiqilib xulosalar olindi.

Ekspertiza xulosalarida jami 97 ta (6 ta MTM, 69 ta maktab bo‘yicha, AL 6 ta, KHM 5 ta, 11 ta OTMlar) kamchilik va takliflar aniqlanib, ular tegishli vazirliklarga taqdim etildi hamda mualliflar tomonidan muhokamalar qilindi. Ulardan 49 tasi dastur mazmuniga kiritildi, 38 tasi asoslantirildi. Shuningdek, o‘quv va fan dasturlarini takomillashtirish jarayonida xalqaro tajribalar jumladan,

Finlyandiya tajribasi o‘rganildi. Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’limning o‘quv dasturlarini tahlil qilishda YuNISEF ko‘magida Singapur, Koreya, Yaponiya, Gonkong dasturlari, Prezident maktablari bilan Kembrij tajribasi va o‘quv dasturlari o‘rganildi. O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va oliy ta’lim tizimlarida matematika fanini o‘qitishni rivojlantirish konsepsiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2035-yilgacha rivojlanish Strategiyasining konsepsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimining 2030-yilgacha konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-sonli Qarori, 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF- 5712-sonli Farmoni, 2019-yil 6-sentabrdagi “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5812-sonli Farmoni, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni, 2020-yil 7-maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4708-sonli Qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlandi. Uning maqsadi fuqarolarga ta’lim-tarbiya berish, kasb-hunar o‘rgatishning huquqiy asoslarini va ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplarinibelgilash hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta’minlashdan iborat.

Mazkur Konsepsiya maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va oliy ta’lim tizimlarida matematika ta’limini rivojlantirishning asosiy tendensiyalarini belgilab beradi, jumladan:

– matematika ta’limi me’yoriy hujjatlarini ta’lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo‘yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta’minlash;

– matematika ta’limi bo‘yicha maktabgacha, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, professional va oliy ta’lim tizimlari bitiruvchilariga qo‘yiladigan malaka talablarini uzviyligini ta’minlash hamda amaliyotga tatbiq etish;

– matematika ta’limi mazmuni va mohiyatini sifat jihatidan yangilash, shuningdek, o‘qitishning yangi metodikalarini ishlab chiqish;

– matematika ta’limi mazmuni, mustaqil hayotda qo‘llash imkoniyati bo‘lgan matematik savodxonlikni, tanqidiy fikrlash va ijodkorlik kompetensiyalarini shakl- lantirish;

– rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ta’lim sohasida me’yorlarni belgilash tajribasidan milliy xususiyatlarni va mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarni hisobga olgan holda takomillashtirish;

– matematika ta’limini tashkil etishning zamonaviy shakl, metod va vositalari asosida o‘quv modullarini ishlab chiqish;

– ta’lim jarayoniga milliy, umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlar asosida bitiruvchilarni

tarbiyalashning samarali metodikasini keng joriy etish;

– matematika ta’limi jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish;

– o‘quv-tarbiya jarayoni samaradorligini va natijaviyligini ta’minlashda innovatsion pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish;

– matematika ta’limining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va budjetdan mablag‘ bilan ta’minlashning samaradorligini oshirishdan iboratdir.

Maktabgacha ta’lim tizimida. Davlat talablari tug‘ilgandan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarning bilim-ko‘nikmalari beshta asosiy rivojlanish sohalari asosida belgilanadi. O‘z navbatida har bir rivojlanish sohasi kichik sohalarga bo‘lingan bo‘lib, ular har bir yosh guruhiga mos bir nechta kutilayotgan rivojlanish ko‘rsatkichlaridan (talablardan) iborat.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim berishda kompetensiyaviy yondashuv o‘sib borayotgan bola shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan, axloqiy me’yor va qadriyatlarni o‘zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, “Men” obrazini qurish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat usullarini shakllantirishga tayyorgarlikni ko‘zda tutadi.

Maktabgacha ta’limni rivojlantirish sohasida davlat siyosatini muvaffaqiyatli yuritishga va ta’lim-tarbiya jarayonlarini talab darajasida tashkil etishga to‘sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammolar va kamchiliklar mavjud. Bular quyidagilar:

– maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim samaradorligini baholash va takomillashtirish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish asosida ishlarning to‘laqonli yo‘lga qo‘yilmaganligi;

– ta’lim-tarbiya usullarining ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiluvchi mexa- nizmlarning yo‘qligi;

– maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilar uchun zamonaviy sharoit va ehtiyojlar asosida ishlab chiqilgan o‘quv-metodik adabiyotlar etarli darajada ta’minlanmaganligi; – mamlakatimizda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan ta’limiy islohotlarga hamohang tarzda maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun matematik tasavvurlarni shakllantirish bo‘yicha zamonaviy mazmun-mohiyatini kasb etuvchi metodik ishlanmalar yetarli darajada yaratilmaganligi;

– maktabgacha ta’lim tashkilotlarining malakali pedagog kadrlar bilan to‘liq ta’minlanmaganligi;

– matematika mashg‘ulotlarini tashkil etish uchun multimedia va didaktik materiallarning etishmasligi;

– maktabgacha ta’lim va boshlang‘ich ta’lim o‘rtasidagi uzviylikning mavjud emasligi;

– zamonaviy o‘quv metodik materiallar va ko‘rgazmali qurollarning etishmasligi; – ilg‘or ish tajribalarni o‘rganish, ularni ommalashtirish ishlari talab darajasida tashkil etilmaganligidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmoni asosida qa 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”, 2019-yil 9-iyuldagi “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, 2020-yil 7-maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy- tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4708-sonli qarori, 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida matematika fani va ta’limini har tomonlama takomillashtirish va rivojlantirish yuzasidan qator salmoqli vazifalar belgilangan.

Matematika olamni, dunyoni bilishning asosi bo‘lib, tevarak-atrofimizdagi voqea va hodisalarning o‘ziga xos qonuniyatlarini ochib berishda juda katta ahamiyatga egaki, matematik

bilimlarsiz ishlab chiqarish va fanning rivojlanishini tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham *matematik madaniyat* – umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi hisoblanadi va va matematika jamiyatimizning barcha jabhalariga juda katta madaniy qiymat qo‘shadi.

STEAM (S – science – tabiiy fanlar T – technology – texnologiya, E – enginee ring – muhandislik, A – art –san’at, M – mathematics –matematika) ta’lim texnologiyasi aniq fanlar blok-modulida o‘quvchilarning egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini kundalik hayot bilan bog‘liqligini ko‘rsatishda dars va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quv tadqiqotlarini o‘tkazish, tajribalarni bajarish, loyihalashtirishga yo‘naltirilgan ijodkorligini tarbiyalash, yangiliklar yaratishga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan. Bu texnologiyani amalga oshirishda o‘quvchilar tomonidan turli texnik qurilmalarni yasash uchun loyihalar yaratish, loyiha asosida qurilmaning maketini yaratish va uni amaliyotda ishlatib ko‘rish, kamchiliklarini topish hamda uni bartaraf etish kabi vazifalar bajariladi.

Matematik ta’limga kompetensiyaviy yondashuv kasbiy, shaxsiy va jamiyatdagi kundalik hayotda uchraydigan holatlarda samarali harakat qilishga imkon beradigan turli ko‘rinishdagi malakalarni o‘quvchilar tomonidan egallashni nazarda tutadi. Shunday qilib, kompetensiyaviy yondashuvda matematik ta’limning asosini amaliy, tatbiqiy yo‘nalishlarini kuchaytirishga qaratiladi.

Matematika fanini o‘qitishning asosiy maqsadi:

– o‘quvchilarda kundalik faoliyatda qo‘llash, fanlarni o‘rganish va ta’lim olishni davom ettirish uchun zarur bo‘lgan matematik bilim va ko‘nikmalar tizimini shakllantirish va rivojlantirish;

– jadal taraqqiy etayotgan jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladigan, aniq va ravshan, tanqidiy, tizimli hamda mantiqiy fikrlay oladigan shaxsni shakllantirish;

– jamiyatlarning barcha darajalarda o‘z kelajagi to‘g‘risida asosli qaror qabul qilishlari uchun zarur bo‘lgan modellashtirish va bashorat qiluvchi ma’lumotlarga hissa qo‘shish uchun matematik bilim va ko‘nikmalarni qo‘llay oladigan shaxsni shakllantirish;

– o‘z fuqarolarining rivojlanishiga qodir bo‘lishini ta’minlash uchun jamiyatlar olib boradigan barcha rivojlanishlarni maqsadga muvofiqligi, amaliyligi, xavf omillari va iqtisodiy oqibatlarini baholash va maslahat berish uchun birgalikda ishlashga qodir bo‘lgan shaxsni shakllantirish;

– milliy va global jamiyatlar barcha fanlar bo‘yicha duch keladigan muammolar va qiyinchiliklarni ko‘rib chiqish va hal qilishga yordam berish uchun matematik tushunchalar va strategik yondashuvlarni qo‘llay oladigan shaxsni shakllantirish;

– har kuni duch keladigan ma’lumotni hazm qilish uchun o‘zlarining matematik bilimlari va tavakkalchilik tushunchalaridan foydalana oladigan va shu bilan hayotning barcha sohalarida o‘zlari va boshqalar manfaati uchun oqilona qaror qabul qila oladigan shaxsni shakllantirish;

– milliy, ma’naviy va madaniy merosni qadrlash, tabiiy-moddiy resurslardan oqilona foydalanish va asrab-avaylash, matematik madaniyatni umumbashariy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida tarbiyalash;

– matematikani tushunish va matematik dunyoda ishlash qobiliyati orqali hayot davomida o‘qitishning samarali yo‘nalishlariga ega bo‘lgan shaxsni shakllantirish; ya’ni - ijodkorlik, qiziquvchanlik, hamkorlik, strategik ong, mustaqillik, chidamlilik va topqirlik.

– o‘quvchilarning kuzatuvlar orqali amaliy faoliyatlarini bog‘lagan holda loyihalashtirishga yo‘naltirilgan ijodkorligini tarbiyalash, kreativ, tanqidiy fikrlash va mantiqiy

tahlil, qiziquvchanlik, muammolarni hal qilish, yangiliklar yaratishga bo‘lgan ko‘nikmalarini namoyon qilish va rivojlantirishdan iborat.

Matematika fanini o‘qitishning asosiy vazifalari:

– o‘quvchilar tomonidan matematik tushunchalar, xossalar, shakllar, usullar va algoritmlar haqidagi bilim, ko‘nikmalar egallanishini ta’minlash;

– inson kamoloti va jamiyat taraqqiyotida matematikaning ahamiyatini anglash, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, kundalik hayotda matematik bilim va ko‘nikmalarni muvaffaqiyatli qo‘llashga o‘rgatish;

– o‘quvchilarning individual xususiyatlarini rivojlantirgan holda, mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini shakllantirish;

– fanlar integratsiyasini inobatga olgan holda o‘quvchilarda, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, ijodkorlik (kreativlik) ni shakllantirish hamda ongli ravishda kasb tanlashga yo‘naltirish;

– hozirda matematika fanini nazariylashtirgan holda o‘qitishga, o‘quvchilarga tayyor o‘quv materiallarini berishga asoslangan yondashishdan ma’lum darajada voz kechib, o‘quvchining kundalik hayotida matematik bilimlarni tatbiq eta olish salohiyatini shakllantirish va uni rivojlantirishga erishish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini namoyon qilish va faollashtirish.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, xalq ta’limi tizimida matematika fanini

o‘qitishni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat bo‘lishi maqsadga muvofiq:

– matematika fani davlat ta’lim standarti talablarining avvalo kelajakdagi zamonaviy davlat va jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqib, XXI asr ko‘nikmalariga mos ta’lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo‘yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta’minlash;

– maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar, oliy ta’lim muassasalari hamda ilmiy-uslubiy tadqiqot tuzilmalari o‘rtasidagi yaqin hamkorlikni, uzluksizlikni va uzviylikni ta’minlovchi yaxlit tizimni shakllantirish;

– umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida matematika fanlarini o‘qitish sifatini oshirish, hududlarda matematika faniga ixtisoslashtirilgan maktablar tizimini tashkil qilish va faoliyatini rivojlantirish;

– matematika fani bo‘yicha kadrlarni, xususan qishloq joylardagi maktablarning kadrlarini tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish;

– matematika fani bo‘yicha darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarni takomillashtirish;

– iqtidorli yoshlarni aniqlash hamda ularning matematika fani bo‘yicha mahalliy va xalqaro fan olimpiadalarida muvaffaqiyatli ishtirok etishini hamda sovrinli o‘rinlarni egallashini ta’minlash;

– matematika fani mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek, o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim tarbiya jarayonini individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish;

– matematika fanining mazmunini takomillashtirish, optimallashtirish va uni boshqa umumta’lim fanlari bilan o‘zaro integratsiyasini kuchaytirish;

– o‘quvchilarda o‘zlashtirgan bilim va ko‘nikmalarini hayotiy vaziyatlarda qo‘llash, matematik savodxonlik, tanqidiy, kreativ va ijodkorlik kompetensiyalarini shakllantirish;

– matematikani o‘qitish jarayoni samaradoriligini va natijaviyligini ta’minlashda

zamonaviy raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarni joriy etish;

– o‘quvchilar yutuqlarini baholashning ilg‘or xorijiy tajribalari va bu boradagi xalqaro tadqiqotlar natijalariga tayanib, yangi baholash tizimini yaratish hamda u asosida matematika fanini bilish darajasini baholash bo‘yicha milliy sertifikatlash tizimini joriy qilish;

– matematika fanini o‘qitishning yangi sifat bosqichiga ko‘tarish, jumladan zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan, elektron darslik hamda zamonaviy laboratoriya jihozlaridan foydalangan holda o‘quv jarayonini tashkil etishning yangi ilmiy yo‘nalishlari va tamoyillarini tatbiq etish;

– ta’lim va tarbiyani uyg‘un olib borish, o‘quvchilarni nafaqat bilimli, balki ma’naviy, axloqiy etuk shaxs sifatida shakllantirish;

– matematika darslarida sog‘lom ijodiy muhitni yaratish, ta’lim va tarbiya jarayoniga ilg‘or innovatsion zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali o‘qitish sifatini yangi bosqichga ko‘tarish, o‘quvchilar dunyoqarashini, tafakkuri, mantiqiy mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish;

– matematika o‘qitishda sinfdan va maktabdan tashqari tashkil etiladigan to‘garaklar, fakultativ va ellektiv kurslar mazmunini tubdan yangilash;

– matematika fanini o‘qitishning ilmiy metodik ta’minotini rivojlantirish;

– xalqaro fan olimpiadalarida g‘olib bo‘lgan yoshlar va ularning murabbiy ustozlari mehnatini rag‘batlantirish tizimini takomillashtirib borish;

– ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish orqali innovatsion infratuzilmani shakllantirish;

– matematika fani yo‘nalishida o‘quvchilarning egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini kundalik hayot bilan bog‘liqligini ko‘rsatishda dars va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quv tadqiqotlarini o‘tkazish, loyihalashtirishga yo‘naltirilgan ijodkorligini tarbiyalash, yangiliklar yaratishga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirish.

MATEMATIK AMALIYOT STANDARTLARI. Qisqacha tavsifi: Amaliy standartlar barcha darajadagi matematika fani o‘qituvchilaridan o‘quvchilar mustaqil ijodiy fikrlashni rivojlantirishga intilishi lozim bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar turlarini belgilaydi.

Mazkur standartlar o‘quvchilarning quyidagi aqliy faoliyati sohalarini qamrab oladi (kelgusida ishlatish qulay bo‘lsin uchun aqliy faoliyat sohalari, mos ravishda M1, M2, M3, M4 va M5 bilan kodlanadi):

1. Matematik amaliyot standartlar har bir sinf kesimida mazmun standartlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, tegishli mazmun standartlarida o‘z aksini topgan. Tegishli yosh fiziologik imkoniyatlari va aqliy faoliyat sohalaridan kelib chiqib singdirilgan.

Shu bois, amaliyot standartlarini har bir sinf kesimida yana alohida aniqlashtirib o‘tirmaymiz. 2. **Mulohaza yuritish (M1);** matematikaga oid fikrni asoslash, isbotlash yoki o‘zgalar fikriga

munosabat bildirish uchun mantiqan asosli va tushunarli dalillarni keltirish;

3. **Modellashtirish (M2):** o‘quv va hayotiy muammolarni matematika tilida ifodalash, ularning matematik modelini qurish;

4. **Muammoni echish (M3):** matematikani qo‘llab muammoni hal qilish;

5. **Muloqot qilish (M4):** matematik tushuncha, belgi va timsollar asosida matematika tilida o‘zaro muloqot qilish;

6. **Ma’lumotlar bilan ishlash (M5):** ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va turli shakllarda tasvirlash.

Matematika ta’limining ahamiyati uning fan-texnika taraqqiyotida, axborot-kommunikatsion texnologiyalarning ishlab chiqarish sohalarida va kundalik hayotda tutgan o‘rni bilan belgilanadi. Iqtisodiy talablarni bajarish uchun bunyodkor va ijodkor kadrlarni tayyorlash bilan bir qatorda, bu yutuqlardan iste’molchi sifatida foydalanuvchilarga ham sifatli ta’lim berilishi lozim.

Fan texnikaning keskin rivojlanishi, olamning globallashuvi hamda axborot-kommunikatsion texnologiyalarning taraqqiy etishi insonlarning dunyoqarashini, muvaffaqiyatga erishish usullarini, inson salohiyati, qobiliyati hamda yaratuvchanlik faoliyati jamiyatning asosiy kapitali bo‘lib xizmat qiladi. Bu holatda jamiyatdagi har bir o‘quvchi shaxsining jamiyatda raqobatbardosh bo‘lib shakllanishi, o‘zgaruvchan ijtimoiy- iqtisodiy muhitga moslashuvchan, faol, ijtimoiy etuk salohiyatli, yuqori darajadagi bilim egasi, ruhan va qalban chiniqqan komil insonni shakllantirish davlatimiz oldidagi vazifalardan biridir.

Fan sohasidagi yangi ma’lumotlarni tahlil qilish, ta`limda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash, oquv faoliyatining zamonaviy yo‘nalishlari bo‘yicha amalga tadqiqotlar sifatini tushunishni namoyon qilishga qobiliyatlilik;

Boshlang`ich ta`lim fan sohasiga doir zamonaviy texnologiya, metod, vositalarni qo‘llay olishga qobiliyatlilik;

Butun hayot davomida ilmiy-pedagogik va amaliy faoliyat sohasida o‘z-o‘zini takomillashtirishga qobiliyatlilik.

Matematik ta’limga kompetensiyaviy yondashuv kasbiy, shaxsiy va jamiyatdagi kundalik hayotda uchraydigan holatlarda samarali harakat qilishga imkon beradigan turli ko‘rinishdagi malakalarni o‘quvchilar tomonidan egallashni nazarda tutadi. Shunday qilib, kompetensiyaviy yondashuvda matematik ta’limning asosini amaliy, tadbiqiy yo‘nalishlarini kuchaytirishga qaratiladi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘RQ-595-son Qonuni. 2019 yil 16 dekabr. www.lex.uz.
2. O‘zbekicton Recpublikaci Prezidentining 2020 yil 29 oktabrdagi “Ilm fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyacini tacdiqlash to‘g‘ricida”gi PF-6097-con Farmoni. www.lex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi PQ-4312 - sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. www.lex.uz.
4. Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora tabirlari to‘g‘risida. Uzbekiston Respublikasi prezidentining PQ-4708-son 07.05.2020 Qarori
5. Djumayev M.I. The development of mathematical abilities in younger students. Science And Innovation International Scientific Journal Volume 2 Issue 1 January 2023 Uif-2022: 8.2 | Issn: 2181-3337 | Scientists.Uz/ 424-434
6. Djumayev M.I Formation of mathematical competence in future primary school teachers in the. Educational process science and innovation international scientific journal volume 2 issue 3 march 2023 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337 | scientists.uz 165-173
7. Djumayev M.I The transformation of тe english language’s variants in contemporary great

Britain. Educational process science and innovation international scientific journal volume **2 Issue 4 April 2023 Uif-2022: 8.2 | Issn: 2181-3337 | Scientists.Uz 19-27** ***https://doi.org/10.5281/zenodo.7818607***

8. Djumaev M.I.. Matematika o‘qitishda kombinatorika masallarini o‘rganishning o‘ziga xos xususiyatlari Fizika, matematika, informatika jurnali. 2023 yil 2/1 son. 19-27
9. Djumaev M.I. Matematika o‘qitishda milliy o‘quv dasurining uzviyligi va uzluksizligining o‘ziga xos xususiyatlari. МУҒ‘АЛЛИМ НӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ Илимий-методикалыq журнал. ISSN 2181-7138 2023 1-сан 314-324 Нөкис
10. Djumaev M.I. (2023) Some Considerations of Teaching Mathematics Inuzbek Primary School. Journal of Mathematical & Computer Applications. SRC/JMCA-123. *J Mathe & Comp Appli, 2023 Volume 2(2): 1-5* **ISSN: 2754-6705**

ИНТЕГРАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЙ В УЧЕБНЫЙ ПРОЦЕСС

[1]Эшмурадов Дилшод Эльмурадович, [2]Ембергенова Нилуфар Полатбаевна

[1]кандидат технических наук, доцент, заведующий кафедрой «Системы энергообеспечения» Ташкентского университета информационных технологий имени Мухаммада аль-Хоразмий,

[2]Студентка по направлению метрологии, стандартизации и управление качеством продукции факультета физики каракалпакского государственного университета им.Бердаха

https://doi.org/10.5281/zenodo.7927547

Аннотация. *Современные образовательные учреждения все больше используют компьютеры, интерактивные доски, онлайн-курсы и другие средства цифровой образовательной среды для повышения эффективности обучения. Это помогает ученикам получать более эффективное и индивидуальное обучение, учителям же позволяет более точно оценивать потребности своих учеников и адаптировать свой подход к каждому из них. Данная статья посвящена вопросам интеграции новых современных IT-технологий в учебный процесс.*

Ключевые слова: *цифровые технологии, интерактивные задания, видеоуроки.*

Известно, что цифровые технологии позволяют создавать интерактивные уроки, использовать мультимедиа-материалы и интерактивные задания, что делает процесс обучения более интересным и привлекательным для учеников. Одним из главных преимуществ цифровых технологий в образовании является возможность доступа к образованию в любое время и из любого места, что особенно актуально в условиях дистанционного обучения [1].

В связи с последними событиями, связанными с пандемией COVID-19, дистанционное обучение стало актуальным и востребованным. Большинство учебных заведений перешли на онлайн-формат обучения для сохранения здоровья студентов и преподавателей [2].

Распространение коронавируса (COVID-19), стал новым испытанием для систем образования по всему миру. Согласно по международным статистическим и данными, свыше 180 стран в той или иной форме были вынуждены закрыть свои школы во время пандемии. Это затронуло более чем 1,7 млрд учащихся [3].

Так, как, дистанционное обучение позволяет получить качественное образование, не выходя из дома, что особенно важно в условиях карантина. Оно также более гибкое и доступное для студентов из разных регионов или стран, которые не могут присутствовать на лекциях в университете [4].

Кроме того, дистанционное обучение предоставляет больше возможностей для самостоятельной работы и развития профессиональных навыков. Студенты могут выбирать подходящее время для изучения материала и работать над заданиями в удобном для них темпе.

Дистанционное обучение - это метод обучения, при котором студенты и преподаватели находятся в разных местах и обмениваются информацией через интернет. Вот некоторые возможности дистанционного обучения:

1. Гибкость: студенты могут учиться в любое удобное для них время и из любого места. Это позволяет им легко совмещать работу, семейную жизнь и учебу.

2. Доступность: дистанционное обучение доступно для всех, кто имеет доступ к интернету. Это особенно важно для тех, кто живет в удаленных районах или не может посещать учебные заведения из-за финансовых или здоровотных причин.

3. Разнообразие курсов: дистанционное обучение предлагает широкий выбор курсов в различных областях знаний, что позволяет студентам выбрать те, которые соответствуют их интересам и целям.

4. Интерактивность: многие дистанционные курсы предлагают интерактивные задания, тесты и форумы для общения со студентами и преподавателями.

5. Экономия времени и денег: дистанционное обучение может быть более экономичным, чем традиционное обучение, так как студенты не нужно тратить время и деньги на поездки в учебные заведения.

6. Индивидуальный подход: дистанционное обучение позволяет студентам работать в своем собственном темпе и выбирать методы обучения, которые лучше всего подходят для них.

Однако, как и любая другая форма обучения, дистанционное обучение тоже имеет свои недостатки. Некоторые из них включают:

1. Ограниченный доступ к учителю: При дистанционном обучении студенты могут испытывать затруднения в получении ответов на свои вопросы и помощи от учителя, особенно если нет возможности получить личную консультацию.

2. Отсутствие межличностных отношений: Дистанционное обучение может быть менее социальным, чем традиционное обучение, поскольку студенты не имеют возможности общаться с однокурсниками лично и создавать связи.

3. Отсутствие мотивации: Студентам может быть сложно оставаться мотивированными без присутствия учителя и однокурсников в аудитории для поддержки.

4. Технические проблемы: Для дистанционного обучения требуется стабильное интернет-соединение, а также компьютер или другое устройство для доступа к материалам и контенту. Технические проблемы могут затруднить процесс обучения.

5. Меньшее количество обратной связи: При дистанционном обучении учителя могут иметь меньше возможностей для предоставления обратной связи студентам, что может затруднить процесс изучения материала.

Как мы отметили, что во время дистанционного обучения могут возникать технические проблемы: интернет соединение может быть недостаточным для выполнения заданий, загрузки материалов и онлайн-конференций.

Для решения технических проблем проводятся профилактические работы:

1. Проверить соединение и кабели: нужно убедиться, что все кабели подключены правильно и не повреждены. Если кабель поврежден, то заменить его.

2. Перезагрузить устройство: перезагрузить компьютер, маршрутизатор или другое устройство, чтобы проблема могла быть исправлена.

3. Проверить наличие обновлений: убедится, что все устройства имеют последние обновления программного обеспечения.

4. Проверить настройки сети.

5. Использовать диагностические инструменты: большинство операционных систем имеют встроенные диагностические инструменты для определения проблем с сетью.

Если все вышеперечисленные шаги не помогли исправить проблему, то связаться со службой поддержки производителя устройства или провайдера интернет-услуг.

В заключении можно отметить, что использование цифровых технологий помогает учителям лучше отслеживать прогресс студентов и адаптировать обучение под индивидуальные потребности каждого ученика. Например, программы компьютерного анализа данных могут помочь выявить слабые места в знаниях студентов и предложить дополнительные материалы для изучения.

Однако, необходимо помнить о том, что использование цифровых технологий не должно заменять классические методы обучения. Важно сохранять баланс между использованием новых технологий и методами, которые были проверены временем.

Также, использование цифровых технологий позволяет учителям более эффективно организовывать учебный процесс, давать домашние задания и проверять их.

Кроме того, цифровые технологии могут быть использованы для создания интерактивных учебных материалов, которые помогают студентам лучше понимать материал и запоминать его. Например, это могут быть видеоуроки, онлайн-игры или виртуальные экскурсии.

Наконец, использование цифровых технологий позволяет учителям лучше подготовить студентов к будущей работе в цифровой экономике. Сегодня компьютеры и интернет играют ключевую роль в большинстве профессий, поэтому важно научить студентов работать с данными инструментами еще в школе или вузе.

Таким образом, дистанционное обучение является актуальным и перспективным направлением развития образования в наше время.

REFERENCES

1. Филатова Зульфия Мирсайжановна, Галямова Эльмира Хатимовна, Бурханова Юлия Николаевна РАЗРАБОТКА УЧЕБНОГО ЗАНЯТИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНСТРУМЕНТОВ И СРЕДСТВ ЦИФРОВОГО ОБУЧЕНИЯ // Проблемы современного педагогического образования. 2022. №76-2.
2. Шефер, Е. А. Использование цифровых технологий в образовательном процессе / Е. А. Шефер. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2021. — № 16 (358). — С. 22-25.
3. Эшмурадов Д. Э., Умарова И. Д. Вопросы организации дистанционного обучения в условиях самоизоляции //Теория и практика современной науки. – 2020. – №. 6. – С. 587-589.
4. Красильникова В. А. Становление и развитие компьютерных технологий обучения: Монография [Текст] / В. А. Красильникова. — Москва: ИИО РАО, 2002. — 168 с.
5. Морозова О.А. Интеграция корпоративных информационных систем: учебное пособие. — М.: Финансовый университет, 2014. — 140 с.

UMUMIY O’RTA TA’LIM MAKTABLARIDA SINFDAN TASHQARI TADBIRLAR VOSITASIDA O‘QUVCHILARDA MADANIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Tojiboyeva Xilolaxon Maxmutovna
O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti (O‘zPFITI) direktorining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha o‘rinbosari, pedagogika fanlari doktori (DSc), katta ilmiy xodim
hilol0311@mail.ru
https://doi.org/10.5281/zenodo.7927169

Annotatsiya. *Ushbu maqolada sinfdan tashqari tadbirlar vositasida o‘quvchilarda madaniy immunitetni shakllantirish usullari, pedagogik imkoniyatlari bayon qilingan bo‘lib, umumta’lim maktablari pedagoglari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosarlarining ta’lim-tarbiyaviy faoliyati shuningdek, shu maqsadda o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda madaniy immunitetni shakllantirish borasidagi ishlarni tizimli tarzda tashkil etilishi haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so’zlar: *sinfdan tashqari tadbirlar, sinf rahbari, direktor o‘rinbosari, ma’naviy-ma’rifiy ishlar, madaniy immunitet, xulq-atvor, axloqiy sifatlar, suhbat, sinf soatlari, o‘quv konferensiyalari, milliy madaniyat, madaniy xulq-atvor stereotiplari.*

Umumta’lim maktablari pedagoglari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosarlarining ta’lim-tarbiyaviy faoliyati shuningdek, o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda madaniy immunitetni shakllantirish borasidagi ishlari tizimli tarzda tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari va sinf rahbarlari o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda madaniy immunitetni shakllantirishga yo‘naltirilgan ishlarning mazmunini ushbu maqsadga qaratgan holda amalga oshirishlari lozim.

Bunda tarixiy-madaniy boyliklarimizni o‘rgatishga qaratilgan badiiy kechalar, saxna ko‘rinishlari, kitobxonlik kechalari, mushoiralar, baxs-munozaralar tashkil etishga alohida e’tibor qaratiladi[1].

Navro‘z bayrami va buyuk mutafakkirlarning tavallud sanalari bilan bog‘liq holda xam turli tadbirlar tashkil etilib, unda o‘smir yoshdagi o‘quvchilarga madaniy qadriyatlarni o‘rgatishga alohida e’tibor qaratiladi. Fan to‘garaklari tarixiy, madaniy qadriyatlarni o‘quvchilar ongiga chuqur singdirishning asosiy vositasi hisoblanadi. Tarix, Adabiyot, Tarbiya, Ona tili, Musiqa, Tasviriy san’at kabi fan to‘garaklarida vatanimizning shonli tarixi, ulug‘ shoir va mutafakkirlar, muqaddas ona tilimiz va uning tarixiy taraqqiyoti, mumtoz musiqa, milliy xarakterdagi tasviriy san’atga oid tarixiy-madaniy qadriyatlarga oid bilimlar o‘quvchilarga taqdim etiladi va ularning ilmiy-madaniy dunyoqarashi rivojlantiriladi[2].

Sinf rahbari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosarining sinfdan tashqari tadbirlar vositasida o‘quvchilarda madaniy immunitetni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyati ushbu yo‘nalishdagi muayyan vazifalarni amalga oshirishga qaratiladi.

Sinfdan tashqari tadbirlarning mazmuni o‘smir yoshdagi o‘quvchilarni madaniy axloqiy jihatdan rivojlantirishga qaratilishi, ularda “ommaviy madaniyat”ga qarshi immunitetni shakllantirishga xizmat qilishi lozim. Sinfdan tashqari jarayonlarda tashkil etiladigan tadbirlar o‘smir yoshdagi o‘quvchilarning madaniy axloqiy yo‘nalishdagi bilimlarini chuqurlashtirishga, ularda gender rollarni tarkib toptirishga xizmat qilishi kerak.

Maktab psixologi o‘smir yoshdagi o‘quvchilar bilan samarali ishlashi, ularning ruxiy-emosional xususiyatlarini yaxshi bilishi, madaniy qadriyatlarni egallashga bo‘lgan qiziqishlarini aniqlash asosida moyilliklarini hisobga olishi, qiz va o‘g‘il bolalar orasidagi o‘zaro munosabatlarni tahlil qilishi, ular orasida mavjud bo‘lgan ziddiyatlarni aniqlab bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqishi maqsadga muvofiq[3].

Sinf rahbarining muhim vazifalaridan biri o‘quvchilarni, ularning xarakter xususiyatlari, xulq-atvori, axloqiy sifatlarining mavjud darajasini chuqur tahlil qilib, bartaraf etiladigan salbiy jihatlarini aniqlash va tegishli chora-tadbirlarni rejalashtirishdan iborat. O‘smir yoshdagi o‘quvchilar *turli fan o‘qituvchilari, tengdoshlari, ijtimoiy tashkilotlar va nihoyat oilaning doimiy ta’siri ostida bo‘ladilar. Shunga ko‘ra sinf rahbarining muhim funksiyalaridan biri o‘quvchilarga ta’sir ko‘rsatayotgan ijobiy va salbiy omillarni aniqlashdan iborat.*

O‘quvchilarning ijobiy sifatlarini uzluksiz rivojlantirish maqsadida ularni rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash gender rollarning to‘g‘ri shakllanishi va madaniy dunyoqarashlarining boyishini ta’minlashga xizmat qiladi. Sinf rahbari ijtimoiy tarmoqlarga bog‘lanib qolgan, “ommaviy madaniyat” ta’siriga berilgan o‘smirlar, ayniqsa, moda ketidan quvayotgan o‘smir yoshdagi qizlarning xatti-harakatlarini tahlil qilib, ularda madaniy immunitetni shakllantirish chora-tadbirlarni qo‘llashdan iborat. Bunda sinf rahbarlari, ota-onalar bilan yaqin hamkorlik qilishlari maqsadga muvofiq. Agar oiladagi madaniy muhit salbiy xarakterga ega bo‘lsa, sinf rahbarlari mahalla faollari bilan hamkorlikda o‘smirlarning ota-onalari bilan ham suhbatlar olib borishlari, ularning madaniy dunyoqarashini rivojlantirish yo‘llarini izlab topishlari lozim.

O‘quvchilarda sog‘lom madaniy dunyoqarash va immunitetni shakllantirishda sinf rahbarlari quyidagi metodlardan foydalanishlari kutilgan samaradorlikka erishish imkonini beradi.

Ma’lumki, sinf soatlari o‘quvchilar bilan tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishning asosiy shaklidir. Sinf rahbarining tarbiyaviy ishlar rejasi asosida sinf soatlarining mazmuni belgilab olinadi. Sinf soatlarida sinf rahbari o‘quvchilar bilan aniq mavzularda muloqotni tashkil qiladi. Sinf soatlarida o‘quvchilar o‘z fikr-muloxazalarini erkin bayon qilishlari uchun qulay sharoit yaratiladi. Sinf soatlarini tashkil etishda pedagoglar o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, bilim darajasi, dunyoqarashi, nuqtai nazarlarini aniq hisobga olishlari talab etiladi.

O‘smir yoshdagi o‘quvchilar bilan sinf soatlarida bugungi kunning dolzarb masalalari, gender rollarning shakllanishi, shaxslararo munosabatlar, ijtimoiy tarmoqlardan olinadigan axborotlarni saralash, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyati, “ommaviy madaniyat”ning salbiy va ijobiy jihatlari, “ommaviy madaniyat”ning salbiy ta’sirlaridan saqlanish, o‘quvchilarni “ommaviy madaniyat”ning salbiy ta’sirlaridan ogohlantirish, o‘quvchilarda milliy madaniyatimizga xos xulq-atvor me’yorlari haqida tasavvur hosil qilish kabi dolzarb mavzularda suxbatlar tashkil etilishi lozim. Sinf soatlarida amalga oshiriladigan suhbatlar sinfdagi barcha o‘quvchilar yoki xulq-atvorida salbiy jihatlar kuzatilayotgan o‘quvchilar bilan individual tarzda o‘tkazilishi mumkin.

Ma’lumki, pedagogikada o‘quvchining noo‘rin xatti-harakatini sinf jamoasi oldida muhokama qilish uni uyaltirish maqsadga muvofiq emas, deb hisoblanadi. Bu ayniqsa, o‘smir yoshdagi o‘quvchilarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi[4].

Qiz bolalar oldida o‘g‘il bolalarni mulzam qilish o‘smirlar uchun kechirilmas holat hisoblanadi. O‘smir yoshdagi o‘quvchilarga ishonch bildirish, ular bilan do‘stona munosabat o‘rnatish, ular uchun qadrli bo‘lgan qadriyatlariga samimiy yondashish kutilgan samaradorlikka ejrishish imkonini beradi[5].

O‘quvchilarda madaniy dunyoqarashni tarkib toptirishda o‘quv konferensiyalari katta ahamiyatga ega. Bu o‘z navbatida o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda estetik didni shakllantirish, milliy madaniyatimizga hurmat bilan qarash, tarixiy madaniy qadriyatlarni avaylab asrash, shaxslararo munosabatlar me’yoriga amal qilish ko‘nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi. O‘quv konferensiyalarini disput shaklida tashkil etish natijasida o‘quvchilardagi mavjud qarashlar qat’iylashadi. Haqqoniy madaniy dunyoqarash shakllanadi. Ziddiyatli vaziyatlarga echim topiladi. Yagona fikrni qo‘llab-quvvatlash madaniyati shakllanadi.

O‘quvchilarda madaniy dunyoqarashni shakllantirishga yo‘naltirilgan o‘quv konferensiyalarida amalga oshiriladigan disputlar murakkab xarakterga ega bo‘lib, o‘smirlarda madaniy immunitetni shakllantirishga xizmat qiladi. Bunday o‘quv konferensiyalariga o‘qituvchilar o‘quvchilarni jiddiy tarzda tayyorlaydilar. Ularni mustaqil izlanishga undash asosida yangi g‘oyalar, fikrlarni generasiyalashga o‘rgatadilar. Bunday generasiyalash natijasida disput vaziyati vujudga keladi.

O‘smir yoshdagi o‘quvchilar mazkur tadbirlarda o‘z fikrlarini mustaqil bayon qilish bilan bir qatorda amalda o‘zlashtirishlari zarur bo‘lgan madaniy me’yorlarni egallashga muvaffaq bo‘ladilar. O‘quvchilarda madaniy immunitetni shakllantirishda ularga qo‘yiladigan axloqiy talablar ham muhim ahamiyatga ega.

O‘quvchilarning madaniy dunyoqarashi sinf rahbari tomonidan taqdim etilgan yangi bilimlar, xulq-atvor qoidalari, madaniy xodisalar haqidagi qarashlar yordamida boyib boradi. Sinf rahbarlari hayotiy vaziyatlarni o‘quvchilarga anglatishda real voqelik bilan bog‘liq hodisalardan foydalanishlari lozim.

Xulq-atvorni tuzatish metodidan foydalanish o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda madaniy immunitet hamda gender rollarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu metod doirasida o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda shaxslararo munosabat madaniyatini tarkib toptirish, ularni atrofdagilar bilan tolerant munosabatda bo‘lishga o‘rgatish, millatimiz vakillari uchun ahamiyatli bo‘lgan qadriyatlardan foydalanish tajribasini hosil qilish imkonini beradi. Sinf rahbarlari ushbu metoddan foydalangan holda o‘smir yoshdagi o‘g‘il va qiz bolalarning xatti-harakatlari, ular amal qiladigan xulq-atvor me’yorlarini chuqur tahlil qilib, bo‘shliqlarni aniqlashlari, o‘smirlar yo‘l qo‘yadigan kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqishlari lozim.

O‘smir yoshdagi o‘quvchilar xulq-atvorida uchraydigan kamchiliklarni korreksiyalash ularda madaniy immunitetni shakllantirishning muhim shartidir. Bunday korreksiyalash tashxislash metodikasini qo‘llash natijasida amalga oshadi.

Jamiyatda obro‘-e’tibor qazongan shaxslar xulq-atvorini namuna sifatida ko‘rsatish, ular amalga oshirgan ibratli ishlar haqida o‘smirlarni xabardor qilish, ular xulq-atvoridagi kamchiliklarni korreksiyalashning ta’sirchan metodi hisoblanadi. Zarur bilimlar va madaniy qadriyatlarga ega bo‘lgandagina o‘quvchilar atrofdagilarning xulq-atvorini munosib baholay oladilar va ularning yaxshi ishlaridan ibrat olib ruxlanadilar. Shu tariqa o‘smirlar ongida hayotiy ideal qiyofasi shakllanadi. Atrofdagilarning ibrat namunasi o‘smir yoshdagi o‘quvchilarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ularda madaniy xulq-atvor stereotiplarini shakllanishiga ko‘maklashadi.

Atrofdagilarning ibrat namunasi o‘smirlarning ong ostiga ta’sir ko‘rsatib, ularning his-tuyg‘ularini qo‘zg‘atadi. O‘smirlarning e’tiborini atrofdagi salbiy hodisalarga qaratish orqali ogohlantirish metodidan foydalaniladi. Bunda salbiy xulq-atvor stereotiplariga ega bo‘lgan kishilarning hayotidagi og‘ir vaziyatlar uning oqibatlari o‘quvchilar ko‘z o‘ngida tahlil qilinib, bunday xulq-atvor stereotiplarini bartaraf etish yo‘llari ko‘rsatiladi. Bunday misollar o‘smirlarni

salbiy harakatlardan tiyilishga undash bilan bir qatorda bunday harakatlarning shaxs va jamiyat hayotiga ko‘rsatadigan negativ oqibatlari haqida xabardor bo‘lishlariga erishiladi.

O‘quvchilarda madaniy xulq-atvor stereotiplarining shakllanishida o‘qituvchilar, ota-onalar, sinfdoshlari, jamiyatdagi taniqli shaxslarning ibrat namunasi katta ahamiyatga ega. O‘smir qizlar uchun aksariyat hollarda o‘qituvchilari, onalar ideal hisoblanadi. O‘smir yoshdagi o‘g‘il bolalar esa ko‘proq otalaridan o‘rnak olib ularga ergashadilar. O‘qituvchining xulq-atvori va imidji o‘quvchilar uchun ibrat namunasi hisoblanadi. Ular har doim ijobiy xulq-atvorga ega bo‘lgan nazokatli o‘qituvchilarga ergashadilar, ularga taqlid qiladilar.

Umumiy o’rta ta’lim maktablarida o‘quvchilar pedagoglarning voqelikka munosabatini sinchkovlik bilan kuzatadilar, ularga turli savollar berib, nuqtai nazarlarini aniqlashga harakat qiladilar. Shu asosda o‘qituvchilarni baholaydilar. Ular o‘zlarining shaxsiy baholariga asoslangan holda o‘qituvchilarga nisbatan o‘ta ijobiy, o‘rtacha va salbiy munosabatlarini bayon qiladilar.

O‘smir yoshdagi o‘quvchilarda madaniy immunitetni shakllantirish ularning amaliy faoliyatini tashkil etish bilan bevosita bog‘liq. O‘quvchilarda madaniy immunitetni shakllantirishga yo‘naltirilgan amaliy faoliyat mashqlar yordamida shakllantiriladi.

REFERENCES

1. Xodjayev B.X. Umumta’lim maktabi o‘quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizasiyalashgan didaktik ta’minot vositasida rivojlantirish. Pedagogika fanlari doktori. ... diss. – T., 2016. – 314 b.
2. Qosimova N.D. O‘smirlar ijtimoiylashuvida ibrat ijtimoiy psixologik xususiyatlarining ahamiyati: Ped.f.n. ... dis.avtoref: - T.: TDPU, 2010. – 26 b.
3. Umarova M.M. O‘smirlarda oilaviy qadriyatlar to‘g‘risidagi tasavvurlar shakllanishining ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlari. Psixol. fan. nom. dis. avtoreferati: 19.00.05. – T.: O‘zMU, 2004. –27-b.
4. Qurbonniyozova Z.M. Tarbiyaviy ishlar jarayonida o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglashni shakllantirishning pedagogik asoslari. Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. -T.: 2000 – 286 b.
5. Xalilova N.I. O‘smirlik davrida o‘zini-o‘zi nazorat qilish shaklanishining psixologik xususiyatlari: psixologiya fanl.nomzodi. diss. Toshkent. 2010.

XORIJIY MAKTABLARDA MADANIY MUHITNING AHAMIYATI

Malikova Dilraboxon Maxmudovna
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). E-mail: dmalika11@gmail.com

https://doi.org/10.5281/zenodo.7927366

Annotatsiya. *Maqolada umum o‘rta ta’lim maktablarida xorijiy mamlakatlar ta’lim tizimini o‘rganish natijasida madaniy muhitni yaxshilash xaqida so‘z yuritilgan. Skandinaviya mamlakatlari ta’lim tizimi misolida tadqiqot ishlari bajarilganligi bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *ta’lim tizimi, xorijiy maktablar, muhit, madaniy muhit, tajribalar, iste’dod va qobiliyat.*

Rivojlanib borayotgan yangi O‘zbekiston ta’lim tizimi ham chuqur islohotlarga ehtiyoj sezmoqda. Sobiq ittifoq davridagi o‘n yillik ta’lim tizimidan voz kechib, to‘qqiz yillik majburiy hamda uch yillik akademik yoki kasb-hunarga ixtisoslashgan ta’limga o‘tildi. Keyinchalik yana o‘n bir yillik ta’lim tizimiga qaytishga qaror qilindi. Bu kabi keskin o‘zgarishlar ayrim o‘quvchilarda stress holatini uyg‘otdi. Hatto, ba’zi o‘qituvchilarda ham salbiy o‘zgarishlarni ko‘rdik.

Xo‘sh, xorijiy davlatlarda ham bunday holatlarga duch kelishganmi? Og‘ir vaziyatlardan qanday chiqib ketishgan? Kelgusida bunday hollarga tushmaslik uchun qanday chora-tadbirlar ko‘rish zarur? Quyida biz Skandinaviya mamlakatlari misolida ushbu muammoga qanday yechim topilganini ko‘rib chiqamiz va tadbiq qilingan amaliy choralarni tahlil qilamiz.

Butunjahon ta’lim tizimida yetakchi o‘rinlarni egallab kelayotgan Finlyandiya, Shvetsiya, Norvegiya hamda Daniya kabi mamlakatlarda kelajak avlod tarbiyasi va bilim olishiga qattiq e’tibor beriladi. Davlat va hukumat rahbarlari o‘quvchilarning dunyo andozalariga xos tarzda bilim olishlari uchun kuch hamda mablag‘ni ayamaydilar, chunki har bir bola maktabga borar ekan, u yerda o‘zini erkin his qilishi, tengdoshlari bilan barobar yangilikka intilishi va o‘zining mamlakat kelajak hayotini qurishga mas’ul ekanligini anglab yetishi nazarda tutiladi.

Maktablar davlat homiyligida, mamlakatlardagi o‘quvchilarning salmoqli qismi shu maskanlarda tahsil oladi. Atigi o‘n foiz atrofida bolalar xususiy maktablarga qatnaydilar. O‘qish uch bosqichda tashkil etilgan. Shvetsiya va Norvegiyada o‘n uch yillik, Finlyandiyada o‘n ikki yillik tizimda tashkil etilgan. Daniyada esa, bolalarning maktabga qatnashi ota-onalar ixtiyorida. Ammo yetti yoshdan o‘n olti yoshgacha hamma bola ta’lim olishi shart. Garchi bolalarning maktabga borishi yoki uyda tahsil olishi ixtiyoriy bo‘lsada, mazkur mamlakat aholisining to‘qson to‘qqiz foizdan ortiqroq aholisi savodli va jahon ta’lim tizimlari reytingida yigirma to‘rtinchi o‘rinni egallaydi.

Shvetsiya juda ko‘p yillardan buyon ta’lim tizimini mukammallashtirish ustida ish olib bormoqda. Maktablarda o‘quvchilar uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Birinchidan, oltinchi sinfgacha bo‘lgan bolalar yuqori sinf o‘quvchilaridan ajratib, ya’ni boshqa binoda o‘qitiladi. Boshlang‘ich sinflarda baho qo‘yilmaydi, balki o‘quvchining taffakkuri hamda dunyoqarashi rivojlantiriladi. Maktablarda madaniy muhit juda yaxshi bo‘lgani sababli, o‘quvchilar u yerga astoydil qatnaydilar. O‘zlarini qiynayotgan murakkab masalalar bo‘yicha maslahatlashadigan mutaxassislar mavjud.

Oltinchi sinfgacha o‘zlashtirish uchun hech qanday baho olmay o‘qiyotgan o‘quvchilar o‘rtasida raqobat yuzaga kelmaydi, o‘qituvchi o‘quvchilarning iste’dodini, qobiliyatini ochib beradi. Olti-to‘qqiz yoshli bolalar maktabda shved tili, tabiatshunoslik, uy ishlarini yuritish hamda

jamiyatshunoslikni o‘rganadilar. Jismoniy tarbiya darslari o‘quvchilarga juda yoqadi, chunki ular nafaqat maktab hududida aylanishadi, balki o‘rmon sayohatiga ham chiqishadi. Ikkinchi sinfdan boshlab o‘quvchilar ingliz tili mashg‘ulotlariga kirishib borishadi, ammo bu ham ularni qiynamaydi, sababi, ular tilni qo‘shiqlar, o‘yinlar va multfilmlar ko‘magida o‘zlashtirishadi. Jamiyatshunoslik darslarida o‘quvchilarga mamlakat va jahon yangiliklari namoyish etiladi, axir har kuni bu ko‘rsatuv televideniye orqali efirga uzatiladi hamda muharrirlar kichik tomoshabinlar qabul qila oladigan darajada soddalashtirib tayyorlashadi. Uy ishlarini o‘rgatadigan mashg‘ulotlar barcha o‘quvchilarga birdek yoqadi, darsda ular o‘yinchoqlar tikishadi, oson ovqatlar tayyorlashadi va hokazo. Uzaytirilgan kun mashg‘ulotlari bu mamlakatda “shodlikning davomi” deb atalishini hisobga olsak, maktab muhiti o‘quvchilarga juda yoqadi, ular bu maskanda o‘zligini topadi, axir Shvetsiyada bolalar ham kattalar kabi hurmat qilinadi va hech kim ularning kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaydi. Uchinchi, oltinchi hamda sakkizinchi sinf bitiruvchilari topshiradigan imtihonlar maktab reytingini belgilab beradi. Majburiy to‘qqiz yillikdan keyingi ta’lim ixtiyoriy bo‘lsada, ikki ming yigirmanchi yil hisob-kitoblariga ko‘ra yetmish ikki foiz o‘quvchi o‘n ikki yillik ma’lumotga egalik hujjatlarini qo‘lga kiritgan.

Norvegiya ta’lim tizimi ham Shvetsiyanikiga o‘xshab ketadi. Ta’lim tizimi uch bosqichdan iborat. Maktablar davlat tomonidan moliyalashtirilgan, ammo mamlakatda xususiy ta’lim maskanlari ham mavjud. Ota-onalar o‘qituvchilar bilan hamkorlikda farzandlarining ta’lim olishiga mas’ul bo‘lishadi. Maktablar o‘quvchilar uchun ko‘pgina qulayliklar yaratadi, shu bois, ular darslarni qoldirmaslikka harakat qilishadi. Kuni uzaytirilgan guruhlar uchun pul to‘lansada, talabgorlar ko‘p va ular maktabda zerikib qolmaydilar.

O‘zlashtirishda qiynalayotgan o‘quvchilar qo‘shimcha darslarga qatnashlari, yakka mashg‘ulotlarda shug‘ullanishlari mumkin.

Finlyandiya maktablari ibrat olsa arziydigan ta’lim maskanlaridandir. Maktab o‘quvchilarning sevimli joyi, har doim o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlaydigan o‘qituvchilar u yerda mehnat faoliyatini yuritishadi. Maosh bir oz kam bo‘lsa ham o‘qituvchilik o‘rinlariga hamisha talabgorlar yetarli. Finlyandiya kelajagining murabbiylariga juda yuqori talablar qo‘yiladi, ya’ni ular eng kamida magistr darajasiga ega bo‘lishlari lozim, o‘quvchilarga bosim o‘tkazmasliklari va agar ular so‘rasa bir savolga takror va takror javob berishlari zarur. Chunki o‘zlashtirishning qoniqarsizligiga doimo o‘qituvchi javobgar. Maktab reytingi o‘quvchilar o‘zlashtirishiga qarab belgilanadi.

Maktabga qatnayotgan o‘quvchilar forma kiymaydilar, davlat tomonidan darslik va ovqat bilan ta’minlanadilar. O‘quvchilarga darsliklarni avaylab ishlatish ta’kidlanadi, axir keyingi yil boshqalar ham shu kitoblardan foydalanishlari kerak bo‘ladi-da.

Maktablarda mavjud qoidalarga ko‘ra, darsliklar maktab ma’muriyati tanlagan nashriyotdan sotib olinadi. O‘n ikki yillik majburiy ta’limning to‘qqiz yili o‘rta maktablarda berilsa, qolgan uch yilini yoshlar ota-onalari bilan maslahatlashib tanlaydilar. Bu tanlov ularning butun kelajagini belgilab beradi.

Prezidentimiz xalqaro tajribalarni o‘rganib, respublikamiz ta’lim tizimiga yangilik olib kelish maqsadida Qashqadaryo viloyatidagi qirq oltita maktabda Finlyandiya ta’lim tizimi asosida o‘qitish haqida qaror qabul qildilar. Ikki ming yigirma uchinchi, ikki ming yigirma to‘rtinchi o‘quv yilidan boshlab amaliy ishlar boshlanadi. Ammo maktablarda ta’lim tizimini ko‘r-ko‘rona ko‘chirib olib hech qanday natijaga erishib bo‘lmaydi. Eng avval maktablarda madaniy muhitga e’tibor berish lozim. Ta’lim dargohlari o‘quvchilar uchun majburiyat yuzasidan borish lozim

bo‘lgan manzil emas, balki barcha intiladigan, iliq xotiralar bilan yodga oladigan maskanga aylanishi shart. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, maktablarda umumiy fanlar bilan birga tanlangan fanlar bo‘yicha ham bilim olish ijobiy natijalarga olib keladi. Mamlakatimizda ixtisoslashtirilgan va ijod maktablari tashkil etilgan, ammo bu o‘quvchilarning elita (tanlangan) va oddiylarga bo‘linib qolishlariga sabab bo‘lmayaptimi?! Masalan, Finlyandiya maktablari barchaga bir xil sharoit yaratgan, hech qanday maxsus sinflar yoki alohida maktablar yo‘q. Xususiy maktablar esa juda kam va ularga talab ham oz.

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, Skandinaviya mamlakatlaridagi maktablarda uchinchi, ba’zan oltinchi sinfgacha o‘quvchilar umuman baho olmaydilar, bu holat ular o‘rtasidagi do‘stona munosabatlarga sabab bo‘ladi. Raqobat bor joyda natija bo‘ladi, deyish har doim ham to‘g‘ri emas. O‘qituvchilarning sevimli o‘quvchilari paydo bo‘lishi tabiiy hol, ammo ular buni sezdirmasliklari kerak, aks holda sinfdagi yoki maktabdagi muhit buziladi.

Yana bir holat shundan iboratki, Skandinaviya mamlakatlari o‘quvchilarga arzon narxlarda qulay shartlarda nootbuklar sotishni yo‘lga qo‘ygan, bu esa, oilada ham, maktabda ham har bir o‘quvchi shaxsiy texnika vositasidan foydalanishini ta’minlaydi. Bir xil sharoitda malakali o‘qituvchilar yordamida zamonaviy darsliklar asosida ta’lim olgan o‘quvchilar imtihonlarda ajoyib natijalarga erishadilar.

Xulosa o‘rnida shuni bayon qilamizki, Finlyandiya, Shvetsiya, Norvegiya hamda Daniya kabi mamlakatlar ta’lim tizimida biz o‘rganishimiz kerak bo‘ladigan jihatlar talaygina, biroq bu bilan u turdagi tizimni ko‘chirib olishimiz lozim demoqchi emasmiz. Negaki, to’qqiz plyus uch tizimi bizga yaxshi tanish va undan yaqindagina voz kechdik. Shuningdek, maktablarimizda maxsus formaning joriy etilishi ham mamlakatimizda zarurat ekanligini vaqt ko‘rsatib berdi.

Muammolarni o‘rganib, quyidagi tavsiyalarni bermoqchimiz:

1. Umum o‘rta ta’lim maktablari xorijiy maktablar bilan hamkorlik qilishlari maqsadga muvofiq;
2. O‘quvchilar davlat tomonidan subsidiyalashtirish asosida arzon texnik vositalar bilan ta’minlanishi ularning o‘zlashtirishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi;
3. Nafaqat fan o‘qituvchilari, balki boshlang‘ich sinf o’qituvchilari ham xorijiy maktablarda tajriba almashish uchun borsalar ta’lim jarayonida madaniy muhitni yaratishning natijaviyligi ortadi.

REFERENCES

1. K. Jalilov “Finlyandiya tajribasi” O‘zbekistonda ta’lim muammolarini xal qila oladimi?”
2. https://translated.turbopages.org/proxy_u/en-ru.ru.0f0e50ba-645162e5-aaa1a19e-74722d776562/https/en.wikipedia.org/wiki/Education_in_Norway
3. https://ru.wikipedia.org/wiki/Obrazovanie_v_Shvesii

YOSH AVLODNI MA’NAVIY DUNYOSINI BOYITISHDA XALQ AMALIY BEZAK SAN’ATINING AHAMIYATI

[1]Bobonazarov Sherali Ulug‘murodovich
[2]Raxmonova Mahliyo Zoir qizi
[1]Navoiy davlat pedagogika instituti katta o`qituvchisi
[2]Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi
ulugmurodovich@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.7926244

Annotatsiya. *Tasviriy san’atning barcha turlarida bo‘lgani kabi xalq amaliy bezak san’atida ham kompozitsiyaning umumiy qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Shunday ekan bu qonuniyatlar bezakchi rassomdan, shu soha vakillaridan bilim va malakalarini tinimsiz oshirib borishlari bilan birga, doim kompozitsiya masalalarini diqqat markazida tutishlarini taqazo etadi.*

Xalq amaliy bezak san’atida bajarilayotgan ishlarning ta’sirchanligini oshirish maqsadida ayrim hollarda kompozitsiya qoidalarini ma’lum darajada buzish ham mumkin bo‘ladi. Xalq amaliy bezak san’ati ishlarini amalga oshirish davomida kompozitsiyaning asosan uchta: tekis, hajmli, kenglik va chuqurlikka ega bo‘lgan turlari qo‘llanib kelinadi.

Bezak san’atida bunday qonun qoidalarini yoshlarga o‘rgatish davomida xalq ustalari yaratgan nodir asarlarin namuna sifatida ko‘rsatish bilan bir qatorda ularning beqiyos ma’naviy qiymatini tushuntirib ularni qadriga etish, asrab avaylsh kabi xislatlar ham singdiriladi.

Kalit so‘zlar: *Badiiy idrok, stillashtish, soddalashtirish, kiygizchilik, savatchilik, buyrachilik, amaliy bezak san’ati, kandakorlik, pichoqchilik.*

“Mamlakatda madaniyat va san’at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi”
Shavkat Mirziyoyev

Kirish

Xalq amaliy bezak san’ati ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lib uning turlari boy va rang-barang madaniy meroslarimizning eng ajoyib va ommaviy o‘lmas turlaridan hisoblanadi. Bu ulkada vujudga kelib gullab-yashnagan san’at turlari betakrorligi va umriboqiyligi bilan dunyo ahli e’tiborini o‘ziga qaratib kelmoqda. Taraqqiyot bosqichlari haqida mushohada yuritadigan bo‘lsak, o‘zbek amaliy bezak san’ati turlarining asl ildizlari ibtidoiy jamoa davriga borib taqalishining shohidi bo‘lamiz.Diyorimiz zaminida olib borilgan turli qazishma ishlari, ilmiy izlanishlar natijasida topilgan ko‘plab yodgorliklarning bizga guvohlik berishicha, insonning buyum va shakllarga badiiy ishlov berishi usullarini tosh asridayoq o‘zlashtirgan bo‘lib, asrlar osha bugungi kungacha takomillashib rivojlanib davom etib kelmoqda.Badiiy tafakkur va badiiy-ijodiy faoliyat hamohangligida insoniyatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida juda katta muhim ahamiyat kasb etdi. Natijada estetik - badiiy idrok qobiliyati insonlarda olamni, undagi narsalar va atrof-muhitdagi voqea-hodisalarni, shakllar va ranglarni turfa shakl-shamoyilda qaytadan aks ettirishga bo‘lgan qiziqishlarini oshirdi. Turli shakllarni real hamda (stillashtirilgan) soddalashtirilgan tasvirlarini yaratishga urinishlar boshlandi va o‘z navbatida odamlarning kundalik turmushlaridan sata sekin o‘rin

egallay boshladi, oqibatda ular san’at darajasiga ko‘tarildi. Buning Natijasida ko‘plab badiiy bezaklarning xilma -xil shakllari va turlari vujudga kela boshladi. O‘rta Osiyo xalqlarining bugungi kungacha yetib kelgan san’at asarlari orasida naqshlar yordamida bezatilib, vujudga kelgan badiiy asarlar nisbatan ko‘pligi bilan ajralib turadi. Bunday naqshli bezaklarga e’tiborni kuchayganligini va rivojlanganligini sabablari mavjud bo‘lib, Islom dini kirib kelgan mamlakat-larda mavjudotlar, insonlar tasvirini ishlash mumkin emas edi, tasviriy san’atga bo‘lgan keng, falsafiy yondoshishlar natijasida shartlilik, stillashtirish, ramziylikka asoslangan badiiy bezak asarlarini yaratishga bo‘lgan e’tibor ortib bordi. Bugungi kunda jahonga mashhur tarixiy me’morchilik yodgorliklari ulardagi koshinkorlik, toshtaroshlik, hattotlik, naqqoshlik, ganchkorlik kabi boshqa turdagi san’atlar yuqori darajada uyg’unlashgan. Ushbu tarixiy omillar o‘zbek milliy bezak san’atining bugungi kunda yunada gurkirab rivojlanishida tayanch vazifasini o‘tadi.

Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz, Toshkent, Qo‘qon va boshqa shaharlardagi me’morchilik va xalq amaliy bezak san’ati yodgorliklari o‘tmish avlodlarimiz yaratgan barkamol, takrorlanmas va tarixan bebaho san’at asarlarining namunalari bo‘lib, xalqimizning va shu bilan birga jahon madani-yatining durdonalaridan bo‘lgan badiiy va madaniy merosni tashkil etadi.

Amaliy bezak san’ati insonlarning badiiy didini shakllantirishda, ma’naviy dunyosini boyitishda, ruhiyatini tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi. Shunday ekan xalq, amaliy san’ati yoshlarni badiiy, axloqiy, estetik tarbiyalab, ularning dunyoqarashlarini rivojlantirishda, madaniy ustunligini yuksaltirishda eng muhim manbalar sirasiga kiradi.

Rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik kabi san’at turlari o‘z avdatoriyasiga, tinglovchisiga yoki muxlislariga ruxiy badiiy, xissiy, ta’siri vositasi orqali, bilim berish orqali tarbiyalaydi.

Yaqin o‘tmishda o‘zbek amaliy bezak san’atining eng rivojlangan ganchkorlik, naqqoshlik, yog’och, tosh va suyak o‘ymakorligi, kandakorlik, pichoqchilik, zargarlik, kashtachilik, zardo‘zlik, gilamchilik, kiygizchilik, savatchilik, buyrachilik kabi turlarining o‘ziga xos bajarish texnologiyalari, xaqiqiy milliy nomlari, ularga xos atamalar, bu san’atlarga xos maktablar, uslublar hamda shu soxalarda nom qozongan ustalarning xizmatlari unuta borilib, yo‘qolib ketish xavfi ostida qolgan edi.

Shularni hisobga olgan holda davlatimiz rahbariyati tamonidan qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda, yoshlarning badiiy ta’lim olishlarini tashkil qilish, san’at turlarini mukammal egallashlarini to‘g‘ri tashkil qilish va turli ilmiy-metodik o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar chop etish, san’atkor-pedagoglar tayyor-lashni yulga quyish, ustoz shogird ananalarini davom ettirish uchun xalq ustalariga eng qulay shart-sharoitlar yaratish, shular jumlsidandir.

Bugungi kunda san’at ahli, xalq ustalari, hunarmandalr, ustozlar va shu sohaga aloqador kishilar oldiga bu san’at turini borligicha saqlab qolish, shu bilan birga chuqur o‘rganish va rivojlantirish, yosh avlodga ustoz shogird ananalarini davom ettirgan holda san’at sir-asrorlarini puxta o‘rgatish orqali san’at asarlarini keng targ’ib qilish barobarida keng jamoatchilikning estetik didini, madaniy salohiyatini yuqori bosqichlarga olib chiqishga erishish kabi kechiktirib bo‘lmas vazifalar oldimizda turibdi.

Bezak san’ati turlarini yoshlarga o‘rgatish davomida xalq ustalari yaratgan nodir asarlarining beqiyos ma’naviy qiymatini tushuntirish orqali yosh avlodni estetik didni

shakllantirish, shu sohaga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshirish, aqily bilim-axloqiy tarbiya berish, mehnatga bo‘lgan munosabatlarini o‘zgartirish, kasb tanlashda adashmaslik, ruxiy va amaliy dalda berish ustoz murabbiy oldida turgan muhim vazifalar qatorida sanaladi.

“Oldimizda turgan eng muhim va dolzarb masalalardan biri – yuksak ma’naviyatli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarga, o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iborat ekanini barchamiz yaxshi tushunamiz.” – degan edilar Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev.

Yoshlarga san’at sirlarini o‘rgatishning bir qancha omollar mavjud bo‘lib ular quyidagilar:shu sohada umumiy nazariy ma’lumotlarga ega bo‘lish yoki biror turini amaliy jixatdan to‘liq puxta o‘zlashtirish, murabbiy - usta san’at turini shogirdlariga chuqur o‘rgatish, mahalliy sharoitlardan kelib chiqqan holda ushbu san’atlarning u yoki bu turi bo‘yicha mashg’ulotlar tashkil etish va hokoza.

Yoshlikdagi qiziqish, havas bora-bora bir umrlik kasbga aylanishi, yoki aksincha keyinchalik boshqa kasbni tanlab usha kasb egasi bo‘lib qolishi ham mumkin, har ikki holda ham san’at sirlarining kishi shaxsini yaxshi takomillashtirishdagi oldiga qo‘ygan vazifasi yetarli darajada bajarilgan desak xato bo‘lmaydi. Sababi, har ikkala holda ham estetik did, dunyoqarash va madaniy darajaning kerakli zaruriy taraqqiyotiga erishiladi deb hisoblanadi.

REFERENCES

1. Shavkat Mirziyoev. “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz” kitobining 6-bobi.
2. S.Bulatov. O‘o‘zbek xalq amaliy bezak san’ati.Toshkent «mehnat» 1991
3. Oydinov.N. O‘zbekiston tasviriy san’ati tarixidan lavhalar.-T: O‘qituvchi, 1997.
4. Umarov.A. Ahmedov M. Tasviriy san’at atamalarining izohli lug’ati.-O‘z. 1998.
5. Usmonov O. Komoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi.-T Fan. 1997.
6. Sharq miniatyura maktablari.-Toshkent: G’ofur G’ulom, 1989.
7. Sh. Bobonazarov. Sh.Jalolov.Etnomadiy fenomenon sifatida nuza san'atlari. Published by: TRANS Asian Research Journals AJMR: asianjournal ofmultidimensional Research Osiyo ko'p o'lchovli tadqiqot jurnali (AJMR) Impact Factor: SJIF 2021 = 7. 699 05 -may 2021. Https://www.tarj.in
8. Sh. Bobonazarov. Kompozitsiya mashg‘ulotlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning muhim ekanligi.
9. Science and innovation international scientific journal volume 1 issue 6 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337 16.09.2022 http://scientists.uz/view.php?id=1355http://scientists.uz/uploads/202206/b-2.pdf
10. Sh. Bobonazarov. Tasvirlarni grizayl texnikasida ishlashning o‘ziga xosligi. Innovative Development in Educational Activities
11. Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2022: 4.654 December, 2022 https://t.me/openidea_uz Multidisciplinary Scientific Journal December

ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA KLASTER METODLARIDAN FOYDALANISH

Zokirov Javohir G‘aybullo o‘g‘li
Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.7926259

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta’lim jarayonida metodlarning ahamiyati, har bir o‘quv mashg‘ulotining mazmun-mohiyati, ta’lim-tarbiyaning uzviy bog‘liqligi, ajralmas tushuncha ekanligini e’tirof etildi. O‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy, tarbiyaviy jihatlarning kamol topishida ona tili va o‘qish savodxonligi darslarining roli kattaligi hamda ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida qo‘llaniladigan klaster metodi va ularni qo‘llash usullari haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Ta’lim, metodlar, interfaol metodlar, strategiyalar, grafik organayzerlar, amaliy metodlar, og‘zaki metodlar, ko‘rgazmali metodlar, “klaster” metodi.*

So‘ngi yillarda ta’limga bo‘lgan e’tibor kundan-kunga ortib bormoqda. Buning natijasida ta’lim oluvchilar va ta’lim beruvchilar uchun jahon talablariga mos qulay sharoitlar yaratib berilmoqda. Ta’lim sifatini oshirish uchun hamma qo‘ldan kelgancha harakat qilmoqda, buning natijasida maktablar uchun zamonaviy yangi binolar, qulay jihozlangan o‘quv xonalari, o‘quvchilar uchun yangi darsliklar ishlab chiqilmoqda. O‘qituvchilar sifatli ta’lim berish uchun dars berish jarayonida turli xil metodlardan foydalanadilar. Metodlar o‘qituvchilarning bilim berishi uchun zarur hisoblanadi. Har bir o‘qituvchi metodlar orqali ma’lumotlarni o‘quvchilarga oson yetkazib bera oladi. O‘quvchilar esa shu metodlar orqali berilgan bilimlarni yaxshiroq tushunib oladilar [1].

Bugungi kunda respublika ta’lim muassasalarida interfaol ta’limni tashkil etishda quyidagi eng ommaviy texnologiyalar qo‘llanilmoqda:

1. Interfaol metodlar: “Keys-stadi” (yoki “O‘quv keyslari”), “Blits-so‘rov”, “Modellashtirish”, “Ijodiy ish”, “Munosabat”, “Reja”, “Suhbat” va boshqalar.

2. Strategiyalar: “Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Galereya”, “Zig-zag”, “Zinama-zina”, “Muzyorar”, “Rotatsiya”, “T-jadval”, “Yumaloqlangan qor” yana bir qancha turlari bor.

3. Grafik organayzerlar: “Baliq skeleti”, “BBB”, “Kontseptual jadval”, “Venn diagrammasi”, “Insert”, “Klaster”, “Nima uchun?”, “Qanday?” va boshqa turlari mavjud [2].

Metod so‘zi yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib tadqiqot yo‘li, nazariya, usul degan ma’noni bildiradi. Metodlar uchta guruhga bo‘lingan:

1) Amaliy metodlar;
2) Og‘zaki metodlar;
3) Ko‘rgazmali metodlar.

Klaster metodi ko‘rgazmali metodlar turiga kiradi. “Klaster” (tarmoqlar) metodi deb ham ataladi. Fikrlarni tarmoqlantirish – bu pedagogik strategiya bo‘lib, u o‘quvchilarni biron-bir mavzuni chuqur o‘rganishlariga yordam berib, o‘quvchilarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni (assotsiativ) erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog‘lagan holda tarmoqlantirishga o‘rgatadi.

Bu metod biron mavzuni chuqur o‘rganishdan avval talabalarni fikrlash faoliyatini jadallashtirish, hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o‘tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o‘zlashtirish, umumlashtirish hamda talabalarni shu mavzu bo‘yicha tasavvurlarini ijodiy yondashgan holda chizma shaklida ifodalashga undaydi. Bu esa talabalarga o‘z bilimlari, tushunishlari va tasavvurlari darajasini aniqlashga yordam beradi [3].

Ba’zi adabiyotlarda “Klaster” (g‘uncha, bog‘lam) metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo‘lib, u o‘quvchilarga ixtiyoriy muammolar xususida erkin, ochiq o‘ylash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur

metod turli xil g‘oyalar o‘rtasidagi aloqalar to‘g‘risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi.

«Klaster» metodi aniq ob’ektga yo‘naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog‘liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning o‘quvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o‘zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo‘lishini ta’minlashga xizmat qiladi. «Klaster» metodi puxta o‘ylangan strategiya bo‘lib, undan o‘quvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg‘ulotlar jarayonida foydalanish mumkin.

Metod guruh asosida tashkil etilayotgan mashg‘ulotlarda o‘quvchilar tomonidan bildirilayotgan g‘oyalarning majmui tarzida namoyon bo‘ladi. Bu esa ilgari surilgan g‘oyalarni umumlashtirish va ular o‘rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi. Klasterlarga ajratish-o‘quvchilarga biror-bir mavzu to‘g‘risida erkin va ochiq tarzda fikr yuritishga yordam beradigan pedagogik strategiyadir. Bu usul ko‘p variantli fikrlashni o‘rganilayotgan tushuncha (hodisa, voqea)lar o‘rtasida aloqa o‘rnatish malakalarini rivojlantiradi. Klasterlarga ajratishni anglash va mulohaza qilish bosqichlaridagi fikralashni rag‘batlantirish uchun qo‘llash mumkin. U asosan yangi fikrlarni uyg‘otish, mavjud bilimlarga etib borish strategiyasi bo‘lib, muayyan mavzu bo‘yicha yangicha fikr yuritishga chorlaydi. Biror mavzu bo‘yicha klasterlar tuzishdan bu mavzuni mukammal o‘rganmasdan oldin foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Klaster tuzish ketma-ketligi:

-katta qog‘ozning o‘rtasiga yoki sinf doskasiga va monitorga yoxud yozish uchun foydalanish mumkin bo‘lgan sathga «kalit» so‘z yoki gap yoziladi;

-shu mavzuga tegishli deb hisoblangan va xayolga kelgan so‘z va gaplar yoziladi;


-fikrlar paydo bo‘lganda va ularni yozganda fikrlar o‘rtasida mumkin bo‘lgan bog‘lanishlarni belgilash;

-fikrlar tugamaguncha yoki vaqt tamom bo‘lgunicha xayolga kelgan barcha fikrlar yozilaveradi [5].


Keltirilgan so‘z va fikrlar mazmuni va yaqinligiga qarab toifalarga ajratib chiqiladi. Klaster tuzishda guruhdagi barcha o‘quvchilarning ishtirok etishi, shu guruh uchun g‘oyalar o‘zagi bo‘lib xizmat qiladi.

Klaster tuzish uchun o‘qituvchi asosiy (tayanch) so‘zni doskaga yozadi, talabalar asosiy so‘zni to‘ldiruvchi yoki ushbu so‘z yechimiga bog‘liq so‘zlarni aytishadi. O‘qituvchi talabalar tomonidan aytilgan so‘zlarni “Klaster” atrofiga to‘plab, mantiqiy zanjir hosil qiladi [4].

Endi 3-sinf uchun yaratilgan ona tili va o‘qish savodxonligi kitobida berilgan bazi bir mavzularga oid klaster tuzishni ko‘rib chiqamiz. Darslikda berilgan Anvar Obidjonning “O‘rmonda ziyofat” she’rini tushuntirishda klaster metodi orqali qo‘shimcha ma’lumot berish mumkin bo‘ladi.




1-rasm.



2-rasm.

1-2-rasmda keltirilgan klasterlar orqali Anvar Obidjonning “O‘rmonda ziyofat” she’rida keltirilgan hayvonlarning qaysilari xonaki va yovvoyi ekanligi haqida ma’lumotga ega bo‘ladilar hamda dunyoqarashlari ortib boradi. She’rda keltirilgan hayvonlarning bir-biridan farqlari haqida ham ma’lumotlar berib o‘tiladi.

Darslikda berilgan “Quyoshning bolalari” hikoyasini tushuntirish uchun o‘qituvchi klaster metodidan foydalanish mumkin bo‘ladi. O‘qituvchi yangi mavzuni tushuntirib bergandan so‘ng doskada yoki monitorda bo‘sh klaster chizmasini ko‘rsatadi va o‘quvchilar bilan birgalikda hikoya yuzasidan savol-javob uyushtirib berilgan klasterni to‘ldiradilar va yangi mavzuni mustahkamlab oladilar.



3-rasm.

Yuqorida keltirilgan 3-rasmda keltirib o‘tilgan “Quyoshning bolalari” hikoyasida berilgan sayyoralarning nomlarini eslab qolishlari uchun, bu metod muhim ahamiyat kasb etadi. Bu

mavzulardan tashqari yana bir qancha mavzularni o‘rgatishda bu metodni qo‘llash mumkin. Pedagoglar mavzudan kelib chiqqan holda o‘zlari mustaqil ravishda ana shunday metodlarni tanlab dars davomida qo‘llab dars o‘tsalar, darsning samaradorligi yana ham yuqori bo‘ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo‘lsak klaster metodidan to‘g‘ri foydalanish orqali o‘quvchilarning fikrlashlari, dunyoqarashlari ortadi. O‘quvchilar bu metod orqali o‘zlariga kerakli bo‘lgan bilimlarni tizimlashtirib, tarmoqlab olish imkoniyatlariga ega bo‘ladilar.

REFERENCES

1. O‘G‘Li, Z. J. G., & Aliyarovich, T. E. (2022). BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA QO‘LLANILADIGAN METODLAR. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 131-142.
2. Инновацион таълим технологиялари / Муслимов Н.А., Усмонбоева .Ҳ., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. – Тошкент: 2015. – 208 бет.
3. SH.S.SHOYIMOVA, M.K.XOSHIMOVA, SH.R.MIRZAYEVA, M.M.QO‘ZIBOYEVA Ta’lim texnologiyalari – Darslik. – T.: «IJOD- PRINT», 2020.-310 bet.
4. О.Д.Рахимов, О.М.Турғунов, Қ.О.Мустафаев, Ҳ.Ж.Рўзиев Замонавий таълим технологиялари /Тошкент, “Фан ва технология нашриёти”, 2013й., 200бет.
5. Muqimovich, Y. S. Use of Interactive Methods in Teaching Historical Topics in Primary School Reading Lessons. *JournalNX*, 326-329.

THE ROLE OF PARENTS AND FAMILIES IN SUPPORTING AND PROMOTING THE USE OF TECHNOLOGY IN EDUCATION

Abrorova Ra’no
Teacher of School N16

https://doi.org/10.5281/zenodo.7926282

Abstract*. The article discusses the importance of building digital literacy skills in students, which includes not only the ability to use technology effectively but also the ability to think critically about digital media and to understand how to navigate online spaces safely and responsibly. The article highlights various ways in which parents can support technology use at home, such as providing access to educational apps and websites, setting up a designated study space, and engaging with their children about the ways technology can support learning. Additionally, the article emphasizes the importance of collaborative efforts between parents and teachers to create a culture of digital innovation and digital literacy in the classroom and at home.*

Keywords: *Parents, families, technology, education, digital literacy, educational apps, study space, collaborative efforts, COVID-19 pandemic, equitable access.*

Technology has become an integral part of modern education, with its potential to enhance student learning and engagement widely recognized. However, for technology to be truly effective in the classroom, it is essential for parents and families to play an active role in supporting and promoting its use. Beyond the classroom, technology plays an increasingly significant role in all aspects of society, and its impact will only continue to grow in the years to come. This underscores the importance of parental support for technology use in education, as it empowers children with the skills and knowledge needed to thrive in a rapidly evolving digital landscape. In this article, we will explore the critical role that parents and families play in supporting and promoting technology use in education, the benefits of such support, and ways to foster a culture of digital innovation and digital literacy in the home and school settings.

Encouraging children to use technology for educational purposes at home can have a significant impact on their academic performance and overall development. There are a variety of ways that parents can support technology use for educational purposes, including:

1. Providing access to educational apps and websites: Parents can help their children find and use educational apps and websites that align with their interests and learning goals. For example, children who are interested in science can use apps like NASA Kids Club or Science Buddies to explore scientific concepts in a fun and interactive way.
2. Setting up a designated study space with technology: Having a designated space for studying and using technology can help children stay focused and organized. Parents can set up a study space with a computer or tablet, and make sure that it is well-lit, comfortable, and free from distractions.
3. Engaging with their children about technology: Parents can also have conversations with their children about how technology can be used to support learning. For example, they can talk about how online research can help with homework assignments, or how online quizzes can help children prepare for exams.

In addition to these strategies, parents can also encourage their children to be creative and innovative with technology. This might involve using technology to create their own digital media

projects, such as videos, podcasts, or blogs. By engaging with technology in this way, children can develop important skills in critical thinking, problem-solving, and communication.

Digital literacy skills have become increasingly important in the 21st century, as technology has become ubiquitous in both personal and professional settings. Encouraging children to use technology for educational purposes at home can help them develop the digital literacy skills they need to succeed in today's world.

Digital literacy skills encompass a range of abilities, including the ability to use technology effectively, to critically evaluate information found online, and to navigate online spaces safely and responsibly. By engaging with technology in a purposeful and meaningful way, children can develop these skills over time.

One important aspect of digital literacy is the ability to use technology effectively. This includes skills such as typing, using software applications, and navigating the internet. By using technology for educational purposes, children can build their proficiency with these tools and become more comfortable and confident with technology overall.

Another key component of digital literacy is the ability to think critically about digital media. This involves evaluating the credibility and accuracy of information found online, and understanding how bias and misinformation can be present in digital media. By using technology to research and learn about a variety of topics, children can develop their critical thinking skills and become more discerning consumers of digital media.

Finally, digital literacy also includes the ability to navigate online spaces safely and responsibly. This includes understanding how to protect personal information online, how to identify and avoid online risks such as cyberbullying or scams, and how to engage in online communities in a respectful and appropriate manner. By using technology in a safe and responsible way, children can develop the skills they need to protect themselves and others online.

By encouraging children to use technology for educational purposes at home, parents can help to build their digital literacy skills, which are essential for success in today's world. By developing these skills early on, children can become more comfortable and confident with technology, and be better prepared for the digital demands of the future.

In addition to encouraging technology use at home, parents can also support teachers' efforts to incorporate technology in the classroom. This might involve communicating with teachers about how technology is being used in the classroom, attending school events focused on technology, and volunteering to help with technology-related projects or initiatives.

Providing guidance and supervision around technology use is also an important role that parents can play. While technology can be a powerful tool for learning, it is important for parents to ensure that their children are using technology safely and responsibly. This might involve setting appropriate limits on screen time, monitoring online activity, and talking to children about digital citizenship and online safety.

Finally, parents can also advocate for technology in schools by attending school board meetings, supporting technology-related ballot initiatives, and encouraging schools to invest in technology infrastructure and professional development for teachers.

In addition to the importance of parental support for technology use in education, there are several wider implications for society and the future workforce. As technology continues to rapidly evolve and become increasingly integrated into all aspects of life, digital literacy skills will become even more essential for success in a variety of fields.

Moreover, technology can help to level the playing field for students from disadvantaged backgrounds, providing access to educational resources and opportunities that may not otherwise be available. By promoting technology use in education, parents and families can help to bridge the digital divide and ensure that all students have the chance to succeed.

Additionally, the COVID-19 pandemic has highlighted the importance of technology in education, with remote learning becoming a necessity for many students around the world. This has further underscored the need for parents and families to support technology use in education and ensure that students have the skills and resources needed to succeed in a digital learning environment.

Overall, the role of parents and families in supporting and promoting technology use in education extends beyond the individual student and has wider implications for society as a whole. By working together with teachers and schools to create a culture of digital innovation and digital literacy, parents can help to prepare their children for success in the digital age and ensure a more equitable future for all students.

REFERENCES

1. Blau, I., & Hameiri, M. (2017). Ubiquitous mobile educational data management by teachers, students and parents: Does technology change school-family communication and parental involvement?. Education and Information Technologies, 22, 1231-1247.
2. Tarigan, K. E., & Stevani, M. (2020). Role of parents in early educational childhood in education technology in COVID-19 outbreak. Educational practices during the COVID-19 viral outbreak: International perspectives, 143.
3. Kong, S. C. (2018). Parents’ perceptions of e-learning in school education: Implications for the partnership between schools and parents. Technology, Pedagogy and Education, 27(1), 15-31.

YOSHGA DOIR BADIIY ASARLAR –IJTIMOIY-MADANIY MUHITNI SHAKLLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA

[1]Sh.A. Xolboyeva, [2]F.Fayzullayev
[1]Qori Niyoziy nomidagi O‘zPFITI tayanch doktoranti
[2]TDPU magistranti
+998909322128

https://doi.org/10.5281/zenodo.7926287

Annotatsiya. *Ushbu maqolada badiiy asarlaning yoshlarga ta’siri, ularning har bir yosh bosqichidagi psixologik ahamiyati, badiiy asarlar nafaqat madaniy, balki ilmiy muammolarning ham yechimi bo‘lishi mumkinligi yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *badiiy asar, ijtimoiy-madaniy muhit, ob’yektivlik, bolalar adabiyoti, tragediya, ballada, epos.*

Zamonaviy dunyoda har bir inson oldida turli xil masalalar mavjud bo‘lib, ulardan biri kitob mutolaasi hisoblanadi. Ba’zilar o‘zlari uchun mutolaa qilsa, ba’zilar vaziyatdan kelib chiqgan xolda kitob o‘qishadi. Inson o‘z istagi bilan badiiy adabiyotga qiziqishi uchun, unda avvalo yoshlikdan qiziqish mavjud bo‘lishi kerak. Bu esa oddiy jarayon bo‘lmasdan, oiladagi muhit, jamoadagi qiziqish, atrofdagilarning undashi bilan shakllanadi.

Badiiy asarni har kim ham istagan paytda va istagan ko‘rinishda o‘qib ketishi bu – noto‘g‘ri jarayon bo‘lib, har bir yosh doirasida belgilangan asarlarni mutolaa qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Endi tug‘ilgan va asta shakllanib borayotgan bolaga badiiy asar ona allasi bilan birgalikda singdirilsa, o‘smir yoshdagi bolalarga, ertaklar, maqol va masallar, cho‘pchaklar orqali voqe’lik singdiriladi.

O‘smir yoshdagi o‘quvchiga yoki o‘z “meni” shakllangan bolaga ertak aytish yoki turli dostonlar hikoyasi zerikarli tuyilishi mumkin, shu sababdan ham yoshga mos bo‘lgan badiiy asarlarni tanlab olish va mutolaa uchun muhit yaratish ota-onaning va pedegoglarning oldida turgan masalalardan biridir. Misol uchun o‘smir yoshdagi o‘quvchilarga pedagoglar, Mirkarim Osimning “To‘maris”, “Jayhun ustida bulutlar” kabi qissalarini, “Dunyoning ishlari”, “Alvon yelkanlar”, “Teddi”, “Uch baqaloq”, “Qiziquvchan Matmusa”, “Suv ostida 80.000 kilometr”, “Kapitan Nemo” kabi asarlarni tavsiya qilsa, bu asarlar orqali tarix, geografiya, psixologiya, madaniyat kabi yo‘nalishlarga qiziqish orta boshlaydi. O‘qish jarayonida esa so‘z boyligi va nutq madaniyati shakllanadi.

Yuqori sinf bitiruvchi o‘quvchilariga esa eng yaqin do‘st sifatida kitobni sovg‘a qilish bilan, pedagog turli muammolarga yechim topishga imkon beradi. O‘zining dunyosi shakllangan yosh “sevgi”, “xiyonat”, “do‘stlik”, “va’da”, “tanqid” kabi tushunchalarning atrofida yashay boshlaydi. O‘zga oqimlar ushbu tushunchalarni shakllantirishidan oldin badiiy asarlardagi fikrlar orqali bu tushunchalarga to‘g‘ri va mazmunli ta’rif berilsa, shunda bitiruvchi yosh to‘g‘ri yo‘ldan adashmaydi. Bunday asarlarga misol sifatida “O‘n sakkizga kirmagan kim bor”, “Ikki karra ikki besh”, “Hojimurod”, “Yulduzli tunlar”, “Odamlardan tinglab hikoya”, “Baron Myunxauzen” kabilarni ko‘rsatish mumkin. “O‘n sakkizga kirmagan kim bor” asari orqali har bir yosh sevgi va sadoqat, oiladagi ishonch kabi tushunchalarni uchta qahramon o‘smirlar orqali anglay boshlaydi. O‘zi qiziqgan savollarga javob topadi. Aka-ukaning sadoqati bilan birgalikda o‘zaro dushmanlik kayfiyati bilan yashashida insonda bu tuyg‘ular birgalikda hayot kechirishi mumkinligini anglaydi. Yoki bo‘lmasa, qirg‘iz xalq yozuvchisi Chingiz Aytmatov qalamiga mansub bo‘lgan “Oq kema”

qissasi 19 yil davomida yozilgan bo‘lib, uni o‘zbek tiliga Asil Rashidov tarjima qilgan. Qissaning mazmun- mohiyatiga kelsak, ushbu qissa o‘zida qirg‘iz xalqining o‘ziga xos afsona va rivoyatlarini jamlagan va unda ezgulikning yovuzlik ustidan mag‘rurona g‘alabasi aks etgan. Qissa qahramoni bolaning hayotda mehr ko‘rmagani, uning bobosidan boshqa yaxshilik qilishi mumkin bo‘lgan kishisi yo‘qligi, shunday bo‘lsada doimo ezgulikka intilib yashashi aks etgan. Qissaning asosiy g‘oyasi, qadimgi urf- odatlarni qadrlash, farzandlarni yetim qoldirmaslik, tabiatni asrash kabilardan iborat.

Vatanparvarlik ruhida yozilgan “Kapitan qizi” asari rus shoiri hamda yozuvchisi Pushkin qalamiga mansub bo‘lib, unda kitobxon o‘sha davrdagi voqealar, davr siyosatini ko‘rishi mumkin, oddiy dehqon xalqining krepastnoy tuzumdan azob chekib qiynalishi va bunga javobon Pugachov qo‘zg‘alonining bo‘lib o‘tishini yozuvchi Grinyov hayoti orqali bog‘laydi. Kitobni mutolaa qilgan yosh xalq manfaatlarini o‘ylash kerakligini, xalq birlashib harakat qilsa katta kuch ekanini o‘rganadi.

O‘lmas Umarbekov qalamiga mansub bo‘lgan “Qizimga maktublar” qissasi esa yozuvchining kasal bo‘lib qolgan paytida yozilgan bo‘lib, qissa yozuvchining kasalxonada paytida o‘z qizi Umidaga qilgan dil izxorlarini maktub qilingan ko’rinishidir. Asarda qandaydir aniq qahramonlar mavjud bo‘lmay, yozuvchi o‘z umrini Moskvada kasal paytida sarhisob qilib, o‘zi uchun xulosalar qiladi. Qissadagi ajoyib voqealr jumladan, Sibirga O‘zbekistondan poyezdda bir vagon karam olib bormoqchi bo‘lgan pochchasi, karamning chirib ketishi yoki yo‘l olis ekanini xisobga olmay, karam sotuvchining gapiga laqqa ishonib safarga otlanadi va 1 tog‘oragina karam sotib, kafangado bo‘lib yurtiga qaytadi. Yozuvchi bu voqea orqali qiziga nasihat qiladi. “Qizim har narsani yetti o‘lchab bir kes” deydi. Qissa kattaga ham, kichikka ham yetarlicha nasihat va ibratlarga to‘la bo‘lgani uchun uni o‘qish maroqli. Hozirgi kunda ham dolzarb bo‘lgan muammolar, ya’ni shifokorlarning yuzaki shifokor ekani, odamlarning o‘z salomatligiga bee’tibor bo‘lishi ko‘rsatib o‘tiladi. Asar so‘ngida yozuvchi ancha o‘zini tiklab olganini aytadi va qiziga, shu jumladan barcha kitobxonlarga baxtli umr tilaydi.

Xulosa qilib aytganda bu kabi asarlar namunasi yoshlarning atrofida, o‘zaro suhbati, aloqa jarayonida foyda beradi. Ularning muhokamasi esa ijtimoiy-madaniy muhitni shakllantirish poydevori hisoblanadi.

REFERENCES

1. O.Sharafiddinov “Ma’naviy kamolot yo‘llarida” Toshkent: Ma’naviyat 2001y.
2. N.Yoqubov “Badiiy asar vositasida estetik tarbiya berish”.T:O‘qituvchi 2019y.
3. S.Matjon “Kitob o‘qishni bilasizmi?”. T:O‘qituvchi 1993 y.
4. Ch.Aytmatov “Oq kema”. T: G‘.G‘ulom 2022 y.

ДИДАКТИК ҚАДРИЯТЛАР ТАЪЛИМНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС МАДАНИЙ ҲОДИСАСИ СИФАТИДА

Жалилова Нилуфар Тохир қизи
ЎзПФИТИ таянч докторанти

https://doi.org/10.5281/zenodo.7926297

Аннотация. *Маълумки, жаҳон ҳамжамиятида янгиланиб бораётган таълим мазмуни белгиланмоқда. Таълимнинг ўта стандартлашуви ва регламентлашуви доим ҳам таълим воситасида соғлом фикрли, қизиқувчан ёшларни тарбиялашга хизмат қилмайди. Афсуски, жаҳон ҳамжамияти таълимнинг (айниқса, Европада) абсракт тафаккурни ривожлантиришнинг оғир юки остида қолишига гувоҳ бўлмоқда, бунда таълим олувчиларда амалий кўникма ва малакаларни таркиб топтиришга кам эътибор берилади.*

Калит сўзлар: *дидактика, таълим, ривожланиш, маданият.*

Таълимни ривожлантиришга қаратилган дидактик концепцияларнинг асосида турли мезон ва ёндашувлар ётади. Булар ўқув жараёнида қўлланилаётган методларни такомиллаштииш, ўқув жараёнини ташкил этишда педагогик психологияда илгари сурилаётган янги маълумотларга асосланиш кабилардан иборат бўлиши мумкин. Илғор дидактик концепцияларда шахсга қаратилган мезон ва ёндашувлар илгари сурилмоқда.

Ғарб педагогикасида олға сурилган кўпчиликка маълум дидактик концепциялар ичида традицион парадигма, рационал модел ва феноменологик йўналишларни келтириш мумкин. Таълимнинг демократлаштирилиши шароитида турли назарий моделларнинг илгари сурилиши табиий ҳолат бўлиб, уларда бир вақтнинг ўзида бир нечта дидактик парадигмалар бирлашиб, уйғунлашиб кетади.

Таълим жараёнида дидактик қадриятлардан оқилона фойдаланиш муаммоси ҳам тарихий ва замонавий таълимий қадриятларни самарали қўллаш орқали олий педагогик таълим самарадорлигини оширишга хизмат қилади.

Қадриятлар илмий-педагогик атама сифатида XIX асрнинг 60-йилларидан қўлланилиб, уни ахлоқий ва эстетик категория сифатида фанга олиб кирган немис философи ва врачи Р.Г.Лотце борлиқ, ҳақиқат ва қадрият тушунчаларини ўзаро муносабатини ўрганган ҳолда, қадриятни инсоний муносабатларга қиёсан таҳлил этди[4,1]

Педагогика энциклопедиясида қадриятлар “Воқеликдаги муайян ҳодисаларнинг умуминсоний, ижтимоий-ахлоқий, маданий, маънавий аҳамиятини кўрсатиш учун қўлланиладиган тушунча” [5,385] эканлиги таъкидланади.

Дидактик қадриятларни янги мазмун ва шакл билан бойитиш таълимни жамият томонидан қўйилаётган ижтимоий-амалий талабларга мувофиқ такомиллаштириш имконини беради. Дидактик қадриятлар мазмунини аниқлаш, қадрият даражасига етган таълим тамойиллари, метод ва воситаларини қўллаш чегараларини белгилаш асосида дидактик қадриятлар амалий-меъёрий ҳамда ташкилий-технологик вазифаларни ҳам бажаради. Дидактик қадриятларнинг асосий категориялари ва дидактик тушунчалар тизими таркиби ниҳоятда бой бўлиб, унда ижтимоий тараққиёт жараёнида тўпланган таълимга оид тушунча ва билимлар акс этади. Шу сабабли ўқитишнинг мазмуни, тузилиши, таълим фалсафаси, ўқитишнинг шакл, усул ва воситалари қадрият сифатида ўрганилган ишларда таълимий ва дидактик қадрият тушунчалари айни бир хил маънода қўлланади. Мавжуд дидактик қадриятлар мазмунан уч асосий гуруҳга ажратилади: 1) фалсафий-педагогик

қадриятлар; 2) ўқитишнинг ташкилий шакли, услуб ва усулига оид тушунчалар; 3) дидактик қадрият даражасига эришган назария (концепция)лар ва уларнинг фалсафий асослари.

Дидактик қадриятларда ворисийлик, —мазмун, — шакл, —усул — алоқадорлик каби фалсафий тушунчалар, умумий илмий тушунчалардан —тизим —тузилма —тарихийлик —замонавийлик кабилар алоҳида ўрин эгаллайди. Дидактик қадриятлардан фойдаланишнинг педагогик шарт-шароитларини тавсифлашда уларнинг таълим парадигмалари, таълим функциялари, таълимнинг мазмуни билан боғлиқ тамойиллари, таълимнинг ташкилий-методик жиҳатларига ҳам алоқадор эканини эътироф этиш катта аҳамиятга эга. Чунки тизимли дидактик билимлар яхлит, назарий-эмпирик характерга эга бўлиб, қадрият сифатида аждодлардан авлодларга ўтиб, тобора мукаммаллашмоқда. Педагог олимлар қадриятларнинг таълим олувчига маънавий-ахлоқий, моддий таъсир кўрсатувчи, ишонч, эътиқод, эффектив, когнитив ва аффектив компонетлар бирлиги сифатида маънавий-ахлоқий, мафкуравий, интеллектуал дунёқарашини белгилаб берувчи ҳодиса сифатида эътироф этадилар.

Қадриятшунослик изланишлари натижаларида унинг маънавий, фалсафий, ахлоқий, экологик, педагогик каби бир неча турлари ўзаро фарқланиб, ҳар бири бўйича муайян тадқиқот ишлари амалга оширилди.

Дидактик қадриятлар ва улардан педагогик жараёнда фойдаланиш механизмлари таълим мазмуни, жараёни, ўқув тизимидаги ўзаро муносабатларни ташкил этишга асосланади. Дидактик қадриятларнинг амал қилиш доираси жуда кенг бўлиб, улар таълим мазмунида, ўқув фаолиятни ташкил этишда, таълим амалиётини қайта ташкил этиш ва такомиллаштиришда қўлланади.

Дидактик қадриятлар ҳам ўзига хос маданий ҳодиса, тушунча, билим ва малакалардир. Уларни ўрганиш ва қўллаш таълим тараққиётининг қонуниятларини очиб беради ҳамда таълимни миллий ва умуминсоний асосда ривожлантириш имконини яратади. Шунга кўра, дидактик қадриятларнинг тарихий такомиллашувини назарда тутган ҳолда, уларни шартли равишда қуйидаги турларга ажратиб ўрганиш зарур:

I.Тарихий ретро-дидактик қадриятлар;

II. Инновацион дидактик қадриятлар;

III. Истиқболга қаратилган дидактик қадриятлар.

Масалан, Уйғониш даври томонидан назария ва амалиёт бирлиги, ўз-ўзини тарбиялаш, илмни амал билан мустаҳкамлаш, мактаб ўқучилари тартиб-интизомига давлат меъёрий талабларини қўйиш, ахлоқий тарбиянинг устуворлиги, индивидуал таълимга асосида боланинг лаёқатларини ўстириш, ақлини ривожлантириш, таълим-тарбия бирлиги, таълимда устоз нуфузи устуворлиги, таълим-тарбияда асосан яхшилар суҳбатига асосланиш, ушбу асосда шогирд тафаккурини чархлаш тамойиллари, мунозара, эслатма, ибрат, панд-насиҳат, суҳбат, такрорлаш, маърузани ёзиб олиш усуллари каби дидактик қадриятлар илгари сурилган бўлиб, улар асосида талабада уйғониш даври алломаларининг меросини билиш ва зарур манбаларни ўрнида қўллаш; илғор инновацияларга уйғониш даври дидактик қадриятларни сингдириб, муаллифлик иннновацион технологияларини яратиш компетенциясини шакллантириш мумкин.

Олий педагогик таълимда дидактик қадриятларни тарихийлик, миллийлик, миллий-тарихий тажрибага таяниш ҳамда истиқболга қаратилган дидактик қадриятли инновацияларни ишлаб чиқишда креатив-ижодий ёндашиш принципіга таянган ҳолда

танлаш ва саралаш мақсадга мувофиқ бўлиб, бўлажак фан ўқитувчиларни миллий ва умуминсоний қадриятлар мазмун-моҳиятини англаш, уларни қадрлаш, шахсий-касбий фаолиятида уларга риоя қилишига эришишининг аҳамияти жуда катта. Бунинг учун таълим жараёнида ўқув предметларининг тарбиявий томонига масъулият билан ёндашиш, таълимнинг тарбиявий функциясини кучайтириш, мазмунли, тарбиявий характердаги дидактик материаллардан фойдаланиш, talabalalар билан газета ва журналлардаги қадриятлар мазмун-моҳиятини очиб берувчи илмий-оммабоп мақолаларни ўрганиш, ижтимоий-сиёсий, тарбиявий масалаларни таҳлил қилиш, матннинг асосий ғоясини аниқлашга қаратилган қадриятли-муаммоли таҳлил методидан фойдаланиш зарур. Улар бўлажак ўқитувчиларни ватанпарварлик, байналминаллик, дўстлик руҳида тарбиялайди, дунёқарашини кенгайтиради.

Дидактик қадриятлар ва улардан педагогик жараёнда фойдаланиш механизмлари таълим мазмуни, жараёни, педагог-талаба тизимидаги ўзаро муносабатларни ташкил этишга асосланади. Дидактик қадриятларнинг амал қилиш доираси жуда кенг бўлиб, таълим мазмунида, ўқув фаолиятни ташкил этишда, таълим амалиётини қайта ташкил этиш ва такомиллаштиришда қўлланади.

Бизнингча, дидактик қадриятларни ўзига хос тарихий-маданий ҳодиса сифатида ўрганиш ва амалиётга тегишлича татбиқ этиш миллий таълимнинг ривожланишига хизмат қилади.

REFERENCES

1. Селевко Г.К. Энцилопедия образовательных технологий. В 2 т. Т.1. – М.: НИИ школных технологий, 2006. – 816 с.
2. Шиянов Е.Н. Теоретические основы гуманизатсии педагогического образования: Автореф. дисс. … д-ра пед. наук / Моск. пед. гос. ун-т. – М., 1991. – 33 с.
3. Темирова Н.Е. Талаба ёшларнинг маънавий шаклланишида миллий ва умуминсоний қадриятлар диалектикаси. Фалсафа фанлари номзоди ... дисс….- Т: 2007. 150 бет.
4. Большая Российская энциклопедия. Электронная. - https://bigenc.ru/philosophy/text/2159042.
5. Педагогика энциклопедия.III жилд.- Р.Ғ. Сафарова,Р.Ҳ.Жўраев. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти: Тошкент- 2017 йил. - 385- бет

NUTQIDA NUQSONI BOR MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR PSIXOLOGIYASI

Abdalimova Zilola Farxod qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, pedagogika-psixologiya yo'nalishi, 2-kurs talabasi 21/3 guruh talabasi
+998994440081
zilolaabd7@gmail.com

https://doi.org/10.5281/zenodo.7926392

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq o‘stirishda ayrim muammo va kamchiliklari haqida yoritilgan.. Oilada ota – onaning farzand tarbiyasidagi ahamiyati keltirilib o’tilgan.*

Kalit so‘zlar: *Bolalar,jarayon, nutq, oila, nuqson, talaffuz, ong, aql, tarbiya.*

Kirish(Introduction). «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonunda maktabgacha ta’lim to‘g‘risida shunday deyiladi; «Bu ta’lim olti-yetti yoshgacha oilada, bolalar bogchasida va mulk shaklidan qat’i nazar, boshqa ta’lim muassasalarida olib boriladi». Bu o‘quv-metodik tadqiqotlarni yaratishda nafaqat bolalar borchasi, balki oila sharoitini ham xisobga olish zaruratini keltirib chiqaradi.

Maktabgacha yoshidagi bolalar nutqining rivojlanishi ularning faoliyati, muloqati bilan uzviy bog‘liqdir. Bola jumlalarning mazmuni va shaklidagi o‘zgarish uning muloqat shakllari o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Ilk bolalik davriga xos situativ nutq ishchan muloqot shaklidan nosituativ bilishga yo‘naltirilgan va nosituativ - shaxsiy muloqot shakliga o‘tilishi bolalar nutqiga ma’lum bir talablarni qo‘yadi. Bu talablar bola nutqining yangi-yangi tomonlarini, turli kommunikativ masalalarni hal qilishi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarni tarkib toptiradi. Bog‘cha yoshidagi bolaning nutqi ijtimoiy aloqalarni o‘rnatish funksiyasini bajara boshlaydi. Buning uchun esa bolada ichki nutq tarkib topishi, monologik xususiyat kasb etib borishi lozim bo‘ladi. Maktabgacha yoshda bola nutqining rivojlanishidagi muhim xususiyat nutq tafakkur quroliga aylanishidan iborat. Bola so‘z-lug‘at boyligining o‘sishida 2 ta muhim tomon - miqdor va sifat tomonlari mavjud. Lug‘at boyligining miqdoriy o‘sishi D. B. Elkoninning ko‘rsatishicha, bevosita bolaning hayot sharoitlari va tarbiyalanish xususiyatlariga bog‘liq. So‘nggi yillarda u yoki bu yoshdagi bolalar nutqining lug‘at tarkibini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda avvalgi tadqiqotlarga nisbatan yuqoriroq miqdoriy ko‘rsatkichlar aniqlandi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda nutqida rivojlantirish muammosini tadqiq eta borib, biz boshlangich sinf ta’limidagi izchillikni ham hisobga oldishga majburmiz. Umumiy o‘rta ta’limning hozirgi bosqichida boshlangich sinflar o‘quvchilarining umumta’lim tayyorligining mazmuni va darajasiga bo‘lgan talablar ancha ortdi. Masalan, «O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi Nizom»da yozib qo’yilganidek: «Umumiy o‘rta ta’lim bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik kabilarni va amaliy tajriba ko‘nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yunaltirishga va ta’limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi». Buni esa bolalarning nutqini o‘stirmasdan turib amalga oshirib bulmaydi. Shu bois maktabgacha katta yoshdagi bolalarning tevarak-atrofni o‘rganishda nutqini rivojlantirishning samarador yo‘llari hamda vositalarini ishlab chiqishning tadqiqot muammosi sifatida belgiladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq madaniyatini shakllantirishga oid vazifalarni hal etishga nisbatan quyidagicha yagona yondashuv zaruriyatini aniqlandi:

- tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishni shakllantirish (bolada avvalo, nutq, eshitish shakllanadi, talaffuzni u keyinrok, egallaydi);

- aniq talaffuz hosil qilish (so‘z va so‘z birikmalarini dona-dona va aniq talaffuz qilish);

-so‘zni talaffuz qilganda urg‘uni to‘g‘ri qo‘yish ustida ishlash; - nutqning orfoepik jihatdan to‘g‘riligi ustida ishlash (bu na’munaviy adabiy talaffuz qoidalarining jami; - nutq suratini rivojlantirish; - nutqning ifodaliligini shakllantirish (nutqning tabiiy, erkin, ya’ni nutqning ongli ifodalanishi);

- nutqiy nafas olishni shakllantirish (bunda to‘g‘ri nafas olishni o‘rganadi); - oilada yoki bog‘chada so‘zlarni ota – ona va tarbiyachilar chiroyli va to‘g‘ri gapirishlari lozim;

- o‘z fikrini erkin va izchil bayon etish malakasini shakllantirish.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Kuzatishlarimiz asosida shunday xulosaga keldikki, maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy aloqani tarbiyalashda tarbiyachi va ota – onalarning roli benihoya kattadir. Bolalar nutqi ustida ishlash jaryonida tengdoshlari bilan suhbatda xushmuomala bo‘lishlariga, tabiiy ohangda gapirishlariga, so‘zlashganda suhbatdoshining yuziga qarab turishlariga, qo‘llari va yuz mimikalarini bamaylixotir holatda tutib turishlariga e’tibor berilishi kerak.

5 – 6 – 7 yoshli bolalarda lug‘at boyligi 2500-3500 tagacha so‘zlarni tushunishi va bilishi kerak, aks holda albatta mutahassis bilan maslahatlashish lozim bo‘ladi. Bolalarni nutqi va aqlini rivojlantirishda hikoya, ertaklar juda foydali. Ularga ertak o‘qib berilganda fikrlash qobilyatini ham o‘stirgan bo‘lamiz. Ayniqsa buvijon “Talqin va tadqiqotlar” ilmiy-uslubiy jurnali №12 203 va bobojonlarimiz o‘zlarini yoshliklarini va yoshlikda o‘ynagan o‘yinlarini gapirib berganlarida bolada albatta qiziqish paydo bo‘ladi. Kecha aytib bergan ertakni qaytadan so‘raganingizda bolada xotirasi mutahkamlanadi, fikrlash qobilyati shakllanadi. Bola psixologiyasi juda murakkab, ba’zi birlari injiq bo‘lsa, ba’zi birlari odamovi bo‘lishadi. Agar shunday holatlarga duch kelsangiz albatta ularga ko‘proq vaqt ajratining, ular bilan ko‘proq gaplashing, savollariga javob bering. Bolalar aqlini rivojlantirish uchun shaklli va rangli o‘yinchoqlar juda muhim. Bolada rang ajratish va shakllarni farqlash qobiliyati rivojlanadi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim to‘g‘risidagi Nizom.
2. Asqarxo‘jayeva M. Bog‘chalarda o‘zbek tilini o‘rganish. Bolalar bog‘chalari tarbiyachilari uchun metodik qo‘llanma. Toshkent: 2010.
3. Z.Irohimova, M.G‘aybullayeva. bolalar bog‘chalari uchun dasturlar. Tevarak – atrof bilan tanishtirish, nutq o‘stirish, badiiy adabiyot. Toshkent: 2015.
4. D.R.Babayeva. Nutq o‘stirish metodikasi. Toshkent: 2018.
5. BUYUK AJDODLARIMIZ TA'LIMOTIDA SOG 'LOM AVLODNI TARBIYALASH. RD Uchkunovna - PEDAGOG, 2022 - bestpublication.org PEDAGOG RESPUBLIKA ILMIY JURNALI 2 – SON / 2022 - YIL / 15 - OKTYABR www.bestpublication.org 186 Page 1 PEDAGOG RESPUBLIKA ILMIY JURNALI 2 – SON / 2022 - YIL / 15 - OKTYABR

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA RAHBARLIK VA INNOVATSION BOSHQARISHNING ZAMONAVIY SHARTLARI

Abdullayeva Lobar Bahodirovna
Toshkent shahri, Uchtepa tumani 592-sonli MTT direktori

https://doi.org/10.5281/zenodo.7926466

Annotatsiya: *Maktabgacha ta`lim tashkilotlarini innovatsion boshqarish va rejalashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalardan sanaladi. Maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rahbarlik va boshqarishning yangi innovatsion usullari to`grisida fikrlar bildirilgan.*

Kalit so’zlar: *boshqarish, innovatsiya, rejalashtirish, tashkilot, faoliyat, imkoniyat, tashkil etish, rahbarlik qilish, nazorat qilish, samaradorlik, ta’lim sifati, bilimdonlik, jamoatchilik, kadr.*

Zamonaviy jamiyatda "menejment" so'zini tez-tez eshitishimiz mumkin. Ilmiy-metodik adabiyotlarda bu tushuncha ijtimoiy, shu jumladan, ta’lim jarayonlarini boshqarish tamoyillari, usullari, vositalari va shakllari majmui sifatida talqin etiladi, menejment boshqaruv san’ati deb ham ataladi.

Ta’lim sohasi sifati samaradorligini oshirish borasida yurtimizda ham bir qancha islohotlar olib borilmoqda. Prezidentimiz tomonidan chiqarilgan farmon, farmoish va qarorlarda hamda 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan ”Ta’lim to’g’risida”gi qonunda ham buning yorqin dalilini ko’rishimiz mumkin.

Rahbar ta’lim muassasasini boshqaruvi quyidagi tamoyillari asosida tashkillashtiriladi:

-pedagogik tizimni boshqarishda demokratlashtirish va insonparvarlashtirish; -boshqarishning tizimliligi va yagonaligi;

-ta’lim tizimini boshqarishda axborotning obyektivligi va to’liqliligi;

-yakka hokimlik bilan jamoatchilik boshqaruvining birligi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarish ko'p omilli jarayon bo'lib, uning bir qismi tashkiliy tuzilma, ta'lim tashkilotining umumiy madaniyati, rahbarning strategiyasi va taktikasi hisoblanadi. Boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqishda, maqsadlarni belgilashda ta'lim tashkilotlari rahbarlari bugungi kunda davlatning ta'lim siyosatini, tarbiyalanuvchilar va ularning ota-onalari ehtiyojlarini hisobga olgan holda harakat qila olishlari kerak. Ta'lim va tarbiya sifatini ta'lim tashkiloti xodimlarini oqilona boshqarish, ta'lim jarayoniga tashqi va ichki muhitga mos ravishda o'zgartirishlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, shuningdek, normativ-huquqiy, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va psixologik omillar asos hisoblanadi. Zamonaviy ta'limni rivojlantirish va uni isloh qilish vazifalarini belgilashda uning sifatini ta'minlash masalalari ustuvor o'rin tutadi.

Ta’lim tizimida innovatsion faoliyatini rejalashtirishning o‘zi ham bir qator tamoyillarga muvofiq amalga oshiriladi. Jumladan:

1) strategik (yuqori maqsad) va taktik (bir yillik joriy maqsadlar, oylik vazifalar) rejalarning ustivorligi va ustunligi.

2) strategik va taktik rejalarning ijtimoiy yo‘naltirilganligi.

3) rejalashtirish obektlari va ularning zahiralarini oqilona taqsimlash maqsadida ularning muhimligi bo‘yicha ajratish.

4) rejalarning mavjud moddiy shart-sharoitlarga mosligi.

5) muayyan maqsadlarga erishishni kafolatlovchi muqobil rejalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga tadbiq etishda kam xarajatlikka erishish.

6) rejaning iqtisodiy jihatdan asoslanishi;

7) rejalashtirish tizimining teskari aloqasini ta’minlash.

8) rejani amalga oshirishning eng qulay shaklini tanlash.

9) faoliyat davrini tartibga solish va uning izchilligi, ustivorligi ta’minlash.

10) tadbirlarning puxtaligini tahlil qilishga imkon beruvchi faoliyat va grafikli (yozuvli) reja tahlilini amalga oshirish.

Pedagogik faoliyat jarayonini tashkillashtirishda ishlab chiqilgan rejalarni amalga oshirish, qatnashchilar o‘rtasida vazifalarni taqsimlash, ularning huquqlari va majburiyatlarini aniqlashdan iborat o‘zaro bog‘liq harakat mexanizmlarini belgilash maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, ta’lim maqsadlarini amalga oshirish uchun sarflangan vaqt va sarflarni qayd qilish, zahiralarni sarflash puxta hisob-kitob olib borilishini talab qiladi.

Innovatsion boshqarishda maktabgacha ta’lim tashkilotlari bilan ijtimoiy tashkilotlar o‘rtasidagi o‘zaro integratsiya quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

a) tashkilot rahbarlari, rahbar xodimlar, pedagogik jamoa, boshqaruv organlari, tarbiyachilar, tarbiyalanuvchilar hamda ularning ota-onalar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni qaror toptirish;

b) turli boshqaruv darajalari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni kuchaytirish, ya’ni maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini o‘zaro hamkorlikda boshqarish – bunga ko‘ra maktabgacha ta’lim tashkilotlari jamoasining barcha a’zolari qarorlarni ishlab chiqarish va qabul qilish jarayonida faol ishtirok etadi. O‘zaro hamkorlikda boshqarish, eng avvalo, faoliyatni rejalashtirishni nazarda tutadi. Boshqaruv darajalari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni kuchaytirishda tabaqalashtirish, individuallashtirish, o‘z-o‘zini boshqarish organlarining huquq va vakolatlarini kengaytirish, talabchanlik, faoliyatning jamoaviy hamda ijodiy xususiyatini inobatga olish zarur;

c) jamoatchilik tomonidan ko‘rsatiluvchi o‘zaro yordam asosida vaqtinchalik ijodiy guruhlar (masalan, ilmiy-metodik kengash, ekspert hay’ati va boshqalar)ni tashkil qilish orqali boshqaruv organlari faoliyatida yuqori samaradorlikka erishish.

Boshqaruv faoliyati jarayonida boshqaruvchida, albatta, turli xil muammolar uchraydi va u mazkur muammolarni samarali hal qilish darajasi orqali uning vakolat darajasini aniqlash mumkin. Boshqaruv vakolati rivojlanishi nafaqat o‘z-o‘zini rivojlantirish va boshqaruvchi faoliyatida tajriba orttirish, balki boshqaruvchining malakasini oshirish, shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorining kasbiy qayta tayyorgarligiga bog‘liq.

Butun ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun pedagog kadrlar jamoalarini boshqarishning zamonaviy usullari, ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni yaxshi biluvchi, innovatsiyalar bozorida samarali ishlashga qodir mutaxassislar kerak. Innovatsiya har bir tashkilot uchun murakkab va og‘riqli jarayondir. Ammo innovatsiyalarsiz tashkilotlar, tashkilotlar va firmalar o‘rtasidagi raqobat xarakteriga ega zamonaviy jamiyatda ishlash va rivojlanish mumkin emas. Zamonaviy innovatsion jarayonlar juda murakkab va muqarrardir. Ular boshqaruvning istalgan sohasida rejalashtirishni takomillashtirish, boshqaruv organlarining tuzilishi va funksiyalari, kadrlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish muhimdir.

Maktabgacha ta’lim tizimida innovatsion faoliyat - bu tashkilot moddiy-texnika bazasini va ta’lim-tarbiyani yangilashga va rivojlantirishga imkon beruvchi yangi g‘oyalar va ishlanmalarni yaratish, o‘zlashtirish va tatbiq etishga qaratilgan jarayonlar majmuasi tushuniladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida innovatsion menejment quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

- MT tashkiloti innovatsion faoliyat rejasi va dasturlarini ishlab chiqish;
- MT tashkilotida yangi turdagi ta’lim va tarbiya turlarini yaratish va amaliyotga joriy etish jarayonini kuzatib borish, muhokama qilish;
- tashkilot miqyosida umumiy innovatsion siyosat yurgizilishini ta’minlash;
- innovatsion jarayonlarni moliyaviy va moddiy resurslar bilan ta’minlash;
- tashkiliy tuzilma oldida turgan nnovatsion muammolarni kompleks tarzida hal etmoq uchun maqsadli guruhlarni tuzish.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini innovatsion boshqarishda pedagogik qo‘llab-quvvatlashning ustuvorligi ta’lim tashkiloti jamoasi har bir a’zosining o‘z ichki imkoniyatlarini anglashlariga yordam beradi. Rag‘batlantirish tashkilot jamoasining barcha a’zolari o‘rtasida insonparvarlik g‘oyalariga asoslangan munosabatni qaror toptirish orqali amalga oshirilishi lozim.

REFERENCES

1. Богуславец Л. Г., Майер А. А. Управление качеством дошкольного образования: метод. Пособие. М.: ТЦ Сфера, 2009. 128 с.
2. Третьяков П. И., Белая К. Ю. Дошкольное образовательное учреждение: управление по результатам. М.: Новая школа, 2003. 304 с.
3. Khalilova Dilnoza Furkatovna. Formation of social competence of future educators in preschool educational organizations. Science and innovation international scientific journal Volume 2 issue 3 march 2023. 174-177.
4. Dilnoza Furqatovna Xalilova. (2023). Talabalarda ijtimoiy munosabatlarini rivojlantirishga oid kasbiy kompetentligini takomillashtirishda innovatsion ta’lim muhiti beradigan natijalar. Conferencea, 76–79. Retrieved from https://conferencea.org/index.php/conferences/article/view/1918
5. D Khalilova. Innovative educational environment as a factor for improving professional competence in developing social relationships in students. - Science and innovation, Volume 2 Issue 1, 2023. 412-413.
6. X.D Furqatovna. Bo‘lajak tarbiyachilarning pedagogik faoliyatiga kreativ yondashuv. PEDAGOGS jurnali, 2022/4/15.
7. Dilnoza Furqatovna Xalilova. (2023). Bo‘lajak tarbiyachilarda ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish. Conferencea, 115–117.

INKLYUZIV TA’LIM MUHITIDA O‘QUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI

D.A. Madjidova

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim, O‘zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti bo‘lim mudiri

https://doi.org/10.5281/zenodo.7926512

Annotatsiya. *Maqolada inklyuziv ta’lim muhitida o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish, har bir o‘quvchining ijodiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishning muhim pedagogik jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek, psixologiyada qobiliyatlarning sifat tavsiflari, pedagogik qobiliyatlarni tashxis qilish xususiyatlari, psixologiyasida iqtidorning o‘rganilganligi, iqtidor va kreativlik konsepsiyalari hamda modelllari tahlillari ifodalangan va inklyuziv ta’lim sharoitlarida qobiliyatlarni rivojlantirishga oid tavsiyalar bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar*: iste’dod, san’at, ijod, qobiliyat, bilim, malaka, inklyuziv ta’lim, imkoniyati cheklangan shaxs, kasb, kasbiy bilim.*

Zamonaviy ta’lim tizimida ta’lim muhitining barcha sohalariga ta’sir ko‘rsatadigan o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Ushbu o‘zgarishlardan biri inklyuziv ta’lim amaliyotini kiritish va mustahkamlash bo‘lib, u nogiron bolalarni birgalikda ta’lim va tarbiyalashni, ta’lim jarayonida turli xil ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning mavjudligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta’limning keng ko‘lamli muammolarini hal qilish har bir o‘quvchining qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan yangi yondashuvlarni talab qiladi.

Inklyuziv ta’lim (inglizcha inclusion – inklyuziya so‘zidan) – bu alohida bolaga qaratilgan innovatsion qadam, chinakam insonparvar ta’lim amaliyotini amalga oshirishni anglatadi. “Inklyuziv” yoki “inklyuzivlik” eng to‘g‘ri atama bo‘lib, u quyidagicha talqin qilinadi: bu maktablarni isloh qilish va sinflarni istisnosiz barcha bolalarning ehtiyojlari va talablariga javob beradigan tarzda qayta qurish” [1. B. 35].

Inklyuzivlik (*inclusion so‘zidan*dan - kiritish) jamiyatdagi barcha fuqarolarning, birinchi navbatda, jismoniy rivojlanishida nuqsonlari bor fuqarolarning ishtiroki darajasini oshirish jarayonidir.

Rasmiy ravishda “inklyuziv ta’lim” atamasi Salaman deklaratsiyasida alohida ehtiyojli shaxslarning ta’lim sohasidagi tamoyillari, siyosati va amaliyoti va Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya bilan mustahkamlangan. Ushbu hujjatlarda inklyuziya har bir shaxsning farqlari va xususiyatlarini qo‘llab-quvvatlaydigan islohot sifatida belgilanadi.

Inklyuziv ta’lim jismoniy, intellektual, ijtimoiy, hissiy, lingvistik yoki boshqa xususiyatlaridan qat’iy nazar, barcha bolalar uchun ta’lim sifatida talqin etiladi.

Bunday ta’limning maqsadi nogiron bolalarni ijtimoiy ajratishni va ularning bolalar bog‘chasi jamoasi, maktab hayotida ishtirok etish imkoniyatini rad etish, boshqacha qilib aytganda, maxsus ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlar turli xilligini hisobga olgan holda barcha o‘quvchilarning ta’lim olishdan teng foydalanishini ta’minlashdir.

Inklyuziv ta’lim samaradorligini belgilovchi shart-sharoitlar majmuasi orasida integrativ ta’limni tashkil etishning innovatsion modellarini, ta’limni tashkil etishning yangi shakllari va usullarini izlash va sinovdan o‘tkazish alohida o‘rin tutadi.

Inklyuzivlik nogiron bolalarni ta’lim muhitini, maktab muhitini har bir bolaning ehtiyojlariga moslashtirish, shu jumladan ta’lim jarayonini isloh qilish yo‘li bilan o‘qitish

muammosini hal qilishni o‘z ichiga oladi: - sinf xonalarini istisnosiz barcha bolalarning ehtiyojlarini qondirish uchun qayta qurish; - bolaning rivojlanishidagi og‘ish turiga, o‘qituvchilarning psixologik va uslubiy tayyorgarligiga qarab zarur o‘quv qo‘llanmalari [2. B. 6].

Ilg‘or pedagogik hamjamiyat normal va zaif rivojlanishi bo‘lgan bolalarni birgalikda o‘qitish ahamiyatini rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bolalar uchun ta’limni kengroq qamrab olish imkoniyati bilan belgilaydi, chunki ular uchun maxsus muassasalar juda kam; yopiq maktab-internatda bolalarni o‘qitishda istisno qilinadigan oilaning ta’lim salohiyatidan foydalanish imkoniyati; alohida ehtiyojga ega bo‘lgan bola o‘qishni tugatgandan keyin ham yashashi kerak bo‘lgan tashqi dunyo bilan aloqalar va munosabatlarni o‘rnatish imkoniyati; sog‘lom bolalarda sinfdoshlarning jismoniy va aqliy nuqsonlariga bag‘rikenglikni shakllantirish, o‘zaro yordam tuyg‘usini va hamkorlikka intilishni rivojlantirish, ichki ma’naviy dunyosini boyitish, muloqot qilish ko‘nikmalarini takomillashtirish; rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bolalarni o‘qitish amaliyotida qo‘llaniladigan maxsus, o‘ta samarali usul va uslublarni ommalashtirish imkoniyati, rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘qitishning o‘ziga xos texnologiyalarini o‘zlashtirish orqali o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi sifatini oshirish va hokazo. Shunday qilib, “inklyuziv ta’lim” atamasi ta’lim tizimi va nogironlarning jamiyatdagi o‘rniga zamonaviy yondashuvni aks ettiradi [3. B. 6].

Tajribali, mohir murabbiylarning ta’kidlashicha, iste’dodsiz bola bo‘lishi mumkin emas. Farzand dunyoga kelibdiki, unda bir qator iste’dodlarning kurtagi mujassam ekan. Ota-ona, murabbiy va muallimlar hamda o‘sib kelayotgan shaxsning o‘zi ana shu kurtaklarni qancha erta payqasalar kamolotga yetishish, yorqin iste’dod namoyon qilish shuncha tez amalga oshadi. Iste’dodingiz kurtaklarini kashf qilishning o‘zi yetarli emas. San’at sohasida tinmay izlanish, bilim va tajriba to‘plash, muttasil mehnat qilishga to‘g‘ri keladi [4. B. 15–16].

Jumladan, nogironligi bo‘lgan shaxsning qobiliyatlari kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash uchun imkoniyat tariqasida namoyon bo‘ladi. Inklyuziv ta’lim muhitida kasbiy bilim va ko‘nikmalar egallanishi va imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarish, ularning ushalmagan orzu sifatida qolib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik bularning barchasi ko‘pgina omillarga va sharoitlarga bog‘liqdir. Masalan, atrof-muhitdagi odamlar (oila, maktab, mehnat jamoasi a’zolari, jamoatchilik) imkoniyati cheklangan shaxsning u yoki bu bilim hamda ko‘nikmalarni egallashidan manfaatdorligi, o‘qish, o‘rganishga munosabati, ularni tashkil qilish va mustahkamlashga nisbatan mas’uliyat his etish kabilarning barchasi imkoniyatni ro‘yobga chiqarishning, uni voqelikka aylantirishning kafolatidir.

Psixologiya fani qobiliyatlar bilan faoliyatning muhim jabhalari bo‘lmish bilim, ko‘nikma va malakalarning aynan bir narsa ekanligini rad etib, ularning birligini e’tirof etadi. Shuning uchun qobiliyatlar faqat faoliyatda ro‘yobga chiqadi, lekin aynan shu qobiliyatlarsiz amalga oshirilishi amri mahol faoliyat ko‘rinishlaridagina aks etadi xolos. Masalan, agar shaxs tasavvur qilishga hali o‘rganmagan bo‘lsa, amaliy faoliyatning malakalarini uddalay olmasa, uning dizayn san’atiga nisbatan qobiliyatlari haqida mulohaza yuritish noo‘rin. Bularning barchasi bo‘lg‘usi dizaynerning ish uslubi, usullari, rang, shakl va mazmun munosabatlarini qanchalik tez va oson o‘zlashtirishida hamda borliqdagi go‘zallikni idrok qilish, tasavvur etishida namoyon bo‘ladi.

Inklyuziv ta’lim muhitida har bir o‘quvchida kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalar tizimi, ularning barqarorligi, shakllangan shaxsiy ish uslublari mavjud emasligiga asoslanib, ularni jiddiy tekshirib, tashxis qilmasdan turib, shoshilinch tarzda unda qobiliyatlar yo‘q degan xulosa chiqarish o‘qituvchining qo‘pol kasbiy xatosi hisoblanadi. Bolalik davrida u yoki bu qobiliyatlarning atrof-

muhitdagi insonlar tomonidan tan olinmagan, keyinchalik esa jahonda munosib shon-shuhrat qozonishga musharraf bo‘lgan juda ko‘p allomalarning nomi olamda mashhur, chunonchi Albert Eynshteyn (nisbiylik nazariyasi asoschisi), Nikolay Lobachevskiy (yangi geometriya yo‘nalishi asoschisi) va boshqalar ta’lim olish vaqtida genial olim bo‘lib voyaga yetishishidan dalolat beruvchi omilllar yo‘q edi.

Qobiliyatlar bilim, ko‘nikma va malakalarda aks etmaydi, balki ularni egallash dinamikasida namoyon bo‘ladi. Faoliyat uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish jarayonida yuzaga chiqadigan farqlar qobiliyatlar to‘g‘risida mulohaza yuritish imkonini beradi.

Demak, shaxsning faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo‘ladigan individual psixologik xususiyati qobiliyatlar deyiladi.

Psixologiyada qobiliyatlar individual psixologik xususiyatlar sifatida tavsiflanadi va buning asosida bir insonning boshqa insondan farqli xislatlari, fazilatlari yotadi. Shuning uchun har bir shaxsdan bir xil natija, bir xil sifat kutib bo‘lmaydi, chunki insonlar o‘z qobiliyatlari bo‘yicha bir-birlaridan muayyan darajada farq qiladilar, binobarin, ular o‘rtasida farqlar sifat va miqdor jihatidan bir talay bo‘lishi mumkin.

G‘arb psixologiyasida dastlabki bosqichlarda iqtidorni o‘rganish intellektual komponentni o‘rganishga qisqartirildi. Bugungi kunga kelib, bir qator tadqiqotchilar intellektning tug‘ma va doimiy emasligini, balki turli omillar ta’sirida o‘zgarishga qodir ekanligini tan oldilar. Bundan tashqari, bugungi kunda intellekt koeffitsienti iqtidorni rivojlantirishning kafolati va yagona omili hisoblanmaydi, “intellekt” tushunchasining yagona ta’rifi hali ham mavjud emas. Shu sababli, biz intellektni o‘rganish asosida ishlab chiqilgan dastlabki nazariyalarni chetlab o‘tdik va va quyida muhokama qilingan tushunchalar iqtidorni bir qator komponentlarga asoslangan tizimli shakllanish sifatida tavsiflaydi, bunda intellekt ulardan faqat bittasi hisoblanadi.

J. Gilford va E. Torransning kreativlik konsepsiyasi. Ushbu konsepsiyada ijodkorlik universal kognitiv ijodiy qobiliyat sifatida belgilanadi. J.Gilford fikrlashning ikki turini ajratib ko‘rsatdi: konvergent (o‘xshash) va divergent [5. B. 180–183]. Birinchisining vazifalari shundaki, u shartlar to‘plamidan yagona to‘g‘ri yechimni topishga yordam beradi. Divergensiya esa, yechimlarning xilma-xilligini va ularni topish usullarini nazarda tutadi, buning natijasida biz kutilmagan xulosa va natijalarga erishamiz.

Keyinchalik J.Gilfordning ishlanmalari E.Torransning asarlarida rivojlandi, u ijodkorlikni kamchiliklarni idrok etish qobiliyatini, bilimdagi bo‘shliqlarni, disgarmoniyaga sezgirlikni oshirish qobiliyati deb tushundi. E.Torrens ijodkorlik tuzilishiga to‘rtta sifatni belgilagan: o‘ziga xoslik; ravonlik; moslashuvchanlik; rivojlanish (puxtalik).

Qobiliyatlarning sifat tavsifi shaxsning qaysi individual psixologik xususiyatlari faoliyat muvaffaqiyatining majburiy sharti tariqasida xizmat qilishini anglatadi. Ularning miqdor tavsifi esa faoliyatga qo‘yiladigan talablarni shaxs tomonidan qay yo‘sinda bajarish imkoniyati mavjudligini bildiradi, ya’ni mazkur inson boshqa odamlarga qaraganda malaka, bilimlardan nechog‘lik tez, yengil, puxta foydalana olishini namoyish qiladi.

Qobiliyat xususiyatlarining sifat jihatidan talqin qilinishida, birinchidan, maqsadga turlicha yo‘llar orqali erishishga imkon beruvchi «o‘zgaruvchan miqdor» to‘plami tariqasida, ikkinchidan, faoliyat muvaffaqiyatini ta’minlovchi shaxsning individual psixologik xislatlari (fazilatlari) murakkab majmuasi ko‘rinishida gavdalanadi.

Qobiliyatlar tuzilishi bu shaxs egallashi shart hisoblangan faoliyat, u xoh ta’lim, xoh mehnat, xoh o‘yin, xoh sport bo‘lishidan qat’iy nazar, uning bilish jarayonlariga, aqliy xislatlariga, hissiy-irodaviy jabhalariga, individual xususiyatlariga muayyan talablar qo‘yadi va ularning hamkorlikdagi sa’i-harakati tufayli muvaffaqiyatlarga erishiladi.

Yaqqol qobiliyatlar tuzilishini tashkil qiluvchi shaxsning xislatlari, fazilatlari orasida ma’lum turkumi yetakchilik, ustuvorlik qilsa, ayrimlari yordamchi vazifasini bajaradi. Ma’lumki, pedagogik qobiliyatlar tuzilishida yetakchi xislatlar sifatida pedagogik odob, bolalarni sevish, o‘quvchilar jamoasini tashkil qilish va uni boshqarish, kuzatuvchanlik, talabchanlik, bilimga chanqoklik, bilimlarni kuzatishga uquvchanlik va shunga o‘xshashlar tan olinadi. Pedagogik qobiliyatning yordamchi (qo‘shimcha) fazilatlariga nutqiy qobiliyat, diqqatni taqsimlash, akademik qobiliyatlar kiradi.

Pedagogik qobiliyatlarning yetakchi (asosiy) va yordamchi (qo‘shimcha) tarkiblari, jabhalari ta’lim jarayoni muvaffaqiyatini ta’minlaydigan birlikni (birikuvni) yuzaga keltiradi hamda o‘qituvchi shaxsi bilan bog‘liq bo‘lgan hamkorlik, individual faoliyatini tashkillashtiradi. Qobiliyatlardan muayyan darajada umumiy va torroq ma’noda maxsus sifatlarni ajratish orqali ma’lum turkum tizimini yuzaga keltirish mumkin. Bundan kelib chiqqan holda, qobiliyatlarni umumiy va maxsus qobiliyatlar guruhiga ajratish maqsadga muvofiq.

Umumiy qobiliyatlarni (sifatlar) maxsus qobiliyatlarga (sifatlarga) zid tarzda talqin qilish xatodir. Maxsus qobiliyatlar ko‘lam jihatdan torroq bo‘lishiga qaramay, chuqurroq mohiyatni o‘zida mujassamlashtiradi [7. B. 128-130].

Talantning paydo bo‘lishi va tuzilishi, ijtimoiy tarixiy tabiiy nuqtai nazardan talqini qobiliyatlar taraqqiyotining yuksak bosqichi ekanligidan dalolat beradi. Talant (tabiiy xislat degan ma’noni anglatadi) muayyan faoliyatning muvaffaqiyatli va ijodiy ravishda bajarilishini ta’minlaydigan qobiliyat hamda iste’dodlar majmuasidan (yig‘indisidan) iborat individual xususiyatdir. Psixologik adabiyotlarda unga turlicha ta’rif berilishiga qaramay, ularda asosiy belgilar ta’kidlab o‘tiladi, chunonchi, shaxsga qandaydir murakkab mehnat faoliyatining muvaffaqiyatli, mustaqil va o‘ziga xos tarzda bajarish imkonini beradigan qobiliyatlar majmuasiga talant deyiladi. Talantning asosiy belgilari:

- muvaffaqiyatni ta’minlash;
- faoliyatni mustaqil bajarish;
- qobiliyat hamda iste’dodlar yig‘indisidan iborat ekanligi;
- individual psixologik sifat ekanligi;
- ijtimoiy turmushni o‘zgartiruvchi, yaratuvchi imkoniyat ekanligi kabilar.

Talant ham qobiliyatlarga o‘xshash ijodiyotda yuksak mahoratga, muvaffaqiyatga erishish imkoniyati hisoblanib, ijodiy kutilmasi (yutuq) insonlarning ijtimoiy-tarixiy turmush shart-sharoitlariga bog‘likdir. Jamiyatda talantli shaxslarga nisbatan muhtojlik sezilsa, bunday insonlarning kamol topishi uchun zarur ob’ektiv va subektiv shart-sharoitlar yaratilsa , barkamol shaxsning shakllanishiga imkoniyat tug‘iladi.

Shuning uchun jahon taraqqiyoti, fan va texnikasi, san’at va adabiyot, moddiy va ma’naviy madaniyatini yaratishning ichki (ruhiy) imkoniyati hisoblanmish talant taraqqiyotning harakatlantiruvchi omilidir. Insoniyatning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot bosqichlarida ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning yetishmasligi tufayli ko‘pchillik talant sohiblari o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish imkoniyatlaridan mahrum bo‘lganlar.

Talant o‘zining umumiy va maxsus sifatlari yig‘indisi bilan ijodiy yutuq imkoniyatining ayniyatidir. Talant mahoratning dastlabki sharti hisoblansada, lekin ular bir-biridan muayyan darajada farqlanadi. Talant katta, ijodiy va zo‘r mehnat mahsulidir. Mehnat esa hayotiy tajriba, ko‘nikmalarning zaruriy majmuasi manbaidir.

Ijodiyotning sharti – bu hayotiy tajriba, zaruriy ko‘nikma, malakalar yig‘indisining mavjudligidir. Ijodiy faoliyat talantning ajralmas qismi hisoblanib, bunda ruhlanish deb nomlangan psixologik holat alohida ahamiyat kasb etadi. Ruhlanish esa faoliyat mahsuldorligi ortishiga qaratilgan ijodiy lahzadan iboratdir. Talant imkoniyat tariqasida psixologik hodisa hisoblansa, u holda mahorat haqiqatga aylangan imkoniyat gavdalanishidir. Psixologik nuqtai nazardan haqiqiy mahorat – bu shaxs talantining faoliyatda namoyon bo‘lishidir.

Shuni ta’kidlash joizki, qobiliyatning tug‘maligini inkor qilish mutlaq xususiyatga ega emas, albatta. Lekin qobiliyatning tug‘ma ekanligini tan olmaslik, miya tuzilishi bilan bog‘liq xususiyatlarning tug‘maligini inkor qiladi degan so‘z emasdir. Layoqat esa qobiliyatning tabiiy zamini sifatida faoliyatda muhim rol o‘ynaydi. Layoqat deb qobiliyatlar taraqqiy etishining dastlabki tabiiy sharti sifatida namoyon bo‘ladigan miya tuzilishining, sezgi a’zolari va harakatlarning morfologik hamda funksional xususiyatlari aytiladi. Tug‘ma layoqat jumlasiga nozik hid sezish, ya’ni, bilish analizatorlarining alohida yuksak sezgirligi muvofiqdir. Alohida yakka shaxs ma’lum tabiiy layoqatga ega bo‘lsa, u holda o‘ziga taalluqli qobiliyatlarni rivojlantirish nisbatan yengil kechadi. Insonlarning kasbiy qobiliyati ularning layoqatlari rivojlanishi mahsulidir.

Layoqat ko‘p qirrali psixik hodisa bo‘lganligi tufayli faoliyat talablarining xususiyatiga bog‘liq ravishda bir xil layoqatlar negizida har xil qobiliyatlar rivojlanishi kuzatiladi.

Qobiliyatning rivojlanishi va shakllanishi, bu:

– birinchidan, ma’lum bir faoliyatga moyillik yoki intilish borligiga va faoliyat natijalarining sifatiga qarab, tegishli tabiiy zehn nishonalarini aniqlash yo‘li bilan;

– ikkinchidan, mutaxassis rahbarligida tizimli faoliyatga jalb etish orqali shaxsning tabiiy xususiyatlarini chiniqtirish va rivojlantirish yo‘li bilan;

– uchinchidan, umumlashgan aqliy operatsiyalarni shakllantirish yo‘li bilan;

– to‘rtinchidan, o‘quvchining maxsus qobiliyatini kamol toptirishni jadallashtirishni ta’minlovchi shaxsni har tomonlama rivojlantirish yo‘li bilan;

– beshinchidan, shaxsning faollik alomatlarini tarbiyalash yo‘li bilan;

– oltinchidan, o‘quvchilarga nisbatan individual munosabatda bo‘lishni umumiy talablar bilan uyg‘unlikda olib borishdir.

Shunday qilib, ijodiy qobiliyat biror masala yechimini topish jarayonida insonning o‘z faoliyatiga ijodiy yondashuv jarayonidir. Ammo har qanday savol yoki topshiriq ham fikr mustaqilligi va faolligini talab qilavermaydi. Inson tafakkuri mustaqilligini faollashtirishning birinchi sharti uning oldiga chigal masala qo‘yishdir.

Agar inklyuziv ta’lim jarayonida mashg‘ulot mavzusi avvaldan ma’lum bilimlardangina kelib chiqib o‘tilsa, mantiqan yangi dalil va tushunchalarga tayanmasa yoki o‘rganilayotgan mavzu avval o‘qilganlarning yangi bosqichiga aylanmasa, to‘garak rahbari ta’limni qanchalik baland darajada, qanday ilg‘or metodlar bilan uyushtirmasin, muvaffaqiyat qozonolmaydi.

Shuni ta’kidlash kerakki, agar iqtidorning rivojlanishi qobiliyatlarning rivojlanishiga asoslangan bo‘lsa, unda mualliflar birinchi va ikkinchi o‘rtasidagi munosabatlar masalasini hal

qilishni “iqtidorlilik” ning ajralmas ko‘rinishi sifatida harakat qiladi, degan bayonotda ko‘rishadi. muayyan faoliyat maqsadi uchun turli qobiliyatlar.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, agar bolaning tashabbusi kognitiv motivatsiya bilan qo‘llab-quvvatlansa, bu uning ishini sifat jihatidan boshqa darajaga olib keladi. Shunday qilib, ushbu xulosa bolaning ijodiy rivojlanishi bilan bog‘liq muammoni hal qilishga yaqinroq bo‘lishga imkon beradi.

Shunday qilib, yuqorida aytilganlarning barchasidan xulosa qilishimiz mumkinki, G‘arb va rus tadqiqotchilarining asarlarida iste’dod, birinchi navbatda, bir nechta omillarning kesishmasida yuzaga keladigan tizimli tuzilish sifatida tushuniladi, xususan:

- umumiy va maxsus qobiliyatlar;

- muammolarni hal qilishda nostandart yondashuvni qo‘llash qobiliyati sifatida rivojlangan ijodkorlik, bu o‘z navbatida muammolarni alohida ko‘rishni, sezgirlikni va hal qilinayotgan masalalarning mohiyatiga kirish qobiliyatini ta’minlaydi;

- kognitiv motivatsiya, asosan faoliyat jarayoniga, muammolarni hal qilishga qaratilgan;

- ijtimoiy omil - o‘zini o‘zi qadrlash va ijobiy o‘zini o‘zi anglash uchun zarur bo‘lgan qulay mikro muhit sharoiti.

Inklyuziv ta’limda har bir o‘quvchining ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda hamkorlik va ijodiy muhitni yaratishda mazkur jarayonga axborot va pedagogik texnologiyalar tatbiq etish maqsadga muvofiqdir.

REFERENCES

1. *Gaydukevich S.E.* Sredovыy podxod v inklyuzivnom obrazovanii // Inklyuzivnoe obrazovanie: sostoyanie, problemы, perspektivы. Minsk: Chetыre chetverti, 2007. – S. 34–46.
2. *Bajukova O.A.* Problemы i perspektivы razvitiya inklyuzivnogo obrazovaniya. // Izvestiya DGPU. – 2013. – № 4. – S. 6–11.
3. Organizatsiya inklyuzivnogo obrazovaniya obuchayuщixsya s ogranichennыmi vozmojnostyami zdorovya i/ili detey-invalidov: metodicheskie materialы dlya rukovoditeley, pedagogov, spesialistov soprovojdeniya (uchiteley-logopedov, uchiteley defektologov, pedagogov-psixologov, sotsialnыx pedagogov, tyutorov) / Avtorы-sost.: L. M. Betker, M.I. Yeremenko, N.V. Lopatkina – Xantы-Mansiysk, RIO IRO, 2016.– 90 s.
4. *Karimov I.A.* Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – Toshkent: O‘zbekiston, 2009. – 24 b.
5. Psixologiya sposobnostey: sovremennoe sostoyanie i perspektivы issledovaniy: Materialы Vserossiyskoy nauchnoy konferensii, posvyaщennoy 60-letiyu so dnya rojdeniya V. N. Drujinina, IP RAN, 25–26 sentyabrya 2015 g. /Otv. red. S.S. Belova. – Moskva: Izd-vo “Institut psixologii RAN”, 2015. – 243 s.
6. Osnovnыe sovremennыe konsepsii tvorchestva i odarennosti, st. «Diagnostika i razvitie odarennыx detey i podrostkov». /Pod red. D.B.Bogoyavlenskoy. – Moskva: Molodaya gvardiya, 1997. – S. 243–259.
7. *Semenyuk L.M.* Xrestomatiya po vozrastnoy psixologii: uchebnoe posobie dlya studentov. – Moskva: Institut prakticheskoy psixologii, 1996. – 304 s.

8. *Rabochaya kniga shkolnogo psixologa / I.V. Dubrovina, M.K. Akimova, Ye.M. Borisova i dr.; Pod red. I.V. Dubrovinoy . – Moskva: Prosveщenie, 1991. – 303 s.*

9. *Shadrikov V.D.* Psixologiya deyatelnosti i sposobnosti cheloveka. – Moskva: Izdatelskaya korporatsiya “Logos”, 1996. – 320 s.
10. *Babaeva Yu.D.* Dinamicheskaya teoriya odarennosti // V kn.: Psixologiya razvitiya: xrestomatiya / Red. A.K. Bolotova, O.N. Molchanova. – Moskva: CheRo : Omega-L, 2005. – S. 153–160.
11. Osnovы psixodiagnostiki. / pod obщ. redaksiey A.G. Shmeleva. – Moskva, Rostov-na-Donu: “Feniks”, 1996. – 544 s.
12. *Smolonskaya A.N.* Sotsialnыe aspektы inklyuzivnogo obucheniya detey s ogranichennыmi vozmojnostyami zdorovya // Vestnik KGU im. N.A. Nekrasova. 2009. T. 15. – S. 238–244.

ИНТЕГРАТИВ ЁНДАШУВ АСОСИДА ТАЛАБАЛАРНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИЖТИМОИЙ-ПЕДАГОГИК ИМКОНИЯТЛАРИ

Камалова Гавҳар Акбаровна

Низомий номидаги Тошкент давлат университети Мактабгача таълим методикаси кафедраси ўқитувчиси

https://doi.org/10.5281/zenodo.7926550

Аннотация. *Мақолада талабаларни касбий компетентлигини интегратив ёндашув асосида ривожлантиришнинг ижтимоий педагогик имкониятлари, глобаллашув шароитида касбий билим, кўникма ва юқори малакали салоҳиятга эга бўлган кадрларга эҳтиёж ортиб бориши натижасида бўлажак мутахассисларда касбий компетенцияни ривожлантириш, бунда интегратив ёндашувни амалиётга кўпроқ ва тезроқ татбиқ этиш борасида фикр юритилган.*

Калит сўзлар: *касбий компетентлик, педагогика маҳорат, талаба, касб, компетент, глобал, интегратив, билим, кўникма, малака, компетенция.*

Кириш. Дунёда бундай ўзгаришлар глобаллашув шароитида барча соҳаларда кучли рақобат муҳитини шакллантиради ва ўз навбатида таълим соҳасига рақобатбардош кадрлар тайёрлашга нисбатан янги талабларни қўяди. Натижада энг ноёб капитал сифатида қадрланаётган бугунги шароитда “...таълимнинг ҳамма босқичларида, таълим берувчининг фаолиятини, касбий компетенциясини баҳолаш самарадорлигини ошириш ва усулларини такомиллаштириш механизмларини жорий этиш орқали барча инсонлар учун уларнинг ҳаёти давомида сифатли таълим олиш имкониятини яратишни долзарб вазифа қилиб қўймоқда[2]” Шу ўринда, мамлакатимизда ёшларимиз учун жаҳон андозалари асосида таълим олиш, илғор замонавий педагогик янгиликларга қизиқиш ва уларга интилувчанлик каби педагогик компетенцияга дахлдор шахсий сифатларни ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Бугун мамлакатимизда аниқ мақсадга йўналтирилган таълим соҳасида амалга оширилаётган ислоҳотлардан кўзланган асосий мақсад ёшларимизни ҳар томонлама баркамол бўлиб вояга етиши учун кенг имкониятлар яратиб берилмоқда.


Айниқса, бугунги кунда мамлакатимизда миллий таълим тизимининг ҳуқуқий асосларини шакллантириш борасида кенг шароитлар яратилди. Бу эса, ўз навбатида, ислоҳотлар таълим тузилмаси ва мазмун-моҳиятини такомиллаштириш имконига замин яратмоқда. Бу ҳақда фикр юритганда Президентимиз Шавкат Мирзиёев таъкидлаганидек: “Биз таълим ва тарбия тизимининг барча бўғинлари фаолиятини бугунги замон талаблари асосида такомиллаштиришни ўзимизнинг биринчи даражали вазифамиз деб биламиз”[3]. Бинобарин, давлатимиз раҳбари ҳозирги замон талабидан келиб чиққан ҳолда энг авалло, таълим самарадорлигини ошириш, мутахассисларнинг касбий компетентлик даражасини ривожлантириш, педагог кадрларни инновацион фаолиятга йўналтириш, олий таълим муассасаларидаги ўқув жараёнига инновацион таълим ва ахборот-коммуникация технологияларини татбиқ этиш, илғор хорижий тажрибаларни ўзлаштириш ва мақсадли йўналтиришни устувор вазифалар сифатида белгилаб бергани бежиз эмас, албатта. Шу ўринда муҳим бир мулоҳаза: “Яна бир муаммони ҳал этиш ҳам ўта муҳим ҳисобланади: бу педагог ва ўқитувчилар таркибининг профессионал даражаси, уларнинг махсус

билимларидир. Бу борада таълим олиш, маънавий-маърифий камолот масалалари ва ҳақиқий қадриятларни шакллантириш жараёнларига фаол кўмак берадиган муҳит яратиш зарур”[1] бу талабаларда касбий компетенцияни замонавий ёндашувлар асосида ривожлантириш вазифасини қўяди.

Касбий компетентлик мутахассис томонидан алоҳида билим, малакаларнинг эгалланишини эмас, балки хар бир мустақил йўналиш бўйича интегратив билимлар ва ҳаракатларнинг ўзлаштирилишини назарда тутади. Шунингдек, компетенция мутахассислик билимларини доимо бойитиб бориш, янги ахборотларни урганиш, муҳим ижтимоий талабларни англай олиш, янги маълумотларни излаб топиш, уларни қайта ишлаш ва ўз фаолиятида қўллай билишни тақозо этади. Касбий компетентлик мураккаб жараёнлар; ноаниқ вазифаларни бажариш; бир-бирига зид маълумотлардан фойдаланиш; кутилмаган вазиятда ҳаракат режасига эга бўла олишда намоён бўлади. Касбий компетенцияга эга бўлган мутахассислар ўз билимларини изчил бойитиб боради, янги ахборотларни ўзлаштиради, давр талабларини чуқур англайди, янги билимларни излаб топади, уларни қайта ишлайди ва ўз амалий фаолиятида самарали қўллайди[4].

Компетенция тушунчасининг ижтимоий мазмуни жуда кенг ҳисобланади. Шу ўринда, “Компетентлик” тушунчасининг моҳияти ҳақида фикр юритсак, бозор муносабатлари шароитида меҳнат бозорида устувор ўрин эгаллаган кучли рақобатга бардош берадиган мутахассис назарда тутилади. Мазкур тушунча инглизчада “competence” сўзидан олинган бўлиб, луғавий жиҳатдан бевосита “қобилият” маъносини ифодалайди. Мазмунан эса “фаолиятда назарий билимлардан самарали фойдаланиш, юқори даражадаги касбий малака, маҳорат ва иқтидорни намоён эта олиш”ни ёритишни намоён этади. Шу билан бир қаторда компетенциявий ёндошув ҳақида фикр юритилса, у “мусобақалашмоқ”, “рақобатлашмоқ”, “беллашмоқ” деган маъноларни англатади.

Шунингдек, педагогик, психологик илмий манбаларда компетенция, компетентлилик ўта мураккаб, кўпгина фанлар учун муштарак бўлган тушунчалар сифатида қайд этилса-да, унинг талқинлари турли-тумандир.



Мазкур атаманинг моҳияти каби тушунчалар асосида ҳам тавсифланади. Ушбу тушунчанинг ижтимоий мазмуни жуда кенг бўлиб, у ишлаб чиқаришнинг қарийиб барча йўналишларида қўлланилади[5]. Компетенцияга асосланган шахсни бошқариш ёндашувининг асосчиси сифатида David Mc Clelland (Дэвид Макклелланд) номини қайд этиш ўринлидир.

Талабалар касбий компетентлиги ҳам қуйидаги белгилар билан тавсифланади:

- ҳар кандай муайян вазиятда, унинг турли хил жиҳатларини ҳисобга олган ҳолда билимларни ўз ўрнида ва тезкорлик билан тўғри қўллай билиш;

- қарорларни қабул қила билишга қодирлик ва тайёрлик, шу билан бирга, мазкур вазият учун энг мақбул қарор вариантини танлай олиш;

- ижтимоий ҳаракатларни ташкил этиш ва бунинг учун барча имкониятларни ишга сола билиш;

- фаолият доирасида бошқа одамлар билан ўзаро муносабатларни аниқ мақсадларни кўзлаган ҳолда ва мақсадга мувофиқ, мақбул тарзда ўрната олиш имконини берадиган коммуникатив кўникмалар;

- муайян маънавий қадриятлар, дунёқараш, умуммаданий ва ахлоқий сифатларга эгалик, фаолиятга интилиш ҳиссининг мавжудлиги;

- ўзининг ижодий имкониятларини ривожлантириш, фаолиятнинг янги усулларини эгаллашга интилиш. Касбий компетентлик негизида мазкур сифатлар акс этади[6].

Э.Ф.Зеер касбий компетентликнинг функционал тараққиётини тадқиқ қилиш касбий камолотга эришиш чоғида компетентликнинг турли кўринишлари интеграциялашиб боришини ва уларнинг касбий муҳим шахс сифатлари билан алоқаси кучайиб боришини таъкидлайди[7].

З.Рахимов педагогнинг касбий компетентлигини шакллантириш бўйича қуйидаги таклифларни бериш мумкин деб ҳисоблайди[8]:

- ўзлаштирилган ижтимоий тажрибаларни қайта ишлаш, изланувчанлик ва ижодкорлик фаолиятларида намоён бўладиган аниқ ифодаланган касбий йўналтирилганлик, билимларни эгаллаш фаоллиги;

- касбий фаолиятда кўп учрайдиган ҳар қандай ностандарт вазиятларда мустақил равишда қарор қабул қила олишга, шунингдек, яхлит жараённинг барча воқеа ва ҳодисалари, далилларини таҳлил қила билишга асос яратадиган илмий тафаккурни ривожлантириш;

- миллий ва жаҳон педагогик кобилиятларини такомиллаштириш, ўз-ўзини ривожлантиришга йўналганлик, тадқиқотчилик фаолиятини ривожлантириш каби кенг доирани ўз ичига олган мустақил таълимни ташкил этиш;

- талабаларни касбий фаолиятга тайёрлашни индивидуаллаштириш орқали ақлий ва амалий фаолиятида ўзининг индивидуал услубларига эга бўлиш имконини берадиган таълимни ташкил этиш.

Мазкур тадқиқотлар, илмий таҳлиллардан кўриниб турибдики, касбий компетенцияни шакллантириш ёки ривожлантириш ижтимоий жиҳатдан ниҳоятда муҳим, зеро ё авлодни маънавий жиҳатдан етук, ишбилармон, креатив фикрлайдиган қилиб тарбиялаш, айнан педагогик кадрлар савиясига, уларнинг касбий малакасига боғлиқ.

Аслида бугунги замонавий педагогика касбий компетентлиликни қўллаб-қувватламоқда. Дастлаб, ўқув жараёнида билим муҳим эди, кейинчалик устуворлик кўникма ҳамда малакага ўтди. Бу жуда тўғри ёндаув эди, ҳамон ўз қувватини йўқотгани йўқ, аммо давр нуқтаи назаридан бугун компетенция, хусусан, нутқий компетенция фаоллашди. Унга жамиятда ҳам талаб кучайиб бормоқда. Бу эса, ўз навбатида интеграция орқали таълим бериш жараёнини қўллашни тақозо қилади. Шу маънода олий таълим муассасалари талабаларининг касбий компетенциясини ривожлантириш келажакдаги муҳим ишларга пойдевор вазифасини бажаради.

REFERENCES

1. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017. 45-б.
2. Incheon declaration/ Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea). – Корея. : - 2015. - Б.3.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўқитувчи ва мураббийлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи http://uza.uz/oz/documents/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-ituv-30-09-2020
4. Рахимов З. Педагогик компетентлик таълим жараёни ривожланишининг муҳим омили сифатида. https://cyberleninka.ru/
5. Кадырова М. Теория компетентностного подхода и взгляды на его педагогическое содержание. Молодой ученый O’zbekiston «Молодой учёный» . № 43 (333) . Октябрь 2020 г. С.343.
6. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). - Alexandria - Virginia, USA: ASCD, 2014. -P. 4.
7. Зеер Э.Ф., Шахматова Н. Личностью ориентированные технологии пофессиональ-ного развития специалиста. - Екатеринбург, 1999. –С. 58.
8. Рахимов З. Педагогик компетентлик таълим жараёни ривожланишининг муҳим омили сифатида. https://cyberleninka.ru/
9. Камалова, Г. А. Социально-педагогическая сущность развития профессиональной компетентности учащихся на основе интегративного подхода. Intellectual Education Technological Solutions And Innovative Digital tools, 2(14), 213-221.
10. D Khalilova. Formation of social competence of future educators in preschool educational organizations. Science and innovation international scientific journal Volume 2 issue 3 march 2023. 174-177.
11. D Khalilova. Innovative educational environment as a factor for improving professional competence in developing social relationships in students. - Science and innovation, Volume 2 Issue 1, 2023. 412-413.
12. X.D Furqatovna. Bo‘lajak tarbiyachilarning pedagogik faoliyatiga kreativ yondashuv. PEDAGOGS jurnali, 2022/4/15.
13. Imamova, N. Z. Methodology for developing creative qualities of future teachers in the process of independent training. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 86-90). 2023, January.
14. Djamilova, N., Kim, I., Marasulova, D., Imamova, N., & Ismanova, G. (2022). Ecological Culture Development of Independent Learning, Creativity, Integrative Technology and Logical Thinking. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 2524-2529.
15. Xolto’rayeva S.X. Maktabgacha yoshdagi bolalarga matematik bilim berish orqali fazoviy tasavvurlarni shakllantirishning dolzarbligi. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman, 579-581.
16. https://interonconf.org/index.php/neth/article/view/

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Muqumova Nilufar Nizomjon qizi
Toshkent davlat pedagogika universiteti “Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.7926625

Annotatsiya. *Maqolada maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning o’ziga xos xususiyatlari hamda ta’lim jarayoning qoidalari, usullari va tashkil etilish shakillari haqida mulohazalar yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *ijodiy qobiliyat, ta’lim- tarbiya jarayoni, ijodiy faoliyat, ijodkorlik, o‘z-o‘zini tarbiyalash, axloqiy fazilatlar.*

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ijodiy qobiliyatlarini shaqllantirish – bolalarda tevarak-atrofdagi narsalarga ijodiy munosabatni tarbiyalashda, faollikni va mustaqil fikrlashni taqozo etadi. Bu bilan bolalarimizda aql-idrokni, o‘tkir zehnni, ijodiy qobiliyatlarini tarbiyalab boramiz.

Ijodkorlik insonning tabiiy va ijtimoiy dunyoni voqelikning ob’yektiv qonunlari asosida o‘z maqsadi va ehtiyojlariga muvofiq o‘zgartiradigan faoliyatidir. Ijod mahsuli bu inson ongining faol mahsulidir.

Ijodiy faoliyat – bu barcha ruh va aqliy kuchlarni ishga solib insonning aniq, bir maqsadga intiluvchanligi, maxsus hissiy holati – ilhomlanishi, shuningdek, ruh kechinmasi, muammoni jon-jahdi bilan hal etish istaqlari majmuasi.

Ijodiy qobiliyatlar – bu yangilik yaratish zarurligi va mumkinligini tushunish, muammoni ifodalay olish, goyani ilgari surish uchun kerak bo‘ladigan bilimlarni ishga sola bilish qobiliyatlari, farazni nazariy va amaliy tasdiqlash, muammoni hal qilishni izlash hamda topish, natijada yangi asl mahsulotlar yaratish (ilmiy kashfiyot, ixtiro, san’at asari, tavsifnoma) qobiliyatlaridir.

Ijodkorlik – bu ko‘pchilikka noma’lum va murakkab xususiyatlarni o‘rganishga imkon beruvchi inson tafakkuri va ruhiyatining har xil sharoitlarda jamol ko‘rsatishi bilan bog‘liq, o‘ziga xos fikrlash modeli.

Ijodkorlik – bu aql gimnastikasi, u nafaqat donishmandlargagina kerak va hatto oddiy ijodkor odamga ham zarur.

Ijodkorlik – bu avvalo mehnatga ijodiy munosabatda bo‘lishni tarbiyalash, yangi bilimlarni o‘zlashtirishni uddalay olish maqsad sari intiluvchanlik, g‘alaba uchun kurash, o‘z-o‘zini takomillashtirish va uzlikni anglashdir.

Ijodkorlik – bu insoniyatni bir necha ming yillik tarixiy rivojlanishi davrida alohida kishilarning ilm-fanda erishgan oliy ne’mati bo‘lib, bugungi kunda insoniyat yaratayotgan barcha moddiy hamda ma’naviy boyliklar esa ana shu oliy ne’matning u yoki bu kurinishidir, ya’ni mahsulidir.

Ijodiy qobiliyatni rivojlantirish birinchi o‘rinda atrofdagi predmet va hodisalardagi o‘ziga xosliklarni kuzatish malakasi xarakterni belgisini ajrata olishni o‘rgatishdan boshlanadi. Bunda albatta bolaning yoshini hisobga olish lozim, chunki 3-4 yoshli boladan murakkab syujetni sur’atni talab qilib bo‘lmaydi, xatto bolani juda erta o‘qitish boshlangan bo‘lsa ham. Uning tafakkuri ham katta maktabgacha yoshidagi bola bemalol hal qila olishi mumkin bo‘lgan vazifani qilish darajasida rivojlanmagan.

Shu narsa aniqmi, bir xil yoshdagi bolalar doim ham bir xil rivojlanishda bo‘lmaydi. Pedagog hech qachon buni unitmasligi lozim, zero, individual yondoshuv samarali ta’lim tarbiyaning oltin kalitidir. Tasviriy qobiliyatning rivojlanishning birinchi bosqichi bolaning ilk bora tasviriy faoliyat qurollari bo‘lmish-qalam, qog‘oz, loy bo‘lagi kabilar bilan tanishgan davrdan boshlanadi. Pedagogik adabiyotlarda bu davr “tasvirlashgacha” bo‘lgan davr deyiladi chunki hali biror bir predmetni tasvirlashga xohish ham, tasvir g‘oyasi ham bo‘lmaydi. Bola bu paytda material xususiyatlari bilan tanishadi, turli ko‘p harakatlarini o‘zlashtiradi tasviriy shakllarni yaratish uchun zarur bo‘lgan bilimlarni egallaydi. Agar material 5-6 va 3-4 yoshli bolalar qo‘liga berilsa, katta bolalar malakani tez o‘zlashtiradi chunki atrof olamni bilish jarayoni ularda ko‘proq. “Maktabgacha ta’lim konsepsiyasi”ning asosiy mazmunida bolalarning individual xususiyatlari va iste’dodini rivojlantirish vazifasi belgilab berilgan.

Hozirgi tadqiqotlar maktabgacha yoshdagi bolalar rasm chizish, loy va plastilin o‘yinchoqlar yasashda ijodiy faoliyat ko‘rsata olishini isbotladi. Albatta, bolalarni badiiy ijodiy qobiliyatlari o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, kattalar ijodkorligi mezonlariga javob bera olmaydi.

Ta’lim jarayonida, ertaqlar eshitish, har-xil rasmlarni ko‘rish tufayli bola o‘yinchoq yasashdan oddin o‘zi bevosita idrok etgan predmetlar doirasiga kirmaydigan narsalarni asta-sekin tasavvur qila boshlaydi. Bolada avval kattalarning og‘zaki ta’siri bilan ixtiyoriy tasavvur obrazlari hosil bo‘lib, keyinchalik ular bolaning mustaqil fikrlashidan vujudga kelishi mumkin. Bolalar badiiy ijodiy qobiliyatlarini shaqllantirish yo‘llarini o‘rganganda, bolalarga berilgan topshiriqlarni 3 bosqichda murakkablashtirib borishimiz mumkin.

Birinchi bosqichda bolalarga ulardan ijodiy faoliyatda dastlabki yo‘nalishni talab qiladigan topshiriqlar beriladi: tarbiyachining (o‘zing yasa, bir narsa o‘yla, qidirib top, o‘zgartir kabi) ko‘rsatmalari bo‘yicha bolalar pedagog bilan birga ishlab, ijodkorlik elementlarini namoyon etadilar.

Ikkinchi bosqichda bolalarni aniq maqsadga muvofiq ishlashga va izlanishga da’vat etuvchi topshiriqlar beriladi. Bola tarbiyachi bilan birga ishlab, o‘zlashtirgan ko‘nikmalarni kombinatsiyalash va o‘zgartirish mumkinligini tushuna boshlaydi.

Nihoyat, uchinchi bosqich – bolani turli faoliyatda fikrlash bo‘yicha mustaqil harakat qilishga, o‘z ishlarini rejalashtirishga, tasvirlash vositalarini tanlashga o‘rgatadigan topshiriqlardan iboratdir.

Tarbiyachi bolalarga topshiriqni emotsional tarzda tushuntiradi. Tarbiyachining izohi bolalarni qiziqtirishi, buning uchun tarbiyachi goho o‘yin elementlaridan, goho o‘yin harakatlaridan foydalanishi mumkin. Bolalar ko‘z o‘ngida qo‘g‘irchoqlar paydo bo‘ladi. Ular birgalikda tomosha qo‘yishni so‘raydilar. Bunday ertak personajlarning kutilmaganda paydo bo‘lishi bolalarni suyuntirib yuboradi. O‘yinchoqlarning harakatlarini ko‘rib, bolalar sevinib ketadilar, tarbiyachi ularga qarab murojaat qilayotganidan mamnun bo‘ladi. Agar tarbiyachi mashg‘ulotda o‘yin usulini qo‘llayotgan bo‘lsa, u mashg‘ulot davomida o‘yinda qatnashadigan personaj to‘g‘risida oldindan o‘ylab qo‘yadi. Masalan, qo‘g‘irchoq mana shunday personaj rolini bajarib, bolalar qanday ishlayotlanligi bilan, topshiriqni kim qanday bajarayotganligi bilan qiziqib ko‘rishi mumkin. Keyin u bolalarning hatti-harakatlarini ma’qullaydi, ijodiy ishlashga qiynalayotgan bolalarga yordam beradi va boshqa shunga o‘xshagan ishlarni bajaradi.

Mashg‘ulotda har doim ham bir xildagi o‘yin harakatlaridan foydalanmaymiz, har bir mashg‘ulot oldidan bolalarning ruhini ko‘taradigan, kayfiyatini yaxshilaydigan tadbirlar tashkil qilamiz. Buning uchun bolalarga she’r o‘qib berishimiz, qo‘shiq aytib berishimiz, topshiriqlar bo‘yicha topishmoqlar aytib, kichkintoylarni qiziqtirishimiz lozim.

Tasviriy faoliyatning har bir turi bolalarda aqliy faollikni, ijodkorlikni, badiiy didni va boshqa fazilatlarni tarbiyalash imkonini beradi. Bunday fazilatlarsiz ijtimoiy faol shaxsning dastlabki asoslarini shaqllantirib bo‘lmaydi. Faoliyatning barcha turlari bolada tasviriy ifodaning yangi usullarini izlashga mustaqil yondashishni shakllantiradi.

REFERENCES

1. Maxmudova.O.A . Maktabgacha yoshdagi bolalarni rasm chizishga o’rgatish metodikasi. O’quv qo’llanma . T.,“Niso poligraf”. 2019
2. Khalilova Dilnoza Furkatovna. Formation of social competence of future educators in preschool educational organizations. Science and innovation international scientific journal Volume 2 issue 3 march 2023. 174-177.
3. D Khalilova. Innovative educational environment as a factor for improving professional competence in developing social relationships in students. Science and innovation international scientific journal Volume 2 issue 1 january 2023. UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 | SCIENTISTS.UZ. 412-414.
4. Xalilova Dilnoza Furqatovna. Bo‘lajak tarbiyachilarning pedagogik faoliyatiga kreativ yondashuv. “PEDAGOGS” international research journal ISSN: 2181 4027 _SJIF : 4.995 / www.pedagoglar.uz Volume - 7, Issue- 1, April -2022 166.
5. Amirova.G,Djurayeva.G. Bolalar ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning optimal yo‘llari. Uzluksiz ta’lim. 2015.№ 5.
6. Dilnoza Furqatovna Xalilova. (2023). Bo‘lajak tarbiyachilarda ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish. Conferencea, 115–117. Retrieved from https://conferencea.org/index.php/conferences/article/view/2118

BO‘LAJAK TARBIYACHILARNI IJTIMOIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Xalilova Dilnoza Furkatovna
Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti Maktabgacha ta’lim fakulteti o‘qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.7926674

Annotatsiya. *Ushbu maqola bo'lajak tarbiyachining ijtimoiy kompetentsiyasini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari haqidagi fikrlar bayon etilgan va “kompetensiya”, “ijtimoiy kompetensiya”, “kasbiy kompetensiya” tushunchalariga ta’rif berilgan. Ta'lim jarayonida bo'lajak tarbiyachining muhim ijtimoiy-pedagogik mahorati va ijtimoiy kompetensiyasi ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *Kompetentsiya, ijtimoiy kompetentsiya, bo'lajak tarbiyachi, pedagogik kompetentsiya.*

Jahon oliy ta’lim tizimida yoshlarni kasbiy ijtimoiylashtirish, ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish, ijtimoiy faolligi va tashabbuskorligini tarbiyalash metodikasini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. AQSH, Rossiya, Germaniya, Fransiya, Xitoy, Koreya kabi rivojlangan mamlakatlarda talaba-yoshlarning tafakkurini o‘stirish, qobiliyatlarini erta aniqlash, ma’naviy-axloqiy tarbiyalash mexanizmlari samaradorligini oshirish metodikasini takomillashtirishda modulli o‘qitish, “blended learning” (aralash o‘qitish), mahorat darslari, vebinarlar tashkil etilib kelinmoqda [3].

Bugungi talaba ertaga maktabgacha ta’lim tshkilotida o‘z faoliyatini muvaffaqiyatli olib borishi uchun o‘zlarida MTT tarbiyachisiga xos bo‘lgan barcha kasbiy kompetensiyalarni kamol toptirishi va uni amaliyotda qo‘llay bilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari zamon talabidir. Shularni inobatga ogan xolda bitiruvchilarning keyingi amaliy faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, universitet sharoitida bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligi ta’lim natijalarida kasbiy va noprofessional tarkibiy qismlarni uyg‘unlashtirish zarurat hisoblanadi [6].

Pedagogika universitetlari sharoitida bo‘lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetentsiyasini shakllantirish muammosini samarali hal etish ko‘p jihatdan o‘quv jarayoniga kompetentsiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirish orqali ta’minlanishiga erishish mumkin.

“Kompetensiya” tushunchasining mohiyati, jamiyat va davlatning postsovet hududida ta'lim samaradorligi va raqobatbardoshligiga e'tibor kuchaygan zamonaviy sharoitda bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentsiyasini shakllantirish muammosi ustuvor vazifaga aylanmoqda [1]. Oliy pedagogik ta’lim tizimini isloh qilish insonlarning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan ochiq axborot jamiyatini barpo etishga qodir bo‘lgan, ijodiy salohiyatli va yuqori IQ darajasiga ega bo‘lgan yangi kadrlar avlodini tayyorlashga qaratilgan. Bu borada bo’lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentsiyasini doimiy ravishda rivojlantirish muhimdir.

Zamonaviy tarbiyachi-pedagog bir qator kompetensiyalarga ega bo'lishi kerak, ular birgalikda uning kasbiy mahoratini belgilaydi [2].

Psixologik-pedagogik kompetentsiya bo’lajak tarbiyachining tayyorgarlik darajasini, uning maktabgacha yoshdagi bolalarning individual xususiyatlarini, qobiliyatini va tabiiy iste'dodlarini hisobga olish va ularning keyingi rivojlanishida pedagogik yordam ko'rsatish qobiliyatini belgilaydi.

Uslubiy kompetentsiya - bu, birinchi navbatda, tarbiyachi-pedagogning turli maqsadli yo'nalishdagi mashg’ulotlarini aks ettirish, loyihalash va tajriba o'tkazish uchun shakllangan qobiliyatlari.

Kommunikativ kompetentsiya bo’lajak tarbiyachining shaxsiy va kasbiy xususiyatlarining ajralmas qismidir. Bo’lajak tarbiyachi bolalar bilan insonparvarlik asosida muloqot qilish qobiliyati ko'p jihatdan pedagogik faoliyat sohasidagi shaxsiy yutuqlar natijalarini belgilaydi.

Nutq kompetensiyasi - bo’lajak tarbiyachilarga nutq madaniyatining tarkibiy qismi, talaffuz, imlo, stilistik, intonatsion va boshqa milliy-madaniy bilimlarni berish orqali shaxslararo muloqot jarayonida malakali foydalana olish, ravshanlik, ishontirish, emotsionallik kabi nutqiy sifatlarga ega bo’lish imkonini beradi. Nutq kompetensiyasiga ega bo‘lish bo’lajak tarbiyachilarga bolalar e’tiborini jalb qilish, ularga maslahat va tavsiyalar berishda, so‘rovnomalar o’tkazishda samarali natija beradi.

Ijtimoiy kompetentsiya bo’lajak tarbiyachining kasbiy kompetentsiyalari doirasidagi muhim tarkibiy qism bo'lib, u tarbiyalanuvchilarni jamiyat bilan munosabatlarni o'rnatish imkonini beradi: ota-onalar, tengqurlar bilan munosabatga kirishish, madaniy-ma’rifiy tadbirlarda ishtirok etishga yo’naltiradi.

Bugungi kun maktabgacha ta’lim tarbiyachisining kasbiy va ijtimoiy kompitentligini shakllantirish – bu uning kunlik layoqatini, ish faoliyatini samaradorligini oshirishdan iborat. Ish faoliyatida kasbiy mahoratni shakllantirish bilan bog‘liq muammolarni o‘rganish va hal etish, kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish orqali malakali mutaxassislarni tayyorlash mumkin. Bo’lajak tarbiyachining pedagogik-psixologik bilimlarini oshirish zaruriyati ta’lim muassasasiga va o’qituvchilarga qo‘yilgan ijtimoiy talablarning o‘sishi bilan asoslanadi. Oliy ta’lim sohasida ularning kasbiy tayyorgarlik darajasini belgilash, undagi talablarga javob beradigan jihatlarni hamda mavjud kamchiliklarni va bo‘shliqlarni aniqlash asosida ta’lim berishga bo‘lgan haqiqiy ehtiyojlarni belgilash amalga oshiriladi. Shu asosida innovatsiyalarni hayotga joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bu esa pedagogik kompetensiyani rivojlantirishga olib keladi. O‘quv jarayonida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan holatlardan yana biri talabalarning o‘quv faoliyatlarini ularning mayllari asosida tashkil etish va o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirishdan iborat. Bular sirasiga talabalarda bilishga qiziqishlari, ularda burch hissi hamda ta’lim jarayonida mas’uliyatlilikni shakllantirish metodlari kiradi [4].

Pedagogik jarayonlarni takomillashtirishda sub’ektlarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish, erishish zarur bo‘lgan maqsadlar yo‘nalishida ularning faolligini rivojlantirish samaradorligini ko‘p jihatdan mavjud motivlarga va motivlashtirishga bog‘liq bo‘ladi. Ta’lim sohasi – jamiyatning barcha muammolarini o‘zida aks ettiruvchi ijtimoiy institutdir. Shaxsni ma’naviy-ma’rifiy jihatdan rivojlantirish hozirgi ta’limning asosiy masalasi bo‘lib, buning uchun avvalo o‘qituvchining o‘zida yuksak darajadagi ma’naviy-ma’rifiy kompetentlik bo‘lishi shart [5].

Maktabgacha tarbiyachi bolalarni kognitiv rivojlanishiga imkon beradigan quyidagi ijtimoiy va kasbiy kompetentsiyalarga ega bo’lishi kerak:

1. Ijtimoiy vakolatlarga jismoniy shaxslar o’rtasida ma’lumot almashish, ularning qiziqishlari va ehtiyojlarini bayon qilish, boshqa odamlarga nisbatan bag’rikenglikning namoyon bo’lishi va ularning fikrlari, jamoada ishlash qobiliyati va hissiy barqarorlikka ega bo’lgan boshqa odamlarga turli xil yordam berish qobiliyati kiradi;

2. Kognitiv kompetentsiyalar ma’lumotni mustaqil ravishda qayta ishlash va tuzilishida, yangi axborot manbalarini izlashda, o’qish yoki ishlashga konsentratsiya qilishda, olingan bilim va ko’nikmalardan foydalanish qobiliyatida namoyon bo’ladi;

3. Operatsion kompetensiyalar – maqsad va ish tartibini belgilash, noaniqlik va noaniqlikka qarshi turish qobiliyati, qaror qabul qilish va amalga oshirish qobiliyati, ish natijalarini sarhisob qilish, ish vaqt jadvalini aniqlash;

4. Maxsus kompetentsiyalarga muammoni hal qilish, o’zini o’zi boshqarish, kasbiy faoliyatda faol bo’lish, yangi vaziyatlarga moslashish, rejalarni baholash va tuzatish, xatolarni aniqlash va ularni yo’q qilishning etarli usullarini rejalashtirish usullari kiradi.

Demak, kasbiy va ijtimoiy kompetentsiyalar pedagogik jarayonga kompetentsiyaviy yondashuvni joriy etish uchun asos bo’lib, maktabgacha tarbiyachiga bilim, ko’nikma va malakalarni innovatsion faoliyatni amalga oshirishda va zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan amaliyotda foydalanishda yordam beradi .

Xulosa sifatida shuni ta’kidlashimiz lozimki, bo’lajak tarbiyachilarni pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishning turli usullari bilan tanishtirish, ularning kasbiy va ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish, kasbiy mahorat sirlari bilan qurollantirish hamda pedagogik inovatsiyalar bilan ishlash metodikasini shakllantirish ta’lim samaradorligini oshiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Shunday qilib, bo’lajak tarbiyachining ijtimoiy kompetensiyasi nazariy darajada shakllantirilgan holda, boshqa barcha kompetentsiya turlari bilan birgalikda kasbiy faoliyat sohasida rivojlanib borishi ayon bo'ladi.

REFERENCES

1. Maxamatova, F. Bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalari. - Международный научно-образовательный электронный журнал «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ». 2021.
2. D Khalilova. Formation of social competence of future educators in preschool educational organizations. Science and innovation international scientific journal Volume 2 issue 3 march 2023. 174-177.
3. D Khalilova. Innovative educational environment as a factor for improving professional competence in developing social relationships in students. - Science and innovation, Volume 2 Issue 1, 2023. 412-413.
4. Xalilova D. F. Talabalarda ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishga oid kasbiy kompetentlilikni takomillashtirish. Муғаллим ҳом узликсиз билимлендириў 2022. № 6/1-1.
5. X.D Furqatovna. Bo‘lajak tarbiyachilarning pedagogik faoliyatiga kreativ yondashuv. PEDAGOGS jurnali, 2022/4/15.
6. Imamova, N. Z. (2023, January). Methodology for developing creative qualities of future teachers in the process of independent training. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 86-90).
7. Xolto’rayeva S.X. Maktabgacha yoshdagi bolalarga matematik bilim berish orqali fazoviy tasavvurlarni shakllantirishning dolzarbligi. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman, 579-581.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA BAYRAM ERTALIKLARI ORQALI BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASH MAZMUNI

[1]Imamova N.Z., [2]Abdulhakimova M.

[1]Nizomiy nomidagi TDPU o’qituvchisi, [2]Nizomiy nomidagi TDPU talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.7926853

Annotatsiya. *Maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bayram ertaliklarini o’tkazish va ularni to’g’ri tashkil etish, Bayram ertaliklari orqali bolalarni maktabga tayyorlash hamda shu jarayonda qilinadigan ishlar mazmuni haqida ma’lumotlar keltirilgan.*

Kalit so’zlar: *Bayram, ertalik, bola, malaka, maktabgacha ta’lim, maktabga tayyorgarlik.*

Yurtimizda barcha sohada olib borilayotgan ilg’or izlanishlar shu jumladan bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash soxasini ham chetlab o’tmagan. Har tomonlama yetuk, kreativ yondashuvchi kadrlarni tayyorlash jarayoni hozirgi zamon talabidir.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori hamda, 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-son “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 21-noyabrdagi 929-son “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi to‘g‘risidagi nizomi maktabgacha ta’limga bolalarni sifatli tayyorlash, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida moddiy texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining davlat va nodavlat tarmog‘ini kengaytirish va shu orqali maktabgacha ta’limga bola qamrovini oshirish va sohaga ilg‘or xorij tajribalarini tadbiq qilish imkonini beradi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayoni ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari va “Ilk qadam” davlat dasturi asosida rejalashtiriladi. Yurtimizda maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama, intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun barcha shart–sharoitlar yaratish, maktabgacha ta’lim tizimiga innovasiyalarni, ilg’or pedagogik va axborot-kommunikasiya tehnologiyalarni joriy etish, bu O’zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi PQ-4312 da belgilab berildi. Konsepsiyada maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishning maqsadlari va ustuvor yo’nalishlarida, ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, bolalarning rivojlanganligi darajasini va ularning umumiy boshlang’ich ta’limga tayyorligi, shuningdek, ularning ijtimoiy,shaxsiy,hissiy, nutqiy, jismoniy va ijodiy rivojlanishini baholash asosida amalga oshirilishi ta’kidlandi. Bolalarni har tomonlama barkamol shaxs qilib rivojlantirish va ularni maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kasblar bilan tanishtirib borish bolani o’z vaqtida mustaqil hayotga jasorat bilan kirishi o’z kasbiy faoliyat yo’lini tanlashi uchun tayyorlashni nazarda tutadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasidsa musiqiy tarbiya alohida ahamiyat kasb etib, muntazam ravishda olib boriladigan tarbiya jarayonining bir qismini tashkil etadi. Mazkur maqolada maktabgacha ta‘lim musassalarida musiqiy tarbiyani amalga oshirish dasturida belgilangan ertalik va bayramlarni nishonlashga qaratilgan tadbir va bayramlarni tashkil qilish jarayoniga qaratilgan. Musiqa, ayniqsa, milliy musiqa, bola tarbiyasiga benihoya katta ta‘sir ko_rsatib, ularda yuqori darajadagi badiiy, estetik zavq va didni shakllantiradi, go’zallikni musiqa orqali idrok etishda yetakchi rol o’ynaydi. Bolalar bog’chasida musiqiy tarbiya quyidagi vazifalarni o’z oldiga qo’yadi:

– musiqa tinglash;
– vokal ijrochilik;
– milliy musiqa asboblari bilan tanishtirish;
– bastakor hayoti va ijodi bilan tanishtirish;
– musiqa turlari bilan tanishtirish;
– ritmik harakat va raqs asoslari bilan tanishtirish;
– bolalarda ijobiy qobilyatlarni aniqlash va rivojlantirish;
–musiqa vositalari orqali bolalar tarbiyasini tobora shakllantirish.

Musiqa rahbarlari ushbu vazifalarni amalga oishirar ekanlar, o’z ish tajribalarida turli faoliyat shakllaridan keng foydalanadilar.

– Musiqa mashg_ulotlari (vazifa va maqsadiga qarab, turli mavzu va yo’nalishda bo’ladi):
– bayram ertaliklari;
– ko’ngil ochar musiqiy o’yinlar;
– nafosat soatlari;
– badiiy va adabiy musiqiy kompozitsiyalar;
– musiqiy teatr dramatizatsiyalari;
– yakka hol ish turlari;
– to’garak ishlari.

Bayram ertaliklariga tayyorgarlik ko’rilar ekan, avvalambor bu hammaning bayrami ekanligi, bolalar xotirasida unutilmas iz qoldirilishi, ularga zavq, xursandchilik olib kelishini nazarda tutish zarur. Bu jarayonda barcha teng qatnashishi lozim. Masalan, pedagogik jamoa, ota-onalar va mahalla ahli. Maktabgacha ta‘lim muassasasida tashkil qilingan bayram ertaliklari umumxalq bayramlarining bir parchasi bo’lmog’i zarur. Bolalar bog’chasida musiqa va o’yinlar bolaning aqliy, estetik va jismoniy rivojida raqs, musiqali o_yin va musiqa bilan harakat katta ahamiyatga ega. Musiqa faoliyatining bu turlari bolaning har

tomonlama o’sishiga katta yordam beradi. Bayram ertaliklari bolalarni rivojlantiribgina qolmay, ularni maktab ta’limida o’zlarini erkin tutishlarini, darslar jarayonida o’zlarining fikrlarini erkin bildira olish ko’nikmalarini shakllantirishga yotdam beradi.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki kichik, o’rta, katta va tayyorlov guruhlarida bayram ertaliklari MTTda olib boriladigan barcha bayram ertaliklari vositasida oliyjanob fazilatlar yosh avlodga maktabgacha ta’lim yoshidan boshlab shakillantiriladi. Bayram ertaliklari jarayonida bola hayotiy voqelikni musiqaviy obrazlar orqali idrok etib boradi.

REFERENCES

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo’yiladigan Davlat talablari. –Toshkent, 2018.
2. Agar bolam sog’lom bo’lsin desangiz. D.Sharipova va boshqalar (Ota-onalarga maktabgacha yoshdagi bolalarning gigiyenik tarbiyasi haqida) Metodik qo’llanma. –T., 2006.
3. G’aybullaeva M. Bir yoshdan uch yoshgacha bo’lgan bolalar tarbiyasi. –Toshkent, 2006.
4. Khalilova Dilnoza Furkatovna. Formation of social competence of future educators in preschool educational organizations. Science and innovation international scientific journal Volume 2 issue 3 march 2023. 174-177.
5. Dilnoza Furkatovna Khalilova. Innovative educational environment as a factor for improving professional competence in developing social relationships in students.

6. Science and innovation international scientific journal Volume 2 issue 1 january 2023. UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 | SCIENTISTS.UZ. 412-414. https://scholar.google.ru/scholar?oi=bibs&cluster=16983227533543910071&btnI=1&hl=ru.
7. Imamova, N. Z. (2023, January). METHODOLOGY FOR DEVELOPING CREATIVE QUALITIES OF FUTURE TEACHERS IN THE PROCESS OF INDEPENDENT TRAINING. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 86-90). https://orientalpublication.com/index.php/iscrc/article/view/859
8. Djamilova, N., Kim, I., Marasulova, D., Imamova, N., & Ismanova, G. (2022). Ecological Culture Development of Independent Learning, Creativity, Integrative Technology and Logical Thinking. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 2524-2529. https://pnrjournal.com/index.php/home/article/view/3844
9. Xolto'rayeva S.X. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA MATEMATIK BILIM BERISH ORQALI FAZOVIY TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARBLIGI. XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN, 579-581
10. Камалова, Г. А. (2023). СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА. INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS, 2(14), 213-221. https://interonconf.org/index.php/neth/article/view/1875
11. Чориева, Д. А., & Камалова, Г. А. (2021). РОЛЬ УЧИТЕЛЯ В ОРГАНИЗАЦИИ УЧЕБНО-ВОСПИТАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ УЧРЕЖДЕНИИ. In Человек в современном мире: пространство и возможности для личностного роста (pp. 161-166). https://elibrary.ru/item.asp?id=45840373
12. Artikbayeva, A. A. (2023). Development of Professional Competencies of Students Based on Social Cooperation. Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal, 2(2), 354-356.
13. Махмутазимова, Ю. Р. (2019). Роль воспитателя в детском саду в формировании личности ребенка. Actual Problems of Applied Sciences Journal World, (3), 24-28.

O‘QUVCHILARNI RAG‘BATLANTIRISH ORQALI TARBIYALASH VA INTELLEKTUAL SALOHIYATLARINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI (BOSHLANG‘ICH SINFLAR MISOLIDA)

Axmedova Dilnoza
Andijon Davlat Pedagogika Instituti Tayanch Doktoranti

https://doi.org/10.5281/zenodo.7927030

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ta’lim sifatini oshirishda o‘quvchilarni rag‘batlantirish orqali tarbiyalash va ularning intellektual salohiyatlarini oshirishning pedagogik-psixologik jihatlari jahonning yetakchi pedagog va psixolog olimlari Sh.A.Amonashvili, E.G‘.G‘oziyev, M.G‘.Davletshin tajribalarini tahlil qilish orqali yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Intellekt, motiv, motivotsion xulq, ta’lim, tarbiya, rag‘batlantirish, interfaol metodlar.*

XXI asrda jahon miqyosida ta’lim barqaror taraqqiyotni ta’minlovchi asosiy omil sifatida e’tirof etilib, 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta’lim konsepsiyasida “butun hayot davomida sifatli ta’lim olishga imkoniyat yaratish” dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Bu ta’lim tizimida pedagoglar, jumladan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatida metodik tayyorgarlik darajasini oshirish, ijodiy tafakkurni rivojlantirishga yo‘naltirilgan texnologiyalardan foydalanish imkoniyatini kengaytirdi.

O‘quv tarbiya jarayonida bilim berishning zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan keng foydalanish, ularni doimiy ravishda takomillashtirib borish, rivojlangan davlatlar ta’lim tajribalaridan maqsadli foydalanish – ta’lim sifati va samaradorligini kafolatlaydi. Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan fan, mavzu va uning mazmunida o‘rinli foydalanish ta’lim oluvchilarning qiziqishlarini orttiradi, bilish faoliyatini yuqori darajada bo‘lishiga imkon yaratadi.Bugun yuksak bilimli, zamonaviy fikrlaydigan, intellektual rivojlangan yoshlargina jamiyatni barqaror istiqbolli kelajagini ta’minlay oladi.

Odamning intellekti ancha murakkab tuzilishga ega bo‘ladi va faqat ko‘plab fikrlash turlarini emas, balki har xil intellektual operatsiyalar, malaka va ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. Intellekt individning ma’lum darajada mustahkam, barqaror aqliy qobiliyatlari tuzilishidan iboratdir. Intellektning mohiyati va taraqqiyotini tushuntirishda psixologiyada ikki xil qarash mavjud:

1. Intellekt - nasliy xususiyat, ya’ni avloddan avlodga o‘tuvchi tug‘ma xususiyat sifatida.
2. Intellekt - organizm imkoniyatlari va maqsadga muvofiq ta’lim tarbiya ta’sirida shakllanuvchi xususiyat sifatida.

Ta’lim va tarbiya berish jarayonida o‘quvchilarni bilim va salohiyatlarini o‘z o‘rnida yetarlicha rag‘batlantirib borish, nafaqat ta’lim sifatini oshirishga balki ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini ortishiga, liderlik xususiyatlarini shakllanishiga va eng asosiysi intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bola ruhiyatida sodir bo‘ladigan ijobiy o‘zgarishllarning eng katta va ahamiyatli sabablaridan biri shuki, ularning tengdoshlari orasida maqtovga sazovor bo‘lishidir. O‘ziga ishonchi ortgan o‘quvchining bilim olishga bo‘lgan qiziqishi kundan kun ortib boradi va bu o‘z navbatida ularning intellektiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘quvchi intellektini rivojlantirish bo‘yicha juda ko‘plab olimlar ish olib borgan bo‘lib, O‘zbekistonda ulardan R.Toshimov, M.M.Mamatov, M.G.Davletshin, E.G‘.G‘oziyev,

B.R.Qodirov, G‘.B.Shoumarov, V.M.Karimova, E.Z.Usmonova, Z.E.Nishonova, M.Vohidovlarning ilmiy ishlarini o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

E.G‘.G‘oziyev O‘zbekistonda tafakkur psixologiyasini keng yoritgan olimlardan biridir. Muallifning fikriga ko‘ra, inson tafakkuri o‘zining mustaqilligi jihatidan mustaqil va nomustaqil tafakkurga ajratiladi. “Tafakkurning mustaqilligi deganda, kishining shaxsiy tashabbusi bilan o‘z oldiga konkret maqsad, yangi vazifalar qo‘ya bilishi, ular yuzasidan amaliy va ilmiy xarakterdagi faraz qilishi, natijani ko‘z oldiga keltira olishi, qo‘yilgan vazifani hech kimning ko‘magisiz, ko‘rsatmasisiz o‘zining aqliy izlanishi tufayli, turli yo‘l, usul va vositalar topib, mustaqil ravishda hal qilishdan iborat aqliy qobiliyatni tushunish kerak”

M.G‘.Davletshin aqliy tushunchalarni qobiliyat tushunchasi bilan bog‘lab o‘rgangan. Qobiliyat shakllanishi va rivojlanishi, birinchidan, ma’lum bir faoliyatga moyillik yoki intilish borligiga va faoliyat natijalarining sifatiga qarab, tegishli tabiiy zehn nishonalarini aniqlash yo‘li bilan, ikkinchidan, mutaxassis rahbarligida sistemali faoliyatga jalb etish orqali shaxsning tabiiy xususiyatlarini chiniqtirish va rivojlantirish yo‘li bilan, uchinchidan, umumlashgan aqliy operatsiyalarni shakllantirish yo‘li bilan borishi kerakki, bu operatsiyalar umumiy va maxsus axborotni yengil va samarali o‘zlashtirishni rejalashtirgan faoliyat bo‘yicha malaka va ko‘nikmalar hosil qilishni ta’minlasin. Bolalarda qobiliyatlarni o‘sishi ta’lim-tarbiya jarayonida yuzaga keladi.

G‘.B.Shoumarov mamlakat fuqarolarining aqliy saviyasiga alohida urg‘u berib, har bir davlat, jamiyat taraqqiyoti, uning istiqboli o‘z fuqarolarining saviyasi bilan belgilanishini e’tirof etadi. Jamiyat va fan-texnikaning rivojlanishida aql muhim omil va mezonlardan biridir. SHuningdek, SHoumarov har qanday insonparvarlik jamiyatida aqli zaiflarga e’tibor muhimligini uqtirib, aqli zaiflik omillarini markaziy asab tizimining organik buzilishi, shuning oqibatida bola bilish faoliyatining turg‘un pasayishidir deydi.

O‘quvchilarni rag‘batlantirishning psixologik xususiyatlari haqida bir nechta olimlar o‘zlarining ilmiy ishlarida juda muhim fikrlarni ilgari surgan bo‘lib, yurtimiz olimlaridan J. Xasanboyev va X. To‘raqulovlarning fikrlariga ko‘ra: “Rag'batlantirish o‘quvchilarning harakatlarini ijobiy baholashni ko‘zda tutadi. Rag'batlantirish quvonch, qoniqish, qanoatlanish kechinmalarini paydo qiladi, tetiklik va g‘ayrat bag'ishlaydi, o‘z kuchiga ishonchni mustahkamlaydi, ijobiy xatti-harakatlarni rag' batlantiradi, o‘z faoliyati va xulqiga mas'uliyatini oshiradi” - deb hisoblaydilar.

Rag'batlantirish metodlari turli xil bo‘lib, ular tarkibiga ma'qullash, ko‘ngil ko‘tarish, dalda berish, ishonch bildirish, qayd qilish, og'zaki va yozma tashakkur bildirish, mukofotlash va boshqalar kiradi. Rag'batlantirish pedagogik talablarni hisobga olgan holda qo‘Ilanilishi lozim. Har qanday rag'batlantirish o‘qnvchining jamoa oldidagi chinakam xizmatlariga muvofiq bo‘lishi kerak. Rag'batlantirish vaqtida o‘quvchining alohida xususiyatlarini, jamoada tutgan o‘rnini hisobga olish va u bitta o‘quvchi uchun ketma-ket bo‘lmasligi kerak. Doimiy ravishda haddan oshirib maqtash, jamo‘aga nisbatan taqqoslash, talabchanlikni bo‘shashtirib yuborish bular o‘quvchida man-manlik, xudbinlik sifatlarining yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Rag'batni tashkil etishda o‘quvchining muvaffaqiyati bilan birga uning jamoadagi o‘rni, axloqiy qiyofasi, shuningdek, mehnatga, jamoa topshiriqlariga, jamoaning o‘ziga munosabati borasidagi jamoa fikrini inobatga olish ham talab etiladi.

Psixologiyada esa rag‘batlantirish shaxsga nisbatan motivatsiya berish deb yuritiladi. Motiv va motivasiya muammosi jahon psixologiyasida turli tuman nuqtai nazardan yondashish orqali tadqiq qilib kelinmoqda. Uzoq va yaqin chet ellarda o‘ziga xos psixologik maktablar

vujudga kelgan bo‘lib, ularning negizida ilmiy pozisiyalar va konsepsiyalar mohiyati jihatdan farqlanuvchi g‘oyalar va yo‘nalishlar mujassamlashdi. Psixologiyada “motiv” tushunchasi muayyan motiv, sabab, harakat, xatti-harakatni talab qiladi, shuning uchun ham o‘quv motivlari o‘quvchining faoliyat predmetiga munosabati, shu faoliyatga yo‘naltirilishi sifatida aniqlanadi. Faoliyatning motivatsiyasi uni rag'batlantirish, ya'ni harakatga undash jarayoni bilan chambarchas bog'liqdir.

O`quv faoliyatiga munosabatiga, mazmuniga ko`ra o`quv motivlari ichki va tashqi turlarga bo`linadi. ***Ichki motivlar*** ta'lim faoliyati mazmuni va uning jarayoni (kognitiv qiziqish, intellektual faoliyatga bo‘lgan ehtiyoj, yaxshiroq natijaga erishish istagi va boshqalar) bilan bog'liq. ***Tashqi motivlar*** insonning tashqi muhit bilan o‘zaro ta'sirini tavsiflaydi (talablar, maslahatlar, ko‘rsatmalar va boshqalar).

Motivlarning ushbu tasnifiga ko‘ra, o‘quv faoliyatini rag'batlantirish usullari shartli ravishda kichik guruhlarga bo‘linadi: kognitiv qiziqishni shakllantirish usullari va ta'limda burch va mas'uliyat hissini shakllantirish usullari.

Rus pedagogika-psixologiyasi namoyandalari K.D.Ushinskiy, SH.A. Amonashvili, I.M.Sechenov, I.P.Pavlov, V.M.Bexterev, A.F.Lazurskiy, V.N.Myasishev, A.A.Uxtomskiy, D.N.Uznadze, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, P.M.Yakobson, V.S.Merlin, L.I.Bojovich, V.I.Selivanov, V.G.Aseev va boshqalar mazkur muammo yuzasidan tadqiqot ishlari olib borganlar. Jumladan E.Torndayk, E.Tolmen, K.Xall, D.Xebb kabilar xulq motivasiyasiga muayyan darajada e'tibor qilganlar. Ular o‘zlarining izlanishlarida xulq motivasiyasining "quyi darajalari" ni o‘rganib, kalamushlarda tajriba ishlarini olib borib, jonivorda ochlik, tashnalik va ularning turlicha darajalarini reaksiya tezligiga nisban namoyon bo‘lish xususiyati, har xil sharoitda motivasiyaning kuchi to‘g‘risida muayyan qonuniyatlar ochishga intilganlar. Hozirgi zamon bixevioristlari stimulni tashqi qo‘zg‘atuvchi sifatida talqin qiladilar va organizmning ichki energiyasini faollashtiruvchi deb hisoblaydilar. Neobixevioristik nazariyalar yangi qo‘zg‘atuvchilar, doayvalar paydo bo‘lishiga asoslangan bo‘lib, ular insonning organik eshtiyojlarini qoniqtirish bilan stimul natijasining uyg‘unlashuvi tariqasida tashlil etiladi. Ularning ta'kidlashiga ko‘ra, ikkilamchi qo‘zg‘ovchilar organik qo‘zg‘atuvchilarning go‘yoki qobig‘iga o‘xshaydi, xolos.


Sh.A.Amonashvili rag‘batlantirish metodiga quyidagicha ta’rif beradi. Rag'batlantirish - bu shaxsning harakatlariga yuqori baho berish orqali uning ijobiy ko‘rinishlarini rag'batlantirish, insonning sa'y-harakatlari va harakatlarining boshqalar tomonidan e'tirof etilishidan zavq va quvonch hissini shakllantirish. Amonashvili texnologiyasidagi har bir pedagogik (muammoli) vaziyat o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi. Bolaga ta'lim va tarbiya mazmunining u yoki bu elementini taklif qilib, iste'dodli o‘qituvchi uni nafaqat ushbu mazmunni amalga oshirishga, balki uni ijtimoiy, hissiy, intellektual tajribasi bilan bog'lashga ham yo‘naltiradi: nimani qabul qilish kerak? nimani rad etish kerak, nimani yana birinchi marta o‘ylash kerak. Bu Amonashvilining texnologiyasidagi vaziyatlarni haqiqatan ham muammoli, rivojlanayotgan va qimmatli qiladi.

Maktabgacha va boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar psixologiyasi va bu yoshdagi bolalarning situatsion tajribasining o‘ziga xos xususiyati shundaki, kattalar bilan muloqot qilishda bolalar hali ham ular uchun obro‘li bo‘lgan kattalarning baholariga kuchli intilishidir. Chunki ular atrofdagilar oldida o‘zining kichik yutug‘I uchun ham munosib rag‘bat eshitishni hohlaydi. Bu esa ularda kelgusi faoliyatlarining ijobiy tomonga o‘zgarishiga turtki bo‘ladi. Agar rag‘batlar yangi

pedagogik texnologiyalarga asoslangan holda, interfaol usulda qo‘llanilsa o‘quvchilarni bilim olishga bo‘lgan qiziqishi ortishi bilan bir qatorda ulardagi intellektning rivojlanioshiga ham xizmat qiladi. Quyidao‘quvchilar intellektini rivojlantiruvchi o‘ziga xos rag‘bat usullaridan birini taqdim etmoqchimiz.

Qo‘shish (+)va ayirish(-) amallari yordamida rag‘batlantirish

Bu metodni asosan 1-2-sinflar uchun qo‘llash mumkin. Bunda kunning boshida o‘qituvchi o‘quvchilarning har biriga darsga o‘z vaqtida kelib, darsliklari va maktab formalari joyidaligi uchun 3 ball deb yozilgan kartochkalar tarqatadi. Har bir o‘quvchi darsni 3 ball bilan boshlaydi va o‘qituvchi mazkur kun uchun eng minimal ball miqdorini belgilaydi. Masalan bugungi eng minimal to‘planishi kerak bo‘lgan ball 15 kabi.Har bir darslar davomida esa o‘quvchilar +1 +2 +3 +4 +5 kabi kartochkalar orqali o‘z balini ko‘paytirib boradi. Darslar yakunida esa har bir o‘quvchi o‘zi to‘plagan ballni hisoblaydi. Belgilangan ballga ega bo‘lgan va eng ko‘p ball to‘plagan o‘quvchilar mukofotlanadi. Berilgan topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarmagan, darsga ma’suliyat bilan yondashmagan o‘quvchilarga esa -1,-2,-3 kabi kartochkalar berish mumkin. Bunda 1-2-3- o‘ringacha alohida mukofotlash va minimal ballni to‘plagan o‘quvchilarni ham birgalikda mukofotlash mumkin. Mukofot tarzida metodga mos ravishda “Eng tezkor hisobchi”, “Al Xorazmiy izdoshi” kabi so‘zlar tushirilgan logotiplarni berish maqsadga muvofiq sanaladi. Bu usulning afzalliklari shundaki o‘quvchilarning og‘zaki hisoblash malakalari rivojlanishi bilan bir qatorda berilgan imkoniyatdan unumli foydalanish, o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalari hosil qilinadi. Bu usulni qo‘’laganda tartibbuzarlik qilgan, vazifalarni bajarmagan, qonun-qoidalarga amal qilmagan o‘quvchilarning kartochkalari jazo sifatida olib qo‘yilishi ham mumkin. O‘qituvchi bergan 3 ballni ko‘paytirish yoki kamaytirish uning o‘z harakatlariga bog‘liq ekanini o‘quvchi anglab yetadi.



Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, rag'batlantirish o‘rtacha darajada qo‘llanilishi kerak, shunda u foydali bo‘ladi va o‘quvchilarning harakatlari va harakatlari yo‘naltirilgan yagona maqsadga aylanmaydi. Rag'batlantirish adolatli bo‘lishi va har bir o‘quvchiga teng sharoitlarda, ma'lum bir shaxsning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ifodalanishi kerak. Ya'ni, har birining yutuq darajasini o‘z imkoniyatlari va qobiliyatlari bilan bog'lash kerak. Har qanday o‘quvchining xatti-harakatlari yoki yutuqlarini rag'batlantirishga loyiqligini hal qilishda jamoaning fikrini hisobga olish yaxshi shakl hisoblanadi. Bu ushbu usulni qo‘llashda eng katta ob'ektivlik va adolatni ta'minlaydi, shuningdek, bolalarni o‘rtoqlarining faoliyatini tahlil qilish va baholashga o‘rgatadi.Hozirgi vaqtda faoliyat va xulq-atvorni rag'batlantirish usullari deganda o‘quvchilarning xatti-harakatlarini yaxshilashga va ularning ijobiy xulq-atvor motivatsiyasini

rivojlantirishga qaratilgan shaxsning motivatsion maydoniga ta'sir qilish usullari tushuniladi. Inson faoliyati strukturasining turli xil tadqiqotlari har doim motivatsion komponentga bo‘lgan ehtiyojni ta'kidlaydi. Har qanday faoliyat, shu bilan birga, insonni faol, to‘liq fidoyilik bilan harakat qilishga, muqarrar qiyinchiliklarni, noqulay sharoitlarni va boshqa vaziyatlarni yengib o‘tishga, ko‘zlangan maqsad sari astoydil harakat qilishga undasa, yanada samarali davom etadi va sifatli natijalar beradi. Bularning barchasi bevosita o‘quv faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, agar o‘quvchilar bilim olishga ijobiy munosabatda bo‘lsa, ularda kognitiv qiziqish bo‘lsa, bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash zarurati tug‘ilsa, muvaffaqiyatga erishish ularning burchiga aylanadi va mas'uliyat hissi shakllanib boradi.

REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 592 b.
2. Innchenon declaration/Education 2030: Towards inclusive and euitable quality education and lifelong learning for all (World Education Forum, 19-22 may 2015.
3. J. Xasanboyev, X. To‘raqulov va boshqalar “Pedagogika”. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. -Toshkent: «Noshir», 2011.
4. E.G‘oziyev “ Umumiy psixologiya”. Psixologiya mutaxassisligi uchun darslik I -kitob Toshkent – “Universitet” – 2002.
5. Qojaspirova G.M. Pedagogika: Seminar va o‘quv-uslubiy materiallar. - M. VLADOS - 2003 yil.
6. Markova A.K., Matis T.A., Orlov A.B. O‘rganish uchun motivatsiyani shakllantirish: o‘qituvchi uchun kitob. - M .: Ta'lim. 1990 yil.
7. Rapatsevich E.S. Zamonaviy lug'at pedagogika bo‘yicha. - M .: Zamonaviy so‘z, 2001 yil.
8. Stolyarenko L. D. Pedagogik psixologiya... - Rostov, Feniks, 2006 yil.

UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA IJTIMOIY-MADANIY MUHITNI INKLYUZIV TA’LIM FAOLIYATIDA SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI

Djurayeva Perdegul Saidovna
Navoiy viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi dots.v/b
+99894 379 75 75

https://doi.org/10.5281/zenodo.7927041

Annotatsiya. *Pedagogik konsiliumning ekspert baholash usulining bir turi ekanligi, ijtimoiy pedagogning asosiy yo‘nalishlari, inklyuziv ta’limni tashkil etishning dolzarblilik mohiyati va uning metodologik tavsiyalari.*

Kalit so‘zlar: *Ijtimoiylashtirish, konsilium, tarbiya, ta’lim, pedagogik kengash, Ijtimoiy-pedagogik faoliyat.*

“Har bir inson kitobdir, faqat uni o‘qiy olish kerak.”
V.Chenning

Inson turli jamiyatning murakkab sharoitlarida yashaydi va harakat qiladi. Inson rivojlanishi murakkab uzoq davom etadigan progressiv jarayonning natijasi bo‘lib, uning biologik, psixologik va ijtimoiy xususiyatlari o‘zgaradi. Bu o‘zgarishlar shaxsning shakllanishi jarayonida, uning tarbiyasi va ta’limi ta’sirida sodir bo‘ladi. Ta’limning asosiy vazifasi - har bir bolaga uning psixofizik imkoniyatlarini hisobga olgan holda, unga jamiyatda adashib qolmaslik, hayotda o‘z o‘rnini topishga yordam beradigan, shuningdek, uning potentsial qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradigan ta’lim va tarbiya darajasini berish, ya’ni ta’limni individuallashtirish orqali shaxsni rivojlantirish vazifasi birinchi o‘ringa chiqadi. Inson faoliyati o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashish bilan emas, balki kelajakka yo‘naltirish va prognozlash bilan belgilanadi. Umumta’lim maktablarida bugungi kunda ijtimoiy pedagoglar faoliyati o‘quvchining o‘z imkoniyatlariga tayangan holda, kelajakka yo‘naltirilgan ta’limni rivojlantirish tendensiyalariga asoslanadi.

Bolaning maktabdagi muvaffaqiyati, mustaqil qaror qabul qila oladigan ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalash insonning hayotdagi muvaffaqiyati garovidir. Har bir bola iqtidorli, har bir bola butun dunyo, faqat o‘z vaqtida sezish va bolaning individualligi va shaxsiy fazilatlaridan kelib chiqib, uning iste’dodini ochishga yordam berish kerak. Ijtimoiy pedagogning faoliyati bolalar bilan o‘zaro munosabatlarni o‘z ichiga oladi, ularning ijtimoiylashuvi jarayonida turli xil muammolar paydo bo‘ladi. Bunday bolalar bilan muloqot qilish alohida xushmuomalalik va professionallikni talab qiladi.

Ijtimoiy pedagogning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardir: analitik va diagnostik; ijtimoiy va huquqiy; maslahat; profilaktik; metodik. Tashkiliy-uslubiy faoliyat - pedagogik mahoratni oshirish maqsadida ijtimoiy-pedagogik faoliyatimizni tahlil qilamiz; maktabning pedagogik kengashlari, maktab malaka oshirish fakulteti, sinf rahbarlarining metodik birlashmalari, ijtimoiy-pedagogik muammolar bo‘yicha ishida qatnashamiz. Zamonaviy insonning asosiy xususiyatlari - doimiy o‘rganishga tayyorlik va qobiliyat; mantiqiy, analitik, tanqidiy va konstruktiv fikrlash qobiliyati; mas’uliyatli qarorlar qabul qilish qobiliyati; muloqot va hamkorlik qobiliyatlari, aniqlik va mahsuldorlik; bag‘rikenglik va mas’uliyat, diskrimimatsiyaga yo‘l qo‘ymaslik, jismoniy va ruhiy chidamlilik - bu fazilatlarni kompetentsiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirish orqali rivojlantirish mumkin. Ushbu yondashuv o‘quvchiga bilim, ta'lim va hayotiy tajriba, qadriyatlar va moyilliklardan foydalangan holda real hayotiy vaziyatlarda yuzaga keladigan muammolar va tipik vazifalarni hal qilish qobiliyatini tavsiflovchi shaxsning ajralmas sifatini anglashga yordam

beradi. Shu bilan birga, ko‘nikmalar integral xarakterga ega bo‘lib, barcha maktab kurslari va fanlarini o‘rganish doirasida shakllanadi, lekin ulardan ta’lim yoki hayotiy vaziyatlarda faol foydalanish sharoitida shakllanadi. Ijtimoiy o‘qituvchining vazifasi o‘quvchini ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan faoliyatni amalga oshirishga jalb qilish, bolaning mustaqillikka intilishi, o‘zini o‘zi bilish, tahlil qilish va qadrlash istagini qo‘llab-quvvatlashdir.

Ta’lim - bu shaxsga maqsadli ta’sir qilish jarayoni. Ijtimoiy ta’lim - bu muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi uchun zarur bo‘lgan talaba shaxsining ijtimoiy ahamiyatga ega fazilatlarini shakllantirishning maqsadli jarayoni. Ijtimoiy-pedagogik faoliyat - bolaning o‘zini, uning alohida va ruhiy holatini tartibga solishga, oilada, ta’lim muassasalarida, jamiyatda normal munosabatlarni o‘rnatishga, uning o‘zini o‘zi anglashi uchun sharoit yaratishga qaratilgan ijtimoiy ish, shu jumladan pedagogik faoliyat. Ijtimoiylashtirish - bu jamiyatga va u mansub bo‘lgan ijtimoiy guruhlarga xos bo‘lgan tajriba, qadriyatlar, me’yorlar, munosabatlarni, ma’lum bir jamiyatda shaxsning muvaffaqiyatli ishlashi uchun o‘zlashtirish. Ijtimoiy moslashuv - ijtimoiy normalar va qadriyatlarni, ijtimoiy munosabatlarning o‘rnatilgan shakllarini o‘zlashtirish orqali subyektni jamiyat talablariga moslashtirish jarayoni. Ijtimoiy og‘ish - bu ijtimoiy me'yorlarga zid bo‘lgan faoliyat, turmush tarzi, xatti-harakatlarning ko‘rinishi. Ijtimoiy me’yor - muayyan jamiyatda shakllangan va o‘rnatilgan qabul qilinadigan xatti-harakatlarning o‘lchovidir.

Ijtimoiy-pedagogik faoliyat nogiron bolaning rivojlanishini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash tizimi sifatida - bu hayotiy salohiyati cheklangan bolalarning ta’lim va ijtimoiy muammolarini hal qilish uchun tuzatish va kompensatsiya yo‘nalishidagi ijtimoiy muassasalarning ko‘p qirrali, ijtimoiy ahamiyatga ega va pedagogik yo‘naltirilgan ma’lum bir mikrojamiyat faoliyati. Bu faoliyatning tizim sifatida rivojlanishi tashkiliy va mazmunli amalga oshirish mexanizmlariga yangi yondashuvlarga, ya’ni, ijtimoiy siyosat asoslanadi.

XX asr oxiri ijtimoiy-pedagogik ongning o‘zgarishida – “foydalilik madaniyati”dan “qadr-qimmat madaniyati” (A.G. Asmolov), darajasidan qat’i nazar, har qanday inson shaxsining jamiyat uchun so‘zsiz qadriyatini tan olishgacha bo‘lgan o‘zgarishlarni qayd etdi. Jamiyat tuzilmasida shaxsning ijtimoiy mavqeini ko‘rib chiqishda protsessual yondashuv shaxsiy yondashuv bilan almashtirildi. Bu sohadagi eng muhim yutuq - bu etishmovchilik (aqliy, jismoniy, intellektual) sharoitida rivojlanayotgan shaxsga bo‘lgan munosabatning o‘zgarishi. Ilgari nogironlarni ijtimoiy ta’minlash, ta’lim berish va sog’lig'i va mehnat qobiliyatini o‘rgatishning butun tizimi uchun asos bo‘lgan nogironning jamiyat uchun ijtimoiy foydaliligi g‘oyasi hozirgi vaqtda nogironlik g‘oyasiga aylantirilmoqda. O‘z manfaatlari va ehtiyojlarini ro‘yobga chiqarishda hamma bilan teng huquqlarga ega bo‘lgan shaxsning qadr-qimmati va o‘zini o‘zi qadrlashi.

Rivojlanishda nuqsoni bo‧lgan shaxslarga, ularning fuqarolik huquqlariga nisbatan yangi munosabat falsafasini shakllantirish muammosi ilmiy bilimlarning turli sohalari chorrahasida joylashgan. Biroq, har tomonlama ijtimoiy yordam va "maxsus" bolaning erkin rivojlanishini ta'lim orqali qo‘llab-quvvatlash nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishda integratsiya qiluvchi rol pedagogika sohasidagi ilmiy bilimlarga, to‘g‘rirog‘i, integrativ kombinatsiyaga tegishli ikkita ilmiy-pedagogik soha - ijtimoiy va maxsus pedagogika. Umumiy xususiyatga ega bo‘lgan fandagi integratsiya jarayonlari uslubiy tamoyillar, ijtimoiylashtirish va ijtimoiy moslashish jarayonlariga yagona psixologik-pedagogik yondashuvlar, o‘xshash pedagogik texnologiyalar va tadqiqot usullari ijtimoiy va pedagogik amaliyotni eng samarali qurish uchun ancha katta imkoniyatlarni ochib beradi.

“Maxsus” bolaning erkin rivojlanishini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ijtimoiy-pedagogik tadbirlarni tashkil etish bolaning insoniyatning madaniy va tarixiy tajribasini meros qilib olish huquqlarini tiklashdir. Ijtimoiy tajribani yosh avlod (har qanday bola) tomonidan meros qilib olish faqat ta'lim va ta'lim sohasida amalga oshiriladi. Insoniyat madaniyatida, har bir jamiyatda bolalarni oilaviy sharoitda ham, maxsus tashkil etilgan ta’lim muassasalarida ham o‘qitish, tarbiyalash va ijtimoiylashtirishning an'analari va ilmiy asoslangan yondashuvlarini o‘z ichiga olgan maxsus yaratilgan ta'lim maydoni mavjud. Bular har bir shaxs uchun individual dunyoni ifodalovchi va uning sotsializatsiyasi natijasiga hal qiluvchi ta'sir ko‘rsatadigan eksklyuziv ijtimoiy makonni tashkil etuvchi ijtimoiy institutlar deb ataladi.

Rivojlanishdagi og‘ishlar (intellekt, nutq, hissiy, vosita, aqliy sohalarning buzilishi) insonning muloqot qilish qobiliyatining cheklanishiga va natijada sotsializatsiya jarayonida muhim muammolarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Rivojlanayotgan shaxs jamiyat, madaniyat bilan rivojlanish manbai sifatida aloqani buzadigan ushbu ijtimoiy-madaniy shartli makondan "chiqib ketish" bilan tahdid qilinadi (L.S. Vigotskiy). Shuning uchun rivojlanish buzilishlari sharoitida ijtimoiy-pedagogik faoliyatni tashkil etish o‘ziga xos tuzatuvchi-kompensator xususiyatga ega bo‘lib, kuchli adaptiv omil hisoblanadi. Ijtimoiylashuv jarayonida rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bolaning alohida ehtiyojlari "aylanma yo'llar" yordamida ta'lim maydonini qurish orqali ijtimoiy-pedagogik faoliyatni tashkil etish mexanizmlarini belgilaydi. (L. S. Vigotskiy).

2023-yil 30-aprelda referendum asosida qabul qilingan va 1-maydan kuchga kirgan yangi Konstitutsiyamiz 6 bo‘lim, 27-bob, 155 ta moddadan iborat bo‘lib, 50-modda 7-jumlasida “Ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiya ta’minlanadi”, - shuningdek, 57-moddasida ham nogironligi bo‘lgan shaxslarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalar obyektlari va xizmatlaridan to‘laqonli foydalanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, ularning ishga joylashishiga, ta’lim olishiga ko‘maklash, ularga zarur bo‘lgan axborotni to‘sqinliksiz olish imkoniyatini ta’minlash haqida batafsil mulohazalar ta’kidlandi.

Alohida ta’lim va tarbiyaga muhtoj shaxlarni ijtimoiy himoyalashda 1989-yil 20-noyabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 44/25-sessiyasida qabul qilgan va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 9-dekabrdagi 757-XII-sonli qarori bilan ratifikatsiya qilingan “Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya”ning 2, 23, 28, 29—moddalarida “…ishtirokchi-davlatlar … hech qanday kamsitishlarsiz, bolaning sog‘lig‘i va tug‘ilishi, uning ota-onasi yoki qonuniy vasiysi yoki birorbir boshqa holatlardan qat’iy nazar, hurmat qiladilar hamda shu huquqlarni ta’minlab beradilar; aqliy va jismoniy jihatdan yaxshi rivojlanmagan bola o‘zining qadr-qimmatini ta’minlaydigan, o‘ziga ishonch tug‘diradigan va uning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini yengillashtiradigan sharoitlarda to‘laqonli hamda munosib tarzda yashashi lozimligini e’tirof etadilar; bolalarning maktabga muntazam borishlariga ko‘maklashish hamda maktabni tashlab ketadigan o‘quvchilar sonining kamayishi uchun chora-tadbirlar ko‘radilar”, - degan burch va majburiyatlar aks etgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilash bo‘yicha: inklyuziv ta’lim tizimi joriy etilgan umumta’lim muassasalarida yosh o‘qituvchilarni, ularning xizmat mavqeyi o‘sishini hisobga olgan holda, kasbiy qo‘llab-quvvatlash va hamkorlikda ishlash mexanizmini takomillashtirish; alohida ta’lim

ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga inklyuziv ta’lim-tarbiya berishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash yuzasidan pedagog xodimlar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qaroriga 1-ilova 2020-2025-yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish Konsepsiyasining 3-bobi 6-bandida a) inklyuziv ta’lim tizimi uchun pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarorining 1-ilovasi 7-bobida 44-bandida o‘quvchilarning majmuaviy tekshirilishini, psixologik-tibbiy-pedagogik konsilium faoliyatini tashkil etish haqidagi fikr qayd etilgan. Ushbu faoliyat turi mohiyati va fuknsiyasiga kengroq tushuncha berish – ishni to‘g‘ri tashkil etishimizda sifat jihatidan muhim omildir, chunki, ruhiy muhofaza qilish ishlarining eng muhim samaradorli yo‘nalishlaridan biri psixo-pedagogik konsiliumdir. Olimlarning fikricha, maktab o‘quvchisining hayotini o‘rganish darajasini yaxshilash uchun, faqat yozma xarakteristikalar yozishga berilib ketmay, balki asosiy e’tiborni jamoadagi muhokamalarga, o‘quvchi haqida o‘qituvchilarning fikrini bilishga hamda eng muhimi jamoa bilan hamkorlikda o‘qituvchiga yoki butun sinfga individualyondoshish yo‘l-yo‘riqlarini ishlab chiqishga qaratishi lozimdir. Yuqorida keltirilgan bunday jamoa muhokama odatda pedagogik konsilium deb ta’riflanadi. Konsilium (lot. consilium — kengash) degan ma’noni anglatadi. Pedagogik konsilium - ekspert baholash usulining bir turi; muayyan dastur vaumumiy asoslar bo‘yicha o‘quv natijalarini jamoaviy muhokama qilishni, shaxsningayrim tomonlarini jamoaviy baholashni, shaxsiy xususiyatlarning muayyan xususiyatlarini shakllantirish jarayonida yuzaga kelgan og‘ishlarning sabablarini aniqlashni o‘z ichiga oladi.

Konsilium - bu psixologik xizmatning ish uslublaridan biri, o‘quv-tarbiya ishlarida ishtirok etadigan shaxslarning pedagogik tashxisni shakllantirish va o‘quvchiga pedagogik ta’sir choralari to‘g‘risida jamoaviy qaror ishlab chiqish ostida **kengash** biz bolani kuzatib borish uchun u yoki bu strategiyani amalga oshiradigan, umumiy maqsadlar bilan birlashtirilgan doimiy ishlaydigan, muvofiqlashtirilgan mutaxassislar guruhini tushunamiz. Bunday jamoada zarur: maktab direktori buyrug‘i asosida quyidagi tarkibdan iborat bo‘lgan Kengash tuziladi: o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari (Kengash raisi); ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari (Kengash raisi o‘rinbosari); inklyuziv ta’lim sinfi va boshlang‘ich tayanch korreksion sinf o‘qituvchilari; psixolog; maxsus pedagog; tyutor; vrach-pediatr, (psixonevrolog), tibbiyot hamshirasi. Shuningdek, sinflarda dars mashg‘ulotlarining o‘z vaqtida olib borilishi, o‘quv dasturlarining bajarilishi yuzasidan nazoratni maktab direktori va uning o‘quv-tarbiya ishlari bo‘yicha o‘rinbosari amalga oshirilishi; maktabda mavjud bo‘lmagan mutaxassislar shartnoma asosida Kengash ishiga jalb qilinishi mumkin; o‘quvchilarning ota-onalari yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar yig‘ilishlarda ishtirok etishlari mumkin; kengash o‘quvchilarning o‘zlashtirishi, o‘quv dasturlarini bajarishi, sog‘lig‘i hamda psixologik holati bo‘yicha o‘quv yilining har choragida kamida bir marotaba yig‘ilish o‘tkazadi; Kengash o‘quvchilarning o‘zlashtirishi, o‘quv dasturlarini bajarishi, sog‘lig‘i hamda psixologik holatidan kelib chiqib o‘quvchini inklyuziv ta’lim sinfi yoki boshlang‘ich korreksion sinfning o‘quvchilar safidan chiqarish yuzasidan psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyaga taklif kiritadi kabi 43-48-bandlarning ham mazmun-mohiyatiga muvofiq talablar ham mazkur bob yuzasidan hamohang ravishda tarkiban urg‘ulanib, tahliliy tushunchalar bilan malakalaniladi.

Pedagogik kengash - pedagogikjamoa o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning tashkiliy shakli bo‘lib, uning doirasida o‘quvchini psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlashni ishlab chiqish va rejalashtirish, muayyan talabalar guruhlari va o‘qitish va tarbiya jarayonida parallellik amalga oshiriladi. Kengashning vazifalari: maktab o‘quvchilarining xulq-atvori va ta’limidagi og‘ishlarning mohiyati va sabablarini aniqlash; deviant rivojlanishni to'g'rilash maqsadida o‘quv tadbirlari dasturlarini ishlab chiqish; murakkab yoki ziddiyatli vaziyatlarni hal qilishda konsultatsiyalar. Pedagogik konsilium jarayonida psixologning vazifasi o‘quvchining aqliy taraqqiyoti darajasini baholashda har tomondan yondoshish zarurligini, uningxatti-harakatlarini namoyon qilishi murakkab ekanligini, undagi motvatsiyalar, o‘z-o‘zini baholash xususiyatlarining qay holatda ekanligini ochib berish va eng muhimi o‘quvchining hayotiga bundan keyingi rivojlanishni ta’minlaydigan taxminlar (gipoteza) asosida yaratilgan dastur bilan yondoshish zarurligini his qilishga yordam berishdir.

Pedagogik konsiliumning yana bir muhim tomoni shundaki, o‘quvchi shaxsigasubyektiv yondoshuv (faqat o‘z “men”i orqali)dan qutilish imkonini beradi. Har bir o‘qituvchini ko‘rilayotgan muammoning mohiyatini chuqurtushunishiga erishish lozim. Bunda, eng avvalo, o‘quvchiga nisbatan bo‘lgan ustanovkalarni o‘zgartirishga, o‘quvchi shaxsiga o‘zgacha ko‘z bilan qarashga, uni anglashga doir ko‘nikma va malakalarni hosil qilishga erishish. O‘quvchi shaxsini hurmat qilishga, faqat baho nuqtai nazaridan unga munosabatimizni tashkil qilmasdan, balki u bugungi kunda qanday bo‘lsa, shundayligicha qabul qilishga o‘rganishimiz zarurligini tushunib etishga imkon yaratadi. Bugun pedagogik jamoani o‘quvchilardagi mavjud muammolarning mohiyatini tushunishga, anglab etishga erishish natijaviy samaradorlikni yanada mustahkamlaydi. Shunday qilib, kasbiy ijtimoiy-pedagogik faoliyatning xususiyatlarini tahlil qilish, alohida t’lim-tarbiyaga ehtiyoji bor o‘quvchining muhim xususiyatlarini aniqlash quyidagi xulosalar chiqarishga imkon beradi: ijtimoiy-pedagogik faoliyat olib boriladigan soha va obyektlarning xilma-xilligi, uning obyektining noaniqligi ijtimoiy pedagog faoliyatining ko‘plab yo‘nalishlariga ega bo‘lishni talab qiladi; kasbiy ijtimoiy-pedagogik faoliyat yo‘nalishlarini rejalashtirish, amalga oshirish, uning natijalarini baholashda mutaxassis insonning ijtimoiy, jismoniy va ruhiy farovonligiga, uning rivojlanishiga va o‘ziga ta‘sir qiluvchi omillarning xilma-xilligi haqida juda aniq tasavvurga ega bo‘lishi kerak.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi. 2023-yil 1-may
2. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 1989-yil 20-noyabrda 44/25-sessiyasida qabul qilgan va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 9-dekabrdagi 757-XII-sonli qarori bilan ratifikatsiya qilingan “Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya”.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-conli Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrda PQ-4860-son Qarori.
5. “Ta’lim to‘g‘risida”gi 2020-yil 23-sentya Qonuni.
6. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-sonli qarori.
7. Bocharova V.G. Ijtimoiy-pedagogik faoliyat ilmiy kategoriya sifatida. M.: Nauka, 2002. 56 b.

8. Nikitin V. A. Ijtimoiy ish: nazariya va mutaxassislar tayyorlash muammolari: darslik. nafaqa. M .: Moskva psixologik va ijtimoiy instituti, 2002. 236 p.
9. Gurianova MP Qishloq maktabi va ijtimoiy pedagogika. Minsk: Amalfeya, 2000. 448 p.
10. Klushina N. P. Ijtimoiy ish bo'yicha mutaxassislarni kasbiy tayyorlashni nazariy va uslubiy qo'llab-quvvatlash: Dis. ... Doktor ped. Fanlar. Stavropol, 2002. 345 b.
11. www. t.me/inklyuziya

.

THE ROLE OF THE TEACHER IN THE ORGANIZATION OF THE SOCIO-CULTURAL ENVIRONMENT IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS

Mansur Begmatov

Independent researcher at the T.N. Kori Niyazi Research Institute of Pedagogical Sciences of Uzbekistan. e-mail:m.a.begmatov@gmail.com

https://doi.org/10.5281/zenodo.7927053

Abstract. *The article deals with the role of the teacher in the organization of the socio-cultural environment in secondary schools. Also, there are given steps of solutions.*

Keywords*: the socio-cultural environment, teacher, socialization, program.*

Culture is part of which we are and everything we do: we often come cross cultures without even realizing it. One of the most noticeable spaces where cultures intersect is schools. Today, due to the current social situation in the world, humanity has rarely begun to think and care about schools, as well as about culture. Although, educating students is the primary goal of the school, teachers may have different ways to achieve this goal.

465 people participated in the survey on social networks "Should culture be kept in mind in classrooms?" and 97% answered Yes!, 3% No. (April 17-20, 2023)

The socio-cultural environment at school is – a general environment that covers different aspects of the social and cultural life of students and teachers at school.

Pedagogical role in the organization of the socio-cultural environment in schools is to create conditions for the formation of a student's personality in a socio-cultural context, teaching the basics of cultural communication, respect for cultural heritage, cultural diversity, as well as stimulating the expansion of horizons and the development of creativity[1]. The teacher must:

- to meet the requirements of society, to show responsibility for the creation and preservation of such a socio-cultural environment that contributes to the formation and development of personal culture, the versatile development of schoolchildren;

- improve your knowledge and skills, update knowledge, methods and forms of education in accordance with the development of the social and cultural environment, master new principles of psychology and pedagogy;

- to organize the educational process in such a way that knowledge and understanding of the elements and norms of culture become an integral part of upbringing and education [2];

- to teach students the basics of cultural communication, respect for cultural heritage, cultural diversity, the formation of creative activity;

- to carry out additional activities aimed at developing the creativity of students and their skills in the field of culture;

- to work for the development of artistic taste, the formation of aesthetic needs and values.

Below are some of the ways, which a teacher can organize and maintain a socio-cultural environment at school:

1. Creating a cozy and safe atmosphere. The teacher should create an environment that is comfortable and diverse for all students, taking into account their opinions and needs. At the same time, the teacher must ensure the safety of all participants in the educational process [3];

2. Active involvement of students in cultural activities. The teacher should organize events that will be interesting and entertaining for students, for example, games, contests, exhibitions,

creative contests. It is also necessary to stimulate discussions on topics that are important for young people;

3. Organization of cultural programs for students. The teacher should create programs for students based on local culture, traditions and history. This may include familiarity with the culture of the peoples of the world, art, music, etc.;

4. Promoting an open dialogue. The teacher should create a relaxed atmosphere that will allow students to freely express their thoughts and opinions. A positive dialogue between the teacher and the students is a key factor in the development of the cultural and ethical environment in the school;

5. Creation of a cultural and educational program. As part of the educational program, the teacher should interact with students at cultural heritage sites, museums, galleries, theaters to stimulate interest in culture and art [4];

6. Creation of an established monitoring system. The teacher should conduct an annual approbation of the socio-cultural environment at school, evaluate the effectiveness of the educational process, form reports and future work programs [5];

Thus, the task of a teacher in organizing a socio—cultural environment at school is to support and develop the intellectual and cultural interests of students. In his work, the teacher should focus on the needs, interests and feelings of students in order to create the most comfortable conditions for their participation in the cultural life of the school.

REFERENCES

1. Sh. M. Mirziyoev “New Uzbekistan strategy”. - Tashkent.: Uzbekistan. 2021, 34-35 pp.;
2. Sh.R. Urakov Oliy ta’lim muassasalarida bo’lajak o’qituvchilarni tayyorlashning kompetent yondashuvga asoslangan pedagogik tizimini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori avtoreferati. –Samarkand.: SamSU. 2018, 11pp.;
3. R.G. Safarova, D.M. Malikova “Ixtisoslashgan maktablar va sinflarda ta'lim jarayonini tashkil etish imkoniyatlari” - Toshkent. 2022. 38-45 pp.;
4. B.S. Sayfullayev, V.K. Rustamov. “Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati”. -T.: “Fan va texnologiya”, 2016, 16-18 pp.;
5. N.A. Muslimov “Bo`lajak kasb ta’limi o`qituvchilarini kasbiy shakllantirish”. T.:2004, 29 pp.

O’QUVCHILARNING MATEMATIKADAN REFLEKSIV HARAKATLARNI RIVOJLANTIRISHDA MASALALARNING O’RNI

G’ofurova Diloromxon Sharif qizi
Fizika-matrematika fakulteti 4-kurs talabasi, Toshkent davlat pedagogika universiteti, O’zbekiston,Toshkent

https://doi.org/10.5281/zenodo.7927059

Annotatsiya. *Maqolada o‘quvchilarning refleksiv harakatlarini rivojlantirishda masalalarning zarurati va ulardan foydalanish imkoniyatlari izohlangan. Dars jarayonida mantiqiy masalalardan foydalanishning ba’zi yo’llari ko’rsatilgan.*

Kalit so’zlar: *O’qituvchi, o’quvchi, refleksiya, refleksiv harakatlar, mantiqiy masala.*

Boshlang’ich sinflarda va barcha yuqori sinf darsliklarida masalalar bor. Mavzular har xil bo’lsa ham, har bir mavzga oid masalalar albatta topiladi. Nega masalalardan bunchalik keng foydalaniladi? Chunki masalalar o’quvchilarning ko’pgina qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim o’rin tutadi, shu jumladan, refleksiv harakatlarini ham. Buning bir nechta sabablari bor:

1. Masalalar o’quvchilarda nafaqat matematik savodxonlikni, balki o’qish savodxonligini ham talab etadi. Chunki o’qish savodxonligi yaxshi bo’lmagan bola masalani bir marta emas ikki yoki uch marta o’qiganidan keyin tushunadi. Ba’zan esa bu ham kamlik qiladi. Ya’ni o’quvchi o’qigan narsasini anglay olmaydi. Bu esa masalaning yechimi kechiktiradi. Demak, masalalar yechishni o’rgatish uchun, avvalo, o’quvchining o’qish savodxonligiga oid refleksiv harakatlari rivojlantiriladi.

2. Ko’pgina masalalar hayotiy muammolar va holatlardan olinadi. Shu sababli ular hayotiy tajribalari va kechinmalaridan masalani yechishda foydalanishlari mumkin. Masalan, masala yechishda qiynaladigan o’quvchiga savdo haqidagi masala berilganida, unda ajoyib o’zgarish kuzatilgan, ya’ni u savdo haqidagi masalani yechishda umuman qiyinchilikka uchramagan. Chunki u hayotiy tajribasiga refleksiv tarzda tayangan.

3. Bir turdagi masalalar o’rgatilganda, bir yoki ikkita masaladan so’ng, shu turdagi uchunchi masalani o’quvchi o’zi qiziqib tezda refleksiv tarzda ishlaydi va o’ziga bo’lgan ishonchi va fanga bo’lgan qiziqishi ortadi.

4. Darslarda turli xildagi, o’tiladigan mavzuga oid mantiqiy masalalardan foydalanish o’quvchilardagi cheksiz qiziqishni, refleksiv harakatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Chunki ular fikrlab, mantiqan yechiladi. Shu sababli o’quvchidan ma’lum bir matematik bilimni talab etmaydi. Ular nostandart bo’lganligi sababli, o’quvchidan har bir savolga alohida yondashuvni talab etadi va bu o’quvchi refleksiv tarzda o’z bilimlarini bog’lashni o’rganadi. Mantiqiy masalalarni yechish bunday foydalar keltirishining isboti sifatida mantiqiy masalalar yechish bosqichlarini keltirish mumkin:

1. Topshiriq matnini tahlil qilish;
2. Predmet sohasining asosiy munosabatlarini grafik shaklda modellashtirish;
3. Muammoning yechimini topish modelini qurish;
4. Model bilan ishlash, uni o’zgartirish;
5. Muayyan sharoitlarda modelni real harakatlarga o’tkazish;
6. Topilgan yechimni tahlil qilish;

Mantiiqy masalalardan foydalanayotganda uning turlarini bilish ham muhim. Chunki uning turlarini bilish orqali uning ichidan mavzuga oidini tanlash mumkin. Ilmiy adabiyotlarda mantiqiy masalalarning quyidagi turlari keltirilgan:

1. To’plamlarni tartibga solish bo’yicha masalalar:

Masala. Yugurish musobaqasida 3ta qiz ishtirok etib, Aziza Odinadan tezroq, lekin Sevaradan sekinroq harakatlangan bo'lsa, ishtirokchi qizlar qaysi tartibda marraga yetib kelgan?

2. Noto’g’ri variantlarni yo’q qilishga oid masalalar:

Masala. Uzunlikka sakrash musobaqasida Davron,Yusuf va Olimlar ishtirok etdi. Agar Davron Olimdan uzoqroqqa, lekin Yusufdan yaqinroqqa sakragan bo'lsa, eng uzoqqa kim sakragan?

3. Ob’yektlarni manipulatsiya qilishga oid masalalar:

Masala. 8 litrli idishda to'la sut bo'lib, 3 litrli va 5 litrli idishlar yordamida sutni qanday qilib teng ikkiga bo’ling.

4. Bayonotlarning haqiqati va yolg’onligini aniqlashga oid masalalar:

Masala. 21 ta tanga ichida bittasi qalbaki. Pallali tarozi yozdamida uch marta tortish bilan shu qalbaki tanga qolgan tangalardan yengil yoki og'ir ekanligini aniqlash mumkinmi? Javobimgizni asoslang.

5. Ma’lum bir xususiyatga ega bo’lgan elementlarning sonini aniqlash uchun vazifalar:

Masala. Maktabning boshlang' ich sinf o'quvchilari soni 428ta. Ularning ichidan xech bo'lmaganda 2 ta o' quvchining tug' ilgan kuni bir kunda ekanligini ko'rsating.

Maktab darsligidagi ixtiyoriy mavzuda o’quvchilarga masala ishlatib borish natijasida o’quvchi shu mavzuni yaxshiroq tushunadi va bu mavzuda olgan bilimlaridan hayotida, ishida refleksiv tarzda foydalana oladi va fanga bo’lgan qiziqishi ortadi. Bundan tashqari dars jarayonida o’quvchilarning yoshiga va o’tiladigan mavzuga mos mantiqiy masalalardan foydalanish ham o’quvchilarning refleksiv harakatlarini rivojlantirishda muhim o’rin tutadi. Quyida sinflar kesimida foydalanish mumkin bo’lgan mantiqiy masalalarga namunalar keltiriladi:

1. 5-sinflar uchun namunaviy masalalar:

- Olma massasi olxo`ri massasidan og`ir, ammo anor massasidan yengil. Mevalardan qaysi birining massasi eng yengil?
- Yugurish musobaqasida 3ta qiz ishtirok etib, Aziza Odinadan tezroq, lekin Sevaradan sekinroq harakatlangan bo`lsa, ishtirokchi qizlar qaysi tartibda marraga yetib kelgan?
- Karim, Nodir va Botirlar pirog yeyishmoqchi. Piroglar uch xil: olmali, limonli va olchali. Botir olchali pirogni yoqtirmaydi hamda limonli pirogni yemaydi. Karim limonli pirogni yoqtirmaydi. Kim qanday pirog yeydi?
- Hovlida tovuqlar va qo`ylar sayr qilib yuribdi. Ularning barchasini boshlari soni 8 ta, oyoqlari soni 26 ta bo`lsa, nechta tovuqlar va nechta qo`ylar hovlida sayr qilib yuribdi.

2. 6-sinflar uchun namunaviy masalalar:

- Stakan,piyola va kosaga sut, choy va kofe quyilgan. Agar piyolaga kofe quyilgani yolg`on bo`lsa, kosaga esa kofe ham, choy ham quyilgani yolg`on bo`lsa, qaysi idishga nima quyilgan?
- Ikkita bola qayiqda sayr qilmoqda. Qirg`oqqa bir necha askarlar kelishdi. Qayiq shunday kichikki, unga faqat ikkita bola yoki bitta askar sig`adi. Askarlar bu qayiqda qarama – qarshi qirg`oqqa o`ta oladilarmi?
- 12 litrli idishda to`la sut bo`lib, 8 litrli va 5 litrli bo`sh idishlar yordamida 6 litr sutni qanday quyib olish mumkin?
- Sinfda 30 ta o`quvchi bor. Matematikadan yozma ishda Anvar 12 ta xatoga, qolgan o`quvchilarda esa undan ko`p emas xatoga yo`l qo`yishdi. Sinfdagi o`quvchilardan xech

bo`lmaganda 3 tasi teng(bir xil) xatoga yo`l qo`yganligini ko`rsating.

- Qutida 80 ta: qizil, ko`k va zangori rangdagi flomasterlar bor. Qutiga qaramasdan undan kamida nechta flomaster olingandan so`ng, ular orasida kamida 10 ta bir xil rangdagi flomaster bo`ladi?
- 2004·2005·2006+6 sonining 2007 ga bo’linishini isbotlang.

3. 7-sinflar uchun namunaviy masalalar:

- Har bir keyingi raqami oldingisidan bittaga ortiq bo`lgan nechta uch xonali son yozish mumkin.
- Seyf 5,2 va 7 raqamlaridan tuzilgan kod yordamida ochiladi. Seyfning kodi 500 dan katta bo`lgan toq son bo`lib, beshga karralidir. Bu qaysi son bo`ladi?
- 4 ta yog`och hodaning har birini 5 bo`lakka bo`lish kerak. Agar har bir kesish uchun 2 min. vaqt sarflansa bu ishni bajarish uchun qancha vaqt kerak bo`ladi?
- Ona somsa pishirgandan so`ng 1 ta somsani yeb, qolgan somsalarning yarmini buvisiga olib borish uchun qiziga berdi. Qizcha yo`lda ketayotib 2 ta somsani yeb, qolgan somsalarning uchdan bir qismini yo`lda o`rtog`ini ko`rib qolib unga berdi. Qizaloq buvisiga 8 dona somsa olib borgan bo`lsa, onasi hammasi bo`lib nechta somsa pishirgan?
- To’la kvadratni 4 ga, 5 ga, 7 ga bo’lganda qanday qoldiq qolishi mumkin?

4. 8-sinflar uchun namunaviy masalalar:

- 3 ta daraxtda 36 ta qush bor edi. Birinchi daraxtdan ikkinchi daraxtga 6 ta qush, ikkinchisidan esa uchinchisiga 4 ta qush uchib o`tgandan so`ng, uchala daraxtdagi qushlar soni teng bo`ldi. Dastlab daraxtlarning har birida qushalar soni nechta bo`lgan?
- Raqs to`garagiga 25 ta o`g`il bola va 19 ta qiz bolalar qatnashadi. Har haftada to`garakka 2 ta o`g`il bola, va 3 ta qiz bola kelib qo`shilishadi. Necha haftadan so`ng qiz bolalar va o`g`il bolalar soni teng bo`ladi?
- Turli toq raqamlar bilan yoziladigan nechta ikki xonali sonlar mavjud?
- 81 ta tangadan bittasi qalbaki – u boshqalaridan og`irroq. Toshlari yo`q pallali tarozida 4 marta tortishda uni aniqlash mumkinmi?
- Shkafda bir xil kattalikda va bir xil bichimda 5 juft sariq rangli botinkalar va 5 juft to`q rangli botinkalar aralash yotibdi. Shkafga qaramasdan kamida nechta botinka olingandan so`ng, ular orasida chap va o`ng oyoqqa bir xil rangdagi bir juft botinka olingan bo`ladi?
- Sarvar 5 ta natural son o’yladi va ularni kvadratga oshirdi. Anvar bu kvadratlar orasida ayirmasi 9 ga bo’linadigan ikkita son bor dedi. U haqmi?

5. 9-sinflar uchun namunaviy masalalar:

- Umumiy o`rta ta’lim maktabida 30 ta sinf bo`lib, unga yaqin “ Kengash” mahallasida maktabning 34 ta o`quvchisi yashaydi. Bu o`quvchilar ichidan hech bo`lmaganda ikkitasi albatta sinfdosh ekanligini tasdiqlash mumkinmi?
- Sinfda 25 ta o`quvchi bor. Ularning ichidan tug`ilgan kuni bir oyda bo`lgan 3 ta o`quvchi topiladi deb tasdiqlash mumkinmi?
- O`qituvchi Barno Xamidovna, Ra’no Dolimovna, Zaxro Karimovnalar uchta turli fandan(matematika, biologiya va kimyo) Andijon, Namangan va Farg`ona shaharlaridagi maktablarda dars beradilar.

Agar quyidagilar ma’lum bo`lsa:

1) Barno Hamidovna Andijonda, Ra’no Dolimovna Farg`onada ishlamaydi;

2) Andijonlik o`qituvchi matematika fanidan dars beradi;
3) Farg`onada yashovchi o`qituvchi kimyo fanidan dars beradi;
4) Ra’no Dolimovna va Zahro Karimovnalar biologiya fanidan dars bermaydi, ularning har biri qaysi shaharda va qanday fandan dars berishini aniqlang?

- Sport klubida massalari 1 kg, 2 kg, ..., 100 kg bo’lgan 100 ta tosh bor. Toshlarni, hech bir jamoadagi toshlarning umumiy massasi boshqasida toshlarning umumiy massasini ikki baravariga teng bo’lmaydigan qilib, tarqatish mumkin bo’lishi uchun kamida nechta jamoa kerak bo’ladi.
- 25 ta butun sonning ko’paytmasi 1 ga teng. Bu sonlar yig’indisining eng kichik qiymatini toping.
- Zilola 96 varaqli daftar sotib oldi va uning xamma betlarini 1 dan 192 gacha bo’lgan sonlar bilan nomerlab chiqdi. Xilola bu daftarning qandaydir ketmaket kelgan 50 betini yirtib oldi va betlarga yozilgan 50 ta sonning yig’indisini hisobladi. Hilola yig’indida 2008 hosil qila olmasligini isbotlang.

Demak, dars jarayonida masalalardan,xususan mantiqiy masalalardan foydalanish o’qituvchilar uchun juda qulay va o’quvchilarning refleksiv harakatlarini rivojlantirishda keng imkoniyatlar beradi. Faqat bunda foydalaniladigan mantiqiy masalalar ularning yoshiga va o’tiladigan mavzuga mos bo’lishi zarur.

REFERENCES

1. Alixonov S. “Matematika O’qitish metodikasi”. Universitetlarning matematika fakulteti bakalavr yo’nalishidagi talabalar uchun darslik-T.: “O’qituvchi”, 2008 y. 206 b.
2. A. Qo’chqorov, Ismoilov Sh. Fizika- matematika fanlar doktori, professor A.A’zamov umumiy tahriri ostida. “Mantiqiy masalalar”. O’quv qo’llanma-T.:2008 y. 40 bet.
3. Constanta Olteanu “Reflection-for-action and choice or design of examples in the teaching mathematics” maqola. “Mathematics education research journal” 29, 349-367 (2017).
4. Mamadjonova Ma’muraxon Kadirjanovna“Mantiqiy, kambinatorik va nostandart masalalar”. O’quv qo’llanma. T.: “Innovatsion-ziyo”, 2020. 100 b.

UMUMTA’LIM MAKTABLARIDAGI MADANIY MUHIT VOSITASIDA O‘QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Masharipova Nasiba Ro’zmatovna
Qori-Niyoziy nomidagi O’zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti doktoranti

https://doi.org/10.5281/zenodo.7927090

Annotasiya. *Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida madaniy muhitni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari, yo’nalishlari, ta’limiy-madaniy muhit vositasida o’quvchilarda tanqidiy fikrlash ko’nikmalarini shakllantirishga oid ma’lumotlar berilgan. Shunindek milliy qahramonlar faoliyatida mavjud bo’lgan madaniy-tarbiyaviy qarashlardan o’quvchilarni madaniy-ta’limiy muhitga olib kirishdagi ahamiyati haqida tahliliy fikrlar va millи qahramonlar faoliyati bilan bog’liq madaniy faoliyatni tashkil etish uchun tavsiyalar berilgan.*

Kalit so’zlar: *umum ta’lim maktablari, o’quvchilar, madaniy muhit, madaniy-ta’limiy yo’nalishlar, tanqidiy fikrlash, milliy qahramonlar, hikmatlar.*

O‘quvchilarda tanqiydiy fikrlash ko‘nikmalari shakllantirishda umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi madaniy muhit alohida ahamiyat kasb etadi. Ta’lim va tarbiya jarayoning asosiy funksiyalaridan biri o‘quvchilarning ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqara olishga yo‘naltirilganligidir. Mazkur maqsadni amalga oshirishda o‘quvchilarni madaniy, axloqiy, ma’naviy olamini rivojlantirish asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Pedagogika ensiklopediyasida tanqidiy fikrlashga quyidagicha izoh berilgan: **TANQIDIY FIKRLASH –** inson aqliy faoliyatining turlarini o‘zida mujassamlashtirgan ob’ektiv fikrlash tarzini ifodalovchi tushuncha. Tanqidiy fikrlash – g‘oya va imkoniyatlarni ijodkorlik bilan uyg‘unlashuvi, konsepsiya va axborotlarni qayta fikrlash va qayta qurishdek murakkab jarayondir. Tanqidiy fikrlashda g‘oyalar va ularning ahamiyati ko‘pfikrlilik nuqtai-nazaridan ko‘rib chiqiladi hamda ular boshqa g‘oyalar bilan taqqoslanadi. Bu fikrlashning eng yuqori darajasi aqliy faoliyat bo‘lib, unda tahlil, taqqoslash, izohlash, qo‘llash, tortishuv, yangilik, muammolarni hal qilish yoki fikrlash jarayonini baholashga alohida e’tibor beriladi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida madaniy muhitni rivojlantirishning bir nechta yo‘nalishlari mavjud:

- o‘quvchilar va o‘qituvchilar jamoasida hamda ota-onalar bilan bo‘lgan munosabatda o‘zaro hurmatga asoslangan muomala madaniyatini shakllantirish;
- ta’lim-tarbiya jarayoniga nisbatan mas’uliyatli bo‘lish madaniyatini shakllantirish;
- sinf va sinfdan tashqari ma’naviy, ma’rifiy, ilmiy, ommaviy tadbirlarni tashkil etish va unda ishtirok etish madaniyatini shakllantirish;
- o‘quvchilar va o‘qituvchilar jamoasida o‘zini tutish, yurish, turish, gigiena va salomatlik qoidalariga rioya qilishi madaniyatini shakllantirish;
- o‘quvchilar va o‘qituvchilar jamoasida o‘z hatti-harakatlarini tahlil qilish, maktabda, sinfda, oilada, jamiyatda bo‘layotgan voqealarga o‘z fikrini, tanqidiy tahlilini bayon etish madaniyatini shakllantirish kabilardan tarkib topadi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablaridan madaniy-ta’limiy muhitning shakllantirilishida pedagoglar va o‘quvchilar birgalikda turli madaniy tashabbuslarni amalga oshirishlari nazarda tutiladi. Yuqorida ta’kidlangan o‘quvchilar va o‘qituvchilar jamoasida o‘z hatti-harakatlarini tahlil qilish, maktabda, sinfda, oilada, jamiyatda bo‘layotgan voqealarga o‘z fikrini, tanqidiy tahlilini

bayon etish madaniyatini shakllantirish yo‘nalishining amalga oshirilishi natijasida o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari rivojlanadi.

Tanqidiy fikr yurita oladigan o’quvchilarda o’z fikrini, munosabatini, qarashlarini bayon etish madaniyati shakllantirish ham muhim hisoblanadi. Muayyan munosabatning bildirilishida uning taqdim qilinish uslubi qanchalik madaniyatlil tarzda, kommunikativ yondashuvga tayangan holda ifoda etilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shunu alohida ta’kidlash kerakki, tanqidiy fikrlash aniq ma’lumotlarga, bilimlarga, tajribalarga asoslanadi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi turli ta’limiy-madaniy muhit o‘quvchilarda yangi madaniy bilimlar va ko‘nikmalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadi. Umum ta’lim maktablarida ma’naviy-madaniy muhitni rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan milliy qahramonlar faoliyatini targ‘ib etishga qaratilgan turli ma’rifiy tadbirlar, badiiy kechalar, tanlov va musobaqalar o‘quvchilarda milliy qahramonlar faoliyatini o‘rganishga, ular qilgan bunyodkorlik, ma’rifatparvarlik ishlaridan xabardor bo‘lishga va tahlil qilishga ko‘maklashadi. Masalan To‘maris, Shiroq, Sug‘diyona, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Zahiriddin Muhammad Bobur, Pahlavon Mahmud, Najmiddin Kubro kabi milliy qahramonlarning Vatani va xalqi faravonligi yo‘lidagi bunyodkorlik ishlari, o‘zlarining va xalqining ilmini oshirishga oid faoliyatlari, pedagogik qarashlari, ilgai surgan g‘oyalari, hikmatlari dars va darsdan tashqari jarayonlarda madaniy muhitni rivojlantirish vositasi sifatida foydalanilsa maqsadga muvofiqdir.

Ajdodlarimiz tanqidiy fikrlashni amalga oshirish borasida har bir shaxs o‘zi va atrofdagilarga baho berish, ularni o‘zi bilan qiyoslash, yaxshi yoki aksi ekanligini tahlil qila olish layoqatiga ega bo‘lishi lozimligini ta’kidlab o‘tganlar. Atrofdagilarning o‘zidan ustun qobiliyati va jihatlarini yoki kamchiliklarini ko‘rganida bu holatlarni to‘g‘ri va munosib, pozitiv qarashga asoslangan tarzda tahlil qilish va baholay olishni tanqidiy fikrlash ekanligiin o‘quvchilarga ta’limiy-madaniy muhit vositasida tushuntirib borish samarali hisoblanadi. Bunday ta’limiy-tarbiyaviy rivojlantirishga yo‘naltirilgan madaniy muhit o‘quvchilarni o‘z o‘zini rivojlantirshga undaydi.

Ajdodlarimizda milliy g‘ururning shakllanishi xalqiga, Vataniga sadoqatli bo‘lish tuyg‘usi bilan chambarchas holda rivojlangan. Bunday muqaddas tuyg‘u, burch, mas’uliyat hissiga ega bo‘lish natijasida milliy qahramonlarimiz o‘zlarida faxru iftixor tuyib bunyodkorlik, ilm olish va ilm berish, hunar o‘rganish va o‘rgatish natijasida qalb osoyishtaliliga erishish qatorida o‘z faoliyatining ommalashishiga erishganlar. Milliy qahramonlar o‘z faoliyati, qarashlari va g‘oyalarini shogirdlari va izdoshlariga singdirishda, anglatish uchun dastavval ularda insoniy va e’tiqodiy tuyg‘ularni shakllantirishga alohida ahamiyat berganlar. Ularga o‘z faoliyatlaridan amaliy namunalar ko‘rsatib, o‘z g‘oyalarini haqqoniy ekanligini tahlil qilib berganlar. Milliy qahramonlardan biri buyuk alloma Najmiddin Kubro va uning izdoshlari bo‘lgan Jaloliddin Menguberdi, Pahlavon Mahmudning jasoratli hayoti va faoliyati yuqoridagi fikrlarimizni asoslaydi. Najmiddin Kubro:

Dunyo va oxirat yaxshiligini qanoatda, yomonligini ta’mada ko‘rdim.

Dunyo va oxirat yaxshiligini Rasulullоh alyhissalomning sunnatlariga ergashishda ko‘rdim;

Yurmoq uchun Haq yo‘liga yetmoq shart,

Boshqasidan ko‘zni yumib ketmoq shart.

Elga shifo baxsh etu, och ko‘zlarni,

Olamda hama ul, Unga nazar etmoq kerak;

Ko‘rdimki, vaqtni “essiz”, “qaniydi”, “koshkiy”lar bilan o‘tkazgan kishining umri eng qisqa ekan.

Ko‘rdimki, eng noyob ne’mat rostgo‘ylik va mardlik, eng og‘ir balo munofiq do‘stlar ekan!;

Ajdodlarimiz Vatanni eng muqaddas qadamjo, millatni esa dini, iymon ko‘zgusi sifatida ulug‘laganlar. Buyuk ajdodlarmizga xos bo‘lgan oliyjanob xislatlardan biri o‘z e’tiqodini, milliy mansubliklarini chuqur anglaganliklari hisoblanadi. Najmiddin Kubro har qanday ziddiyatlarni tahlil, xulosa, fikrlash, tushunish, o‘zaro hurmat, muhabbat, munozara, muhokama yo‘li bilan bartaraf etishga erisha olgan va o‘zining hikmatlarida yoshlarni ma’naviy-axloqiy, tahliy fikrlashga oid qarashlarini tarbiyalashning ibratli usullarini targ‘ib qilgan.

Har bir qahramon hayotidagi qahramonliklardan namunalar jamlangan “Milliy qahramonlarning jasorati va insonparvarligi” nomli ma’rifiy tadbirni tashki etish uchun quyidagi voqealarni o‘quvchilarga taqdim qilishni tavsiya qilamiz:

Amir Temur faoliyatidan: “Amir Temur tashkil etgan kutubxonalar”, “Amir Temur yaratgan bog‘lar”, “Amir Temurning uqtirganlari”;

Jaloliddin Manguberdi faoliyatidan: “Vatan ozodligi har nedan ulug‘”, “Tog‘dan daryoga sakragan shunqor”;

Najmiddin Kubro faoliyatidan: “Ojizlarga ko‘maklashing”, “Vatan tug‘ini balan ko‘taring”;

Pahlavon Mahmud faoliyatidan: “Hindistondagi kurash – insoniylik g‘alabasi”, “Kuchsilarga, ojizlarga, kichiklarga hamisha yordam bering” kabilar.

Yuqorida tavsiya qilingan hikoyalar milliy qahramonlarning bunyodkorlik, insonparvarli, vatanparvarlik, ilmga intilish, insonlarga yordamlashishi kabi faoliyatlarini o‘zida mujassamlashitiradi. O‘quvchilar bunday ta’limiy-madaniy tadbirlar natijasida milliy qahramonlarning qarashlari, ilgari surgan g‘oyalari, o‘gitlari, tariqatlari, shug‘ullangan asosiy ish faoliyati, hayotiy saboqlari, boshidan kechirgan ibratli voqealari va ulardan chiqargan xulosalari bilan tanishadilar va tahlil qiladilar. Tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarining shakllanishi natijasida milliy qahramonlar faoliyatidan ibrat oladilar, o‘z maqsadlarini va g‘oyalarini ilgari suradilar, o‘z nuqtai nazarlarini bildirishga, o‘z hatti-harakatlarini baholashga intiladilar.

Bunday ta’limiy-madaniy muhitda o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash jarayonini yanada mustahkamlash uchun samarali pedagogik usullar, metodlar va texnalogiyalarni qo‘llash talab etiladi. Shunga ko‘ra o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonini quyidagi pedagogik usullari vositasida amalga oshirsh samarali hisoblanadi:

- ritorik savol
- savol-javob
- munozara
- debat
- diskussiya
- ijodiy ishlar
- yozma ishlar
- guruhli yoki jamoaviy o‘yinlar.

Yuqoridagi usullarni qo’llash natijasida o’quvchilarda o‘z maqsadini, intilishlarini aniqlash, munosabatini bildirish, o’z g’oyalarini ilgari surishiga asoslangan tanqidiy fikrlash

jarayoni mustahkamlanadi. O‘quvchilardagi burch, mas’uliyat, majburiyatga sodiqlik kabi tushunchalar ulardagi tanqidiy fikrlashning asosini tashkil etadi. Tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini shakllanishi natijasida o’quvchilarda o‘z ichki olamini, o’z xohish-istaklarini, o’z munosabatini anglash va aniqlab olish imkoniyati vujudga keladi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-fevraldagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonnning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022-2026 yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risidagi”gi PF-134-sonli Farmoni.
3. Pedagogika: ensiklopediya. II jild / tuzuvchilar: jamoa.//Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2015. – 376 b.
4. Pedagogika. Ensiklopediya. III jild. jamoa // Toshkent: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 400 b.
5. Paul R. Critical thinking: what every person needs to survive in a Rapidly Changing World/ Sonoma State Uni. 1990
6. Masharipova N.R. O‘quvchilarda ma’naviy sifatlarni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari. Science and Innovation International scientific journal Volume 1 issue 6. Uif. 2022: 8.2 Issn: 2181- 3337.P.62-66. https://doi.org/10.5281/zenodo.7105342
7. Shakirova D.M “Формирование критического мышления учащихся и студентов: модел и технология”. Educational Technology Society 9(4)2006/ ISSN 1436-4522/ 2006
8. F.F.Mankina. Критическое мышление учащихся и педагогические способы его формирования. Диссертатсия на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. Казан – 2000.

UMUMIY O’RTA TA’LIM TIZIMIDA PSIXOLOGIK XIZMAT FAOLIYATINING KONSEPTUAL TADQIQI

Teshaboyev Inomjon Adxamjonovich
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti
inomjon1282@gmail.com
+998996091282

https://doi.org/10.5281/zenodo.7927101

Annotatsiya. *Tezisda ta’lim tizimidagi psixologik xizmatning fenomen sifatidagi mohiyati tilga olingan. Shuningdek, O‘zbekiston respublikasi umumiy o’rta ta’lim tizimda faoliyat ko‘rsatayotgan maktab amaliyotchi psixologlarida o‘tkazilgan aniqlovchi tadqiqot natijalari o‘rganilib, tahlil natijalariga suyangan holda ta’lim tizimidagi psixologik xizmat faoliyatidagi muammolar tasniflangan. Mazkur muammolarning spetsifikasiga asoslangan holda psixologik xizmatning konseptual, ilmiy, tashkiliy, moddiy va metodik jihatlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *psixologik xizmat, fenomen, zarurat, psixologik xizmat konsepsiyasi, psixologik xizmatning boshqaruv modeli, so‘rovnoma, respondent, monitoring.*

Ta’lim tizimidagi psixologik xizmatning asosiy prinsipi gumanizm g‘oyasiga asoslangan. Ta’lim tizimidagi psixologik xizmatning mavjud vaziyati tahlil qilinganida, psixologik xizmatning asosiy maqsadi maktab o‘quvchilarining psixik va psixologik salomatligini saqlash degan xulosaga kelingan[3].

Bunga qo‘shimcha sifatida aytishimiz mumkinki, bu xizmatning asosiy maqsadlari sirasiga o‘sib kelayotgan shaxsning jismoniy va ruhiy salomatligini ta’minlash, shaxs sifatida rivojlanishiga xizmat qilish va ta’lim-tarbiyaning bola rivojlanishiga ijobiy ta’sirini kuchaytirish hisoblanadi.

O‘zbekiston xalq ta’limi tizimida psixologik xizmat tizim sifatida shakllangan. Biroq, bugungi shakllangan tizim sifati qay darajada? Bu tizim o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalarni sifatli bajara olyaptimi? Tizimni ham shakl, ham mazmun jihatdan rivojlantirish uchun ehtiyoj mavjudmi? Agar shunday ehtiyoj mavjud bo‘lsa, u nimalardan iborat? O‘zbekiston xalq ta’limi tizimida psixologik xizmatni zamonaviy darajaga ko‘tarish va yuqori sifatli xizmatni taklif eta olish uchun qanday o‘zgarishlarga qo‘l urishimiz mumkin? Ilmiy tadqiqotimiz davomida mazkur savollarga javob topish uchun harakat qilyapmiz.

Mazkur ish doirasida O‘zbekiston Respublikasi umumiy o‘rta ta’lim maktablari amaliyotchi psixologlari o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazildi. 18 ta savoldan tashkil topgan, savollarning 11 tasi yopiq va 7 tasi ochiq variantlardan iborat bo‘lgan mazkur so‘rovnoma aniqlovchi xarakterga ega bo‘lib, Respublikaning jami 3 ta mintaqasini qamrab oldi (Farg‘ona, Andijon viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi). Mazkur uchta mintaqaning har biridan 50 nafardan jami 150 nafar maktab amaliyotchi psixologlarida tadqiqot o‘tkazildi. Mazkur so‘rovnoma natijalarini miqdor va sifat jihatdan tahlil qilish natijasida bir qancha muammolar aniqlandi.

So‘rovnomada respondentlardan ularning faoliyatiga salbiy ta’sir qilayotgan muammolar nima ekanligiga aniqlik kiritadigan savollar kiritilgan edi. Ushbu savollarga berilgan javoblar natijasida ma’lum muammolar turkumi shakllandi.

Bular:

- oylik maoshning kamligi;
- psixologlar uchun moddiy sharoit va vositalarning yetarli emasligi (psixolog xonasi, kompyuter, printer, kanselyariya jihozlari);
- byurokratik ishlar, rasm va jadvallarning juda ko‘pligi;
- psixologik xizmatda ustoz-shogird tizimi yo‘lga qo‘yilmaganligi;
- maktab psixologlarining xizmat vazifalaridan boshqa ishlarga jalb etish holatlarining ko‘pligi;
- garchi psixologik xizmatning psixologik kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom ishlab chiqilib tasdiqlanganligiga qaramay psixologlarga toifa berilishining kechikishi[4];
- psixologik tashxis metodikalarining ko‘pligidan vaqt yetishmasligi;
- psixolog faoliyatini maktab o‘qituvchilari tushunmasligi, mutaxassis sifatida tan olmasligi va ota-onalarga noto‘g‘ri ma’lumot berishlari;
- psixolog maslahatlarini ota-onalar noto‘g‘ri tushunishlari;
- maktab psixologning o‘quvchilar bilan ishlashi uchun real vaqtning yo‘qligi;
- maktab rahbarlarining (direktor va direktor o‘rinbosarlari) psixologik xizmat faoliyatini yaxshi tushunmasligi;
- maktab o‘quvchilarning oliy ta’limga kiritish muammosi;
- mutaxassis sifatida bilim va ko‘nikmaning pastligi;
- psixolog faoliyatining tashkiliy ishlardan iborat bo‘lib qolayotganligi;
- maktabda shaxslararo munosabatlarning adekvat emasligi.

Albatta, yuqorida tilga olingan ayrim muammolar yuzasidan bahslashish mumkin, lekin tadqiqotning obyektivlik tamoyiliga putur yetkazmagan holda respondentlar qanday javob bergan bo‘lsalar shundayligicha taqdim qilindi.

Yuqorida tilga olingan so‘rovnoma va uning natijalarini tahlil qilib ma’lum xulosalarni bayon qilamiz.

Nazarimizda, O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimidagi psixologik xizmatning konseptual, ilmiy, tashkiliy, moddiy va metodik jihatdan muammolari mavjud.

Mazkur muammolarni hal qilish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish kerak.

Konseptual jihatdan:

- O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimidagi psixologik xizmat faoliyatini rivojlantirishning 10 yillik rivojlanish konsepsiyasi ishlab chiqilishi kerak;

Ilmiy jihatdan:

- O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimidagi psixologik xizmat faoliyatini ilmiy jihatdan tadqiq qiluvchi, mahalliy muammolarni doimiy aniqlab, rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimidagi psixologik xizmat faoliyati yutuqlarini modifikatsiya qiluvchi va amaliy psixologiya instrumentlarini mahalliy sharoitdagi validliligini ta’minlab beruvchi ilmiy-tadqiqot markazi (think tank) tashkil etilishi kerak.

Tashkiliy jihatdan:

- O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimidagi psixologik xizmat modeli ishlab chiqilishi zarur;

Moddiy jihatdan:

-maktab psixologlari moddiy sharoit va vositalar (psixolog xonasi, kompyuter, printer, kanselyariya jihozlari) bilan ta’minlash dasturi qabul qilinishi zarur;

Metodik jihatdan:

- psixologik xizmat faoliyati uchun “Psixolog kitobi” ishlab chiqilishi kerak;
- psixodiagnostik metodikalarni ishlab chiqilishi yoki modifikatsiya qilish uchun ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi tashkil etilishi zarur.
- Psixologik xizmatning psixologik ma’rifat va tashviqot hamda psixologik maslahat maslahat yo‘nalishlarida aniq amaliy instrumentlarga asoslangan metodik qo‘llanmalar ishlab chiqilishi lozim;

REFERENCES

1. Дубровина И. В. Психологическая служба образования: научные основания, цели и средства //Психологическая наука и образование. – 1998. – Т. 3. – №. 2.
2. Jimerson S. R., Oakland T. D., Farrell P. T. (ed.). The handbook of international school psychology. – Sage, 2007.
3. Fagan T. K., Wise P. S. School psychology: Past, present, and future. – NASP Publications, 4340 East West Highway, Suite 402, Bethesda, MD 20814 2000.
4. https://lex-uz.translate.goog/ru/docs/4417140.

UMUMIY O’RTA TA’LIM MAKTABLARIDA IJTIMOIY -MA’DANIY MUHITNI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Xakimova Sarvinoz Sharifjon qizi
FarDU pedagogika -psixologiya talabasi
sarvinozhakimova 122@gmail.com

https://doi.org/10.5281/zenodo.7927121

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O’zbekiston umumiy o’rta ta’lim maktablarida ijtimoiy – madaniy muhitni tashkil etishda ijtimoiy pedagogikaning ko’magi hamda o’qituvchi shaxsining pedagogik imkomiyatlari haqida fikr mulohazalar bayon etilgan.*

Kalit so’zlar*: maktab, ijtimoiy pedagogika, islom talimoti, madaniy muhit, mentalitet, o’qituvchi, qomusiy olimlarning fikrlari va o’quvchilar.*

Umumiy o’rta ta’lim maktablarida o’quvchilarni har tomonlama yetuk, barkamol etib tarbiyalash pedagogik jarayonning asosiy tarkibiy qismidir. O’quvchilarga o’z qobiliyatlarini namoyon qilishga imkon berish ijodiy potensialini rivojlantirish hamda ularda kreativlik ko’nikmalarini shakllantirish uchun maktablarda madaniy muhitni tashkil etish lozim. Bugun ma’naviyat naqadar kerakligini, xalqimiz kechagi xalq emasligini, yangicha ishlashni, yaxshi bo‘lish uchun hamma o‘zgarishi zarurligini ko‘rsatmoqda. Zero, moddiyat va ma’naviyatni teng ko‘rilishi faqat shiorimizda emas, balki ongimizga hamda qalbimizga mustahkam o‘rnashishiga erishish zarurdir. Zamonaviy ta’lim-tarbiya konsepsiyasida madaniyatni ommalashtirish muammosi alohida o‘rin tutadi. Umumiy o’rta ta’lim maktab o’quvchilarining shaxs sifatida ijobiy fazilatlarining rivojlanishi uning yuksak tarbiyasi, milliy madaniyatni o’zlashtirish darajasi bilan bog’liq. Shaxsning hayotda ma’lum bir tarzda harakat qilishi, fikrlashi his qilish, idrok qilishi xullas madaniy va ma’naviy jamiyatga kirib borishi madaniylashuv demakdir. Shu o’rinda K.D.Ushiniskiy: “ Har bir mamlakatda bolalarning tarbiyalash tizimi, xalqning rivojlanish sharoitlari, uning ehtiyoj va talablari bilan belgilangandir”-deb aytgan edi u. Albatta bolalarning ongida ijtimoiy madaniy muhitni kamol toptirishda nafaqat pedagog balki oila, mahalla milliy qadriyatlar hamda islom talimotining o’rni beqiyos.

Maktab- o’qituvchi rahbarligida yosh avlodga ma’lumot, bilim beradigan va tarbiyaviy ishlar olib boradigan o’quv muassasasidir. Maktabda bolani katta hayotga tayyorlanadi. Maktab hayoti har bir bola hayotida yetakchi o’rindadir.Bu maskanda bola ulg’ayadi, kamol topadi va komil inson bo’lib voyaga yetadi. Bugungi kunda asosiy e’tibor maktab va maktabgacha ta’lim muassasalariga qaratilyapti. Chunki bola asosiy bilimni shu maskanlardan oladi va o’z hayot yo’lini tanlaydi.

O’quvchi yoshlarning hayotida ijtimoiy-madaniy muhitni shakllantirish bugungi kunning eng dolzarb integratsiyalashgan muammosi bo’lib,falsafa, sotsiologiya, madaniyatshunoslik,psixologoya, pedagogika va ijtimoiy madaniy faoliyatning muammoli sohalari chorraxasida joylashgan.Vigotskiyning fikricha:” Eng samarali ta’lim: ijtimoiy- madaniy jihatdan uyushgan,rivojlanish jarayonining universal va zaruriy tomonidir” deya ta’kidlaydi.Shu nazariyaga tayangan holda o’quvchining kognitiv o’sishiga erishish uchun maktablarda ijtimoiy-madaniy muhitni tashkil etish naqadar zarur ko’rsatkich ekanligi shubhasizdir.Masalan: yosh bolada xotira biologic omillar bialn cheklanadi.Biroq, madaniyat biz ishlab chiqadigan xotira strategiyasining turini belgilaydi.Umumiy o’rta ta’lim o’quvchilari qiziquvchan va o’zlarining ta’lim olishlarida va yangi tushuncha shakllarini kashf etishlarida hamda bu fikrlarni

rivojlantirishda faol ishtirok etadilar.Shu o’rinda ta’kidlash lozimki, bolaning har tomonlama yetuk va o’z mustaqil fikriga ega bo’lishi uchun maktablarda ijtimoiy muhitning roli beqiyosdir.Ijtimoiy-madaniy muhitning bolalarga bo’lgan o’zaro ta’siri:

- Mustaqil fikrga ega bo’lish
- O’zini erkin xis qilish
- Kreativlik
- Dunyoqarashning o’zgarishi
- Individuallik
- Faollik

Shu o’rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning: ta’lim-tarbiya -bu bizning kelajagimiz, hayot-momot masalasi. Shu bois,bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo’q. Qanchalik murakkab bo’lmasin,maktab ta’limida poydevorni bugundan mustahkam qo;yish kerak. Chunki biz ko’p vaqt yo’qotganmiz.Agar kimda kim maktab bu faqat Xalq ta’limi vazirligining ishi, deb o’ylasa mutlaqo yanglishadi.Maktab vazirliklar, idoralar, tarmoq rahbarlari, barcha ilmiy tashkilotlar va keng jamoatchilikning vazifasi bo’lishi shart va zarur. Shundagina kutilgan natijaga erishish mumkin-dedi davlatimiz rahbari maktab ta’limini rivojlantirish masalalari yuzasidan o’tkazilgan videoselektor yig’ilishida. Haqiqatdan ham bu fikrlarga e’tibor qaratadigan bo’lsak,bolani yoshligidan tarbiyalash kerak. Unga erkin fikr bildira olishi uchun zamin yaratish juda muhim sanaladi.Shuning uchun ham maktabda ta’lim olayotgan bolaning ilk qadam qo’ygan kunidan boshlab mustaqil fikrlashga o’rgatisg zarur. Shaxs mustaqil fikrga ega bo’lgandagina jamiyatda ijtimoiy faol fuqaro va barkamol shaxs bo’lib voyaga yetadi.O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3- iyundagi 345-sonli qaror tahririda: umumiy o’rta ta’limning vazifalari quyidagicha etib belgilandi:

- O’quvchilar tomonidan muntazam bilim olishni ta’minlash;
- Ularda bilim olish ehtiyojini rivojlantirish
- Bazaviy o’quv
- Ijtimoiyva umummadaniy muhitni tahshkil etish
- Umumbashariy qadriyatlarga hurmat bilan qarash

Kabi vazifalar belgilab qo’yildi. Bugungi kunda ta’lim tarbiya jarayonida o’qitishning zamonaviy va inovatsion pedagogik uslublari hamda axborot- komunikatsiya texnologiyalari orqali maktablarda ham ta’lim sifati oshirilmoqda. Hayotimizning ta’lim sohalaridagi amalga oshirilayotgan keng ko’lamli islohotlar va yaratilayotgan pedagogik imkoniyatlarning samaradorligi o’quvchi yoshlar tafakkurining o’zgarishi va yetuk kadr bo’lib yetishishiga xizmat qilmoqda.

REFERENCES

1. Nodira Egamberdiyeva: “Ijtimoiy Pedagogika”Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti Toshkent-2009.
2. M.U.Xamidova. Maxsus Pedagogika, o’quv qo’llanma-Toshkent “NIF MISH”2020.
3. M.A.To’xtaxo’jaeva: “Pedagogika’’
4. R.Mavlonova,N.Vohidova,N.Rahmonqulova:”Pedagogika nazariyasi va tarixi”.
5. J.Yuldashev, S.Hasanov: “Pedagogik texnalogiya”-Toshkent “Iqtisod -Moliya”.2009.

УМУМТАЪЛИМ МАКТАБИ ЎҚУВЧИЛАРИДА МУТОЛАА МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ИЖТИМОИЙ ПЕДАГОГИК ЖИҲАТЛАРИ

Ўролов Дониёр Омонович
Мактаб ва мактабгача таълим вазирлиги ҳузуридаги Республика болалар кутубхонаси директори
+998994998868

https://doi.org/10.5281/zenodo.7927130

Аннотация. *Ушбу мақолада ўқувчиларни китобга қизиқтириш масаласининг долзарблиги, китобхонлик маданиятини шакллантиришнинг айрим масалалари ҳамда мутолаа ва маданият уйғунлиги ҳақида сўз боради.*

Калит сўзлар: *китобхонлик, маънавият, маданият, мутолаа, ахборот, таълим, ижодкорлик, тарбия, ахлоқий тамойиллар, умуминсоний қадриятлар,тафаккур, маърифат.*

Бугунги мафкуравий-ғоявий тўқнашувлар дунё аҳлини таҳликага солаётган, турфа ахборот хуружлари онги ва тафаккурига таҳдид қилаётган бир пайтда аҳолида китобхонлик иштиёқини уйғотиш ҳар қачонгидан ҳам долзарб тус олди. Бу эса ўсиб келаётган ёш авлодни маънан етук, жисмонан соғлом этиб тарбиялаш омили саналган китоб мутолаасига қизиқтиришга қаратилган замонавий ёндашувларни тақозо этмоқда. Бинобарин, Президентимиз Ш.Мирзиёевнинг таъкидлашича, дунёдаги ҳар қандай халқ ёки давлатнинг куч-қудрати, аввало, унинг интеллектуал салоҳияти ва маънавияти билан белгиланади. Юрбошимиз бундай қудрат сабабини инсоният авл-идроки томонидан кашф этилган китоб ва кутубхоналарнинг яратилишида деб билади [1].

Юртбошимизнинг бу фикрлари замирида, албатта, таълимнинг замон талаблари асосида ривожланиши билан боғлиқ фундаментал ўзгаришлар ва янгича ёндашувларни қўллаш масаласи туради. Шунинг учун китоблардан фойдаланишнинг самарали йўллари ва имкониятларини топиш таълим олувчиларда бадиий асар мазмунини ўзлаштириш, муаллиф фикрига асосланиб ўз қарашларини шакллантириш, ўзлаштирилган материалларни интеграция қилишга ўргатиш, ўқув ва ҳаётий фаолиятида ахборотлардан фойдаланиш компетентлилигини ошириш, энг муҳими, ахлоқий-эстетик тарбиялашга хизмат қилиши лозим.

Қадимги Грек файласуфи Суқрот таълим берувчига хос хусусиятлар ҳақида тўхталар экан, бу борада унинг ижодкорлиги алоҳида ўрин тутишини таъкидлайди. Хусусан, ўқувчиларга билимларни тайёр ҳолда бериш эмас, балки ҳақиқатга интилиш ва мустақил фикрлашни шакллантирган ўқитувчигина ижодкор эканлигига урғу қаратади[2]. Бундан мутафаккир таълимотида мутолаа билан боғлиқ маънавий камолот тарбияси мужассамлигини сезиш қийин эмас.

Сўнгги пайтларда ахборот технологияларининг жадал ривожланганлигини ҳисобга олиб, ёшлар ўртасида китобга бўлган муносабат бирмунча пасайганлигини кўришимиз мумкин. Ҳукуматимиз томонидан китобхонликка берилаётган эътибор сабаб бугунги авлод яна китоб мутолаасига қайтмоқда. Шундай бўлса ҳам болаларда ёшликдан китобга онгли муносабатни тарбиялаш, китоб ўқишга ундовчи янги усулларни ўрганиш ва қўллаш, шунингдек, оилада, маҳаллаларда ва таълим муассасаларида кутубхонлар ташкил этиш масаласи долзарб масала саналади.

Илмий изланишимиз мавзусининг айнан глобаллашган ахборотлар шароитида болалар адабиётига оид дидактик ресурсларни шакллантириш бўлганлиги сабаби ҳам мамлакатимизда ёш авлоднинг маънавий камолотига эътибор ҳамда 5 та муҳим ташаббуснинг амалдаги ижросини кўрсатишга имкон беради. Бу, ўз навбатида, таълим-тарбиядан кўзда тутилган ёшларнинг ахлоқий тарбияси, эстетик дидини юксалтириш, яратувчанлик ва ташаббускорлик сифатларини ривожлантириш мақсадига хизмат қилади.

Аҳамият қилинса, умумий ўрта таълим тизимининг давлат таълим стандартида ёшларнинг чуқур билими ва касбий етуклиги билан жамиятда ўз ўрнини ва мавқеини мустаҳкамлай оладиган рақобатбардош, глобал ахборот оқимларида мустақил ҳаракатлана биладиган; атрофидагилар билан эркин ва конструктив мулоқот ўрната оладиган, ўзаро муносабатларда шахсий нуқтаи назарини мустақил ифодалай оладиган шахс сифатида тарбиялаш масаласи назарда тутилган. Бу сифатларга мутолаа жараёнининг ўзига хос жиҳатларини ўзлаштириш, ўқиш ва китобхонлик кўникмаларини шакллантириш орқалигина эга бўлиш мумкин.

Фалсафий ва педагогик маданият маънавий маданиятнинг узвий бўлаги саналган тушунчалар бўлиб, ўқиш мезонлари ва бадиий адабиётга қизиқиш ва билим эгллаш йўлидаги интилишларни ўз ичига олади. Бу эса умумий маънода ахборот олиш маданиятининг таркибига киради.

Мутолаа фаолиятнинг ушбу барча турларига сингиб кетганлиги борасида мулоҳаза қилиш мумкин. Мактаб ўқувчилари мутолаасининг биз белгилаган муаммосини кўриб чиқиш нуқтаи назаридан ёндашилса, маданият категорияси инсон ҳаётининг барча соҳаларида намоён бўлувчи фундаментал хусусият сифатида тушунилади. Бу борада профессор Э.И.Йўлдошевнинг ўқиш маданияти тушунчасига берган таърифи ўринлидир. Олимнинг таъкидлашича, ўқиш маданияти дастлаб библиографиялар билан ишлаш, излаган маълумотларини топа билиш, китоб билан батафсил танишиш, ундан унумли фойдаланиш, барча турдаги адабиётлар билан ишлаш кўникма ва малакаларини шакллантириш, энг муҳими эстетик завқланиш ҳиссларини тарбиялайди[3].

Инсон мавжудлигининг уч асоси бор. Биринчиси, инсон бутун жамият аъзоси, иккинчидан, у маълум бир ижтимоий гуруҳ аъзоси, учинчидан, инсон шахс сифатида камолга етади. Ушбу босқичнинг ҳар бири инсоннинг шахс сифатида шаклланишида муҳим ўрин эгаллаб, унинг маънавий-ахлоқий ривожланишини белгилайди. Бундан ташқари, шахснинг маънавий-ахлоқий шаклланиш жараёни муайян ижтимоий гуруҳ, умуман, жамият томонидан яратилган ижтимоий шарт-шароитлар билан белгиланади. Маънавий-ахлоқий ривожланган шахс, ахлоқий тамойиллар, умуминсоний қадриятлар ҳамда ўзи яшаётган жамиятнинг умуммеьёрларини бирлаштиради.

Китобхонлик тарбиясида мутолаани талаб қилиш ёки зўрма-зўракилик сингдириш йўли билан эмас, балки ўқувчилардан ўз эҳтиёж ва қизиқишлари доирасида масалага онгли, ихтиёрий ва тизимли ёндашиш орқали шакллантириш муҳим саналади. Таниқли методист олим С.Матжоновнинг ёзишича, китобхонлик жўн тушунча эмас, у истеъдодни талаб этади. Олим китоб ўқишни ўрганган болани китобхон деб атамаган ҳолда ўқиганларини эслаб қайта ҳикоя қиладиган ўқувчини китобхонлик маданиятига эришган деб ҳисобламайди. Шунингдек, муаллиф тасвирлаган ҳаёт воқелигидан ташқари ундаги муҳим ва номуҳим жиҳатларни фарқлаб унга муносабат билдириш китобхонликнинг элементлари эканлиги қайд этилади[4].

Таъкидлаш жоизки, истеъдодли китобхонни тарбиялашда махсус билимлар ҳам тақозо этилади. Бу таркибга берилган мавзу асосида китобни тўғри танлай олишга доир тайёргарлик ишларини ҳам киритиш мумкин. Шу боис мутолаа боланинг ҳаётий эҳтиёжига айланади.

Профессор Р.Ниёзметова тўғри айтганидек, ўқувчиларда мутолаага эҳтиёжни уйғотишда уларга мутолаа қилинганлар юзасидан фикр юритиш, муаллиф томонидан қўйилган асосий муаммони англаб етиш, ҳаётда учрайдиган муаммоларга ечим топишни ўргатиш зарур. Бу эса, ҳақиқий мутолаанинг моҳиятини англашга замин яратади[5].

Бизнингча, китобхонлик маданиятнинг субъекти сифатида ўқитувчи ва ўқувчининг стратегик ҳамкорлиги муҳим саналади. Яъни ҳар иккала томоннинг ягона дастур ва режа, ижодий муносабатлардаги тизимли ҳаракати зарур жиҳатдир. Мутолаага йўллашни ривожлантириш – бу мутолаа соҳасида шахснинг энг яқиндаги ва истиқболдаги ривожланиши, ўз-ўзини ривожлантириши майдонини яратиш бўйича мақсадга йўналтирилган педагогик фаолиятдир[6]. Бола (ўсмир) ва катталар ўзаро ҳаракатининг маданий шакллари бундай фаолиятни амалга ошириш усулидир. Бундай ўзаро ҳаракатнинг натижаси шахс ривожланишининг умумий маданий майдонини яратиш бўлади.

Француаза Дольто болалар мутолаасига бағишланган китобининг бир бобини “инстиация” деб атаган. Дольтонинг фикрига кўра, боланинг саводсизликдан маданият томон ёрқин ҳамласи – иккинчи туғилишдир[7]. Мутолаа – маданиятга киришнинг муқаррар шарти. Ўсмирнинг вазифаси янги замон ва маконни яратиш ҳамда ўзлаштиришдир. Маданият ўсмир учун ўзини кўрсатиши ҳамда ўз “мен”ини намоён этиш учун уйғун муҳитга айланади. Унинг маданиятдаги фаолиятининг бош рағбати – тимсоллар ва қиёфалар тизимида ўзини, ўз маъноларини топишдир.

Бизнинг фикримизга кўра, китобхонлик маданияти бу – китоб ўқишга оид билим ва малакаларни эгаллаш орқали ўқишга нисбатан шаклланадиган муносабат. Ахборотлашув шароитида ўқувчиларнинг китобхонлик маданиятини ривожлантириш ўқишга рағбат уйғотиш, фаолиятга мотивация бериш ва креатив муҳитни юзага келтиришдир.

Хулоса қилганда, маданиятда турли маданий меъёрлар, турли қатламлар ва гуруҳларнинг қадрият ва манфаатлари, яъни турли кичик маданиятлар холис тарзда биргаликда мавжуд, улар бир-бирига қарши туриши ёки ўзаро ҳаракат қилиши мумкин. Булар ҳар бир инсоннинг ҳаёт фаолиятида бевосита намоён бўлади. Бу – инсоннинг ҳаёт тарзи, шахс учун яқин ва очиқ бўлган ижтимоий маданий макон бўлиб, шу орқали бутун оламни ўтмиш, бугунги кун ва келажак билан боғлайди.

REFERENCES

1. Мирзиёев Ш. Ҳар қайси давлат, ҳар қайси халқ интеллектуал салоҳияти, юксак маънавияти билан қудратлидир. https://uza.uz/oz/politics/shavkat-mirziyeev-ar-aysi-davlat-ar-aysi-khal-intellektual-s-20-02-2020
2. Назаров Қ. Ғарб фалсафаси. – Тошкент: Ўзбекистон Файласуфлари миллий жамияти, 2004. – 719-б.
3. Йўлдошев Э. Болалар китобхонлигини ўрганиш форма ва методлари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1986. – 58-б.

4. Matjon S. Bolalar adabiyotidan saboqlar. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Mahalla va Oila, 2022. – 224-b.
5. Ниёзметова Р.Х. Узлуксиз таълим тизимида ўзбек адабиётини ўрганиш методикаси. – Тошкент: Фан, 2007. – 173-б.
6. Аванесова Г.А. Взаимодействие культур // Культурология XX век. Словарь, СПб., 1997. – С. 97.
7. Дольто Ф. На стороне ребенка / Франсуаза Дольто. – СПб. – М., 1997. – С. 181.

УМУМИЙ ЎРТА ТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИ ИЖТИМОИЙ-МАДАНИЙ МУҲИТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ САМАРАДОРЛИГИ

Омонова Мухлиса Дўстназар қизи
Чирчиқ давлат педагогика университети эркин тадкикотчиси

https://doi.org/10.5281/zenodo.7927148

Аннотация. *Ижтимоий-маданий муҳит таълим - тарбия жараёнида ва умуман жамият ҳаётида турли вазиятлар ва муаммоларни ҳал қилишга қаратилган маданий-маърифий қадриятлар ва шахс хулқ-атворининг махсус ташкил этилган тизимидир.*

Мақолада умумий ўрта таълим мактабларида ижтимоий-маданий муҳитни ташкил этишнинг педагогик имкониятлари ва самарадорлиги масалалари кўриб чиқилган.

Калит сўзлар: *Муҳит, концепция, шахс, тажриба, меҳнат, мулоқот, кўникма.*

Ижтимоий-маданий муҳитни ташкил этишнинг долзарблиги ижтимоий, маданий, иқтисодий соҳаларда содир бўлаётган жадал ўзгаришлар жараёни ва бу билан боғлиқ замон талабларига жавоб берадиган таълим топшириқларини қайта кўриб чиқиш ва қайта белгилаш заруратидан иборат. Ҳозирги замон таълим тизими олдида турган вазифалар интеграциялаш салоҳиятини аниқлаш ва кейинги ривожланиш истиқболларини белгилаш мақсадида ижтимоий-маданий муҳитни таҳлил қилиш заруратини келтириб чиқаради.

Ижтимоий-маданий муҳит таълим - тарбия жараёнида ва умуман жамият ҳаётида турли вазиятлар ва муаммоларни ҳал қилишга қаратилган маданий-маърифий қадриятлар ва шахс хулқ-атворининг махсус ташкил этилган тизимидир. Ижтимоий-маданий муҳит ривожланаётган яхлитлик бўлиб, унинг таркибий элементлари таълим жараёни субъектлари томонидан гуманистик қадриятларни ўзлаштириш ва бошқаларга етказиш учун фойдаланилади [1].

Е.А.Кондратьеванинг тадқиқотларида қишлоқ мактаблари ижтимоий-маданий муҳити ўқувчининг шахсий ривожланиш муҳити сифатида ўрганилган [2]. Н.Б.Усатая болалар ва ёшлар учун қўшимча таълимнинг замонавий тизимини ижтимоий-маданий муҳит деб ҳисоблайди, унда “маданий меъёрлар ва қадриятлар авлоддан-авлодга ўтади” [3]. Бу соҳа, унинг фикрига кўра, “ижтимоий ва маданий ўзини ўзи англаш, ўз-ўзини ривожлантириш ва ўз-ўзини тарбиялашга олиб келадиган шахсий сифатлар, қобилиятлар, қизиқишларни шакллантириш муҳитидир” [3].

Тадқиқотчилар минтақанинг географик, миллий ва маданий хусусиятларини акс эттирувчи ижтимоий-маданий муҳити ҳақида ҳам сўз юритадилар: И.Я.Мурзина турли субъектларнинг ҳудуднинг ижтимоий-маданий салоҳиятини янгилаш учун шарт-шароитларни таъминловчи ва минтақавий ўзига хосликни шакллантиришга ҳисса қўшадиган интеграция моделини яратишга бир-бирига зид келишилмаган фаолиятидан ўтиш йўлларини аниқловчи минтақавий ижтимоий-маданий муҳитни ривожлантиришнинг яхлит концепциясини тақдим этган [4].

Ижтимоий-маданий муҳит ижтимоий – мослашган шахсни шакллантириш воситаси ҳисобланади: авлодларга тўпланган тажрибани узатишни таъминлайди, эстетик, маънавий - ахлоқий, меҳнат, жисмоний ривожланишни таъминлайди, шунингдек, уларнинг мулоқот кўникмалари ва муваффақиятли ижтимоий мослашув кўникмаларини ривожлантиради.

Умумий ўрта таълим мактабларида ижтимоий-маданий муҳитни ташкил этишнинг педагогик имкониятлари сифатида қуйидагиларни қайд этиш мумкин:

- **ўқувчилар** - таълим дастурлари таълим сифатига эришиш ва ҳаётнинг турли соҳаларида ва касбий фаолиятда муаммоларни мустақил ҳал этиш амалий кўникмаларини эгаллаш, рақобатбардош бўлиш учун амалий кўникмаларни эгаллашга қаратилади;

- **ота-оналар** - мактаб ўқувчиларининг максимал даражада ривожланиши учун шарт-шароитларни таъминлаш, уларнинг потенциал имкониятларига мувофиқ, келажак ҳаётидаги кейинги муваффақиятлари ва касбий мустақиллигини таъминлайди;

- **ўқитувчилар** - касбий компетентлик имкониятлари, таълим жараёнида ижодий ўзини ўзи англаш имкониятини таъминлайди;

- **муассаса –** мактабни ривожлантириш, уни таълим хизматлари бозорида рақобатбардошликни таъминлайдиган индивидуал таълим моделини яратади;

- **олий таълим муассасалари** - олий таълим дастурларини ўзлаштиришда юқори даражада тайёргарликка эга, интеллектуал ва маданий жиҳатдан ривожланган ёшларни тарбиялайди.

Мактабнинг ижтимоий-маданий муҳитини педагогик ҳодиса сифатида кўриб чиқиш “таълим ташкилотчилари, мансабдор шахслар, ўқитувчилар, ўқувчилар, ота-оналарнинг бошқарув фаолияти педагог ва ўқувчилар жамоаларини шакллантириш учун шарт-шароитларни яратиш, таълим-тарбия жараёнининг мазмунини танлаш ва турли хил воситалар, шакллар ва методлардан фойдаланишга тенг йўналтирилиши керак”лигини билдиради [5].

Ягона, яхлит тизим сифатида мақсадга мувофиқ шакллантирилган мактабнинг ижтимоий-маданий муҳити барча манфаатдор шахслар ва муассасалар ўртасида юқори даражадаги ўзаро ҳамкорликни назарда тутади. Маданият ва маърифат соҳаси субъектлари ўртасидаги ўзаро ҳамкорлик – “ҳамкорликда намоён бўладиган, долзарб муаммоларни ҳал қилишда мақсадларнинг бирлигига, ушбу субъектларнинг ички ва интеграциялашган ресурсларига асосланадиган, ахборот узатиш, ўзаро боғланган барқарор тузилмалар ва тизимларнинг пайдо бўлиши ва ривожланиши билан кузатиладиган, ижтимоий алоқаларни тавсифловчи ҳодиса ҳисобланади” [6].

Ўқувчи шахси атрофида мактабнинг ягона ижтимоий-маданий муҳитини шакллантириш унинг ижодий қобилиятларини максимал даражада ошириш ва унинг қизиқишлари, мойилликлари ва эҳтиёжларини ҳисобга олиш имконини беради. Мактабнинг ижтимоий-маданий муҳитини барпо этиш ва кенг жорий этиш умумий ўрта таълим муассасаларини бошқаришнинг маҳаллий амалиётини янги самарали воситалар билан бойитиш имконини беради.

REFERENCES

1. Юрьев, В. М. Университет как центр инновационно-образовательного кластера / В. М. Юрьев, М. С. Чванова, В. М. Передков // Вестник ТГУ. – 2007. - № 5 (49). – С. 7–12.
2. Кондратьева, Е. А. Культурно-образовательное пространство сельской школы как среда личностного развития школьника: дисс. … 13.00.01 / Е. А. Кондратьева // Общая педагогика, история педагогики и образования. - Ростов-на-Дону, 2005.

3. Усатая, Н. Б. Современная система дополнительного образования детей и молодежи как культурно-образовательное пространство / Н. Б. Усатая [Электронный ресурс].
4. Ничипуренко, И. М. Организационно-педагогические условия оптимизации культурно-образовательного пространства: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.05. - СПб., 1999. -168 с.
5. Махмудова, О. В. Школа как социально - педагогическая система: социальные функции и актуальные задачи / О.В. Махмудова // Открытый педагогический форум «Новая школа» [Электронный ресурс].
6. Мелекесов, Г. А. О формировании образовательного кластера / Г. А. Мелекесов // Университетский комплекс как региональный центр образования, науки и культуры. Материалы Всероссийской научно-методической конференции, 2014. - С. 3610-3613.

УМУМИЙ ЎРТА ТАЪЛИМ МАКТАБЛАРДАГИ ИЖТИМОИЙ МАДАНИЙ МУҲИТНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА ТЕХНОЛОГИЯ ТАЪЛИМИНИНГ ЎРНИ

Каримов Комилжон Абдурахимович
Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) доцент, Т.Н.Қори-Ниёзий номидаги Ўзбекистон педагогика фанлари илмий тадқиқот институти “Технология таълими назарияси ва методикаси” бўлими бошлиғи

https://doi.org/10.5281/zenodo.7927150

Аннотация. *Мазкур мақолада профессионал таълим тизими раҳбар ва педагог кадрларини масофадан малакасини оширишнинг педагогик асослари, ташкилий-методик шарт-шароитлари, масофадан малака ошириши самарали ташкил этишга салбий таъсир кўрсатаётган омиллар ва уларни бартараф этишкаби масалалар ёритилган.*

Калит сўзлар*:инновацион ёндашув, ахборот-таълим муҳити, интеграллашган, ахборот инфратузилмаси, тенденция, мультимедиа, “тармоқли” ўқитиш, мотивация, тьютор, индивидуал, интерфаол, аттестация.*

Мамлакатимизда янги профессионал таълим тизимини такомиллаштириш, таълим муассасаларининг моддий-техник базасини мустаҳкамлаш, уларни замонавий техник ҳамда ахборот воситалари билан жиҳозлаш, шунингдек, малакали педагоглар билан таъминлаш ва уларнинг малакасини ошириш масалаларигаалоҳида эътибор қаратилмоқда.

Таълим сифатини яхшилаш ва самарадорлигини таъминлашда моддий омиллар билан бир қаторда педагог кадрларнинг касбий тайёргарлик даражаси, салоҳияти ҳам муҳим аҳамиятга эга. Малака ошириш тизими педагог кадрлар меҳнати мазмуни ва характерига мувофиқ йўналтирилган ижтимоий талаблардаги муҳим силжишларга сезгирлик билан жавоб бера олиши, соҳани такомиллаштириш борасидаги ижтимоий талабларни тўла қондириш учун тизимга жаҳон таълимининг энг илғор ютуқларини фаол татбиқ этиш, ўқитувчи ва ўқувчилар ўртасидаги ўзаро ҳамкорликка асосланувчи ўқитиш методларидан кенг кўламда фойдаланиш ҳамда педагогларнинг касбий фаолиятларига нисбатан инновацион ёндашишга эришиш тақозо этилади.

Малака ошириш ва қайта тайёрлаш ҳар бир ходимнинг ўз мутахассислиги бўйича сўнгги фан ютуқлари, янгиликлари билан танишиш, уларни ўзлаштириш, янги амалий иш усуллари, илгор иш тажрибаларини ўрганишдан иборат илмий назарий ҳамда амалий тайёргарлик жараёни ҳисобланади.

Тадқиқот муаммосига оид илмий изланишлар ва манбалар таҳлили шуни кўрсатдики, профессионал таълим тизими раҳбар ва педагог кадрларини масофавий малакасини оширишни самарали ташкил этишга салбий таъсир кўрсатаётган қуйидаги омилларни қайд этиш мумкин:

- таълим тизимининг тезкор янгиланиши билан юз бераётган ўзгаришларга жавоб беришга етарлича тайёр бўлмаган амалдаги педагог кадрлар малакасини ошириш тизими ўртасидаги зиддият;

- ахборот-коммуникация технологиялари асосида педагог кадрлар малакасини оширишга хизмат қилувчи ахборот - методик таъминотнинг ишлаб чиқилмаганлиги;

- интеграллашган ахборот-таълим муҳитини яратиш ва замонавий ахборот-коммуникация технологиялари асосида педагог кадрлар малакасини ошириш жараёнларини такомиллаштиришнинг етарлича илмий асосланмаганлиги ҳамда педагогик

жиҳатдан тўлиқ тадқиқ қилинмаганлиги ечимини кутаётган бир қатор муаммолар манбаси бўлиб қолаётганлигини кўрсатади.

Бу борада юзага келаётган муаммоларнинг ечимини топишда, аввало малака ошириш жараёнларига замонавий технологияларни жорий қилишда зарурий ахборот инфратузилмасини яратиш талаб этилади.

Жаҳон таълим тизимида ўқитувчиларни инновацион фаолиятга тайёрлаш механизмларини замонавий ривожланиш тамойиллари асосида такомиллаштириш, креатив фикрловчи кадрларни тайёрлаш, тараққиёт тенденцияларига мос равишда педагогик инновацияларни жорий этиш ва унинг самарадорлигини баҳолаш асосида такомиллаштиришга қаратилган илмий тадқиқотларга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Хусусан, малака ошириш жараёнида ўқитувчиларни инновацион фаолиятга тайёрлаш жараёнини самарали ташкил қилишда инновацион таълим муҳити шароитида ўқув материалларини лойиҳалаш, компьютер технологиялари ва дастурларидан фойдаланиш, амалий машғулотларда мультимедиали электрон воситаларни қўллашга инновацион ёндашувлар билан боғлиқ илмий ишланмалар кўламини ошириш зарурати кўзга ташланмоқда. Бунда инновацион фаолият бўйича ўз фаолиятини таҳлил қилиш методикаси катта аҳамиятга эга.

Малака ошириш ва қайта тайёрлаш университетларда, малака ошириш институтларида ҳамда профессионал қайта тайёрлаш ҳуқуқига эга бўлган ўқув марказларида амалга оширилади. Мазкур жараён ишлаб чиқаришдан ажралган, қисман ажралган ва ажралмаган ҳолда бўлиши мумкин. Унинг шакли малака ошириш таълим муассасаси томонидан ўқув дастурининг мураккаблиги эътиборга олинган ҳолда ва буюртмачининг у билан тузилган шартномаси асосидаги эҳтиёжларига мувофиқ равишда белгиланади.

Малака ошириш ва қайта тайёрлаш муддати турлича бўлиб, ҳар бир ҳолда қўйилган мақсад ҳамда вазифаларга мувофиқ белгиланади. Малака ошириш ва қайта тайёрлаш таълим муассасаси ўқув жараёнини мақсадли ташкил этиш, таълим шакли, услублари, технологиясини қўллаш орқали тингловчиларга таълим дастурларини ўзлаштиришлари учун зарур шароитлар яратади. Мазкур дастурлар малака ошириш таълим муассасалари томонидан буюртмачи эҳтиёжларини, шунингдек, қўшимчакасб таълими дастурлари мазмуни олдига қўйилган давлат талабларини эътиборга олган ҳолда ишлаб чиқилади, тасдиқланади ва амалга оширилади.

Масофавий таълим тизимининг дидактик тамойиллари ушбу таълим шаклида ўқиётганларнинг психологик хусусиятлари ва таълимий эҳтиёжларини амалга оширади. Умумий дидактик тамойиллар сирасига қуйидагилар киради:

1. Масофавий таълим “тармоқли” ўқитиш шакли сифатида, таълим олувчилар учун махсус ўқув-методик ва аттестацион материалларни яратишни талаб қиладиган мустақил таълим фаолиятига асосланган;

2. Таълим олувчиларнинг таълимнинг мазмуни ва муддатларини танлашдаги мустақиллигини тан олиш, оралиқ ва якуний аттестацияга ва баҳолашга таълимнинг мақсади ва якуний натижаси сифатида эмас, балки мотивация ва ўз-ўзини назорат қилиш сифатидаги прагматик муносабатда бўлиш;

3. Таълим субъектларини мустақил таълим фаолиятига йўналтирувчи консультант (устоз, тьютор) нинг ролларини дидактик ўзаро ҳаракат (диалог) асосида ажратиш;

4. Таълимнинг вариативлигини янада юқорироқ даражасини таъминловчи ва тармоқли коммуникацияни енгиллаштирувчи модуллар асосида ташкил этилиши;

5. Таълим муддатларининг ўзгарувчанлиги ва уларга мос равишда таълим жараёнининг суръати;

6. Машғулотларнинг минимал даражада камайтирилиши, уларнинг мақсадга мувофиқлигини таъминлайдиган махсус шаклларини ишлаб чиқиш.

Телекоммуникация воситалари ва каналлари тьютор ва тингловчиларнинг ўқув-методик материалларни етказиш ва индивидуал маслаҳатлар бериш жараёнида, гуруҳнинг ўзаро ички ҳаракатларида мулоқот қилиш ва интерфаолликни таъминлаш воситаси сифатида фойдаланилади.

Тингловчининг ўз-ўзини ўқитиш фаолиятини таъминловчи ўқув-методик материаллар мажмуасига фақат жиҳозлар ёрдамидагина фойдаланиш мумкин бўлган, тингловчиларнинг кўпчилик қисми осонлик билан ишлата оладиган материалларгина киради.

Модел, умуман олганда, тингловчининг ўқиш жойида коммуникация воситалари мавжуд бўлмаган ҳолатлар учун мўлжалланган. Вақтинчалик ўқув жадвали ўзгариши мумкин ва ўқув муассасаси билан келишилади. Якуний аттестация тингловчи иштироки билан ёки унинг бевосита иштирокисиз ўтказилиши мумкин.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, умумий ўрта таълим мактаблардаги ижтимоий маданий муҳитни ташкил этишда технология таълимидан таълим тизимида фаолият юрутувчи раҳбар ва педагоглар унумлий фойдаланишса таълим маконида ижтимоий маданий муҳит ижобий томонга ўзгаради. Ҳар қандай технологиянинг маъноси ва қўлланиш мақсади – жараённи оптималлаштириш, ундан натижа учун зарур бўлмаган фаолият ва операцияларни чиқариб ташлашдир. Бунда ўқитиш технологиясининг ҳар бир элементига бир бутун таълим жараёнида ўзининг мақсадга мувофиқ жойи мос келади, ҳар бир технологик амал, ҳар бир технологик ҳаракат уни оптималлаштириш масаласини ҳал қилишда ўзининг аниқ ўрнига эга.

REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 26 февралдаги “Профессионал таълим муассасаларининг бошқарув ҳамда педагог кадрларини қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 106-сон қарори. https://lex.uz/docs/5309472
2. Джураев Р.Х., Тайлоқов Н.И. Ахборотлашган таълим муҳити-ўқитиш самарадорлигини ошириш воситаси //“Uzluksiz ta'lim”. ИМЖ. – Т., 2004. – №3. – Б. 3-7.
3. Парпиев А. ва бошқ. Электрон университет. Масофавий таълим технологиялари. – Т.: ЎзМЭ давлат илмий нашриёти 2008. –196-б.
4. Абдукадиров А.А., Пардаев А.Х. Масофали ўқитиш назарияси ва амалиёти (монография). – Т.: «Фан», 2009.
5. М.Т. Миҳридинова “Масофавийўқитишасослари” ТАТУ 2011 йил 60 б
6. А.Марахимов, Р.Ҳамдамов Электрон университет. Масофавий таълим технологиялари ЎзМЭ давлат илмий нашриёти. -Т.: 2008, 196 б.

ПРОБЛЕМЫ ТЕОРЕТИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ ПО ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЕ УЧАЩИХСЯ 8-9 КЛАССОВ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ

Латипова Нигора Исаковна

Ферганский филиал Узбекского государственного университета физической культуры и спорта, Кафедры: “Теории и методики спортивных видов”

https://doi.org/10.5281/zenodo.7927154

Аннотация. *В данной статье возможности самостоятельного и практического освоения форм, распределяемых в течение учебного года на основе интеграции содержания педагогических особенностей и компонентов комплексного развития, таких как здоровый образ жизни и трудолюбие, в образовательный процесс развития физических качеств обучения школьного контингента теоретическим основам физической культуры в общеобразовательной школе.*

Ключевые слова: *актуальность, здоровья, физическая культура, эксперимент, физическая подготовленность, педагогика.*

В Указе Президента Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиеева УП-5368 от 5 марта 2018 г. « О мерах по коренному совершенствованию системы государственного управления в области физической культуры и спорта» сказано, что « повышение и реализация творческого и интеллектуального потенциала молодого поколения, формирование здорового образа жизни среди детей и молодежи, привлечение их к физической культуре и спорту имеет важное значение».

В этой связи, обучение учащихся основам теории физической культуры всегда считалось важным элементом физкультурного образования на всех этапах образовательного цикла. Актуальной проблемой составляющей, наряду с практической частью образовательного процесса по физической культуре, где осуществляется освоение программного материала представленного в учебных программах государственных стандартов, является реализация обучения школьного контингента теоретическим основам физической культуры в общеобразовательной школе. Фактор недостаточного знания теоретических основ физической культуры у абитуриентов был выявлен в процессе вступительных экзаменов на специализированных факультетах по физическому воспитанию высших образовательных учреждений.

Специализированная комиссия, в чьи функции входила организация вступительных экзаменов по специальности «Физическая культура» ограничивалась лишь показателями двигательной подготовленности абитуриентов полученных на основании результатов полученных в ходе проведения педагогического тестирования, при этом не оценивались их теоретические знания по данному предмету.

Аналитический мониторинг педагогических способностей поступившего контингента на факультет физической культуры при определении их возможностей к предстоящей профессиональной педагогической деятельности в учебных заведениях среднего звена образования, на наш взгляд, не дает полной характеристики педагогических возможностей будущему специалисту данного направления в связи с тем, что в общеобразовательных школах теоретическому разделу в процессе урока физической культуры не уделяется должного внимания, а следовательно проверка их знаний теоретических основ физической культуры не представлялось возможным.

Проведенные социологические исследования выявили, что основная масса опрошенных учителей физической культуры работающих в системе средних общеобразовательных учреждений не уделяют должного внимания теоретической подготовке учеников по данному предмету в процессе проведения уроков физической культуры.

Анализ научно-методической литературы выявил, что по данному направлению выявлены лишь фрагментарные исследования, направленные на теоретическую подготовленность школьников в сфере физической культуры и не обнаружено научно-обоснованных инновационных методических рекомендаций по улучшению процесса освоения теоретических знаний по здоровому образу жизни подрастающего поколения.

Ранее, нами была разработана «профессиограмма» учителя физической культуры», где подробно были изложены цели и задачи стоящие перед выпускниками факультета физической культуры, в обязанности которых входит преемственное повышение уровня физкультурно-теоретической грамотности учащихся с учетом их возраста.

Несмотря на положительные сдвиги, происходящие в последнее время в сфере физкультурного образования, слабым звеном остается проблема обучение основам теории физической культуры в школе.

Данная проблема стала актуальной в связи с организацией новой системы вступительных экзаменов на факультетах физической культуры, где необходимо к общей оценке уровня двигательной подготовленности абитуриентов необходимо также оценивать и их уровень теоретических знаний по предмету физическая культура.

В этой связи, возникает необходимость внесения корректив в учебные программы по физической культуре особенно это касается , учащихся старших классов общеобразовательных школ, где нами рекомендовано о выделении до 4 часов в годичном цикле обучения теоретических уроков равномерно распределенных по четвертям обучения.

С целью обоснования вышеизложенного был проведен педагогический эксперимент в общеобразовательной школе № 29 г. Маргелана. В эксперименте участвовало 60 школьников трех старших классов, распределенных на одну контрольную и две экспериментальные группы. В состав каждой группы вошли по 20 учащихся . Наш выбор данной возрастной группы обусловлен тем, что именно в этом возрасте возникает особая необходимость овладения теоретическими основами физкультуры.

Контрольная и экспериментальные группы занимались по программе физической культуры общеобразовательной средней школы [1]. В содержание занятий были включены темы из разделов, входящих в образовательный минимум по предмету «Физическая культура»,

Опытно-экспериментальная работа проводилась по программе, разработанной в соответствии с содержанием общешкольного плана по физической культуре.

Учащиеся контрольной группы получали теоретические знания традиционным образом, т.е. в процессе уроков физической культуры. В первой экспериментальной группе основам теории посвящался один из уроков физкультуры в четверти. Принятие решения о проведении теоретических занятий таким способом обусловлено нашим предположением о том, что сведения, получаемые в течение целого урока, усваиваются быстрее и прочнее,

чем при получении их по темам в начале каждого урока физической культуры непосредственно перед практическими занятиями. В последнем случае, на наш взгляд, нарушается целостность восприятия.

Во второй экспериментальной группе теорию физической культуры преподавали путем выполнения домашних заданий. Мы сочли целесообразным экспериментально проверить гипотезу о том, что при самостоятельном изучении материал лучше усваивается, так как учащиеся имеют больше возможности для его творческого осмысления.

Для определения уровня теоретической подготовленности использовался метод анкетирования по основам теории физической культуры для учащихся старших классов [3], в котором предусматривались различные варианты ответов на поставленные вопросы. Тестирование проводилось в два этапа: Исходное - в середине сентября; итоговое – в середине марта 2018г. Оценка результатов проводилась по нормативам для определения уровня знаний основ теории физической культуры учащихся X-X1 классов [3].

Для более достоверного анализа применяемой методики, в целях исследования влияния теоретических знаний на развитие двигательных способностей, проводились контрольные испытания, определяющие уровень их развития. Для этого соответственно использовалась апробированная в ходе многих экспериментальных исследований батарея тестов заимствованная их нормативных основ тестов здоровья «Алпомиш».

Результаты педагогического тестирования двигательной подготовленности обрабатывались по Т-критерию Стъюдента для параметрических данных.

Анализ полученных результатов выявил, что средний показатель баллов в исходном тестировании во всех трех группах приблизительно одинаков, в то время как в итоговом тестировании проведенного в конце учебного года в 2 экспериментальной группе прирост имел улучшение в – 5,7%, в 1 экспериментальной группе прирост составил – 4,5%, а в контрольной группе – 3,9%.

Результаты опроса в исходном и итоговом анкетировании отдельно по двум экспериментальным и контрольной группам представлены в таблице 1.

Таблица 1

Группа	Неправильные ответы по заданиям и разделам				Сумма баллов $x \pm \sigma$	P
	Теоретические основы ФК	Психолого-педагогические основы ФК	Медико-биологические основы ФК	Базовые виды физкультурно-спортивной деятельности		
Контрольная (n=20)	2,2	2,65	2,55	2,5	10,1±0,35	>0,01
	1,8	1,7	2,15	2,25	12,1±0,42	
Экспер.1 (n=20)	2,2	2,3	2,6	2,4	10,5±0,43	<0,01
	0,45	1,0	0,95	0,85	16,7±0,	

					56	
Экспер.2 (n=20)	2,4	2,4	2,5	2,15	10,2±0,49	<0,01
	1,05	1,4	1,4	1,2	14,9±0,37	

Экспериментальные исследования показали, что обучение учащихся основам теории физической культуры по одному уроку в четверть более эффективно, чем самостоятельное обучение в домашних условиях по заданию учителя при традиционной схеме обучения, в сравнении с учащимися контрольной группы, обучающимися традиционным способом.

В процессе педагогического эксперимента определялся факт отрицательного влияния на развитие физических способностей то обстоятельство, что один урок в каждой четверти отводился для теоретических занятий вместо практических занятий. Результаты педагогического тестирования двигательных качеств показали, что теоретические занятия не оказывали существенного влияния на повышение уровня физических способностей учеников.

Сравнительный анализ контрольных результатов показывает, что в исходном тестировании данные в разных группах, но в одном виде упражнений приблизительно одинаковы.

Таким образом, можно отметить, что во всех трех группах учащихся разные способы преподавания теоретических основ физической культуры не сказывались отрицательно на развитии уровня их физической подготовленности. В то же время за период проведения педагогического эксперимента в каждой группе произошли существенные изменения.

Результаты проведенного эксперимента исходного и итогового тестирования двигательных способностей учащихся по двум экспериментальным и контрольной группам представлены в таблице 2.

Таблица 2

Группа		Контрольные испытания											
		Бег 30 м			Челночный бег 3х10 м			Кроссовый бег			Подтягивания		
		x	σ	%	*x*	σ	%	*x*	σ	%	*x*	σ	%
Контрольная (n=20)	До	5,48	0,27	4,1	9,40	0,19	8,15	1039,4	98,9	11,8	3,5	1,5	85,5
	После	5,32	0,19		8,8	0,20		1167,0	108,2		7,7	1,8	
Экспер.1 (n=20)	До	5,40	0,29	4,2	9,38	0,21	8,12	1070,9	103,2	12,24	3,9	1,7	86,4
	После	5,18	0,34		8,5	0,34		1193,1	82,3		7,3	1,7	
Экспер.2 (n=20)	До	5,43	0,24	8,7	9,35	0,17	8,17	1098,2	94,6	12,31	3,8	1,4	87,7
	После	4,96	0,30		8,7	0,20		1194,1	91,01		7,1	4,5	

В 2 экспериментальной группе, где осуществлялось проведение теоретических знаний в каждой четверти, прирост в уровне проявления физических способностей находился в пределах от 8,7% до 87,7%.

В 1 экспериментальной группе , где рекомендовались домашние задания по изучению теоретических основ физической культуры прирост двигательных способностей находился в пределах от 4,2% до86,4%.

В контрольной группе выявлен минимальный прирост в развитии быстроты (4%), а максимальный (88,5%) – в развитии силовых возможностей.

Выше изложенное подтверждает гипотезу о том, что выделение одного урока по изучению теоретических основ физической культуры практически не влияют на рост двигательных способностей учащихся старших классов общеобразовательных учреждений,

В результате проведенного педагогического эксперимента установлено что:

1. В практике уроков физической культуры в общеобразовательной школы не уделяется должного внимания обучению основам теории физической культуры.

2. Сравнительный анализ полученных результатов показал, что сообщение сведений по теории физической культуры в течение отдельного урока способствует повышению уровня теоретической подготовленности школьников старших классов.

3. Самостоятельное изучение учащимися теоретических основ физической культуры при условии выполнения домашних заданий недостаточно отражается на уровне теоретической подготовки.

4. Процесс обучения основам теории физической культуры в течение одного урока в четверти существенно не отражается на развитии физических качеств учащихся старших классов.

REFERENCES

1. Абдуллаев А. Жисмоний тарбия назарияси ва методикаси . Фаргона 2018- 324 б.
2. Матвеев, Л. П. Методика физического воспитания с основами теории: Учебное пособие / Москва 2004- 286 с.
3. Образцы задания для проверки достижения требований к уровню подготовленности выпускников средней школы по физической культуре // Физическая культура в школе. – 2002. – № 2. – С. 7.
4. Ханкельдиев Ш.Х. Физический статус учащейся молодежи. Ташкент монография 2018 - 434 с.
5. Абзалилов, Р.Я. Формирование специальных профессиональных компетенций будущих учителей физической культуры для работы в общеобразовательной школе [Текст] /Р.Я.Абзалилов// EuropeanSocialScienceJournal. - 2014. - № 8-1 (47). -С. 105-111.
6. Зорина, О.В. Эффективность технологии формирования готовности будущих учителей физической культуры к инновационной учебной деятельности [Текст] /О.В.Зорина // Проблемы современного педагогического образования. - 2015. - № 47-1. - С. 94-98.
7. Королев, А.С. К вопросу: проблемы современного урока физической культуры в системе среднего общего образования [Текст] / А.С. Королев, Т.Е. Мануковская, Н.Н.
8. Ткачева // Ученые записки университета имени П.Ф. Лесгафта». - 2019. - №2(168). - С. 219-222.

9. Лубышева, Л.И. Практико-ориентированная подготовка педагога по физической культуре к реализации инновационных процессов в системе физкультурного образования / Л.И. Лубышева // В сборнике: Совершенствование системы профессионального физкультурного образования и повышение квалификации специалистов по физической культуре и спорту в рамках реализации Федеральной целевой программы развития образования на 2016-2020 годы: Мат-лы Всерос. науч.-практ. конф., посвящ. 85-летию Удмуртского госуд. ун-та. 2016. - С. 65-71.
10. Макарова, И.А.Педагогические условия саморазвития будущего учителя физической культуры в системе высшего профессионального образования [Текст] / И.А.Макарова, А.Ю.Бочаров // Сборники конференций НИЦ Социосфера. 2013. - № 27. - С. 42-49.
11. Мильер, А.И. Проектная деятельность как фактор формирования профессиональной компетентности будущего учителя физической культуры [Текст] /А.И.Мильер// В сборнике: Физическая культура и спорт в условиях глобализации образования материалы II Международной научно-практической конференции. Забайкальский государственный университет; под редакцией Е. И. Овчинниковой. 2014. - С. 44-47.
12. Непрерывная педагогическая практика студентов факультета физической культуры как фактор развития профессиональной компетентности и закрепления выпускников в системе образования [Текст] /Т.В.Яковлева [и др.] // Теория и практика физической культуры. - 2018. - № 7. - С. 8-9.
13. Обучение бакалавров физкультурного профиля технологии спортизации школьного физкультурного образования [Текст] / А.Г. Поливаев, А.В. Шабанов, А.Н. Родионов, С.С. Стойчева, И.А. Иргашева // Физическая культура: воспитание, образование, тренировка. - 2017. - №5. - С. 26-29.

ЎЗБЕКИСТОНДАГИ УМУМТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИДА ТАРИХИЙ-МАДАНИЙ МИЛЛИЙ МЕРОСДАН ФОЙДАЛАНИШ МАЗМУНИ ВА МЕХАНИЗМЛАРИ

Илҳом Ҳошимов

Қори Ниёзий номидаги Ўзбекистон педагогика фанлари илмий тадқиқот институти мустақил изланувчиси

https://doi.org/10.5281/zenodo.7927175

Аннотация. *Мақолада тарихий-маданий миллий мерос объектларини бошқариш турли хил мақсадларнинг мавжудлиги билан тавсифланиши ёритилган. Муаллиф тарихий-маданий миллий меросни актуаллаштириш жараёнида қўллаш уни нафақат маданиятнинг ривожланиш тенденцияларини белгилайдиган жараёнларини очиб берган.*

Калит сўзлар: *Тарихий-маданий миллий мерос, мерос объектлари, бошқарув тизимини такомиллаштириш, минтақавий даража, бошқарув маданий ландшафтлар.*

Замонавий шароитда тарихий-маданий миллий меросни сақлаш зарурати глобаллашув, ижтимоий-иқтисодий соҳадаги ўзгаришлар, ҳар хил турдаги янги таҳдидларнинг пайдо бўлиши билан боғлиқ. Мавзу жамиятда ватанпарварлик туйғуларини шакллантириш, мамлакатимизнинг ноёб, кўп миллатли ва мамлакатнинг тарихий асарлари ва табиий ёдгорликларига бой қиёфасини яратиш зарурати туфайли ҳам долзарбдир.

Тарихий-маданий миллий мерос объектлари қўйилган вазифаларни ҳал қилишда ёрдам бериши мумкин, чунки улар бир қатор муҳим ижтимоий функцияларни бажарадилар: улар аҳолининг умумий маданиятини юқори даражага кўтаришга ҳисса қўшади ва жуда муҳим таълим ва тарбиявий аҳамиятга эга. Маданий меросни замонавий илм-фан, маданият, таълим, давлатлар ва халқлар ўртасида маданий алмашинув амалга ошириладиган миллатнинг маънавий бойлиги билан таққослаш мумкин. Маданиятсиз ва ундан ташқарида жамият тараққиётини, фуқаролик бирлигини яратишни, шунингдек, умумий мақсадларни белгилаш ва уларга эришишни таъминлаш мумкин эмас.

Тарихий-маданий миллий мерос объектларини сақлаш – бу маданий мерос объектларини (ҳам жисмоний, ҳам тарихий ва маданий) сақлашга қаратилган ҳаракат. Ушбу чора-тадбирлар бир қатор ишларни ўз ичига олади: консервация, тиклаш, таъмирлаш, тарихий объектни замонавий фойдаланишга мослаштириш; тадқиқот, лойиҳалаш ва ишлаб чиқариш ишлари. Буларнинг барчаси қатъий илмий раҳбарлик остида, шу жумладан, иш пайтида техник ва муаллифлик назорати остида бўлиши керак.

Бернард Фейлден 1986 йилда “меросни сақлаш” тушунчасини аниқлади, унга кўра “сақлаш – бу парчаланиш тезлигини камайтириш учун ўзгаришларни динамик бошқариш. Маданий, илмий, техник ва табиий мерос ва ресурслар ҳақиқий ҳужжатлар ва қимматли таркибий қисмлар сифатида кўриб чиқилиши керак. Табиатни муҳофаза қилиш барча мумкин бўлган ҳаракатларни ижтимоий-иқтисодий, ҳуқуқий ва маданий даражада бирлаштиришни талаб қилади”.

Маданиятни машҳурлик даражасига олиб чиқиш ва жамиятни демократлаштириш уни оммалаштириш, шу орқали эса энг бой тарихий-маданий миллий меросни сақлаш орқали амалга оширилиши керак. Ушбу жараённи тартибга солиш давлат қонунчилиги билан маданий сиёсат ва маданий меросни бошқариш тизими орқали амалга оширилиши керак.

Маданий меросни бошқариш тизимларининг концептуал асослари ЮНЕСКО томонидан 2009 йилда Маданий қадриятларни сақлаш ва тиклаш халқаро тадқиқот маркази ташаббуси билан ўтказилган тадқиқот лойиҳаси асосида ишлаб чиқилган. Шу билан бирга, тарихий-маданий

миллий мерос объектларидан фойдаланишда энг муҳим вазифа – бу объектларни “самарали бошқариш”га умумтаълим мактаби ўқувчиларини йўналтиришдир.

Маданий меросни сақлаш ва улардан фойдаланиш тизимининг ажралмас қисми маданий мерос объектларини бошқариш бўлиб, у “Жаҳон маданий мероси объектларини бошқариш” ахборот қўлланмасига биноан мураккаб фаолиятдир.

Ҳозирги вақтда тарихий-маданий миллий мерос объектларини бошқариш турли хил мақсадларнинг мавжудлиги билан тавсифланади, бу эса институционал ва ташкилий тузилмаларнинг кенг доирасини, ижтимоий истиқболларни, билим шаклларини, қадриятларни ва бошқа омилларни баҳолашни талаб қилади. Ушбу омиллар кўпинча ўзаро боғлиқ бўлиб, бу бошқарувнинг мақбул ёндашувларини амалга ошириш ва қўллаб-қувватлашни тобора қийинлаштирмоқда. Бироқ ушбу қийинчиликларни енгиб ўтиш келажакдаги тарихий-маданий миллий мерос объектларини бошқариш учун жуда муҳимдир.

Бундай мақсадларга эришиш учун умумтаълим мактаблари ўқув-тарбиявий жараёнига тарихий-маданий мерос объектлари ходимларини фаолроқ жалб қилиш керак: мураккабликнинг ошиши бошқарув амалиётида тараққиётни талаб қилади.

ЮНЕСКО ҳужжатларига асосланган мерос объектлари ва қўриқланадиган ҳудудларни бошқариш тизими “бу биргаликда натижалар тўпламини яратадиган бир қатор жараёнлар бўлиб, уларнинг баъзилари тизимни, унинг ҳаракатлари ва ютуқларини доимий равишда такомиллаштириш учун юқорига кўтарилган спирални шакллантириш учун тизимга қайтарилади”. Ҳар бир мамлакатда маданий меросни бошқариш тизимларининг маълум шакллари мавжуд. Бошқарув тизимининг асосий мезони: у мерос объекти учун етарли ва самарали бўлиши керак.

Шундай қилиб, меросни бошқариш тизими учта муҳим элементнинг тузилиши сифатида ифодаланиши мумкин: унинг мавжудлиги сабабларини белгилайдиган ҳуқуқий асос; ташкилий эҳтиёжлар ва қарорларни қабул қилиш учун шакл яратадиган институционал тузилма, шунингдек, ресурслар (инсон, молиявий ва интеллектуал) тизими.

Ушбу элементларнинг барчаси биргаликда объектларни ва тегишли қадриятларни барқарор сақлаш ва бошқаришни кафолатлайдиган натижаларни олиш учун, қоида тариқасида, битта объект ёки маданий мерос объектлари гуруҳи ёки маълум бир ҳудуд учун ҳаракатларни режалаштириш, амалга ошириш ва мониторингини осонлаштиради.

Меросни бошқариш тизимининг якуний мақсади объект ва манфаатдор томонлар учун аниқ якуний натижаларни олишдир. Бундай мақсадларга эришиш самарадорлиги муайян жараёнларга боғлиқ бўлиб, уларни амалга ошириш бир қатор оралиқ натижаларга олиб келади, шунингдек, бўшлиқларни ёки янги эҳтиёжларни аниқлашга жавобан бошқарув тизимини такомиллаштиришни жорий этишга боғлиқ.

Амалда, миллий ёки минтақавий даражадаги бундай бошқарув тизими камдан-кам ҳолларда самарали бошқарув учун етарли, масалан, тарихий шаҳар марказлари ёки маданий ландшафтлар учун. Бундай шароитда бошқарувни амалга ошириш ҳокимият органлари, таълим муассасалари, хусусий мулкдорлар ва бошқа манфаатдор томонлар билан турли хил ҳуқуқий ҳужжатлар асосида олиб борилади.

Ҳар қандай асосий меросни бошқариш тизимида бир-бирига боғлиқ бўлган учта асосий муҳим элемент мавжуд. Ушбу баёнот миллий меросни бошқариш тизимлари учун ҳам, объектлар гуруҳи ёки ҳатто битта объект учун махсус ишлаб чиқилган тизимлар учун ҳам амал қилади.

1. Ҳуқуқий асос

Жисмоний шахслар ва ташкилотларга ҳаракатларни амалга оширишга рухсат берувчи буйруқлар. Ҳуқуқий база мерос объектининг бир қисми нима эканлигини ва бундай объектни сақлаш ва бошқариш мезонлари қандай эканлигини белгилайди; бу одатда қонун ҳужжатларидан фойдаланиш орқали амалга оширилади.

2. Институционал тузилма

Фаолиятнинг тузилишини ва зарур ҳаракатларни амалга оширишга имкон берадиган иш усулларини белгилайдиган ташкилий модел. Институционал тузилма қарорларни қабул қилиш самарадорлигини ва бошқарув тизимидаги барча жараёнларни соддалаштиришни таъминлаши керак. Бунга ўзгаришга жавоб бериш учун зарур бўлган ташкилий мослашувчанлик билан узлуксизлик зарурлигини мувозанатлаш орқали эришилади.

3. Манбалар

Функционал потенциални шакллантирадиган ва жараёнларни амалга оширишни осонлаштирадиган инсон, молиявий ва интеллектуал ҳиссаси. Бунинг натижада меросни бошқаришга комплекс ёндашувни учта нуқтаи назардан кўриб чиқиш мумкин: фалсафа, жараён ва маҳсулот сифатида.

Шу билан бирга, комплекс ёндашувдан фойдаланиш учун турли соҳаларда ўзгаришларни амалга ошириш керак. Австралиялик олимларнинг тадқиқотларига кўра, бундай ўзгаришлар бошқарувнинг учта асосий йўналишига бирлаштирилган: қонунчилик жиҳатлари, институционал тузилмалар ва манбалардан фойдаланиш.

Ушбу таҳлил доирасида комплекс ёндашув учта нуқтаи назардан кўриб чиқилади: фалсафа сифатида (иштирокчиларнинг ташкилоти, маданияти ва муносабатларида ўзгаришларни талаб қиладиган жамоавий ёндашувга асосланган), жараён сифатида (турли бўлимлар ўртасида мувофиқлаштиришни ўз ичига олган), ҳокимият ва маҳаллий ҳамжамият ўртасидаги интеграция ва маҳсулот сифатида (қўшимча меъёрий ҳужжатларни ишлаб чиқишга кўмаклашиш, турли норматив ҳужжатлар ўртасидаги интеграция).

Интеграциялашган ёндашувнинг аҳамияти А. Филлипс томонидан яратилган ва ЮНЕСКО томонидан қўллаб-қувватланадиган “қўриқланадиган ҳудудлар учун янги парадигма”да акс этади. Табиий мерос объектлари учун яратилганига қарамай, менежмент нуқтаи назаридан унинг тарихий-маданий миллий мерос объектларига тааллуқли қоидаларини (ривожланиш йўналишларини) ажратиб кўрсатиш керак. Яъни:

– мерос объектларидан нафақат ташриф буюрувчилар ва сайёҳлар, балки маҳаллий аҳоли учун ҳам фойдаланиш;

– тарихий-маданий миллий мерос объектларини маҳаллий аҳолининг қизиқишлари ва фикрларини ҳисобга олган ҳолда бошқариш;

– узоқ муддатда мерос объектларини адаптив бошқаришни қўллаш;

– мерос объектлари ва қўриқланадиган ҳудудларни кўплаб манбалардан молиялаштириш;

– тарихий-маданий миллий мерос объектларини нафақат олимлар ва мутахассислар, балки маҳаллий билим ва анъаналардан фойдаланган ҳолда кенг доирадаги мутахассислар томонидан бошқариш.

Меросни сақлаш самарадорлиги кўп жиҳатдан уни амалга ошириш даражаси билан белгиланади. Шундай қилиб, бошқарув ёндашуви нуқтаи назаридан актуаллаштириш – бу тарихий-маданий миллий меросни замонавий маданиятга сақлаш ва бирлаштиришга қаратилган бошқарув субъектларининг фаолияти, тарихий-маданий миллий мерос объектларини капиталлаштириш орқали уни иқтисодий ва ижтимоий муомалага киритиш жараёни, шунингдек,

жамиятнинг фаол иштироки маданий меросни сақлаш ва уни умумтаълим мактабларининг ижтимоий ҳаётига қўшишдир.

Шу билан бирга, мерос объектларини иқтисодий муомалага киритиш фақат уларни сақлаш учун зарур бўлган талаб билан амалга оширилади ва бюджетдан ташқари фондларни реконструкция қилиш, моддий ва номоддий тарихий-маданий миллий меросни сақлаш учун жалб қилиш механизмини яратишни ўз ичига олади.

Бундан ташқари, тарихий-маданий миллий меросни янгилаш маданий сиёсатнинг устувор йўналишларидан бири бўлиши керак бўлган бундай тарихий-маданий миллий меросни бошқариш тизимини шакллантириш учун тегишли механизмларни ишлаб чиқиш зарур.

Фалсафада механизм – бу ҳаракатлар ёки ҳодисалар тизими, шунингдек, табиат қонунлари билан белгиланадиган ва бу ҳаракатлар амалга ошириладиган қурилма. Бироқ турли хил билим соҳаларининг ривожланиши шароитида ушбу атама янги хусусиятларга эга бўлди. Механизм ҳодисани белгилайдиган ҳолатлар ёки жараёнлар тўплами сифатида тушунила бошланди. Шунга кўра, механизм тушунчаси ижтимоий ҳодисаларга, шу жумладан, ижтимоий-иқтисодий жараёнларда ҳам қўлланила бошланди.

Шу муносабат билан ижтимоий ва иқтисодий механизмлар тушунчаларини фарқлаш керак. “Ижтимоий механизм” тушунчаси О. Конт томонидан жамиятнинг яхлитлиги ва барқарорлигини тушунтириш учун илмий муомалага киритилган. Ҳозирги вақтда социологияда ижтимоий механизмнинг моҳияти ва мазмунини аниқлаш бўйича турли қарашлар мавжуд.

Аксарият тадқиқотчиларнинг фикрига кўра, ижтимоий механизм – бу ижтимоий тузилмалар, нормалар, институтлар, хулқ-атвор намуналари ва ҳ.к.ларнинг ўзаро алоқаси бўлиб, бу орқали ижтимоий тизимнинг ишлаши таъминланади ва жамиятдаги ижтимоий–иқтисодий жараёнларнинг узлуксизлиги шартланади.

Ижтимоий-иқтисодий механизм – бу иқтисодиётнинг ташкилий, иқтисодий ва ижтимоий жиҳатларини қамраб олувчи, иқтисодий тизимнинг ишлашини биргаликда таъминлайдиган тегишли тузилмалар ва тартибга солувчиларнинг ўзаро алоқасини ифодаловчи тушунча.

“Механизм” тушунчасини маданият соҳасида ва унинг индивидуал функцияларига нисбатан қўллаган ҳолда, барқарор интеллектуал тузилмалар таъсирида учрайдиган механизмнинг ҳақиқий белгиларини – ўзаро боғлиқ ғоялар, фикрлар ва хатти-ҳаракатларнинг ижтимоий зарур шаклларини такрорлашга қаратилган фаолият усулларини ёдда тутиш керак.

Шундай қилиб, маданиятнинг ўзи одамларни “инсонпарварлаштириш” механизми, тарбия, таълим ва ривожланиш тизими сифатида ҳаракат қилади, унинг ҳаракати маълум бир натижага олиб келади – жамият ўзининг тўлақонли иштирокчисини тан олишга тайёр бўлган шахсни шакллантиради.

Ижтимоий-иқтисодий механизм концепциясини тарихий-маданий миллий меросни актуаллаштириш жараёнида қўллаш уни нафақат маданиятнинг ривожланиш тенденцияларини белгилайдиган жараён сифатида, балки давлатнинг турли даражадаги бошқарув таъсирини қамраб оладиган яхлитлик сифатида ҳам тақдим этишга имкон беради.

Юқорида айтиб ўтилганларни умумлаштириб, тарихий-маданий миллий меросни актуаллаштириш механизмлари давлатнинг иерархиясининг турли даражаларидаги бошқарув таъсирини ҳам моддий ва номоддий тарихий-маданий миллий меросни сақлаш ва тиклашга қаратилган турли манфаатдор гуруҳларнинг биргаликдаги ҳаракатларини қамраб олувчи бошқарув мажмуаси бўлиб, бу орқали ижтимоий-иқтисодий тизимнинг ривожланиши таъминланади.

Тарихий-маданий миллий меросни актуаллаштириш механизмларини ишлаб чиқиш тамойиллари асосий қоидалар, нормалар ва усуллар бўлиб, улар асосида тарихий-маданий миллий меросни актуаллаштириш жараёни амалга оширилади, унинг давлатнинг маданий сиёсатидаги ўрни белгиланади. Тарихий-маданий миллий меросни актуаллаштириш механизмларини ишлаб чиқишда асосий принциплар холислик, изчиллик, мураккаблик бўлиши керак.

Жамият тараққиёти талабларига ва ижтимоий давлатнинг ривожланиш қонунларига мувофиқ қуйидаги механизмлар гуруҳлари аниқланади:

* Маъмурий механизм – ташкилий ҳужжатларда белгиланган тарихий-маданий миллий меросни сақлаш ва оммалаштириш бўйича ҳуқуқ ва мажбуриятларни тақсимлаш тизими. Ушбу механизм умуман маданият соҳасида ва ҳар бир аниқ маданий муассасада ва уларнинг бўлинмаларида бўйсуниш иерархиясини қуришни назарда тутади.

* Иқтисодий механизм – тарихий-маданий миллий меросни актуаллаштириш жараёнини ресурслар билан таъминлаш, иқтисодий таъминлаш ва иқтисодий рағбатлантириш тизими. Иқтисодий рағбатлантириш тарихий-маданий миллий меросни актуаллаштиришнинг ажралмас қисмидир, чунки мерос объектлари билан ишлаш сифати ходимларга, уларнинг моддий қониқишига боғлиқ.

* Кадрлар механизми – тарихий-маданий миллий меросни янгилаш жараёнини кадрлар билан таъминлаш тизими. Фаол фаолият учун мотивацияни шакллантириш ва ривожлантириш, янги нарсаларни тизимли излаш ва тарихий-маданий миллий мерос объектларини актуаллаштириш билан шуғулланадиган ходимларнинг иш натижалари сифатини ошириш бир хил даражада муҳимдир. Бу ҳолатда, ходимлар тарихий-маданий миллий мерос объектларини сақлаш ва янгилаш бўйича ишларни самарали амалга оширадилар, янги лойиҳаларни қидирадилар, яратадилар ва амалга оширадилар, шериклар, инвесторлар, ҳомийлар ва ғамхўр одамларни жалб қиладилар.

* Ахборот механизми – тарихий-маданий миллий меросни актуаллаштириш ва умумтаълим мактаби маданиятининг ягона ахборот маконини шакллантириш жараёнини ахборот билан таъминлаш тизими. Ушбу механизм тегишли ва янги маълумотларни қидириш, маълумот алмашиш ва тарихий-маданий миллий мерос объектларида бирлаштириш учун зарурдир.

* Ташкилий механизм – тарихий-маданий миллий меросни сақлаш бўйича тегишли маданий амалиётларни ривожлантириш учун мумтаълим мактаби ва хусусий тузилмалар, жамоатчилик ўртасидаги ўзаро муносабатлар тизими. Шунингдек, у тарихий-маданий миллий меросни актуаллаштиришдан манфаатдор бўлган барча субъектларнинг комплекс ва тизимли ўзаро алоқасини ташкил этишга ёрдам беради.

Oliy ta’lim muassasalarida ishlaydigan amerikalik o'qituvchilar tajribasidan muammoli vazifaga misol keltiraylik: o'quvchilarga kuzatish ob'ektining batafsil tavsifini tuzishda uy hayvonlarini boqish va uning rivojlanishini bir necha oy davomida kuzatib borish buyuriladi. Buga o`xshash misollar juda ko`pdir. Oparin hayot paydo bo‘lishi to‘grisidagi gipotezani yaratishda Engel'sning hayotga bergan ta'rifi hamda hayot paydo bo‘lishi muammosini kanday hal etish bo‘yicha ko‘rsatmalariga, shuningdek, astrofizika, astroximiya, reologiya, bioximiya va boshqa fan yutuqlarini e'tiborga oldi. Akademik Oparin o‘z gipotezasida Yerdagi hayot boshqa planetalardan ko‘chib kelmaganligini, balki materiyaning milliard yillar davom etgan rivojlanishi natijasi ekanligini qayd qildi.

O'qituvchi muammoli vaziyat yaratadi. Oliy ta’lim muassasalarida taxsil olayotgan 1-kurs biologiya ta’lim yo’nalishi talabalarida “ Yosh anatomiyasi va fiziologiyasi ” fanidan “Eritrotsitlar va leykotsitlar” mavzusidagi dars.

`O'qituvchi quyidagi qoida orqali muammoli vaziyat yaratadi. Qonda, suyuqlikda bo'lgani kabi, tananing ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lganidan ko'ra kamroq kislorod eriydi. Organizmni yetarli miqdorda kislorod bilan ta`minlash qanday kechadi?

Evolyutsiya jarayonida hayvonlarning qaysi guruhlari odamlarning paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin?

“Organizmlarning yaroqliligi va uning nisbiyligi” mavzusidagi dars.

Kapalak turlaridan birining t ikki turdagi barglarda uchraydi - och yashil va kulrang. Yashil tırtıllar yashil barglarda, kulrang tırtıllar esa kul rangda ko'proq uchraydi. Ushbu fakt uchun mumkin bo'lgan tushuntirishlarni taklif qiling.

Shuni yodda saqlash kerak-ki, har bir muammoli vaziyat muammoga aylanmaydi. O'qitish amaliyotida ko'pincha o'qituvchilar tomonidan talabalar uchun intellektual qiyinchiliklar tug'diradigan savollar mavjud, ammo javob izlash talabalar uchun mavjud emas, chunki ular zarur boshlang'ich bilim va ko'nikmalarga ega emaslar. Bunday holda muammoga aylanmaydigan muammoli vaziyat yaratiladi. Agar talabalar mulohaza yuritish uchun muammoli dastlabki bilimlar mavjud bo'lsa, muammoli vaziyat talaba tomonidan hal qilish uchun qabul qilingan muammoga aylanadi.

Muammoli ta'limning asosiy tushunchalari:

Muammoli o'qitish - o'qituvchining muammoli vaziyatlar tizimini yaratish, o'quv materialini (to'liq yoki qisman) tushuntirish bilan taqdim etish va an'anaviy usulda mustaqil ravishda o'quv muammolarini qo'yish orqali yangi bilimlarni olishga qaratilgan o'quvchilar faoliyatini boshqarishdagi faoliyati. va ularni hal qilish.

Muammoli o'qitish - muammoli vaziyatda o'qituvchining tushuntirishlarini idrok etish, muammolarni shakllantirish va ularni (mantiqiy va intuitiv) takliflar, farazlar, ularni asoslash va isbotlash orqali hal qilish orqali bilim va faoliyat usullarini egallash bo'yicha o`quvchilarning o'quv va kognitiv faoliyati. shuningdek, yechimlarning to'g'riligini tekshirish orqali.

Muammoli o'qitish - muammoli vaziyatda o'qituvchining tushuntirishlarini idrok etish, muammolarni shakllantirish va ularni (mantiqiy va intuitiv) takliflar, farazlar, ularni asoslash va isbotlash orqali hal qilish orqali bilim va faoliyat usullarini egallash bo'yicha talabalarning o'quv va kognitiv faoliyati, shuningdek, yechimlarning to'g'riligini tekshirish orqali boradi.

Muammoli savol, muammoli vaziyat yoki muammoli topshiriq muammoni ifodalash shakli sifatida amalga oshiriladi.

Muammoli ta'limni amalga oshirish uchun uning tuzilishiga qat'iy rioya qilish kerak. Muammoli ta'lim strukturasining tarkibiy qismlari quyidagicha ifodalangan.

Muammoli ta’limning tuzilishi

O'qituvchi oldida turgan birinchi savol - muammolarni aniqlash va muammoli vazifalarni shakllantirishdan iborat.

Ta'lim muammolarini shakllantirish manbalari.

1. Fan.

• Fanning asosiy masalalari, ularni asosiy uslubiy qoidalar nuqtai nazaridan izohlash;

• nazariya va amaliyotni solishtirish;

• voqelikning ziddiyatlari;

• Ilmiy muammolarning aspekti;

• u yoki bu hodisani turlicha talqin qilish, turli ilmiy maktablar pozitsiyalaridan turli ilmiy qarashlar;

• fandagi tushuncha va kundalik g'oyalar;

• ilmiy kashfiyotlar tarixi;

• nazariy va empirik bilimlarning o‘zaro bog‘liqligi, fanning hayot bilan aloqasi.

2.O‘quv materiali.

3. Talabalar.

Ta'lim muammolarini ilgari surishning asosiy didaktik manbai - ma'lum va noma'lum o'rtasidagi farq; bilganlari va olishlari kerak bo'lgan narsalar o'rtasidagi ziddiyat. Qarama-qarshilik talabalarning aqliy faoliyatini faollashtirishning asosiy vositasidir.

Muammo darajalari:

1) muammo bayoni,

2) qisman qidiruv;

3) tadqiqot usuli.

Muammoni hal qilish bosqichlari.

• Muammoni bayon qilish, muammoli vaziyat yaratish.

• Muammoli vaziyatdan xabardorlik.

• Muammoni shakllantirish.

• Ma'lum harakat usullarini qo'llash.

• Gipotezani shakllantirish.

• Gipotezani tekshirish (talabalarni masalalarni yechishda tashkil etish).

• Muammoni yechish (bu davrda yangi bilimlar olinadi va yechimlar o‘rganiladi).

• Umumiy xulosalar.

Muammoli ta’limning umumiy xususiyatlari:

• Talabalar tomonidan bilimlar tizimi va aqliy va amaliy faoliyat usullarini o'zlashtirish.

• Talabalarning kognitiv mustaqilligi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.

• Dialektik-moddiy tafakkurni shakllantirish.

Muammoli o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari:

• - bilimlarni ijodiy o'zlashtirish ko'nikmalarini tarbiyalash (mantiqiy usullarni yoki ijodiy faoliyatning alohida usullarini qo'llash);

• - bilimlarni ijodiy qo'llash ko'nikmalarini tarbiyalash (o'zlashtirilgan bilimlarni yangi vaziyatda qo'llash);

• - ijodiy faoliyatda tajribani shakllantirish va to'plash (ilmiy tadqiqot usullarini o'zlashtirish, amaliy muammolarni hal qilish).

Zamonaviy darslar muammoli va muammoli bo'lmaganlarga bo'linadi. Ularning bir-biridan farqi o‘qitishning tuzilishi, usullari va vositalarida. Muammoli darsda tashqi va ichki tuzilish ajratiladi.

Muammoli darsning tuzilishi

Skeletning bir vaqtning o'zida mustahkamligi bilan engillikni nima tushuntiradi?

Ehtimol, bu qarama-qarshilikni suyaklarning qandaydir maxsus tuzilishi va tarkibi bilan izohlash mumkin.

Ehtimol, bu qarama-qarshilikni suyaklarning qandaydir maxsus tuzilishi va tarkibi bilan izohlash mumkin.

Darsda muammoli masalani yechish misoli “Suyaklarning tarkib, tuzilishi va o'sishi”

Suyaklarning mustahkamligi zich sirt, maksimal yuklanish chiziqlariga qarshi turadigan suyak to'siqlarining maxsus joylashuvi bilan beriladi. Naysimon suyaklarning tuzilishi va suyaklardagi bo'shliqlarning mavjudligi kuchni yo'qotmasdan vaznni engillashtiradi. Organik va mineral moddalarning kombinatsiyasi suyakni etarlicha kuchli va ayni paytda engil qiladi.

Muammoli ta’lim talabalarda faollik, tashabbuskorlik, mustaqillik va ijodkorlikning namoyon bo‘lishini rag‘batlantiradi, ularning tafakkurini rivojlantiradi, turli ko‘rinishdagi ilmiy va amaliy masalalarni yechishning murakkab san’atiga o‘rgatadi. Biologiya darslarida muammoli ta’lim ko‘pincha qo‘llaniladi. Biroq, bir qator olimlar (N. M. Verzilin, L. V. Rebrova, G. F. Fedorets, V. N. Maksimova) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, biologiya darslarida bu turdagi ta'lim har doim ham mumkin emas. Masalan, organizmlarning tuzilishi, hujayra tuzilishi, nuklein kislotalarning xossalari kabi mavzular ko'rib chiqilayotgan ob'ektlar haqida aniq bilimlarni talab qiladi. Bundan tashqari, muammoli ta’limni tashkil etish ko‘p vaqt talab etadi, bu esa uning keng qo‘llanilishini cheklaydi.

Kuzatishlarga ko‘ra, talabalarning o‘zlashtirish darajasiga o‘qitish metodlarining ta'sir darajasi:

1. Ma'ruza eshitganda - eshitgan ma'lumotlarining - 5%.
2. O‘qib o‘rganganda - o‘qiganlarining 10%.
3. Videousul, namoyish etilganda – ko‘rgan ma'lumotlarining 20%.
4. Tajribani namoyish qilinganda - ko‘rgan va eshitganlarining 30%.
5. Bahs-munozara, muhokama qilinganda 40%.
6. Mashqlar - o‘qigan, yozgan, gapirganda 50%.
7. Didaktik o‘yinlar, kichik guruhlarda ishlash, loyihalash, mustaqil o‘qiganda, tahlil va muhokama qilganda, himoya va namoyish qilganda 75%.
8. Muammoli talim texnologiyasi - mustaqil o‘rgangan ma'lumotlar, tahlil va muhokama qilingan, boshqalarni o‘qitgan narsalarining 90%i esida saqlanib qoladi.

Yuqoridagi ma'lumotlar shuni ko‘rsatadiki, dars jarayonida an'anaviy metodlar qo‘llanilganda, talabalarning axborotni eslab qolish ko‘rsatkichini eng yuqori darajasi 30%ni tashkil yetar ekan. Noan'anaviy metodlar qo‘llanilganda esa, talabalarning axborotlarni o‘zlashtirish darajasi 90%gacha ortib boradi.

Xulosa qilib aytganda muammoli ta'lim reproduktiv xususiyatga ega texnologiyalarga nisbatan beqiyos yuqori mehnat zichligiga ega, oliy talim muassasasi talabalarini o'quv ishlari bilan ortiqcha yuklashga olib keladi va mustaqil ravishda metodik jihozlarni yaratadigan o'qituvchidan malaka talab qiladi, ya'ni texnolog vazifasini bajaradi. Bizning fikrimizcha, oliy ta’limda juda eskirgan, lekin hali ham hukm surayotgan tushuntirish-illyustrativ o‘qitish turi bilan raqobatlashish uchun biologiya o‘qituvchilari muammoli o‘qitishni yanada kengroq qo‘llashlari kerak. Bu esa o`z navbatida o‘quvchilarda faollik, tashabbuskorlik, mustaqillik va ijodkorlikning namoyon bo‘lishini rag‘batlantiradi, ularning tafakkurini rivojlantiradi.

REFERENCES

1. Tolipova J.O. Biologiyani o'itishda innovqatsion texnologiyalar. Pedagogika oily ta`lim muassasalari o`quvchilari uchun darslik. Toshkent-2014 y.
2. Niyozov Q. Biologik ta’lim jarayonida o'quvchilar kompetentligini rivojlantirish asoslari. – Namangan: Namangan VXTXQTMOI, 2017.
3. Tolipova J., G'ofurov A., Umaralieva M., Abdurahmonova I., Abdukarimov A., Eshonqulov O. «Biologiya». O'rta taъlim muassasalarining 10-sinfi va kasb-hunar ta`limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik. -T.: «Sharq», 2017.
4. Niyozov Q. Biologiya ta’limi jarayonida o‘quvchilarda kompetensiyalarning shakllanishida innovason texnologiyalarning o‘rni. – Toshkent shahar XTXQTMOIda tashkil etilgan «Xalq ta’limi tizimidagi «Mahorat maktablari» faoliyatini tashkil qilishning ilmiy-nazariy va metodologik asoslari» mavzusidagi Respublika ilmiy- amaliy anjumani materiallar to‘plami. – T.: «Fan va texnologiyalar», 2017.
5. Quronov M. Yoshlar tarbiyasi - strategik masala. // «Ma`rifat» gazetasi, 2017 yil 1 mart, 17-son.
6. Tursunov Q.SH. Toshpo`latov Ch.X, Qorjovov M.J ”Fizika ta`limi texnologiyasi”. Toshkent 2013. Niyozov Q. Biologiya ta`limi jarayonida o'quvchilarda kompetentsiyalarning shakllanishida innovatsion texnologiyalarning o'rni. – Toshkent shahar XTXQTMOIda tashkil etilgan «Xalq ta`limi tizimidagi «Mahorat maktablari» faoliyatini tashkil qilishning ilmiy-nazariy va metodologik asoslari» mavzusidagi Respublika ilmiy- amaliy anjumani materiallar to'plami. – T.: «Fan va texnologiyalar», 2017.
7. G.T.Ro‘ziyeva “ Bo’lajak biologiya o’qituvchilarining innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlsh metodikasining nazariy asoslari ”Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti ILMIY AXBOROTLAR JURNALI.2022-yil 190-196 betlar.11-son.

O‘QUVCHILARDA HAYOTIY FAOLIYATNI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI

[1]Davletov Erkaboy Yusubovich, [2]Davletov Mayliboy Yusupovich

[1]Urganch davlat pedagogika instituti “Pedagogika, boshlang‘ich va maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrasi v.b. dotsenti

[2]Buxoro davlat pedagogika instituti magistranti

https://doi.org/10.5281/zenodo.7926183

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tayanch hayotiy kompetensiyalar, ularni hosil qilishning boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun zamonaviy ta’lim modellari, bilim, ko‘nikma, malakalarni aniq hayotiy sharoitlarda qo‘llash vaziyatlarini tanlash zarurligi, kompetensiyalarni shakllantirish uchun yaratiladigan ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlar, o‘quvchining bilish faoliyatini rivojlantirish, tayanch hayotiy va fanga oid kompetensiyalarning tarkibiy qismlari haqida fikr yuritilgan bo‘lib, ushbu fikrlar ota-onalar, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, dastur va darslik mualliflari uchun dasturulamal bo‘lib xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *axborot kompetensiyasi, model, tayanch hayotiy kompetesiya, fanga oid kompetesiya, didaktik vositalar, kompetensiya, kompetentlilik, kompetensiyaviy yondashuv.*

Bugungi ta’lim tizimi uchun xarakterli bo‘lgan xususiyatlardan biri o‘quvchilar egallagan bilimlarni faollashtirishdan iborat. Buning uchun o‘quvchilarga muayyan faoliyat turlarini emas, balki ularda bilimlarni uzluksiz egallash ko‘nikmalari, malakalari va ulardan hayotiy faoliyatning turli vaziyatlarida foydalanish layoqatini shakllantirish zaruriyatga aylanmoqda.

Zamonaviy ta’lim modeli boshlang‘ich ta’limga qadriyatli yondashishni ta’minlash uchun asos bo‘lishi lozim. Buning uchun quyidagilarga e’tibor qaratiladi:

- muammolarni faol yechishga o‘tish;
- murakkab hayotiy vaziyatlarni o‘quv predmetlariaro aloqadorlik asosida yechishga e’tibor qaratish;
- bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida o‘qituvchi bilan o‘quvchilarning hamkorligini amalga oshirish;
- o‘quvchilarning ta’lim mazmuni va metodlarini tanlashda faol ishtirok etishlarini ta’minlash kabilar.

Shuning uchun ham o‘quvchilarda ta’limiy kompetensiyalarni shakllantirishga aniq yo‘nalish olish uchun bilim, ko‘nikma, malakalarni aniq hayotiy sharoitlarda qo‘llash vaziyatlarini tanlash lozim. Shunga ko‘ra, o‘quv dasturida amaliy yo‘nalishdagi mashg‘ulotlarning mavzularini ko‘paytirish, o‘quvchilarning loyihalash faoliyatlariga keng yo‘l ochish talab qilinadi.

G.K.Selevko va uning izdoshlari kompetentlikni shaxsning hayotiy faoliyatga tayyorligi sifatida baholaydilar. Ushbu kompetensiyalar o‘quvchilarning bilimlari va hayotiy tajribalariga asoslangan holda shakllanadi. O‘quv jarayonida egallangan ushbu bilimlar o‘quvchilarning faol ijtimoiylashishlari va hayotiy vaziyatlarda mustaqil qarorlar qabul qilishlariga ko‘maklashadi. Bu shaxsning umumiy layoqatlari sirasiga kirib, egallangan bilimlar uning butun hayotiy faoliyati davomida kompetensiyalarga aylanadi [1;140-b.].

V.V.Bashevning ta’kidlashicha, kompetensiya sharoitdan kelib chiqqan holda layoqatlarni ko‘chirishdan iborat bo‘lib, u shaxsning dastlabki hayotiy faoliyati davomida hosil bo‘ladi [2].

Boshlang‘ich ta’lim davlat ta’lim standartlari va milliy dasturga muvofiq tarzda tayanch kompetensiyalar tushunchasi doirasida umumiy ijtimoiy tushunchani o‘zida mujassamlashtirgan, shaxs faoliyatining barcha sohalarida qo‘llaniladigan bilim, ko‘nikma, malakalarning muayyan

darajasi tushuniladi. Boshqa so‘z bilan aytganda tayanch kompetensiya shaxs sifatlari majmuining alohida timsoli hisoblanadi. Ularni qo‘llash uchun shaxs hayotiy jarayonlarda faol ishtirok etishi lozim. Tayanch kompetensiyalar tasnifi ham shaxs kamoloti uchun muhim ahamiyatga ega.

J.Delor o‘z tadqiqotlarida tayanch kompetensiyalarni to‘rt ustunga jamlagan edi. Ular: bilishni o‘rganish, bajara olishni o‘rganish, birgalikda yashashga o‘rganish, yashashga o‘rganish [3].

O‘quvchilarning hayotiy faoliyatini shakllantirishga yo‘naltirilgan kompetensiyalar muhim ahamiyatga ega. Ular: mustaqil bilish faoliyati sohasidagi kompetensiyalar; ijtimoiy fuqarolik sohasidagi kompetensiyalar; ijtimoiy mehnat sohasidagi kompetensiyalar; ijtimoiy turmush sohasidagi kompetensiyalar; madaniy turmush sohasidagi kompetensiyalar kabilar.

Barcha tasniflarda o‘quvchining bilish faoliyatini rivojlantirishga urg‘u berilgan. Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi ikki tushunchaning uyg‘unlashuvidan kelib chiqqan. Ular: “axborot kompetensiyasi” hamda “axborotli kompetentlilik”.

V.F.Burmakinaning ta’biricha, axborot kompetensiyasi aniq o‘quv predmetiga oid bilimlarni o‘rganish jarayonida o‘quvchilarning axborotlar hamda atrof-muhitga bo‘lgan munosabati va faoliyat ko‘nikmalarini ifodalovchi hodisa. Uning doirasiga, birinchi navbatda, axborot vositalarini o‘zlashtirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalari kiradi. Shu bilan bir qatorda ularning tarkibiga quyidagi ko‘nikmalar ham kiradi. Ular: zarur axborotlarni tahlil qilish va sharhlash, ularni qayta shaklantirish, saqlash va uzatish kabilar [4].

Axborot kompetensiyasining tarkibiy qismlari ilmiy adabiyotlarda turlicha tasniflangan. Jumladan, S.V.Trishina quyidagilarni ko‘rsatib o‘tgan:

1. Kognitiv – bilimlar va axborotlardan amaliyotda to‘g‘ri foydalanishni ta’minlashga qaratilgan. Ushbu komponent o‘z tarkibiga quyidagi tayanch jarayonlarni mujassamlashtiradi: tahlil, qayta ishlash, qo‘lga kiritish, uzatish, bashorat qilish, taqdim qilish, axborotlarni saralash, saqlash va boshqalar.
2. Qadriyatli-motivli yondashuvga asoslanish axborotlarni o‘zlashtirish va ulardan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirishga yo‘naltiriladi. Bularning barchasi o‘quvchilarning bilim doiralarini kengaytirish, natijada esa bilimlar majmuini taqdim etish bilan belgilanadi.
3. Texnik-texnologik komponent o‘zida axborot texnologiyalari vositasida axborotlar bilan ishlash jarayonini mujassamlashtiradi. Bu jarayonda o‘quvchilar turli rusumdagi kompyuterlar bilan ishlaydilar.
4. Kommunikativ komponent esa muloqot va axborotlarni uzatish uchun zarur bo‘lgan nutq va boshqa ifoda belgilari bilan ishlash jarayonini qamrab oladi.
5. Refleksiv komponent o‘quvchida axborotlar olamida o‘z o‘rnini anglash, axborot maydonida o‘z harakatlarini tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirildi [5].

V.V.Kotenko va S.L.Surmenkolarning ishlarida esa tayanch kompetensiyalarning to‘rtta komponenti ajratib ko‘rsatilgan. Ular:

1. Qadriyatli-motivli komponent; mazkur komponent negizida zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida bilimlarni egallashga qiziqish g‘oyasi ifodalanadi.
2. Kognitiv komponent; ushbu komponent o‘quvchilarda turli axborotlardan foydalanish jarayonida bilimlar va ko‘nikmalarni qo‘llash orqali namoyon bo‘ladi.
3. Faoliyatli komponent; ushbu komponent esa axborotlar bilan ishlashda yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali namoyon bo‘ladi.
4. Pedagogik refleksiya komponenti; mazkur komponent o‘z faoliyati natijalarini tahlil qilishga asoslanadi [6].

Tahlillarimizdan shu narsa ayon bo‘ldiki, kompetensiya va kompetentlilik tushunchalari olimlar tomonidan turlicha tavsiflangan, biroq ularning asosini shaxsning muayyan sohadagi layoqati, mahorati, mustahkam ko‘nikma va malakalari tashkil etadi. Kompetensiya va kompetentlilik tushunchalari o‘zining tarkibiy mohiyatiga ko‘ra kognitiv, texnologik-operatsion, motivatsion, ijtimoiy-axloqiy xarakterga ega.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarda tayanch va fanga oid kompetensiyalarni hosil qilish o‘ziga xos pedagogik jarayonni tashkil etishni taqozo qiladi. Bu jarayonda o‘quvchilarning pedagogik, psixologik, yosh xususiyatlarini alohida hisobga olish lozim.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni mahsuldor faoliyatga jalb etib, DTSda va milliy dasturda belgilab qo‘yilgan tayanch va fanga oid kompetensiyalar bilan qurollantirish maqsadida ijodiy-kognitiv xarakterdagi o‘quv materiallarini taqdim etish talab qilinadi. Shu asnoda o‘quvchilarda matematik hisoblashga oid axborotlarni o‘zlashtirish jarayonida tayanch hayotiy va fanga oid kompetensiyalar hosil qilinadi. Bu jarayonda, ayniqsa, **kommunikativ, o‘zini o‘zi rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik, milliy va umummadaniy** kompetensiyalarni shakllantirish asosida hayotiy **kompetensiyasi shakllanadi.**

Tahlillarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, umumiy o‘rta ta’limning o‘quvchilarning yoshi, psixofiziologik va integrativ xususiyatidan kelib chiqqan holda kompetensiya – o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘zlarining kundalik faoliyatlarida qo‘llay olish layoqati, kompetentlik – o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini optimal va samarali qo‘llay olish layoqati sifatida baholanadi.

Hayotiy kompetensiya shaxsning kundalik hayoti uchun zarur bo‘lgan faoliyat tajribasidir.

REFERENCES

1. Г.Селевко Компетентности и их классификации.//Народное образование - 2004. - № 4, - С.138-143.
2. В.В.Башев, И.Д.Фрумин Как можно читать стандарты? Семь вопросов по существу // Директор школы. 1999. №5.
3. Ж.Делор Образование: необходимая утопия//Педагогика.-1998. - №5. - С. 32.
4. Бурмакина В.Ф. Информационно-коммуникационно - технологическая компетентность // Методическое руководство для подготовки к тестированию учителей. – Москва - 2007. – 56 с.
5. С.В.Тришина Информационная компетентность как педагогическая категория // Интернет-журнал «Эйдос». 2005. 10 сент. // Режим доступа: http://www.eidos.ru/joumal/2005/0910-11.htm.
6. В.В.Котенко, С.Л.Сурменко Информационно-компьютерная компетентность как компонент профессиональной подготовки будущего учителя информатики.–Режим доступа: http//www.omsk.edu/volume/2006/methodics

XALQARO PIRLS BAHOLASH DASTURI

[1]Xudayqulova Fazilat Bo`riyevna, [2]Abdaliyeva Barno Ilxom qizi

[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti Boshlang`ich ta`lim nazariyasi o`qituvchisi
fazilatxudayqulova@gmail.com

[2]Chirchiq davlat pedagogika universiteti Boshlang`ich ta`lim yo`nalishi talabasi
abdaliyevabarno@gmail.com

https://doi.org/10.5281/zenodo.7927420

Annotatsiya. *PIRLS xalqaro tadqiqoti boshlang’ich sinf o‘quvchilarining o‘qib tushunish ko‘nikmalarini qanday darajada rivojlanganligi haqidagi ma‘lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradi .PIRLS xalqaro tadqiqoti har besh yilda bir marta o‘tkaziladi. PIRLS boshlang’ich sinf o‘quvchilarining sinf va sinfdan tashqari o‘qishini baholashda ikkita keng qamrovli maqsadga , ya‘ni, “ badiiy tajriba orttirish “ va “axborotni olish va undan foydalanish” ga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *PIRLS xalqaro baholash dasturi, zamonaviy globallashuv jarayoni, ,texnologik rivojlantirish ,PIRLS tadqiqoti, so‘rovnoma ,PISA xalqaro baholash dasturi, xorijiy tajribalar, badiiy o‘qish va metapredmet natijalari.*

Bugungi kunda dunyoda globallashuv jarayoni avj olar ekan uning tub zamirida texnika va texnologiyalar yotadi. Borliqdagi bu jarayoni fan va texnikaning rivojlanishida, iqtisodiyotning yuqori darajada o‘sishida va ta‘lim sohasining tubdan yuksalib borishida ko‘rinmoqda . Ammo e’tibor beradigan bo’lsak texnikaning ham iqtisodiyotning ham ilgarilab borishida ta‘lim turadi. Hozirgi davrda esa ta‘lim tizimidagi o‘zgarishlar e‘tiborga sazovordir. Ta‘lim sifatini o‘sishining muhim omili mamlakatda raqobatga chidamli malakali mutaxassislarni tayyorlash hisoblanadi.

Hozirda yosh kelajak avlodning faolligini shakllantirish nafaqat bir mamlakat uchun balki, xalqaro hamjamiyatimiz uchun ham e‘tiborli masala hisoblanadi. Shu boisdan , globallashuv jarayoni kelajak egalari sifatida yosh avlodni tayyorlashda dunyo xalqlarining maqsadlarini birlashishiga olib keldi. Yer kurrasida 227 tadan ortiqroq davlat bo‘lsa barchasi shuni biladiki , ta’limning jamiyatimiz taraqqiyoti va har bir inson rivojlanishida muhim o‘rni bordir, shuning uchun ham ta‘lim sifatiga keng miqyosdagi e’tibor qaratilgan. Hozirgi kunda ta‘lim sifatini yanada chuqurlashtirish , rivojlantirish va baholash kabi masalalar bilan ko‘pgina xalqaro tashkilotlar davlatlarida ta‘lim sohasini baholashning PIRLS,TIMSS,PISA ,TALIS,PIAAC, ICCS, SITES, IALS ,ALL kabi baholash dars turlari amaliyotga tatbiq etilgan.

Asosiy qism

PIRLS xalqaro tadqiqoti boshlang’ich sinf o‘quvchilarining o‘qib tushunish ko‘nikmalarini qanday darajada rivojlanganligi haqidagi ma‘lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan , o‘qish va o‘tishni yaxshilashda ta‘lim sohasidagi davlat siyosatiga xizmat qilishi mumkin bo’lgan tahlillarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturi hisoblanadi. PIRLS loyihasi Ta‘lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (**IEA- International Association for the Evaluation of Edukational Achiyevement)** shafeligida yaratilgan**.** Xalqaro tashkilotlarni tashkil etish uchun Chestnut Hill (Massachusets AQSH) Boston kolleji mas‘ul hisoblanadi. Xalqaro tadqiqot uchun topshiriqlarni tayyorlash Gamburgdagi (Germaniya) ma‘lumotlar markazida amalga oshiriladi.

PIRLS (inglizcha; Progress in International Leading Literacy Study’) – Bu turli mamlakatlarda boshlang’ich sinfda tahsil oluvchi o‘quvchi yoshlarning matnni o‘qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir.

Tadqiqot davriy ravishda- har besh yilda bir marta o‘tkaziladi va hozirgacha ham besh marta ; 2001,2006,2011,2016,2021-yillarda o‘tkazilgan. PIRLS tadqiqoti faqatgina o‘quvchilar savodxonligini aniqlashga yo‘naltirilgan topshiriqlar tizimidan iborat bòlibgina qolmay, òz ichiga bu borada olib borilayotgan ta’limga olib borilayotgan islohotlarni aniqlovchi sòrovnomalarni ham oladi. Bunday sòrovnomalar maktab ma’muriyati, òqituvchilar hamda ota-onalar yoki vasiylar òrtasida amalga oshiriladi. O‘quvchilarning ta‘lim olishdagi imkoniyatlari va sharoitlari haqidagi sòrovnoma ma‘lumotlarni ta‘lim natijalarini talqin qilishda muhim ro‘l òynaydi. PIRLS tadqiqotning muhim jihatlaridan biri shuki, dasturda erishilgan natijalar tahlili hamda òtkazilgan sòrovnomalar ma‘lumotlarining umumlashtirilishi dunyo bòylab o‘qish savodxonligini oshirishdagi eng yaxshi tajribalarga doir qimmatli ma‘lumotlarni tòplash imkonini beradi. Hozirgi vaqtda PIRLS ta‘rifiga kòra, òqish savodxonligini jamiyat tomonidan talab qiladigan va inson tomonidan qadrlanadigan, yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish , shuningdek matnlardan turli shakllarda ma‘no hosil qila olish qobiliyati hamdir.

Zamonaviy globallashuv va o‘sib borayotgan xalqaro raqobat sharoitida “Xar tomonlama rivojlanish komissiyasi” yosh avlodning bilim olish darajasiga bog’liq bo‘lib qolmoqda. Shu maqsadda O’zbekiston Respublikasi yosh avlodni XXI asr ko‘nikmalarini va bilimlariga zarur shart -sharoitlar yaratish maqsadida ta‘lim sohasida tizimli islohotlar amalga oshirilib kelmoqda. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabr “Xalq ta’lim tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish to’g’risida”gi chora-tadbirlariga asosan O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining huzuridagi ta‘lim sifatini himoya qilish inspeksiyasi huzurida Ta‘lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etildi. Bu markazning tashkil etilishi o‘quvchilarining ta‘limdagi yutuqlarini baholash va nazorat qilish imkonini beradi. Bundan ko‘rinadiki, mamlakatimizda ta’lim sifatini baholashning yangicha tizimi shakllantirilmoqda. Hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan milliy baholash tizimini takomillashtirish maqsadida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari rivojlantirilmoqda. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “ O’zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida” gi PF 5712 qarori son Farmonida 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahoning 30ta ilg̀or mamlakatlari qatoriga kishiga erishish va xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish orqali o‘quvchilarining o‘qish va matematika va tabiiy yo‘nalishlarda fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo‘naltirilgan ta‘lim baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan. Jumladan, 2018-yil 12-noyabrda Xalqaro hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti o‘rtasida xalqaro bilimlarni baholash dasturi (Programme for international student assessment PISA) da ishtirok etish to’g’risida kelishuv imzolandi. O’zbekiston Respublikasi ta‘lim tizimida bunday xalqaro baholash tendentsiyalariga amal qilish yosh avlodni faolligini oshirish ,ularning ta‘limdagi izlanishi va kreativligini rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Mamlakatimiz o‘quvchilari ilk bor 2021-yilda PIRLS -2021 xalqaro baholash dasturida ishtirok etishi belgilangan edi . 70ga yaqin davlatlar qatorida mamlakatimizning 4-sinf o‘quvchilarining ishtirok etishlari belgilan qo‘yilgan edi. Aynan shu yilda o‘tkazilgan tadqiqotda o‘quvchilari birinchi marta raqamli formatdagi topshiriqlarni taqdim etilishini rejalashtirilganligini aytish o‘rinlidir . Raqamli

formatga o‘tish bilan birga, Internet muhitida boshqariladigan PIRLS online o‘qishni kompyuterda baholash kabi o‘zgarishlar ham kòzda tutilgan.

PIRLS boshlang’ich sinf o‘quvchilarining sinf va sinfdan tashqari o‘qishini baholashda ikkita keng qamrovli maqsadga muvofiq bo’ladi, ya‘ni “badiiy tajriba orttirish” ,” axborotni olish va undan foydalanish”ga qaratilgan . O‘z navbatida ushbu maqsadlarning har biri to‘rtta keng tushunish jarayonini birlashtiradi ,bular;

- Diqqatni jamlash va aniq ko‘rsatilgan ma‘lumotlarni topish.
- To‘g‘ridan-to‘g‘ri xulosalar chiqarish.
- Kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish .
- G‘oyalar va axborotni tahlil qilish va uyg‘unlashtirish .

PIRLS tadqiqotida o‘quvchilarining dars vaqtida va maktabdan tashqari vaqtlarida o‘qishni ikki turi baholanadi:

1. O‘quvchilarining adabiy tajribasini baholash maqsadida o‘qish
2. Ma‘lumotlarni o‘zlashtirish va undan foydalanish maqsadida o‘qish.

Tadqiqot qoidalariga muvofiq , badiiy va informatsion matnlarni o‘qiyotganda o‘qish qobilyatining to‘rtta guruhi baholanadi:

1. Aniq ko‘rsatilgan ma‘lumotlarni topish
2. Xulosalarini shakllantirish
3. Ma‘lumotlarni talqin va sintez qilish
4. Mazmuni ,til xususiyatlari va matn tuzilishini tahlil qilish va baholash.

PIRLSda bajarilgan ishlarni sifatli va miqdoriy baholash uchun quyidagi tizim qo’llaniladi:

- Javobni tanlash usulidagi to‘g‘ri javoblar 1 ball bilan baholanadi.
- Mavzu ketma-ketligini belgilash borasidagi to‘g‘ri javoblar 1 ball bilan baholanadi.
- Erkin javob berishi kerak bo’lgan topshiriqlar vazifaning murakkabligiga qarab 1balldan 3 ballgacha baholanadi. Natijalarni qayta ishlash uchun zamonaviy sinov nazariyasi qo‘llaniladi.

Tadqiqotdagi matnlar murakkabligiga ko‘ra, o‘rtacha 500dan 800 tagacha , o‘quvchilarining o‘qish savodxonligi darajasi past bo’lgan mamlakatlar uchun 400-500ta ,PIRLSda esa taxminan 1000ta so‘zdan iborat bo‘ladi. Matnning mazmuni 9-10yoshdagi o‘quvchilarga mos ,ayrim madaniyatlarga juda xos bo‘lgan mazmunlardan chetlashgan ,shuningdek, qiziqarli o‘quvchiga uncha tanish bo’lmaydi.

PIRLS tadqiqotida o‘qish savodxonligining darajalari quyidagicha tavsiflanadi;

- Eng yuqori daraja(625 ball va undan yuqori)- O‘quvchilar matnni yaxlit o‘zlashtira oladi va ayni patda uning alohida qismlarini bir -biri bilan bog’liq xolda tushunadi. Muallifning g‘oyasini izohlashda o‘z fikrini izohlash uchun matnga tayana oladi.
- Yuqori daraja(550ball)- O‘quvchilar matnning ahamiyatli xabarlarini tushunadi, matnga asoslanib o’z xulosalarini chiqaradi, matn mazmuniga ham , shakliga ham baho bera oladi, uning til xususiyatlariga e‘tibor qarata oladi.
- O‘rta daraja(475 ball)-O‘quvchilar matndan axborot topa oladi, matn shakli va tilining ba‘zi xususiyatlaridan foydalanib, matnga asosan o‘z xulosalarini chiqaradi.
- Quyi daraja(400 ba)-O‘quvchilar matnda aniq berilgan va cheklash oson bo‘lgan xabarni ajratib oladi.

Tadqiqotda O’zbekiston Respublikasi boshlang’ich sinf bitiruvchilari boshqa davlatdagi tengdoshlariga nisbatan qanchalik darajada yaxshi o‘qiydi? O‘zbekiston o‘quvchilarining o‘qish

savodxonligi qay darajada? O‘qish 4-sinf o‘quvchilari uchun sevimli mashg’ulotmi? Oila tomonidan savodxonlikni rivojlantirishda qanday hissa qo‘shilmoqda? Bugungi kunda bizning mamlakatimizda o‘qishni o‘rgatish jarayoni qanday tashkil etilgan? O‘zbekiston o‘qishni o‘rgatish jarayoning boshqa davlatlarga nisbatan o‘ziga xosligi bormi, agar shunday bo’lsa u nimada namoyon bo’ladi? Boshlang’ich sinflarimizning o‘qituvchilari foydalanayotgan metodlar boshqa davlatdagi o‘qituvchilarning foydalanayotgan metodlaridan farq qiladimi? kabi asosiy masalalar o‘rganiladi. Shuningdek, tadqiqotda ta‘lim sifatiga ta‘sir etuvchi omillarni o‘rganish va tahlil qilish maqsadida anketa so‘rovnomalar o‘tkazilganda o‘quvchilarining so‘rovnomasi orqali , ishtirokchi haqida ma‘lumotlar, oilada ta’limiy resurslar , maktabga ,o‘qituvchiga, maktabdagi o‘quv faniga bo‘lgan munosabat, o‘quv fanlari bo‘yicha o‘zini baholash , sinfdan tashqari mashg’ulotlar to’g’risida ma‘lumotlar to‘planadi.

O‘qituvchilarning so‘rovnomalari o‘qituvchilar to’g’risida ma‘lumotlar, maktabning jihozlanishi , xavfsizlik, maktab muhiti, o‘qitish usuli, malaka oshirish masalalarini o‘z ichiga oladi.

Ota-onalar so‘rovnomalarida ota-onalar haqidagi ma‘lumotlar, oiladagi ta‘limiy resurslar, farzandini maktabga tayyorlash, maktabga qabul qilishdan avvalgi ko‘nikma va malakalar , ota-onalarning maktabga va o‘qishga munosabati o‘rganiladi.

Maktab ma’muriyati so‘rovnomasi orqali maktab quvvati, joylashuvi , jihozlanishi, ta‘limiy resurslar, maktabda o‘quv jarayonining tashkil etilishi, maktab muhiti o‘rganilib, tahlil etiladi.

Tadqiqotning 2016-yil natijalariga ko‘ra ,50ta mamlakat ichida, Rossiya ,Singapur, Gonkong, Irlandiya va Finlandiya mamlakatlari natijalarini qayt etgan bo‘lsa , shular orasida singapurlik va gonkonglik o‘quvchilar matnni o‘qish va tushunish bo‘yicha eng yuqori natijalarni ko‘rsatdi. Shuningdek, Rossiyaning boshlang’ich sinf o’quvchilari ushbu mezon bo‘yicha dunyoda yetakchilik qildi. Mazkur davlatlarda o‘qish savodxonligi bo‘yicha yuqori natijalar quyidagi omillar bilan bog’liq; undagi kitoblar va raqamli qurilmalarning mavjudligi, ziyoli ota-onalar va ularning kitobga bo‘lgan muhabbati, bola maktabga borgunga qadar o‘qish va yozishga o‘rgatganligi va maktabgacha ta’lim muassasalariga qamrab olish ko‘rsatkichining yuqoriligi .

PIRLSda Rossiyalik boshlang’ich sinf o‘quvchilarining yuksak yutuqlarga erishishlariga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar.

Jamiyatda ,o‘qituvchilar, ota-onalar va o‘quvchilar orasida o‘qish savodxonligi bilan shug‘ullanishning qadr-qimmatining tan olinishi, maktabda va oilalarda o‘qishga bo‘lgan yuqori mativatsiya maktabgacha bo’lgan bosqichning yaxshi natijasi , ota-onalarning o‘qishni o‘rganishga tayyorgarlik ko‘rinishidagi ishtiroki umumiy boshlang’ich ta‘limning Federal davlat asosiy standartlarida belgilab qo‘yilgan ta‘lim jarayonidagi prinsipal o‘zgarishlar: “badiiy o‘qish “ va metapredmet natijalari bo‘yicha umumiy ta’limni tashkil etish va natijalarga erishish boshlang’ich ta‘limning sifatli dasturlari ,darsliklari, o‘qishni o‘rgatishni chuqur o‘ylangan metodikasi o‘qishda qiyinchiliklarga duch kelayotgan o‘quvchilar bilan muvaffaqiyatli ishlash kabi omillar PIRLSda boshlang’ich sinf o‘quvchilarining yuksak yutuqlarga erishishlariga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar sifatida o‘rganiladi.

PIRLSda rossiyalik boshlang’ich sinf o‘quvchilarining yuksak yutuqlari.

Har bir sinfda ta‘limni differensiallashga e’tibor berilishi zarur ,bu borada aksariyat birinchi sinf o‘quvchilarining muvaffaqiyatli boshlash zarur bo’lgan ko‘nikmalarga ega bo’lgan maktablarga alohida e’tibor berilishi zarur . Yana ikkita muammolarni ko‘zda tutish kerakki;

1. Eng kuchli o‘quvchilarga kelgusidagi rivojlanishiga ko’maklashish
2. O‘g‘il bolalarga yordam berish , chunki ularning natijalari qizlarning natijalaridan yomonroq degan fikrlarni ko‘rib chiqib, aynan manashu vazifalarni boshlang’ich sinf o‘quvchilarining PIRLSda yuksak yutuqlarga erishishdagi o‘sish nuqtalari deb belgilangan .

Boshlang’ich ta’lim tizimi oldidagi ustuvor vazifalar sifatida esa ta’lim jarayonida turli xil matnlardan foydalanishni ta‘minlash zarur: yaxlit, yaxlit bo‘lmagan, murakkab(ko‘plik) ,turli xil matnlarni o‘qish uchun strategiyalar ishlab chiqish, tushunib o‘qishni shakllantirish va baholashning turli shakllaridan foydalanish (qog’oz va kompyuter yordamida) kabi vazifalar qo‘yiladi.

Rossiyada boshlang’ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligi bo‘yicha olib borilayotgan ishlarda PIRLS darslari.

O‘qish tezligini nazorat qilishdan ko‘ra tushunib o‘qishga urg’u berish kuzatildi. O‘qish savodxonligi funksional savodxonlikning integrativ komponenti sifatida anglatmoqda. Rossiyada bu davlat hujjatlari sifatida qayt etilgan(FDAS UBT 2009-yil) . Matematik, lingvistik, tarixiy, tabiiy-ilmiy va ma‘lumotnomalarni o‘qishni o‘rgatishda o‘ziga xoslik ishlab chiqarilmoqda. O‘qish savodxonligini baholashning turli modellari metapredmet natijasi sifatida yaratiladi.

Xulosa qismi

PIRLS tadqiqotida O‘zbekiston Respublikasining ishtirok etishi ta‘lim sifatini oshirish , xalqaro miqyosda davlat nufuzini mustahkamlash bilan birga o‘quvchilar bilimini xalqaro talablar darajasiga olib chiqishga xizmat qiladi.

PIRLS dasturi 4-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy fanlardan bilim darajasini baholaydigan TIMSS dasturini to‘ldirishga yo‘naltirilgan. PIRLS boshlang’ich sinf o‘quvchilarining sinf va sinfdan tashqari o‘qishini ham baholab boradi. 2021-yil uchun mo‘ljallangan tadqiqotlarda O’zbekistonning boshlang’ich sinf o‘quvchilarining ham ishtirok etishining belgilangan edi . Bu qaroq o‘qituvchilarga juda katta mas‘uliyat yukladi. Bu muhim vazifani amalga oshirish o‘qituvchilardan ta‘limimizga yangicha yondoshuvni va faolligini namoyon qilishlarini talab etadi.

O‘quvchilarining xalqaro baholash darajasini belgilovchi PIRLSga tayyorlashda o‘qish darsi jarayonida darslikda berilgan har bir matn yuzasidan o‘quvchilar o’zi mustaqil ravishda matndan kelib chiqib savollar tuzish vazifasi berilsa , har bir bolaning berilgan matnni qay darajada o‘zlashtirganini uning savollari orqali bilib olish mumkin. Bunda o‘qituvchilarning dunyoqarashi ,mustaqil fikrlash va obrazli tafakkuri har bir dars davomida rivojlantirilib boriladi. Dars jarayonida bola to‘g‘ri yoki noto’g’ri fikrni tinglab , to‘g‘ri xulosani hayotiy faktlar orqali chiqarishga o‘rganib boradi.

PIRLS o‘qish ta‘limini takomillashtirish uchun dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Davlatlar PIRLSdan quyidagi maqsadlarda foydalanadi:

- Global miqyosida ta‘lim tizimi darajasidagi yutuqlarining tendensiyalarini kuzatib borish.
- Yangi yoki qayta ko‘rib chiqilgan ta’lim siyosatining ta‘sirini kuzatib borish.
- Ta’limning zaif nuqtalarini belgilash va o‘quv islohotini amalga oshirish.
- PIRLS ma‘lumotlarni tadqiq va tahlil qilish orqali o‘qitish va o‘tishni takomillashtirish.
- Adolatlilikni kuzatish yoki qo‘shimcha sinflarda o‘quvchilarini baholash kabi tegishli ishlarni olib borish.

- O‘qish va o‘qitishni o‘rganish.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O’zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida” gi PF 5712 sonli Farmoni
2. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’lim tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish to’g’risida” gi 2018-yil 8-dekabrdagi 997 -sonli qarori.
3. D .Rabbonayeva maruza matnidan.
4. “Xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish - inson kapitalini rivojlantirish omilidir” mavzusidagi xalqaro vebinar , Sidorova Galina Aleksandrova , Rossiya ta’lim akademiyasining ta’limini rivojlantirish strategiyasi instituti, ta‘lim sifatini baholash markazining katta ilmiy xodimi, pedagogik fanlar nomzodi. E-mail. Centeroko@mail.ru
5. S. Yo‘ldasheva va M. Rahimqulova maruza matnidan.
6. S. Diyarova . Samarqand 1toifali boshlang’ich sinf o‘qituvchisi maruza matnidan.
7. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang’ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash (Boshlang’ich sinf o‘qituvchilar ,metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo’llanma) . Ta‘lim instituti huzuridagi Ta‘lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi. Toshkent 2019-yil. 92b.
8. PIRLS xalqaro baholash dasturi
9. PIRLS 2001 International Report
10. PIRLS 2006 international Report
11. PIRLS 2011 International Report
12. PIRLS 2016
13. PIRLS 2016 natijalari
14. PIRLS 2016 o‘qish yutuqlari tendentsiyalari
15. O‘quvchilar yutug‘i haqida umumiy ma’lumot
16. PIRLS 2021 tadqiqoti qamrov doirasida
17. “PIRLS 2021 International results”
18. Buriyevna, X. F., & Baxtiyorovich, T. B. (2023). ORGANIZING FORMS OF COURSES THROUGH INTERNATIONAL EDUCATIONAL PROGRAMS BASED ON THE EXPERIENCE OF DEVELOPED COUNTRIES. *British Journal of Global Ecology and Sustainable Development*, *15*, 33-34.
19. Худайкулова, Ф. Б. (2022). ЛАБОРАТОРИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ЛИЧНОСТИ В ОБРАЗОВАНИИ. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, *10*, 48-53.
20. Xodjamkulov Umid Negmatovich, & Xudoyqulova Fazilat Bo‘riyevna. (2021). O‘QITUVCHI SHAXSINING FIKR ALMASHUV BILAN BOG‘LIQ XUSUSIYATLARI. *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, *2*(3), 107–114. Retrieved from https://bilig.academiascience.org/index.php/isepsmj/article/view/59

RIVOJLANAYOTGAN TEXNOLOGIYALAR VA O’ZGARUVCHAN TA’LIM MAZMUNI

Davronov N.K.
Toshkent davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

https://doi.org/10.5281/zenodo.7927456

Annotatsiya. *Maqolada so’ngi yillarda eletron ta’lim inqilobi tufayli ta'lim texnologiyasining predmeti o’qish va o’rgatish samaradorligini oshiradigan texnik va pedagogik usullar va vositalarni o’zgarganligi va texnologiyaga asoslangan o'qitish motivatsiyani rag'batlantiradigan, qiziqarli, samarali va mazmunli o'rganishga olib keladigan turli xil imkoniyatlar va amaliyotlarni taqdim etish orqali sifat jihatidan an'anaviy sinfga asoslangan o'qitishdan farqi haqida mulohaza yuritilgan.*

Kalit so’zlar: *Ta’lim, texnalogiya, ta’lim mazmuni, pedagogika, texnologlar, loyixa.*

texnologiyasi - bu tegishli texnologik jarayonlar va resurslarni yaratish, ulardan foydalanish va boshqarish orqali o'rganishni osonlashtiruvchi va samaradorlikni oshiruvchi ta’limiy va ma’naviy amaliyotdir. Ta'limda qo'llaniladigan texnologiya nuqtai nazaridan, ta'lim texnologiyasini turli xil o'quv sharoitlarida o'rganish tajribasini yaxshilash uchun paydo bo'lgan va mavjud texnologiyalardan foydalanish deb tushunish mumkin, masalan ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta’lim olish (kunduzgi), ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta’lim olish (sirtqi, kechki, masofaviy), dual ta’lim, oilada ta’lim olish va mustaqil ta’lim olish, katta yoshdagilarni o‘qitish va ularga ta’lim berish (andragogika), inklyuziv ta’lim, eksternat tartibidagi ta’lim, mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlar tayyorlash. Ta'limda texnologik yondashuvlar dastlab audiovizual vositalar tarzida rivojlanib, keyinchalik individual va tarmoqqa ulangan kompyuterlarga, hozirda esa turli xil mobil va smart texnologiyalar, shuningdek, virtual va kengaytirilgan 7D muhitlar, avatarga asoslangan immersiv muhitlar, masofaviy serverlar tarmoqlari (cloud computing), GPS qurilmalar tarzida haqiqiy inqilobni amalga oshirdi. Bizning fikrimizcha, o'rganish va o'qitishni doimiy ravishda qo'llab-quvvatlaydigan har qanday narsa ta'lim texnologiyasi deb hisoblanishi mumkin. Ba'zi ta'lim texnologiyalari oddiy va ko'p yillar davomida foydalanib kelinmoqda, boshqalari esa murakkab va har kuni yangilari ta'lim muassasalariga integratsiyalanyapti.

Ta'lim texnologiyasining predmeti o’qish va o’rgatish samaradorligini oshiradigan texnik va pedagogik usullari va vositalarni o’z ichiga oladi. Bu so'nggi yillarda elektron ta'lim inqilobi muvaffaqiyatining asosidir. Texnologiyaga asoslangan o'qitish motivatsiyani rag'batlantiradigan, qiziqarli, samarali va mazmunli o'rganishga olib keladigan turli xil imkoniyatlar va amaliyotlarni taqdim etish orqali sifat jihatidan an'anaviy sinfga asoslangan o'qitishdan ustunlik qiladi.

O'rganish inson yoki odamlar guruhining bilishi va qila oladigan barqaror va doimiy o'zgarishlari bilan tavsiflanadi. O'zgarishlar va ta'lim taraqqiyotini kuzatish o'qituvchilar va o'quvchilar bilan ta'lim texnologlari tushunishi kerak bo'lgan narsalardan biridir. Ta'lim texnologiyasi tarixiga nazar solsak, texnologiyalar doima o’zgarib yangilanib boradi.

Rivojlanayotgan texnologiyalarning ba'zilari qanday bo’lishi mumkin? Qurilmalar va apparat vositalari toifasida 3D printerlar va taqiladigan hisoblash qurilmalari hayolga keladi. Uch o'lchovli printerlar allaqachon “makerspace” deb nomlangan harakat bilan bog'liq ta'sir ko'rsatmoqda, bunda o'quvchilar obyekt yoki artefaktni yaratish va sinab ko'rish uchun 3D printerdan foydalanish va dizaynga asoslangan o'rganish kontekstida shug'ullanishadi. Aqlli

soatlar va internetga ulangan boshga o'rnatilgan displeylar kabi taqiladigan qurilmalar mavjud va ular, albatta, turli xil o'quv va o'qitish holatlarida foydalanilmoqda.

Jarayonlar va ilg'or texnologiyalarni qo'llash toifasida o'quv tahlillari, moslashtirilgan o'qitish tizimlari va shaxsiylashtirilgan ta'lim kichik miqyosdagi holatlarda o'quvchining oldingi bilim va ishlash, qiziqishlar, motivatsiya, afzalliklar va hatto kayfiyat nuqtai nazaridan mustahkam va dinamik ifodasini hisobga oladigan oldingi smart repetitorlik tizimlarining kengaytmalari sifatida sinovdan o'tkazilmoqda. Texnalogiyaga asoslangan ta'lim, kengaytirilgan va virtual haqiqatlar asta-sekin o'rganish va o'qitish holatlarida o'z yo'lini topayotgan rivojlanayotgan texnologiyalar qatoriga kiradi.

Yangi va rivojlanayotgan texnologiyalarning ta'lim mazmuniga qanday ta’sir qiladi? Ba'zilar avtomatlashtirilgan ta'lim, o'qitish moslamalari va mexanizmlari bilan birga insoniyatning to'plangan bilimlari va donoligidan hamma foydalanishi mumkin bo'lgan dunyoni tasavvur qiladi. Ba'zilar hatto bunday muhitda maktablar va o'qituvchilarning yo'qolishini bashorat qilishadi. Rasmiy ta'lim muhitlari va norasmiy ta'lim resurslari va muhitlari o'zgarib borayotganini aniq tan olsakda, biz kelajak haqidagi aniq tasavvurga ega emasmiz. Ta’lim kontekstdagi o'zgarishlar onlayn ta'limning yuqori sur’atlarda o’sishiga olib keldi. Onlayn resurslar va faoliyatni yuzma-yuz kontekst bilan birlashtirgan gibrid o'quv muhitlari hozirda ko'plab oliy o'quv yurtlarida, shuningdek, ba'zi uzluksiz ta’lim tizimida odatiy hol bo’lib qoldi. Ta’lim oluvchilar uchun Internet-resurslar mavjud bo'lganligi sababli, ko'pincha hech qanday to'lovsiz, ko'plab o'qituvchilar ijtimoiy tarmoqlar orqali daromad topish amaliyotini qo'llashmoqda. Bu sinfdan tashqari, ba'zan Internetga asoslangan muhitda o'qish va tegishli muhokamalarni tayinlashni va o'quvchilarni darsdan tashqarida muammolar bo'yicha o'rgangan bilimlarini qo'llashni, ba'zan kichik guruhlarda ishlashni mashq qilish uchun dars vaqtidan foydalanishni o'z ichiga oladi. Bunday holat o'qituvchiga ma'lumotni asosiy taqdim etuvchi rolidan o'quvchilarning malakasini rivojlantirish va mazmunli muammolarni hal qilish uchun bilimlarni qo'llash va uzatishni yaxshilash uchun konstruktiv va mazmunli fikr-mulohazalarni taqdim etish roliga o'tishga imkon beradi.

Ta’lim texnalogiyasida boshqa global o’zgarishlar ham yuz beryapti. Ilgari savodxonlik o'qish, yozish va asosiy arifmetikaga e'tibor qaratgan bo'lsa, savodxonlik tushunchasi sezilarli darajada kengayib, bir nechta savodxonlikni (masalan, axborot savodxonligi, texnologiya savodxonligi, vizualizatsiya savodxonligi) o'z ichiga olgan raqamli savodxonlikni o'z ichiga oldi. Bu shuni anglatadiki, odatda boshlang'ich va o'rta maktablarda o'qitiladigan asosiy ko'nikmalar tushunchasi kengaytirildi va texnologiyadan foydalangan holda raqamli savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash aniq yondashuvlardan biriga aylandi.

Pedagogik yondashuvlar ham o'zgarib bormoqda. O'tgan asrning so'nggi choragida interfaol o’quv metodlari joriy etilgandan beri uni amalda o'rganishga e'tibor kuchayib bordi, ba'zida uni haqiqiy yoki situatsion o'rganish deb ham atash mumkin. Kengaytirilgan va virtual animatsiyalar, immersiv muhitlar interaktiv simulyatsiya kuchini sezilarli darajada oshirdi. Natijada, bunday ilovalar bilim va tajribaning rivojlanishiga ta'sir qilishda davom etishi kuzatilmoqda.

Ta'lim texnologiyasi sohasida turli xil mas'uliyatli turli kasbiy lavozimlarda xodimlar faoliyati paydo bo’lyapti. Ta'lim texnologiyalari bo'yicha mutaxassislar bilan bog'liq bo'lgan lavozimlar, rollari va mas'uliyatlari bilan qisqacha tanishib chiqamiz:

• O’quv loyihachisi - turli kurslar, o'quv tizimlari va o'quv muhitlarini rejalashtirish, tahlil qilish, loyihalash, ishlab chiqish, o'zgartirish, amalga oshirish, baholash va boshqarish uchun mas'ul xodim.

• Ta'lim loyihasi menejeri - ta'limni rivojlantirish loyihalarini boshqarish, ta'lim dasturlarini boshqarish va o'quv muhitini yaratish bo'yicha harakatlarni boshqarish uchun mas'ul xodim.

• Media mutaxassisi - turli formatdagi turli media artefaktlarni yaratish, topish, o'zgartirish va ulardan foydalanish uchun mas'ul xodim.

• Texnologiya koordinatori - o'qituvchilar va mutaxassislarga turli xil ta'lim texnologiyalari resurslarini topish, o'zgartirish, foydalanish yoki integratsiya qilishda yordam berish uchun mas'ul.

• Tizim administratori - ta’lim tizimini, kontentini boshqarish tizimini, ta’limni boshqarish tizimini, o’rganish va o’qitishni amalga oshirish uchun foydalaniladigan tarmoq muhitini boshqarish va qo’llab-quvvatlash uchun mas’ul xodim.

• Ishlab chiquvchi/dasturchi — ta’lim bilan bog’liq bo’lgan dasturiy ta’minotni kodlash va ta’limiy faoliyatni amalga oshirishda foydalaniladigan va vositalashtirilgan obyektlar va resurslarni ishlab chiqish uchun mas’ul xodim.

• Baholovchi - darslar, kurslar, dasturlar, o'quv tizimlari va o'quv muhitini formativ va summativ baholash uchun mas'ul xodim.

• Instruktor - mas’ul yetakchi ta’lim bo’linmalari, o’quvchilarga repetitorlik qilish va rasmiy ta’lim kontekstida o’rganish bo’yicha yo’l-yo’riq va fikr-mulohazalarni taqdim etuvchi xodim.

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, ta'lim texnologiyalariga bo'lgan talab muttasil ortib bormoqda chunki, elektron ta’lim butun dunyo bo'ylab kengayib borayotgan ulkan sanoatdir. Tijorat elektron ta'lim kompaniyalari, yirik kompaniya va tashkilotlardagi o'quv bo'limlari, IT kompaniyalar va ta'lim muassasalarida ta'lim texnologiyalarini yaratishning turli jihatlari (dasturlash, grafik dizayn, o'quv dizayni, vazifalarni tahlil qilish, grafik muhandislik) bo'yicha ko'plab mutaxassislarga bo’lgan talab ortib bormoqda. Biroq, bu tashkilotlar ko'pincha o'zlarining kichik sohalari va fanlaridan tashqari bilimga ega bo'lgan tegishli malakali ishchilarni ishga olishda qiynaladilar. Sir emaski, ta'lim nazariyalarini, texnologiyalarni tushunadigan, xorijiy tillarni biladigan, texnologiyani o'rganish va o'qitishga qanday samarali integratsiya qilishni biladigan pedagoglarga talab juda kuchli. Ta'lim texnologiyalari sohasi ham butun dunyo bo'ylab o’quv muassasalarida asosiy ta'lim dasturlarining bir qismiga aylanmoqda. Tijorat o'qitish sanoati (start-up loxiyalash va boshqalar) asosan ilg'or raqamli texnologiyalar integratsiyasiga asoslangan holda katta va hali ham tez va barqaror o'sish davrini boshdan kechirmoqda. Ta'lim va tijorat tashkilotlari, mehnat bozorining ehtiyojlari va talablari ta'lim texnologiyalari yechimlarini samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar nuqtai nazaridan juda xilma-xildir.

REFERENCES

1. Hartley, R., Kinshuk, Koper, R., Okamoto, T., & Spector, J. M. (2010). The education and training of learning technologists: A competences approach. Educational Technology & Society, 13(2). – P. 206–216.
2. Januszewski, A., & Molenda, M. (Eds.). (2008). Educational technology: A definition with commentary. New York, NY: Routledge.

3. Merrill, M. D. (2002). First principles of instruction. Educational Technology Research and Development, 50(3). – P. 43–59.
4. Ronghuai H., J. Michael S., Junfeng Y. (2019). Educational Technology, A Primer for the 21st Century. Lecture Notes. – 253 p.

DIZARTRIYA NUTQ NUQSONLI BOLALARDA SENSOMOTOR FUNKSIYALARNI TEKSHIRISH

Adilova Manzuraxon Ravshanovna
Nizomiy nomidagi TDPU 1-kurs tayanch doktoranti

https://doi.org/10.5281/zenodo.7927462

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Bolalar serebral falajli dizartriya nutq nuqsoniga ega bo’lgan bolalar sensomotorikasini tekshirish turlari va baholash metodlari, praksisning bir necha turlarini tekshirish orqali bunday bolalarga to’g’ri tashxis qo’yish, yaqin rivojlanish zonasini aniqlash va korreksion ishni amalga oshirishning asosiy mezonlaridan biri ekanligi yoritilgan.*

Kalit so’zlar: *dizartriya, parez, tonus, giperkinez, ataksiya, anartriya, apraksiya, serebral falaj, dispraksiya, dinamik koordinatsiya, tremor, sinkineziya,distoniya, sensomotorika.*

Dizartriya – bu markaziy harakterdagi organik nutq buzilishi hisoblanadi. Dizartriyada nutq a’zolarining (yumshoq tanglay, til, lablar) kam harakatlanishi natijasida nutq tovushlari artikulyatsiyasi qiyinlashadi, shu bilan birgalikda ovoz, nafas buzilishlari hamda nutqning sur`ati, ritmi va ifodaliligida o‘zgarishlar kuzatiladi.Dizartriyaning og‘ir formasida nutq butunlay tushunarsiz bo‘ladi. Bunday hol anartriya deb ataladi.

Dizartriyani ko‘pgina olimlar to‘g‘ridan to‘g‘ri bolalar serebral falaji bilan bog‘lashadi. Bolalar serebral falaji — nerv sistemasining turli zararlanishlari oqibatida ro‘y beradigan va reflektor-harakat faoliyatining, ba’zan ruhiy sferaning va nutqning og‘ir buzishlari bilan kechadigan kasalliklar guruhi hisoblanadi. Bosh miyaning spastik (serebral) falaji va periferik nervlar zararlanishidan kelib chiqadigan falajlikdan farq qiladi. Bolalar spastik falaji ko‘pincha qo‘l, oyoq va tana muskullari falaji, aqliy rivojlanishning sekinlashuvi, tutqanoq tutishi, giperkinez (ixtiyorsiz harakatlar paydo bo‘lishi), zararlangan qo‘l-oyoqlarda trofik o‘zgarishlar ro‘y berishi ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Perinatal, natal davrda tug‘ruq jarayoni og‘ir kechganda, tug‘ruq vaqtida bola kallasi shikastlanganda va boshqa hollarda ko‘pincha spastik falaj kelib chiqadi. Bolaning chala yoki bo‘g‘ilib tug‘ilishi, miyasiga qon quyilishi oqibatida ham spastik falaj ro‘y berishi mumkin.

BSF ga ega dizartriyali bolalarda nuqsonning kelib chiqishi va turiga qarab sensomotorikaning turli buzilishlari namoyon bo’ladi, ulardagi organik nuqson hisobiga harakatlarning kinetik-kinestetik kamchiliklari, muskullar tonusi beqarorligi, dinamik praksisning buzilishlari kuzatiladi. Dizartriya nutq nuqsoniga ega bo’lgan bolalarni logopedik tekshirish to’g’ri korreksion maqsadlarni qo’yishga yordam beradi.

Sensomotorika-(lotincha sensus-his qilish, sezish va motor–harakatlanish), faoliyatning sensorli va harakat qismlarini o'zaro muvofiqlashtirish hisoblanib, u sensorli ma'lumotni olish ma'lum harakatlarning boshlanishiga olib keladi va o'z navbatida hissiyotlarni tartibga solish, boshqarish yoki tuzatishga xizmat qiladi. Refleks halqasi asosiy sensomotor mexanizm sifatida ishlaydi. Analizatorlardan keladigan sensorli ma'lumotlarga asoslanib, harakatlar ishga tushiriladi, tartibga solinadi, boshqariladi va tuzatiladi. Shu bilan birga, harakatlarni amalga oshirish jarayonining o'zi takomillashtirish, o'zgartirish va yangi hissiy ma'lumotlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Shunday qilib, harakatining hissiy va harakat tarkibiy qismlarini muvofiqlashtirish, bir tomondan, unga maqsadga muvofiq moslashuvchan xususiyatni beradi, ikkinchi tomondan, bu hissiy tizimlar faoliyatining eng muhim sharti va pirovardida

shakllanishining eng muhim shartidir. Sensomotorika jarayonlarni tashkil etishning umumiy strukturaviy sxemasidir.

Logopedik amaliyotda sensomotor funksiyalar va artikulyatsion motorika holatini baholash uchun N.I.Ozereskiy tomonidan ishlab chiqilgan va bir qator tadqiqotchilar (L.I.Belyakova, I.Kumala, N.A.Richkova va boshqalar) tomonidan takomillashtirilgan (modifikatsiyalangan) hamda L.V.Lopatina (2002), Ye.F.Arxipova (2006)larning ilmiy ishlarida yoritib berilgan testlardan foydalaniladi. Testlar quyidagi ko‘rsatkichlarni aniqlashga yo‘naltirilgan:

- harakatlarning statik koordinatsiyasi;
- harakatlarning dinamik koordinatsiyasi;
- harakatlarning tezligi;
- bir vaqtda bajarilishi lozim bo‘lgan harakatlarni bajara olinishi;
- murakkablashtirilgan harakat dasturlarini bajara olinishi;

Odatda, testni bajarilishini baholash tavsifi beriladi.

Quyidagi ko‘rsatkichlar qayd etiladi:

- testni bajarishda ishtirok etmaydigan mushaklar zo‘riqishining ortib borishi;
- tremor va giperkinezning boshqa turlari;
- sinekineziyalar;
- harakatlarni bajarilishining aniqligi va to‘liqligi;
- oyoq va qo‘l harakatlarining o‘zaro mosligi;
- harakat xotirasi;
- statik koordinatsiyaning sifati;
- dinamik koordinatsiyaning sifati.

Harakatlar va praksisni tashkil qilinishini o‘rganishda **neyropsixologik metodikadan** – A.R.Luriya tomonidan ishlab chiqilgan va T.V.Axutina (1994) tomonidan takomillashtirilgan (modifikatsiyalangan) testlar batareyasidan foydalaniladi. Tavsiya etilayotgan metodikada dasturlashtirish va nazorat, ma’lumotlarni idrok etish, qayta ishlash va saqlash, tonusni boshqarish bo‘limlari farqlanadi:

1. Dasturlashtirish va nazorat bo‘limi

- harakat va faoliyatni, dinamik praksisni, harakatlar koordinatsiyasini seriyali tashkillashtirish. Ixtiyoriy faoliyatni, tanlov reaksiyasini, oldindan mo‘ljal olish, ixtiyoriy diqqat va nazoratni talab qiluvchi boshqa bir qator kompleks sinovlarni (gnostik va mnestik) dasturlashtirish va nazorat qilish.

2. Ma’lumotlarni idrok etish, qayta ishlash va saqlash

- kinestik ma’lumotlarni, qo‘l barmoqlari holati praksisini og‘iz praksisini idrok etish va qayta ishlash;
- eshitish orqali idrok etiladigan ma’lumotlarni qayta ishlash, ritmlar, eshitilishi va ma’nosi bo‘yicha o‘xshash so‘zlarni tushunish, eshituv verbal xotira;
- polimodal ma’lumotlarni idrok etish va qayta ishlash, Xed sinovlari, konstruktiv (to‘zilmali) praksis, ko‘ruv-fazoviy xotira, gaplarni tushunish va yozuv.

3. Tonusni boshqarish

Uning holati harakatlarning barcha sinovlarini namoyon qilish vaqtida baholandi, bu jarayonda diqqatning o‘zgaruvchanligi, charchoq, mikro- va makrografiyalar inobatga olindi.

Bu sinovlarning barchasi dinamik praksisni, harakatlar koordinatsiyasini o‘rganish, yashirin chapaqaylik belgilarini, ritmni his qilishni, analizatorlar orasidagi bog‘liqliklarni: eshituv-motor, eshituv-ko‘ruv koordinatsiyalarni aniqlashga yo‘naltirilgandir.

Harakat doirasini o‘rganish harakatlarning umumiy qirralarini saqlanganligi yoki nuqsonga ega ekanligini o‘rganishdan boshlanadi. Baholash mezonlari quyidagilardir: umumiy harakatchanlik, yurishdagi turg‘unlik – turg‘unsizlik, harakatlar koordinatsiyasi, tezlik, ravonlik, bir harakatdan boshqasiga o‘ta olish, ritmiklik. Predmetli harakatlarni bajarishga doir testlar namuna bo‘yicha yoki taqlid asosida bajariladi. Verbal og‘zaki ko‘rsatma beriladi va qo‘llarning talab qilinayotgan holati yoki harakati ko‘rsatiladi.

Qo‘l kafti holatining praksisi – tadqiqotlar bosh miya qobig‘ining tepa qismi tomonidan ta’minlanadigan harakatlar vaqtida ishtirok etuvchi kinestetik sezgilarni o‘rganishga yo‘naltirilgan.

Dinamik praksis – harakatlarning dinamik tashkil etilishi, ularning ketma-ketligi, bir harakat (yoki elementdan) boshqasiga o‘ta olish qobiliyati tadqiq etiladi. Ushbu harakatlardan o‘ta olish qobiliyati bosh miya chap yarim sharlarining ensa qismi tomonidan ta’minlanadi. Harakatlarning dinamik tashkil etilishini har ikkala yarim sharlarning birgalikdagi ishini amalga oshiruvchi bosh miyaning ichki (chuqur) qismi tomonidan ta’minlanadi. Bosh miyaning ushbu qismlari holatini tadqiq etish uchun harakatlar koordinatsiyasi testi qo‘llaniladi.

Fazoviy praksis – uni tadqiq qilish predmetli harakatlarni fazoviy va somato fazoviy tashkil etilishini, ularning fazoda bajarilishini saqlanganligi (yoki buzilganligi) haqida fikr yuritish imkoniyatini beradi. Harakat jarayonining bu tarkibiy qismi bosh miya qobig‘ining tepa va tepa-ensa qismlari ishi va fazoviy, vestibulyar analizatorlar faoliyati hisobiga ta’minlanadi. Praksisning ushbu turining saqlanganligini tadqiq etish juda ahamiyatdir, chunki, qator harakatlarning shakllanishi va amalga oshirilishida zaruriy hisoblanadi.

Konstruktiv praksis – o‘rganishlar fazoviy idrokni va optik-fazoviy harakatlarning shakllanganlik darajasini tadqiq etishga yo‘naltirilgan.

Oral praksis – o‘rganishlar artikulyatsion apparat harakatlarining shakllanganlik darajasini tadqiq etishga yo‘naltirilgan.

Ramziy praksis – harakatlarning ixtiyorsiz semantik darajasi va odatiy (taomilga xos) harakatlar tadqiq etiladi. Shuningdek, harakat analizatorining qobiq osti darajasi ham tadqiq etiladi.

Harakatlar orasida nisbatan murakkabi og‘zaki ko‘rsatma asosida amalga oshirilishi kerak bo‘lgan reaksiyani tanlash hisoblanadi. Bunday sinovlar ixtiyoriy harakatlarni tashkil etilishining nisbatan yuqori darajalarini, harakat tizimida nutqning boshqaruv o‘rnini tadqiq etishga yo‘naltirilgan.

Dinamik praksisni tadqiq etish

a) kaftning uch holatini o‘zgartirish. Tekshiriluvchiga ketma-ketlikda kaftini musht holatiga keltirishini, kaftini ochishini, kaftning ichki qismini yuqoriga va pastga tushirib, stolga chalqancha tomoni bilan urishi taklif etiladi. Topshiriq ham o‘ng, ham chap qo‘llar bilan bajariladi.

b) harakatlar koordinatsiyasini tadqiq etish. Tekshiriluvchiga qo‘llarini oldinga cho‘zib, bitta kaftini musht holatiga keltirishi, ikkinchisini esa ochiq holda ushlashi taklif etiladi. So‘ng u bir vaqtning o‘zida har ikkala kaftining holatini almashtirishi, mushtga tugilgan kaftini ochishi va aksincha, ochiq kaftini mushtlashi kerak bo‘ladi.

Fazoviy praksisni tadqiq etish

Ushbu tekshiruvlar Xed sinovlaridan iborat bo‘lib, ular quyidagichadir:

a) bir qo‘l bilan:

- qo‘l kafti dahanga olib boriladi va barmoqlar o‘nga tekkiziladi;
- qo‘l kafti dahanga olib boriladi va barmoqlar tashqariga yo‘naltiriladi.

b) ikki qo‘l bilan:

- qo‘l kafti orqa tomni bilan qo‘lning orqa tomoniga qo‘yiladi;
- vertikal holatdagi bitta qo‘lning kaftiga ikkinchi qo‘lning kafti perpendikulyar holatda tekkiziladi. Qo‘l kaftlarining holati o‘zaro almashtiriladi.

Tuzilmali (konstruktiv) praksisni tadqiq qilish

Fazoviy gnozisni, fazoni idrok etishni tadqiq etish testlari yordamida amalga oshiriladi:

- xuddi shu fazoviy holatda shakllardan nus`ha ko‘chirish;
- fazoda mo‘ljal olgan xolda, geometrik shakllardan nus`ha ko‘chirish.

Dizartiyali bolalarda nutqiy nuqsonalar bilan qo‘shilib keladigan sensomotor buzilishlar, sinkineziyalar, apraksiya, distoniya kabi holatlar nutqning ravonligiga, artikulyatsion apparat a’zolarini zarur holatda ushlab turish imkoniyatlari, harakatchanligini chegaralaydi, shu bois, bu toifa bolalar bilan korreksion logopedik ishlarni tashkil etishda yuqoridagi metodikalardan foydalanish reabilitatsiyani samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Ayupova M.Yu. Logopediya. - T.: O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2007,2011
2. Визель Т.Г. Мозговая организация речевой функции и ее нарушения // Логопед.- М., 2004.
3. Волкова Г.А. Методика психолого- логопедического обследования детей с нарушениями речи. Вопросы дифференциальной диагностики: Учебно- методическое пособие. Спб: ДЕТСТВО ПРЕСС, 2004
4. Зайцева Л.А. Обследование детей с речевой патологией. Методические рекомендации. -- Мн.: нмцентр, 1994

MAKTAB BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA STRATEGIYA ZARURIY OMIL SIFAFIDA

Xudoyberdiyev Eldor Uktamjonovich
A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti maqsadli tayanch doktoranti
xudoyberdiyeveldor1234@gmail.com
(+99899) 526-09-09)

https://doi.org/10.5281/zenodo.7927466

Annotatsiya. *Mazkur maqolada strategiyaning maktab boshqaruvi samaradorligini oshirishdagi o‘rni, boshqaruv samaradorligining ta’lim sifatiga ta’siri haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, maktabning boshqaruv strategiyasini ishlab chiqishda rahbar tomonidan aniq maqsadlar qo‘ya olish, tog‘ri qarorlar qabul qilish muhim ahamiyatga ega ekanligi xususida mulohazlar bildirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Maktab, ta’lim sifati, samaradorlik, strategiya, rahbar, maqsad, qaror.*

Maktab ta’limi sifatini ta’minlashda boshqaruvning ahamiyati muhim ekanligiga xalqaro hamjamiyat va ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan doim e’tibor qaratiladi. Ta’limi rivojlangan mamlakatlarda maktab direktorlari davlatning umumiy ta’lim strategiyasidan kelib chiqib, mustaqil holda jamoa bilan birgalikda sifat samaradorligini oshirishga va maktabning imidjini ko‘tarishga xizmat qiladigan strategiyani belgilab olishini hamda shu asosida boshqaruvni amalga oshirishini kuzatish mumkin. Bu boshqaruvning samarali bo‘lishida strategiyaning muhim ahamiyat kasb etishini bildiradi.

Bugungi kunda maktab ta’limning innovatsion sharoitlarini ishlab chiqadigan joyga aylanishi zarur. O‘tmishda biz ta’lim sifatini nazorat qilish bilan cheklanardik, kelgusida ta’lim sifatini ta’minlashimiz kerak [18;42]. Bu esa maktablarda ta’limni strategiya asosida boshqarishning dolzarbligini ko‘rsatmoqda.

Sifatli, jozibali, raqobatbardosh, mehnat bozori talablariga javob beradigan ta’lim tizimi uchun ta’limni boshqarish strategiyalarini qo‘llash maktablardagi boshqaruv usularini rejalashtirish, o‘zgarishlarni bashorat qilishga ta’sir etadi [7;726].

Strategiya “qanday qilib” bu yerdan u yerga borishdir [10]. Strategiya, shuningdek, “tashkilot intilayotgan maqsadlar va u o‘z maqsadiga erishish uchun boshqaradigan siyosatlarning kombinatsiyasi” [11] sifatida qaraladi va strategik menejment bu strategiyani amalga oshirish mexanizmidir [13].

Strategiyani “tashkilotning asosiy uzoq muddatli maqsadlari va vazifalarini belgilash va harakat yo‘nalishlarini qabul qilish, shuningdek, ushbu maqsadlarga erishish uchun zarur resurslarni taqsimlash” deb ta’riflash ham mumkin [7;727].

Strategiya “strategos” grekcha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida “general san’ati” degan ma’noni anglatadi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida ham mazkur atama urish olib borish san’ati, ijtimoiy-siyosiy kurashga rahbarlik qilish san’ati va ilmi ma’nolarida talqin etilgan. Strategiya so‘zi bugungi kunda biron-bir faoliyatga rahbarlik qilish, korxona yoki muassasalar faoliyatini boshqarishda istiqbolni oldindan aniqlash, shuningdek, maqsadga erishish natijalarini avvaldan bilish va nazorat qilish yo‘nalishida keng qo‘llanilmoqda. Strategiya haqida gap ketganda, boshqaruv strategiyasi, maxsus strategiya, funksional strategiya, mujassamlashtirilgan strategiya va diversifikatsiyalashgan strategiya tushunchalariga aniqlik kiritish lozim.

Boshqaruv strategiyasi – ko‘zlangan maqsadlarga erishishda ta’lim muassasasi faoliyatini takomillashtirish, pedagogik xodimlar faoliyatini muvofiqlashtirish, strategik reja asosida faoliyatni tashkil etish va boshqarish yo‘nalishida asosan boshqaruvning ikki xil turi – strategik boshqaruv, konyukturaviy boshqaruvni nazarda tutadi. Amaliy faoliyatda u yoki bu boshqaruv yo‘nalishining ustunligi tashkiliy tizimning yangilik darajasi ko‘rsatgichlari bilan belgilanadi. Masalan, strategik boshqaruv – bu ta’lim muassasasining strategik maqsadi yo‘nalishida muassasa imkoniyatlarini pedagogik xodimlarning umumiy manfaatlari bilan muvofiqlashtirishni nazarda tutuvchi uzoq muddatga tuzilgan dastur, reja va loyihalar asosida boshqarishdir. Strategik boshqaruv odatda, mazkur tizim boshqaruv madaniyatining yuqori darajasini belgilovchi keng innovatsion dasturlarni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Konyukturaviy boshqaruv – ma’lum bir davrda muassasaning iqtisodiy holatini tavsiflovchi belgilar majmuasi bilan bog‘liq bo‘ladi.

Maxsus strategiya – ta’lim muassasasida ta’lim jarayoni samaradorligining pasayib ketishini, o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasining DTS talablari darajasidan tushib ketmasligini, shuningdek, tajribali, bilimli, o‘z kasbining fidoyilari bo‘lgan pedagoglarning ta’lim muassasasidan ketib qolishlarining oldini olish maqsadida uzoq muddatga tuziladi.

Funksional strategiya – ta’lim muassasasining ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari, bo‘limlari, jamoaviy boshqaruv orgonlari va ma’muriyat hamda jamoatchilik tashkilotlari oldidagi vazifalarni amalga oshirish usullarini o‘z ichiga olgan ishchi strategiya hisoblanadi.

Mujassamlashtirilgan strategiya – ta’lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etishning barcha yo‘nalishlarini qamrab olgan hamda ta’lim muassasasining yaxlit faoliyatini o‘zida jamlagan mo‘ljaldir.

Diversifikatsiyalashgan strategiya – ta’lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash va ularni o‘qitishda tabaqalashtirilgan yondashuvlarni joriy etish asosida o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatgichlarini ko‘tarish, maktab bitiruvchilari o‘rtasida raqobatbardosh, xorijiy tillarni biladigan, bilimli, keng dunyoqarashga ega bo‘lgan bitiruvchilar sonini ko‘paytirishga qaratilgan vazifalarni amalga oshirish yo‘llarini ifodalaydi [15;119-122]. Shu bilan bir qatorda strategiya tashkilot maqsadiga erishish uchun intiluvchi rahbarning harakat tarsi hamdir [17;516].

Yuqoridagi fikrlar asosida aytish mumkinki, strategiya rahbar yetakchiligida jamoa bilan birgalikda tashkilotning asosiy maqsadigan kelib chiqqan holda qadriyatlar va zamonaviy tendensiyalar asosiga ishlab chiqilgan uzoq muddatli rivojlanish mexanizmidir.

Strategik boshqaruv modellari dunyoning turli davlatlarida amal qiladi. Samaradorlik nuqtai nazaridan eng muhimlari quyidagilardir: umumiy yetakchilik maktabi – qarorlarni markazsizlashtirish va inson resurslarini rag‘batlantirish [14]; maktab boshqaruvi – ta’lim tizimini markazsizlashtirish [6]; taqsimlangan yetakchilik – direktorlar mas’uliyati va javobgarligining qat’iyligi [5].

Ruminiya tajribasiga ko‘ra, maktablarda ta’limni strategik boshqarishda quyidagi o‘ziga xos xususiyatlar aniqlangan:

“qo‘llaniladigan strategiyalar va siyosatlar, ayniqsa, izchillik nuqtai nazaridan, bir-biriga mos kelmay qolishi hamda maqsad va vositalar o‘rtasida nomuvofiqliklar kuzatilgan [9];

“sifat madaniyati strategik fikrlashni va mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishni nazarda tutadi”[1];

xususiy maktablar o‘quvchilarning yuqori ko‘rsatkichlariga ega [8];

strategik chora-tadbirlar “poydevorsiz” emas, “poydevor” asosida shakllantirilishi maqsadga muvofiqdir [4].

Ushbu tajribadan bilish mumkinki, avvalo, ishlab chiqilayotgan strategiya davlatning maktab ta’limi siyosatiga mos bo‘lishi lozim. Buning uchun biz ikkita muhim jihatga e’tibor qaratishimiz kerak bo‘ladi. Birinchidan, maktab ta’limi siyosatini yuritadigan davlat orgonlarining xorijiy tajribalarga asoslangan, milliy manfaatlarni ifodalagan, zamon talablariga javob beradigan ta’lim strategiyasi bo‘lishi zarur. Muassasa o‘z strategiyasini belgilashda mana shu strategiya va maktab qadriyatlari, uning o‘ziga xos xususiyatlaridan “poydevor” sifatida foydalinishi maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, maktab rahbari va jamoasi dunyo hamjamiyatining ta’limga munosabatini hamda davlatning ta’lim siyosatini to‘g‘ri anglagan, o‘zgarishlarga moslasha olish kompetentligiga ega bo‘lishi, mas’uliyatni o‘zida his qila olishi, ta’lim sifatining oshishidan manfaatdor bo‘lishi zarur.

Yuqori sifat menejmenti va yaxshilangan ta’lim natijalari o‘rtasida chambarchas bog‘liqlik mavjud, ammo bu boradagi asosiy farq maktab menejeri va u tomonidan qo‘llaniladigan boshqaruv strategiyalaridadir [2].

Maktablardagi boshqaruv strategiyasining o‘ziga xos xususiyatlarini quyidagilarda ko‘rish mumkin:

boshqaruv strategiyasini maktab maqsadlariga erishish, raqobat muhitida yanada samaraliroq missiyani bajarish va rejalashtirilgan maqsadlarga yetish uchun yaxshi vosita deb hisoblash mumkin;

globallashgan axborot jamiyatida “strategiya rejalashtirishning natijasi emas, aksincha, bu uning boshlang‘ich nuqtasi”, strategik menejment esa o‘z tashkilotlari faoliyatini aniqlay oladigan transformatsion liderlarning aktivi hisoblanadi;

va nihoyat, ta’lim sifatini oshirish hamda ta’lim xizmatlarining yuqori standartlarini ta’minlash uchun ta’limni strategiya asosida boshqarish zarur [7;728].

Mamlakat darajasida qulay ta’lim siyosati va izchil boshqaruv muhim ekanligini inobatga olib aytish mumkinki, ta’lim siyosatini belgilovchi davlat orgonlari hamda islohatlarni amalga oshiradigan maktab direktorlari va o‘qituvchilar “biz hozir qayerdamiz?”, “qayerda bo‘lishni xohlaymiz?” va “u yerga qanday boramiz?” kabi savollarga javob topishlari kerak. Birinchi haqiqiy savol, albatta, “biz qayerda bo‘lishni xohlaymiz?” Bu yerda biz o‘z maqsadlarimizni, xavf-xatarlarni, strategik tashabbuslarga resurslarni taqsimlashni va hokazolarni muhokama qilamiz va hal qilamiz. Bularning barchasi xodimlar tashkilotning strategik maqsadlari to‘g‘risida qanday fikrda ekanligiga va ular o‘zi uchun foydali bo‘lgan samaradorlikka erishishlarini sezishlariga bog‘liq [3]. Bunda maktab ta’limini boshqarish strategiyasini ishlab chiqishda pedagog xodimlarning ishtiroki ta’minlanishi, strategiya butun jamoaniki ekanligini barcha his qilishi va ushbu strategiyani amalga oshirishda xodimlar o‘zini mas’ul deb hisoblashi muhim ahamiyatga ega.

Bosniya va Gersegovinada ta’lim jarayonidagi o‘zgarishlar hisobga olinib, maktablar faoliyatini takomillashtirish umumiy strategiya asosida amalga oshirilish maqsad qilingan. Asosiy e’tibor shaxsdan kontsepsiyani o‘zgartirishga, o‘quvchilarning yutuqlarini baholashdan maktabning umumiy natijalarini baholashga yo‘naltirilmoqda; o‘zgarishlar subyekti sifatida o‘qituvchilardan maktab rahbarlariga e’tibor qaratilmoqda [12;1233]. PISA xalqaro tadqiqotlarida ham shu jihatga alohida dolzarb muammo sifatida e’tibor berilgan. Unga ko‘ra, ta’lim islohatlarini amalga oshirishda maktab rahbarlarining tajribasiga suyanish va ularni yuqori darajadagi ta’lim

siyosati va amaliyotini ishlab chiqishga jalb etish lozim. Bu ijtimoiy o‘zgarishlarga samimiy munosabatda bo‘ladigan siyosatni belgilashda ijodiy yondashadigan hamda samarador islohatlarni amalga oshirish uchun o‘zlari qozongan ishonchdan foydalana oladigan liderlar talab etiladi [18;18].

Samarali boshqaruv strategiyasi menejerga maktabni barcha fanlar bo‘yicha rivojlantirishga yordam beradigan usullarni ishlab chiqishga imkon berishini va ta’lim sifatini oshirishga erishishini hamda shu bilan birga har bir maktabda xodimlar, ota-onalar va mahalliy hamjamiyatga taqdim etilishi kerak bo‘lgan tayyor strategiya bo‘lishi shart. Shuningdek, strategik yetakchilik quyidagi 4 ta asosiy savolga javob berishi kerak:

1. Aniq maqsad qo‘yish.
2. Maqsadga erishish uchun xodimlar bosib o‘tadigan yo‘lni loyihalash.
3. Maqsadga qachon va qaysi vaqtda erishish kerakligini belgilab olish.
4. Maqsadning qayerdaligini va joylashuv o‘rnini bilish [12;1233].

Bundan xulosa chiqarish mumkinki, maktab ta’limini strategiya asosida boshqarishda aniq maqsad qo‘ya olish samaradorlikni kafolatlovchi muhim omildir. Boshqaruv tizimining har bir pog‘onasida turga rahbarlar o‘z vakolatlari doirasidan kelib chiqib, oldida turga aniq maqsadlarni yaxshi anglashi kerak.

Maqsad – bu vaqtning aniq belgilangan davrida ta’lim muassasasi real erishishi mumkin bo‘lgan, istalgan natijaning muayyan, sifatli, ayrim hollarda esa sipolik bilan miqdoriy tavsiflangan qiyofasidir [17;56].

Har qanday maqsad besh asosiy jihatga ega bo‘lishi kerak:

1. Mukammal mazmunga, ya’ni natijaning barcha tavsiflarining aniq-ravshanligi.
2. Nazoratlilik.
3. Vaqt (muhlat)ning belgilanganligi.
4. Reallik (imkoniyatga muvofiqligi).
5. Asoslanganlik [17;58-59].

Ririvojlanishning harakat dasturini ishlab chiqishda quyidagi savollarga javob topish lozim bo‘ladi. “Nima?”, “Qachon?”, “Qanday?”, “Nima uchun?”, “Qancha?”, “Kim?”, “Qayerda?” [17;61]. Agar ushbu savollarni izohlaydigan bo‘lsak, “Nima?” – bu maqsad, uni aniqlab olish zarur. Maqsadga qachon, qanday erishish mumkinligini rejalshtirish, nima uchun shu maqsadga erishmoqchi ekanligini anglash, erishmoqchi bo‘lgan maqsadning qancha ekanligini, unga erishganligini o‘lchay olish va maqsad haqida, uning turgan joyi to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish muhim. Chunki ushbu savollarga javob topmasdan turib muvaffaqiyatga erishishning imkoni bo‘lmaydi. Bu savollarga javob bera oladigan maqsadlar esa SMART maqsad hisoblanadi.

1-jadvalda maqsadlarni SMRT sxemasi asosida shakllantirish mezonlari keltirilgan.

Maqsadlarni qo‘yish (SMART) (S) Spesifik (aniq) (M) O‘lchanadigan (A) Erishish mumkin bo‘lgan (R) Mos keladigan (T) Aniq belgilangan muddat bilan
SMART – inglizcha akroninm bo‘lib, qo‘yilgan maqsad sifatini tekshirish mezonlarini to‘ldirishga yordam beradi.

Masalan, siz “Men o‘zgarishlarni oshirmoqchiman” desangiz, bu SMART sxemasi bo‘yicha shakllantirilgan maqsad bo‘lmaydi. Agar siz “Men o‘zgarishlarni o‘quv yili oxirigacha 5 foizga oshirmoqchiman” desangiz, bu maqsad SMART sxemasi bo‘yicha shakllantirilgan bo‘ladi.
Spesifik – nimaga erishishingizni aniq belgilab olishga harakat qiling. O‘lchanadigan – natijaga erishishingizni ko‘rganingizda uni belgilash uchun aniq bo‘lgan muvaffaqiyat mezonlarini yozib oling.
Erishish mumkin bo‘lgan – ishonchingiz komil bo‘lsinki, Sizning maqsadingiz aniq, ya’ni ularga erishish mumkin. Mos keladigan – ishonchingiz komil bo‘lsinki, ushbu maqsadlarni amalga oshirishga aloqasi bo‘lgan barcha kishilar ularning mohiyatini tushunadi va ularni amalga oshirishga rozi. Aniq belgilangan – maqsadlaringizga erishishda mos keladigan rejangizni amalga oshirishning yakuniy muddatini tasdiqlatib, yozib oling.

1-jadval [17;62]

Shu o‘rinda maktab rahbarlarining ta’limni boshqarish strategiyasini belgilashda SMART sxemadan foydalanishi muvaffaqiyat uchun tashlangan dastlabki qadam ekanligini aytib o‘tish joiz.

Ta’lim mazmunini sifatli ta’minlashda ijodkor maktab rahbarining faoliyatini shartli tarzda uch bosqichga bo‘lish mumkin:

1. Ta’lim strategiyasini belgilash. Bunda rahbar va uning o‘rinbosarlari innovatsion va samara beradigan g‘oyalarga ega, ta’lim sifatini ko‘tarishga xizmat qiladigan resurslarni belgilash, bu g‘oyalar asosida maktab faoliyatini rejalashtirish rejasini ishlab chiqish.

2. Texnologik jarayon. Ishlab chiqilgan nazariy yo‘nalishdagi pedagogik g‘oyalarni amalga oshirish yo‘l-yo‘riqlarini jamoa bilan belgilab chiqishdan iborat.

3. Shaxsiy munosabatlar o‘rnatish. Bu ilg‘or pedagogik g‘oyalarni amalga oshirishga kirishish, ularni amalga oshirishda pedagogik jamoa, ota-onalar, o‘quvchilar hamda davlat va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlik qilishni o‘z ichiga oladi [17;81].

Shuningdek, samarali boshqaruvni tashkil etishda maktab rahbarining strategik qarorlar qabul qilish ko‘nikmasiga ega ekanligi ham katta ahamiyatga ega. “Strategik qarorlar ta’lim muassasasi oldiga qo‘yilgan maqsadlarga erishishda muhim ahamiyat kasb etib, unda muassasaning uzoqqa mo‘ljallangan rivojlanish vazifalari va maqsadlari belgilanadi. Strategik qarorlarni qabul qilishda ta’lim muassasasining istiqbolli harakat dasturi asos qilib olinadi, uzoq muddatlarga ko‘zlangan maqsadlarga erishishda bajariladigan vazifalarning muddati belgilanadi, mavjud muammolarni hal etish yo‘llari va uslublari ko‘rsatiladi” [17;105].

Shu bilan bir qatorda strategik qarorlar chiqarishda boshqaruv tamoyillaridan oqilona foydalanish maqsadga muvofiq. Rivojlangan mamlakatlarda ta’limni boshqarishda 2-jadvaldagi zamonaviy sakkiz asosiy tamoyil ma’qullanmoqda.

Topshiriqni bajarishga yo‘naltirish	**Ijrochilarga mo‘ljallab ish tutish**
Muammoni hal qilishga ijodiy yondashuv (o‘zgarishlarga moslashish uchun tafakkurning barcha imkoniyatlarini ishga solish)	Jamoa a’zolarining hamkorligi va kommunikatsiya
Sifatli natijalarga erishish uchun maqsadni to‘g‘ri belgilagan holda rejalashtirish	Buyurtmachini nazarda tutib ish qilish (buyurtmachi, manfaatdor shaxslarning

(maqsadlarni belgilab chiqish – bartaraf etishni rejalashtirish – ro‘yobga chiqarish, monitoring)	talablarini bajarish bo‘yicha xizmatlarni ta’minlash)
Vaziyatga qarab rahbarlik usulini qo‘llash (vaziyatga va qo‘l ostidagi xodimlarga moslashish qobiliyatini kuchaytirish)	Ijodiy fikrlash ko‘ngildagidek, muhit va o‘zaro munosabatlar, hamkasblarni qadrlash va hurmat qilish)
Bir-birini o‘zaro yaxshi tushunish va idealarga bir xil munosabatda bo‘lish (aniq kutilgan natija, konstruktiv qayta aloqa)	Vakolatlarni xodimlarga o‘tkazish va ularning kasbiy o‘sishlariga yordam berish

2-jadval [17;58]

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, “Strategiya nima uchun kerak?” degan savolga quyidagicha javob berish maqsadga muvofiq: “Agar konseptual loyihada ko‘zda tutilgan turli yangiliklarni bir vaqtning o‘zida kiritish mumkin bo‘lsa-yu, buning uchun haddan ziyod katta sa’y-harakat talab etilsa yoki qandaydir cheklashlar mavjud bo‘lsa, unda “Nimani va qanday ketma-ketlikda qilish kerak?” degan savol yuzaga keladi. Bu savolga javob berish uchun o‘zgarishlar navbatini va sa’y-harakatining ular o‘rtasida taqsimlanishini aniqlash tamoyilini ta’riflash kerak. Ana shu narsa strategiya bo‘ladi [16;308].

REFERENCES

1. ARACIP and MENCS, 2016. Activity report for the period: 01.09.2014-31.12.2015
2. Bloom, N. et al., 2014. *Does Management Matters in Schools*. NBER Working Paper Series (20667).
3. Bytheway, A. & Venter, I.M., 2014, ‘Strategies for information management in education: Some international experience’, *SA Journal of Information Management* 16(1), Art. #596, 11 pages, pp. 3. http:// dx.doi.org/10.4102/sajim. v16i1.596.
4. David, D., 2015. Psihologia poporului român - profilul psihologic al românilor într-o monografie cognitiv-experimentală. Iași: Polirom Publishing House
5. Hall, D.and Gunter, H. B., 2013. The strange case of the emergence of distibuted leadership in schools in England. Educational Review, 65 (4), pp. 467-487.
6. Hammad, W., 2013. The Rhetoric and Reality of Decentralisation Reforms: The Case of School-Based Management in Egypt. ISEA , 41 (2), pp. 33-47
7. Ioana Marin, Andreea Marin-Pantelescu. Educational Management Strategies. “Ovidius” University Annals, Economic Sciences Series Volume XX, Issue 1/ 2020, Pp. 726-728
8. Iosifescu, Ş. et al. , 2012. Raport privind starea calităţii în sistemul de învăţământ preuniversitar din România, Bucharest
9. ISE, 2007. Activity report, [online] Available at < http://www.ise.ro/raport-de-activitate-ise-2007> [Accessed 14 May 2020.
10. Mintzberg H., 2008. Mintzberg on Management. New York: Free Press
11. Nickols, F., 2012. Strategy: Definitions and Meaning
12. Semir Šejtanić. Strategies for efficient management by school managers at elementary schools. Article *in* International Journal of Advanced Research. May 2017, pp. 1233. DOI: 10.21474/IJAR01/4237#sthash.e0e2a3fI.dpuf
13. Sourkouhi, Z. K. et al., 2013. Strategic management, concepts, benefits and process. Journal of Business and Management (IOSR_JBM), 13 (3), pp. 61-64)., Almasi, Bayat & Makouey, 2013.

14. Wilhelm, T., 2013. How principals cultivate: Shared leadership. Educational leadership. Journal of the Department of Supervision and Curriculum Development, N.E.A , 71 (2), pp. 62-66
15. Джураев Р.Х. Турғунов С.Т. Таълим менежменти. Тошкент. “VORIS-NASHRIYOT”, 2006. – 119-122 б.
16. Қурбонов Ш., Сейтхалилов Э. Таълим сифатини бошқариш. Т.: “Турон-Иқбол”: 2006. – 308 б.
17. Пўлатов Ш. Талим менежменти ёхуд таълим муассасасини илмий-методик бошқариш стратегияси. “Yosh kuch”. Тошкент – 2019. – 56 б.
18. Шляйхер А. Жаҳон миқёсидаги таълим. XXI аср мактаб тизимини қандай барпо этмоқ керак? / сўз боши Ш.Шерматов, Ҳ.Умарова; Умумий таҳрир Д.Норбоева; таржимонлар: Р.Ахматова, Д.Норбоева. – Тошкент: “Zamin Nashr” nashriyoti, 2022 – 344 б.

MATEMATIKA FANINI O`QITISHDA KASBIY MAZMUNLI MASALALARNING SIFATLI TA`LIMDAGI AHAMIYATI

[1]Jalilov Anvar Abdulloyevich, [2]Rustamov Anvar Normamatovich
[1]Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti(PhD)
[2]Navoiy davlat pedagogika instituti 1-kurs magistranti
anvar_anvar2018@mail.ru

https://doi.org/10.5281/zenodo.7927479

Annotatsiya. *Ushbu maqolada matematika fanini o`qitishda kasbiy mazmunli malalalar orqali o`quvchilarda kasbga bo`lgan qiziqishlarini shakllantirish ilmiy-nazariy tavsiyalar yordamida ochib berilgan*

***Kalit so`zlar:*** *matematika, masala, kasb, ta`lim, dars, o`quvchi, geometriya, stereometriya, bilim, ko`nikma, malaka.*

Hozirgi axborotlar oqimi kuchli rivojlanayotgan bir davrda o`quvchilarimizga katta imkoniyalar berilmoqda. Fan va texnika sohasidagi yangiliklar va yaratilayotgan yangi kashfiyotlar tezda o`z o`quchisiga etib boradi. Jahonninig ko`pgina davlatlarida rivojlanishning yuqori cho`qqisiga chiqishining asosiy mezoni bo`lgan ta`lim sifatiga e`tibor berish, uning samarasi sifatida esa ilmli ziyolilar sonini oshishi bilan bog`liqligi e`tirof etiladi. Mamlakatimizda yoshlarni ilmiy sohalar bo`yicha bilimlarini oshirishga qaratilgan chora va tadbirlar ko`lami juda keng. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “O`zbekiston yangi taraqqiyot davrida ta`lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi farmonida 2021-2022 o`quv yilidan boshlab “Kasbga yo`naltirish tizimi”ni joriy etish, 7-sinfdan boshlab o`quvchilar o`rtasida interaktiv so`rovnoma o`tkazish, 7-9 sinflar uchun har oyda “Kasblar oyligi” mavzusidagi tadbirlar tashkil qilish, kasbga yo`naltirishda “ustoz-shogird” tizimini yanada rivojlantirish kabi vazifalar belgilab berilgan.

Ushbu qarorlardan maqsad yoshlarni kasbga yo`naltirish, ish bilan ta’minlash davlatimiz siyosatining ustivor vazifalaridan biri bo’lib turibdi. Bu borada maktab bitiruvchilarini zamonaviy kasblarga to`g`ri yo’naltirish katta ahamiyatga ega.

O`quvchilarning esa o`ziga mos kasbni tanlashda maktab ta`limidagi o`qituvchilarning kasb sohasini egallashida kerak bo`lgan bilim, ko`nikma, malaka, kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik faoliyatini amalga oshirishi muhim qismi hisoblanadi.

Xususan, matematika fanini o`qitishda kasbga yo`naltirish ishlari dars jarayonlarida quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Matematik tushuncha va qonuniyatlar kasb sohalari bilan o`zaro bog`lab tushuntiriladi;
2. Matematik kasbiy mazmunli masalalardan foydalaniladi;
3. Matematika darslarida kasbiy sohalarga aloqadorlikda aks ettirilgan matematik o`quv-ko`rgazmali qurollardan foydalaniladi.

Matematik kasbiy mazmunli masalalardan foydalanish deganda avvalo kasbiy mazmunli masala tushunchasini tahlil qilish maqsadga muvoffiq.

Kasbga yo`naltiruvchi amaliy masalalar bu kasbiy mazmundagi masalalar bo`lib, bir tomondan fanga aloqador, ikkinchi tomondan kasbiy faoliyat uchun foydali masalalar tushuniladi.

Matematika fani o`qituvchisi tomonidan o`quvchilarni kasbga yo`naltirish imkoniyati boshqa fanlarga nisbatan yuqoriroq bo`lib, dars jarayonlarida o`quvchilarda turli masalalar orqali

kasblar haqidagi tushunchalarni shakllantirish mumkin. O`quvchi kasbiy mazmunli masala yechish davomida bir tomondan matematik bilimlari mustahkamlansa, ikkinchi tomondan kasbga bo`lgan munosabati shakllanadi.

Kasbiy mazmunli masalalar quyidagi talablarga mos kelishi ularning ta`sir samaradorligini oshishiga xizmat qiladi:

1. Masalada keltirilgan amaliy vaziyat o‘quvchilarga tushunarli bo‘lishi, ko‘p sonli noma’lum atamalar kiritilmasligi, kiritilgan atamalar oson tushuntirilishi va tushunilishi;
2. Kasbiy amaliy masala o‘quvchi bilim darajasiga mos ravishda tanlab olinishi va o‘quvchi tomonidan masala yechimini topishning imkoni mavjud bo‘lishi;
3. Kasbiy mazmunli masala mavjud matematika kursi o‘quv rejasiga mos bo‘lishi va o‘quv jarayonining zaruriy tarkibiy qismi bo‘lib bunda matematika ta’limi maqsadiga erishishning mantiqiy davomi bo‘lishi va xizmat qilishi kerak.

Bunda mavzuning maqsadiga muvoffiq holda o`qituvchi tomonidan kasbiy mazmunli masala tanlanadi. Bu orqali matematik bilimlarni mustahkamlash bilan birga kasbga bo`lgan qiziqishlarini orttirish mumkin.

Ma`lumki maktabda ta`lim berishda kasbiy kompitensiyalarni shakllatirish borasida bir qancha olimlar ish olib bormoqda. Shu jumladan, N.R.G‘aybullayev matematika ta’limida kasbiy mazmunli masalalarni yechish bosqichilarini quyidagicha yoritadi:


1. Formallashtirish bosqichi. Bu bosqichda berilgan real(masala)ning, unga adekvat bo‘lgan matematik modeli quriladi.

2. Masalalarni model ichida yechish bosqichi. Bu bosqichda berilgan amaliy mazmunli masalalarning konkret mazmuni hisobga olinmay, I bosqichda tuzilgan matematik masalalar yechiladi.


3. Interpretatsiyalash bosqichi. Ushbu bosqichda tuzilgan formal matematik masalalarning yechimi, dastlabki berilgan amaliy mazmunli masalalar “tili”ga ko‘chiriladi.

Kasbiy mazmundagi masalalardan namuna tahlil qilamiz:

Masala. Hatkaltarosh buyurtmaga ko‘ra oynaga gipsdan bezaklar yasashi kerak. (1-chizma). Haykaltarosh oynaning aylanasimon qismiga (aylana yoyiga) gipsli bezak yasash uchun uning faqat rasmda keltrilgan k va h o‘lchovlariga ega (2-chizma). Oynaning aylanasimon qismiga gips yasashi uchun aylananing radiusi kerak bo‘ladi. Radiusini toping?





1-chizma. Oynaga gipsli bezak berilishi holadi.



2-chizma. Oyna holati

Yechish. I bosqich. Haykaltarosh aylana yoyi uzunligini tayyorlash uchun aylananing radiusini topishi va aylananing yoyini radiusi orqali chizishi kerak bo‘ladi. Chunki aylana yoyi aylananing bir bo‘lagidir. Haykaltarosh k va h uzunlik orqali radiusini topish uchun matematik tilga o‘giramiz. Berilgan aylana yoyidan yaxlit aylana mavjud deb qaraymiz va quyidagilarni belgilab olamiz.(3-chizma)





3-chizma 4-chizma

uzunlikni kiritamiz. h ni esa CD deb belgilaymiz, u holda . Aylananing radiusi: ga teng. Masalada shartiga ko‘ra h mavjudligi uchun biz izlagan radiusni quyidagicha olamiz: OD radiusni topish orqali masala javobi aniqlanadi. I bosqichda real holatdan, unga adekvat bo‘lgan matematik modelga o‘tish amalga oshirildi

II bosqich. Sof matematik tilga o‘girilgan masalani matematik usullar va metodlar orqali yechimi topiladi

1. To‘g‘ri burchakli OBC uchburchakdan Pifagor teoremasiga ko‘ra quyidagi tengliklar kelib chiqadi:

$CO^2+CB^2=OB^2$ (1)

$CO=OD-CD$ (2)

2. (1) va (2) formulalardan $(OD-CD)^2+CB^2=OB^2$ tenglik kelib chiqadi. OD=OB=R, CD=h, $CB=\frac{k}{2}$ bo`lganligi uchun buni quyidagicha yozish mumkin:

$$(R-h)^2+\frac{k^2}{4}=R^2$$

3. 2-qadamda keltirilgan tenglikning har ikki tomonini soddalashtiramiz:

$$R^2-2Rh+h^2+\frac{k^2}{4}=R^2$$

$$2Rh=\frac{4h^2+k^2}{4}$$

$$R=\frac{4h^2+k^2}{8h}$$

4. Radius topildi.

III bosqich. Yuqoridagi bosqichlardan kelib chiqib, izlanayotgan radius

$R=\frac{4h^2+k^2}{8h}$ ga teng bo‘ladi.

Javob. Endi haykaltarosh radiusni topib aylana yoyini yasashi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, matematikani o`qitishda o`quvchilarga faqat matematik bilim va ko`nikmalarni berish bilan chegaralanib qolmasdan, balki ulardagi kasbiy tushunchalarini ham shakllantirib borish asosiy masala hisoblanadi. Chunki o`quvchilar kelajakda matematik bilimlarini amaliy va kasbiy jarayonda qo‘llay olsagina matematika ta’limidagi asosiy vazifa bajarilgan hisoblanadi. Shuning uchun matematikani o`qitishda kasbiy mazmunli masalalarning o`rni alohida ahamiyatga egadir.

REFERENCES

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “O`zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta`lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi farmoni, Toshkent, 2020-yil 6-noyabr, PF-6108-son.
2. Кондаков И.М. Диагностика профессиональных установок подростков. Вопросы п сихологии №1997 стр.122-130
3. Psixologik xizmat. Darslik/ Z.T.Nishanova, Sh.T.Alimbayeva, M.V.Sulaymonov. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – T-2014. -424 b.
4. Alimatova G.R. –“Kollej o‘quvchilarining matematik tayyorgarligini kasbga yo‘naltirish metodikasi”. //Diss...ped.fan.nomzod.// Toshkent-2004. 130 bet
5. Algebra va analiz asoslari: O‘rta maktabning 10-11-sinflari uchun darslik/ Sh.O. Alimov, Y.M.Kolyagin, Y.V.Sidirov va boshq.-T.:O‘qituvchi, 1996. -256 b.

“QISQA KO`PAYTIRISH FORMULALARI” BOBIDA O`RGANILGAN BILIM, KO`NIKMA VA MALAKALARNI BAHOLASH USULLARI

Ra`no Qurbanova Shavkatovna
Fizika-matematika fakulteti 4-bosqich talabasi, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

https://doi.org/10.5281/zenodo.7927486

Anatatsiya*. Maqolada 7-sinf algebra darsida o`quvchilar bilimlarini baholashning zamonaviy usullari “Qisqa ko`paytirish formulalari” bobiga asoslangan holda bayon etilgan va nazorat materiallaridan na`muna keltirilgan.*

Kalit so’zlar*: Bilim, ko`nikma, malaka, qisqa ko`paytirish formulalari, topshiriq.*

Ilm o’rganish har bir inson uchun hayot yo’llarida asqotadigan, odamlar orasida uni ajratib turadigan, yolg’iz qolgan paytlarida yo’ldosh bo’lib, tushkunlikka tushganida doimo madadkor bo’luvchi yengilmas quroldir. Shu nuqtai nazardan bugun har birimiz ilm olishimiz, mukammal bilim egallab, kasb-hunar o’rganishimiz va bu orqali o’z kelajagimizni o’zimiz yaratib, mamlakatimiz gullab yashnashi, ravnaq topishi uchun o’z hissamizni qo’shishimiz zarurdir.

Matematikani o'qitish ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarga xizmat qiladi. Bizga ma`lumki, matematika darslarining asosiy maqsadi o`quvchilarda anglangan bilimlar hosil qilish va darsda olingan nazariy bilimlarni amaliyotda, kundalik hayotda qo`llash hisoblanadi. Matematika darslarida o’quvchilarning har bir mavzuni to’liq o’rganish uchun bu mavzuga mos bo’lgan turli qiyinchilikdagi misol, masalalarni ko’proq yechishi o’quvchilar xotirasini mustahkamlashga va mavzuni chuqurroq o’zlashtirib olishlariga yordam beradi. Dars jarayonida olingan ma`lumotlarni mustahkamlash maqsadida darslikda berilgan topshiriqlarga qo`shimcha sifatida turli xil matematik misol va masalalar to`plamlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. O`quvchilarda olingan bilimlarni tekshirish ham ta`lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanib, turli xil usul va ko`rinishlarda tashkil etish mumkin. O’quvchilarning olgan bilimlarini tekshirish maqsadni aniq shakllantirish orqali erishiladi. O’qituvchining vazifasi o’quvchilarda ishga qiziqish va iloji boricha yaxshiroq bajarish istagini uyg’otadigan topshiriqlarni tuzishdir yoki topishdir. Ba’zi mavzularda mashqlar nisbatan kamroq berilgan bo’lib, ular past o’zlashtiruvchi, qiyin tushunadigan o’quvchilarning mavzuni yaxshi o’zlashtirolmaganliklariga sabab bo’ladi. Turli topshiriqlarni tashkil etish bilan o’qituvchi bu muammolardan xalos bo’ladi. O’quvchining fanga bo’lgan qiziqishini ortiradi, chuqur bilimlarni egallashiga, ularning bilim qobiliyatini rivojlantirishga, bilimlarni mustaqil ravishda qo’llay olishga yordam beradi.

Quyida 7-sinf algebra darsida “Qisqa ko’paytirish formulalari” bobini o’tish davomida ya’ni qisqa ko’paytirish formulalarining har biri turiga oid nazariy bilimlar berilib, mavzu mustahkamlangandan keyingi olingan bilim va ko`nikmalarni mustahkamlash darsida o’quvchilarning har biriga quyida ko’rsatilgan tartibda misollar varaqasini tarqatish mumkin. Har bir olingan bilimlarni mustahkamlash darslari yakunida bu berilgan misollar varaqasidagi mavzuga oid misol yechib o’qituvchiga topshiriladi. O’qituvchi shu tariqa har dars, bob yakun bo’lguncha darsda variantni tarqatib, o’quvchilar salohiyatini tekshirib oladi. Savollar varaqasidagi misol va topshiriqlar tugagandan so’ng esa har bir o’quvchi uchun ularning natijalari tekshiriladi. Olingan natijalar tahlil etilib bobning qaysi qismini o`zlashtirishda kamchiliklar borligi aniqlanadi va kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida qo`shimcha ishlar tashkil etiladi. Yuqori natijaga erishgan o`quvchilar rag`batlantiriladi.

O’tilgan mavzuni mustahkamlash uchun quyidagi ko’rinishdagi boshqotirmalardan foydalanish mumkin.

1. $(a+b)^2 = a^2 + 2ab + \cdots$.
2. $(3+c)^2 = 9 + 6c + \cdots$.
3. $(a-b)^2 = a^2 - 2ab + \cdots$.
4. $(2a+c)^2 = 4a^2 + 4ac + \ldots$.
5. $a^2 + 6a + \cdots = (a + \cdots)^2$.
6. $p^2 - 0.5py + \cdots = (p - \cdots)^2$.
7. $\ldots - 8cd + 4d^2 = (\ldots - 2d)^2$.
8. $\ldots + dk + k^2 = (\ldots + k)^2$.

Quyida biz “Qisqa ko’paytirish formulalari” bobida olingan bilim, ko`nikma va malakalarni tekshirish uchun tuzilgan savol varaqasidan na`munalarni taqdim etamiz.

Sinf: 7 Familiya: _____ Ismi: _____

O’zlashtirish varaqasi. “Qisqa ko’paytirish formulalari”

1-variant

$(x+1)^2 =$ _____

$(7-a)^2 =$ _____

$(x-1)(x+1) =$ _____

$4 - 36a^2 =$ _____

$a^3 + 8 =$ _____

$216 - m^3 =$ _____

$(x^2-2)^3 =$ _____

$(2x+p)^3 =$ _____

Yana o’quvchilar bilim, salohiyatini tekshirish uchun mustaqil ishlar to’plamidan foydalansak bo’ladi.

Variant savollari
Ko’phadni ko’paytuvchilarga ajrating
Kasrlarni qisqartiring
Hisoblang
Soddalashtiring.

1-variant


$$49(5x^2+8)^2 - 36(4x^2-1)^2;$$

$$\frac{a^2-2ab}{4b^2-a^2};$$

$$\frac{67^3+47^3}{67+47} - 67 \cdot 47;$$

$$(a+b+c)(ab+bc+ac) - abc.$$

Bundan tashqari, matematika darslarida turli boshqotirmalardan ham foydalanish mumkin.



Yoki o’quvchilarning bilim, salohiyatlarini tekshirish maqsadida quyidagi ko’rinishdagi testlardan ham foydalanish mumkin.

Testlar.

1. $a = 2^5 + 2^{-5}$ va $b = 2^5 - 2^{-5}$ bo’lsa, $a^2 - b^2$nimaga teng?

a. $\frac{1}{2}$.

b. 0.

c. 4.

d. 2.

2. Soddalashtiring. $(1 - 2a)^2 + (1 + 2a)(2a - 1)$

a. $4a^2 - 2a$

b. $-2a$

c. $-2a + 2$

d. $8a^2$ −4a

3. $a^2 + \frac{9}{a^2} = 22$ bo’lsa, $a - \frac{3}{a}$ nimaga teng.

a. 2.

b. -3

c. ± 4

d. 3

4. $a^2 + b^2$ ni ab va $a + b$ orqali ifodalang.

a. $(a + b)^2 - ab$

b. $(a + b)^2 - 2ab$

c. $(a + b)^2 - 4ab$

d. $(a + b) \cdot ab$

5. $-2a^2 - 2b^2$ni ab va $a + b$ orqali ifodalang.

a. $-4ab - 2(a + b)^2$

b. $4ab + 2(a + b)^2$

c. $4ab - 2(a + b)^2$

d. $2(a + b)^2 - 4ab$

6. Agar $5^z + 5^{-z} = 7$ bo’lsa, $25^z + 25^{-z}$ ning qiymati nimaga teng bo’ladi?

a. 47

b. 29

c. 51

d. 49

7. Ushbu $\big(8+(2x-4)\big)\big(8-(2x-4)\big)$ifoda $x$ning qanday qiymatida eng katta qiymatga erishadi?

a. 2.5
b. -2
c. 2
d. 1.5.

8. Ushbu $(4x-3)^2-x(4x+1)$ifodani ko’phadning standart shakliga keltiring.

a. $8x^2-x+7$
b. $12x^2-25x+9$
c. $2x^2+x-9$
d. $4x^2-13x.$

9. Ushbu $(x-1)(2-x)+(2x-3)^2$ ifodani ko’phadning standart shakliga keltiring.

a. $3x^2-9x+7$
b. $12x+4-x^2$
c. $3x^2-8$
d. $5x^2+9x-7$

10. $(2k+1)^2-(2k-1)^2$ ifoda, $k\in N$ da qaysi raqamlarga qoldiqsiz bo’linadi?

a. 4
b. 8
c. 2; 4; 8
d. 2

Shunday qilib, o’quvchilarning olgan bilimlarini tekshirish maqsadni aniq shakllantirish orqali erishiladi. O’qituvchining vazifasi o’quvchilarda ishga qiziqish va iloji boricha yaxshiroq bajarish istagini uyg’otadigan topshiriqlarni tuzishdir yoki topishdir. Ba’zi mavzularda mashqlar nisbatan kamroq berilgan bo’lib, ular past o’zlashtiruvchi, qiyin tushunadigan o’quvchilarning mavzuni yaxshi o’zlashtirolmaganliklariga sabab bo’ladi. Turli topshiriqlarni tashkil etish bilan o’qituvchi bu muammolardan xalos bo’ladi. O’quvchining fanga bo’lgan qiziqishini ortiradi, chuqur bilimlarni egallashiga, ularning bilim qobiliyatini rivojlantirishga, bilimlarni mustaqil ravishda qo’llay olishga yordam beradi.

REFERENCES

1. Alimov Sh.A., Xolmuhamedov O.R, Mirzaahmedov M.A. “Algebra” 7-sinf uchun darslik “O’qituvchi” T: 2017-190-bet.
2. Alimov.Sh.A, O.R.Xolmuhamedov, M.A.Mizaahmedov. Algebra. Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. “O’QITUVCHI” nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2019. -240 b.
3. Богомолов.Н.В. практическая занятая по математике. Учеб.пособидля техникумов,-М. Виш. Школа, 1993.-399 ст.

CHIRCHIQ SHAHAR QABRISTON HUDUDI FLORASINING O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI “QIZIL KITOB” GA KIRITILGAN AYRIM TURLARI

[1]Absamatov To‘lqin Normuratovich.
[2]Umarova Yoqutxon Botirjonovna
[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti II kurs magistranti:
[2]Toshkent sh., Yashnoobod tumani 156 maktab kimyo-biologiya oqituvchisi
e.pochta: t.absamatov@cspi.uz

https://doi.org/10.5281/zenodo.7927501

Annotatsiya. *Bioxilma-xillikning global baholash (UNEP) ma’lumotlariga ko‘ra bugungi kunda turli omillar ta’siri natijasida 30 000 dan ortiq o‘simlik va hayvon turlari yo‘qolib ketish xavfi ostida turibdi, oxirgi 400 yil ichida 654 o‘simlik turlari yo‘qolib ketgan. Shu nuqtai nazardan, bioxilma-xillikni o‘rganish, mahalliy floralardagi turlar tarkibini ro‘yxatga olish, kamyob turlarning zamonaviy holatini aniqlash va saqlab qolish zamonaviy botanikaning dolzarb muammolari qatoriga kiradi.*

Kalit so’zlar: *Chirchiq, flora, Qizil kitob, bioxilma-xillik.*

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq biologik xilma-xillikni saqlab qolishga, xususan o‘simliklar olamini himoya qilish va ulardan oqilona foydalanish borasida qator islohotlar amalga oshirildi. Bu borada kamyob va yo‘qolib borayotgan o‘simlik turlari alohida o‘rin egallaydi. Aynan biologik xilma xillikni saqlab qolish konsepsiyada kamyob o‘simliklarni saqlab qolishga alohida urg‘u berilgan. Bu kabi belgilangan vazifalarning samarasi sifatida davlatimiz tomonidan “Qizil kitob” ning bir necha nashrlari chop etila boshlandi. Xususan dastlabki “Qizil kitob” 1984 yilda chop etilgan bo‘lsa, navbatdagi nashrlari 1998, 2006, 2009, 2019 yillarda chop etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti olimlari tomonidan 2019-2023 yillarda “Toshkent viloyati o‘simliklar kadastr” nomli davlat dasturi loyihasi bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari bilan tanishilganda, O‘zbekiston Qizil kitobining 2019 yilgi nashrida Toshkent viloyatida tarqalgan 71 turdagi o‘simlik turlari kiritilganligi aniqlangan.

2019 yilda chop etilgan O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobiga” Qabriston florasida Liliaceae oilasi *Tulipa* turkumning 3 ta o‘simlik turi kiritilgan. Ular jami turlarni 2% tashkil etadi.

Tadqiqotlarimiz davomida O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitob” sahifalarida tadqiqot (Chirchiq shahri) hududi florasida tarqalishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilmagan noyob turlarning yangi o‘sish populyatsiyasi aniqlandi va bu turlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar boyitildi. Bu esa hududning o‘ziga xos turlar tarkibiga ega ekanligidan dalolat beradi. Olingan ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobning keyingi nashrilarida foylaniladi.


Bu turlarning (TASH) fondida saqlanayotgan namunalari va olib borilgan dala tadqiqotlari natijasida yig‘ilgan namunalardan foydalangan xolda turlarning nafaqat tadqiqot hududi uchun balki Toshkent viloyatida tarqalishi aks ettiruvchi GAT tuzildi.

Qizil kitobga kiritilgan o‘simlik turlarini tahlilini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-noyabrdagi 914-son qarorida “*Hayvonot dunyosi obektlarining davlat hisobini, ulardan foydalanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish tartibi to‘g‘risida*” keltirilgan yo‘riqnoma asosida tahlil qilindi.

Tulipa greigii

O‘simlikning ilmiy nomi	O‘simlikning rus tilidagi nomi	O‘simlikning o‘zbek tilidagi nomi

Tulipa greigi Regel	Tyulpan Greyga	Qizil lola (greyg lolasi)
Maqomi	O‘zR Qizil Kitobi, 3 toifa	



1-rasm. Qizil lola (greyg lolasi)

Bo‘yi 10–50 sm oralig‘idagi ko‘p yillik piyozli o‘t. Piyozi tuxumsimon, yo‘g‘onligi 4 sm gacha, qobig‘i qalin charmsimon qizg‘ish-qo‘ng‘ir rangli, ichi qalin tukli. Barglari 3–4 tagacha chetlari to‘lqinsimon, ustki qismida binafsha rang dog‘lari bor. Gullari yakka, balandligi 10 sm gacha, kosasimon, tashqi gulyonbarglari qayrilgan, qizil, to‘q sariq, ba’zan sariq, och sariq yoki rang-barang. Gulining tubi tuxumsimon qora dog‘li, ko‘pincha sariq hoshiyali. Changchi iplari kalta, qora yoki sariq, changdonlari sariq, qora-binafsharang. Ko‘sagi cho‘ziq, uz. 5-7(11) sm. Aprel–may oylarida gullab, mevasi iyun–iyulda yetiladi.

Tog‘larning past va o‘rta qismlarida, soz va shag‘al tuproqli yonbag‘irlarda yakka-yakka yoki to‘p bo‘lib o‘sadi.

G‘arbiy Tyan-Shan kamyob endem turi (O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston). O‘zbekistonda Toshkent va Namangan viloyatlarida uchraydi.

Tur populyatsiyasi soni: Toshkent viloyatida 49 ta populyatsiya topilgan

Turning umumiy soni: 100 ming tupga yaqin

Yerdan foydalanuvchi va hududdan foydalanish xarakteri: Chotqol davlat biosfera qo‘riqxonasi, Ugom-Chotqol biosfera rezervati, Ugom-Chotqol milliy bog‘i. Tabiatni muhofaza qilish, rekreatsiy.

O‘sish muhitining xolati: qoniqarli

Tavsiya etiladigan va amaldagi muhofaza choralari: Chotqol davlat biosfera qo‘riqxonasi, Ugom-Chotqol biosfera rezervati, Ugom-Chotqol milliy bog‘ida muhofaza etiladi.

REFERENCES

1. Тожибаев К.Ш. Флора Юго-Западного Тянь-Шаня (в пределах республики Узбекистан). Дис. ...докт.биол. наук. – Ташкент, 2010. – 178 с.
2. Камелин Р.В. Флорогенетический анализ естественной флоры горной Средней Азии. – Л.: Наука, 1973. – 313 с.

3. Толмачев А.И. Введение в географию растений. – Л.: ЛГУ, 1974. – 244 с.
4. Флора СССР. В 30 т. М., Л.: изд. АН СССР, 1934-1964.
5. Флора Таджикистана. В 10 т. – М., Л.: изд. АН СССР, 1957-1988.
6. https://lex.uz/ru/docs/4043624.

ZAMONAVIY TA'LIM JARAYONIDAGI INNOVATSIYALAR

[1]Raximova Gulora Ibragimovna, **[2]Yarmetova Muqaddas Ruzimovna**

[1]Urganch davlat pedagogika instituti , Pedagogika,boshlang‘ich va maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

E-mail:raximovagulora1976@gmail.com

tel: 914344789

[2]Urganch davlat universiteti , Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

E-mail:yarmetovamuqaddas 1975@gmail.com

tel: 974558389

https://doi.org/10.5281/zenodo.7927520

Annotatsiya. *Zamonaviy ta'lim jarayonidagi innovatsiyalar fanlarni o'qitish usullarini zamonaviy jamiyat rivojlanish davriga integratsiyalashuvining etakchi omillaridan biridir. Innovatsiyalar nima? Innovatsiya -yangi o'quv natijalaridir. Yangi natija olish uchun: bilimni emas, balki shaxsni tarbiyalash lozim bo‘ladi.*

Kalit so’zlar: *inoovatsiya, zamonaviy ta’lim, pedagogika, natija.*

O'quv natijasi bilimlar to'plami emas, balki universal harakatlar majmuasi, shaxsiy xususiyatlar va tizimli faoliyat yondashuvidir. Bunda quyidagi ta’lim tizimlari foydalidir: muammoli ta'lim, loyiha faoliyati,tadqiqot sikli va boshqalar.

G.Galileyning fikricha:"Matematika - bu tabiat tilida yozilgan kitob". Ilgari, matematik rivojlanish matematika fani sohasidagi faktlar va ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayoniga hamroh bo'lgan narsa ekanligiga ishonishgan. Biror kishi kitobdagi yuzlab ma'lum miqdordagi formulalar, teoremalar, matematik muammolarni hal qilsa - u kerakli matematik bilimlarga ega bo'ladi deb hisoblashgan.

Zamonaviy ta'lim ehtiyojlari nuqtai nazaridan, ushbu vositalar yordamida zamonaviy sharoitda, zamonaviy jamiyatda talab qilinadigan darajada matematik rivojlanishga erishib bo‘lmaydi va ta'lim muammosi ta'minlanmaydi.

Akademik L. D. Kudryavsev shunday yozadi: “Matematikani o'qitishdan maqsad- talabalar tomonidan ma'lum bir bilim doirasini egallash, matematik intuitivlikni rivojlantirish, matematik madaniyatni tarbiyalashdir.” Matematikani o'qitishda matematik sezgining rolini aniqlash juda muhim, deb hisoblaydi Yan Styuart: “Men o'zim sezgi yordamida nimani tushunganimni tushuntirib berolmayman. Haqiqiy matematik shunday sezgi egasi bo‘lishi kerakki, sezgi unga o'z mavzusini "his qilish", teoremaning rasmiy isbotini hali bilmasdan to'g'ri ekanligini ko'rish va keyin bu dalilni ixtiro qilish imkonini beradi”

Deyarli har bir inson ma'lum darajada matematik sezgiga ega. Faqat bu sezgini rivojlantirish har bir insonning o‘ziga bog‘liq.

Matematikani o'qitishning asosiy maqsadlaridan biri bu o'quvchilarning matematik sezgilarini tadqiqot vositasiga aylanadigan darajada aniqlashdir.

Men uchun innovatsion yondashuv quyidagi formulada yotadi:

Ta'lim texnologiyalari (o'qituvchi tomonidan ishlab chiqilgan texnologiya) + Bolaning sezgisi!!!Sezgi matematikaga qiziqish mavjud bo'lgan jarayonda rivojlanadi!

Darslarda, birinchi navbatda, mavzuga kognitiv qiziqishni, o'quvchilarning faol aqliy faoliyatiga maksimal darajada tayanishni rivojlantirishga harakat qilish zarur. Kognitiv qiziqishni rivojlantirish uchun asosiy narsa-bu kognitiv muammolarni hal qilish holatlari, faol izlash, taxmin

qilish, aks ettirish holatlari, ularni o'zingiz tushunishingiz kerak. Fikrlash jarayonining boshlang'ich nuqtasi odatda muammoli vaziyatdir. Biror kishi biror narsani tushunishga muhtoj bo'lganida o'ylashni boshlaydi. Fikrlash odatda muammo yoki savoldan, hayrat yoki hayratdan, qarama-qarshilikdan boshlanadi. Buning uchun muammoli vaziyatlardan foydalanish va ularni hal qilishga yordam berish zarur.

5-sinfda geometriyani o'rganishning dastlabki bosqichiga mos keladigan bir nechta qiziqarli vazifalarni ko’ramiz.

Masalan, intuitiv va o'ynoqi daqiqalarni birlashtiramiz, quyidagi vazifa taklif qilinadi: "daftarda a va B ikkita nuqtani belgilang va ular orqali ikkita chiziq torting: egri va to'g'ri chiziq. Tasavvur qiling-a, bu ikki uyni bog'laydigan yo'llar. Agar siz bir uydan ikkinchisiga imkon qadar tezroq borishni istasangiz, qaysi biridan borasiz?" Javob tahlil qilib tushuntiriladi. Yana bir nechta vazifalarni ota-onalar bilan birgalikda bajarish uchun beriladi:

Qadamingiz uzunligini, maktab uchastkasining perimetrini, oygacha bo'lgan masofani qaysi birliklarda o'lchaysiz?

Qaysi biri kattaroq: kvadratning diagonalimi yoki uning tomoni?

Bolalar bunday vazifalar ustida qiziqish bilan ishlashadi,ota-onalarni ham hamkorlikka chorlashadi.

Bunday rejaga muvofiq muammoli vaziyat bilan dars tuzish natijasida quyidagilar aniqlanadi:

1.Bilimlarni yangilash va sinov mashg'ulotlaridagi qiyinchiliklar

2.Qiyinchilikning joyi va sababi

3.Qiyinchilikdan chiqish loyihasi ishlab chiqiladi

4.Qurilgan loyihani amalga oshiriladi

Masalan, 5-sinfda "Tub va murakkab sonlar" mavzusini o'rganayotganda amaliy ish tayyor model yordamida amalga oshiriladi. Talabalar uning yordamida tub sonlar uch guruhga bo'lingan xususiyatni, xususiyatni aniqlashlari kerak.O’quvchilar g‘alvir yordamida 2ga,3ga,4ga,5ga va … sonlarga bo‘linuvchilarini o‘chirib chiqsalar, natijada faqat tub sonlar qolganiga o‘zlari amin bo‘ladilar. Amaliy ish davomoda yuzaga kelgan qiyinchilikni sababini aniqlaymiz va qiyinchilikdan chiqish loyihasini tuzamiz.

Muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanish natijasida o'rta va katta yoshdagi o'quvchilarda matematikani o'rganishda motivatsiyaning oshishi, o'quvchilarni faol kognitiv faoliyatga to'liq jalb qilish, bilim sifatini oshirish, sinflarda matematikani o‘rgana olmaydigan bolalar sonining keskin kamayishiga erishiladi.

Matematikani o'qitish maqsadlarining ikkinchi bloki shaxsiy blokdir.

Ushbu blok quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Aqliy tarbiya, ijodiy xarakterni tashkil etuvchi tarbiya, estetik tarbiya bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy xususiyatlar-o‘quvchilarning mantiqiy rivojlanishi, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, mustaqil ravishda bilim olish qobiliyati, xulosalarni qo'llash qobiliyati, go'zallik tuyg'usini tarbiyalash, tasavvurni rivojlantirish, fazoviy shakllar faraz qila olish hissi va boshqalar.

Ushbu fazilatlarni rivojlantirish uchun tadqiqot elementlaridan foydalanadi. Masalan, 5-sinfda, natural sonlar to'plami haqidagi bilimlarni tizimlashtirishda o‘quvchilarga tarixiy faktlar asosida qurilgan biznes o'yini taklif etiladi. Uning yordami bilan o‘quvchilar ushbu yo'nalishdagi fikrlarning turli bosqichlarini hissiy jihatdan baholab, natural sonlarning pozitsion yozuvini izlashning tarixiy taraqqiyotini o‘rganadilar. Bu jarayon o‘quvchilarni ilmiy tadqiqot usullari bilan

tanishtiradi.Loyiha faoliyati texnologiyasi bu jarayonga juda mos keladi.Ushbu texnologiyadan mavzu bo'yicha darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil qilishda va dars paytida foydalanish mumkin. Loyihalarning quyidagi turlari mavjud:

1)tadqiqot, qidiruv, ijodiy, amaliyotga yo'naltirilgan;

2)mono loyihalar (bitta ta'lim sohasi doirasida);

3) fanlararo loyiha.

Loyiha faoliyati texnologiyasidan foydalanish o‘quvchilarga turli darajadagi fan tanlovlari va konferentsiyalarda qatnashish imkonini beradi, bu esa matematikani o'rganish motivatsiyasini oshiradi. O'quvchilar o‘zlarining ijodiy ishlar bankini (taqdimotlar, ilmiy-tadqiqot ishlari va boshqalar) yaratadilar, xususan:

a)"nima uchun yulduzlar porlaydi"mavzusidagi loyiha.

b) "asalarichilik geometriyasi" loyiha usuli texnologiyasida tadqiqot ishlari

v) "Rossiyada qadimiy uzunlik o'lchovlari", "matematika va mifologiya"loyihalari. Ushbu loyihalar mintaqaviy ilmiy-amaliy konferensiyasilarga taqdim etiladi. Bolalar o'z loyihalari bilan mintaqaviy konferentsiyalarda g'olib va sovrindor bo'lishlari mumkin.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun "kvadrat tenglamalar", "ijobiy va salbiy raqamlar"mavzusida klasterlar tuzish mumkin.

Matematikani o'qitish maqsadlarining uchinchi blokida faqat matematik ta'lim bilan bog'liq bo'lgan maxsus xarakterdagi muammolar, ya'ni boshqa biron bir fanni o'rganishdan oldin tushunib bo'lmaydigan muammolar mavjud. Ushbu maqsadlarni quyidagicha shakllantirish mumkin:o‘quvchilarlarga og'zaki va yozma matematik nutqni, ayniqsa buyurtma, aniqlik, ravshanlik, qisqalik, asoslilik kabi fikrlarni ifoda etish fazilatlarini o'rgatish; matematik jihozlardan foydalanish, shu jumladan matematikani o'qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun demo material(matnlar, vazifalar, qo'llab-quvvatlash sxemalari, jadvallar, tushunchalar)dan foydalaniladi. Grafik tasvir bilan slaydlarni yaratish (o‘quvchilar materialni o'rganib, umumlashtiruvchi jadvallar, diagrammalar, harakatlar algoritmlarini yaratadilar va o'rganilganlarni birlashtirish bosqichida yoki o'tganlarni takrorlash bosqichida ushbu jadvallar, sxemalar o'quv va kognitiv muammolarni hal qilish uchun ishlatiladilar).

Galiley Galileynig shunday so‘zlari bor: "Siz odamga hech narsa o'rgata olmaysiz. Siz unga buni o'z ichida aniqlashga yordam bera olasiz xolos." Bolalar o'zlarini o'rganadilar va biz ularga faqat o'rganishga yordam beramiz. o‘quvchining o'zi xohlagan narsani qilishi kerak, shundagina u o'rgana oladi. Hissiyotlar o'rganishni rag'batlantiradi, agar ijobiy bo'lsa yaxshi natijalarga erishiladi.

Xulosa: Zamonaviy ta'lim jarayonidagi innovatsiyalardan foydalanganda o‘quvchilarlarda og'zaki va yozma matematik nutq, ayniqsa faollik darajasi, aniqlik, ravshanlik, qisqalik, asoslilik kabi fikrlarni ifoda etish qobiliyatlari; matematik jihozlardan foydalanish, shu jumladan matematikani o'rganishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalari rivojlanadi. O‘quvchilarning mantiqiy, tanqidiy fikrlashi rivojlanadi, mustaqil ravishda bilim olish qobiliyati, xulosalarni qo'llash qobiliyati, go'zallik tuyg'usini tarbiyalash, tasavvurni rivojlantirish, fazoviy shakllarni faraz qila olish hissi shakllanadi. Bu esa ta’lim sifatining oshishiga bevosita yordam beradi.

REFERENCES

1. G.L.Il‘in.Ta’limdagi innovatsioyalar. «Prometey» nashriyoti, 2015.
2. G.Adjemyan.Matematika darslarida qo‘llaniladigan innovatsion texnologiyalar. “O‘qituvchi” nashriyoti - 2007. №2. – C. 13-14.
3. K.Angelovski. O‘qituvchilar va innovatsiya: – M.: “Prosvesheniye”nashriyoti, 1991. – 159c. - ISBN 5-09-003073-1

ИННОВАЦИОННЫЙ ПРОЦЕСС В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

[1]Д.Х. Садикова [2]М.З. Умерова

[2] (PhD), и.о. доцента факультета Дошкольное образование, ТГПУ им. Низами. тел: (99) 882-66-73

[2]студентка факультета Дошкольное образование, ТГПУ им. Низами

https://doi.org/10.5281/zenodo.7927538

Аннотация. *В статье представлена информация об инновационном процессе в педагогической деятельности, его сущности, этапах применения и результативности.*

Ключевые слова: *Инновация, педагогика, образование, массовое сознание, инновации, педагогический процесс.*

Инновация (англ.Innovation) - нововведение, нововведение. А.І. Пригожин под инновацией понимает целенаправленные изменения, вносящие новый, относительно устойчивый элемент в определенную социальную единицу-организацию, население, общество, группу. Это деятельность новатора.

Исследователи (AL. Пригожин, Б.В. Сазонов, В.С. Толстой, А.Г.Кругликов, А.С.Ахиезер, Н.Р.Степанов и др.) выделяют два подхода к изучению компонентов инновационных процессов: индивидуальный микроуровень инновации и отдельно введенный микроуровень взаимодействия инноваций.

Педагогическая инновация-инновация в педагогической деятельности, изменение содержания и технологии обучения и воспитания, повышение их эффективности.

Таким образом, инновационный процесс заключается в формировании и развитии содержания и организации нового. В целом под инновационным процессом понимается комплексная деятельность по созданию (рождению, развитию), разработке, использованию и распространению инноваций. Существуют разные типы инноваций в зависимости от того, по какому критерию они подразделяются. Инновационные процессы в развитии системы образования осуществляются по следующим направлениям: формирование нового содержания образования, разработка и внедрение новых педагогических технологий, создание образовательных учреждений нового типа. Кроме того, внедрением в практику нововведений, ставших историей педагогической мысли, занимаются преподаватели ряда учебных заведений. Например, альтернативные системы образования начала XX века М. Монтессори, Р. Штайнер и др. В литературе по педагогике приводится схема инновационного процесса. Он охватывает следующие этапы:

1. Этап зарождения новой идеи или концепции новизны. Это также называется стадией открытия.

2. Изобретение, то есть этап создания инноваций.

3. Этап практического применения созданного новшества.

4. Этап распространения новости, ее широкое применение.

5. Стадия доминирования инноваций в определенной сфере. На этом этапе новинка теряет свою новизну, появляется ее эффективная альтернатива.

6. На основе новой альтернативы этап сокращения объема инновации путем замены.

В. А. Сластенин рассматривает инновацию как совокупность целенаправленных процессов создания, широкого распространения и использования инноваций, целью

которых является удовлетворение потребностей и стремлений людей с помощью новых средств.

Авторы системной концепции инноваций (А.И. Пригожин, Б.В. Сазонов, В.С. Толстой) выделяют две важные формы инновационных процессов.

Новшество к **первой форме** вводится как простая разработка. Это относится к организациям, которые внедряют продукт впервые.

Вторая форма относится к крупномасштабному развитию инновации.

Инновация — это и внутренняя логика, и динамическая система, закономерно развивающаяся во времени и выражающая свое взаимодействие с окружающей средой.

Понятие «новое» занимает центральное место в педагогической инновациях. Это также вызывает интерес к специальным, условным, локальным и субъективным нововведениям в педагогической науке.

По мнению В. А. Сластенина, **частное нововведение**, текущая модернизация предусматривает обновление одного из элементов конкретного системного изделия.

Условная инновация представляет собой комбинацию определенных элементов, которые приводят к **сложным и прогрессивным инновациям.**

Местная новизна определяется использованием новизны на конкретном объекте.

Субъективная новизна определяется тем, что для данного объекта сам объект является новым.

В научных направлениях различают понятия новизна и инновация.

Инновация-это инструмент: новый метод, методика, технология и т. д.

V.I. Давая определение новому понятию, Загвязинский отмечает, что новое в педагогике - это не просто идея, а еще неиспользованные подходы, методы, технологии. Но именно элементы педагогического процесса являются комплексными или отдельно взятыми элементами и отражают прогрессивные начала эффективного решения учебно-воспитательных задач в меняющихся условиях и ситуациях.

Р.Н.Юсуфбекова рассматривает педагогическую деятельность как состояние, результат, развивающуюся теорию и практику, которые ранее не были известны и ранее зафиксированы в обучении и воспитании, как меняющееся содержание педагогической действительности.

В педагогической инновации Р.Н.Юсуфбекова различает три блока структуры инновационного процесса:

Первый блок-это блок выделения нового в педагогике. К ним относятся классификация новой, педагогической новизны в педагогике, условия создания новой, нормы новизны, готовность новой к ее освоению и использованию, традиции и новаторство, этапы создания новой в педагогике.

Второй блок-блок восприятия, усвоения и оценки нового: педагогические сообщества, многообразие процессов оценки и усвоения нового, консерватизм и новаторство в педагогике, инновационная среда, готовность педагогических обществ к восприятию и оценке нового.

Третий блок-это блок использования и внедрения нового, то есть законы и виды применения, использования и широкого внедрения нового. М.М.Интерпретации инновационных процессов Поташника привлекают внимание человека.

Сегодня многие учителя используют современные технологии и инновационные методы обучения для достижения эффективности обучения в школе. Эти методы включают активные и интерактивные формы, используемые в обучении. Обеспечивает активную позицию активного ученика по отношению к учителю и тем, кто учится вместе с ним.

Во время урока они используют учебник, тетрадь, компьютер, то есть отдельные инструменты, используемые для обучения. Благодаря интерактивным методам происходит эффективное усвоение знаний в сотрудничестве с другими учащимися. Эти методы относятся к коллективным формам обучения, в ходе которых группа учащихся проводит работу над изучаемым материалом, и каждый из них отвечает за проделанную работу.

REFERENCES

1. Азизходжаева H.N. Педагогическая технология и педагогическое мастерство. -Т.: TDPU. 2006г.
2. Сайидахмедов Н. Новые педагогические технологии. -Т.: Изд-во "финансы", 2003. – 171 С.
3. Очилов М. Новые педагогические технологии. - Против. "Насаф", 2000.-80 С.
4. Толипов У., Усманбаева М. Педагогическая технология:теория и практика.-Т.: "Fan". 2005.
5. X. S. Холмуратов, З. М, Хусаинова, Н. Ш. Душанов, Р. А. Абдуллаев, О’. S. Янгибаева., Инновационные технологии в образовательном процессе: научный журнал "Наука и образование" / ISSN 2181-0842 January 2022 / Volume 3 Issue 1

O‘QUVCHILARNING ROBOTOTEXNIGA OID BILIMLARINI O‘ZLASHTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Nasrullayeva Fatima Azatovna
“Professional ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.7927558

Annotatsiya. *Maqolada o‘quvchilarning robototexnikaga oid bilimlarini oẓlashtirishning pedagogic shart-sharoitlari haqidagi tushunchalar bayon etilgan. Robotexnika sohasi hamda turli robot turlari tushuntirib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Robototexnika, robot, robot tuzilishi, mexanika, elektronika, masofadan boshqarish, gibrid.*

Bugungi kunda axborot texnologiyalarining kelajagi porloqligiga hech qanday shubxa yo‘q. Hamma buni ko‘rib, guvohi bo‘lib turibdi. Ota-onalar bolasining «IT»chi bo‘lishini istaydi. Yoshlarning o‘zi ham bu sohani ikkilanmay tanlamoqda.

Axborot texnologiyalari dunyosida ilm egallash, bu orqali rivojlanishga o‘z hissasini qo‘shish borasida ayni damda nimalar qilinyapti? Masalan, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida informatika hamda texnologiya fanlari qay darajada o‘qitilyapti? O‘zbekistondagi umumiy o‘rta ta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida axborot texnologiyalariga doir birorta fan yo‘q lekin texnologiya fani to‘liq o‘qitiladi. 5-sinfdan 11-sinfgacha haftasiga 2 marta «Informatika», 5-sinfdan 9-sinfgach esa texnologiya fani o‘tiladi. Faqat xususiy maktablar o‘z qaroriga ko‘ra «Kompyuter savodxonligi», «Robototexnika» kabi fanlarni kiritganlar. Xususiy maktablarning qamrovi ozligi bois bu yaxshi natija bermaydi.

Qo‘shni Qozog‘istonda bu yildan birinchi sinf o‘quvchilarining dars jadvaliga «Raqamli savodxonlik» fani kiritildi. Maktablar dars jadvallarida avvaldan mavjud «Axborot-kommunikatsion texnologiyalar» va «Informatika» fanlaridagi ta’lim berish jarayonini qayta ko‘rib chiqib, o‘quvchilarga dasturlash tilini ko‘proq o‘qitishga kelishib olindi. Yuqori sinf o‘quvchlari IT-startup, sun’iy intellekt, mobil ilovalar yaratish bilan ko‘proq mashg‘ul bo‘lishi rejalashtirildi. Shuningdek, internetda axborot xavfsizligi, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish odobi, mualliflik huquqi kabi masalalarni chuqur singdirish niyatidalar.

Bu borada Rossiya va Belarusyadagi ahvol unchalik yaxshi emas. Ushbu mamlakatlarda 1-6-sinflarda «Informatika» fani umuman yo‘q. 7-sinfdan boshlab 11-sinfgacha bu fan haftada atigi 1 martagina o‘tiladi. Holat bir necha marotaba soha mutaxassislari e’tirozi, jurnalistlarning tanqidiga sabab bo‘lgan, lekin o‘zgarish kiritilmadi.

Ukrainada ba’zi maktablarda birinchi, ayrim maktablarda ikkinchi sinfdan axborot texnologiyalari o‘rgatiladi.

Germaniyada ikkinchi sinfdan «Texnologiya va kommunikatsiya» fani dars jadvaliga kiritilgan. Bunda darslar ancha yengil o‘tilib, asosan virtual va real olam o‘rtasidagi farq tushuntiriladi. 3-6-sinflardan o‘quvchilar murakkab IT loyihalarni o‘rganishga o‘tishadi. 7-10-sinflarda dasturlash tili chuqur o‘rgatiladi.

Finlyandiya, Avstraliya, Angliyada birinchi sinfdanoq axborot texnologiyalariga oid fan kiritilgan. 7-9-sinflarda ushbu dars soatlari ko‘paytiriladi. Amerikada fanlarni o‘quvchilarning o‘zi tanlash tamoyili bor. Lekin yuqori sinflarga kompyuter grafikasi, veb-dizayn, informatika, robototexnika fanlari o‘tilmay qolmaydi.

Janubiy Koreyada «Informatika» fani o‘rta ta’lim maktablarining barcha sinflarida majburiy tartibda o‘qitiladi. Sinf yuqorilagan sari soatlar oshiriladi va mavzular murakkablashadi. Axborot texnologiyalari darslarini boshlang‘ich sinfdan berish rivojlangan davlatlar tajribasida kuzatilgan va o‘zini oqlagan amaliyotdir.

Robototexnika maktab ta’limiga jadallik bilan kirib kelmoqda. Robototexnikani ta’lim jarayoniga joriy etish “Texnologik ta’lim”ni amalga oshirishning asosiy vositalaridan biri bo‘lib, jahon texnologik taraqqiyotining zamonaviy talablariga mos keladigan ilmiy-texnik salohiyatni shakllantiradi.

Robototexnikaga oid mashg‘ulotlarni o‘quv jarayoniga joriy etish natijasida o‘quvchilarda konstruktorlik, texnik ijodkorlik, tahlil qilish, tanqidiy fikrlash, qismlardan bir butun tizim hosil qilish xususiyatlari shakllanadi. Robototexnika o‘quvchilarning ijodkorlik kompetensiyasini shakllantirishda katta imkoniyatlarga ega, u o‘quvchilarga yuqori motivatsion impuls beradi

Maktablarda texnologiya darslarida robototexnika yo‘nalishidagi mavzularni tushuntira oladigan mutaxassislar kam. Dars soatlari esa mashg‘ulotni o‘zlashtirishlari uchun yetarli emas. Dars soatlarini ko‘paytirish bilangina natijaga erishib bo‘lmaydi. Informatika fani chuqur o‘rgatilib, nazariyada olingan bilimlar amaliy bajarilmasa natija yaxshi samara bermaydi. Informatika darslaridan olingan bilimlarni amaliyotga bog‘lovchi fan bu texnologiyadir. Axborot texnologiyalarining dolzarbligi oshib borayotgan ekan, demak, maktab dasturlarida shunga muvofiq o‘zgartirishlar kiritish davri keldi. Hozirda bolalar maktab, balki bog‘cha yoshidanoq texnik qurilmalarni ishlata oladi. Ular raqamli savodxonlikka tayyor.

Yangi fan bolalar yoshiga moslashtirilgan holda o‘tiladi. Dars qiziqarli ma’lumotlar va o‘yinlar tarzida o‘tilib, ortiqcha bosimning oldi olinadi. Endi maktabga qadam qo‘ygan o‘quvchiga texnikadan foydalanish, texnika xavfsizligiga rioya etish asta-sekin o‘rgatiladi. O‘quvchilar axborot texnologiyalarini qulay hayot va yuqori daromadga yetaklaydigan yo‘l ekanini tushunib yetishadi.


Robototexnika - bu robotlarni qurish, ulardan foydalanish va ulardan foydalanish, shuningdek ularni boshqarish, sezish va ma’lumotlarni qayta ishlash bilan shug‘ullanadigan mexanika, elektrotexnika va elektron muhandislik va informatika fanining birlashtirilgan sohasi. Robototexnika - avtomatlashtirilgan texnik tizimlar va ishlab chiqarish jarayonlarining so‘nggi texnik tarkibiy qismlarini ishlab chiqish va qo‘llashni o‘rganadi. Avtomatlashtirilgan mashinalar, robotlar odamlar o‘rniga xavfli joylarda yoki zavodda yig‘ish jarayonida ishlashi mumkin. Robotlar tashqi ko‘rinishi, xulq-atvori va idrokida odamlarga juda o‘xshash bo‘lishi mumkin.

Bugungi kunda olimlar gumanoid robotlarni odamga o‘xshatishga harakat qilmoqda. Avtonom robotlar haqida ma’lumot qadim zamonlardan beri mavjud bo‘lib, ammo bu mavzu bo‘yicha tadqiqotlar yigirmanchi asrda boshlangan. Bugungi kunda robototexnika jadal rivojlanayotgan soha. Texnologiya rivojlanib borishi bilan robototexnika ham rivojlanib bormoqda, chunki robototexnika texnologiyalar bilan chambarchas bog‘liqdir. Texnologiya rivojlanib borishi bilan tadqiqotlar va ishlab chiqishlar o‘zgaradi, shuningdek robotlardan foydalanish o‘zgaradi. Robotlar uy sharoitida, biznesda va armiyada qo‘llaniladi. Ko‘pgina robotlar odamlarga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan vaziyatlarda, masalan, minalar va bombalarni zararsizlantirishda ishlatiladi.

To‘liq avtonom robotlar faqat XX asrning ikkinchi yarmida paydo bo‘ldi. Dastlabki raqamli boshqariladigan dasturlash roboti Unimate edi. Ushbu robot eritish mashinasidan issiq temir qismlarni ko‘tarish va yig‘ish uchun mo‘ljallangan. Bugungi kunda savdo va sanoat robotlari

keng tarqalgan. Ushbu robotlar odamlarga qaraganda arzonroq, ixchamroq va mustahkamroq. Ushbu sohada ishlatiladigan ba’zi robotlar iflos, xavfli va odamlar uchun zerikarli. Robotlar yig‘ish, yetkazib berish, yer va kosmik tadqiqotlar, tibbiy operatsiyalar, qurol, laboratoriya tadqiqotlari, xavfsizlik sifatida keng qo‘llaniladi.

Hozirgi kunda turli xil muhitda turli xil qo‘llaniladigan robotlarning ko‘p turlari mavjud. Maqsad va tashqi ko‘rinish har xil bo‘lsa ham, ularning barchasi tuzilishi jihatidan 3 o‘xshashlikka ega:




1-rasm. Robotlarning tuzilish

1) Har bir robotning mexanik asoslari ramkadan tashkil topgan qurilma. Robotning ishlatilish maqsadiga qarab turlicha bo‘ladi. Agar robot loy va qum ustida harakatlansa, traktorlardan foydalanish mumkin. Ixtirochining alohida e’tibor qaratiladigan mexanik tomoni robot harakatlanadigan muhitga bog‘liq. Robotning shakli uning bajaradigan ish funktsiyasiga bevosita bog‘liq.

2) Har bir robot elektr qismlardan iborat. Ushbu qismlar robot tizimlarini to‘liq boshqaradi. Zanjir bo‘ylab harakatlanadigan robotni olaylik va bu zanjirlarni haydash uchun kuch talab etiladi. Ushbu quvvat elektr energiyasi sifatida keladi, simlardan o‘tadi va batareyada saqlanadi. Gaz bilan ishlaydigan mashinalar, shuningdek, gazni qayta ishlash uchun elektr energiyasini talab qiladi. Shu sababli, gaz bilan ishlaydigan vositalar kabi avtoulovlarda ham batareyalar mavjud. Elektr tizimi robot (dvigatel) harakatida o‘lchov (issiqlik, tovush, joy va energiya miqdorini aniqlash uchun elektr signallari) va umumiy foydalanish uchun ishlatiladi (robot o‘z motorlari va sensorlariga umumiy energiyani bajarish uchun bir oz energiya yuborishi kerak) asosiy operatsiyalar).

3) Barcha robotlar kompyuter kodlari orqali boshqariladi. Xuddi shu algoritm robotning qanday ishlashini ko‘rsatadi. Kodni yozgan odam dasturda robot qanday va qachon qaror qabul qilishini va qanday ishlashini yozadi. Mexanik dizayni va konstruktsiyasi tufayli ushbu zanjir bo‘ylab harakatlanadigan robot, batareyadan kerakli miqdordagi energiyani simlar orqali yutsa ham, kompyuter dasturisiz harakat qilmaydi. Chunki dastur robotga qachon va qayerda harakat qilish kerakligini aytadi. Dastur robotning asosiy qismidir. Agar robotning mexanik va elektr qismlari mukammal tarzda ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, ammo yozma dastur yomon bo‘lsa, robot ishlay olmaydi va u ishlagan taqdirda ham uning harakati va ishlashi tartibsiz bo‘ladi.



2-rasm. Robotlarning asosiy turlari

Robotlarning uchta asosiy turi mavjud: masofadan boshqarish, sun’iy intellekt va gibrid. Masofadan boshqariladigan robotlar buyruqlar to‘plamiga ega. Masofadan boshqarish pultidan signal olgandan keyingina buyruqlarni bajaradi. Umuman olganda, odam robotni masofadan boshqarish uchun asbobdan foydalanadi. Sun’iy intellektli robotlar atrof-muhitga tegishli qarorlarni qabul qilishadi. Robot tizimida atrof-muhit omillari va ob’ektlariga turli xil reaktsiyalar qayd etiladi. Sun’iy aqlning o‘zi ushbu reaktsiyalarni hisobga oladi va atrof-muhit omillariga ta’sir qiladi. Asosan, sun’iy aql inson tafakkuriga o‘xshash bo‘lishi yoki taqlid qilishi kerak. Gibrid - bu masofadan boshqarish va sun’iy aqlning kombinatsiyasi.

Xulosa qilib aytganda robototexnika o‘quvchiga turli bilim sohalari o‘rtasidagi munosabatni idrok etish imkonini beradi, bu esa informatika, matematika, fizika, chizmachilik, tabiiy fanlarni o‘qitilishning rivojlanishi bilan texnologiya fanida texnik ijodkorlik orqali muhandislik fikrlashni uzviy bog‘lashga yordam beradi.

REFERENCES

1. Grebneva D.M. Proektirovanie soderjaniya kursa «Osnovi robototexnika» dlya studentov pedagogicheskix vuzov // Sovremenniye naukoemkie texnologii. 2015. № 12-2, S.313-316
2. Bolotova, L.S. Sistemi iskusstvennogo intellekta: modeli i texnologii, osnovannie na znaniyax : - M. : Finansi i statistika, 2012. - 664 s
3. Borovskaya, E.V. Osnovi iskusstvennogo intellekta : uchebnoe posobie - M. : Laboratoriya znaniy, 2016. - 130 s.
4. Elektron manzil: http://exujjat.tdpu.uz/exujjat/img/userfiles2/ “Robototexnika”.pdf

TASVIRIY SAN’AT DARSLARIDA O’QUVCHILARNING BADIY IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISH YULLARI

Lutfullayev Otabek Shokir o’g’li
Navoiy davlat pedagogika instituti «Tasviriy san‘at va muhandislik grafikasi» kafedrasi 2-kurs magistiri

https://doi.org/10.5281/zenodo.7927573

Annamatsiya. *Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tasviriy san’at fanlarini o’qitishnida samaradorlikga erishish yullarini ishlab chiqish va uni dars jarayonlarida qullash borasida fikr yuritiladi.*

Kalit so’zlar: *umumiy, o‘rta ta’lim, maktab, samaradorlik, noyob, iste’dod, samarali, izlanish, tavsiyalar, maxsus, psixologik, pedagogik, testlar, iqtidor.*

Tasviriy san’at darslarida iqtidorli o‘quvchilarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘quv jarayonini tashkil etishda ularning mustaqilligi, tashabbuskorligi va mas’uliyatlarini oshirish imkoniyatlarini izlash o‘qituvchilarning muhim vazifalaridan biridir. Iqtidorli o‘quvchilar muayyan o‘quv predmetlari yoki ularning qismlarini o‘z xoxishlariga ko‘ra chuqurroq o‘zlashtirishga erishadilar. Ular turli bilimlar va axborotlarni tez, chuqur o‘rganishni xohlaydilar va o‘zlarining o‘quv harakatlarini rejalashtiradilar. Shularni hisobga olgan holda tasviriy san’at darslarida iqtidorli o‘quvchilarga mustaqil izlanish va o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javob topishga ko‘maklashadigan pedagogik –psixologik mexanizmlarni ishlab chiqish bugungi kun har-bir tasviriy san’at o’qituvchisining eng katta vazifalaridan biridir.

Iqtidorli yoshlar O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini hamda uni jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallashini ta’minlovchi omil va millatimiz ziynati hisoblanadi. Bizga ma’lumki o‘quvchilarda ayniqsa san’at sohasida tasil olayotgan o’quvchilarda badiiy iqtidor, umumiy intellektual iqtidor, kasbiy iqtidor, yetakchilik iqtidori va amaliy iqtidor kabi bir qator iqtidor turlari mavjud bo‘lib, buni bugungi kun pedagog-psixologlari o‘z vaqtida aniqlashlari va aniq maqsad sari yo‘naltirishlari bugungi kunning ta’lim sohasidagi muhim vazifalaridan sanaladi. Shuning uchun ham o‘rta ta’limning o‘quvchilari orasidan iqtidorli ‘quvchilarni aniqlash va ularni respublika, xalqaro fan olimpiadalarga tayyorlash va akademik litseylarda o‘qitish, ularning qobiliyatlarini rivojlantirish kabi jarayonlarning ilmiy asoslariga tayangan holda takomillashtirilgan mexanizmlarni ishlab chiqish pedagogika fanining dolzarb muammolaridan biriga aylandi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ta’lim olayotgan o‘quvchilarni tasviriy san’at darslariga bo’lgan qizziqishlarini yanada oshirish va shu bilan bir qatorda tasviriy san’at darslarining samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi bir qator ishlarni amalga oshirish zarur:

- Birinchidan umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining tasviriy san’at faniga nisbatan o‘quvchilarga xos bo‘lgan qobiliyatlarni aniqlashning pedagogik - psixologik muammo ekanligini ilmiy-nazariy va metodik jihatdan asoslash va uning muayyan yullarini ishlab chiqish.

-Ikkinchidan o‘quvchilardagi iqtidorni o‘rganishga doir ilmiy izlanishlar, ilg‘or pedagogik tajribalarni tahlil qilish va umumlashtirish.

-Uchunchidan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tasviriy san’at faniga bo‘lgan qiziqishlari va qobiliyatlarini aniqlashda hozirgi zamon didaktik prinsiplaridan foydalashish va o‘zbek xalq rassomlarining bizga qoldirgan boy me’roslaridan namunalar keltirgan holda, o‘quvchilarning tasviriy san’at darslariga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytirishga erishish.

-Turtinchidan manzara tasvirlashda qush va hayvonlar rasmini chizish orqali estetik munosabatni rivojlantirish kabi ishlarni amalga oshirish zarur.

Qisqacha qilib aytganda nazariy yondashuvlar va amaliyotdagi holatga tayangan holda, tasviriy san’at darslarida o‘quvchilar bilan ishlashni takomillashtirish, prinsiplarini o‘zlashtirish, pedagogik-psixologik mexanizmlarini ishlab chiqish va bu borada rivojlangan xorijiy davlatlarning ta’lim muassasalarida qo’llanilayotgan ilg’or pedagogik nazariyalarni o’rganish hamda bulardan dars jarayonlarida keng foydalanish bugungi kun tasviriy san’at o’qituvchisining oldida turga muhim masalalardan biridir.

REFERENCES

1. Rahim Hasanov.Tasviriy san’at asoslari.Qo’llanma.Toshkent - 2008
2. Oydinov.N. O’zbekiston tasviriy san’ati tarixidan lavhalar.-T: O’qituvchi, 1997.
3. Umarov.A. Ahmedov M. Tasviriy san’at atamalarining izohli lug’ati.-O’z. 1998.
4. Usmonov O. Komoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi.-T Fan. 1997.
5. Sharq miniatyura maktablari.-Toshkent: G’ofur G’ulom, 1989.
6. Oydinov N. Rassom o’qituvchilar tayyorlash muammolari.-T O’qituvchi. 1997.
7. Sh. Bobonazarov. Sh.Jalolov.Etnomadiy fenomenon sifatida nuza san'atlari. Published by: TRANS Asian Research Journals AJMR: asianjournal ofmultidimensional Research Osiyo ko'p o'lchovli tadqiqot jurnali (AJMR) Impact Factor: SJIF 2021 = 7. 699 05 -may 2021. Https://www.tarj.in
8. Sh. Bobonazarov. Kompozitsiya mashg‘ulotlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning muhim ekanligi.
9. Ijodiy fikrlashning qisqacha testi, jingalak shakl / ed. E. I. Shcheblanova. - M. : Intar, 1995. - 48 b.
10. Ozhegov, S. I. Rus tilining izohli lug’ati: 80 000 so’z va frazeologik iboralar / S. I. Ozhegov, N. Yu. Shvedova; Rossiya Fanlar akademiyasi. Rus tili instituti. V. V. Vinogradova. -4-nashr, qo’shimcha. - M.: Azbukovnik, 1999. - 944 b.
11. Rojers, N. Ijodkorlik o’z-o’zini kuchaytirish sifatida / N. Rojers // Psixologiya savollari. - 1990. - No 1. -S. 164-168.
12. Yakovleva, E. L. Talaba shaxsining ijodiy salohiyatini rivojlantirish / E. L. Yakovleva // Psixologiya savollari. - 1996. - No 3. - S. 28-34.
13. Bogoyavlenskaya D.B. Ijodiy qobiliyatlar psixologiyasi: Proc. talabalar uchun nafaqa. yuqoriroq darslik muassasalar / D.B. Epifaniya. - M.: Akademiya, 2002. - 320-yillar.

TA’LIM TIZIMIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN DARS JARAYONIDA FOYDALANISH

Muxammadiyeva X. K.
Nizomiy nomidagi TDPU “Boshlang‘ich ta’lim”fakulteti boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.7927582

Annotatsiya. *Innovatsion faoliyat-pedagogning o’z kasbini takomillashtirishdagi mavjud shakl va vositalarni egallashga ijodiy yondashuvini nazarda tutadi. Ta’limdagi innovatsiyalar va innovatsion faoliyat haqida barqaror,hammaga ma’qul bo’lgan ilmiy tasavvurlar va innovatsion pedagogik faoliyat haqida barqaror va hammaga ma’qul bo’lgan ilmiy tasavvurlar tasniflar shu paytgacha mukammal tarkib topgan emasligini ham e’tirof etish lozim.*

Kalit so’zlar*: texnologiya, innovatsion, konsepsiya, manbalar, tashkiliy, metodik, psixologik, pedagogik jamoalar, parametrlari, innovasiyon o’qitish.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida 2018-yilga faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo’llab quvvatlash yili deb nom berishni taklif etdi. Davlatimiz rahbari innovatsiyaning ahamiyati tog‘risida quyidagilarni ta’kidladi: «Innovatsiya bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo’lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak». 2018-yilda respublikamizda innovatsiyalarni rivojlantirishning asosiy vazifalari qatorida quyidagilar belgilandi: «Kelgusi yilda ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, buning uchun zarur moliyaviy resurslarni safarbar etish, ushbu jarayonda iqtidorli yoshlar ishtirokini, ijodiy g‘oya va ishlanmalarni har tomonlama qo’llab quvvatlash vazifasi e’tiborimiz markazida bo’ladi» [1]

Bugungi kunda ilg‘or xorij tajribalaridan andoza olish, ijodiy yondashgan holda amaliyotda joriy etish, zamon talabiga mos ravishda ta’lim jarayonlarini zamon talablari asosida tashkil etish, mustaqil fikrlovchi, dunyoqarashi keng, kreativ, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, urf-odat, milliy an’analarimizga sadoqatli, yuqori eruditsiyaga ega shaxslarni tarbiyalash, ularni dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari yoshlari bilan bellasha oladigan darajaga yetkazish ta’lim tizimi oldidagi dolzarb masalalar qatoriga kiradi.

Boshlang‘ich ta’lim tizimini modernizatsiyalash, boshlang‘ich ta’lim konsepsiyasi qabul qilingan. Ushbu konsepsiyaga muvofiq boshlang‘ich ta’limda tahsil olayotgan o‘quvchilarda yuksak darajadagi insoniy fazilatlar ya’ni insonparvarlik, qiyinchiliklarni yengish, sabr-toqatlilik, har tomonlama yetuk, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlangan, muammoli vaziyatlardan chiqib keta oladigan insonlar qiql tarbiyalash vazifalari ko‘rsatilgan. Buning uchun esa yetarlicha shart-sharoitlar yaratish, boshlang‘ich ta’lim jarayonlarida fan-texnika va texnologiyalarning eng maqbul yutuqlaridan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi.

Demak, bugungi kunda har bir soha va tizim faoliyatini innovatsion g‘oyalar va texnologiyalar asosida olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan mavzuga kirishishdan oldin «innovatsiya» so’zining ma’nosiga biroz to’xtalishni lozim topdik.

Innovatsiya tushunchasi (lotincha novus yangi) tadqiqotlarda va ilmiy ishlarda XIX asrlarda qo’llanila boshlagan. Avval u alohida elementlarni bir sohadan boshqa sohaga kiritishni ifodalagan.

Texnikaviy yangiliklar kiritish qonuniyatlarini o’rganib firmalar foyda olish uchun «innovatsion siyosatni» butun bir tizim sifatida

o’zlashtirishdi. Mazkur faoliyat jamiyat hayotining ixtiyoriy bo’g‘inini yangilash bo’yicha umumiy belgilarga, qonuniyatlar, yangilik kiritish mexanizmiga ega.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayonda o’qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o’zgartirishlar kiritish bo’lib, uni amalga oshirishda interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Interfaol usullar ta’lim jarayonida qatnashayotgan har bir o’quvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish o’quvchi uchun qiziqarli mashg‘ulotga aylanadi. Interfaol

usullar qo’llanilganda o’quvchilar o’qituvchilar yordami va hamkorligida mustaqil ishlash ko’nikma va malakalariga ega bo’ladilar. O’quvchilar yangi bilimlarni ilmiy izlanish, tadqiqotchilik, tajriba sinovlar o’tkazish asosida o’zlashtiradilar. Ilm orqali bilim olish tamoyiliga amal qilinadi. Ta’lim jarayoni qatnashchilari kichik guruhlarga bo’lingan holda ishlaydilar. O’quv topshiriqlari alohida bir o’quvchiga emas, balki

kichik guruhning barcha a’zolariga beriladi.

O’qitish jarayonini tashkil etishning asosiy shakli darsdir. Hozirgi paytda darsning xilma xil noan’anaviy shakllari joriy etilmoqda. Bunday darslar o‘quvchining ijodiy qobiliyatini o’stirish, aqliy salohiyatini kuchaytirish, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish va har bir yangilikni tez va to’la qabul qila olish ko’nikma va malakalarining shakllanishiga xizmat qiladi.

Dars jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo’llash o‘quvchilarda ilmiy izlanishga qiziqishni uyg‘otadi, ijodkorlik va bunyodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi. Natijada egallangan bilim, ko’nikma va malakalar amaliy faoliyatda tatbiq etiladi, o’zlashtirish sifati oshadi. Buning uchun o’qituvchi mahoratli bo’lishi va mavzularning mazmuniga qarab darsni to’g‘ri rejalashtirishi, mashg‘ulot davomida barcha o‘quvchilarni faol va ongli ishlashlariga erishmog‘i lozim. Zero, o‘qituvchi ta’lim islohotining bosh ijrochisidir. Bunda har bir o‘qituvchini qisqa vaqt ichida juda kata miqdordagi axborot to’plamini o’zlashtirish, qayta ishlash va amalda qo’llay olishga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega. Uni hal qilishda o‘qituvchiga o‘qitishning an’anaviy usullari bilan birga zamonaviy axborot texnologiyalari, jumladan kompyuterlardan foydalanish yordam beradi.

Pedagogik innovatsiya bu pedagogik g‘aoliyatdagi yangilik, o'qitish va tarbiya mazmuni va texnologiyasidagi o'zgarishlar, ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan.Innovatsiya - innovatsiya natijasi sifatida tushuniladi va innovatsion jarayon uchta asosiy bosqichning rivojlanishi sifatida qaraladi: g'oyani yaratish (ma'lum bir holatda, ilmiy kashg‘iyot), amaliy jihatlarda g'oyalarni rivojlantirish va yangiliklarni amaliyotga tatbiq etish. [2]

Pedagogik innovatsiyalab samaradorligining o’lchovi sifatida optimallik o’qituvchi va o’quvchilarning kafolatlangan natijaga erishishi uchun kuch-quvvat sarflashlarini taqozo etadi. Turli o’qituvchilar va o’quvchilar o’zlarining shaxsiy pedagogik hamda o’quv faoliyatlari jarayonida turlicha darajadagi samaradorlikka erishadilar.

Xuddi mana shuning o’zi pedagogik innovatsiyalarning optimallik darajasini belgilaydi. Innovatsion usullarning eng muhim belgisi sifatida natijalanganlik o’qituvchi faoliyatida ijobiy yutuqlarga erishilgandagina namoyon bo’ladi. O’lchovlardagi texnologiklik, kuzatuvchanlik, natijalarning qayd etilganligi o’qitishning yangi usullari, metodlarini baholash orqali namoyon bo’ladi.

Mazkur o’lchovning ahamiyatli jihati shaxs, uning idroki va tushunchalarini shakllantirishning bir butunligida namoyon bo’ladi. Shu munosabat bilan innovatsion jarayonni ilmiy g'oyani amaliy foydalanish bosqichiga olib chiqish va shu bilan bog'liq ijtimoiy pedagogik muhitdagi o'zgarishlarni amalga oshirish jarayoni deb hisoblash mumkin. G'oyalarning innovatsiyaga aylanishini ta'minlaydigan va bu jarayonni boshqarish tizimini shakllantiradigan faoliyat bu innovatsion faoliyatdir.

Innovatsiya jarayoni rivojlanish bosqichlarining yana bir o'ziga xos xususiyati mavjud. Pedagogik tajribada pedagogik innovatsiyalarni ijodiy qo’llash alohida o’qituvchilar ish faoliyatining boshlang‘ich bosqichida namoyon bo’ladi.

Mazkur innovatsiyalar tajribasi sinovdan o’tkazilib, ob’ektiv baholangandan so’ng ommaviy tarzda qo’llash uchun taqdim etiladi. Keng ommalashgan, ijobiy natijalarga erishish imkonini beradigan innovatsion usullardan foydalangan holda o’qituvchilarning kreativ funksiyalarini rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Pedagogik innovatsiyalarni baholash mezonlarini bilish o’qituvchining pedagogik ijodning rangbarang shakllarini o’zlashtirishi uchun qulay sharoit yaratadi. Pedagogik madaniyatning oddiy esda qolgan bilimlarni takrorlash shaklidan boshlab, ilmiy pedagogik jamoatchilikka ma’lum bo’lgan g‘oyalar, konsepsiyalar, texnologiyalarni o’z shaxsiy faoliyatiga singdirishdan ularni evristik, kreativ ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishga qadar bo’lajak pedagoglarning kundalik harakati mazmunini tashkil etishi lozim.

Pedagogik innovatsiyalarning mazmuni, uni qo’llash metodlarini bo’lajak o’qituvchilar tajribasiga singdirish muhim ahamiyatga ega. Ta’lim muassasasi hayotiga pedagogik innovatsiyalarni keng ko’lamda olib kirish uchun unda yangilik muhitini yaratish, muayyan axloqiy psixologik holatni shakllantirish, tashkiliy, metodik, psixologik xarakterdagi choratadbirlarni kullash talab etiladi.

Shu maqsadda bo’lajak o’qituvchilarning kreativ funksiyalarini rivojlantirish, ularni pedagogik innovatsiyalar bilan izchil kurollantirib borish, innovatsion usullarni tahlil va tatbiq qilishga o’rgatish vazifasini kuyish lozim[2]. Pedagogika fanida ta'lim tizimidagi yangilik masalalari muttasil mutaxassislar tomonidan o'rganilib kelinmoqda.

Biroq, ijtimoiy-pedagogik yangiliklar mintaqaviy ta'lim tizimini rivojlantirish omili sifatida, bir tomondan, nisbatan yaqinda tez rivojlanayotgan ijtimoiy pedagogika fan va amaliy faoliyat sohasi sifatida nisbatan yaqinda paydo bo'lganligi sababli, boshqa tomondan, ta'limni markazsizlashtirish va mintaqalashtirishning ijtimoiy tendensiyasining nisbiy yangiligi bilan bog'liq.

Bundan tashqari, xususiy, to'g'ri pedagogik (masalan, uslubiy) yangiliklarning samaradorligi, agar ular ijtimoiypedagogik rejada qo'llab-quvvatlanmasa, qo'llab-quvvatlanmasa, ancha past bo'ladi.

Shunday qilib, xususiy innovatsiyalar va ijtimoiy-pedagogik yangiliklarni qo'llabquvvatlovchi ijtimoiy-pedagogik kontekstni yaratish ham, ma'lum hajm, miqyos va daraja umuman mintaqaviy ta'lim tizimini rivojlanishini sezilarli darajada kuchaytirishi mumkin. [3]

Xususan, turli xil innovatsion jarayonlarning hayotiy davrlarini o'rgangan pedagogik innovatsiyalar sohasi mutaxassisi V.I.Zagvyazinskiy ta’kidlashicha yangilikni rivojlantirish natijasida ijobiy natijalarga erishgan holda, o'qituvchilar uni asossiz ravishda uni universallashtirishga, uni pedagogik amaliyotning barcha sohalariga tatbiq etishga intilayotganliklarini ta'kidlaydilar.

Ko'pincha muvaffaqiyatsizlik bilan tugaydi va umidsizlikka olib keladi, yangilikka soviydi.Boshqa bir tuzilmani (hozir aytilganiga juda yaqin) aniqlash mumkin. Bu moddiy ishlab chiqarish sohasidagi innovatsiyalar nazariyasidan olingan innovatsiya genezisining tuzilishi. Ammo o'quvchi yetarlicha rivojlangan tasavvurga ega bo'lsa, maktabdagi innovatsion jarayonlarga o'tish juda qulay: g'oyaning paydo bo'lishi - rivojlanishi - dizayn (qog'ozda nima bor) - ishlab chiqarish (ya'ni amaliy ishda o'zlashtirish) - boshqa odamlar tomonidan foydalanish. [4]

Yuqoridagilardan tashqari har qanday innovatsion jarayonda yangiliklarni yaratish va yangiliklardan g‘oydalanish (o'zlashtirish) kabi tuzilmalarni ko'rish oson;bir-biri bilan bog'liq bo'lgan mikroinnovatsion jarayonlardan iborat bo'lgan butun maktabning rivojlanishi asosida yotadigan murakkab innovatsion jarayon.

Xulosa

O’qituvchilarda ijodkorlikni shakllantirishning muhim pedagogik sharti uni mustaqil bilim olish va ijodiy fikirlashga yónaltirishdan iborat. Shu bilan bir qatorda, o‘qituvchilar orasida ijodiy muhit, muayyan ma‘naviy-ruhiy holat, tashkiliy, metodik, psixologik chora-tadbirlar qo‘llashga ham alohida e`tibor qaratish lozim.

REFERENCES

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // «Xalq so’zi» gazetasi, 2017 yil 23 dekabr
2. Ibragimova G.N. Interfaol o’qitish metodlari va texnologiyalari talabalarning kreativlik qobiliyatlapini rivojlantirish. I Monografiya. - T.: «Fan va texnologiyalar»,2016. -77-b.
3. Mochalova N.M. Maktabning metodik ishini tashkil etishning innovatsion yondashuvlari: O'quv qo'llanma. - Ufa, 2002. - 86 bet Slastenin V.A., Podimova L.S. Pedagogika: innovatsion faoliyat. - M., 1997
4. Panfilova A.P. Innovatsion pedagogik texnologiyalar: Faol o'rganish: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik / A.P. Panfilov. - M., Akademiya, 2009 y.
5. X.K Muxammadiyeva, FR Ismatullayeva. ”BOSHLANG‘ICH SINFLARDA DIDAKTIK JARAYONDA BOLANING RIVOJLANISHINI TA’MINLOVCHI TEXNOLOGIYALARNI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-PEDAGOGIK TAHLILI”. 2022. Jurnal.
6. Central Asian Research Journal for. Interdisciplinary Studies (CARJIS). 2(2). 77-82. OOO «THE FUTURE OF A NEW DAY». In the article is lightened the place and importance of didactic game educational technologies implementation in teaching of nature studies in the primary classes and its methodics in the teaching process.

TA'LIMDA INTEGRATIV TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Yuldasheva Inobat Ashuraliyevna
Ipak yo'li innovatsiyalar universiteti, katta o'qituvchi

https://doi.org/10.5281/zenodo.7930620

Annotatsiya. *Integrativ yondashuv asosida o'quvchilarda tayanch va fanga doir xususiy kompetentsiyalarni shakllantirishning nazariy asoslari yoritilgan.*

Kalit so`zlar*: integrativ yondashuv, o'quvchilar, tayanch va fanga doir kompetentsiyalar, bilish faolligi, ta'lim tizimi, axborotlashtirish.*

O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasida «O'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, xalq ta'limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish» vazifalari belgilangan.

Bu borada o'quvchilarda tayanch va fanga doir kompetentsiyalarni shakllantirishning biologik va informatsion tarkibiy asoslarini aniqlashtirish, integrativ yondashuvga asoslangan tarix fanini o'qitishning «komp`yuterli ta'lim metodi»ni ta'lim amaliyotiga joriy etish mexanizmini takomillashtirish, xususiy kompetentsiyalarni shakllantirishning metodik tizimini ishlab chiqish ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo hamjamiyati tomonidan ta'limni barqaror taraqqiyot, globallashuv va integratsiyalashuv jarayonlariga moslashtirishda ijtimoiy fanlar, jumladan, tarix fanining ta'lim oluvchilarda sog'lom turmush madaniyati, valeologik va ekologik kompetentlilikni rivojlantirishdagi ta'siriga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bu esa oliy ta'limning kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan texnologiyalashtirilgan shakllari, o'qitishning amaliy birligini ta'minlash imkoniyatlariga yo'naltirilgan simulyatsion tizimlar, mustaqil tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantiruvchi virtual laboratoriyalarga bo'lgan qiziqish va talabni kuchaytirmoqda.

Respublikamizda ta'lim tizimini axborotlashtirish, pedagogik va axborot texnologiyalarini integratsiyalash, o'qitish jarayoniga elektron va masofaviy ta'limni joriy qilish A.A.Abduqodirov, M.M.Aripov, U.Sh. Begimqulov, R.X.Djuraev, N.I.Taylaqov, Sh.Abduraimov, D.N.Mamatov; tarix o'qitish metodikasini takomillashtirish, o'quvchilarda tayanch va fanga doir xususiy kompetentsiyalarni shakllantirish: A.T.G'ofurov, J.O.Tolipova, M.Lutfullaev, G.S.Ergasheva, A.K.Raximov, I.Azimov, N.J.Toshmanov kabilar tomonidan tadqiq qilingan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida o'quvchilarning bilish faolligini oshirish, integrativ ta'lim yondashuvlari, tayanch va fanga doir xususiy kompetentsiyalarni shakllantirish muammolari: S.L.Atanasyan, L.G.Axmetov, V.P.Bespal`ko, G.A.Berulova, L.O.Bilimxanova, M.M.Bondaruk, O.V.Berejnaya, Z.I.Valieva, O.YU.Marchukova, I.V.Nikishina, L.V.Pivovarova, N.Z. Smirnova, N.F.Radionova, A.P.Tryapitsina, L.I.Svetkova, A.V. Shutenko,

A.I.Yudin, A.V.Xutorskoy kabi olimlar tomonidan o'rganilgan.

Xorijiy davlatlarda oliy ta'lim jarayoniga integrativ texnologiyalarni joriy qilish, pedagogik va axborot texnologiyalarni rivojlantirish, o'quvchilarning bilish va tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirish sohasida C.Veld, S.H.Irons, A.A.Levesque, S.R.Simonson, S.E.Shadle, D.F.Slish, M. K.Smith, C.Trujillo, A.Sorgo, B.J.Tewksbury, M.P.Shaver, J.H.Hageman, S.Hennessy, J.D.Walker kabilar tadqiqot olib borgan.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlarda ta'limda integrativ texnologiyalardan foydalanish, o'quvchilarning tayanch va fanga doir xususiy kompetentsiyalarini shakllantirish sohasida nazariy va amaliy ahamiyatga ega ayrim yondashuvlar ilgari surilgan bo'lsa-da, tarixni o'qitishda elektron ta'lim resursidan foydalangan holda integrativ yondashuv asosida o'quvchilarning tayanch va fanga doir xususiy kompetentsiyalarini shakllantirish metodikasi maxsus tadqiq qilinmagan.

Jahonda ijtimoiy fanlar, jumladan, tarixni o'qitish jarayonida o'quvchilarning ijtimoiy-ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish, umumiy o'rta ta'lim tizimida fanlarni integratsiyalab o'qitish mexanizmlarini yaratish, pedagogik va didaktik asoslarini aniqlash hamda amaliyotga tatbiq etish, biologik bilimlarni kundalik va hayotiy faoliyatda qo'llay olish layoqatini oshirish, bilimlarni to'liq o'zlashtirish texnologiyasini takomillashtirish, vitagen ta'limni qo'llash borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Mazkur tadqiqotlar darslarda pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini integrativ yondashuv asosida qo'llash, o'quvchilar kompetentsiyalarini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Mamlakatimizda ta'lim sohasini rivojlantirish, ta'lim muassasalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ta'lim muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar o'qitish jarayoniga xalqaro tajribalarni samarali tatbiq etish, o'quvchilarning tabiiy-intellektual qobiliyatini rivojlantirishda integrativ ta'lim texnologiyalaridan foydalanish darajasini oshiradi.

Shu sababli integrativ yondashuv asosida o'quvchilarda tayanch va fanga doir xususiy kompetentsiyalarni shakllantirish metodikasini elektron ta'lim resurslaridan foydalanish asosida takomillashtirish lozim.

O'quvchilarda tayanch va fanga doir kompetentsiyalarni shakllantirishning pedagogik va informatsion tarkibiy asoslarini aniqlashtirish; integrativ yondashuvga asoslangan o'qitishning ta'lim amaliyotiga joriy etish mexanizmini takomillashtirish, shuningdek o'quvchilarda tayanch va fanga doir xususiy kompetentsiyalarni shakllantirishning metodik tizimini ishlab chiqish kerak.

Ilmiy izlvnishlar asosida ta'limda integrativ yondashuvni qo'llash orqali:

o'quvchilarda tayanch va fanga doir xususiy kompetentsiyalarni shakllantirishda integratsiyalashgan yondashuvlarga (kogerentlik, sinektika, introektsiya) asoslangan elektron axborot-ta'lim resursi ishlab chiqish;

integrativ yondashuv asosida o'quvchilarda tayanch va fanga doir xususiy kompetentsiyalarni shakllantirishning axborot-metodik ta'minoti yaratish;

shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosida tarix fanidan virtual laboratoriyalarni tashkil etish metodikasi ishlab chiqish;

elektron ta'lim muhitida o'quvchilarning tayanch va fanga doir xususiy kompetentsiyalarini shakllantirishga xizmat qiladigan metodik tavsiyalar ishlab chiqish natijasida ta'lim samaradorligiga hissa qo'shish mumkin.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risidagi” O‘RQ 637-sonli qonuni (Law of the Republic of Uzbekistan on Education), available at: https://lex.uz/docs/-5013007
2. Allamova SH.SH.: Oliy ta’lim tizimida aralash ta’lim texnologiyalarini tahlili. Замонавий таълим/ Современное образование, 2022, 11 (120)

3. Ashurova D.: Аралаш таълим моделлари. Ўзбекистонда хорижий тиллар, 2021, №. 1(36),115-127
4. Mingbaeva B.U. “Aktual'nye problemy doshkol'nogo i nachal'nogo obrazovaniya” (Actual problems of preschool and primary education), interuniversity scientific and practical conference, Bukhoro, 2019, pp. 305.
5. Stacey E., Gerbic P. Success Factors for Blended Learning avaible at: http://www.ascilite.org/conferences/melbourne08/procs/stacey.pdf (reqest date:5.06.2020)
6. FriensenN. Blended Learning, Avgust 2012, avaible at: https://www.normfriesen.info/papers/Defining Blended LearningNF.pdf (request date:21.06.2020)
7. Babaxodjaeva L.G. Talabalarning pedagogik kompetentligini rivojlantirish jarayonida aralash ta’lim modelini joriy etishning nazariy va amaliy asoslari, avtoreferat. — T.: CHDPU, 2021. — 16 b.
8. Костина, Е. В. Модель смешанного обучения (Blended Learning) и ее использование в преподавании иностранных языков // Известия высших учебных заведений, 2010. № 2(1). С. 14
9. R.Mavlonova, N.Voxidova, N.Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. –T.:”Fan va texnologiya ”, 278 bet.
10. Staker H., Horm M. B. Classifyying K-12. Blended Learning. A vaible at: https://www.christenseninstitute.org/wp-content/uploads/2013/04/Classifying -K-12-blended-learning.pdf
11. Graham C. R. Blended learning systems: Definition, current trends, and future directions. In: Bonk C. J., Graham C. R. The handbook of blended learning: Global perspectives, local designs. San Francisco, CA: Pfeiffer Publishing; 2006. p. 3–21

UMUMTA’LIM MAKTABILARIDA ARALASH TA’LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Jumakulova Mavludaxon Xosilovna
Andijon davlat universiteti tayanch doktaranti

https://doi.org/10.5281/zenodo.7930637

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim jarayonida texnologiyalar va eng samarali innovatsion usullarni qo‘llash, ta’lim jarayonida elektron ta’limning ahamiyati, aralash ta’lim tushunchasi xususida adabiyotlarda berilgan bir qator mahalliy va xorijiy olimlarning fikr-mulohazalari, ta’riflari, yurtimizda va jahonda ro‘y berayotgan pandemiya, turli tabiiy ofatlar sharoitida aralash ta’limni joriy etishning afzalliklari, aralash ta’limning eng ko‘p qo‘llaniladigan modellarining tasnifi, qo‘llash usullari, o‘quv jarayonida qo‘llashning afzalliklari, kamchiliklari keltirib o‘tilgan. 2020-yilda butun dunyo bo‘ylab COVID-19 pandemiyasining keng tarqalishi va uning oqibatida aralash ta’lim modellaridan foydalanishga ehtiyoj yuqori darajaga ko‘tarildi. Hamma pedagoglar o‘quv mashg‘ulotlarida raqamli xizmatlardan foydalana boshladilar. Maqolada aralash ta’limning almashish modeli (Rotation), moslashuvchan model (Flex), (Self-blend) va kengaytirilgan-virtual model (Enriched-Virtual) ta’lim jarayoniga tadbiq etish, shuningdek, bu modellarning afzalliklari va kamchiliklari keltirilgan. Maqolaning xulosa qismida aralash ta’limning mazmuni va aralash ta’lim jarayonini tashkil etishning pedagogik asoslari yoritib berildi.*

Kalit so‘zlar*: aralash ta'lim, elektron ta’lim, almashish modeli, moslashuvchan model, maxsus aralash model, masofaviy ta’lim.*

Kirish. Fan va texnikaning tez sur’at bilan rivojlanishi, turli sohalarida jahon tizimlarining integrasiyalashuvi va globallashuvi, O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o‘tilishi, o‘sib kelayotgan yosh avlodni barkamol shaxs sifatida shakllantirilishga tobora yuqori talablar qo‘ymoqda. Jahonda ro‘y berayotgan pandimeya, turli tabiiy ofatlar sharoitida ta’limning nafaqat kunduzgi, masofaviy (onlayn), eksternat shakllarida o‘quvchilar ta’lim olayotganligi, integrasiyalashuv va globallashuv jarayoniga bog‘liq holda ta’limning mazmun-mohiyati informasion muhit ta’sirida o‘zgarishiga olib kelmoqda, xususan, keyingi vaqtlarda modulli ta'lim tizimida majmuaviy yondashuv tamoyili kuchayib bormoqda. Unda turli shakl, usullar moslashtirilgan holda joylashtirilishi aralash ta'limning innovatsiya sifatida kirib kelishiga sabab bo'ldi. Zamonaviy ta’lim tizimiga aralashtirilgan ta’lim (blended learning) jadallik bilan kirib kelmoqda. Shu sababli aralash ta’lim jarayonida o‘qituvchilar o‘z oldiga muhim vazifa o‘z-o‘zini idrok etish salohiyati, yangi intellektual darajaga ega bo‘lgan mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantirishni asosiy vazifalardan biri sifatida qo‘yilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan 637-sonli “Ta’lim to‘g‘risidagi” qonunida masofaviy ta’lim o‘quv rejalari va o‘quv dasturlariga muvofiq ta’lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko‘nikmalarni axborotkommunikatsiya texnologiyalaridan hamda internet jahon axborot tarmog‘idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilganligi [1] va masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, onlayn, “blended learning”, “flipped classroom” texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish kabi vazifalar dolzarb vazifalar qatoriga kiradi[2]. Aralash ta’limni amalga oshirish pedagogdan yuqori malakani talab etadi, bunda:

Akt kompetentligi yuqori bo‘lishi, axborot texnologiyalari texnik va dasturiy vositalardan samarali foydalanish, ta’limni boshqarish tizimini bilish;

Fan bo‘yicha o‘quv kontenti (mazmuni)ni mustaqil ishlab chiqish, ammo har qanday o‘quv resurslar ham aralash ta’lim tizimi uchum mos kelmasligi mumkin;

Har bir o‘quvchi imkoniyatini hisobga olgan holda ta’lim jarayonlarini tashkil etish.[3]

Asosiy qism. Aralash ta’lim an’anaviy yuzma-yuz ta’lim (Face to Face) va masofaviy ta’limni o‘zida jamlashtirgan va an’anaviy darslarning ma’lum bir qismini masofaviy muhit bilan almashtirishni o‘z ichiga olgan model sifatida tushuniladi. Aralash ta’lim o‘quv dasturi hisoblanib, unda o’quvchilar dasturning ma’lum qismida elektron, onlayn formatda o‘qitiladi va shu bilan bir qatorda o‘rganish vaqti, o’quv reja va tezligini nazorat qilish o’qituvchi zimmasida bo’ladi; qisman o‘qitish o’quvchining uyidan tashqarida yoki uy ichida amalga oshiriladi. Albatta, bunday o‘rganish natijasida integratsiyalashgan o‘rganish tajribasini ta’minlash uchun turli usullardan foydalaniladi.

Adabiyotlarda aralash ta’limning bir qator ta’riflari taklif qilingan. Bunday yondashuv axborotni taqdim etishda turli uslubiyotlardan foydalanishni, ta’limni tashkil etishda va ta’lim jarayonida axborot texnologiyalari, yakka tarzda va guruhlarda an’anaviy faoliyatni tashkil etishga asoslanishi mumkin. Bunday turlicha yondashuv o‘quvchini charchatmaydi va o‘qishga bo‘lgan motivlarini kuchaytiradi [4]. I. Steysi va P.Gerbikning ta’riflariga ko’ra, aralash ta’lim hech bo’lmaganda “virtual va jismoniy muhitlarning kombinatsiyasini” o’z ichiga olishi kerakligini ilmiy nuqtai nazardan ilgari suradilar.[5]

Atama soha doirasida ilk marta 1999 yili Atlantada joylashgan Interactive Learning Centres ta’lim kompaniyasi tomonidan EPIC Learning deb nomlangan press-relizda qo’llanilgan: “kompaniya hozirgi kunda 220 ta online kurslarni ishlab chiqqan, yaqin kunlarda kompaniya Blended Learning metodologiyasidan foydalangan holda o’z internet dasturlarini taklif qila boshlaydi”- deb yoziladi press-relizda [6].

Mahalliy tadqiqotchilardan L. G. Babakhodjayeva aralash ta’limga quyidagicha ta’rif beradi: Aralash ta’lim — an’anaviy kunduzgi, masofaviy va mustaqil ta’limni birlashtiruvchi o‘qitish tizimi bo‘lib, u o‘qituvchilar, ta’lim oluvchilar va axborotning interfaol manbalarining o‘zaro ta’sirlashishini qamrab oladi, doimo o‘zaro aloqada bo‘lgan va bir butunlikni tashkil etgan o‘quv jarayoniga xos barcha komponentlar (o‘qitishning maqsadi, mazmuni, metodlari, tashkiliy shakllari, vositalari)ni aks ettiradi [7].

Shunday qilib, zamonaviy ta’lim muhitida qo‘llaniladigan aralash ta’lim modelining uchta asosiy komponenti mavjud:

- kunduzgi ta’lim (yuzma-yuz) - o‘qituvchi-talabaning sinfdagi an’anaviy formatidir;
- mustaqil ta’lim - talabalarning mustaqil ishlarini o‘z ichiga oladi: resurs xaritasi yordamida materiallarni qidirish, tarmoqda ishlash va h.k.;
- onlayn ta’lim (onlayn hamkorlikda o‘rganish) - talabalar va o‘qituvchilarning onlayn ishi, masalan, Internet konferentsiyalari, Skype yoki wiki va boshqalar[8].

Dunyoda ta’lim tizimiga masofaviy ta’limning alohida shakli sifatida o’quv jarayoniga joriy etilmoqda.

Masofaviy ta’lim axborot texnologiyalari, telekomunikatsiyalar asosida kechadigan pedagogik jarayondir.

Masofaviy o‘qitish bu, maxsus psixologik-pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalar muhitida, bir-biridan uzoqda bo‘lgan qatnashchilarning bilvosita aloqasiga asoslangan holda bilim, malaka, ko‘nikma va ularni egallash usullarini uzatish va o‘zlashtirish jarayonidir [9].

Klassik ma’noda, aralash ta’lim – bu “masofadan o‘qitish kursi tarkibiga faol o‘qitish usullari yordamida yuzma-yuz o‘rganishni kiritish orqali amalga oshiriladigan ta’lim”. Bizning holatimizda, maktab o‘quvchilariga aralash o‘qitish tarzida o’quv darslarini o‘rgatishda quyidagilarga e’tibor qaratiladi:

a) maktab o‘quvchilari nazariy materiallarni masofadan turib o‘zlashtiradilar, bu esa har bir o‘quvchiga nazariy materialni to‘liq o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan vaqtni nazariyani o‘rganishga ajratishga imkon beradi;

b) nazariy materiallarni mustahkamlash uchun berilgan topshiriqlar har doim onlayn tarzda tekshiriladi. Bunday holda, o‘quv fanining o‘ziga xos xususiyatini o‘rgatishdan foydalaniladi: dasturlash kodlarini onlayn tekshirish uchun dasturiy vositalar mavjud, bu o‘qituvchiga nafaqat darsdagi topshiriqlarni tez tekshiribgina qolmay, balki o‘quvchi uy vazifasini bajarayotganda test natijasini bilishi;

c) yuzma-yuz uchrashganda, maktab o‘quvchilari o‘rganilayotgan mavzuning asosiy darajasini o‘zlashtirgan deb aytish mumkin, chunki ular nazariyani o‘rganib, uni amalda mustahkamlab, asosiy vazifalarni avtomatik tekshirish tizimiga o‘tkazadilar;

d) yuzma-yuz uchrashuvlarda o‘rganilayotgan mavzuning murakkab jihatlari ko‘rib chiqiladi;

e) har bir o‘quvchi uchun individual o‘quv trayektori amalga oshiriladi: bu o‘quvchi materialni o‘z tezligida o‘zlashtirgan holda, u to‘xtatgan material haqida savollar berish imkoniyatiga ega bo‘lganligi tufayli mumkin;

f) vaqt o‘tishi bilan o‘qitishning faol usullaridan foydalanish mumkin bo‘ladi.

Masofaviy o‘qitish jarayoni ta’lim sohasiga nafaqat zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari, balki bir qator yangi tushuncha va atamalarni olib kirdi:

virtual sinf(guruh);
o‘qitishning ta’limoti;
o‘quv telekomunikatsiya loyihalari;
teskari aloqa
dialogli texnologiya;
kompyuter aloqasi;
telekonferensiya;
kordinator, moderator, telekonferensiya fasilitatorlari, tyutor[9].

Xorn va Steyker to‘rtda modelning tipologiyasi bilan ishlaydi[10]. Ularning ilmiy qarashlari to‘rtta o‘ziga xos model asosida ajratilgan:

a) almashish modeli (Rotation Model), onlayn va o’quv xonasidagi an’anaviy o’qish boshqa ko’rinishlar bilan almashinib turadi;

b) moslashuvchan model (Flex Model), bunda talabalar asosan individual ravishda oldindan tayyorlangan jadval asosida online o’qitish bilan to’ldiriladi;

c) maxsus aralsh model (Self-blend Model), bunda o’quvchilarga dars an’anaviy mashg’ulotlar tarzida olib borilib, tashkil etilgan qo’shimcha online kurslarga kampusda ishtirok etish orqali bilimlarini mustahkamlaydilar;

d) kengaytirilgan virtual model (Enriched Virtual Model), unda ta’lim asosan oyline rejimda bo’lib, vaqti-vaqti bilan talabalar an’anaviy o’qish uchun ta’lim muassasasiga tashrif buyurishadi [3].

Mutaxassislar aralash ta’limning quyidagi afzalliklarini aniqlaydilar:

- ham sinxron, ham asinxron interaktivlik va aloqa imkoniyati;
- vaqtinchalik va cheksiz foydalanish;
- moslashuvchanlik va qulaylik;
- ta’lim mazmunining arzonligi;
- o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqini oshirish;
- o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish[2].

Shuningdek, aralash ta’limning mazmun-mohiyati bilim olishning an’anaviy va electron/masofaviy formatlarini muvofiqlashtirish, texnik xizmat ko‘rsatishdan iborat.

Aralash ta’limda o‘quvchilarga masofaviy ta’lim tizimidan va o‘quv manbalaridan online yoki ofline foydalanishga to‘liq ruxsat beriladi. O‘quvchilar bu tizimda online kutubxonalar va manbalar foydalana oladilar.

O‘quvchilar nazorat ishlarining bir qismini onlayn tizimda topshirishadi. Shuningdek, tizimda o‘qituvchi tomonidan guruhli muloqotlar uyushtiriladi va to‘liq loyihalar amalga oshiriladi.

Aralash ta’lim modeli foydalanuvchilarga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- online rejimida o‘quv materiali bilan xohlagan vaqtda tanishish.
- sinov testini topshirib bilimini sinash;
- nazorat testini topshirish;
- o‘tilgan mashg‘ulotlarga mos qo‘shimcha manbalar bilan tanishish;
- audio va video yozuvlardan, animatsiya va simulyatsiyalardan foydalanish;
- E-mail dan foydalanish va forumlarda ishtirok etish;
- ma’ruzadan tashqari o‘qituvchi-talaba va talabalar o‘rtasida muloqot tashkil etish[2].

Xulosa. Maqola so‘ngida adabiyotlar tahlil qilib, shunday xulosalarga kelish imkonini berdi:

1. Umumta’lim maktablarida aralash ta’lim tushunchasining kirib kelishi ta’lim jarayonining mazmuni va shakllarining qisman o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatadi, shuningdek, ta’lim jarayonida yangi shakllarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi.

2. Aralash ta’limning didaktik imkoniyatlari umumta’lim maktablarida fanlarni o‘zlashtirish jarayonini tezlashtiradi, shu qatorda o‘quvchilarning kompyuter savodxonligini, raqamli xizmatdan foydalanish kompetensiyalarini rivojlantirish va boshqa ta’lim platformalaridan foydalanaish, o‘quv mehnati samarasini, mustaqil o‘zlashtirish samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi.

REFERENCES

12. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risidagi” O‘RQ 637-sonli qonuni (Law of the Republic of Uzbekistan on Education), available at: https://lex.uz/docs/-5013007
13. Allamova SH.SH.: Oliy ta’lim tizimida aralash ta’lim texnologiyalarini tahlili. Замонавий таълим/ Современное образование, 2022, 11 (120)
14. Ashurova D.: Аралаш таълим моделлари. Ўзбекистонда хорижий тиллар, 2021, №. 1(36),115-127
15. Mingbaeva B.U. “Aktual'nye problemy doshkol'nogo i nachal'nogo obrazovaniya” (Actual problems of preschool and primary education), interuniversity scientific and practical conference, Bukhoro, 2019, pp. 305.

16. Stacey E., Gerbic P. Success Factors for Blended Learning avaible at: http://www.ascilite.org/conferences/melbourne08/procs/stacey.pdf (reqest date:5.06.2020)
17. FriensenN. Blended Learning, Avgust 2012, avaible at: https://www.normfriesen.info/papers/Defining Blended LearningNF.pdf (request date:21.06.2020)
18. Babaxodjaeva L.G. Talabalarning pedagogik kompetentligini rivojlantirish jarayonida aralash ta’lim modelini joriy etishning nazariy va amaliy asoslari, avtoreferat. — T.: CHDPU, 2021. — 16 b.
19. Костина, Е. В. Модель смешанного обучения (Blended Learning) и ее использование в преподавании иностранных языков // Известия высших учебных заведений, 2010. № 2(1). С. 14
20. R.Mavlonova, N.Voxidova, N.Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. –T.:”Fan va texnologiya ”, 278 bet.
21. Staker H., Horm M. B. Classifyying K-12. Blended Learning. A vaible at: https://www.christenseninstitute.org/wp-content/uploads/2013/04/Classifying -K-12-blended-learning.pdf
22. Graham C. R. Blended learning systems: Definition, current trends, and future directions. In: Bonk C. J., Graham C. R. The handbook of blended learning: Global perspectives, local designs. San Francisco, CA: Pfeiffer Publishing; 2006. p. 3–21

MATEMATIKADAN ISHCHI DAFTARLARNI YARATISH VA ULARDAN FOYDALANISH BO`YICHA TAVSIYALAR

[1]Navruzbek Tolipov Adhamjon o`g`li, [2]Umidjon Ne'matov Shokirjon o'g'li

[1,2]Fizika-matematika fakulteti 4-bosqich talabasi, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti**,** E-mail: navruzbektolipov21@gmail.com

https://doi.org/10.5281/zenodo.7930645

Anatatsiya*. Maqolada matematikadan ishchi daftar yaratish va darslarda ishchi daftarlardan foydalanish 6-sinf “Qarama-qarshi sonlar. Sonning moduli” mavzusi asosida ko`rib chiqilgan.*

Kalit so’zlar*: Ish daftar, qarama-qarshi son, sonlarni taqqoslash, sonning moduli, sodda modulli tenglama.*

So`ngi yillarda yurtimizda ta`lim tizimida ulkan islohatlar amalga oshirilgani hammamizga ma`lum. Xususan, maktablarda matematika fanini o`qitish samaradorligini oshirishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Buning natijasida matematika fanini o`qitish jarayonida zamonaviy ta`lim metodlari hamda didaktik vositalardan foydalanilmoqda. Shuningdek dars jarayoni o`qituvchining faolligidan o`quvchining faolligiga tamon yo`naltirilmoqda. O`quvchining darsdagi faolligini bevosita ta`lim samaradorligiga olib keladi. O`quvchining darsdagi faolligini oshirishning bir qancha usullari mavjud bo`lib, misol sifatida dars jaroyonida ishchi daftarlardan foydalanishni ko`rsatishimiz mumkin.

Ish daftarlar odatda o`quvchilarning darsda olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo`llash uchun foydalanadigan didaktik vosita hisoblanadi. Ishchi daftaflar barcha dars turlarida, ya`ni yangi mavzu mazmunini bayon qilish darsi, yangi mavzuni mustahkamlash darsi, o`quvchilarni bilim, ko`nikma va malakalarini tekshirish darsi, o`quv materialini takrorlash va umumlashtirish darsi, aralash dars qo`llanilishi mumkin. Bundan tashqari o`quvchining mustaqil ta`lim jarayonini tashkil etishda va past o`zlashtiruvchi o`quvchilar bilan qo`shimcha ishlarni tashkil etishda ham samarali vosita hisoblanadi. Ishchi daftarni tuzishda daftarning qanday dars turida foydalanilishiga qarab topshiriqlar tizimini ishlab chiqish mumkin.

Quyida biz ish daftarini yaratish bo‘yicha bir necha umumiy qadamlarni sanab o`tamiz:

1. O'quv maqsadlarini aniqlang: Ishchi daftarida ko'zda tutilgan o'quv maqsadlarini aniqlang.

2. O`quvchilaringiz qaysi mavzular, tushunchalar yoki ko‘nikmalarni o`rganishi va mashq qilishini xohlayotganingizni ko‘rib chiqing.

3. Mashqlarni tanlang: Darsliklar va onlayn resurslar kabi turli manbalardan mashqlarni tanlang. Mashqlar o‘quv maqsadlariga mos kelishi hamda o‘quvchilaringizning sinf darajasi va qobiliyatlariga mos kelishiga ishonch hosil qiling.

4. Mazmunni tartibga soling: Mashqlarni mavzu bo'yicha tartiblang, shunda o'quvchilar osongina harakat qilishlari va tegishli mashqlarni topishlari mumkin. O`quvchilarga har bir mashqni bajarish uchun aniq ko‘rsatmalardan foydalaning va kerak bo‘lganda misollar keltiring.

5. Vizual tasvirlarni qo'shing: O'quvchilarga materialni tasavvur qilish va tushunishga yordam berish uchun rasmlar, chizmalar, diagrammalar kabi vizual materiallarni qo'shing. Bu ishchi daftarini yanada qiziqarli va tushunishni osonlashtiradi.

6. Mulohaza va javob kalitlarini ko'rib chiqing: O`quvchilaringiz uchun qanday fikr va javob berishingizni aniqlang. Ish daftarining oxiriga javob kalitlari yoki yechimlarni qo‘shish yoki sinf muhokamasi yoki individual uchrashuvlar orqali fikr-mulohaza bildirishni ko‘rib chiqing.

7. Ko'rib chiqing va qayta ko'rib chiqing: Ishchi daftarni o'quvchilaringizga tarqatishdan oldin uni izchillik, aniqlik va ravshanlik uchun ko'rib chiqing. Zarur bo'lganda tuzatishlar kiriting va iloji bo'lsa, hamkasblar yoki boshqa ekspertlar ham uni ko'rib chiqishlarini so'rang.

8. Ishchi daftarni tarqating va qo'shing: Nihoyat, ishchi daftarni o'quvchilaringizga taqdim eting va uni darslaringizga qo'shish yo'llarini toping. Mashqlarni uy vazifasi sifatida belgilash yoki ularni sinfda individual yoki guruh faoliyati sifatida ishlatishni ko'rib chiqing.

Endilikda biz ishchi daftardan dars jarayonida qanday foydalanishni 6-sinf “Qarama-qarshi sonlar. Sonning moduli” mavzusi asosida ko`rib chiqaylik.

Mavzu: Qarama-qarshi sonlar. Sonning moduli

1-topshiriq. Jadvalni to`ldiring:

Berilgan son	Qarama-qarshi son	Berilgan son	Qarama-qarshi son
-8	$-(-8)=8$	-5	$-(-5)=$
$+15$	$-(+15)=-15$	-27	$(\quad 27)=$
$+129$	$-(\qquad)=-$	9056	$(9056)=$

2-topshiriq. Tenglik to`g`ri bo`lishi uchun bo`sh joylarga qanday sonlar qo`yish kerak:

$a)-(\qquad)=-14$	$b)-(\qquad)=+79$	$c)-(\qquad)=-491$
$d)-(8)=$	$f)-(\quad)=\quad 7$	$e)-(\qquad)=\quad 74$

3-topshiriq. ifodaning qiymatiga a) qarama-qarshi sonni; b) teskari sonni toping:

$a)\ 1{,}5\cdot 4{,}8+1{,}5\cdot 5{,}2=1{,}5\cdot(4{,}8+5{,}2)=1{,}5\cdot 10=15$

15 ga qarama-qarshi son -15, 15 ga teskari son $\frac{1}{15}$

$b)\ 5{,}2\cdot 9{,}8-3{,}8\cdot 5{,}2=$

ga qarama-qarshi son ga teskari son


$d)\ 3{,}2\cdot 3{,}5+3{,}5\cdot 6{,}8=$

ga qarama-qarshi son ga teskari son

$e)\ 16{,}4\cdot 15{,}3-16{,}4\cdot 5{,}3=$

ga qarama-qarshi son ga teskari son

4-topshiriq. Berilgan sonlarning modulini toping.



5-topshiriq. $-12, 32, -4, -8, 11, -16, 0$ sonlarining modullari o`sish va kamayish tartibida yozing.

0	<		<		<	11	<		<		<	32
32	>		>		>		>	8	>		>	0

6-topshiriq. Hisoblang:

$a)\ |-15| + |-67| - |-3| \cdot |4| = 15 + ___ - 3 \cdot __ = 15 + ____ + ____ = ____$

$b)\ |-36| + |-36| : |-4| - |-4| =$ _____ + _____: ____ − ____ = _____

$c)\ |-17| + |-13| - |-12| : |3| =$ _____ + ____ + ____: _____ = _____

7-topshiriq. $3|a| - |b| + |a|$ ifoaning qiymatini toping, bunda

$a = -24\ va\ b = -14;$
$3|a| - |b| + |a| =$

$a = -32\ va\ b = -45;$
$3|a| - |b| + |a|$

$a = 7\ va\ b = -20;$
$3|a| - |b| + |a| =$

$a = -5\ va\ b = 15;$
$3|a| - |b| + |a| =$

8-topshiriq. Tenglamani yeching:

$a)\ \|x\| = 2$	
$1 - hol.$ $x > 0$ $x = 2$	$2 - hol.$ $x < 0$ $-x = 2$

	$x = -2$
$Javob: x = 2, \quad x = -2$	
$b)\ \|x\| = 5$	
$1 - hol.$ $x > 0$ $x = __$	$2 - hol.$ $x < 0$ $-x = __$ $x = __$
$Javob:\ x = ___,\quad x = ___$	
$c)\ \|x - 7\| = 3$	
$1 - hol.$ $x > 0$ $x - 7 = 3$ $x = 3 + 7$ $x = ____$	$2 - hol.$ $x < 0$ $-(x - 7) = 3$ $-x + 7 = 3$ $-x = 3 - ___$ $-x = -4$ $x = ___$
$Javob: x = ___\quad x = ___$	

Xulosa qilib aytganda dars jarayonida ishchi daftardan foydalanish o`quvchining darsdagi faolligini oshiruvchi didaktik vosita hisoblanadi. Dars mashg`uloti vaqtida hamda darsdan tashqari ishlarni tashkil etishda ishdi daftardan foydalanish matematika fani o`qitish samaradorligini oshiruvchi muhim vositadir.

REFERENCES

1. M.Tojiyev, M.Barakayev, A.Xurramov “ Matematika o`qitish metodikasi”. T.: Fan va texnalogiya. 2017. – 295 b.
2. Торогелдиева К. М. Теория и методика обучения математики. – Б.: 2014. I часть.– 135 с.
3. M.A.Mirzaahmedov, A.A.Rahimqoriyev, Sh.N.Ismoilov, M.A.To`xtaxodjayeva. Matematika. Umumiy o`rta ta`lim maktablarining 6- sinfi uchun darslik. “O`qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent - 2017. –240 b.
4. Cambridge Primary Ready to Go Lessons for Math Stage 5. Answers and photocopiable pages.
5. Т.М.Ерина. Рабочая тетрадь по математике. Часть 1. Учебно-Методический комплект. «Экзамен». Масква – 2013. –112 с.

IJTIMOIY-MADANIY MUHITNI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANING O‘RNI

Muminova Gulnozaxon Sulton qizi,
T.N.Qori Niyoziy nomidagi O’zbPFITI tayanch doktoranti

https://doi.org/10.5281/zenodo.7930659

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalarni samarali amalga oshirish masalalari, pedagogik texnologiyaning mohiyati va undan foydalanishning ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida pedagoglarning kasbiy mahoratini va ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish yo‘llari ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Innovatsion pedagogika, pedagogik texnologiya, kasbiy mahorat, metod, innovatsiya, tadqiqot.*

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ta’lim tizimini rivojlantirish, kadrlarni malakasini oshirish hamda ularni qayta tayyorlash sohasi tubdan isloh qilinmoqda. Uni o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to‘la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma’naviy va ahloqiy talablarga javob beruvchi yetuk mutaxassislar tayyorlash tizimini yaratishga alohida e’tibor qaratilyapti.

Bunda innovatsiyalar, ilg‘or innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, shu bo‘yicha zarur huquqiy mexanizmlarni yaratishga ustuvor yo‘nalish sifatida qaralayotgani muhimdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida 2018-yilga “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo’llab quvvatlash yili” deb nom berishni taklif etdi. Davlatimiz rahbari innovatsiyaning ahamiyati tog‘risida quyidagilarni ta’kidladi: «Innovatsiya bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak». 2018-yilda Respublikamizda innovatsiyalarni rivojlantirishning asosiy vazifalari qatorida quyidagilar belgilandi: «Kelgusi yilda ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, buning uchun zarur moliyaviy resurslarni safarbar etish, ushbu jarayonda iqtidorli yoshlar ishtirokini, ijodiy g‘oya va ishlanmalarni har tomonlama qo‘llab quvvatlash vazifasi e’tiborimiz markazida bo’ladi» [1]

Shu o‘rinda “innovatsiya” tushunchasiga to‘xtalib o‘tsak, “innovatsiya” tushunchasi (lotincha novus yangi) tadqiqotlarda va ilmiy ishlarda XIX asrlarda qo‘llanila boshlagan. Avval u alohida elementlarni bir sohadan boshqa sohaga kiritishni ifodalagan. Texnikaviy yangiliklar kiritish qonuniyatlarini o‘rganib firmalar foyda olish uchun «innovatsion siyosatni» butun bir tizim sifatida o‘zlashtirishdi. Mazkur faoliyat jamiyat hayotining ixtiyoriy bo‘g‘inini yangilash bo‘yicha umumiy belgilarga, qonuniyatlar, yangilik kiritish mexanizmiga ega. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayonda o‘qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o‘zgartirishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi.

Pedagogik innovatsiya bu pedagogik faoliyatdagi yangilik, o‘qitish va tarbiya mazmuni va texnologiyasidagi o‘zgarishlar, ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan. Innovatsiya - innovatsiya natijasi sifatida tushuniladi va innovatsion jarayon uchta asosiy bosqichning rivojlanishi sifatida qaraladi: g'oyani yaratish (ma'lum bir holatda, ilmiy kashfiyot), amaliy jihatlarda g‘oyalarni rivojlantirish va yangiliklarni amaliyotga tatbiq etish. [2.77]

Pedagogik innovatsiyalarning mazmuni, uni qo‘llash metodlarini bo‘lajak o‘qituvchilar tajribasiga singdirish muhim ahamiyatga ega. Ta’lim muassasasi hayotiga pedagogik innovatsiyalarni keng ko‘lamda olib kirish uchun unda yangilik muhitini yaratish, muayyan axloqiy psixologik holatni shakllantirish, tashkiliy, metodik, psixologik xarakterdagi chora-tadbirlarni qo‘llash talab etiladi. Shu maqsadda bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ funksiyalarini rivojlantirish, ularni pedagogik innovatsiyalar bilan izchil qurollantirib borish, innovatsion usullarni tahlil va tatbiq qilishga o’rgatish vazifasini kuyish lozim[2.78]

Pedagogik texnologiya — ta’lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘lash, texnologik yondashuv asosida ta’lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o‘rganadi[2.56]. Texnologiya so‘zining lug‘aviy ma’nosiga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, ushbu so‘z yunonchadan olingan bo‘lib,”tehnos”-mahorat, san’at ”logos” -ta’limot, fan ma’nolarini anglatadi. Bundan kelib chiqadiki, texnologiya so‘zi boshqa terminlarga qo‘shilib, ana shu sohani rivojlantirish, mahoratini oshirish vazifalarini bajaradi. Umumiy qilib aytganda, texnologiya sifat jihatdan yangi masalalarni yechish uchun ta’lim evolutsiyasi bosqichini tayyorlagan obyektiv jarayondir.

O‘qituvchi (pedagog)ning o‘qitish vositalari yordamida o‘quvchi-talabalarga muayyan sharoitlarda ko‘rsatgan tizimli ta’siri natijasida ularda jamiyat uchun zarur bo‘lgan va oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarni jadal shakllantiruvchi ijtimoiy hodisa yoki boshqacha aytganda, o‘qituvchi tomonidan o‘qitish vositalari yordamida o‘quvchilarga ta’sir ko‘rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilab olingan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayoni deb ta’riflash mumkin. Professor N.Saidahmedovning fikricha, “Texnologiya shaxsni o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirish qonunlarini o‘zida mujassamlashtirgan va yakuniy natijani ta’minlaydigan pedagogik faoliyatdir” [3.52]. Texnologiya tushunchasi regulyativ (tartibga solib turuvchi) ta’sir etish kuchiga ega bo‘lib, erkin ijod qilishga undaydi:

4. samarador o‘quv-bilish faoliyatining asoslarini topish;
5. uni ekstensiv (kuch, vaqt, resurs yo‘qotishga olib keladigan samarasiz) asosdan ko‘ra intensiv (jadal), mumkin qadar ilmiy asosda qurish;
6. talab etilgan natijalarni kafolatlaydigan fan va tajriba yutuqlaridan foydalanish;
7. o‘qitish davomida tuzatishlar ehtimolini loyihalash metodiga tayangan holda yo‘qotish;
8. ta’lim jarayonini yuqori darajada axborotlashtirish va zaruriy harakatlarni algoritmlash;
9. texnik vositalarni yaratish, ulardan foydalanish metodikasini o‘zlashtirish va boshqalar.

Shular asosida, oliy malakali ilmiy va ilmiy pedagog kadrlar tayyorlash hamda attestatsiyadan o‘tkazish tizimi yanada takomillashtirilmoqda, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim bosqichiga qator yangiliklar tatbiq etilmoqda. Shuningdek, dissertatsiya tadqiqotlarining sifati, ilmiy va amaliy ahamiyatini oshirish bo‘yicha zamon talablari asosida muayyan ishlar olib borilyapti.

Modul tizimi va o‘qitishning innovatsion metodlarini rivojlantirish, o‘quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo‘llash, talabalar, o‘qituvchilar va yosh tadqiqotchilarni global axborot-huquqiy va ta’lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, amaliyot, stajirovka o‘tish tartibini takomillashtirish, shuningdek, klinik ta’limni joriy etishga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Zero, bugun ta’lim muassasalarida innovatsion pedagogik faoliyatga har qachongidan ham ko‘proq zaruriyat tug‘ilyapti. Bu darslarni samarali o‘tish, vujudga kelishi mumkin bo‘lgan ziddiyatlarni oqilona hal etish imkonini beradi. Binobarin, ta’lim xodimi – eng avvalo, innovator “xavfsiz sinovlar o‘tkazish” psixologiyasining bilimdoni bo‘lishi kerak.

REFERENCES

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // «Xalq so’zi» gazetasi, 2017 yil 23 dekabr
2. Ibragimova G.N. Interfaol o’qitish metodlari va texnologiyalari talabalarning kreativlik qobiliyatlapini rivojlantirish. I Monografiya. - T.: «Fan va texnologiyalar», 2016. -77-b.
3. Azizxodjaeva N.N. O‘qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2000. – 52 b.
4. Qurmanova Q.E TA’LIM TIZIMIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN DARS JARAYONIDA FOYDALANISH. "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - Issue 5 / 2020

MUQOBIL BAHOLASHDA GAMIFIKATSIYANING ROLI

G’oyibova Nigora Murod qizi
225 maktabining oliy toifali ingliz tili o’qituvchisi (+998946542454, nig_30@mail.ru)

https://doi.org/10.5281/zenodo.7930671

Annotatsiya. *O'quvchilarni haqqoniy baholash hozirgi kunda maktablarda dolzarb masala hisoblanmoqda. An'anaviy va muqobil baholash bir-biridan farq qiladi. Jumladan, to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri javobni tanlash, bir nechta testlarni o‘tkazish, turli variantli testlar o‘quvchilarni baholashda oson hisoblanadi. Ushbu an'anaviy baholash LOT (low order thinking) (past tartibli fikrlash qobiliyati)ga asoslanadi va o'quvchilarni summativ usulda baholashga mo'ljallangan. Biroq, ba'zi o’quvchilar uchun ularning kognitiv fikrlashlarini hisobga olmaslik ko'proq stresslik holatini yuzaga keltiradi. Muqobil baholash ham o‘quvchilar, ham o‘qituvchilar uchun foydaliroq. O’quvchularni rag'batlantirish va maqsadga erishish orqali baholashga qaratilgan. Ushbu baholash HOT (high order thinking) (yuqori tartibli fikrlash) ga asoslanadi va formativ tarzda baholashga mo'ljallangan. Muqobil baholashning eng qiziqarli va eng yaxshi ixtiyoriy jihatlaridan biri bu gamifikatsiyadir (o'yinlashtirishdir). Nazorat ishi o'quvchilarni yanada qiziqarli va rag'batlantirish uchun tilni baholashda gamifikatsiya qo'llaniladi.*

Kalit so'zlar: *An'anaviy baholash, Muqobil baholash, Gamifikatsiya, LOTlar, HOTlar, formativ va summativ baholash.*

Ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni baholashda o‘qituvchilar bir qator muammolarga duch kelishadi. Xususan, ta'limning an'anaviy usulida ba'zi baholash monitoringi hanuzgacha saqlanib qolgan. Ikkinchidan, baholash tizimidagi vaqt masalasi ba'zi baholash muammolariga ta'sir qiladi. Uchinchidan, nazoratning test formatida ishlashi o‘qituvchi va talaba uchun qulay bo‘lsada, o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirmaydi. An'anaviy va muqobil baholashni muvozanatda saqlash o'qitish sohasida muhim yo'ldir. Bu muvozanatli baholash yondashuviga olib keladi. Muqobil baholash boshqa turli atamalar bilan ham tanilgan, jumladan: xolis baholash, integrativ baholash, yaxlit baholash. Ta'limda "muqobil baholash" "an'anaviy test", "an'anaviy baholash" yoki "standartlashtirilgan baholash" deb ataladigan atamalardan to'g'ridan-to'g'ri farq qiladi. Diskret faktlarni yoki talabalar standart tarzda eslab qolgan bilimlarni qidiradigan an'anaviy tanlangan javob yoki tuzilgan javob testlari o'rniga, o’quvchilar bilimlarni muqobil, yangi usullarda qo'llashlari mumkin. Til fanlari darsida she’r yozish, teatr darsida spektakl yoki davlat darslarida rol ko‘rsatish muqobil baholashdir. Ushbu chiqishlar rubrikalar bilan baholanadi, ular talabalarga fikr bildirish uchun ham qo'llaniladi. Muqobil baholash ba'zan, odatda, nogironligi sababli, ko'pchilik o'quvchilarga berilgan bahoni qabul qila olmaydigan ba'zi o’quvchilar o'rniga ishlatiladi.[1]

O’quvchilarni muqobil baholash tizimi bilan o'rganayotganda shuni kuzatish mumkinki, turli sinf o'quvchilarining 80 foizi baholash tizimini o'yin sifatida yanada qiziqarli deb topdi va ularning tilga qiziqishi sezilarli darajada oshdi. Gamifikatsiya usuli o‘quvchilarning haqiqiy bahosiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Gamifikatsiya - bu foydalanuvchilarni rag'batlantirish va jalb qilish uchun o'yin o'ynashda tajribaga ega bo'lgan tajribalarni yaratish orqali tizimlar, xizmatlar, tashkilotlar va faoliyatni yaxshilashga qaratilgan strategik urinishdir.[2] Bunga odatda o‘yin dizayni elementlari va o‘yin tamoyillarini (dinamika va mexanika) o‘yindan tashqari kontekstlarda qo‘llash orqali erishiladi.[3][4] "Gamifikatsiya" atamasi birinchi marta 2008 yilda kompyuter dasturlari

kontekstida onlaynda paydo bo'lgan.[5] Gamifikatsiya ta'lim va xulq-atvorni o'zgartirish vositasi sifatida 2012 yilga kelib, Amerika Qo'shma Shtatlari Energetika Departamenti bir nechta tadqiqot sinovlarini birgalikda moliyalashtirganda davlat sektoriga yetib keldi. [6]

Tadqiqot maqsadi: Yuqorida aytilganlarga asoslanib, tadqiqotning maqsadi o’quvchilarni til o'rganishga undash uchun ko'proq raqamli o'yinlarni topishdir. Bundan tashqari, yozish ko'nikmalarini yaxshilash va o’quvhcilar uchun individual fikr-mulohazalarni olish uchun ba'zi veb-saytlar mavjud. O'z-o'zini baholashni tez-tez amalga oshirish uchun o'qituvchilar tomonidan tuzilgan nazorat ro'yxatlari va rubrikalar bo'lishi kerak. Bu kamchiliklar ustida ishlayotgan o’quvchilar uchun formativ usulda yordam beradi.

Natija: Tadqiqot natijalariga ko'ra, an'anaviy va muqobil baholashni o'tkazish o’quvchilar uchun muhim rol o'ynaydi. O’quvchilarni an'anaviy usulda baholashda o'qituvchilar va o’quvchilar bir nechta savol yoki testlarni bajarish orqali vaqtni tejashlari mumkin. An'anaviy baholashni o'tkazishning asosiy afzalliklari o’quvchilarni kirish imtihonlarida keyingi imtihonlarga moslashtirishdir. O’quvchilar CEFR, IELTS yoki TOEFL imtihonlari kabi bir nechta imtihonlarni topshirishlari mumkin. Ko'pchilik o’quvchilar qog'ozga asoslangan imtihonlarni afzal ko'rishadi. Umuman olganda, sinflar orasida taxminan 60% o’quvchilar summativ tarzda moslashtiriladi. Shu bilan birga, muqobil baholash ham o’quvchilar bilimini baholashda juda rag'batlantiradi. Summativ baholash tajribasiga ko'ra, o’quvchilarning 40% dan ortig'i stressli muhitdan aziyat chekadi va bu ularning axloqiy va aqliy tafakkuriga ta'sir qiladi va bu jarayon o'qituvchilar tomonidan unchalik samarali emas, testlarni yechishda esa o'yinlashtirish qiziqarli. Kahoot.com o’quvchilarni har qanday ko'nikma, xususan o'qish faoliyati bo'yicha sinovdan o'tkazadi. O'qituvchilar “affektiv filtr” yaratish va o'quvchilarni formativ tarzda baholashga qodir. Kahoot o'yini natijani o'quvchi har qanday mavzuni qanday tushunishini ko'rsatishi mumkin. Smartfonlar bilan ishlash ham qulay. Yana bir bilim sinovi o'yini - nearpod.com. Bu elektron doskada ishlash oson va o’quvchilarning tushunishlarini individual baholashda yordam beradi. Quizlet, Crossword o'quvchilarning so'z boyligini oshirish uchun juda samarali. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan ba'zi o'yinlar taqdim etilgandan so'ng, til o'rganishda yuqori natija ko'rsatdi. Darsga 80% ga yaqin o’quvchilar jalb etilgan.

Gamifikatsiya sinflardagi faollik darajasini oshiradi. Keyin o'quvchilar faollik darajasiga qarab o'lchandi. Tadqiqotchilar o‘yinga o‘xshash muhit sinfda qulay bo‘lishini va unumdorlikni oshirishini aniqladilar.[7]

Xulosa: Muqobil baholashda rol o'yini sinf muhitida samaraliroq. Qolaversa, ushbu yondashuv muassasalar orasida ommalashtirilsa, o'qituvchilar o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga ta'lim natijalaridan erishishlari mumkin.

REFERENCES

1. National Council on Measurement in Education http://www.ncme.org/ncme/NCME/Resource_Center/Glossary/NCME/Resource_Center/Glossary1.aspx?hkey=4bb87415-44dc-4088-9ed9-e8515326a061#anchorA Archived 2017-07-22 at the Wayback Machine
2. Hamari, J. (2019). Gamification. Blackwell Pub, In The Blackwell Encyclopedia of Sociology, Malden. pp. 1-3. https://doi.org/10.1002/9781405165518.wbeos1321 Archived 2022-02-26 at the Wayback Machine.

3. Sebastian Deterding; Dan Dixon; Rilla Khaled; Lennart Nacke (2011). From game design elements to gamefulness: Defining "gamification". Proceedings of the 15th International Academic MindTrek Conference. pp. 9–15.
4. Robson, K., Plangger, K., Kietzmann, J., McCarthy, I. & Pitt, L. (2015). "Is it all a game? Understanding the principles of gamification". Business Horizons. 58 (4): 411–420.
5. Walz, Steffen (2015). The Gameful World: Approaches, Issues, Application.
6. Rai, Varun; Beck, Ariane (June 20, 2016). "Serious Games in Breaking Informational Barriers in Solar Energy".
7. Doraiswamy, P. M., Agronin, M. (2009). Brain games: do they really work? http://www.scientificamerican.com/article.cfm?id=brain-games.

BOSHLANG’ICH TA’LIM O’QITUVCHILARINI O’Z USTIDA ISHLASHNING ZAMONAVIY YO’LLARI

Nuraliyeva Nargiza Bozorboyevna
Guliston davlat universiteti Sirdaryo viloyati,Guliston shahri, 4-mavze.
nargiza.nuralieva.1983@mail.ru

https://doi.org/10.5281/zenodo.7930683

Annatotsiya. *Ushbu maqolada boshlang’ich ta’lim o’qituvchilarining o’z-o’zini rivojlantirish ta’limni zamonaviy shaklda tashkil etish, ularning pedagogik mahoratini yuqori darajaga ko’tarish, o’z ustida doimiy ishlash, o’quv, tartibga solish va ilmiy ishlarda tizimli ishtirok etish jarayonini o’z ichiga oladi.*

Kalit so’zlar*: kompetensiya, ta’lim, tarbiya, o’qituvchi, o’quvcchi, malaka oshirish.*

Tizim modellashtirish sohasidagi kreativlik darajasi o’qituvchining eng yuqori mahoratiga mos keladi, agar o’qituvchi ta’lim sifatini o’z-o’zini rivojlantirishga qodir bo’lsa va shaxsiy tarbiyani shakllantirishga qodir bo’lgan bo’lsa kreativlikni shakllantirish uchun yo’naltirilgan bo’ladi. Bizning o’quvchilarimiz singari, boshlang’ich ta’lim o’qituvchilarida ham pedagogik qobiliyatlar mavjud. Adabiyotlarda kreativlik, ma’lum bir shartlar bo’yicha pedagogik muammolarni hal qilishning samarali sezgirligini topishga imkon beradigan individualning individual ta’siri sifatida ular aniqlanadi. Pedagogik kreativlik-bu faoliyat ko’rsatadigan tizim, shuning uchun asosiy mezon faoliyat natijasidir.

Boshlang’ich ta’lim o’qituvchilarida kreativlikni rivojlantirish, professionallik darajasi bevosita o’qituvchining professional vakolatiga bog’liq. Boshlang’ich ta’lim o’qituvchilarida kreativlikni rivojlantirish pedagogik kompetentsiyaning asosiy elementlari sifatida quyidagilarni o’z ichiga oladi:

- intizom sohasidagi mavzu, malaka va tajriba, echim va texnik va kreativlik vazifalarni bilish:
- o’qituvchilarning talablarini shakllantirish usullari (turli xil o’qitish usullari, didaktik usullar va texnikani bilish, ularni qo’llash, qobiliyati sohasida uslubiy vakolatlar psixologik mexanizmlar ilmni o’zlashtirish, ko’nikmalarni ishlab chiqish, ko’nikmalarni shakllantirish):
- o’qitish sohasidagi psixologik va pedagogik kompetentsiya (pedagogik diagnostika, pedagogik jihatdan tayyorlovchilar bilan tegishli bo’lgan holda, shaxsiy ish tashxis natijalari, yoshini bilish, psixologiya, shaxslar va pedagogik aloqa, uyg’onish va rivojlantirish imkoniyati asosida mavzuga barqaror qiziqish uyg’otish va rivojlantirish qobiliyati asosidadir.

Bugungi ta’lim tizimida darslarni samarali tashkil qilish nafaqat o’qituvchiga balki o’quvchilarga ham bog’liqdir. O’quvchilar faol, harakatchan va kreativ bo’lsalar shu darslar samarali natija beradi. Butun dunyoda jamiyatlar va tashkilotlar muammolarni hal etishda innovatsion bilim va yaratuvchanlikka tobora ehtiyoj sezmoqda, bu esa, o‘z avbatida, innovatsiya va kreativ fikrlash ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda.

Boshlang’ich ta’lim o’qituvchilarida kreativlikni rivojlantirishga, birinchi sinf ota-onalarining fan o’qituvchilarining shaxsiy xususiyatlariga oid so’rovini tahlil qilish ham kiradi:

1. bolalarga muhabbat
2. kasbiy kompetentsiya
3. sabr

4. mehribonlik
5. pedagogik mahorat.

Boshlang’ich ta’lim o’qituvchilarida kreativlikni rivojlantirish dastlab bolalarga bo’lgan sevgi, shuningdek, professional etishtirishdan iborat. Tasodifan o’qituvchi yoki ataylab ma’lum qabul qilish amaliyotida va natijada bolaning mavzusiga, hurmat va muhabbatiga qiziqish uyg’otadi. U o’qituvchini professional qoniqish beradi, balki taniqli qabulni ham o’zlashtiradi va amal qiladi, balki yangilarini qidiradi. Bugungi kunda kreativ o’qituvchi har qanday muammoni hal qilish, taqqoslash, tahlil qilish, sharhlash, vaziyatlardan chiqish mumkin bo’lgan yo’lni topishi mumkin. Shunga ko’ra, o’qituvchining kreativlik shaxsini rivojlantirishning yangi usullarini izlash zarurati mavjud edi. Ulardan biri tadqiqot faoliyati. Mutaxassislar “Ilmiy-tadqiqot elementi, biz ishonganimizdek, amaliy pedagogik faoliyatning eng muhim elementi uchun muhimroq bo’ladi”. Turli xil pedagogik topshiriqlarni o’zlashtirgan ilmiy tadqiqot faoliyatini o’zlashtirgan o’qituvchi, pedagogik vaziyatlarni echish uchun yangi imkoniyatlarni qidirish zamonaviy jamiyat talablariga javob beradigan darajada o’quv jarayonini qidirish imkoniyatiga ega bo’ladi. Ushbu tadqiqotlarning barcha shubhasiz ahamiyati bilan ular ta’limni modernizatsiya qilish sharoitida o’qituvchini o’z-o’zini rivojlantirish texnologiyalarini to’liq aks ettirmaydi.

Ilmiy adabiyot va empirik tajribalarni tahlil qilish sizga raqamni ajratishga imkon beradi qarama-qarshiliklar:

1. ta’lim sohasidagi innovatsiyalar va ko’pchilik o’qituvchilarning yo’qligi talablari o’rtasidagi ongli pedagogik jarayoni va kasbiy o’zini o’zi rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirishga qiziqish;
2. o’qituvchi faoliyatini kreativlik bilan bog’liq yangi pedagogik qadriyatlarga va tadqiqotchi o’qituvchini pedagogik qo’llab-quvvatlash uchun asossiz asoslar bilan ajralib turishi;
3. pedagogika jamoasi ishini sifatli yaxshilash va pedagogik faoliyat yurituvchi subyektdagi maktabda boshqaruv faoliyatining etarli darajada yo’naltirilganligi uchun guruh potentsialidan foydalanishning tobora ortib bormoqda.

Shunday qilib, muammo aniqlandi, bu rivojlanishi kerak bo’lgan nazariy asoslar va o’qituvchining professionalligini rivojlantirish uchun sharoitlar. Biz sizga o’qituvchi uchun ijtimoiy-pedagogik sharoitlarni yaratish orqali professional o’zini o’zi rivojlantirishni kuchaytirish imkoniyati bo’yicha iloji boricha ko’proq tajribamizni taklif etamiz.

1. O’qituvchining kasbiy o’zini o’zi rivojlantirishni va uning qidiruv va kreativlik faoliyatini rag’batlantirish orqali ta’minlanadi (mavzu sifatida) Faoliyatga yo’naltirilgan, shaxsiyat va shaxsiyat-kreativlik yondashuvlar asosida.

2. Kasbiy o’qituvchilarning o’zini rivojlantirishi ularga ilmiy tadqiqot faoliyatini bosqichma-bosqich rivojlantirishga asoslangan: a) o’qituvchini ilmiy-tadqiqot faoliyatiga sotib olish; b) tadqiqotlarni tashkil etish; v) engil, odatiy va policilktsiyalar bilan o’zaro aloqa qilish jarayonida pedagogik faoliyatda ilmiy mahoratni integratsiyalash.

Tahlil ilmiy ishlar o’zini o’zi rivojlantirish tomonlarini hisobga olishga bag’ishlangan, o’zini rivojlantirish, intizorlik, aks ettirish orqali biologik ravishda, shaxsni inson o’zini o’zi anglashi, individualizatsiya qilishning mavzusi sifatida inson o’z-o’zini anglashi kabi, tanazzulga solishni aniqlashga bag’ishlangan o’z faoliyati. Shunday qilib, o’zini o’zi rivojlantirish Shaxsiylik, yashash sharoiti va mehnati tufayli ijtimoiy-shaxsiy rivojlanishning yaxlit jarayonidir. Biror kishining o’zini o’zi rivojlantirish shartsiz ahamiyati, o’zini o’zi rivojlantirishning o’ziga xosligi yuzaga kelmoqda. Faol va kreativlik pozitsiyani faqat shaxs tomonidan o’zlarini

o’zgartirishga qaratilgan uzoq muddatli maqsadli harakatlar natijasida olinadi. Natijada kreativlik ish o’zining o’zi bilan insonning yaxshilash, o’zini o’zi tarbiyalash, zarurati bilan ajralib turadigan odam psixologik holatida qaytarib bo’lmaydigan sifatli o’zgarishlar mavjud.

O’z-o’zini rivojlantirishning mazmuni asosida nazariy manbalar tahlili, "Kasbiy-o’zini rivojlantirish" va "professional ijtimoiylashtirish" tushunchasini aniqladik va aniqlashtirdik. O’zining noyob malakasini oshirish traektoriyasini qurish va ushbu jarayonni faollashtirishga qaratilgan boshqarish vazifalarini aniqlash uchun ichki mexanizmlarni tushunishga imkon berdi.

Kasbiy o’zini o’zi rivojlantirish professional tajriba. Kasbiy tajribani modernizatsiya qilish dinamik jarayoni bo’lib, ular individual malaka oshirish va rivojlanishiga olib keladigan texnologiyalar faoliyatini faollashtirish hisoblanadi. “Kasbiy ijtimoiylashtirish” kontseptsiyasida o’z aksini topgan ijtimoiy jihat bu kasbiy bilim, ko’nikmalar, ko’nikmalar, ijtimoiy-professional normalar, shaxsni professional faoliyat sub’ekti sifatida shakllantirishdir. Kasbiy sotsializatsiya natijasida doimiy ravishda kasbiy o’zini o’zi rivojlantirish va o’zini takomillashtirish bilan bog’liq kasb tajribalarini faol amalga oshiradi.

Kasbiy o’zini o’zi rivojlantirishning asosiy xususiyatlarini o’rganish natijasida uni ajratib olgan, *texnologik bosqichlar:*

1) o’z-o’zini hisobga olgan holda, uning ehtiyojlari, imkoniyatlari, manfaatlarini xabardor qilish;

2) o’qituvchi o’zini o’zi rivojlantirish maqsadlari va vazifalarini mustaqil ravishda hakllantirishda o’z-o’zini tekshirish, o’zi ustida ishlashni rejalashtiradi, o’ziga o’zi harakatlanish vositalarini tanlaydi;

3) o’z-o’zini qayta ishlash, natijada yangi sifat va faoliyatning tuzilishi sodir bo’ladi.

Kasbiy-o’zini rivojlantirishga texnologik yondashuv ushbu jarayonni faollashtirishning maqbul usullarini topishga imkon berdi.

Bugungi kunda zamonaviy maktab tubdan o’zgarishlar jarayonlari yangi pedagogik qadriyatlarga o’z faoliyatini yo’nalishini bir o’qituvchi talabi esa, o’z navbatida, bir o’qituvchining kreativlik shaxsini rivojlantirish uchun yangi yo’llarini izlash o’z ichiga oladi, ilmiy kreativlik , tabiati, uchun etarli. Ilmiy-tadqiqot ishlari unda ta’lim sohasidagi innovatsion jarayonlarning ajralmas qismi sifatida o’qituvchilar o’zlarining kasbiy faoliyatini amalga oshirishga undashadi, o’zini o’zi anglash, o’zini o’zi tarbiyalash, o’zini o’zi rivojlantirish, kreativlik, kommunikativ, prognoziya va qobiliyatlarini faollashtirish tadqiqotchi o’qituvchisining qizg’in faoliyati holatidan iboratdir.

1.Ta’lim jarayonidagi kreativ faoliyat - bu shaxsning odatdagi me’yor va harakat usullarini engib o’tishga intilishi bilan tavsiflanadigan eng yuqori darajadagi bilim faoliyati. Kreativ faoliyat o’qituvchining o’zini rivojlantirishga tayyorligi, mustaqillik va tashabbuskorlik, o’quv va muammolarni hal qilish jarayonida, faoliyatning yangi mahsulotini yaratishda namoyon bo’ladi.

2.Boshlang’ich ta’lim jarayonida boshlang’ich o’qituvchisi faoliyatining rivojlanishi bir necha bosqichlardan o’tadi: yo’naltirish yoki reproduktiv-taqlid (o’quvchilarning o’quv-kreativlik faoliyatiga qiziqishini uyg’otish); izlash va ishlash (shaxsning kreativlik ishlab chiqarish faoliyati to’g’risida xabardorlik darajasi va ahamiyatini oshirish); kreativlik (kreativlik muammolarni mustaqil ravishda hal etishga va samarali kreativlik faoliyatga faol jalb etishga bo’lgan munosabatni shakllantirish).

3.Boshlang’ich o’qituvchisining kreativlik faoliyatini rivojlantirish mezonlari - bu kreativlik dagi yangilikning namoyon bo’lishi (akkompaniyalar, improvizatsiyalar,

kompozitsiyalar qurish), faollik, kreativlik ga motivatsion e’tibor, muammoli vaziyatlarni hal qilishning o’ziga xos usullaridan foydalanishda mustaqillik. aniq echimlarga ega emas

4.Boshlang’ich ta’lim jarayonida o’qituvchining kreativlik faoliyatini rivojlantirish samaradorligi quyidagilarga bog’liq.

- kreativlik faoliyatni birgalikda o’zlashtirish jarayonida o’qituvchilar va o’qituvchilarni o’zini rivojlantirish va o’zini anglashga yo’naltirish;

- o’quvchilarni individual ta’lim yo’nalishiga muvofiq o’quv-kreativlik jarayonga kiritish;

Zamonaviy ta’limni amalga oshirish jarayonida qiyinchiliklarni tahlil qilish, tadqiqot funktsiyasini rivojlantirishga yordam beradigan qo’shimcha chora-tadbirlarni ishlab chiqishga olib keldi.

Xulosa qilib, boshlang’ich ta’lim o’qituvchilarini o’z–o’zini kreativligini rivojlantirish, bu - ta’limni zamonaviy shaklda tashkil etish, pedagogik mahoratini yuksak saviyaga olib chiqish, o’z ustida doimiy ishlash, o’quv –me’yoriy va ilmiy ishlar bilan muntazam shug’ullanish jarayonini o’z ichiga oladi.

REFERENCES

1. Shodiyeva Matluba Jo’rayevna. Boshlang’ich sinf o’qituvchilarini kasbiy rivojlantirishning ilmiy-pedagogik jihatlari. Zamonaviy ta’lim sovremennoe obrazovanie 2021,4 (101)
2. Yuldashev.M.A. Xalq ta’limi xodimlarining malakasini oshirishda ta’lim sifati. Menejmentini takomillashtirish:ped.fan.dok.diss.–T.:2016.-309b.
3. И.В.Таболаева Развитие творческой личности учителя начальных классов в инновационном пространстве модернизации непрерывного педагогического образования
4. N Nuraliyeva. Darslarda o’quvchilarning kretiv fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish. . Science and innovation 1 (B8), 1423-1426. - 2022.

O‘QITUVCHI INNOVATSION PEDAGOGIK FAOLIYATINING XUSUSIYATLARI

Muxidova Olima Nurilloyevna
Qori Niyoziy nomidagi pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti doktoranti

https://doi.org/10.5281/zenodo.7926159

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy o‘qituvchining yangi qiyofasi, uning innovatsion faoliyati, yangi pedagogik texnologiyalar va o‘quv jarayonida innovatsion faoliyatdan foydalanish yo‘llari muhokama qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *innovatsiya, tadqiqot, ijodkorlik, qiziquvchanlik, ijodiy qiziqish, tanqidiy yondashuv.*

Zamonaviy o‘qituvchi o‘zini yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar va tushunchalar muallifi, ularni ishlab chiquvchi, tadqiqotchi, foydalanuvchi va targ‘ibotchi sifatida ko‘rsatishi kerak.

Ta’limning bugungi rivojlanishi sharoitida o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatiga bo‘lgan ehtiyoj quyidagicha namoyon bo‘ladi:

1. Ta’lim tizimini ijtimoiy-iqtisodiy yangilash o‘quv jarayoni metodologiyasi va texnologiyalarini tubdan yangilashni talab qiladi.

Bunday sharoitda o‘qituvchining innovatsion faoliyati pedagogik innovatsiyalarni yaratish, ularni ishlab chiqish va o‘qitish faoliyatida qo‘llashni o‘z ichiga oladi;

2. Ta’lim mazmuniga insonparvarlikni singdirish yangi tashkiliy shakllarni, o‘quv texnologiyalarini doimiy ravishda izlashni talab qiladi;

3. Pedagogik innovatsiyalarni o‘zlashtirish va o‘qituvchining ularni qo‘llashga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirish.

Pedagogik faoliyatda o‘qituvchining faolligini, uning ijodiy salohiyatini faollashtirishni ko‘rsatish juda muhimdir. Va bu, o‘z navbatida, o‘qituvchi shaxsining ijodkorligini shakllantirishga imkon beradi. Innovatsion faoliyatni quyidagi asosiy xususiyatlarga bo‘lish mumkin:

* Kasbiy faoliyatni ongli ravishda tahlil qilish;
* Normalarga tanqidiy yondashuv;
* Pedagogik innovatsiyalarga tayyorgarlik;
* Ijodkorlikka ijodiy munosabatda bo‘lish;
* O‘z potensialini ro‘yobga chiqarish, turmush tarzi va intilishlarni kasbiy faoliyatga qo‘shish.

O‘qituvchining innovatsion faoliyatini tahlil qilish innovatsiyalar samaradorligini belgilovchi muayyan mezonlardan foydalanishni talab qiladi. Bunday mezonlarga yangilik, maqbullik, yuqori samaradorlik va ommaviy tajribalarda innovatsiyalarni ijodiy qo‘llash imkoniyati kiradi.

Innovatsiya pedagogik innovatsiya normasi sifatida uning darajasining mohiyatini aks ettiradi. Olim-o‘qituvchilar yangilikni qo‘llashning mashhurlik darajasi va ko‘lamiga qarab o‘zgarib turadigan mutlaq, cheklangan va mutlaqo shartli, sub’ektiv darajalarni ajratadilar.

Qabul qilish mezoni o‘qituvchi va talabaning maqsadga erishish uchun sarflagan vositalari va harakatlaridir. Samaradorlik deganda o‘qituvchi ishidagi ma’lum muhim ijobiy natijalar tushuniladi.

O‘qituvchining innovatsion faoliyati quyidagilarni o‘z ichiga oladi: innovatsiyalarni tahlil qilish va baholash, kelajakdagi harakatlar maqsadlari va tushunchalarini shakllantirish, ushbu rejani amalga oshirish va tahrirlash, samaradorlikni baholash.

Mashhur olim V. A. Slasteninning tadqiqotlarida o‘qituvchining innovatsion qobiliyatining asosiy fazilatlari qayd etilgan.

Bularga quyidagi xususiyatlar kiradi:

- SHaxsning ijodiy va motivatsion yo‘nalishi. Bular qiziquvchanlik, ijodiy qiziqish; ijodiy yutuqlarga intilish; etakchilikka intilish; o‘zini takomillashtirishga intilish;

- Ijodkorlik. Bu fantaziya, gipoteza; stereotiplardan xalos bo‘lish, xavf, tanqidiy fikrlash, baholash qobiliyati, o‘zini-uzi kuzatish (introspeksiya), aks ettirish;

- Kasbiy faoliyatni baholash. Bular ijodiy faoliyat metodologiyasini o‘zlashtirish, pedagogik tadqiqot usullarini o‘zlashtirish, muallifning konseptual faoliyati texnologiyasini yaratish, nizolarni ijodiy engish qobiliyati, ijodiy faoliyatda hamkorlik, o‘zaro yordam va boshqalar;

- O‘qituvchining individual qobiliyatlari. Bular ijodiy faoliyat, qat’iyatlilik, o‘ziga ishonch, mas’uliyat, halollik, rostgo‘ylik, o‘zini tuta bilish va boshqalar.

V. A. Slasteninning innovatsion faoliyat sohasidagi tadqiqotlari o‘qituvchilarning innovatsiyalarga tayyorligi mezonlarini aniqlash imkonini beradi:

* innovatsiya zarurligini anglash;
* ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanishga tayyorlik;
* shaxsiy maqsadlarning innovatsion faoliyat muvofiqligiga erishish;
* ijodiy muvaffaqiyasizliklarni engishga tayyorlik;
* innovatsiyalarga texnologik tayyorgarlik darajasi;
* kasbiy mustaqillikning innovatsiyalarga ta’siri;
* pedagogik aks ettirish qobiliyati;

Innovatsion jarayonlarni, ularning funksiyalarini, rivojlanish qonuniyatlarini, ularni amalga oshirish mexanizmlari va texnologiyalarini, boshqaruv tamoyillarining pedagogik asoslarini o‘rganish maktabda o‘quv jarayonini, zamonaviy pedagogika va psixologiya yutuqlari asosida jahon darajasidagi standartlarni tashkil etishga imkon beradi.

Ijodkor o‘qituvchi yuzaga chikkan muammolarni hal etish yuzasidan muntazam ravishda chora qidiradi. O‘z faoliyati uslubini metod va yo‘llarini uzluksiz ravishda takomillashtirib boradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, zamonaviy o‘qituvchi kelajak bunyodkori, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarning tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ‘ibotchisidir. Uning o‘qituvchilik faoliyatidagi kasbiy kompetentligi shiddat bilan rivojlanayotgan davr talablariga mos kelsagina, yuksak bilimli raqobatbardosh mutaxassislar yaratilishiga zamin yaratiladi.

REFERENCES

1. Kuysinov O.A. Improving the methodologies of raising the effectiveness of continuous education on the basis of ensuring content consistency/ Electronic journal of actual problems of modern science, education and training. July, 2021 -7/1. 4-8.
2. Kuysinov O.A., Muslimov N.A. Theory and methods of organizing independent education in the training of teachers of vocational education. Monograph. T .: “Fan”, 2009. - 92b.

3. O.H.Uzoqov The emergence of chaos International Journal of Advanced Academic Studies.18-03-2020 221- 223 bet
4. Мухидова О.Н. (2021). Формирование трансверсальных компетенций – приоритетная задача преподавателей высшей школы. *Общество и инновации*. 2, 11/S, 394–398.
5. Muhidova O.N. (2021). Transversal competences as a result of student’s modern world view formation. *Current research journal of pedagogics.* 3, 03 C. 64-69.
6. Мухидова О.Н. (2020). Компетенциявий ёндашув асосида бўлажак технология фани ўқитувчиларини тайёрлаш тизимини такомиллаштириш. *Педагогик маҳорат Центр научных публикаций (buxdu. uz)* 1/1, 57-61
7. Мухидова О.Н. (2020). Технология фани ўқитувчиларини тайёрлашда компетенциявий ёндашувлар. *Педагогик маҳорат Центр научных публикаций (buxdu. uz)* 2/2, 158-164.
8. Mirjanova N.N., Muxidova O.N., Sodiqova A.H. (2022). IMPROVING THE METHODOLOGY OF USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF FUTURE TECHNOLOGY TEACHERS. International Journal of Early Childhood Special Education Volume 14 No 1. pp. 2548-2553.
9. Қулиева Ш.Ҳ., Тўраев А.А. Тизимли ёндашув асосида бўлажак ўқитувчиларни касбий-педагогик тайёргарлигини шакллантириш. Узлуксиз таълим. Махсус сон. 2020. 107-111-бетлар.
10. Қулиева Ш.Ҳ., Тўраев А.А. Бўлажак ўқитувчиларни тайёрлашда модулли таълим технологияларининг аҳамияти. PEDAGOGIK MAHORAT Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2020, № 3.

IJTIMOIY-MADANIY MUHIT TANQIDIY FIKRLASH VOSITASI SIFATIDA

Gulyamova A.O.
T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zPFITI doktoranti +998977059997

https://doi.org/10.5281/zenodo.7926213

Anotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekistonda va butun dunyodagi yoshlar orasida dolzarb muammoga aylangan tanqidiy fikrlash va uning ijtimoiy-madaniy muhit bilan bog‘liqligi yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Psixologiya, tanqidiy fikrlash, madaniyat, ob’yektivlik, analitik fikrlash, fakt, xodisa.*

Globallashib borayotgan hozirgi zamonda o‘sib kelayotgan yoshlar orasida juda ko‘plab muammolar mavjud bo‘lib ulardan biri tanqidiy fiklashdir. O‘quvchi yoshlar tanqidiy fiklash orqali o‘z kelajagi, oldida turgan muammolar va bundan tashqari mavjud jarayonga nisbatan o‘z shaxsiy qarashiga ega bo‘la boshlaydi. O‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni yaratuvchi jarayonlardan biri esa, bu – ijtimoiy-madaniy muhit hisoblanadi.

Ijtimoiy-madaniy muhit bu – inson yashashi uchun yaratilgan muhitlardan biri bo’lib, bir necha bosqichlarda o‘z aksini topgan. Inson ijtimoiylashishi uchun, avvalo unga yetarli jismoniy resurslar kerak. Shundan so‘ng inson ijtimoiy-madaniylashuvning oliy darajasiga ko‘tarila oladi. O‘quvchilarni ham anashu moddiy resurslar tanqidiy fikrlashga o‘rgata oladi. Masalan bir bola mashg‘ulot jarayonida o‘ziga kerakli o‘quv-qurollaridan birini topa olmayapti, mashg‘ulotda ishtirok etishi uchun unga kerakli bo‘lgan obyektni boshqa tinglovchidan so‘rashi yoki ayirboshlashi uchun unga albatta tanqidiy fikrlash yordamga keladi. Demak, ijtimoiy-madaniy muhit tanqidiy fikrlashga ko‘mak beruvchi jarayon ekani o‘z aksini topmoqda.

Tanqidiy fikrlashni shakllantiruvchi bir qancha bosqichlar mavjud bo‘lib, ulardan biri bu – kuzatish hisoblanadi. Kuzatish bolalikdan olingan birinchi ko'nikmalardan biridir. Ijtimoiy-madaniy muhitdagi kuzatishlarimiz o‘z fikrimizni shakllantirishga va voqelikni chuqurroq anglashimizga olib keladi.

Yana biri qiziqish hisoblanib unda, dunyoga va atrofdagi odamlarga qiziqish paydo bo‘la boshlaydi.

Ob’ektivlik ham kata ahamiyatga ega bo‘lib, bizga dunyoqarashimiz va o‘tmishdagi tajribamiz kuchli ta’sir qiladi. Shunga qaramay, har doim vaziyatga imkon qadar xolis qarashga harakat qilidi.

Analitik fikrlash, ya’ni axborotni tahlil qilish qobiliyati har qanday masalada muhim ahamiyatga ega: shartnoma imzolashda, hisobot yoki biznes-reja yozishda, hatto odamlar bilan munosabatlarni o'rnatishda katta ahamiyatga ega. Bu esa ijtimoiy-madaniy muhitsiz imkonsizdir.

Axborotning ahamiyatini aniqlash qobiliyati ham tanqidiy fikrlashning bosqichlari bo‘lib, bunda ma’lum bir vaziyatda qanday ma'lumotlarni taxlil qilish kerakligini tushunib yetish dolzarb va muhimdir. Barcha kiruvchi ma'lumotlar dastlab qimmatli ko'rinadi, lekin bu har doim ham tasdiqlanmaydi. Ijtimoiy muhit doimo ma’lumotni to ‘g’ri yoki noto’g’ri ekanini taxlil qilishga yordam beradi.

Faktlarga asoslangan taxminlar qilish qobiliyati esa, doimo faktlar asosida xulosa chiqarishni va ko’z oldimizga shu faktlar orqali mavjud xolatni keltirish imkonini beradi. Ammo faktlarga asoslangan taxminlar qilish qobiliyatini oddiy taxminlar bilan aralashtirib yubormang. Misol uchun, agar kimdir 118 kilogramm og'irlikda ekanligini o'qisangiz, bu odam ortiqcha vaznli

va sog'lig'i yomon deb o'ylashingiz mumkin. Xulosa qilish uchun esa avvalo siz uning balandligi va hajmini bilishingiz kerak.

Tanqidiy fikrlash uchun rahm-shafqat ortiqcha bo'lib tuyulishi mumkin, chunki sentimentallik va emotsionallik bizning idrokimizni buzadi. Ammo empatiyasiz, biz hamma narsaga faqat quruq ma'lumotlar va faktlar nuqtai nazaridan qaraymiz. Bu qarash tezda barcha sohalarga tarqaladi va biz hamma narsadan shubhalana boshlaymiz.

Samarali tanqidiy fikrlash uchun inson omilini hisobga olish kerak. Shuni unutmaslik kerakki, biz duch keladigan vaziyatlarda nafaqat ma'lumotlar, balki odamlar ham muhimdir.

Har bir yangilikka ochiqlik ham tanqidiy fikrlashga yordam beradi. Har bir vaziyatga ochiq fikr bilan yondashish va boshqa odamlarning qarashlari va fikrlarini qabul qilish yaxshi natija berishi mumkinligi unutmasligimiz kerak. Barcha nuqtai nazarlarni bilmaguncha, u yoki bu tomonga og ‘maslik ham tanqidiy fikrlash namunasidir.

Xodisalar orasidagi sababiy bog’liqlikning mavjudligini tushunib yetish esa ijtimoiy muhitda katta yordam beradi. Sababi atrofda bo’layotgan holat va uning sababini tushunib yetmagan o’quvchi, kelajakni ham tasavvur qila olmaydi. Diqqati ham jamlanmaydi. Natijada esa pedagogik jarayonda ijobiy natija olish murakkablashadi.

Xulosa qilib aytganda, tanqidiy fikrlash va ijtimoiy-madaniy muhit doimo uzviy bog’liqlikda mavjud bo’lib, ta’lim jarayonida o’z-o’zini to’ldirib turadi.

REFERENCES

1. Брюшинкин В. Н. Критическое мышление и аргументация // Критическое мышление, логика, аргументация / под ред. В. Н. Брюшинкина, В. И. Маркина. Калининград, 2003. С. 29—34.
2. 1. Сластенин, В. А., Каширин В. П. / Психология и педагогика [Текст] / В. А. Сластенин, В. П. Каширин - М.:, Академия 2007-477с
3. 2. Орлова, В. А. Психология в вопросах и ответах: учебное пособие [Текст] / Б.А. Орексова. - М.: КНОРУС, 2009. - 200 с.
4. Загашев И. О., Заир - Бек С. И., Муштавинская И. В. Учим детей мыслит критически. [Текст] / И. О. Загашев, С. Я. Заир-Бек, И. В. Муштавинская - Издание 2-е. - СПб: Альянс Дельта совм. с изданием «Речь», 2003–192с.

MEHNAT TA’LIMI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI XALQ HUNARMANDCHILIGI ASOSIDA TARBIYALASH

(«Klaster yondashuv asosida o‘quvchilarni milliy hunarmandchilikka qiziqish kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi» mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasining tajriba-sinov ishlarining xulosasi sifatida)

Roila Yuldoshvoyevna Xaydarova
Nizomiy nomidagi TDPU Texnologik ta’lim magistratura mutaxassisligi II bosqich magistranti

https://doi.org/10.5281/zenodo.7930718

Annotatsiya. *Bugungi kunda ta’lim muassasasida tashkil etiladigan har bir dars jarayoni o‘quvchilarga nafaqat ta’lim berishni, balki ularda tarbiyaviy jihatdan ham e’tibor qaratishni talab qiladi. Shu boisdan ham mazkur maqola ushbu masala yuzasidan fikr-mulohazalarga bag‘ishlanadi.*

Kalit so‘zlar: *Ta’lim muassasasi, mehnat ta’limi, o‘quvchilarni tarbiyalash, hunarmandchilik, an’anaviy texnologiya mashg‘ulotlari.*

Texnologiya darslari o‘quvchilarda o‘zini-o‘zi tanqidiy baholash va kamchiliklarga nisbatan murosasiz bo‘lish hislarini tarbiyalaydi. Unda, o‘qituvchi tayyor buyumni tekshirib ko‘radi va uni o‘quvchilarning o‘zlariga mustaqil ravishda baholashni taklif qiladi. Ilg‘or o‘qituvchilar ish tajribalari bunday usul muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. O‘qituvchi dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida yaxshi tayyorlangan hunarmandchilik buyumining go‘zalligi, detallarga ishlov berishning to‘g‘riligi hamda o‘quvchi mehnat harakatlarining aniqligini doimo ta’kidlab turishi kerak.

Texnologiya va kasbga yo‘naltirishda o‘quv mashg‘ulotlarining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ta’lim-tarbiya tizimida xalq hunarmandchiligi sohalaridan foydalanish uchun eng maqbul mashg‘ulotlar turkumi hisoblanadi.

Xalq hunarmandchiligi sohalarini o‘rganishda texnologiya mashg‘ulotlari qo‘lda va qo‘l asboblarida bajariladi. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida texnologiya mashg‘ulotlarining samaradorligini oshirish uchun o‘quvchilar mehnati xolis baholanishi lozim. Xalq hunarmandchiligi sohalarini o‘rganishga asoslangan texnologiya mashg‘ulotlari an’anaviy texnologiya mashg‘ulotlariga nisbatan taqqoslanganda moddiy, xom-ashyo ta’minoti, ko‘pincha mahalliy materiallardan foydalanishi hisobiga bo‘ladi.

Mehnat ta’lim darslarida o‘quvchilarni xalq hunarmandchiligi asosida tarbiyalashimizni samarali yo‘llaridan biri zardo‘zlik sa’natini o‘rgatish. Sababi o‘quvchilar o‘z qo‘llari bilan nafis buyumlar yaratishga muyassar bo‘ladilar.

Mehnat ta’limi darsi jarayonida o‘quvchilarni xalq hunarmandchiligi asosida tarbiyalashni dars jarayonida olib borish xam mumkin. Bu bilan o‘quvchilarning milliy hunarmandchilikka nisbatan qiziqishlarini uyg‘otishga erishish yanada oson kechadi.

Mashg‘ulotlarni tashkil qilish jarayonida fan o‘qituvchisi o‘zining tayyorgarlik darajasi, maktabning moddiy-texnik bazasining imkoniyati va o‘quvchilarning qiziqishiga qarab dasturga ma’lum o‘zgartirishlar kiritish I ham mumkin. Har tomonlama fikrlab tuzilmagan reja bilan qo‘yilgan maqsadga erishish qiyin. Shuning uchun klaster yondashuv asosida o‘quvchilarning milliy hunarmandchilikka qiziqish kompetensiyalarini rivojlantirish rejasi, strukturasida quyidagi bo‘limlar bo‘lishi tavsiya etiladi:

1. Umumiy qism.

2. Ta’lim-tarbiya ishlari.
3. Metodik ishlanmalar.
4. Ommaviy tadbirlar.
5. Xo‘jalik ishlari.

Milliy hunarmandchilik faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o‘quvchilar maktab ustaxonasida mehnat darslarida ma’lum darajali tayyorgarlikdan o‘tgan bo‘lishi lozim. Agar o‘quvchi mustahkam bilim va amaliy ko‘nikmaga ega bo’lsa, hunarmandchilik faoliyatida ulkan muvaffaqiyatlariga erishish mumkin deya xulosa chiqaramiz.

REFERENCES

1. Jalilova D.U. Psychological And Technological Features of Increasing the Efficiency of Educational Activity of Talented Students in Presidential Schools. Journal of Pedagogical Inventions and Practices ISSN NO: 2770-2367 (https://zienjournals.com).
2. Roila Yuldoshvoyevna Xaydarova. ORGANIZATION OF INDEPENDENT EDUCATION IN THE FIELD OF TECHNOLOGY IN PREPARING PUPILS FOR EDUCATION ON THE BASIS OF FOLK CRAFTS. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 2 ISSUE 4 APRIL 2023. 100-101p.
3. Roila Yuldoshvoyevna Xaydarova. METHODOLOGY OF FORMATION OF COMPETENCES OF PUPILS' INTEREST IN NATIONAL CRAFTS BASED ON THE CLUSTER APPROACH. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 2 ISSUE 4 MARCH 2023. 373-374p.
4. Roila Yuldoshevna Xaydarova. CLUSTER TYPES AND ORGANIZATION OF THE PROCESSES OF LESSONS DEDICATED TO NATIONAL CRAFTS FROM TECHNOLOGY SCIENCE BASED ON THEM. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 2 ISSUE 4 MARCH 2023. 68-69p.
5. Roila Yuldoshevna Xaydarova. THE IMPORTANCE OF THE CLUSTER APPROACH IN MODERN EDUCATION. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 2 ISSUE 1 JANUARY 2023. 434-435p.
6. Roila Yuldoshevna Xaydarova. EFFECTIVENESS OF USING PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN FORMING THE COMPETENCES OF STUDENTS' INTEREST IN NATIONAL CRAFT. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME2 ISSUE 4 APRIL 2023 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337. 328-329p.
7. Yulchiyeva M.T. O‘QUVCHILARNING IJODKORLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA FOYDALANILADIGAN METOD VA VOSITALARNING AHAMIYATI. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 1 ISSUE 8 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337. 198-201p.
8. https://t.me/jalilova_dilshoda_2292
9. https://t.me/ilmiy_yordam_beraman
10. https://cyberleninka.ru
11. http://scientists.uz

O‘QUVCHILARNI MILLIY HUNARMANDCHILIKKA QIZIQTIRISHDA FAN VA ISHLAB CHIQARISH HAMKORLIGINING KLASTERLI YONDASHUVLARI

Roila Yuldoshvoyevna Xaydarova
Nizomiy nomidagi TDPU Texnologik ta’lim magistratura mutaxassisligi II bosqich magistranti

https://doi.org/10.5281/zenodo.7930741

Annotatsiya. *Ushbu maqola orqali umumta’lim maktablarida ta’lim oluvchi o‘quvchilarni milliy hunarmandchilikka qiziqtirishda fan va ishlab chiqarish hamkorligining yondashuvlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar o‘z aksini topadi.*

Kalit so‘zlar: *Klaster yondashuv, variativ jihat, individual trayektoriya, milliy hunarmandchilik, maktab va ishlab chiqarish hamkorligi, integrativ mashg‘ulotlar.*

Klasterli yondashuv moslashuvchan hamda variativ jihatdan amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Bu borada tadqiqotchi N.Sh.Abdullaevaning fikrlari o‘rinli ekanini ta’kidlash joiz. Va shu bilan bir qatorda olimning fikrlarini keltiirb o‘tish maqsadga muvofiq bo‘ladi: “Ta’limning variativ tizimining maqsadi – har bir o‘quvchining sifatli va ommabop (ochiq) ta’lim olish huquqini ta’minlash demakdir. Bu tizimda ta’lim oluvchilar uchun “individual trayektoriya” ishlab chiqilgan, ya’ni ota-onalar talabidan kelib chiqqan holda, vaqtni belgilash, o‘quvchilar rivojlanishini inobatga olish, iqtidor va yo‘nalishlarni hisobga olish, imkoniyati cheklangan o‘quvchilar, maxsus ta’lim talablarini inobatga olish va hokazolar“ individual trayektoriya”ning asosiy mezonlari sifatida qabul qilinadi”.

Bizningcha, 6–7 sinf o‘quvchilarida klaster yondashuv asosida milliy hunarmandchilikka qiziqish kompetensiyalarini rivojlantirishda o‘qituvchi va ishlab chiqarish, birlashma hamda uyushmalari bilan o‘zaro ishonchli munosabatni shakllanishi tegishli samarani beradi. O‘quvchilarning milliy hunarmandchilikka qiziqish kompetensiyalarini rivojlantirishda maktab va ishlab chiqarishning hamkorlikdagi faoliyatini samarali tashkil etish ham klaster yondashuvining muhim omilidir.

Markazga qo‘yilgan muammo yuzasidan to‘plangan nazariy ma’lumotlar, adabiyotlar va turli tipdagi manbalarni o‘rganish natijasida aytish mumkinki, klasterli integratsiyaning asosiy tamoyili ta’lim mazmunining tizimli saralanishi ekanligidadir. Bunda har bir bo‘g‘in uchun mos vazifalar belgilab olinishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, ta’lim jarayonida klasterli integratsion yondashuvga ehtiyoj ayrim sabablar bilan tavsiflanadi. Ushbu sabablarni quyidagicha sanab o‘tish mumkin:

* Integrativ mashg‘ulotlar o‘quvchilar potensialini (ichki imkoniyat) rivojlantiradi; ishlab chiqarishni faol ravishda anglashga da’vat etadi; sababiy oqibatlarni fikrlash va tushunishga yordam beradi; mantiq, tafakkur va kommunikativ qobiliyatni ham rivojlantiradi.

* Integrativ mashg‘ulot o‘quvchilar uchun qiziqarli va noan’anaviy ravishda o‘tkaziladi. Mashg‘ulot davomida turli ish turlaridan foydalanish o‘quvchilarning diqqatini jamlaydi, ularni ruhan qo‘llab-quvvatlaydi.

* Integrativ mashg‘ulot pedagogik imkoniyatlarni namoyon etadi, turli faoliyatlarda, masalan, o‘quvchilarda uchraydigan charchoq, zerikish va zo‘riqishlarni bartaraf qiladi, bilishga bo‘lgan qiziqishni oshiradi; xayol, diqqat, tafakkur, nutq va xotirani rivojlantiradi.

* Mashg‘ulotlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik vaqtdan unumli foydalanishga imkon yaratadi, ya’ni o‘quvchilarni rivojlantiruvchi faoliyat, shuningdek, amaliy yo‘naltirilgan

qo‘shimcha mashg‘ulotlarni (oilada, mahallada, ob’yektlarda, to‘garaklarda) o‘tish uchun ham sharoit yaratiladi.

* Integratsiya jarayonida o‘quv-tarbiyaviy faoliyatni tashkil etuvchilardan iqtidori, mahorati, ijodkorligini namoyon etish ham talab qilinadi.

Klasterli yondashuvda oila va maktab hamkorligini yo‘lga qo‘yish ham belgilangan. Odatda pedagogchilar va ota-onalar ham o‘zlarining boy tajribalariga ega. Aksariyat hollarda, maktab va ishlab chiqarish tashkilotning roli bu so‘zda keng ma’noda bir-biridan ajratilgan. Shu bois ta’lim beruvchi hamda ishlab chiqarish ham qanday qilib axborot almashuv, hamkorlikda rejalashtirishni amalga oshirish, o‘quvchilar guruhida birgalikda ishlashni bilmasliklari mumkin va buning natijasida yangi talablar oldida o‘zlarini noqulay his qilishlari tabiiy. Bunday sharoitda pedagoglar va ishlab chiqarish birlashmalari bilan hamkorlik masalasini tushuntirish birmuncha qiyin kechishi ehtimoldan xoli emas.

REFERENCES

1. Jalilova D.U. Psychological And Technological Features of Increasing the Efficiency of Educational Activity of Talented Students in Presidential Schools. Journal of Pedagogical Inventions and Practices ISSN NO: 2770-2367 (https://zienjournals.com).
2. Roila Yuldoshvoyevna Xaydarova. ORGANIZATION OF INDEPENDENT EDUCATION IN THE FIELD OF TECHNOLOGY IN PREPARING PUPILS FOR EDUCATION ON THE BASIS OF FOLK CRAFTS. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 2 ISSUE 4 APRIL 2023. 100-101p.
3. Roila Yuldoshvoyevna Xaydarova. METHODOLOGY OF FORMATION OF COMPETENCES OF PUPILS' INTEREST IN NATIONAL CRAFTS BASED ON THE CLUSTER APPROACH. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 2 ISSUE 4 MARCH 2023. 373-374p.
4. Roila Yuldoshevna Xaydarova. CLUSTER TYPES AND ORGANIZATION OF THE PROCESSES OF LESSONS DEDICATED TO NATIONAL CRAFTS FROM TECHNOLOGY SCIENCE BASED ON THEM. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 2 ISSUE 4 MARCH 2023. 68-69p.
5. Roila Yuldoshevna Xaydarova. THE IMPORTANCE OF THE CLUSTER APPROACH IN MODERN EDUCATION. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 2 ISSUE 1 JANUARY 2023. 434-435p.
6. Roila Yuldoshevna Xaydarova. Effectiveness of using pedagogical technologies in forming the competences of students' interest in national craft. Science and innovation international scientific journal volume2 issue 4 april 2023 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337. 328-329p.
7. Yulchiyeva M.T. O‘QUVCHILARNING IJODKORLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA FOYDALANILADIGAN METOD VA VOSITALARNING AHAMIYATI. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 1 ISSUE 8 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337. 198-201p.
8. https://t.me/jalilova_dilshoda_2292
9. https://t.me/ilmiy_yordam_beraman
10. https://cyberleninka.ru
11. http://scientists.uz

UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARIDA MADANIY MUHITNI YARATISHDA MADANIY DUNYOQARASHNI AHAMIYATI

Xolbo‘tayeva Dilfuza Usmon qizi
UzPFITI 2-kurs tayanch doktoranti

https://doi.org/ 10.5281/zenodo.7930778

Anotatsiya. *Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida madaniy muhitni yaratishda madaniy dunyoqarashni ahamiyati qanchalik muhim ekanligi ochib berilgan. Maqolada madaniy muhit va madaniy dunyoqarash haqida keng ma‘lumot berib o‘tilgan.*

Kalit so’zlar: *madaniy muhit, madaniy dunyoqarash, pedagogik texnalogiyalar, diniy, idiomatik, refleksiya, ijtimoiy muhit.*

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan murakkab davrda bo‘lajak o‘qituvchilarda madaniy muhitni rivojlantirishda madaniy dunyoqarashni shakllantirish judayam muhim hisoblanadi. Har bir bo‘lajak o‘qituvchi o‘zining shaxsiy madaniy dunyoqarashiga ega bo‘lgandagina o‘quvchilar orasida madaniy muhitni yarata olishi mumkin. Madaniy muhit - bu insonni o‘rab turgan va uning rivojlanishiga ta‘sir qiladigan e‘tiqodlar urf-odatlar va xatti harakatlar majmui hisoblanadi. Bu g‘oyaviy, diniy, idomatik, tarixiy, estetik, etnik, tarbiyaviy va ijtimoiy jihatlarni o‘z ichiga oladi. Madaniy muhitni belgilaydigan eng muhim elementlar qatoriga diniy e‘tiqod, oilaviy munosabatlar, til va ta‘lim kiradi.

Bo‘lajak o‘qituvchi shaxsining bilish jarayonlariga muvofiq tarzda madaniy dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiladigan didaktik vositalarni tanlash alohida pedagogik ahamiyatga ega. Qadriyatli munosabatlar pedagogik jarayonga yangicha yondashuvni talab qilmoqda. Buning uchun Oliy ta‘lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchining madaniy dunyoqarashini rivojlantirishga har qachongidan ko‘ra e‘tibor qaratish zarurligi kuzatishlarimiz jarayonida ayon bo‘ldi.Buning uchun bo‘lajak o‘qituvchining mustaqil bilim olishi, o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan madaniy modellarni refleksiv yondashuv asosida o‘rganishi muhim hisoblanadi. Buning uchun bo‘lajak o‘qituvchilarning madaniy modellarni o‘zlashtirishga oid faoliyatini mustaqil tashkil etishga qo‘yiladigan talablarni ham aniqlash taqozo qilinmoqda. Madaniy modellarni o‘zlashtirish uchun bo‘lajak o‘qituvchilarda madaniy dunyoqarashni egallash maqsadlarini ilgari surish, buning uchun zarur didaktik vositalarni izlab topish va refleksiv yondashuv asosida tahlil qilish, madaniy modellarni o‘zlashtirishda muvaffaqiyatga erishish imkonini beradigan strategiyalarni izlab topish va o‘zining shaxsiy rivojlanish dasturlarini korreksiyalash va tuzatishlar kiritish kompetensiyasini shakllantirish lozim.

Oliy pedagogik ta‘limni rivojlantirishga yo‘naltirilga islohotlar bo‘lajak o‘qituvchining madaniy faoliyati va dunyoqarashini boyitishni ham talab qilmoqda. Bunday sharoitda birinchi navbatda bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘zining madaniy dunyoqarashini refleksiyalash ko‘nikmasini shakllantirish talab qilinadi. Madaniy-pedagogik nuqtai nazardan yondashganda bo‘lajak o‘qituvchilarning madaniy-pedagogik ko‘nimalarini refleksiyalashga alohida e‘tibor qaratilishi talab qilinmoqda. Ushbu turdagi refleksiyani amalga oshiradigan bo‘lajak o‘qituvchilar bilish mustaqilligiga ega bo‘ladilar. Ular madaniy munosabatlar jarayonida jamiyat a‘zolari bilan mahsuldor muloqot o‘rnata oladilar. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida madaniy muhitni yaratishda bo‘lajak o‘qituvchilarning madaniy dunyoqarashga ega bo‘lishi uchun madaniy qadriyatlar haqida chuqur ma‘lumotga ega bo‘lishi, xalqimizning o‘tmishi haqida bilimlarning mavjud ekanligi muhim hisoblanadi.

Oliy pedagogik ta‘lim muassasalari talabalarida refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish natijasida o‘zining madaniy pedagogik faoliyatini muntazam tahlil qilishi uchun qulay imkoniyat yaratiladi. Mazkur vaziyatda bo‘lajak o‘qituvchilar o‘zlarining shaxsiy-kasbiy, madaniy faoliyatni maqsadga yo‘naltirgan holda egallashga muvaffaq bo‘ladilar.

Ijtimoiy-madaniy muhit - bu jamiyatning madaniy aloqalarida faol ishtirok etadigan har bir kishi tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma‘lum bir ijtimoiy joy. Bu uning hayoti va ijtimoiy xulq-atvorining turli shartlarining kombinatsiyasi, bu boshqa odamlar bilan chuqur aloqalar va boshqa odamlar bilan o‘zaro ta‘sir, jamiyatning bir qismi o‘zaro ta‘siriga ochiq bo‘lgan muayyan tabiiy, haqiqiy va muhim muhitdir. Ijtimoiy munosabatlarni jadal rivojlantirish jarayonida ijtimoiy-madaniy muhitning ahamiyati katta, chunki bu millatning intellektual salohiyatini shakllantirish uchun sharoit yaratadi va jamiyatning ruhiy hayotini belgilaydi.

Keng ko‘lamda amalga oshirilayotgan ta‘lim islohotlari ta‘lim jarayonining ilg‘or texnologiyalarini o‘rganish va ularning o‘quv- tarbiya jarayoniga joriy etilishini taqozo qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, pedagoglardan ta‘lim sohasiga texnologik yondashuvni, pedagogik texnologiya usulini egallashni va hududimizning milliy, ma‘naviy-madaniy xususiyatlarini va an‘analarini hisobga olgan holda pedagogik amaliyotda qo‘llash va ularni rivojlantirishni talab etadi. Texnologik yondashuv doirasida yaratilgan didaktik loyihalash usullariga bo‘lgan munosabat o‘quv jarayonini samarali va ijodiy rejalashtirish, yangi fikrlar bilan boyitish, ularning natijalarini baholashga yordam beradi. O‘qituvchi(pedagog)larning o‘zida muloqot, bahs olib borish madaniyatini shakllantirish maqsadida pedagogik ta‘lim mazmuniga qo‘yiladigan talablar, ayniqsa, muhimdir. O‘zaro hamkorlik pedagogikasi o‘qituvchi (pedagog) va o‘quvchi-talaba o'rtasida ham fikrlilik, bir-biriga ishonch, o‘zaro yordam, ijodiy hamkorlik muhitini yaratadi. Bu esa. O‘z navbatida, yoshlar tomonidan haqiqiy insoniy qadriyatlarning anglab olinishi va e‘tirof etilishini kafolatlaydi. Milliy o‘zlikni anglashni butun olam insonparvarlik g‘oya va madaniyati, umuminsoniy qadriyatlar, ko‘p millatli xalqimiz an‘analaridan ayrim holda tiklab bo‘lmaydi. Yoshlaming iqtidori va bilimga chanqoqligi aynan shulardan quvvat oladi, ma‘naviyatga erishish va uning rivojlanishi shular bilan chambarchas bog‘liqdir. Milliy mafkura, psixologik va pedagogik fanlardan foydalanib, maqsadlar ketma-ketligini to‘g‘ri «texnologik» tanlay bilish o‘ta muhim. Nazariya nuqtai nazaridan tarbiya uslubiyotini ta‘riflash yetarli. Lekin texnologik jihatdan barcha tarbiya maqsadlarining qismlarini aniqlash va ularni ro‘yobga chiqarish yo‘llarini belgilash zarur bo‘ladi. «Oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida bo‘lg‘usi mutaxassislarning umumiy va kasbiy madaniyatini shakllantirish bo‘yicha jamlanma tarbiyaviy ishlar rejasi tarbiyaviy ishlarni dasturlashga misol bo‘la oladi. Ushbu dastur Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tasarrufidagi oliy o‘quv yurtlari olimlari va pedagoglarining mehnati mahsulidir.

Ma‘rifatli va madaniyatli dunyoning ta‘lim tajribasi shuni ko‘rsatadiki, shaxsning intellektual salohiyati, dunyoqarashi, shuningdek, uning ma‘naviy-axloqiy qiyofasining shakllanishida u mansub bo‘lgan muhit hamda unda qaror topgan ijtimoiy munosabatlaming ahamiyati katta bo‘ladi. Zero, shaxs mansub bo‘lgan muhitda uning tafakkuri, ma‘naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirish uchun zarur bo‘lgan obyektiv va subyektiv omillar mavjud. Shaxs faoliyat olib borayotgan muhit doirasida oliy va o‘rta maxsus ta‘lim muassasalarining ham alohida o‘rni bor. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida madaniy muhitni yaratishda bo‘lajak o‘qituvchilarning madaniy dunyoqarashga ega bo‘lishi esa judayam muhim hisoblanadi.

REFERENCES

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-fevraldagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonnning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmonidagi uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirishga oid ustuvor vazifalar.
10. R.G.Safarova. Pedagogikada madaniyatshunoslik yondashuvining rivojlanish tendensiyalari. // “Zamonaviy uzluksiz ta’limni raqamlashtirish: pedagogika sohasidagi zamonaviy tendensiyalarva rivojlanish omillari” mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami. Andijon 2022. B. 20-23
11. SafarovaRohatGaybullaevna.DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE PROFESSIONALS ON THE BASIS OF CULTURAL APPROACH. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(9), 17–22. https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/2470
12. H.T.Omonov, N.X. Xo’jayev, S.A. Madyarova, E.U. Eshchanov “Pedagogik texnalogiyalalar va pedagogic mahorat”. Toshkent 2009.B 30-35.
13. Толипов Ў.Қ., Усмонбоева М. Педагогик технология: назария ва амалиёт.-Т.:ЎзФА «Фан», 2005.-205 б.

O'QUVCHILARDA KOGNITIV KOMPETENTSIYALARNI SHAKLLANTIRISH

Babayeva Xulkaroy Usmonning qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, mustaqil tadqiqotchi

https://doi.org/10.5281/zenodo.7930867

Annotatsiya. *Ta'lim jarayonini takomillashtirishda elektron vositalarni zamonaviy yondashuv asosida ishlab chiqishning pedagogik-psixologik asoslari, mediata'lim resurslaridan foydalanishning nazariy asoslari, kognitiv kompetentsiyalarni shakllantirishning metodik ta'minoti yoritilgan*

Kalit so`zlar*: elektron vositalar, o'quvchilar, zamonaviy yondashuv, kognitiv kompetentsiyalar, bilish faolligi, ta'lim tizimi, mediata'lim*

Uzluksiz ta'lim tizimiga joriy qilinayotgan innovatsiyalar o'quvchilarda bilim, ko'nikma, malakalar bilan bir qatorda kognitiv kompetentsiyalarni shakllantirish muammosini metodik, pedagogikpsixologik jihatdan tahliliy o'rganish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Mazkur zarurat o'qitish jarayoniga zamonaviy yondashuvni joriy etishning didaktik omillarini aniqlash, metodik tizimni mul`timediali ta'lim vositalari, pedagogik texnologiya va elektron ta'lim muhitini integratsiyalash orqali takomillashtirishni talab etadi.

Ta'lim jarayonini takomillashtirishda elektron vositalarni zamonaviy yondashuv asosida ishlab chiqishning pedagogik-psixologik asoslari, axborot resurslarini yaratish talablari va tarkibiy strukturasi, mul`timediali elektron ta'lim resursi mazmuni, foydalanish metodikasi, mediata'lim resurslaridan foydalanish orqali o'quvchilarning kognitiv kompetentsiyalarini shakllantirish metodikasi muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy yondashuvlar asosida ta'lim mazmuniga mos keladigan darslik va o'quv-uslubiy qo'llanmalar, elektronta'lim resurslarini ishlab chiqishga qo'yiladigan didaktik talablar o'rganildi.

Elektron darslik quyidagi talablar asosida ishlab chiqiladi:

darslikning davlat ta'lim standartlariga muvofiqligi,

taqdim qilinayotgan materialning ilmiy asoslanganligi,

zamonaviy qarashlarga mosligi, nazariy xatolikka yo'l qo'yilmaganligi va mukammal shakllantirilganligi,

matnning to'liqligi, grammatik va orfografik xatolardan xoliligi, darslikning uslubiy ishlab chiqilganlik darajasi,

pedagogik texnologiyalarning qo'llanilganligi, milliy va ma'naviy qadriyatlarga mosligi,

bilimlarni mustahkamlash uchun mashqlarning mavjudligi, nazorat materiallarining (topshiriqlar, mashqlar, jumboq va o'yinlar) ishlab chiqilganligi, statik va dinamik tasvirlar, illyustrativ (foto, video, animatsiya va b.) materiallarning etarliligi,

o'quvchilar yoshining psixologik va pedagogik xususiyatlari hisobga olindi. Elektron darslikning ergonometrik talablarga javob berishi,

rang, shrift, monitor ekrani va shu kabilarga qo'yilgan talablarga mosligi,

elektron darslikni komp`yuterga o'rnatishning qulayligi, darslik bilan ishlash va boshqarishning qulayligi va boshqalar.

Elektron darslikda umumiy didaktik va metodik jihatlar ham inobatga olinadi, ya'ni:

ta'lim maqsadlarini tahlil qilish asosida mazkur o'quv predmeti mazmuni aniqlanadi;

o'quv predmeti axborot tuzilmasi ishlab chiqiladi va u o'quv elementlari tizimi ko'rinishida ifodalanadi;

kompetentsiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarning kognitiv kompetentsiyalarini shakllantirish hamda o'quv elementlarini o'zlashtirish darajasi avvaldan tashxislanadi.

Elektron darsliklar matnlarning bir qancha ko'rinishda bo'lishi bilan bosma matnlardan farqlanadi. Bu o'quvchilarning mavzuni samarali o'rganishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Elektron o`quv mambaar tarkibiy qismlardan iborat:

1) elektron interfaol darslik;

2) mustaqil ishlash uchun topshiriqlar (mustaqil ish topshiriqlari elektron interfaol doskada ishlash uchun ham mo'ljallangan);

3) mavzularga mos fil`mlardan lavhalar ;

4) mualliflar haqida.

Bu kabi innovatsion asosga ega bo'lgan ta'limiy texnologiyalar o'quvbilish faoliyatining jadallashuvi va integratsion jarayonlarning vujudga kelishi, mediata'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlaydi.

Mediata'lim resurslaridan foydalanishda o'qituvchi o'quvchilarning quyidagilarni amalga oshirishiga e'tibor qaratishi lozim:

har qanday kontekstda berilgan va turli shakldagi axborot resurslaridan foydalanish;

izlanayotgan mediata'lim resurslarining nomi, mavzusi va darslik yo'nalishiga mos kelish yoki kelmasligi, bularga berilgan izoh, tavsif va qo'shimcha didaktik materiallardan foydalana olish kompetentsiyasiga ega bo'lish;

mediata'lim resurslaridan olinayotgan material va manbalar, ya'ni barcha materiallarni darslikdagi mavzular bo'yicha tizimlashtirib foydalanishga o'rganish, berilayotgan verbal tarzdagi (matnli ko'rinishdagi) materiallarni vizual holatga o'tkazish kompetentsiyasini shakllantirish, ya'ni berilgan matn asosida ko'rsatmali manbalar yaratish;

berilayotgan vizual (chizma, surat, rasm ko'rinishidagi) materiallarga ishlov berish kompetentsiyasini shakllantirish; berilgan mediata'lim resursi materiallarini transformatsiya qilish, ya'ni berilgan materiallarning hajmi, mazmuni va shaklini darslik materialiga moslashtirish, qisqartirish yoki o'zgartirish holatlariga e'tiborli bo'lish;

berilayotgan informatsion (axborot) oqimning (yo'nalishlari)ni tahlil etish hamda kommunikatsion maqsadlarini bilish;

mediata'lim resurslaridan olingan materiallarni o'z so'zi bilan aytib berish, asoslash (argumentlash) orqali kommunikativ kompetentliligini shakllantirish.

Agar berilgan mediata'lim axborotlar resursi materiallarini argumentlash qobiliyatiga ega bo'lmasa, o'quvchi hech qachon berilgan resurs materiallarini darslik materiallariga uyg'unlashtira olmaydi.

Mediata'limning bir turi Internet tarmog'idan foydalanishdir.

Internet tarmog'ining ta'lim berish sohasida qo'llanilishi axborot texnologiyalaridan foydalanishning barcha imkoniyatlarini to'liq ochib beradi, sinf –dars tizimida mavjud bo'lgan kamchiliklar bartaraf qilinadi.

Kognitiv kompetentsiyalarni shakllantirishning metodik ta'minoti, zamonaviy texnologiya bosqichlarida virtual laboratoriyalar, o'quv videomuloqot – videokonferentsiyalarni tashkil etish o'qituvchilarning axborot madaniyatini rivojlantirish, o'quvchilarning ta'limiy-dasturiy vositalar bilan ishlash layoqatini shakllantirish imkoniyatini yaratadi.

O'quvchilarda fanga oid (xususiy) kompetentsiyalarni shakllantirish bevosita fanga oid ob'ekt, hodisa va jarayonlarni tushunish, tanish va izohlash, ular ustida kuzatish va tajribalar o'tkazish, o'qitish shakllari (dars, darsdan tashqari mashg'ulotlar, sinfdan tashqari mashg'ulotlar, ekskursiyalar)ni uzviy tizimlashtirish, o'qitish vositalari va metodlarini o'zaro integratsiyalash, sog'lom turmush tarzi va ekologik bilimlarni egallash orqali amalga oshadi.

Zamonaviy yondashuv asosidagi kompetentsiyaviy ta'limni tashkil etish jarayoni bilan an'anaviy o'qitish jarayonini taqqoslab, kompetentsiyaviy ta'limni joriy etish orqali samarali natijalarga erishish mumkin.

O'qitishda zamonaviy yondashuv asosida o'quvchilarda kognitiv kompetentsiyalarni shakllantirish muammosi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, pedagogika sohasida yaratilgan metodik qo'llanmalar va tavsiyalar mazmuni bilan nazariy tanishib chiqish asosida amaliy tajriba-sinov ishlarini samarali, maqsadga muvofiq tashkil etish bo'yicha ishlab chiqilgan dastur doirasida olib borilganligi, tajriba-sinov maydonlarida pedagogik sharoitlar mavjudligi, sifat darajasini belgilovchi mezonlarning ishlab chiqilishi olingan natijalarning matematik-statistik tahlili bilan ta'minlanadi.

Zamonaviy yondashuv asosida o'quvchilarning kognitiv kompetentsiyalarini shakllantirishga qaratilgan amaliy faoliyat mazmuni ishlab chiqish lozim.

Bunda:

zamonaviy yondashuvga asoslangan o'qitishning «komp`yuterli ta'lim metodi» raqamli didaktik vosita, avtomatlashgan ta'lim tizimlari, mul`timedia dasturlari asosida o'quvchilar tomonidan individual imkoniyat doirasida o'zlashtiradigan bilimlarning zamonaviy motivlar bilan qabul qilinishi (interoektsiya), fizika, kimyo, biologiya tabiiy fan sohalarida o'zaro aloqador bo'lgan tabiiy-ilmiy g'oya, qonuniyat va tushunchalar asosida kompetentsiyalarni

tarkib toptirish (sinektika), fanga doir xususiy kompetentsiyalarga asos bo'ladigan tushunchalar ilmiy-kognitiv jihatdan maqsadga muvofiq mantiqiy (kogerentlik) ketma-ketlikda o'zlashtirilishiga zamin yaratadigan elektron axborot-ta'lim resursi ishlab chiqiladi.

o'qitishda o'quvchilarning kognitiv kompetentsiyalarini shakllantirish jarayonida elektron ta'lim resursi zamonaviy texnologiya bosqichlari (motivatsion, maqsadni belgilash, empirik va nazariy modellashtirish, ijodiy, nazorat va baholash) asosida o'quv jarayoniga moslashtirildi va komp`yuterli ilmiy-metodik videokonferentsiyani qo'llash asosida o'qituvchilarning axborot madaniyatini rivojlantirish, o'quvchilarning ta'limiy-dasturiy vositalar bilan ishlash layoqatini integrallashgan testlar vositasida korrektsiyalash orqali takomillashtiriladi.

O'quvchilarda bilim, ko'nikma, malaka, fanga doir xususiy kompetentsiyalarni shakllantirish maqsadida zamonaviy yondashuvlarga asoslangan zamonaviy elektron ta'lim resursidan o'qitishning asosiy shakllari bo'lgan dars, darsdan tashqari ishlar va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda foydalanish yuzasidan metodik tavsiyalar tadqiqot davomida tayyorlangan uslubiy qo'llanmada o'z ifodasini topadi.

Elektron ta'lim resurslari bilan o'qitish zamonaviy yondashuvga asoslanib o'quvchilarning kognitiv kompetentsiyalarini shakllantirishni tashkil etish bo'yicha o'tkazilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari tadqiqotning belgilangan maqsad va vazifalariga muvofiqligini tasdiqladi va ta'lim samaradorligini orttirishga imkon yaratadi.

REFERENCES

1. Даниленко В.П. Русская терминология: Опыт лингвистического описания. – М.: Наука, 1977. – с. 246; Espersen O.A. Modern English Grammar. – London, – p. IV.
2. Victoria N. Webster’s New World Dictionary / N. Victoria. Third college Edition, 1988. – p. 1048.
3. Нелюбин Л.Л. Толковый переводоведческий словарь / Л.Л. Нелюбин. – М.: Изд–во МПУ “Народный учитель”, 2001. – с. 132.
4. Циткина Ф.А. Терминология и перевод // К основам сопоставительного терминоведения. – Львов: 1988. – с. 213.
5. П.П. Тимофеев, М. Н. Алексеев, Т. А. Софиано Англо-русский геологический словарь: Ок. 52 ООО терминов /Под редакцией П. П. Тимофеева и М. Н. Алексеева.— М.: Рус. яз., 1988. – С. - 414
6. Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. Учебное пособие для вузов / И.В. Арнольд. – 2–е изд., перераб. – М.: Просвещение, 2012. – с. 270.

ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА ГЕОЛОГИК ТЕРМИНИНОЛОГИЯДА ПОЛИСЕМИЯ ҲОДИСАСИ

Барно Турдикулова
ўқитувчи, Гулистон давлат университети, barnoturdikulova512@gmail.com.

https://doi.org/10.5281/zenodo.7930877

Аннотация. *Мақолада геологик терминларни структураси ҳақида фикр юритилиб, уларнинг талқинлари келтирилди. Полисемия ҳодисаси ҳамда геология соҳасида полисемия ҳодисасиниг ўрни келтирилган. Бу борада айрим олимларнинг фикрлари келтирилди. Ушбу терминологик тизимда қўлланиладиган полисемия, омонимия, синонимия, антонимия ҳодисалари аниқланди, ўзбек ва инглиз тилларида уларнинг қиёсий таҳлили ўтказилди.*

Калит сўзлар: *терминология, терминологик полисемия, неологизм, текстуравий тахлил, терминологик тизим.*

Терминнинг тилшуносликдаги асосий семантик функцияси соҳавий билимлардаги тушунчаларни тизимлаштириш ва илмий мулоқат учун самарали восита бўлиб хизмат қилишдир. Шу сабабли ушбу тил бирлиги сифатида ижтимоий функцияга эга. Термин ҳам оддий сўз каби структур–семантик, функционал – семантик жиҳатдан ўзига хос хусусиятларга эга бўлиб, полисемия, омонимия, синонимия, антонимия ҳодисалари билан корреляцион тарзда тавсифланади.

Чоғиштирилаётган тилларда геология соҳасига оид терминларнинг полисемантик муносабатлари экстралингвистик омиллар натижасида бир терминнинг турли соҳалар лексикасида қўлланиши билан изоҳланади. Кўп маънолилик геологик терминлар ичидаги жинс–тур муносабатларини ўрнатиш имконини беради. Шунингдек, илмий йўналиш ичидаги турли тармоқларга ишора қилади. Масалан, геология соҳасида қўлланиладиган инглизча culm термини ботаникада поя маъносини, геологияда эса қоя, чўққи маъносини, геодезияда кўмирли чанг маъноларини ифодалаб келади. Тилшуносликдаги мазкур ҳодиса соҳалараро полисемия ҳодисасининг пайдо бўлишида фанлараро тушунчаларнинг бир–бирига ҳамоҳанг тарзда қўлланилиши билан изоҳланади. Яъни, геология соҳасига оид муайян термин ва лексемалар табиий фан соҳалари кесимида полисемиянинг пайдо бўлишига олиб келади десак, муболаға бўлмайди.

Тилшуносликда кўп маъноли сўзнинг семантик тузилиши ажралмас бирлик сифатида эмас, балки, бир тушунчани англатиши шарт бўлмаган бирлик сифатида намоён бўлади. Маълумки, соҳага оид изоҳли ёки баъзи терминологик луғатларда аксарият сўзлар бир нечта тушунчаларни ифодалаб келади ва шу аснода муайян маънолар сонига эга бўлади. Бир неча маънога эга бўлган сўз полисемантик (кўп маъноли) лик хусусиятини, сўзларнинг бир нечта маънога эга бўлиш қобилияти полисемия термини билан изоҳланади. Юқорида келтирилган илмий–назарий хулосаларга қарамасдан терминшуносликдаги полисемия жуда муаммоли ва баҳс–мунозарага бой масалалардан бири ҳисобланади. Чунки, аксарият олимлар бу ҳодисани терминология учун мақбул бўлмаган ва унинг қонуниятларига зид бўлган ҳодиса сифатида инкор этишади ва моносемияни “намунали” терминларнинг асосий хусусиятларидан бири сифатида изоҳлашади. Бу эса уни умумий лексикада

қўлланиладиган сўзлардан ажратиб туради. Гарчи, термин худди шундай омонимия, синонимлар ва полисемия билан боғлиқ бўлиши ҳам мумкин.

Терминологик омонимия соҳавий билимларнинг кесишувида бир хил товушли терминологик қобиқдан, яъни, бир хил лексик шаклдан фойдаланиш асносида намоён бўлади ва аслида, у бошқа-бошқа мазмунни англатиб келиши билан изоҳланади. Масалан: ***reef:*** *1. Риф; 2. Минерал кон; 3. сув остидаги ёки сувдан озгина чиқиб турувчи қоя*. Терминологик омонимия ҳодисасини терминларнинг контекстуал муҳити ва уларнинг терминологик тизимларга мансублиги орқали ҳам кузатиш мумкин. Мисол учун шу ўринда инглизча **spread** омоним терминини келтиришни ўринли деб биламиз.Ушбу омоним терминнинг қуйидаги маънолари мавжуд: 1. *зилзилаларни ўрганиш*; 2. *Дарё, ботқоқ ёки кичик кўл. 3. Кесиш пайтида тошни текислаш* (таржима муаллифники). Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, омонимик тил бирликлари лексик жиҳатдан полисемияга ўхшаб кетсада, умумий лексика билан солиштирганда, терминологик полисемия ҳодисаси терминнинг номинатив-дефинитив ҳамда сигнификатив функциясини таъминлайдиган муҳим хусусиятларида имкониятлари чекланган десак муболаға бўлмайди.

Хулоса қилиб айтганда полисемия ҳар бир тилда мавжуд аномалия эмас, балки аксарият тилларда учровчи универсалиядир. Бироқ, қиёсланаётган тиллардаги аксарият термин–сўзлар бир нечта маъноларни ва тушунчаларини ифодалаб келади. Шуни ҳам таъкидлаш керакки, тилнинг ифода воситаларига бойлиги кўп жиҳатдан унда полисемиянинг қай даражада ривожланганлигига узвий боғлиқ.

REFERENCES

1. Даниленко В.П. Русская терминология: Опыт лингвистического описания. – М.: Наука, 1977. – с. 246; Espersen O.A. Modern English Grammar. – London, – p. IV.
2. Victoria N. Webster’s New World Dictionary / N. Victoria. Third college Edition, 1988. – p. 1048.
3. Нелюбин Л.Л. Толковый переводоведческий словарь / Л.Л. Нелюбин. – М.: Изд–во МПУ “Народный учитель”, 2001. – с. 132.
4. Циткина Ф.А. Терминология и перевод // К основам сопоставительного терминоведения. – Львов: 1988. – с. 213.
5. П.П. Тимофеев, М. Н. Алексеев, Т. А. Софиано Англо-русский геологический словарь: Ок. 52 ООО терминов /Под редакцией П. П. Тимофеева и М. Н. Алексеева.— М.: Рус. яз., 1988. – С. - 414
6. Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. Учебное пособие для вузов / И.В. Арнольд. – 2–е изд., перераб. – М.: Просвещение, 2012. – с. 270.

УМУМУТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИДА ТЕХНОЛОГИЯ ФАНИНИ ЎҚИТИШГА КОМПЕТЕНТЛИК ЁНДАШУВ

[1]Даминова Раъно Баситовна, [2]Азимхўжаев Мухаммадбобур Азиз ўғли, [3]Абдужабборова Шоирахон Икрам қизи

[1]Низомий номидаги ТДПУ Профессионал таълим методикаси кафедраси катта ўқитувчиси

[2,3]Низомий номидаги ТДПУ Профессионал таълим факультети ТМЖ-101 гуруҳ талабалари

https://doi.org/10.5281/zenodo.7930896

Аннотация. *Мақолада компетентлик тушунчаси ва Технология дарсларини ташкил этишга компетенциявий ёндашув моҳияти очиб берилган.*

Калит сўзлар*: Компетентлик, компетентлик ёндашув, таълим жараёни, таълим натижаси.*

Компетентликнинг мавжудлиги тўғрисида инсон меҳнатининг натижасига қараб баҳо берилади. Ҳар бир соҳа мутахассисининг компетентлилик даражаси унинг бажарган иши шу касбий фаолиятнинг якуний натижасига қўйиладиган талабларга қай даражада жавоб беришига қараб белгиланади.

Таълим жараёнини компетентлик ёндошувига йўналтириш таълимда методик шарт-шароитлар, янги педагогик технологияларнинг мазмуни ва қўлланишини қайтадан кўриб чиқиш ва ишлаб чиқишни талаб этади, чунки компетентликлар ҳеч бир фан бўйича на билимларга ва кўникмаларга таалуқли эмас. Анъанавий таълимда асосий эътибор таълим олувчининг маълум бир билим, кўникма ва малакалар тўпламини эгаллашига қаратилган бўлганлиги сабабли, бугунги кунда чуқур билимларга эга бўла туриб, уларни зарурат ёки имконият пайдо бўлганда, керакли вақтда ва керакли жойида ўз ўрнида қўллай олмайдиган одамларни учратиш мумкин.

Шу билан бирга, компетентликни билимларга ёки кўникма ва малакаларга қарама-қарши қўйиш ҳам мумкин эмас. Компетентлик тушунчаси билим ёки кўникма ёки малака тушунчаларига нисбатан кенгроқ, компетентлик уларни таълим натижаси сифатида ўз ичига олади (лекин бунда компетентлик билим, кўникма ва малакаларнинг оддий йиғиндиси эмас, бир мунча бошқачароқ мазмундаги тушунчадир). Компетентлик тушунчаси нафақат когнитив ва операцияли-технологик, балки, мотивацион, ахлоқий, ижтимоий таркибий қисмларни ҳам ўз ичига олади.

Юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда, таълим жараёнининг ҳам мазмунини, ҳам шаклларини бараварига ўзгартириш зарур. Бунда ўзгартирилган шакллар таълим олувчиларга маълум бир компетенциялар бўйича билим бермасдан, балки, бутун таълим жараёни давомида улар асосида фаолият олиб боришларини таъминлаши керак. Яъни, таълим олувчи навбатдаги кўникмалар тўпламини шакллантириш йўли билан бўлажак касбий фаолиятига тайёрланиши эмас, балки, компетенцияларни шу ерда ва ҳозир сингдириб бориши керак. Шунинг учун компетентлик таълими натижасида қуйидагилар таъминланиши керак:

−ўз-ўзини ҳаракатга келтириш манбаи сифатида таълим олишга ички мотивациянинг мавжуд бўлиши;

−яхлит фаолиятни эгаллаш шарти сифатида таълим жараёнида ўз-ўзини ташкиллаштириш қобилияти;

−ҳар бир одамга ўзининг у ёки бу ўқув материалини ўзлаштира олиш даражасини аниқлаш имконини берувчи ўз-ўзини дифференциациялаш (ўз даражасини аниқлай билиш) қобилияти;

−таълим олувчи томонидан шахсий аҳамиятга эга бўлган натижаларга эришишлик;

−таълим жараёнининг барча субъектлари орасидаги ўзаро боғланган самарали фаолиятнинг мавжудлиги.

Шу билан бирга, компетентликка йўналтирилган таълимнинг метод ва технологиялари маълум бир шароитларда шакллантирилган қобилиятларни бошқа бир шароитларга осон кўчиши ва мослашувчанлигини таъминлаши керак, яъни “ноадаптив фаоллик” хусусиятини ҳосил қилиши керак.

Компетентлик ёндошуви таълим сифатини баҳолаш учун ҳам жуда муҳим ҳисобланади, чунки, таълим олувчи томонидан эришиладиган асосий таълимий натижа – компетентлик ҳисобланади, унинг асосий кўрсаткичлари эса, бир томондан таълим стандартларининг меъёрий талабларига мувофиқлиги, иккинчи томондан, шахснинг ва турли ижтимоий гуруҳларнинг эҳтиёжларига мослигидир.

Компетентликнинг биринчи таркибий қисми меъёрий ҳужжатларда (Ўзбекистон Республикаси қонунлари, ДТС ва б.) белгилаб қўйилган таълим натижаларидан иборат. Иккинчи таркибий қисмини ижтимоий талаблар ва эҳтиёжлар белгилайди, бу қисм жамиятнинг ривожланишига мутаносиб равишда универсал, ўзгарувчан бўлиб, ўзгартиришлар ва тузатишлар киритилиб турилади.

Компетентлик қуйидаги белгилар билан тавсифланади:

− ҳар қандай муайян вазиятда, унинг турли хил жиҳатларини ҳисобга олган ҳолда билимларни ўз ўрнида ва тезкорлик билан тўғри қўллай билиш;

− қарорларни қабул қила билишга қодирлик ва тайёрлик, шу билан бирга, мазкур вазият учун энг мақбул қарор вариантини танлай олиш;

− ижтимоий ҳаракатларни ташкил этиш ва бунинг учун барча имкониятларни ишга сола билиш;

− фаолият доирасида бошқа одамлар билан ўзаро муносабатларни аниқ мақсадларни кўзлаган ҳолда ва мақсадга мувофиқ, мақбул тарзда ўрната олиш имконини берадиган коммуникатив кўникмалар;

− муайян маънавий қадриятларга, дунёқарашга, умуммаданий ва ахлоқий сифатларга эгалик, фаолиятга интилиш ҳиссининг мавжудлиги;

− ўзининг ижодий имкониятларини ривожлантиришга, фаолиятнинг янги усулларини эгаллашга интилиш.

Йигирма биринчи асрда постиндустриал ва глобаллашув шароитида жамиятда яшаши ва меҳнат қилиши керак бўлган олий таълим муассасаси битирувчиси эга бўлиши керак бўлган асосий сифатларни қуйидагича таърифлаш мумкин:

- келажакда ҳаётда ўз ўрнини топа олиши учун керакли билимларни мустақил равишда эгаллаб борадиган ва амалий фаолиятида турли муаммоларни ҳал этишда улардан моҳирона фойдалана оладиган, ҳаётнинг ўзгарувчан вазиятларга тез мослашадиган бўлиши;

- мустақил равишда танқидий мушоҳада юрита оладиган, ҳаётида вужудга келадиган қийинчиликларни кўра биладиган ва уларни муваффақият билан ҳал этиш

йўлларини излашда замонавий технологияларни қўллай билиши, янги ғояларни амалга ошира оладиган, ижодий фикрлайдиган бўлиши;

- ахборот билан ишлай оладиган бўлиши (тадқиқот учун керакли бўлган масалалар, фактларни йиға биладиган, уларни таҳлил қила оладиган, муаммоларни ҳал этиш фаразларни қўя оладиган, зарур бўлган ахборотни умумлаштириш ва бир-бирига ўхшаш ёки муқобил вариантларини таққослашларни амалга ошира оладиган, статистик қонуниятларни аниқлай оладиган, асосланган хулосаларни шакллантира оладиган ва улар негизида янги муаммоларни аниқлай биладиган ва ҳал эта оладиган бўлиши);

- турли ижтимоий гуруҳларда осон мулоқатга киришиб кета оладиган, ҳар хил зиддиятли вазиятларнинг олдини ола биладиган ва бундай вазиятлардан оқилона чиқиб кета оладиган, турли соҳаларда ҳамжиҳатликда ишлай оладиган бўлиши;

- шахсий ахлоқий, интеллектуал ва маданий даражасини такомиллаштириш устида мустақил ишлай оладиган бўлиши.

Шу билан бирга, талабаларнинг бундай сифатларга эга бўлишидан уларнинг ўзлари ҳам, жамият ҳам, давлат ҳам тенг баробар манфаатдордир, демак, ушбу сифатлар у ёки бу даражада таълимнинг шахсга, жамият ва давлатга оид эҳтиёжларини ифодалайди.

REFERENCES

1. Муслимов Н.А., Гаипова Н.С. Бўлажак ўқитувчилар касбий компетентлигини шакллантиришда касб таълими мазмунини лойиҳалаштиришнинг аҳамияти. Олий ва Ўрта махсус, касб-ҳунар таълим тизимида мустақил таълим: муаммо ва ечимлар. Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Гулистон: ГулДУ. 2012 йил. 35-37 бетлар
2. Қўйсинов О.А. Компетентли ёндашув асосида бўлажак ўқитувчиларнинг касбий-педагогик ижодкорлигини ривожлантириш технологиялари: Дис. ... пед. фан. док. – Тошкент: 2019. – 221 б.

УМУМИЙ ЎРТА ТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИДА ТАЪЛИМИЙ-МАДАНИЙ МУҲИТНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ЎҚУВЧИЛАРДА ИЖОДИЙ ТАФАККУРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИМКОНИЯТЛАРИ

Гаипов Дилшод Жумабекович
Нукус давлат педагогика институти “Педагогика” кафедраси катта ўқитувчиси, PhD

https://doi.org/10.5281/zenodo.7930910

Аннотация. *Ушбу мақолада ўқувчиларнинг ижодий тафаккур қилишга ўргантиш йўллари ва уларни маданий-таълимий муҳитни ривожлантиришда қўллаш, ўқувчини мустақил ижодий фикрлаш, изланишга ўргатишнинг эвристик методлари ҳақида маълумотлар берилган. Шунингдек ўқувчиларда ижодий тафаккурни, ижодий изланишларни ривожлантириш учун турли ижодий фаолиятлар тавсия қилинган.*

Калит сўзлар: *умум таълим мактаблари, маданий муҳит, ўқувчилар, ижодий тафаккур, ижодий фаолият, эвристик методлар, когнитив методлар.*

Умумий ўрта таълим мактабларидаги таълимий-маданий муҳитни шакллантириш натижасида ўқувчилар аста-секин ижод оламига кира бошлайдилар. Бу эса ўқувчиларнинг таълим муҳитида яшашлари, сўзлардан кўпроқ фойдаланишлари, яъни уларнинг луғат бойлигини оширишга кўмаклашади. Бунинг натижасида ўқувчилар ўз-ўзлари ва атрофдагиларга саволлар бера бошлайдилар. Ҳиссиётлари доирасида мавжуд воқеликни идрок этиш, тушуниш, кўришга муваффақ бўладилар. Бу жараёнда туғиладиган фикрлар, ҳис-туйғулар ўқувчининг таълим жараёнида қўлга киритган натижаси ҳисобланади. Бундай машқлар ўқувчиларга турли нуқтаи назарлардан туриб воқелик ҳақида фикрлаш ва уларни тушуниш лаёқатини шакллантиради. Ўқувчи ўзининг билиш жараёнига нафақат ақлий, балки ҳиссий натижаларни ҳам уйғунлаштириш имкониятига эга бўлади.

Ўқувчиларнинг ижодий тафаккур йўли уларнинг индивидуал ривожланишини ҳисобга олишни тақозо қилиб, бу ўз навбатида, таълим олувчиларнинг имкониятлари, қизиқишлари, майлларидан келиб чиққан ҳолда ўқув жараёнини табақалаштиришни талаб қилади. Мазкур жараёнда ўқитувчи ўзининг касбий маҳорати доирасида ўқувчиларга нисбатан индивидуал ёндашувни татбиқ эта олиши муҳим аҳамиятга эга.

Эвристик методлар когнитив методлар билан уйғун тарзда қўлланилади. Ўқитишнинг когнитив методлари ҳам эвристик топшириқлар каби ўқувчини мустақил ижодий фикрлаш, изланишга ундайди. Бундай методлар сирасига:

- ўқувчиларни ижодий фаолликка ундовчи методлар;
- фикрий фаолиятга олиб кирувчи методлар;
- ўқувчиларни образли ҳамда рамзий белгилар ёрдамида ишлашга жалб қилувчи методлар;
- эвристик саволлар билан мурожаат қилиш методи;
- қиёслаш методи;
- далилларни далиллардан фарқлаш методи;
- эвристик кузатиш методи;
- эвристик тадқиқот методи;
- тушунчаларни лойиҳалаш методи;
- қоидаларни лойиҳалаш методи;
- фаразларни илгари суриш методи;

- башорат қилиш методи;
- хатолар устида ишлаш методи;
- назарияларни лойиҳалаш методи кабилар киради.

Биз қуйида уларнинг баъзилари устида батафсил тўхталамиз:

Эмпатия, яъни ўқувчиларни ижодий фаолликка руҳлантирувчи методлар ўқувчининг атрофдагилар одамлар, нарса ва буюмларнинг ҳолатини ҳис этишларига кўмаклашади. Ҳиссий-образли тасаввурлар ёрдамида ўқувчилар ўрганилаётган объектни англашга муваффақ бўладилар, унинг ички ўзига хос жиҳатларини ҳис этадилар ва тушунадилар. Мазкур методни муваффақиятли қўллаш орқали ўқитувчилар ўқувчиларнинг ҳолатини аниқлаш, уларнинг туйғуларини ҳис этишга эришадилар. Дастлаб бу метод ўйин тарзида амалга оширилади. Мазкур жараёнда ўқувчилар қувонч, завқланиш ҳиссини туядилар. Таълим натижалари олиниб, унинг моҳияти англангандан кейин эса ўқувчилар ушбу методга ўқитиш методи сифатида жиддий ёндаша бошлайдилар. Мазкур метод ёрдамида ўқувчилар дунёни, ҳайвонот ва ўсимликлар оламини англайдилар, уларнинг дунёқарашида туб ўзгариш юз беради. Табиатга нисбатан алоҳида муҳаббат билан қарайдилар. Бу эса уларнинг эртаклар тўқишларига замин ҳозирлайди. Болалар аста-секин ижод оламига кира бошлайдилар. Бу эса ўқувчиларнинг таълим муҳитида яшашлари, сўзлардан кўпроқ фойдаланишлари, яъни уларнинг луғат бойлигини оширишга кўмаклашади. Бунинг натижасида ўқувчилар ўз-ўзлари ва атрофдагиларга саволлар бера бошлайдилар. Ҳиссиётлари доирасида мавжуд воқеликни идрок этиш, тушуниш, кўришга муваффақ бўладилар. Бу жараёнда туғиладиган фикрлар, ҳис-туйғулар ўқувчининг таълим жараёнида қўлга киритган натижаси ҳисобланади. Бундай машқлар ўқувчиларга турли нуқтаи назарлардан туриб воқелик ҳақида фикрлаш ва уларни тушуниш лаёқатини шакллантиради. Ўқувчи ўзининг билиш жараёнига нафақат ақлий, балки ҳиссий натижаларни ҳам уйғунлаштириш имкониятига эга бўлади. Ушбу метод ўқитувчилар томонидан кам қўлланилади, бироқ у эвристик таълимнинг самарали методи бўлиб, ўқувчиларнинг фойдаланмаётган имкониятларини рўёбга чиқаришга хизмат қилади. Бошланғич синф ўқувчилари учун хос бўлган хусусиятлардан бири кузатган воқеликларини ҳис этиш, улар асосида ўз кечинмаларини бойитиш, ўзларини ўраб турган муҳитни билиш ва ҳис этишга интилишдир.

Ўқувчиларни образли кўриш орқали фаолликка ундовчи метод объектларни ҳиссий-образли тадқиқ этишларига кўмаклашади. Ўқитувчи ўқувчиларга объектларнинг белгилари, шаклига назар ташлаш, уларда кўрган образларини чизиш, уларнинг нимага ўхшашлигини тасвирлаш ҳақида топшириқ беради. Ёки ўқувчиларга ўзбек мумтоз мусиқасига оид асарларни тинглаш вазифасини топширади. Улар мазкур топшириқларни бажариб бўлганларидан кейин ўқитувчи саволлар беради. “Бастакор ушбу мусиқа орқали нима демоқчи бўлган?”, “Сиз ушбу мусиқани тинглаганда нималарни ҳис этдингиз, тасаввурингизда нималар пайдо бўлди?”, “Ушбу мусиқанинг оҳанги қандай: тезми ёки сокинми?”. Шу билан бир қаторда ўқитувчи ўқувчиларга мусиқани тинглаганларидан кейин тасаввурларида қандай образ гавдаланганлигини чизиб кўрсатиш ҳақида топшириқ беради.

Фикрий фаолиятга олиб кирувчи методлар ўрганилаётган объектга бир вақтнинг ўзида ўқувчининг кўриш ва фикрлаш фаолиятини жалб этиш имконини беради. Шу асосда улар объектда мужассамлашган фикрни, унинг ўзига хослигини англашга муваффақ

бўладилар. Бу жараёнда ўқитувчи ўқувчиларда фаоллик кўрсатиш кайфиятини ҳосил қилиши лозим. Бу эса фаол ҳиссий-фикрий билиш фаолияти натижасида вужудга келади. Ўқитувчи ўқувчиларда фикрий фаолликни ҳосил қилиш учун қуйидаги саволлар билан мурожаат қилиши мумкин: “Муайян ҳодиса ёки предметнинг белгилари ёки келиб чиқиш сабабларини айтиб беринг?”, “Муайян нарса ёки буюмлар қандай тузилган, унинг ўзига хос жиҳатлари нималарда намоён бўлади?”. Ушбу методни қўллаш натижасида ўқувчиларда ноанъанавий билиш сифатлари таркиб топади.

Рамзий кўриш методи ҳақиқатни чуқур англашнинг ўзига хос усули ҳисобланади. Мазкур метод ҳақиқатни кузатиш ва билиш жараёни мазмунини ўзида мужассамлаштиради. Рамзий кўриш методи ўқувчиларга объектлар ва уларнинг рамзлари орасидаги алоқадорликни англаш имконини беради. Рамзлар ва унинг объектлари орасидаги алоқадорликнинг характерини тушунтиргандан кейин ўқитувчи муайян объектни кузатиш ва унинг ўзига хос белгиларини чизмалар, белгилар, сўзлар ёрдамида тасвирлашга оид топшириқлар беради.

Эвристик кузатиш методи ўқувчиларга кузатиш ёрдамида билимларни ўзлаштиришга эришиш, уларни конструкциялаш имконини беради. Кузатиш мақсадга йўналтирилган фаолият тури сифатида ўқувчиларнинг идрокини чархлаб, турли йўналишдаги объектлар ҳақидаги назарий билимларни ўзлаштиришга уларни тайёрлайди. Кузатиш билимлар манбаи, уларни ўзлаштириш йўли ҳамда турмушдаги воқеликни англаш усули ҳисобланади. Кузатиш фаолиятини амалга оширадиган ўқувчилар шахсий натижаларни қўлга кирита оладилар. Бундай натижалар сирасига:

- кузатиш жараёнида ўзлаштирилган ахборотлар;
- шахсий ҳаракатлар ва ҳис-туйғулар мажмуи киради.

Ўқувчининг ижодий фаолият даражаси унинг кузатишлари жараёнида мавжуд бўлган натижалар билан қўлга киритилган натижаларни ўзаро қиёслаш асосида аниқланади. Ўқитувчи берган маълумотлар билан бир қаторда аксарият ўқувчилар ўз кузатишлари давомида муайян объектлар ҳақидаги кўплаб қўшимча маълумотларга эга бўладилар. Шу асосда улар кузатиш ёрдамида янги ахборотларни эгаллайдилар ва ўз фаолиятларини лойиҳалаш имкониятини қўлга киритадилар.



1-расм. Эвристик ўқитиш жараёнида бошланғич синф ўқувчиларининг ўқув фаоллигини таъминлаш имконини берадиган методлар

“Атрофимиздаги олам” дарсларида экскурсия жараёнида ўқувчилар жонли ва жонсиз табиатни кузатишга муваффақ бўладилар. Кузатиш – ахборотларни ўзлаштириш, улар устида кичик тадқиқотлар ўтказишнинг энг қулай методи ҳисобланади. Масалан, 2-синф ўқувчилари билан “Қушлар нима учун қишда иссиқ ўлкаларга учиб кетадилар” мавзусида эвристик суҳбат ўтказиш мумкин. Дастлаб, ўқувчилар билан муайян режа асосида мактаб боғига саёҳат уюштирилади. Кузатиш режаси қуйидагича бўлиши мумкин:

- Сиз қайси қушларни кўрдингиз?
- Улар ҳақида билганларингизни ёзинг?
- Бу қушлар нима билан озиқланадилар?
- Нега улар орасидан битта қуш учмай қолди?
- Қайси қушлар учдилар?
- Уча олмай қолган қушга қандай ғамхўрлик қилиш мумкин? каби.

Кейинги машғулотда ўқувчиларга махсус энциклопедиялар ёки Интернет сайтидан қушлар ҳақида маълумот тўплаш вазифаси топширилади. Бундай топшириқлар машғулотлар, уларнинг босқичлари орасидаги узвийлик ва узлуксизликни таъминлашга хизмат қилади. Ўқитувчининг топшириғига кўра ўқувчилар қушлар ҳақида топишмоқларни излаб топадилар ёки уларни ўзлари тўқийдилар. Объектив воқеликни кузатиш ва таҳлил қилиш натижасида ўқувчилар муаммоларни кўра бошлайдилар.

Эвристик саволлар билан мурожаат қилиш методи ҳам ўқувчиларни ақлий-интеллектуал жиҳатдан ривожлантиришда муҳим аҳамиятга эга. Ушбу метод ёрдамида ўқувчиларда мулоқот, ўзини ўзи ривожлантириш, ахборотлар билан ишлаш каби компетенциялар тадрижий асосда муайян узвийликда рвожланади. Ўқувчиларга муайян воқеликлар, нарса-буюмлар ҳақидаги маълумотларни излаб топишлари ва таҳлил қилишлари учун ўқитувчилар қуйидаги саволлар билан мурожаат қиладилар. “Ким қушлар ҳақида ғамхўрлик қилади?”, “Қушлар қандай ҳимоя қилинадилар?”, “Қушлар нима билан озиқланадилар?”, “Улар нима учун қишда иссиқ ўлкаларга, ёзда Ўзбекистонга учиб келадилар?”, “Қушлар қачон кўпаядилар?”, “Қушлар табиатда қандай вазифаларни бажарадилар?”. Ушбу саволларга жавоб топиш учун ўқувчилар мантиқий фикрлайдилар, изланадилар ва таҳлилий фаолиятни амалга оширадилар.

REFERENCES

1. Маъмуров Б.Б. Ўқувчи шахсига йўналтирилган ўқув-билув жараёнини ташкил этишнинг педагогик шарт-шароитлари. Пед. фан. ном.дис. Автореферати.– Тошкент: 2009. – 26 б.
2. Маҳмудов М. Таълимни дидактик лойиҳалаш. Т.: Фан, 1999.-179 бет.
3. Сафарова Р.Г., Абдуллаева Б.С., А.Баҳромов ва бошқ. Бошланғич таълим концепцияси.. РТМ, –Т.: 2015.
4. Тожибоева Х.М. Ўқувчи-ёшларнинг ижтимоий фаоллигини ошириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). ... дисс. – Т., 2018. – 152 б.
5. Федоров К. П., Абрамян Г. В. Эвристические методы и методики обучения информатике в школах с углубленным изучением иностранных языков // Региональная информатика «РИ-2012»: Материалы юбилейной XIII Санкт-Петербургской международной конференции. 2012. С. 268–269.

ОЛИЙ ТАЪЛИМДА МУТАХАССИСЛИК ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

[1]Анаркулова Гулноза Мирзахматовна, [2]Нумонжанова Моҳинур Мансуржон қизи, [3]Нурмуродова Шаҳина Мирзоҳид қизи

[1]Низомий номидаги ТДПУ Профессионал таълим методикаси кафедраси доценти, пед.фанлари номзоди

[2,3]Низомий номидаги ТДПУ “Профессионал таълим” факультети ТМЖ -101 гуруҳ талабалари

https://doi.org/10.5281/zenodo.7930926

Аннотация. *Мазкур мақолада мутахассислик фанларнинг турлари ва уларни ўқитишга қўйилган талаблар талаблар ёритилган*

Калит сўзлар*: мутахассислик фани, кўникма, малака, политехник тамойил*

Замонавий ижтимоий - иқтисодий шароитда кадрларни тайёрлашни мукаммалаштиришнинг мухим шарт-шароити замонавий фан, техника ва технологияларнинг ютуқларига асосланган таълим тизимини ташкил қилишдан иборатдир.

Ҳозирги даврда таълим тизими олдида турган долзарб вазифалардан бири ўқитишда замонавий педагогик технологиялар ва ютуқлардан кенг фойдаланиш, уларни таълим тизимида жорий қилиб бориш хамда ривожланган мамлакатларнинг тажрибаларини мамлакатимиз таълим тизимига тадбиқ қилиш муҳим ҳисобланади.

Таълим муассасаларида малакали мутахассислар тайёрлаш сифатини кўп жиҳатдан мутахассислик фанларини самарали ўқитиш белгилайди. Мутахассислик фанларини ўрганишда кўпрок амалийлик юқори бўлганлиги, ишлаб чиқаришга яқинроқ ҳисобланганлиги умумтаълим фанларидан фарқли эканлигини кўрсатади.

Ишлаб чиқариш амалиётлари мутахассислик фанлари билан ўзаро боғлик ҳолда олиб борилади. Мутахассислик фанларидан ўқитиш услубларини танлаш ва ўқув мақсадларини белгилаш хам ўзига хосликни талаб этади. Мутахассислик фанларининг етакчи компоненти бўлиб «Фаолият усуллари» ҳисобланади. Шунинг учун хам мутахассислик фанларидан ўқув адабиётларини яратиш ва шу билан боғлик бўлган таълим мазмунини белгилашда, ўқув жараёнини ташкил этишда, ўқитишнинг самарали усулларини танлашда чуқур дидактик таҳлил ўтказиш лозим.

Мутахассислик фанлари ишлаб чиқаришнинг аниқ соҳалари бўйича, уларда аниқ мутахассислик хусусиятларини акс эттирувчи бевосита чуқур, пухта билимлар берувчи, тегишли кўникма ва малакалар хосил қилувчи жараёнларни қамраб олади.

Бундай фанлар жумласига ҳалқ хўжалигининг турли соҳалари: қишлоқ хўжалиги тармоқлари, саноат ишлаб чиқариш корхоналари, машинасозлик, транспорт, алоқа, ҳалқ ҳунармандчилик тармоқлари, маданият ва санъатнинг йўналишлари ва бошка соҳалар бўйича фаолият турларининг ўзига хос хусусиятларини бевосита намоён этадиган фанлар, уларнинг қисмлари киради.

Илғор технологиялар, янги техникалар ва фан ютуқларини ишлаб чиқаришга жорий этиш, халқ хўжалиги баъзи тармоқларининг ривожланишигагина эмас, балки барча соҳаларнинг (қурилиш, машинасозлик, қишлок хўжалиги, саноат, алоқа, хизмат кўрсатиш ва бошка) тараққиётига ва бошқариш, ташкил этиш, иқтисодиётга ҳам сезиларли таъсир кўрсатади.

Шунинг учун хам техника ва технологияларнинг ўзгариб ва янгиланиб бориши хар бир мутахассиснинг кенг дунёқараш ва чуқур билимга эга бўлишини, ҳамда бир неча хил юмушларни бажара олишини талаб этади.

Мутахассислик фанлари мазмуни муайян йўналиш ёки ихтисосликнинг тавсифига мос тушиши, яъни таълим олувчининг эгаллайдиган касби бўйича бажариладиган фаолият усулларини ўзида қамраб олиши керак. Таълим олувчиларда касбий - политехник ва касбий - техникавий тушунчаларни шакллантириш учун мутахассислик фанининг мазмунини белгилашда политехник тамойилга риоя қилиш лозим.

Касбий политехник тушунчаларга қуйидагилар киради: маълум бир ишлаб чикариш сохаси буйича жихозлар ва ускуналар тузилишлари, ишлаши ва уларни лойиҳалаш асослари, ишлаб чиқариш технологиялари, технологик жараёнларни автоматлаштириш, касбий фаолиятни ташкил этишнинг илмий асослари, соҳа бўйича меҳнат фаолиятининг иқтисодий омиллари ва х.к.

Агар таълим олувчи мутахассислик фани бўйича кўп турдаги машина ва жиҳозлар турлари, уларни ҳисоблаш, лойиҳалаш, таъмирлаш асослари ёки технологик жараёнларни ўрганишлари керак бўлса, у ҳолда ўқув материалида соҳа бўйича намунавий машиналар ва жиҳозларнинг тузилишлари, ишлаш тартиби ёки мавжуд технологик жараёнлар бажарилишининг принципиал схемалари берилиши керакки, таълим олувчилар шулар асосида замонавий машиналар конструкцияларини ва технологик жараёнларнинг хусусиятларини оча олишлари керак.

Касбий-техникавий тушунчаларга эса аниқ бир ишлаб чиқариш соҳаси бўйича техникалар ёки технологик жараёнлар, муайян йўналиш бўйича бўлажак мутахассиснинг мехнат фаолияти, ҳамда касбий кўникма ва малакалар асосини ташкил этувчи билимлар киради.

Мутахассислик фанлари мазмун ва моҳиятига кўра қуйидаги гурухларга ажратилади:

Ўқув материалида техникага боғлик масалалар ёритилган мутахассислик фанлари. Буларга махсулот ишлаб чиқариш ва меҳнат жараёнида ишлатиладиган машиналар ва ускуналарнинг тузилиши, ишлаш принципи, таъмирланиши хамда ишлатиш қоидалари, уларнинг конструкцияларини такомиллаштириш, ҳисоблаш, лойиҳалаш, автоматлаштириш; меҳнат воситалари, мосламалар, асбоблар ва улар қисмларининг тузилиши; меҳнат объектлари ҳисобланган машина ва ускуналарни ўрнатиш, йиғиш, таъмирлаш, созлаш методлари ва усуллари; механизм ва деталларни қайта тиклаш хамда таъмирлашнинг замонавий усуллари, автоматик тизимлар ва экспериментал қурилмалар тузилишлари ва ишлаш тартиблари ёритилган ўқув материаллари киради.

Ўқув материалларида маҳсулот ишлаб чиқариш технологиясига боғлик масалалар ёритилган мутахассислик фанлари. Буларга алоҳида мутахассисликнинг бутунлигини тавсифлайдиган технологик ва меҳнат жараёнлари, технологик жараёнларни лойиҳалаш ва комплекс механизациялаштириш, автоматлаштириш, ишлаб чиқариш корхоналарини лойиҳалаш, янги технологияларни жорий қилиш ва ишлаб чиқиш, уларни амалга ошириш, назорат қилиш ва бошқариш тавсифлари; илмий тадқиқот ишлари ва тажрибалар олиб бориш, хавфсизлик қоидалари, ишлаб чиқариш санитарияси ва гигиенаси хамда меҳнат конунчилиги асослари киради.

Ўқув материалида хом ашё материалларига боғлик масалаларни ёритувчи мутахассислик фанлари. Буларга ишлаб чиқаришда қўлланиладиган турли материаллар ва хом ашёларнинг физикавий-кимёвий хусусиятлари, механик - технологик хоссалари экспериментал аниқлаш ва тайёрланиш технологиясини ёритувчи ўқув материаллари киради. Шунингдек хом ашё материалларига ишлов беришдаги жараёнлар, хисоблашлар ва экспериментал изланишларни йўналтирган ўқув материалларни ўз ичига олади.

Ишлаб чиқаришни ташкил этиш, бошқариш ва иқтисодиёти тўғрисида ўқув материалларини ўзида қамраб олган мутахассислик фанлари. Ушбу гуруҳга барча мутахассислик бўйича малакали кадрларни тайёрлашда ўрганиладиган (ишлаб чиқариш, меҳнатни ташкил этиш ва иктисодиёт асослари) ўқув материаллари, хўжалик ва ишлаб чиқаришни ташкил этиш, юритиш, бошқариш, ахборот технологиялари, илғор услубларни қўллаш ва бошқаларни киритиш мумкин.

Мутахассислик фанларини ўқитиш ўзининг кўпгина белгилари, яъни мазмуни, максад ва вазифалари, методлари, воситалари, ташкил этилиши, ўтказилиш жойи, жиҳозланиши, шакллари, тузилиши, ажратиладиган вақти билан хам умумтаълим ва умумкасбий фанлардан кескин фарқ қилади.

Мутахассислик фанларини ўрганишда чизмалар, жадваллар, хисоблашлар ва ўлчашларни ўтказиш каби алоҳида кўникмаларни шакллантирувчи лаборатория - амалий машғулотларни, техника ва технологияни бевосита ёки билвосита тасаввур этишга ёрдамлашадиган ишлаб чиқариш машғулотларини хам ташкил этишга гўғри келади. Кейинги хол эса, таълим олувчилардан махсус йўналтирилган ихтисослиги бўйича кўникма ва малакаларнинг маълум даражада шаклланганлигини талаб этади.

Шунинг учун мутахассислик фанлари ўқув - услубий таъминотини ишлаб чиқиш, ўқув жараёнини ташкил этишда, ўқитишнинг таълимнинг самарали усулларини танлашда, таълим мазмунини белгилашда ўзига хос ёндашувни талаб этади.

REFERENCES

1. Толипов Ў.Қ., Анаркулова Г.М. Олий ва профессионал таълимда мутахассислик фанларни ўқитиш методикаси. Ўқув қўлланма. Т.: Инновация -Зиё. 2021й. -248.
2. Исмаилова З.К. Махмудов П.М. Эргашев О.К. Махсус фанларни ўқитиш методикаси. Дарслик. 2020 й.. - 262

ЧЕТ ТИЛЛАРНИ ЎҚИТИШНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ

Атаджанова Шахноз Аббасовна
ТДПУ п.ф.н .,доценти

https://doi.org/10.5281/zenodo.7930948

Аннотация. *Мазкур мақола янги Ўзбекистон шароитида нофилологик олий таълим муассасаларида чет тил ўқитишнинг долзарб масалаларига бағишланган.Нофилологик олий таълим муассасаларида чет тил таълимида талабаларнинг касбий малакаларини ривожлантириш бугунги куннинг муҳим талабларидан биридир.*

Калит сўзлар *: чет тил, касбий малака , таълим-тарбия, муаллим, мутахассис,ўқитиш,ўргатиш.*

Янгиланаётган Ўзбекистон шароитида бу жараён иштирокчилари бўлмиш муаллимлар алоҳида ўрин эгаллайди. Чунки вояга етиб келаётган ёш авлод муаллимлар қўлида таълим ва тарбия оладилар. Баркамол авлодни вояга етказишда таълим- тарбия масаласи муҳим аҳамият касб этади. Юртимизда ҳалқаро алоқаларн ривожланиши эса таълим тизимида чет тил ўқитиш/ўргатиш масаласига жиддий эътибор қаратилмоқда.

Янги Ўзбекистон таълим тизимида чет тилларни эгаллаш “Чет тилни эгаллашнинг умумевропа компетенцияларини : ўрганиш, ўргатиш, баҳолаш“(Страсбург/CEFR) (1) системаси асосида тузилган бўлиб, у Европа даражалар тизимига монанд келади, яъни, инглиз тилида: Common European framework of references for Languages Learning ,Teaching, Assesment сифатида талаффуз этиладиган ушбу дефиниция таълим тизимининг барча босқичларида чет тилларни узлуксиз ўрганишни ташкил қилишга қаратилади.Чет тиллари бўйича таълимнинг барча босқичлари битирувчиларининг тайёргарлик даражасига қўйиладиган талаблар CECR ва IELTS (International English Language Testing System) системаси учта асосий даражани ўз ичига олади -A,B,C. Чет тил ўқув предмет сифатида, она тилидан фарқ қилиб, муайян принципларга асосланиб ўргатилади ва ўқитилади:

1. Чет тил барча таълим босқичларида мажбурий ўқув предмети мақомида ўргатилади ва ўқитилади.

2. Чет тилга бўлган таълимий имконият муҳим эканлиги тан олинмоқда.

3. Чет тил таълими ва ўкитиш мазмунининг уч компоненти чет тил ўрганишга имкон беради.

Чет тилнинг мулоқот воситаси сифатида ўргатилиши уни ўқув предмети сифатида ўкитишнинг янги шакл ва моделларига йўналтиради.

Шуни таъкилдлаш жоизки, чет тилнинг функцияси, давлатнинг иқтисодий, маданий-маънавий, ташқи иқтисодий фаолиятларига сабаб бўлади ва жараёнларни ҳаракатга келтиради . Нофилологик ОТМ да чет тил амалий ўргатилади, бу чет тил ўқув жараёнининг мазмуни ва технологияси талабанинг бўлажак касби билан боғлиқ бўлишини тақозо этиб, анъанавий таълимга таянади ва замонавий ахборот олиш майдонини кенгайтиришни талаб этади.

Чет тилни амалий ўрганишда ўзга тилдаги нутқ фаолияти турлари (тинглаб тушуниш, гапириш, ўқиш, ёзув)ни эгаллаш назарда тутилади, яъни ўзгалар фикрини идрок этиб тушуниш ва ўз фикрини оғзаки ва ёзма ифодалаш ҳақида сўз юритилмоқда.

Нофилологик ОТМ да чет тилни амалий эгаллаш мақсади талабаларда чет тилни

амалий билишнинг асосларини ҳосил килишдир. Талабаларнинг касбий малакаларини ривожлантиришда чет тил восита бўлиши керак.

Бўлажак мутахассисларни тайёрлашда чет тилининг аҳамияти ошиб бормоқда. Чет тил ўқитишнинг психологик, педагогик ва методик аспектлари нафақат хориж олимлари, балки юртимиз олимлари томонидан ҳам ўрганиб келинмоқда (П.И.Образцов, Ф.В.Рожкова, О.Б.Тарнопольский, Elaine Campbell, Jereny Comfort,Ж.Ж.Жалолов,Т.Қ.Сатторов, Г.Маҳкамова ,С.С.Сайдалиев ва б.).

Шахснинг касбий малакаларини шакллантириш дидактик муаммодир. Талабанинг касбий малакаларини шакллантириш таълим жараёнида амалга ошириладиган узлуксиз давомли жараёндир. “Чет тил ўқув предмети”ни нофилологик ОТМ да амалий эгаллаш ягона мақсад бўлиб қолмасдан, уни ўрганиш талабаларнинг касбий малакаларини ривожлантиришга имкон берадиган восита ҳамдир.

Касбга йўналтириш – жамият эҳтиёжидан келиб чиққан ҳолда таҳсил олувчига маълум бир касб-ҳунар ўргатишнинг таълимий- маърифий жараёни бўлиб ҳисобланади.

Чет тилда нутқий кўникма ва малакалар шакллантирилади. Чет тил ўқув предметини ўрганиш шу тил ёрдамида ахборот олиш ва бошқаларга етказиш маъносини билдиради. Ўзлаштирилган ахборотлар талабаларнинг билим савияларини янада оширишдан ташқари уларнинг касбий малакаларини шакллантиришга ҳам хизмат қилади.

Нофилологик олий таълим муассасалари талабаларида касбий малакаларни ривожлантиришга қўйилган замонавий талаблар ўрганилганда, улар дуал таълим, масофавий таълим шаклларидан фойдаланишлари ҳам эътиборга олинади.

“Таълим тўғрисида”ги Қонунининг 16- “Масофавий таълим” деб номланувчи моддасида: “Масофавий таълим ўқув режалари ва ўқув дастурларига мувофиқ таълим олувчилар томонидан зарур билим, малака ва кўникмаларни ахборот-коммуникация технологияларидан ҳамда Интернет жаҳон ахборот тармоғидан фойдаланган ҳолда масофадан туриб олишга қаратилган. Масофавий таълимни ташкил этиш тартиби Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан белгиланади”-деб эътироф этилади.

“Таълим тўғрисида”ги Қонунининг 17- “Дуал таълим” деб номланувчи моддасида:”Дуал таълим таълим олувчилар томонидан зарур билим, малака ва кўникмаларни олишга қаратилган бўлиб, уларнинг назарий қисми таълим ташкилоти негизида, амалий қисми эса таълим олувчининг иш жойида амалга оширилади”-деб кўрсатилган.

Нофилологик олий таълим муассасалари талабаларида касбий малакаларни ривожлантиришга қўйилган замонавий талаблар ўрганилганда, улар дуал таълим, масофавий таълим шаклларидан фойдаланишлари ҳам эътиборга олинади.

Чет тил таълимида талабаларнинг касбий малакаларини шакллантиришда фанлараро алоқадорлик механизмидан фойдаланиш яхши самара беради. Фанлараро алоқа бир фаннинг бошқа фан масалаларини ҳал қилишда восита бўлиб хизмат қилишидир. Фанлараро боғланишлар талабаларнинг касбий малакаларини шакллантириш воситаси сифатида ҳам намоён бўлади.

Талабаларнинг касбий малакаларини шакллантиришнинг муҳим шартларидан бири чет тил ўқув предметини бошқа ижтимоий ва мутахассисликка оид фанлар билан ўзаро боғланган ҳолда ўқитишдир. Тажрибаларга асосланиб айтиш мумкинки, шахс

сифатларини таркиб топтириш ва такомиллаштириш учун бўлажак мутахассисларни тайёрлаш жараёнида “Чет тил” ўқув предмети бошқа фанлар билан ҳам ўзаро боғлиқ ҳолда ўқитилса, бўлажак мутахассисларниинг ўзлаштирган билим, кўникма ва малакалари янада мустаҳкам бўлади.

Н.А.Муслимовнинг таъкидлашича, турли фанларнинг ўзаро боғлиқлиги инсон онгида техникавий тараққиёт ҳамда жамият ўртасидаги объектив боғлиқликларнинг акс этиши жараёни ҳисобланади. Билимларни интеграциялашда генетик асослари ҳам намоён бўлади. Ушбу ҳолат муносабатларнинг мавжуд тажрибаларига асосланиши билан боғлиқ (1).

Демак, таълим мазмунини интеграциялаштириш ўқитувчи ва талаба шахс учун муҳим аҳамият касб этади. Бу борада Л.Т.Аҳмедова :”Интеграциялашган дарс бу дарснинг муайян ва ўзига хос шакли бўлиб,у нафақат турли фанлардан олинган маълумотларни бирлаштиради,балки вақтни ҳам тежайди.”деб таъкидлайди (2:159].

Ҳозирги шароитда маданиятшунослик (культурологик) ёндошув талабаларнинг нафақат касбий соҳага тайёрлайди, балки ҳар томонлама маданий ривожланишига ҳизмат қилади, яъни ўз маданияти ва ўзга маданиятни билиш имкониятига эга бўлади. Ўзга маданиятнии эгаллаш талабанинг умумий дунёқарашини кенгайтиради тафаккурини ривожлантиради. Т.Қ.Сатторовнинг тил орқали маданиятни ўрганиб борамиз ва маданият орқали тилни ўрганиб борамиз, деб таъкидлаши ҳам айнан ҳақиқатдир.

REFERENCES

1. Common European Framework of reference for languages: Learning, Teaching, Assessment: Language Policy Unit // Council of Europe. - Chapter 6. - Strasbourg, 2001. Available online: http: //www.coe.int/t/dg4/Linguistic/ Source/ CEFR_EN.pdf.
2. Муслимов Н.А. Касб таълим ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари: Пед. фан. докт. ... дис. –Т, 2007. – 305 б.
3. Ахмедова Л.Т. Роль и место педагогических технологий в прфессиональной подготовке студентов. –Т.: Фан ва технология. -2009. 159 с. 4. Атаджанова Ш.А. Чет тил таълимида талабалар касбий малакасини шакллантириш методикаси. –Т.: Фан. -2016. 151б .

УМУМИЙ ЎРТА ТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИ МАДАНИЙ МУҲИТИ МАКТАБ ИМИЖИНИ БЕЛГИЛОВЧИ ОМИЛ СИФАТИДА

Усмонова Азиза Тўлқин қизи
Абдулла Авлоний номидаги педагогларни касбий ривожлантириш ва янги методикаларга ўргатиш миллий-тадқиқот институти

https://doi.org/10.5281/zenodo.7930964

Аннотация. *Мактабдаги маданий муҳит таълим самарадорлигига таъсир қилувчи асосий омилдир. Умумий ўрта таълим мактабларида юзага келаётган бир қатор муаммолар, ўқитувчи ва ўқувчилар, мактаб педагог ходимлари ва ота-оналарнинг ўзаро муносабатларидаги муаммолар мактаб маданий муҳити, таълим самарадорлигига салбий таъсир кўрсатмоқда. Бу масалаларнинг юзага келиш сабабларини ўрганиш, уларни бартараф этишда мактабнинг ўзига хос имижини шакллантириш катта аҳамиятга эга. Мактаб имижини шакллантириш билан таълим муассасасидаги маънавий-психологик, маданий муҳитни яхшилаш, мактабнинг жамиятдаги ўрни ва мавқейини ошириш, таълим самарадорлигига эришиш каби масалалар амалга оширилади. Ушбу мақолада шу масалалар таҳлилий ёритиб берилган.*

Калит сўзлар: *мактаб, маданият, муҳит, имидж.*

Мактаб – давлат, жамиятнинг бошланғич таянч бўғини, келажак авлодларнинг етук шахс сифатида шакллантирувчи кучдир. Мактаб ўқувчининг иккинчи оиласи, таълим билан бирга тарбия, дунёқараш ва эртанги кун учун интилиш ҳаракатини шакллантирувчи маскандир. Фарзандларимиз куннинг информация оладиган асосий вақтини мактабда ўтказадилар. Хозирги даврнинг ахборот асри, техника тараққиёти жадаллашган давр дейилаётгани тез-тез қулоққа чалинади. Бу жадал тараққиётга ҳамоҳанг тарзда мамлакатимиз аҳолисининг 60%дан ортиғини ташкил қиладиган ёш авлод вакиллари ҳам ҳар қандай турдаги техника ютуқлари борасидаги билимларни тез ва осон эгаллаётганлари биз учун қувонарли албатта. Аммо, бундай илғорликнинг ўзига хос хавфлилик томони ҳам бўлиб, уларда берилаётган турли кўринишдаги ахлоқ нормаларига зид маълумотлар ўқувчилар онг ва руҳиятига салбий таъсир кўрсатаётгани уларнинг ҳатти-ҳаракатларида ўз аксини топмоқда. Бугун ижтимоий тармоқлар, расмий ахборот каналлари, ёхуд кундалик ҳаётимизда кўз олдимизда мактаб ўқувчиларининг турли ахлоқсиз, тарбиясиз ва мантиқсиз ҳатти-ҳаракатлар қилаётганликлари, ўқитувчига, мактаб жамоасига нисбатан номувофиқ муносабат, ёки ота-оналарнинг фарзандлари қилмишлари ортидан мактаб педагогларига нисбатан ноўрин ҳатти-ҳаракатлар қилаётганликлари тез-тез кузатилмоқда. Бу холат шунчаки томоша қиладиган, эътиборсиз қарайдиган холат эмас. Ўқувчилар ҳаётида, мактаб фаолиятида бундай воқеликларнинг кузатилаётганлиги жамиятни таназзулга олиб бориши ҳеч гап эмас. Қарз икки қўлдан чиқади. Ўқувчи-ёшлар ўртасида тарбиясизлик ва ахлоқсизлик холатларининг мавжудлиги бутун бир жамоатчилик айби аслида. Боланинг шаклланиш жараёнида узлуксиз таълим тизимининг ўрни катта. Оила ва таълим муассасасининг, мактаб ва жамиятнинг ўзаро ҳамкорликдаги муносабатларини йўлга қўйиш борасидаги ишлар самарасини ошириш бўйича қанчадан қанча ислоҳотлар олиб борилмоқда. Давлат томонидан олиб борилаётган амалий ишларни натижадорлигига эришиш учун жамият томонидан ҳам бирдек қўллаб-қувватланиш бўлмоғи зарур. Бу борада умумтаълим мактаблари фаолиятида ўзига хос ишларни олиб бориш мумкин. Мактабдаги

маънавий психологик муҳит ўқувчи ва уларнинг ота-оналари фаолиятига таъсир кўрсатади. Ҳамкорликдаги фаолиятни тўғри ва фаол ташкил қилиш орқали ўқувчилар ҳаётидаги кўплаб муаммолар ва ёш даврига хос зиддиятли холатларни олдини олиш, сабаб ва оқибатларини бартараф этиш мумкин.

Умумтаълим мактабларининг жамиятдаги ўрнини ошириш, ўқитувчи ва ўқувчиларнинг ўзаро самимий ва хурматга асосланган муносабатларига эришиш, ўқувчилар ва уларнинг ота-оналарини мактаб таълимига нисбатан талаб ва таклифлари асосида иш олиб бориш жамиятда ўқувчи-ёшлар орасида, мактаб ва оила ҳамкорлигидаги юзага келаётган муаммоларни бартараф этишга олиб келади.

Мактабнинг маданий муҳитини тўғри ташкил қилиш бутун мактаб жамоаси ва мактабнинг жамоатчилик вакиллари билан амалга ошириладиган ишдир, буни мактаб имижини шакллантириш орқали тўлақонли таъминлашга эришиш мумкин. Бу аниқ мақсад, мактабнинг миссияси сифатида изоҳланади. Ҳар бир мактабда аниқ, пухта ўйланган режа асосида мактабнинг ўзига хос, бошқа мактаблар билан соғлом рақобатлаша оладиган имижини шакллантириш, бу имижни сртатегик имиж бўлишига эришиш мактабнинг эртанги муваффақиятини белгилайди. Мактаб имижини шакллантиришда бир қатор механизмлар мавжуд бўлиб, бу механизмларни амалга оширишда мактабнинг жамоатчилик билан алоқалар (PR) ва маркетинг фаолиятини йўлга қўйишнинг аҳамияти катта. Демак, мактаб имижини шакллантиришда раҳбар, педагоглар жамоаси, мактаб PR ва маркетинг фаолияти, ўқувчи ва ота-оналар асосий субъектлар ҳисобланади. Мактаб маркетинг ва PR фаолиятини ташкил қилиш билан мактаб таълимига нисбатан давлат, ота-она ва ўқувчиларнинг талаблари ўрганилади, мактабда олиб борилаётган турли масалалар, ўқув жараёни, ўқувчилар иштирокида турли лойиҳалар, мактабнинг касб-ҳунар мактаблари, олий таълим муассасалари билан самарали ҳамкорлигини ташкил қилишга эришилади. Шунингдек, ўқувчи-ёшларнинг ёш даврига хос бўлган ривожланиши, уларда кечадиган турли руҳий ва жисмоний холатлар билан ишлашда ҳам мактабдаги маданий муҳит, мактабнинг корпоратив имижи катта роль ўйнайди. Мактаб имижини шакллантириш орқали мактабнинг жойлашган ҳудудидаги мактаблар билан ўзаро соғлом рақобатбардошлигига эришиш, мактабнинг жамиятдаги ўрни ва мавқеини ошириш, мактабнинг ҳудудий меҳнат бозори, касб-ҳунар мактаблари, олий таълим муассасалари билан ҳамкорлик олиб бориши, натижада битирувчи синф (9-11 синф) ўқувчиларининг мустақил фаолиятларини тўғри ташкил қилиш, уларни касб-ҳунарга тўғри йўналтириш, жамиятда ўқувчи-ёшларнинг бекорчилик, артофида содир бўлаётган воқеа-ҳодисаларга нисбатан бепарворлик, беэътиборлик кайфиятига берилишини олдини олиш, оилалардаги носоғлом муҳит, носоғлом турмуш тарзи таъсиридан болаларни ҳимоя қилиш каби кўплаб масалаларга эришиш мумкин. Бунда мактабга нисбатан давлат ва жамиятнинг ишончи юқори бўлиши, мактаб ўқувчи ва оилалар учун таянч куч сифатида ишлаши, мактаб ва педагогларга нисбатан жамиятда хурмат ва самимий муносабатнинг юзага келишига эришиш мақсади мавжуд.

Мактаб имижини шакллантиришнинг қуйидаги механизмларини келтирамиз.

МИССИЯ	Компонентлар	Факторлар
МАКТАБ ИМИЖИ	Таълим хизматлари имижи	Таълим ҳизматлари кўрсатиш сифати
		Қўшимча хизматлар
		Таълим ҳизматлари натижадорлиги
	Талабгорлар имижи	Турмуш тарзи

		Жамиятдаги мавқейи
		Талабгорнинг ўзига хослиги
	Мактаб ички (корпоратив) имижи	Муассасанинг ички маданияти
		Ижтимоий-психологик муҳит
	Бошқарув имижи (раҳбар)	Раҳбарнинг коммуникатив компитентлилиги
		Маънавий қиёфаси
		Ижтимоий демографик мансублиги
		Ташқи кўриниши
		Амалга оширган ишлари
		Асосий бўлмаган фаолият турлари
	Ходим имижи (педагог)	Ходимнинг компитентлик даражаси
		Ходимнинг маънавий етуклиги
		Ижтимоий-демографик жиҳати
	Ташқи имиж	Мактаб биносининг архетиктура, ички дизайни
		Ходимларнинг ташқи қиёфаси
		Таълим ҳизматлари бозоридаги ўрни
	Ижтимоий имиж	Мактабнинг жамоатчилик билан алоқалар (PR) фаолияти
	Маркетинг фаолияти	Таълим хизматлари бозоридаги рақобатбардошлик
		Фаол тадбиркорлик фаолиятини намойиш эта олиши
		Мактабнинг таълим ҳизматлари бўйича таклифлари

Мактаб имижини шакллантириш ва уни сртатегик бошқарувнинг асосий омили сифатида олиб бориш мактаблардаги маданий муҳитнинг барқарорлигига эришишда катта аҳамиятга эгадир.

REFERENCES

1. Abrams Peace Education Foundation. Inc., Miami, Florida, 1998; Fran Schmidt/ Alice Friedman. Fighting Fair. For families. Grace Contrino Abrams Peace Education Foundation. Inc., Miami, Florida, 1994.
2. Ахмедова М. Педагогик конфликтология. –Т.: ТДПУ. 2017. 12-бет.
3. Самарин А.Н. Конфликты в духовной сфере современного общества: состояние и проблемы урегулирования // Конфликтология. Теория и практика. 2004. №4.;
4. Шаленко В.Н. Социальные конфликты / Под ред. Добренькова В.И., Кравченко А.И. / Фундаментальная социология: в 15 томах, т.VI: Социальные деформации. Гл. 4, раздел 1. -М.: Инфра-М, 2005.;
5. Эрназарова Г.О., Исламова М.Ш. Педагогик конфликтология/ Ўқув қўлланма. –Т.: Фан ва технологиялар. 2021 й. -270 б. (Ўзбекистон Республикаси олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 30.06.2020. № 359-буйруғи, 359-132-сонли гувоҳномаси)
6. Эрназарова Г.О., Хазиева Д.Э. Необходимость конфликтологической компетентности педагога/ Национальная ассоциация ученых Ежемесячный научный журнал Том2 №69/2021DOI: 10.31618/NAS.2413-5291.2021.2.69 ISSN Print 2412-5291, 35-38 с.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 27 февралдаги ПҚ-4623-сон “Педагогик таълим соҳасини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори.www.lex.uz.
8. Handling Conflicts. Conflicts; a positive approach. Particirant’s manual. Grace Contrino Abrams Peace Education Foundation. Inc., Miami, Florida. 1997;

ОЦЕНКА НАВЫКОВ ПРИЕМЛЕМОГО РИСКА У СТУДЕНТОВ ТЕХНИЧЕСКОГО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО УЧРЕЖДЕНИЯ

Борисова Елена Анатольевна,
Старший преподаватель кафедры «Системы энергообеспечения» Ташкентского университета информационных технологий

https://doi.org/10.5281/zenodo.7930996

Аннотация. *Дисциплина «Безопасность жизнедеятельности» - это дисциплина с определенным списком формирования умений в процессе ее изучения: оказания первой доврачебной помощи, знание учета и расследования несчастных случаев на рабочем месте, знание основ пожаротушения, оказания помощи при чрезвычайных ситуациях, которые предполагают объективизацию оценивания их освоения. необходимым требованием к предметным результатам освоения учебной программы дисциплины*

Ключевые слова: *безопасность жизнедеятельности, первая доврачебная помощь, несчастный случай, пожаротушение, ЧС.*

«Безопасность жизнедеятельности» является сформированность у студентов умений оказывать первую помощь пострадавшим, тушить пожары и т.д. Дисциплина «Безопасность жизнедеятельности» предполагает обновление практико- ориентированного обучения с учет изменяющихся требований к безопасности в мире и, как следствие, изменение системы оценивания. Это способствует применению навыков приемлемого риска именно в экстремальных ситуациях.

Производственная ситуация, в которой присутствует риск, должна обеспечиваться специалистами, умеющими адекватно оценивать свои возможности, умеющими получать нужные результаты в рискованных условиях труда и не создавать при этом угрозы для жизни и здоровья себе и коллегам. Возникновение риска в трудовом процессе возникает для человека по разным причинам: неблагоприятное воздействие внешней профессиональной среды (поломки техники, плохая экология, или социальный климат и др.), а также неадекватное поведение человека в профессиональной среде.

В производственной ситуации, связанной с экстремальными условиями, рассматривается длительное воздействие экстремальных факторов (нехватка времени, перегрузка сложными заданиями, перенасыщенность информацией, вредные опасные и физические факторы производственной среды и др.). Такие ситуации создают неадекватную психическую напряженность, не контролируемую человеком, и способствуют мобилизации резервных психофизиологических ресурсов. Все это в совокупности отрицательно сказывается на результатах трудовой деятельности. Перегрузки затормаживают поисковую деятельность, ухудшают самостоятельное принятие решения, ослабляют мыслительные процессы и все это затрудняет интеллектуальную оценку событий, решение проблемных задач.

Необходимо, развивать способность к действию в непредвиденных обстоятельствах, четкое осознание последовательности действий, применимых в экстренной ситуации. Все эти умения достигается обучением, где различаются разные аварийные ситуации, проигрываются все возможные действия, отрабатываются методы оказания первой помощи, навыки тушения пожаров, поведения в чрезвычайной ситуации.

Поведение людей отличается в неблагоприятных условиях. Это зависит от мотивации, психических состояний, уровня квалификации, опыта. А.К. Маркова дает различие понятиям «нормативный» и «реальный» профессионализм, акцентируя, что реальный профессионализм специалиста обычно сильно отличается от профессиональных навыков, полученных при обучении в университете, и называет нормативным профессионализмом нормативные требования профессии к личности, а реальный профессионализм – внутренняя личностная характеристика, которая позволяет соответствовать нормативным требованиям профессии. А.К. Маркова определяет характеристики компетентности: компетентность не сводится к образованности человека; компетентность - это сочетание психических качеств, которые позволяют действовать самостоятельно и ответственно; основой суждения о компетентности человека являются оценка и измерение конечного результата деятельности; компетентность – характеристика отдельного человека и проявляется в результатах его деятельности.

Психологическая безопасность человека в процессе труда достигается отсутствием экстремальных ситуаций и сведение к минимуму факторов риска, которые требуют от человека чрезмерных усилий или, возможностью работника противостоять им, мобилизоваться, защититься.

Таким образом, экстремальные условия вызывают у человека измененные психические состояния взаимодействия психических процессов, что служит фактором риска, снижением надежности действий работника.

Балльно-рейтинговая система оценки знаний, которая используется в нашем университете для оценивания дисциплины «Безопасность жизнедеятельности», не полностью может оценить практические навыки и умения. Итоговое оценивание, разработанное нами должно предусматривать накопительную систему по всем занятиям темы или раздела и умение применять полученные навыки на практических занятиях и в бытовой и производственной сфере.

Для оценивания студентов по дисциплине Безопасность жизнедеятельности уместно говорить еще об одном виде компетентности – «экстремальной профессиональной компетентности», которая выражает готовность человека к работе во внезапно усложнившихся условиях, или в условиях аварий, или чрезвычайных ситуаций на производстве и в бытовой сфере.

№	Критерии/ Уровни	Аварийно - когнитивный	Алгоритмически - деятельностный	Экстремально рефлексивный
1	Репродуктивный	-не полные и не взаимосвязанные фрагментарные знания по предотвращению риска и устранению чрезвычайной ситуации	- практическое выполнение набора не взаимосвязанных действий по предотвращению риска.	- определение факторов риска и чрезвычайной ситуации; - не готовность к предотвращению риска и устранению чрезвычайной ситуации
2	Продуктивный	- полные но не взаимосвязанные	- медленное, но осознанное	- идентификация профессиональных

		знания по предотвращению риска и устранению чрезвычайной ситуации;	выполнение правильного алгоритма действий по предотвращению риска и устранению чрезвычайной ситуации;	вызовов по предотвращению риска, трансформация их в отработанный алгоритм действий; - принятие обязательств по предотвращению риска;
3	Автоматичный	- полные и взаимосвязанные знания по предотвращению риска и устранению чрезвычайной ситуации	- автоматическое выполнение алгоритмически правильно выстроенных действий по предотвращению риска и устранению чрезвычайной ситуации.	- быстрое распознавание и принятие профессиональных вызовов по предотвращению риска и устранению чрезвычайной ситуации, трансформация их в отлаженные действия; - полное принятие на себя обязательств по предотвращению риска и устранению чрезвычайной ситуации

REFERENCES

1. Borisova, E. (2023). METHODOLOGY FOR DEVELOPING SKILLS OF ACCEPTABLE RISK ON THE TOPIC" PROVISION OF FIRST PRE-MEDICAL AID TO VICTIMS FROM THE ACTION OF CURRENT" ON THE BASIS OF INTERACTIVE CASE. *Science and innovation*, *2*(B3), 103-108.
2. Маркова А.К. Психология профессионализма. Издательство: Международный гуманитарный фонд "Знание", 1996 г.

ЎҚУВЧИЛАРНИ ИНТЕЛЛЕКТУАЛ СОҲАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА УМУМ ТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИДАГИ МАДАНИЙ-ТАЪЛИМИЙ МУҲИТНИНГ АҲАМИЯТИ

Кенесбаева Элмира Жолдасбаевна

Нукус давлат педагогика институти таянч докторанти, Қорақалпоғистон Республикаси, Нукус шаҳри

https://doi.org/10.5281/zenodo.7931022

Аннотация. *Ушбу мақолада ўқув-билув жараёнида ўқувчиларга тақдим этилган янги ахборотлар, уларнинг вазифалари ҳамда ўқувчиларнинг интеллектуал қабул қилиш даражалари, янги ахборот ва топшириқларни модулли тақдим этиш усуллари ҳақида маълумот берилган. Шунингдек ўқувчиларнинг интеллектуал даражаси ва шахсий қизиқишлари, тақдим этилган билимларни идрок этиш, улар устида мушоҳада юритиш компетентлигини шакллантириш ҳақида фикр юритилиб, ўқувчиларни интеллектуал соҳаларини ривожлантиришда модулли технологияларнинг аҳамияти кўрсатилган.*

Калит сўзлар: *ўқув жараёни, модулли ўқитиш, ўқувчи, интеллектуал, ривожланиш, фикрлаш, топшириқ, ахборот, қабул қилиш, янги билим, ўзлаштириш.*

Ўқув-билув жараёнида ўқувчиларга тақдим этилган янги ахборотлар улар ўзлаштирган билимлар билан боғланиб, модулни ҳосил қилади. Натижада ўқувчиларнинг билим захираси ва тасаввурлари кенгаяди. Бу жараёнда умум таълим мактабларидаги маданий-таълимий муҳит жараёнлари алоҳида аҳамиятга эга. Агар янги ахборот ўқувчиларга илгари эгаллаган билимларига боғланмаган ҳолда тарқоқ тарзда тақдим этилса, улар бундай маълумотларни тез унутадилар. Бу ахборотлар маданий-таълимий муҳитда қайта-қайта ва мустақил тарзда қўлланилса эгалланган билимлар малакаларга айланади.

Ўқувчиларнинг интеллектуал ривожланишлари учун мойиллик ҳосил қилиш босқичида ўқувчиларда тақдим этилган ахборотни тезкорлик билан идрок этишга қизиқтиришдан иборат. Чунки ўқувчиларни интеллектуал ривожланиш жараёни ўқитувчидан алоҳида педагогик маҳоратни талаб қилади.

Ўқувчилар янги ахборотни онгли тарзда пухта ўзлаштиришлари ва тақдим этилаётган янги маълумотларга ижодий ёндашишлари учун ўқув жараёнида фаол қатнашишлари керак. Ўқувчи белгиланган мақсад асосида ўйлаб, фикрларини ўз сўзлари билан ифодалаш орқали фаоллашади. Ўзи эгаллаган билимларини амалда намоён қилишлари фикрларини оғзаки ёки ёзма ифодалаш орқали содир бўлади. Ўқув жараёнида ўқувчиларга тақдим этилган янги ахборотларни уларнинг мавжуд билимлари билан уйғунлаштириш уларни интеллектуал ривожлантиришга асос бўлади.

Мазкур босқичнинг муҳим вазифаларда бири ўрганилаётган мавзу бўйича ўқувчида билимларни қўллаш кўникмасини намоё қилишдан иборат. Майиллар ва қизиқишларнинг ҳосил бўлиши ўқувчиларнинг фаоллигини оширади, фикрлаш жараёнини тезлаштиради.

Ўқувчининг мустақил фикрлаш асосида ўз олдига қўйган мақсадлари, унинг олдиган бошқалар томонидан қўйилган мақсадлардан кўра кучлироқ бўлади. Чунки ўқувчиларнинг интеллектуал даражаси ва шахсий қизиқишлари унинг мақсадларини белгилайди. Агар уларнинг интеллектуал соҳаси ривожланмаган ва қизиқишлари

нобарқарор бўлса, ўқув майиллари пасаяди. Ўқувчилар ўз олдиларига қўйилган муаммоли саволларга аниқ жавоб топганларидагина улар тақдим этилган ахборотларни тўғри тушуниб, англаб етадилар.

Ўқувчилар тақдим этилган ўқув ахборотларни ўзлаштириш жараёнида, уни ўзларида мавжуд бўлган ахборотлар билан мужассамлаштиришга эришадилар. Ушбу босқичнинг асосий вазифаси, 1) ўқувчиларда шаклланган интеллектуал фаолликни қўллаб-қувватлаш, 2) ўқувчиларнинг ўзлари моҳиятини англаб етган маълумотларни қабул қилишга бўлган интилишларини рағбатлаштиришдан иборатдир.

Ўқувчиларнинг ўз ички кечинма ва ҳолатларини чуқур таҳлил қилиб англашлари рефлексиядир.

Рефлексия-лотинча “reflexio”- “мушоҳада қилиш”, “қайтадан ўйлаш”дан иборат мантиқий категория бўлиб, у шахс онгида содир бўлаётган ўзгаришлар ҳақида мулоҳаза юритишни англатади. Кўриниб турибдики ўқувчининг ўз-ўзини тушуниш, англаш жараёни бўлиб, у ўқувчининг шахсий хусусиятлари, таъсирчанлиги, тасаввурларининг бошқалар томонидан англанишини ифодалайди.

Бу босқичнинг энг муҳим вазифаси-янги ўқув материалининг ўзлаштирилиш даражасини таъминлашдан иборат. Интеллектуал жиҳатдан фаол ўқувчилар янги ахборотлар тақдим этилгач, кўплаб саволлар бера бошлайдилар ёки тушунмаган ҳолатларини кейинчалик сўраб аниқлаш учун ёзиб борадилар. Бўш ўзлаштирувчи ўқувчилар эса, ўқув матреиллари ўқув топшириқларни тушунмагинликлари ҳақида ўйлаб ҳам кўрмайдилар.

Улар тақдим этилган билимларни ўзлаштириш жараёнида, янги маълумотларни олдингилари билан ўзаро қиёслайдилар ва ўз билимларини бойитишга муваффақ бўладилар. Уларда янги тушунча ва тасаввурлар ҳосил бўлиши учун олдин ва кейин ўзлаштирилган билимлар орасида муайян занжир, ўзаро алоқадорлик вужудга келади. Бу эса ўқувчиларнинг интеллектуал соҳаларини тизимли ривожлантириш имконини беради.

Тақдим этилган билимларни идрок этиш,улар устида мушоҳада юритиш натижасида ўқувчиларнинг интеллектуал соҳалари ривожланади, ўқув кўникмалари мустаҳкамланади, таянч ва фанга оид компетенцияларини ўзлаштириш жараёни шаклланади. Бу ўқувчиларнинг интеллектуал фаолликларида намоён бўлади.

Ўзлаштирилган билимларни идрок ва мушоҳада қилиш босқичида, ўқувчилар муайян ўқув мақсадларига эришишлари лозим. Бунинг учун улар, биринчи навбатда, ўзлаштирган янги маълумотларга таянган ҳолда муайян буюмлар, воқеа-ҳодисалар ҳақида аниқ тасаввурга эга бўладилар. Мазкур босқичининг муҳим мақсадларидан яна бири, ўқитиувчи билан ўқувчилар, ўқувчилар билан ўқувчилар орасида диалог муҳитини вужудга келтиришдан иборат. Бу эса ўқувчиларнинг интеллектуал соҳаларини фаоллаштириш, билимларини бойитиш, илмий дунёқарашларини кенгайтириш учун қулай шароит яратади. Ўқувчиларнинг интеллектуал ривожланиш даражалари педагоглар томонидан қўллаб-қувватланганда тизимли характер касб этади. Ўқувчиларнинг ўзларининг интеллектуал жиҳатдан намоён қилишларига ўқитувчи томонидан имконият яратилади.

Интеллектуал жиҳатдан ривожланиш ўқувчилар учун қуйидаги имкониятларни беради:

- ўқувчиларнинг фикрлаш жараёнлари жадаллашади;

- ўқувчилар ўз олдиларига аниқ мақсадлар қўйишга эришадилар ўз олдиларига қўйилган мақсадларининг оптимал йўлларини излайдилар;
- ўқувчилар ўзаро ва ўқитувчи билан диалокка асосланган муносабатга киришадилар;
- ўқувчиларнинг янги ахборотларни ўзлаштириш, улардан ностандарт вазиятларда мустақил фикрлаш имкониятлари кенгаяди, натижада ўқувчиларда ўқув-билув фаоллиги вужудга келади;
- ўқувчиларда ўзаро бир бирлари билан баҳс-мунозарага киришадилар ва ўз нуқтаи назарларини баён қилиш, уни қатъий ҳимоялашга ўрганадилар;
- ўқувчилар ўзлаштирган билимларини янги вазиятларда қўллаш кўникмасига эга бўладилар.

Ўқувчиларни интеллектуал ривожлантиришда диалог билан бир қаторда гуруҳли ишлаш вазиятлари ҳам муҳим дидактик аҳамиятга эга. Бундай вазиятларда ўқувчиларнинг ўзаро мулоқотга киришишлари, ўз нуқтаи назарларини ҳимоя қилиш имкониятлари кенгаяди. Натижада уларда изланувчанлик, қатъиятлилик, мақсад сари интилиш каби шахсий сифатлар таркиб топади. Ўқувчиларниинтеллектуал жиҳатдан ривожлантириш учун улар билан ўқитувчилар орасида ўзаро ҳамкорликка асосланган мулоқот муҳитини шакллантириш келиши алоҳида аҳамиятга эга.Ўқувчиларнинг интеллектуал жиҳатдан ривожланишлари таълим жараёнида яратиладиган ижодий муҳитга ҳам боғлиқ.

Немис олими М.Мауерман ижодий фикрлаш-бу инсон учун фикрлашнинг таянч нуқтаси, ғоялар ва ахборотлар билан ўзаро муносабатга киришишнинг табиий усулидир, у дарс ва дарсдан ташқари жараёнларда бирданига содир бўладиган фаолият бўлиб, ўқувчиларнинг ахборотларни ухта ўзлаштириш натижасида ижодий интеллектуал ривожланиш имкониятига эга бўлишларини кўрсатиб ўтган.

Бу жараёнда, ўқувчиларўқув ахборотларининг мазмун моҳиятини англашлари улар устида ишлай олишлари назарда тутилади. Ўқувчиларўзлаштирган билимларда қай тарзда фойдаланиш усулларини ҳам эгаллашлари мақсадга мувофиқ.

Интеллектуал ривожланиш натижасида ўқувчилар ўқув материалларида ифодаланган мазмунни чуқур ўзлаштиришга муваффақ бўладилар. Натижада улар ўрганилаётган ўқув материалини моҳиятини англаб етадилар. Ўқувчилар интеллектуал фаоллик кўрсатиши далилларни мақсадга мувофивқ тарзда танлаш ҳамда турли вариантдаги ўқув топшириқларини бажариш имкониятига эга бўладилар. Дарс якунида ўқувчиларга объектив фикрлаш имконини берадиган илмий далилларга мурожаат қилинади. Ўқувчилар илмий далиллар билан ўлари баён қилган хулосаларни ўзаро қиёслайдилар. Натижада ранг-баранг фикрлар вужудга келиб, ўқувчилар уларни генерация қилишга муваффақ бўладилар. Бунинг учун биринчи навбатда ўқитувчи дарс мақсадини аниқ белгилаб олиши, ўқувчиларга тақдим этиладиган ўқув материалларини муайян изчилликда тизимлаштириши, улар олдига муаммоли топшириқлар қўя олиши муҳим аҳамиятга эга.

Ўқитувчи ўқувчилар эътиборига уларни интеллектуал жиҳатдан ривожлантиришга йўналтириладиган муайян мавзуни ҳавола қилишдан аввал, мазкур мавзу доирасида модул характеридаги савол ва топшириқларни, модулли ўқитиш технологияларини танлаши муҳим аҳамиятга эга. Ўқувчилар олдига қўйиладиган савол

ва топшириқлар уларнинг ижтимоий тажрибаси билан боғланган прагматик характер касб этадиган бўлиши талаб этилади. Чунончи, “Ўйин вазиятларида қизлар ва ўғил болалар ўзаро фарқланадиганқандай вазифаларни бажаришлари керак?”, “Янги Ўзбекистоннинг тараққиёти нималарда кўрилади?”, “Мутаффакир аждодларимиз илм-фан тараққиётига қандай хисса қўшганлар?”, “Қндай юриш-туриш қоидаларини биласиз?” кабилар.

Ўқитувчи ўқувчиларнинг интеллектуал ривожланганлик даражалари ҳақида аниқ маълумотга эга бўлиши шу асосда улар олдига топшириқлар қўйиши лозим. Бунда ёндашув модулли ўқитиш технологиялари асоида ташкил этиладиган ўқув жараёни самарадорлигини оширишга хизмат қилади. Ўқувчиларнинг интеллектуал ривожланишларига хизмат қиладиган топшириқлар ва технологияларининг мақсадга мувофиқ тарзда танланиши ҳам таълим самарадорлигини оширишга хизмат. Фан ўқитувчилари ўқувчиларни интеллектуал ривожланишига хизмат қиладиган топшириқлари ҳақида аниқ тасаввурлар ва педагогик билимларга эга бўлишлари алоҳида аҳамият касб этади.

REFERENCES

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-fevraldagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonnning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmonidagi uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirishga oid ustuvor vazifalar.
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022-2026 yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risidagi”gi PF-134-sonli Farmonining mazmun, mohiyati.
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi “O‘zbekistonRespublikasidamilliymadaniyatniyanadarivojlantirishkonsepsiyasinitasdiqlashto‘g‘risida”giPQ-4038-sonQarorining mazmun, mohiyati.
17. R.G.Safarova. Pedagogikada madaniyatshunoslik yondashuvining rivojlanish tendensiyalari. // “Zamonaviy uzluksiz ta’limni raqamlashtirish: pedagogika sohasidagi zamonaviy tendensiyalarva rivojlanish omillari” mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami. Andijon 2022. B. 20-23
18. SafarovaRohatGaybullaevna.DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE PROFESSIONALS ON THE BASIS OF CULTURAL APPROACH. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *10*(9), 17–22. https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/2470

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA IJTIMOIY-MADANIY MUHITNI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

N.S.Mirsaidova,
Nizomiy nomidagi TDPU Filologiya fanlari nomzodi, dotsent v.b.

https://doi.org/10.5281/zenodo.7931033

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’limda ijtimoiy-madaniy muhitni tashkil etishda o‘qish savodxonligi darslarida innovatsion pedagogik texnologilardan foydalanish haqida so‘z yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy-madaniy muhit, innovatsiya, pedagogik texnologiya, badiiy matn.*

Hozirgi kunda ilm-fan, texnika va texnologiyalarning jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalarida ulkan o‘zgarishlarga asos bo‘lmoqda. Bu esa jamiyatda yangicha qarash, yangicha ijtimoiy-madaniy muhitni tashkil etishni ham taqozo qilmoqda. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, “intellektual va madaniy salohiyatning qanday noyob boylik, nodir iste’dod egalarini tarbiyalab kamolga yetkazishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini unutishga haqqimiz yo‘q” [1; 24].

Ma’lumki, ijtimoiy-madaniy muhit insonning yashashi, ishlashi va madaniy yuksalishi uchun yaratiladigan ijtimoiy, moddiy va ma’naviy shart-sharoitlar hisoblanadi. Bunday muhitni yaratishda ta’lim va tarbiyaning o‘rni beqiyos.

O‘zbekiston ta’lim tizimida yangi ta’lim mazmunini shakllantirish, yangi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish, yangi turdagi ta’lim muassasalarini yaratish, ta’lim sifatini oshirish kabi innovatsion jarayonlar joriy etilmoqda.

Bu jarayonda boshlang‘ich ta’limni to‘g‘ri tashkil etish, yangi pedagogik texnologiya usullarini qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida ham ijtimoiy-madaniy muhitni shakllantirishning turli uslublari mavjud.

Ma’lumki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qishga o‘rgatish jarayonida yuqorida qayd etilgan vazifaga ham alohida e’tibor qaratiladi. Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida o‘quvchilar, asosan, badiiy matn ustida ishlaydilar. O‘qish darslarining yetakchi xususiyati o‘quvchilarning savodxonligini ta’minlash bilan birga, o‘quvchilarni yuksak axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratiladi [2;59].

Shu o‘rinda 4-sinf “O‘qish kitobi” darsligida berilgan “Yaxshidan bog‘ qoladi” rivoyati [3;110-111] misolida innovatsion pedagogik texnologiya usullari asosida o‘quvchilarni PIRLS tadqiqotiga tayyorlashga mo‘ljallangan topshiriqlar ustida ishlash haqida to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Bu rivoyat matni quyidagicha berilgan:

YAXSHIDAN BOG‘ QOLADI

Ko‘klam kunlarining birida Sulton Husayn saroyda yolg‘iz o‘tiraverib, zerikib ketibdi. «Ancha vaqtdan beri Mir Alisherdan darak bo‘lmadi, borib holidan bir xabar olib kelay», deb, do‘sti yashaydigan mahallaga yo‘l olibdi.

Borib qarasa, Mir Alisher yeng shimarib bog‘ida ishlayotgan ekan. Buni ko‘rgan Sulton Husayn otidan tushib, do‘sti bilan so‘rashgach:

— Hormang, do‘stim! Nega shoirlar majlisida ko‘rinmay qoldingiz desam, bog‘bonlikni pesh qilibsiz-da! — debdi.

Mir Alisher ham belbog‘i bilan peshanasidagi terini artar ekan:

— Ko‘klam kelsa, ko‘chat ek, degan ekan mashoyixlar. Shu bog‘dagi qurigan olmalarning o‘rniga uch-to‘rt tup yong‘oq ekyapman, — deb javob beribdi.

— Ey do‘stim-ey, qarigan chog‘ingizda bog‘ qilishning sizga nima keragi bor, axir? Siz bilan men yoshimizni yashab, oshimizni oshagan bo‘lsak, bu yong‘oqlaringiz qachon hosilga kiradi-yu, siz qachon mevasidan yeysiz? Oxir umringizda mana shu bog‘dagi mevalarning boriga qanoat qilib, soya-salqinda tinchgina g‘azal bitib o‘tiravermaysizmi?

— Do‘stim, yaxshidan bog‘ qoladi, degan naqlni eshitganmisiz? Men bu ko‘chatlarni o‘zim uchun emas, mana shu mahallamiz ko‘chalarini changitib yurgan bolakaylar, balkim ularning ham bolalari uchun ekyapman. Bir kun kelib, shu ko‘chatlarning har biri azim daraxt bo‘ladi. Hosil bera boshlaydi. Shunda odamlar uning mevasidan totib: «Bu bog‘ Mir Alisherdan qolgan!» — deyishadi. Shuning o‘zi menga har qanday ne’matdan lazzatliroqdur.

Bu gaplarni eshitgan Sulton Husayn Mir Alisherning saxovatiga qoyil qolib, unga hamyon to‘la tilla chiqarib beribdi. Mir Alisher tillaga qarab turib:

— Ana ko‘rdingizmi, do‘stim! Ekayotgan ko‘chatlarim hozirdanoq hosil bera boshladi, — deya kulib qo‘yibdi.

Sulton Husayn Mir Alisherning hozirjavobligiga yana bir bor qoyil qolgan ekan.

Ushbu badiiy matn asosida PIRLS tadqiqotiga mos quyidagicha savol-topshiriqlar tuzish va ular ustida ishlashda turli innovatsion pedagogik texnologiya usullari orqali o‘quvchilarni ijtimoiy-madaniy jihatdan tarbiyalash mumkin:

1. Rivoyatda qaysi fasldagi voqea aks ettirilgan?

A) qish
B) bahor
C) yoz
D) kuz

2. Rivoyatda kimlar orasida suhbat bo‘lib o‘tgan?

A) shoh va shoir
B) dehqon va hunarmand
C) sartarosh va bog‘bon
D) novvoy va shoir

3. Rivoyatdagi quyidagi fikr kim tomonidan aytilgan?

“...yaxshidan bog‘ qoladi, degan naqlni eshitganmisiz?”

A) Sulton Husayn
B) Mir Alisher
C) bolakaylar
D) bir odam

4. Rivoyatda o‘zbek xalqiga xos qanday an’ana haqida aytilgan?

A) mehmondo‘stlik
B) saxovat
C) mehribonlik
D) tadbirkorlik

5. Siz Mir Alisherning ishini ma’qullaysizmi?

A) ha
B) yo‘q
Sababini yozing._____

_____

_____

6. Rivoyatda Sulton Husayn zerikishining sababini izohlang.

_____

_____

7. Mir Alisher va Sulton Husayn o‘zaro qanday munosabatda ekanligini quyidagi qaysi gapdan bilish mumkin?

A) Nega shoirlar majlisida ko‘rinmay qoldingiz desam, bog‘bonlikni pesh qilibsiz-da!

B) Sulton Husayn Mir Alisherning hozirjavobligiga yana bir bor qoyil qolgan ekan.

C) -Do‘stim, yaxshidan bog‘ qoladi, degan naqlni eshitganmisiz?

D) Siz bilan men yoshimizni yashab, oshimizni oshagan bo‘lsak, bu yong‘oqlaringiz qachon hosilga kiradi-yu, siz qachon mevasidan yeysiz?

8. Rivoyatdan olgan taassurotlaringizni bayon etib, o‘z xulosangizni yozing.

_____

_____

_____

_____

Xulosa shuki, boshlang‘ich sinflardanoq badiiy matn ustida yuqoridagi kabi topshiriqlar ustida turli innovatsion usullar yordamida ishlash faqatgina ta’limiy vazifani bajaribgina qolmay, balki tarbiyaviy vazifani ham amalga oshirish imkonini beradi, o‘quvchilarning ijtimoiy-madaniy jihatdan ham saviyasini oshiradi.

REFERENCES

1. Sh.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. - Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021.
2. K.Qosimova, S.Matchonov, X.G‘ulomova, Sh.Yo‘ldosheva, Sh.Sariyev. Ona tili o‘qitish metodikasi. Boshlang‘ich ta’lim fakulteti talabalari uchun darslik. – Toshkent: Bayoz, 2022.
3. S.Matchonov, A.Shojalilov, X.G‘ulomova, Sh.Sariyev, D.Zolimov. O‘qish kitobi (Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik). – T.: Yangiyul Poligraph Service, 2020.

OLIY TA`LIMDA KREDIT-MODUL TIZIMINI YO`LGA QO`YISHNING AFZALLIKLARI

Mamatqulova Nilufar Boyzoq qizi
Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar insituti O'zbek tili pedagogika va jismoniy madaniyat kafedrasi o'qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.7931047

Annotatsiya. *Mazkur maqola oliy ta`lim tizimiga kredit-modul tizimini joriy etishning bir qator afzal tomonlarini muhokama etishga hamda xorijiy tizimlar bilan qiyosiy o`rganishga bag`ishlanadi.*

Kalit so‘zlar: *kredit-modul tizimi, oliy ta`lim, qiyoslash, metod.*

KIRISH

Kredit-modul tizimi oliy ta'lim muassasalariga moslashuvchan va ko`nikuvchan tizimni taklif etadi, bu esa talabalar muvaffaqiyatini, shuningdek, akademik innovatsiyalarni va kelgusi faoliyatga tayyorgarlikni rag'batlantiradi. Kredit-modul tizimi ta'lim olish yo'lidagi to'siqlarni minimallashtirishga xizmat qiladi va uzluksiz ta'lim va kasbiy o'sishni qo'llab-quvvatlaydi.

ASOSIY QISM

Bu tizim tomonidan kreditni o'tkazish va tan olishni osonlashtirish orqali amalga oshiriladi. Oliy ta’limda kredit-modul tizimidan foydalanishning bir qancha afzalliklari bor:

1. **Moslashuvchanlik:** Kredit-modul tizimi talabalarga o'qish kursi bo'yicha ko'proq moslashuvchanlikni ta'minlaydi. Talabalar o'zlarining qiziqishlari va martaba maqsadlariga mos keladigan modullar yoki kurslarni tanlashlari va o'z yo`nalishida rivojlanishi mumkin.

2. **Personallashtirish:** Kredit-modul tizimi talabalarga yo‘naltirilgan bo‘lib ishlab chiqilgan bo‘lib, talabalarga o‘quv materiali bilan faol shug‘ullanish va o‘z-o‘zini boshqarish va tuzilgan o‘qitish kombinatsiyasi orqali o‘z tushunchalarini rivojlantirish imkonini beradi. Ushbu shaxsiylashtirilgan ta'lim yondashuvi turli xil o'rganish uslublariga ega bo'lgan bugungi talabalarning ehtiyojlariga ko'proq mos keladi.

3. **Oldingi o'rganishni tan olish:** Kredit-modul tizimi talabalarning oldingi bilimlari va tajribasi uchun tan olinishini ta'minlash uchun o'rganishdan oldingi baholashni o'z ichiga oladi. Bu talabalarga modullar yoki kurslar bo'yicha tezroq o'tishga imkon beradi, chunki ular butun modul yoki kursni yakunlamasdan, muayyan vakolatlar yoki ko'nikmalar bo'yicha o'z malakalarini namoyish eta oladilar.

4. **Samaradorlik:** Kredit-modul tizimi an'anaviy ta'lim dasturlariga qaraganda samaraliroq, chunki talabalar o'z sur'atlari bo'yicha o'qishni davom ettirishlari va ta'limni tezroq yakunlashlari mumkin. Bu, ayniqsa, vaqt va resurslar cheklangan bo'lishi mumkin bo'lgan talabalar yoki ishlaydigan mutaxassislar uchun juda muhimdir.

5. **Sifatni ta'minlash:** Kredit-modul tizimi talabalarning ma'lum miqdordagi kreditlar ajratilgan modullar yoki kurslar to'plamini to'ldirish orqali aniq ta'lim natijalariga erishishlarini ta'minlash uchun mo'ljallangan. Bu talabalarning muvaffaqiyatini baholash uchun aniq asos yaratadi va talabalar tanlagan kasbiga yaxshi tayyorgarlik ko'rishlarini ta'minlaydi.

6. **O'tkazish imkoniyati:** Kredit-modul tizimi kreditni o'tkazish va tan olishni osonlashtiradi, talabalarga institutlar o'rtasida kredit o'tkazish yoki oldingi ta'lim uchun kredit olish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, kurs ishlarini tugatgan yoki an'anaviy akademik sharoitlardan tashqarida tajriba orttirgan talabalar uchun vaqt va narxni tejashga yordam beradi.

7. **Hisobdorlik:** Kredit-modul tizimi talabalarning o'qishi va taraqqiyotini baholash uchun aniq va shaffof asosni ta'minlaydi, bu esa muassasalarga talabalar yutuqlarini yanada samaraliroq o'lchash va ta'lim dasturlari samaradorligini baholash imkonini beradi. Bu muassasalar o'z talabalarining ehtiyojlarini qondirishiga va ularni tanlagan sohalarida muvaffaqiyatga tayyorlashga yordam beradi.

8. **Innovatsiyalar:** Kredit-modul tizimi o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yetkazib berishda innovatsiyalar va tajribalarni rag'batlantiradi, chunki muassasalar rivojlanayotgan sohalar va o'zgaruvchan ishchi kuchi talablarini aks ettiruvchi yangi kurslar va modullarni ishlab chiqishi va taklif qilishi mumkin. Bu ta'limni jamiyat va iqtisodiyot ehtiyojlariga mos va mos holda saqlashga yordam beradi.

XULOSA VA MUNOZARA

Shunday qilib, kredit-modul tizimini ta`limga joriy etishning quyidagi jihatlarini ta`kidlash o`rinli deb hisoblaymiz:

a. Kredit-modul tizimi modullashtirish tamoyiliga asoslangan bo'lib, bu ta'limga moslashuvchi va individuallashtirilgan tarzda yondashish imkonini beradi.

b. Oldindan belgilangan miqdordagi kurs ishini yoki o'rindiq vaqtini bajarish uchun oddiygina kredit berish o'rniga, kredit ta'lim natijalari va muayyan kompetensiyalarni egallash asosida beriladi.

c. Standartlashtirilgan kredit tizimlari va ta'lim shartnomalari tufayli kreditni o'tkazish va tan olish osonroq bo'ladi, bu esa talabalarga erkinroq harakat qilish va ta'lim faoliyatida ko'proq moslashuvchanlikka ega bo'lish imkonini beradi.

d. Kredit-modul tizimi talabalarga yo'naltirilgan ta'lim va faol ishtirok etishga e'tibor beradi. Talabalar o'z bilimlarini egallab olishlari va o'z qiziqishlari va maqsadlariga rioya qilishlari rag'batlantiriladi, bu tizim talabalarga yo'naltirilgan ta'limni rivojlantirishga yordam beradi.

e. Diplom dasturi davomida talaba muvaffaqiyatli yakunlagan har bir alohida modul yoki kurs uchun kredit oladi.

f. Kreditni aniqlashda har bir alohida modul yoki kurs uchun zarur bo'lgan ish hajmi ko'pincha hisobga olinadi.

g. Ko'pincha bir dastur yoki muassasada olingan kreditlar boshqa dastur yoki universitetga o'tkazilishi mumkin.

h. Diplom dasturini tamomlash uchun sizdan oldindan belgilangan miqdordagi kredit olish talab qilinadi.

REFERENCES

1. Ashpulatova, N., & Amanova, G. (2021). The implementation of the credit-module systemin higher education institutions in Uzbekistan. *International Journal of Emerging Technologies in Learning* (iJET), 16(3), 130-139.
2. Bobojonov, I., Mamatkulov, N., & Karimova, D. (2020). Theoretical and practical aspectsof introducing the credit-module system in higher education institutions. *Revista Publicando,* 7(25), 27-36.
3. Ismailov, S., Iminova, M., & Abdullayev, A. (2021). Development of the credit-module system in the educational process of higher education institutions in Uzbekistan. *Journal of Critical Reviews,* 8(3), 148-151.
4. Kaivola, T., Tähtinen, R., & Mattila, P. (2020). Implementation of a Credit-Based Systemin

Higher Education: A Case Study of the University of Jyväskylä. *Education Sciences*, 10(4), 88.

5. Kurbanov, O. (2021). The implementation of the credit-module system in higher education institutions in Uzbekistan: Current status and prospects. *Journal of Innovative Technologies and Education, 8*(3), 56-63.

OLIY TA`LIMDA KREDIT-MODUL TIZIMINI YO`LGA QO`YISHNING AFZALLIKLARI

Mamatqulova Nilufar Boyzoq qizi
Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar insituti O'zbek tili pedagogika va jismoniy madaniyat kafedrasi o'qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.7931047

Annotatsiya. *Mazkur maqola oliy ta`lim tizimiga kredit-modul tizimini joriy etishning bir qator afzal tomonlarini muhokama etishga hamda xorijiy tizimlar bilan qiyosiy o`rganishga bag`ishlanadi.*

Kalit so‘zlar: *kredit-modul tizimi, oliy ta`lim, qiyoslash, metod.*

KIRISH

Kredit-modul tizimi oliy ta'lim muassasalariga moslashuvchan va ko`nikuvchan tizimni taklif etadi, bu esa talabalar muvaffaqiyatini, shuningdek, akademik innovatsiyalarni va kelgusi faoliyatga tayyorgarlikni rag'batlantiradi. Kredit-modul tizimi ta'lim olish yo'lidagi to'siqlarni minimallashtirishga xizmat qiladi va uzluksiz ta'lim va kasbiy o'sishni qo'llab-quvvatlaydi.

ASOSIY QISM

Bu tizim tomonidan kreditni o'tkazish va tan olishni osonlashtirish orqali amalga oshiriladi. Oliy ta’limda kredit-modul tizimidan foydalanishning bir qancha afzalliklari bor:

9. **Moslashuvchanlik:** Kredit-modul tizimi talabalarga o'qish kursi bo'yicha ko'proq moslashuvchanlikni ta'minlaydi. Talabalar o'zlarining qiziqishlari va martaba maqsadlariga mos keladigan modullar yoki kurslarni tanlashlari va o'z yo`nalishida rivojlanishi mumkin.

10. **Personallashtirish:** Kredit-modul tizimi talabalarga yo‘naltirilgan bo‘lib ishlab chiqilgan bo‘lib, talabalarga o‘quv materiali bilan faol shug‘ullanish va o‘z-o‘zini boshqarish va tuzilgan o‘qitish kombinatsiyasi orqali o‘z tushunchalarini rivojlantirish imkonini beradi. Ushbu shaxsiylashtirilgan ta'lim yondashuvi turli xil o'rganish uslublariga ega bo'lgan bugungi talabalarning ehtiyojlariga ko'proq mos keladi.

11. **Oldingi o'rganishni tan olish:** Kredit-modul tizimi talabalarning oldingi bilimlari va tajribasi uchun tan olinishini ta'minlash uchun o'rganishdan oldingi baholashni o'z ichiga oladi. Bu talabalarga modullar yoki kurslar bo'yicha tezroq o'tishga imkon beradi, chunki ular butun modul yoki kursni yakunlamasdan, muayyan vakolatlar yoki ko'nikmalar bo'yicha o'z malakalarini namoyish eta oladilar.

12. **Samaradorlik:** Kredit-modul tizimi an'anaviy ta'lim dasturlariga qaraganda samaraliroq, chunki talabalar o'z sur'atlari bo'yicha o'qishni davom ettirishlari va ta'limni tezroq yakunlashlari mumkin. Bu, ayniqsa, vaqt va resurslar cheklangan bo'lishi mumkin bo'lgan talabalar yoki ishlaydigan mutaxassislar uchun juda muhimdir.

13. **Sifatni ta'minlash:** Kredit-modul tizimi talabalarning ma'lum miqdordagi kreditlar ajratilgan modullar yoki kurslar to'plamini to'ldirish orqali aniq ta'lim natijalariga erishishlarini ta'minlash uchun mo'ljallangan. Bu talabalarning muvaffaqiyatini baholash uchun aniq asos yaratadi va talabalar tanlagan kasbiga yaxshi tayyorgarlik ko'rishlarini ta'minlaydi.

14. **O'tkazish imkoniyati:** Kredit-modul tizimi kreditni o'tkazish va tan olishni osonlashtiradi, talabalarga institutlar o'rtasida kredit o'tkazish yoki oldingi ta'lim uchun kredit olish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, kurs ishlarini tugatgan yoki an'anaviy akademik sharoitlardan tashqarida tajriba orttirgan talabalar uchun vaqt va narxni tejashga yordam beradi.

15. **Hisobdorlik:** Kredit-modul tizimi talabalarning o'qishi va taraqqiyotini baholash uchun aniq va shaffof asosni ta'minlaydi, bu esa muassasalarga talabalar yutuqlarini yanada samaraliroq o'lchash va ta'lim dasturlari samaradorligini baholash imkonini beradi. Bu muassasalar o'z talabalarining ehtiyojlarini qondirishiga va ularni tanlagan sohalarida muvaffaqiyatga tayyorlashga yordam beradi.

16. **Innovatsiyalar:** Kredit-modul tizimi o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yetkazib berishda innovatsiyalar va tajribalarni rag'batlantiradi, chunki muassasalar rivojlanayotgan sohalar va o'zgaruvchan ishchi kuchi talablarini aks ettiruvchi yangi kurslar va modullarni ishlab chiqishi va taklif qilishi mumkin. Bu ta'limni jamiyat va iqtisodiyot ehtiyojlariga mos va mos holda saqlashga yordam beradi.

XULOSA VA MUNOZARA

Shunday qilib, kredit-modul tizimini ta`limga joriy etishning quyidagi jihatlarini ta`kidlash o`rinli deb hisoblaymiz:

i. Kredit-modul tizimi modullashtirish tamoyiliga asoslangan bo'lib, bu ta'limga moslashuvchi va individuallashtirilgan tarzda yondashish imkonini beradi.

j. Oldindan belgilangan miqdordagi kurs ishini yoki o'rindiq vaqtini bajarish uchun oddiygina kredit berish o'rniga, kredit ta'lim natijalari va muayyan kompetensiyalarni egallash asosida beriladi.

k. Standartlashtirilgan kredit tizimlari va ta'lim shartnomalari tufayli kreditni o'tkazish va tan olish osonroq bo'ladi, bu esa talabalarga erkinroq harakat qilish va ta'lim faoliyatida ko'proq moslashuvchanlikka ega bo'lish imkonini beradi.

l. Kredit-modul tizimi talabalarga yo'naltirilgan ta'lim va faol ishtirok etishga e'tibor beradi. Talabalar o'z bilimlarini egallab olishlari va o'z qiziqishlari va maqsadlariga rioya qilishlari rag'batlantiriladi, bu tizim talabalarga yo'naltirilgan ta'limni rivojlantirishga yordam beradi.

m. Diplom dasturi davomida talaba muvaffaqiyatli yakunlagan har bir alohida modul yoki kurs uchun kredit oladi.

n. Kreditni aniqlashda har bir alohida modul yoki kurs uchun zarur bo'lgan ish hajmi ko'pincha hisobga olinadi.

o. Ko'pincha bir dastur yoki muassasada olingan kreditlar boshqa dastur yoki universitetga o'tkazilishi mumkin.

p. Diplom dasturini tamomlash uchun sizdan oldindan belgilangan miqdordagi kredit olish talab qilinadi.

REFERENCES

6. Ashpulatova, N., & Amanova, G. (2021). The implementation of the credit-module systemin higher education institutions in Uzbekistan. *International Journal of Emerging Technologies in Learning* (iJET), 16(3), 130-139.
7. Bobojonov, I., Mamatkulov, N., & Karimova, D. (2020). Theoretical and practical aspectsof introducing the credit-module system in higher education institutions. *Revista Publicando,* 7(25), 27-36.
8. Ismailov, S., Iminova, M., & Abdullayev, A. (2021). Development of the credit-module system in the educational process of higher education institutions in Uzbekistan. *Journal of Critical Reviews,* 8(3), 148-151.
9. Kaivola, T., Tähtinen, R., & Mattila, P. (2020). Implementation of a Credit-Based Systemin

Higher Education: A Case Study of the University of Jyväskylä. *Education Sciences*, 10(4), 88.

10. Kurbanov, O. (2021). The implementation of the credit-module system in higher education institutions in Uzbekistan: Current status and prospects. *Journal of Innovative Technologies and Education, 8*(3), 56-63.

ONA TILI TA’LIMIDA TAKRORLASH VA MUSTAHKAMLASH DARSLARINI TASHKIL QILISHNING PEDAGOGIK VA DIDAKTIK ASOSLARI

Urmonova Dilfuza Mamasalievna
Muhammad Yusuf nomidagi ijod maktabi o’qituvchisi, erkin tadqiqotchi
ORCID NO: 0000-0001-7356-1560
ormonova.dilfuza@mail.ru

https://doi.org/10.5281/zenodo.7931065

Annotasiya. *Taniqli tilshunos, filologiya fanlari doktori A.Nurmonovning fikricha, kompetensiyaviy ta’lim konsepsiyasi til ta’limi oldiga yoshlarda muayyan kompetensiyalarni, xususan, lingvistik, nutqiy, kreativ (mustaqil va ijodiy fikrlash), pragmalingvistik singari kompetensiyalarni shakllantirish vazifasini qo‘yadi. Maqolada ona tili ta’limida takrorlash va mustahkamlash darslarini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil qilishning pedagogik va didaktik asoslari haqida so`z boradi.*

Kalit so`zlar: *kompetensiyaviy ta’lim, lingvistik, nutqiy, kreativ, mustaqil va ijodiy fikrlash, pragmalingvistik kompetensiyalar.*

Dunyo mamlakatlarida umumta’lim maktab o‘qituvchilari uchun belgilangan kompetensiyalarda umumiylik, o‘xshashlik kuzatilsa-da, aynan bir xil emas. “Ba’zi olimlar uch bosqichli kompetensiyani e’tirof etadilar: 1) umumiy (tayanch) kompetensiya; 2) umumiy predmetli kompetensiya; 3) predmetli kompetensiya. Oxirgi kompetensiya oldingi ikki kompetensiyaga nisbatan xususiy sanaladi”. Britaniya maktablarida oltita tayanch kompetensiyalar asos sifatida olingan. Ularni shartli ravishda bir nechta guruhlarga birlashtirish mumkin. “Asosiy kompetensiyalar: muloqotga kirishish; hisob-kitoblar yuritish; axborot savodxonligi. Keng ko‘lamli tayanch kompetensiyalar: boshqalar bilan ishlay olish; bilim olish va takomillashish malakasi; turli masala va muammolarni yechish ko‘nikmasidir”.

Atoqli tilshunos olim A.Nurmonov va G.Ziyodullaevalarning “O‘quvchilarning til kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish muammolari” maqolasida kompetensiyaviy ta’lim konsepsiyasi til ta’limi oldiga o‘quvchilarda nutqiy, lingvistik, kreativ va pragmalingvistik singari kompetensiyalarni shakllantirishni ko‘zlashi qayd etilgan. Bular xususiy xarakterdagi predmetli kompetensiyalar sirasiga kiradi. Ya’ni har bir darsda mavzuning mazmun va mohiyatidan kelib chiqib o‘qituvchi tarbiyalanuvchilarda shakllantirishni rejalashtiradigan layoqat shakllari deyish mumkin. Ana shu kompetensiyalarni shakllantirgan va talab darajasida rivojlantirgan til ta’limi o‘ziga bildirilgan ishonchni oqlagan, yuklatilgan vazifani uddalagan bo‘ladi. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim – bu o‘quvchilarda egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo‘llay olish nuqtai nazaridan beriladigan ta’limdir.Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’limdan maqsad esa o‘quvchini keng qamrovli fikr-mulohaza yuritadigan va muloqatga kirisha oladigan barkamol shaxs qilib etishtirishdir. Kompetensiyaviy yondashuv umumiy o‘rta ta’limni modernizatsiyalash nuqtai nazaridan yangi pedagogik voqelik hisoblanadi. Mazkur yondashuv doirasida amaliy faoliyat tajribasi, kompetensiya va kompetentlikni didaktik birliklar sifatida ko‘rib chiqish hamda ta’limning an’anaviy uch elementi (triada) – “Bilim – Ko‘nikma – Malaka”ni oltita birlik (sekstet) – “Bilim – Ko‘nikma – Malaka – Amaliy faoliyat tajribasi – Kompetensiya –Kompetentlik” tarzida tahlil qilish talab etiladi.

Taniqli tilshunos, filologiya fanlari doktori A.Nurmonovning fikricha, kompetensiyaviy ta’lim konsepsiyasi til ta’limi oldiga yoshlarda muayyan kompetensiyalarni, xususan, lingvistik, nutqiy, kreativ (mustaqil va ijodiy fikrlash), pragmalingvistik singari kompetensiyalarni shakllantirish vazifasini qo‘yadi. O‘quvchining nutqiy kompetensiyasi muayyan til imkoniyatlaridan amalda foydalanish malakasidir . So‘zlovchi til haqidagi bilim asosida nutqiy faoliyatga kirishsa-yu, lekin nutqiy tajriba asosida hosil bo‘ladigan bilimga etarli ega bo‘lmasa, uning lingvistik kompetensiyaga to‘liq ega emasligi bilinib qoladi. Tilning nazariy jihatlari, qonun-qoidalar ta’lim jarayonida o‘rgatiladi va natijada o‘quvchilarda til haqidagi bilimlar majmuasi yaratiladi. Til sistemasi, tilning qurilishi va funksiyalari haqidagi bilim, ko‘nikmalar va ulardan turli vaziyatlarda o‘rinli foydalanish mahoratiga lingvistik kompetensiya deb qaraladi, ya’ni til sistemasi haqidagi bilimga, lingvistik tafakkurga, yangi til vaziyatlarida bilim va ko‘nikmalarini mustaqil qo‘llay olish tajribasiga ega bo‘lgan xislatlar tushuniladi. Buni yanada soddaroq qilib, til bilimining mukammalligi va yetukligi desa ham bo‘ladi. Takrorlash va mustahkamlash darslarida ayrim kompetensiyalar alohida ahamiyatga ega.

Lingvistik kompetensiya o‘quvchining ona tili fanining fonetika, leksika, frazeologiya, morfologiya, sintaksis, orfografiya, punktuatsiya, stilistika singari bo‘limlari haqidagi bilimlari, bu bilimlardan turli xil vaziyatlarda foydalanish malaka va ko‘nikmasidir. Tilshunos olim, filologiya fonlari doktori N.Uluqov fikricha, lingvistik kompetentlik quyidagilardan tarkib topadi:

1) o‘z fikrini ona tilida ravon, tushunarli, aniq va lo‘nda ifodalay olish;
2) adabiy tilda so‘zlash;
3) imloviy, ishoraviy va uslubiy xatolarsiz yoza olish;
4) davlat tilida ish hujjatlarini yurita olish;
5) xorijiy tillarni bilish va hokazo.

Demak, lingvistik kompetentlik butunlik sifatida bir necha struktur komponentlardan tashkil topadi, eng avvalo, ona tili fani haqidagi bilim va malaka o‘rtasidagi munosabatdan iborat. Ona tili haqidagi bilim esa o‘zbek tilining funksiyasi, ona tili fanining bo‘limlari, til sistemasi va uning birliklari, bu birliklarning ma’no va vazifalari, so‘z turkumlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari, gap bo‘laklari va gapning ifoda maqsadiga, tuzilishiga ko‘ra turlari, ularning uslubiy belgilari, imloviy xususiyatlari sistemasidan tashkil topadi. Atrof-muhitni anglash, bo‘layotgan voqea-hodisalarni sergaklik bilan kuzatib, ulardan kerakli xulosalarni chiqarish, har bir hodisaga ijodiy yondashgan holda, o‘zining mustaqil fikrini emin-erkin ayta olish lingvistik kompetensiyaning mazmun-mundarijasini belgilaydi. Lingvistik kompetentlikni shakllantirish kommunikativ kompetentlik bilan birga yetakchi maqsadlardan biri bo‘lib, maktab o‘quvchilarining til (lingvistik) va nutq rivojlanishining birligini ta’minlaydi, u til kompetensiyasi rivojlanishining muvaffaqiyatini belgilaydi, chunki uning rivojlanish darajasi o‘quvchilarning nutqini rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq. Lingvistik kompetensiya ona tilidan egallanadigan lingvistik bilimlar tizimi va u o‘zbek tilining fonetikasi, leksikasi va grammatikasi bo‘yicha nazariy bilimlarni muayyan izchillikda egallash natijasida takomillashib boradi.

Jamiyat ona tili ta’limi oldiga o‘quvchi shaxsida fikrlash, o‘zgalar fikrini anglash va fikr mahsulini og‘zaki va yozma shaklda savodli bayon qila olish, ya’ni mustaqil va ijodiy tafakkurni hamda kommunikativ savodxonlikni rivojlantirish vazifasini qo‘yadi. Bugungi tilshunoslik oldiga qo‘yiladigan talab ham tilni uni tashkil etuvchilari va ular o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish asosida emas, balki til egalari xotirasidagi lisoniy bilimlarning muloqot jarayonida aktuallashish xususiyatlarini, ya’ni lisoniy kompetensiya va uning nutqiy ifodasi munosabatini o‘rganish asosida

tadqiq etishdir. Hozirgi o‘zbek tilshunosligining bugungi muammosi ham til egalari xotirasida jamlangan til faktlarining muloqot jarayonidagi tatbiqining (til kompetentligi), kommunikatsiya jarayonida tilning rolini, til va til egasi munosabatini o‘rganishdir. Odatda, har bir xalqning madaniyatlilik darajasi uning savodxonlik darajasi bilan belgilanadi. Savodxonlik darajasi esa, o‘qish-yozishni bilish bilangina emas, balki so‘zlarni qanchalik to‘g‘ri yoza olish va o‘z o‘rnida qo‘llay olish qobiliyatiga ega bo‘lishida ko‘rinadi.

“Maktab o‘quvchisining lingvistik kompetensiyasi deganda til sistemasi haqidagi bilimlarga, lingvistik tafakkurga, yangi til vaziyatlarida bilim va ko‘nikmalarni mustaqil qo‘llash tajribasiga ega bo‘lgan o‘quvchining integral shaxsiy xislatlari tushuniladi. Boshqacha aytganda, lingvistik kompetensiya ijtimoiy hodisa va belgilar sistemasi sifatida til haqida, tilning qurilishi va funksiyalanishi haqida o‘quvchilarning bilim, malakasi va ko‘nikmasi hamda bulardan turli vaziyatlarda foydalanish mahorati anglashiladi. Tilshunos D. Nabieva fikriga ko`ra, “Lingvistik kompetensiyaga ega bo‘lish uchun til sathlari va sath birliklari, ularning muloqot jarayonidagi ifoda imkoniyatlari, to‘g‘ri so‘zlash, tinglash, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini hosil qilish lozim. Shu bilan birga lingvistik kompetensiya o‘z tarkibiga sotsiolingvistik va pragmalingvistik kompetensiyalarni ham qamrab oladi”. Proffessor N.Uluqov ta`rifiga ko`ra, lingvistik kompetensiya: ”til bilimining mukammalligi va yetukligi”dir.

Pragmalingvistik kompetensiya. Tilni nazariy tadqiq qilish, amaliy o‘rganish va o‘qitish uni hayotiy vaziyatlar hamda zaruratlar doirasida olib borilsagina, ahamiyat jihatidan to‘laqonli o‘z vazifasini ado eta oladi. “Lison ham hayot manbai, shu sababli uning hayotdagi o‘rnini, undan odamlar qanday foydalanayotganligini hamda uning hayot darajasi, sifatiga qanday ta’siri borligini bilmoq kerak. Bularning barchasi biz foydalanayotgan hodisa – tilning tabiati va ijtimoiy mohiyatini bilish imkonini yaratadi”. Tilshunos olim Sh.Safarov keng qamrovli ijtimoiy vaziyatlar sharoitida muloqot vaziyatlari o‘zgarib turishi, oddiy tuzilishda bo‘lgan pragmatik strukturaning murakkablashib borishi, ayni paytda pragmatikaning semantik qobig‘i to‘xtovsiz kengayib borishini ta’kidlar ekan, “lisoniy tahlilni pragmatikadan boshlamoq zarur” degan to‘xtamga keladi.

Hozirgi kundagi ta’lim tizimida til o‘qitishda tilning sof ichki tuzilishini o‘rgatishga asosiy e’tibor qaratilayotgani jiddiy va asosli tanqid qilinmoqda. Chunki lisoniy strukturani bilgan holda u bilan bog‘liq bilimlardan qanday va qaysi o‘rinlarda foydalanishni bilmagan odam uchun bu bilimlarni o‘zlashtirganidan hech qanday foyda va samara bo‘lmaydi. Behudaga vaqt va kuch sarflagani qoladi. Mazkur muammoning yechimi bilan pragmalingvistika shug‘ullanadi. Kreativ kompetensiya o‘z ichiga nutqiy va lingvistik bilim, ko‘nikmalarni olganidek, pragmatik kompetensiya ham bevosita ulardagi o‘zaro aloqador ko‘nikma va malakalar orqali shakllantiriladi, ayni paytda ularga nisbatan umumiylik xarakteridadir. “Pragmatik kompetensiya - muayyan vaziyatlardan ustalik bilan chiqib keta olish qobiliyatiga ega bo‘lishdir”. Ilmiy adabiyotlarda pragmatika kommunikativ vazifalarni hal qilish maqsadida lisoniy vositalardan tanlab foydalanishni nazarda tutuvchi real muloqot vaziyati sifatida talqin qilinadi,

Demak, dars mashg‘ulotlarini, xususan, takrorlash va mustahkamlash darslarini yuqoridagi mezonlar asosida tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

REFERENCES

1. To‘xliyev B., M. Shamsiyeva M., T. Ziyodova T.. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. O‘quv qo ‘llanma. T.:2006

2. Umumiy o‘rta ta’limning Milliy o‘quv dasturi.Ona tili (1-11) Тошкент,-2021
3. Абдуазизов А. А. Тилшунослик назариясига кириш. Т., 2010.
4. Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Ҳ., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари – Тошкент, 2015. – 120 б.
5. Муҳиддинова Х. Таълим босқичларида ўзбек тили ўқитилиши узлуксизлигини таъминлашнинг илмий-методик асосларини такомиллаштириш пед. фан. ном-ди дисс. ТДПИ –Тошкент, 2011.
6. Набиева Д. Лингвистик компетенция ва унинг шаклланиш жараёнлари. Андижон давлат университети Илмий хабарнома. – Андижон, 2019. – № 12. – Б. 91.
7. Нурмонов А., Хакимов М. Лингвистик прагматиканинг назарий шаклланиши // Ўзбек тили ва адабиёти, 2001, 4-сон, – Б. 54-58.
8. Нурмонов А.,Зиёдуллаева Г. Ўқувчиларнинг тил компетентлигини шакллантириш ва ривожлантириш муаммолари // Маърифат, 2014, 18 июль. – Б. 12.
9. Пассов Е.И.Основы коммуникативной методики обучения иностранным языкам. - Москва: –1999
10. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2008.
11. Турдиев Н ва б Умумий ўрта таълим тизимида ўқувчиларнинг компетенцияларини шакллантиришга йўналтирилган таълим технологиялари. Т.Н. Қори Ниёзий номидаги Ўзбекистон педагогика фанлари илмий-тадқиқот институти. (1-қисм). – Тошкент, 2015. – 160 б.

UMUMTA'LIM MAKTABLARINING ALGEBRA DARSLARI ORQALI O'QUVCHILARNING MANTIQIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH USULLARI VA BUNDA MANTIQIY MASALALARNING O'RNI

Аннотация. *В статье говорится о лингводидактических основах формирования языковой компетенции при обучении синтаксису. Упражнения, направленные на формирование языковой компетенции в процессе изучения синтаксиса, определяются как комплексные языково-речевые упражнения, поскольку каждое из них должно способствовать усвоению учащимися теоретических знаний по синтаксису и активно формировать грамматические навыки.*
Ключевые слова: *синтаксис, студенты, языковая компетенция, лингводидактические основы, языковая компетенция, языково-речевые упражнения.*

Abstract. *The article deals with the linguodidactic foundations of the formation of language competence in teaching syntax. Exercises aimed at the formation of language competence in the process of studying syntax are defined as complex language and speech exercises, since each of them should contribute to the assimilation of theoretical knowledge of syntax by students and actively form grammatical skills.*
Keywords: *syntax, students, language competence, linguodidactic foundations, language competence, language and speech exercises.*

Замонавий жамият турли хил маълумотлардан ўз–ўзини такомиллаштириш учун зарур ва фойдали нарсаларни танлаб ўз позицияларини ифода этишга қодир бўлган, ҳаётий эътиқодларни ҳимоя қила оладиган лисоний шахсни ривожлантириш талабини илгари сурмоқда. Шунга кўра, замонавий таълим парадигмаси (компетентлик) шароитида таълим олувчида бир қатор компетенцияларни шакллантириш муаммоси муҳим ўрин тутади.

Янги Ўзбекистон мактабининг янги концептуал йўналиши – замонавий таълимнинг мазмунини шакллантириш ва технологияларни аниқлашга компетенцияга асосланган ёндашувни амалга ошириш ҳисобланади. Таълим тизимига компетенцияларни жорий этишнинг турли жиҳатларини фаол кўриб чиқадиган олимларнинг кўплаб тадқиқотларига асосланади. Тадқиқотчилар А.Андреев, Э.Зеер, И.Зимня, А.Хуторской ва бошқалар фикрича, таълим жараёнида компетенциявий ёндашуви “шахснинг фаол ва конструктив ривожлантиришнинг самарали тарбиявий воситаси” сифатида қаралади” [1, 3- б.].

Ўзбек тилини ўқитишнинг замонавий ёндашувлари ўқувчиларнинг ривожланиш даражасини, маълум бир методология бўйича коммуникатив қобилият ва кўникмаларни шакллантириш динамикасини, ишнинг айрим жиҳатлари, усуллари ва ўқитиш воситаларининг қиёсий самарадорлигини ҳисобга олади. Компетенцияга асосланган ёндашув таълим жараёнини ўқувчиларнинг асосий ва фан компетенцияларини ривожлантиришга йўналтиришни ўз ичига олади. Бу ёндашув синтактик бирликларни ўрганиш жараёнида мантиқий фикрлашни ривожлантиришга қаратилган.

Ўзбек тилини ўрганиш мактаб курсида синтаксис муҳим ўрин тутади, чунки тил тизимининг синтактик даражасида (энг кичик коммуникатив бирлик сифатида жумла) бошқа даражадаги барча тил бирликлари ўзининг тўлиқ ифодасини топади, тил ва нутқнинг функционал мукаммаллиги ва мантиқий баҳолаш воситаларига эга бўлади [2, 207-бет].

Тилнинг узлуксиз таълимини ташкил этишда синтаксис тилнинг аниқловчи – коммуникатив ва когнитив функцияларига бўйсуниб, энг юқори хусусиятга эга. Синтаксисни ўргатишда лингвистик компетенция мактаб ўқувчилари учун турли хил коммуникатив нутқ ҳолатларида зарур бўлган тил билимлари, кўникмалари ва малакалари тизимидаги асосий фан компетенцияларидан бири бўлиб, улар оғзаки ва ёзма адабий тилдан фойдаланиш қобилиятини ўз ичига олади.

Тилнинг синтактик қурилиши синтактик бирликларда намоён бўлади. Синтактик бирликларни таҳлил қилиш орқали муайян тил синтактик қурилишига хос хусусиятлар аниқланади.

Рус тилшуноси О.Биляев асарида тил тизимининг структуравий даражалари ўртасидаги боғланиш тамойилининг амалга оширилиши атрофлича ёритилган: “Синтаксис дарслари барча босқичларда тизимли кузатишларни талаб қилади. Аслида, тили курсининг ҳеч бир бўлими синтаксис каби бу борада катта имкониятларга эга эмас. Бундан ташқари, синтаксисни ўрганиш тил ва адабиёт дарсларини чамбарчас боғлаш имконини беради” [3, 109-бет].

Синтаксисни ўқитиш методикаси умумий дидактик тамойиллар билан бир қаторда, ўзига хос тамойилларга асосланади:

синтаксисни морфология, луғат, фонетика, стилистика билан боғлиқ ҳолда ўқитиш (барча қуйи даражадаги тил бирликларининг функционал имкониятларини ўлчаш);

синтаксисни тиниш белгилари ва интонацияга боғлиқ ҳолда ўргатиш (гапнинг тузилиши, ифода мақсади, эмоционал ранг–баранглиги бўйича турлича интонация қилиш, гапни коммуникатив ниятига кўра ажратиш, мантиқий урғудан ўринли фойдаланиш, ўқиш малака ва кўникмаларини эгаллаш. аниқ ва бошқалар);

изчил нутқни ривожлантириш билан биргаликда синтаксисни ўрганиш принципи (нутқ мазмуни линиясининг вазифаларини синтаксис ёрдамида амалга ошириш);

матн яратиш ва матн–сентризм принципи (синтактик бирликларни матн асосида ўрганиш;

матн тузилиши ва ундаги лингвистик бирликларнинг вазифаларидан хабардор бўлган ҳолда ўз матнларини яратиш) [4, 57-бет].

Оддий гап синтаксисини ўрганиш жараёнида тил компетенциясини шакллантириш жараёнида белгиланган услубий тамойилларнинг амалга оширилишини аниқлаймиз. Мактаб ўқувчилари учун синтаксис ва тиниш белгиларини ўргатишнинг тил–дидактик тизими ўзида мужассамлашган: умумий ва лингвистик дидактик тамойиллар [5, 32-бет].

Жумладан, гап бўлакларини белгилаш баъзан гап таркибида фақат гап аъзоси билан гап бўлагининг қиёсланиши туфайли мумкин бўлади, лекин лексик бирликларни танлаш контекцуал муҳитга боғлиқ.

Бошланғич синфлар ўқувчиларида синтаксис ва тиниш белгиларига оид пропедевтик билимлар янгиланади, янги назарий маълумотлар тизимли равишда ўрганилади, ўқувчиларда қуйидаги синтактик ва тиниш белгилари кўникма ва малакалари шаклланади:

гапдаги сўз бирикмаларини фарқлай олиш;

иборадаги асосий ва тобе сўзни топиш;

иборалар ва гапларни фарқлай олиш; берилган схемалар бўйича иборалар тузиш;

бир хил маънони ифодалаш учун тузилиши жиҳатидан ҳар хил ибораларни танлаш;

содда ва мураккаб гапларни, гап турларини ифода мақсадига кўра, эмоционал бўяшига кўра, тузилишига кўра фарқлай олади;

гап аъзоларини, мурожаатларни, кесимларни, гапнинг алоҳида аъзоларини аниқлаш;

нутқда содда ва мураккаб гапларнинг ҳар хил турларидан тўғри ва ўринли фойдаланиш;

ибора ва гапларни синтактик таҳлил қилиш;

бевосита ва билвосита нутқни аниқлаш;

гапларни ва уларнинг таркибий қисмларини тўғри интонация қилиш ва бошқалар.

Олимлар З. Бакум, Н. Голуб, О. Ҳорошкина, А. Загнитко, М. Пентилюк ўқувчиларнинг тил компетенциясини шакллантиришда қуйидаги усуллар муҳим ўрин тутишини қайд этадилар:

анъанавий: суҳбат, тилни кузатиш, дарслик билан ишлаш, машқ қилиш усули, ўқитувчи ҳикояси;

ноанъанавий: тадқиқот, назарий, амалий, маҳсулдор, репродуктив, изланиш, мулоҳаза[6].

Методик адабиётлар таҳлили [7,8] ўқув фаолиятини ташкил этишнинг фронтал, жамоавий, гуруҳли, индивидуал каби шакллари ўқувчиларнинг тил компетенциясини шакллантиришда самарали эканлигини исботлади.

Фикрларнинг узлуксиз кўламини, ақлий ҳужумни, ўйинни моделлаштириш элементлари билан муҳокама қилишни ўз ичига олган интерфаол таълим усулидан фойдаланиш ҳам ўқувчиларнинг тил компетенциясини муваффақиятли шакллантиришга ёрдам беради. Суҳбат, тил материалини кузатиш, материални муаммоли тақдим этиш, дарслик билан ишлаш ва моделлаштириш, ўзгартириш, қўшиш, қуриш ва бошқалар усуллари энг самарали ҳисобланади. Бундан ташқари, синтаксис ва тиниш белгиларини ўқитиш методикасида қуйидаги ўзига хос усуллар қўлланилади:

сўз бирикмаларини таҳлил қилиш;

ҳар хил турдаги гапларнинг кенгайиши ва қисқариши;

баъзи синтактик бирликларни бошқалар билан алмаштириш; синтактик конструксияларни қайта қуриш/қайта қуриш;

қўллаб–қувватловчи сўзлар ёки схемалар асосида жумлалар тузиш; жумлаларни таҳрирлаш;

гапни (матнни) тўлиқ ёки қисман таҳлил қилиш;

график белгилар ёрдамида таҳлил қилиш;

синтактик бирликларни синтактик таҳлил қилиш;

синтактик бирликларнинг синтактик ва стилистик таҳлили;

схемалар бўйича синтактик конструксияларни тузиш;

гапда мантиқий интонацияни кузатиш, синтактик конструксияларнинг ритми ва оҳанги ва бошқалар.

Лингвистик эртаклар, тиниш белгиларини аниқлаш учун кроссвордлар, бошқотирмалар, ижодий топшириқлар мактаб ўқувчиларининг фикрлаш фаолиятини фаоллаштиради.

Синтаксисни ўқитиш методологиясида гап билан ишлаш машқлари анъанавий равишда, агар тайёр гапларни таҳлил қилиш устун бўлса, аналитик ва жумлаларнинг мустақил таркибини ўз ичига олган синтетикга бўлинади[5]. Ушбу турдаги машқлар машғулотларнинг турли босқичларида қўлланилади. Кўпинча синтетик машқлар аналитик машқлар асосида амалга оширилади.

Синтаксисни ўрганиш жараёнида машқлар тизимли характерга эга бўлиши кераклиги аниқланди. Синтаксисни ўрганиш жараёнида тил компетенциясини шакллантиришга қаратилган машқлар мураккаб тил–нутқ машқлари деб таърифланади, чунки уларнинг ҳар бири ўқувчиларнинг синтаксис бўйича назарий билимларини ўзлаштиришига ҳисса қўшиши ва грамматик кўникмаларини фаол шакллантириши керак.

Хулоса, ўқувчиларнинг муайян матнлардаги синтактик бирликларнинг стилистик ролини тушунишлари ўз фикрларини ифодалаш учун гап турларини, гапнинг асосий ва иккинчи даражали аъзолари турларини тўғри танлашга ёрдам беради. Шунинг учун ўқувчиларга ўзбек тили синтаксисини ўргатиш маълум мақсад ва вазифалар, тегишли ташкилий, психологик–педагогик, илмий–услубий, компетенция тамойиллари, шахсга йўналтирилганлик ва фаолият ёндашувлари, фундаментал лингвистик ва дидактик тамойиллар, ўқитиш усуллари ва усуллари, ўқув жараёнини ташкил этиш шакллари, лингвистик–дидактик шароитлар, субъектив ва объектив акмеологик омиллар билан тавсифланган лингвистик дидактик тизимда амалга оширилади.

REFERENCES

1. Зимняя И. А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата современного образования. URL : http://www.eidos.ru/journal/2006/0505.htm (дата звернення : 17.11.2020)
2. Загнітко А. П. Методи, методики дослідження сучасного синтаксису. Науковий вісник Чернівецького університету. № 475–477. 2009. С. 207–213.
3. Гулямов А., Аскарова М. Современный узбекский язык. Синтаксис. / А. Гуломов, М. Аскарова. – Ташкент: Учитель, 1987. – 256 с
4. Нурмонов А., Маҳмудов Н., Аҳмедов А., Солихўжаев С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Тошкент: Фан, 1992. – 296 б
5. Юлдашева У.И. Семантико-синтаксическая структура предложений с двувалентными глаголами в русском и узбекском языках: Дисс. ... канд. филол. наук.– Худжанд, 2006. – 140 с.
6. Сафаров Ш. С. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор нашриѐти, 2006;
7. Абдураҳмонов Ғ.А. ва бошқ. Ўзбек тили грамматикаси. II том. Синтаксис. – Тошкент: Фан, 1996. – 560 б.;
8. Люсьен Теньер Основы структурного синтаксиса. – М.: Прогресс, 1988. – С. 250

ELEKTROSTATIKA BO‘LIMIDAGI “KUCHLANISH”, “POTENSIAL”, “POTENSIALLAR FARQI” VA “ELEKTR YURITUVCHI KUCH (EYUK)” KATTALIKLARINI O‘QUVCHILARGA TUSHUNTIRISH USULLARI

Erkin Voxidov
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining tayanch doktoranti

https://doi.org/10.5281/zenodo.7932717

Annotatsiya. *Ushbu maqolada fizikaning elektrotexnika va elektronika bo‘limlariga oid materiallarda bir xil o‘lchov birliklari (Volt, V)da o‘lchanadigan fizik kattaliklar: kuchlanish, potensial, potensiallar farqi hamda elektr yurituvchi kuch (EYuK)larni o‘rganishda o‘quvchilar muayyan chalkashliklarga duch kelishlari sababli bu kattaliklarni o‘xshashlik tomonlari va farqlari to‘g‘risida qisqacha bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *ta’lim, tarbiya, bilim, metodika, darslik, o‘qitish, bilim, fan, umumta’lim maktab, akademik litsey, fizika, elektrostatika, kuchlanish, potensial, potensiallar farqi, elektr yurituvchi kuch (EYuK).*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022 yildagi Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi [1]da ta’lim sohasiga alohida to‘xtalib o‘tib, ushbu sohada boshlagan islohotlarni davom ettirish, ta’lim dargohlariga borib, o‘qituvchi va murabbiylar bilan ko‘proq muloqot qilish, sifatni oshirish bo‘yicha ular qo‘ygan masalalarni birgalikda hal qilish, ushbu jarayonlarda deputat va senatorlar, mahalla vakillari, ziyolilar, yoshlar, tadbirkorlar va keng jamoatchilikdan faol bo‘lishlarini, yangi-yangi taklif va tashabbuslar bildirishlarini ta’kidladilar.

Prezidentimizning 2023-yilga yurtimizda “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” deb nom berish tashabbusini yig‘ilganlar bir ovozdan qo‘llab-quvvatladi.

Shu yurtda yashayotgan har bir insonning tinch va baxtli hayot kechirishi, uning sog‘lig‘i joyida bo‘lishi, yaxshi ta’lim olishi, oilasini tebratishi uchun qanday sharoit kerak bo‘lsa, hammasini yaratib berishga harakat qilayapmiz va bu yo‘ldan aslo to‘xtamaymiz”, – dedi davlatimiz rahbari.

Birinchi navbatda, e’tibor Yangi O‘zbekiston uchun eng katta investitsiya bo‘lgan ta’limni qo‘llab-quvvatlashga qaratilishi ta’kidlandi. Najot – ta’limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi.

O‘qituvchilarning maqomini, ularning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilishni Konstitutsiyada alohida belgilash zarurligi qayd etildi. Kelasi yildan boshlang‘ich sinflarda mutlaqo yangi metodika asosida yaratilgan darsliklar bo‘yicha o‘qitish yo‘lga qo‘yiladi” hamda “Ta’lim sifatini oshirish – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to‘g‘ri yo‘lidir!” — dedi Prezident.

Haqiqatdan ham hozirgi kunda mustaqil O‘zbekistonimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar ichida ta’lim sohasiga ustuvor yo‘nalish sifatida alohida e’tibor berilmoqda. 2017-2022 yillar davomida nafaqat ta’lim turlarini, shuningdek, har bir alohida fanni rivojlantirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va Qarorlari [2-6] qabul qilindi.

2021 yil 19 mart sanasida imzolangan “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5032-son Qarori [7] oliy va akademik fanni rivojlantirish, umumta’lim maktablarida ta’lim

sifatini oshirishga qaratilgan muhim hujjat sifatida fizika va astronomiya o‘qituvchilarini behad quvontirdi.

Mazkur qarorda ta’kidlanganidek, “Bir necha asrlar davomida aniq va tabiiy fanlar O‘zbekiston zaminida keng rivojlanib, O‘rta Osiyo hududi dunyo intellektual markazi bo‘lib kelgan. Yurtimiz hududida yuzaga kelgan birinchi va ikkinchi Renessans davri butun dunyo tan oladigan mashhur daholarni yetishtirib berdi. Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Koshg‘ariy, Abu Ali ibn Sino, Nasriddin Tusiy, Qozizoda Rumiy, Jamshid Koshiy, Mirzo Ulug‘bek, Ali Qushchi va Sharqning boshqa olimlari ilmiy tadqiqotlari jahon ilm-fani rivojiga beqiyos hissa qo‘shdi.

Buyuk ajdodlarimizning ilmiy an’analarini munosib davom ettirgan holda, XX asrning 40-yillaridan boshlab O‘zbekistonda fizika fanini rivojlantirish jarayonida nufuzli ilmiy maktablar tashkil etildi, ularning vakillari xalqaro mukofotlarga sazovor bo‘ldi va xorijiy akademiyalar a’zolari bo‘lib saylandi. Eng muhim ilmiy yo‘nalishlarni shakllantirishda Fanlar akademiyasining taniqli ilmiy maktablar yaratgan atoqli fiziklari muhim o‘rin tutdi. Mamlakatimiz fizika maktabi qattiq jismlar fizikasi, atom yadrosi fizikasi, yarim o‘tkazgichlar fizikasi, lazer fizikasi va issiqlik fizikasi sohalarida jahon ilm-faniga ulkan hissa qo‘shdi.

Bugungi kunda ta’lim muassasalarida fizika fanini o‘qitish sifatini oshirish, ta’lim jarayoniga zamonaviy o‘qitish uslublarini joriy qilish, iqtidorli o‘quvchilarni saralash, mehnat bozoriga raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash, ilmiy tadqiqot va innovatsiyalarni rivojlantirish hamda amaliy natijadorlikka yo‘naltirishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Shu bilan birga, sohada yechimini topmagan qator masalalar fizika sohasidagi ta’lim sifati va ilmiy tadqiqot samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish zaruratini ko‘rsatmoqda”.

Fizika fani o‘zining mavhumlik darajasi bo‘yicha barcha fanlar ichida birinchi o‘rinda turadi. Chunki fizika fani o‘rganadigan mavzular (hodisa va jarayonlar) o‘z ichiga inson tafakkuri qabul qilishi qiyin bo‘lgan ko‘rinmas elementar zarralardan (elektron, neytron, proton, yadro va h.k.) tortib, ulkanligi va o‘ta uzoqda joylashgan galaktikalarni ham qamrab oladi. Bu ob’ektlarda yuz beradigan hodisa va jarayonlarni mukammal o‘rganish umumiy nazariyalarni o‘zlashtirish va masalalar yechishdan tashqari laboratoriya tajribalarini, shu jumladan, jarayonlarni matematik modellashtirish kabi o‘ziga xos usullarni egallashni talab etadi. Bu esa o‘quvchi yoshlarni darsdan tashqari vaqtlarda mustaqil ta’lim bilan jiddiy shug‘ullanishlarini taqozo etadi. O‘quvchi yoshlarni mustaqil ta’lim, jumladan, tajribalar o‘tkazishi orqali fizika sirlarini bilishga va binobarin, fizika faniga bo‘lgan qiziqishini ortishiga birinchi navbatda fan o‘qituvchisining roli, kasbiy bilimi va pedagogik mahorati muhim o‘rin egallaydi.

Elektrostatika bo‘limida kuchlanish, potensial, potensiallar farqi kabi atamalar ishlatiladiki, ularning fizik ma’nolarini aniq tasavvur etish o‘qituvchidan katta mahoratni talab etadi. Chunki, bu fizik kattaliklarning o‘lchov birliklari bir xil bo‘lsada, ular turli fizikaviy jarayonlarni tafsiflaydilar. Ikkinchi tomondan, ushbu bo‘limdagi har bir alohida mavzuni o‘tishda o‘qituvchi elektrostatika bo‘yicha to‘liq bilim va amaliy ko‘nikmaga ega bo‘lishi zarur. Dars jarayonida o‘quvchi tomonidan mazkur mavzuni chuqur o‘zlashtirishi uchun keyingi mavzular doirasidagi savollarni berish ehtimoliyati yo‘q emas [8].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, umumta’lim maktablari hamda akademik litseylarning fizika fani o‘qituvchilarining bilimlarini mustahkamlash, shuningdek, iqtidorli o‘quvchi yoshlarning fizika faniga qiziqishlarini kuchaytirish, mustaqil va kreativ fikrlash, fizika fani

mavzularini o‘tishda ularni bevosita amaliyotga yo‘naltirish, fan va texnikada qo‘llashga o‘rgatish maqsadida “Elektrostatika” nomli uslubiy qo‘llanma yaratildi.

Ushbu uslubiy qo‘llanmada O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Oliy, o‘rta maxsus va profetsional ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2021 yil 26 fevraldagi 1-son majlis bayoni bilan ma’qullangan hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021 yil 10 martdagi 110-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan namunaviy fan dasturida akademik litseylarda fizikani o‘qitish bo‘yicha elektrostatika bo‘limidan yettita mavzu tanlab olingan bo‘lib, ushbu mavzularning asl mohiyatini to‘laligicha tushuntirish uchun dasturga kiritilmagan uchta mavzu mustaqil ta’lim sifatida kiritilgan. Bu mavzularni o‘zlashtirmasdan turib elektrostatikaning asosiy qonunlari, xususan, ularni qo‘llanilishi to‘g‘risida amaliy bilimlarni egallash fizika fanini o‘rtacha bilish darajasidagi o‘quvchilarga muayyan qiyinchiliklarni tug‘dirishi tabiiy [8].

Fizikaning elektrotexnika va elektronika bo‘limlariga oid materiallarda bir xil o‘lchov birliklari (Volt, V)da o‘lchanadigan fizik kattaliklar: kuchlanish, potensial, potensiallar farqi va elektr yurituvchi kuch (EYuK) uchraydi. Bu fizik kattaliklarni o‘rganishda o‘quvchi va talabalar muayyan chalkashliklarga duch kelishadi. Bu kattaliklarni o‘xshashlik tomonlari va farqlari to‘g‘risida qisqacha quyidagilarni o‘quvchilarga tushuntirish lozim bo‘ladi.

Fizikada elektr maydonning energetik xarakteristikalari quyidagi ketma-ketlikda o‘rganiladi. Dastlab “potensial” tushunchasi kiritiladi, bu faqat nolinchi darajani tanlashda muayyan ma’noga ega bo‘ladi. Keyin “potensiallar farqi” tushunchasi, undan keyin esa elektrostatikani o‘rganishda “potensiallar farqi” tushunchasiga mos keladigan “kuchlanish” tushunchasi qaraladi.

Kuchlanish - maydonnning ma’lum qismida zaryadning ko‘chishida birlik musbat zaryadga ta’sir etuvchi barcha kuchlarning (elektrostatik va tashqi) ishi sifatida aniqlanadigan tushuncha bo‘lib, bu barcha holatlar uchun o‘rinli hisoblanadi.

Potensial – elektrostatik potensial skalyar kattalik bo‘lib, elektrostatik maydonning xarakteristikasi hisoblanadi va u birlik musbat sinov zaryadining maydonning biror nuqtasidagi energiyasini ifodalaydi.

Potensiallar farqi – ta’rifga ko‘ra faqat elektrostatik kuchlarning ishi bilan o‘lchanadi. Shak-shubhasiz, xususiy holda, uchastkada faqatgina elektrostatik kuchlar ta’sir etganda, kuchlanish va potensiallar farqi bir-biriga mos bo‘ladi. Ular orasida farqni faqat, agar uchastkaga tashqi kuchlar ta’sir etgan holda hisobga olish lozim. Bu, xususiy holda, uchastka zanjiriga EYuK manbai ulangan holga ta’luqli bo‘ladi.

Elektr yurituvchi kuch (EYuK) – skalyar fizik kattalik bo‘lib, doimiy yoki o‘zgaruvchan tok zanjirida bevosita tashqi kuchlarning (elektrostatik kuchdan tashqari) bajargan ishini ifodalaydi.

Shu sababli ham yuqorida nomi keltirigan uslubiy qo‘llanma akademik litseylarning fizika fani o‘qituvchilariga mo‘ljallangan bo‘lib, undan ixtisoslashtirilgan davlat umumta’lim maktablarining o‘qituvchilari va o‘quvchilari ham foydalanishlari mumkin. Mualliflar tomonidan elektrostatika bo‘limidan tanlab olingan bir nechta mavzular va ularga oid masalalar o‘quvchi yoshlarni fizika fanining mazmun-mohiyatini yanada chuqurroq o‘zlashtirishlariga xizmat qilishi tabiiy.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022 yil 20 dekabrdagi Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5712-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrdagi “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5812-son Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi «O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-6108-son Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi PQ-4884-son “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risid”gi Qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrdagi “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik liseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4910-son Qarori.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 martdagi “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5032-son Qarori.
8. Kodirov M.K., Voxidov E.R., Quybakov X.R. Elektrostatika (Ixtisoslashtirilgan davlat umumta’lim maktablari va akademik litseylarning fizika fani o‘qituvchilari hamda iqtidorli o‘quvchilari uchun uslubiy qo‘llanma). – Samarqand: SamDU nashri, 2022. – 80 b.

MILLIY HUNARMANDCHILIKKA OID O‘QUV MASHG‘ULOTLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INTEGRATIV YONDASHUVLARDAN FOYDALANISH AHAMIYATI

Roila Yuldoshvoyevna Xaydarova
Nizomiy nomidagi TDPU Texnologik ta’lim magistratura mutaxassisligi II bosqich magistranti

https://doi.org/10.5281/zenodo.7932724

Annotatsiya. *Bu maqola orqali bugungi davrga munosib yoshlarni mehnat ta’limi dars jarayonlarida turli kompetensiyalarini shakllantirishda integratsion yondashuvlarga murojaat qilishning samaradorlik jihatlari ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *mehnat ta’limi, integratsion yondahsuv, milliy hunarmandchilik, integratsiya, zamonaviy usullar.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются аспекты эффективности обращения к комплексным подходам в формировании различных компетенций молодежи, достойных современных учебных процессов трудового воспитания.*

Ключевые слова: *трудовое воспитание, комплексный подход, народные промыслы, интеграция, современные методы.*

Abstract. *Through this article, the effectiveness aspects of turning to integrated approaches in the formation of various competencies of young people worthy of today's labor education lesson processes are considered.*

Keywords: *labor education, integrated approach, national crafts, integration, modern methods.*

Hozirgi davr jahon pedagogikasi yoshlarni tarbiyalashda, ularning kasb bo‘yicha tor professional bilimlarni egallashlariga chek qo‘yishni, uzluksiz ta’lim tizimida, jumladan, umumta’lim fanlaridan keng integrativ bilimlarga ega bo‘lishlari zarurligini taqazo qiladi.

Respublikamizda qabul qilingan ta’lim sohasiga tegishli bo‘lgan qator qonun-qoidalar fanlararo aloqadorlik asosida o‘qitishni o‘quv jarayoniga keng tadbiq qilish masalasi hozirga paytda umumta’lim maktablarida dolzarb muammo qilib qo‘yilgan. Mehnat ta‘limi darslarida integratsion tarzda o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalarini qo‘llash, innovatsion yondahsuvlarga ko‘proq murojaat etish va ularni chuqur tahlil qilib, amaliy dars jarayonlarida joriy qilish, shuningdek, o‘quv-uslubiy ta’minot muammolariga qaratilgan bir necha diqqatga sazovor ishlar amalga oshirilmoqda. Ayni shular asosida xalq ta’limi tizimini takomillashtirish hamda ularning o‘quv-tarbiya jarayoniga axborot kommunikatsion va zamonaviy pedagogik kompyuter texnologiyalarini tadbiq etish respublikamizda ta‘lim tizimining rivojlanishi va e‘tiborga olinganligidan dalolatdir.

Bugungi davr yoshlarini an’anaviy tizim bilan dars jarayonlarida diqqatini ushlab turish qiyin masala. Ayniqsa, amaliy dars mashg‘ulotlarida. Bu bilan kerakli natijaga erishib bo‘lmaydi. Aynan mehnat ta’limi jarayonini tashkil etishda zamonaviy integrativ yondashuvlardan keng foydalanish natijasida o‘quvchi-yoshlarni milliy hunarmandchilikka oid qiziqish kompetensiyalarini shakllantirishda muammolarni chetlab o‘tish imkoniyatiga ega bo‘lish mumkin. Chunki pedagogik, ta’limiy jihatdan olib qaralganda, integratsiya — uzviylik, fanlararo va o‘zaro aloqadorlikni ifodalaydi. U o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi, kengaytiruvchi,

chuqurlashtiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, integrativ yondashuv o‘rganilayotgan ob’yektni yaxlit tizim shaklida, har tomonlama aloqadorlik nuqtai nazardan o‘rganishni talab etadi. Bu bilan aytish mumkinki, umumta’lim maktablarida tashkil etiladigan mehnat ta’limi jarayonlarida amaliy dars mashg‘ulotiga mas’ul bo‘lgan har qanday toifadagi pedagog, o‘qituvchi mashg‘ulot mobaynida qo‘llaydigan yondashuv asosida metodlarning nazariyasini chuqur egallamog’i va bu bilan o‘quvchilarga mavzuga doir bilimlarni berishda xatoliklarga yo‘q qo‘ymasligi darkor. Chunki o‘z nomi bilan mehnat ta’limi amaliy jarayon sanaladi. Bunda qilingan har bir xatolik uni tuzatish uchun yanada ko‘proq vaqt va kuchni talab etadi.

Milliy hunarmandchilikka oid o‘quv mashg‘ulotlari samaradorligini oshirishda integrativ yondashuvlardan foydalanishning ahamiyatini yuqorida birin-ketin sanalganlar natijasida tushunib olish mumkin. Yana aytish kerakki, integrativ yondahsuvlarning mehnat ta’limi darsl;arining ham amaliy ham nazariy qismida o‘rinli tadbiq etish o‘quvchilarda bugungi zamonaviy usullar haqidagi tushuncha va ko‘nikmalarning hamda malakaning taraqqiy etishida xizmat qiladi. Bu esa o‘quvchilarning milliy hunarmandchilikka qiziqishini uyg‘otish ishlarida ham natijaga erishishda yordamdir.

REFERENCES

1. Jalilova D.U. Psychological And Technological Features of Increasing the Efficiency of Educational Activity of Talented Students in Presidential Schools. Journal of Pedagogical Inventions and Practices ISSN NO: 2770-2367 (https://zienjournals.com).
2. Roila Yuldoshvoyevna Xaydarova. ORGANIZATION OF INDEPENDENT EDUCATION IN THE FIELD OF TECHNOLOGY IN PREPARING PUPILS FOR EDUCATION ON THE BASIS OF FOLK CRAFTS. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 2 ISSUE 4 APRIL 2023. 100-101p.
3. Roila Yuldoshvoyevna Xaydarova. METHODOLOGY OF FORMATION OF COMPETENCES OF PUPILS' INTEREST IN NATIONAL CRAFTS BASED ON THE CLUSTER APPROACH. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 2 ISSUE 4 MARCH 2023. 373-374p.
4. Roila Yuldoshevna Xaydarova. CLUSTER TYPES AND ORGANIZATION OF THE PROCESSES OF LESSONS DEDICATED TO NATIONAL CRAFTS FROM TECHNOLOGY SCIENCE BASED ON THEM. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 2 ISSUE 4 MARCH 2023. 68-69p.
5. Roila Yuldoshevna Xaydarova. THE IMPORTANCE OF THE CLUSTER APPROACH IN MODERN EDUCATION. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 2 ISSUE 1 JANUARY 2023. 434-435p.
6. Roila Yuldoshevna Xaydarova. EFFECTIVENESS OF USING PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN FORMING THE COMPETENCES OF STUDENTS' INTEREST IN NATIONAL CRAFT. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME2 ISSUE 4 APRIL 2023 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337. 328-329p.
7. Roila Yuldoshevna Xaydarova. O‘QUVCHILARNI MILLIY HUNARMANDCHILIKKA QIZIQTIRISHDA FAN VA ISHLAB CHIQARISH HAMKORLIGINING KLASTERLI YONDASHUVLARI. “ UMUMIY O’RTA TA’LIM MAKTABLARIDA MADANIY MUHITNI YARATISHNING PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI: MUAMMO VA

YECHIMLAR” MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI, MAY 15-16, 2023. MEHNAT TA’LIMI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI XALQ HUNARMANDCHILIGI ASOSIDA TARBIYALASH («Klaster yondashuv asosida o‘quvchilarni milliy hunarmandchilikka qiziqish kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi» mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasining tajriba-sinov ishlarining xulosasi sifatida). 271-272-betlar.

8. Roila Yuldoshevna Xaydarova. O‘QUVCHILARNI MILLIY HUNARMANDCHILIKKA QIZIQTIRISHDA FAN VA ISHLAB CHIQARISH HAMKORLIGINING KLASTERLI YONDASHUVLARI. “ UMUMIY O’RTA TA’LIM MAKTABLARIDA MADANIY MUHITNI YARATISHNING PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI: MUAMMO VA YECHIMLAR” MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI, MAY 15-16, 2023. 273-274-betlar.
9. Yulchiyeva M.T. O‘QUVCHILARNING IJODKORLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA FOYDALANILADIGAN METOD VA VOSITALARNING AHAMIYATI. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 1 ISSUE 8 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337. 198-201p.
10. https://t.me/jalilova_dilshoda_2292
11. https://t.me/ilmiy_yordam_beraman
12. https://cyberleninka.ru
13. http://scientists.uz

UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA MADANIY MUHITNI YARATISH: YUQORI SINF O‘QUVCHILARNING MILLIY HUNARMANDCHILIKKA QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISH

Roila Yuldoshvoyevna Xaydarova
Nizomiy nomidagi TDPU Texnologik ta’lim magistratura mutaxassisligi II bosqich magistranti

https://doi.org/10.5281/zenodo.7932732

Annotatsiya. *Zamonaviy jamkyatda madaniy m,uhitning tarkib topganligi juda ahamiyuatlidir. Ayniqsa, buni umumta’lim maktablarida ko‘rish juda quvonarli. Umumta’lim maktablarida madaniy muhitni yaratishda yuqori sinf o‘quvchilarining milliy hunarmandchilikka qiziqishlarini rivojlantirish orqali bunga tezkor va natijakor tarzda erishish haqida ushbu maqolada fikr-mulohaza boradi.*

Kalit so‘zlar: *madaniy muhit, milliy hunarmandchilik, umumta’lim maktablari, estetik tarbiya, ko‘nikma, malaka.*

Аннотация. *Очень важно, чтобы в современном обществе формировалась культурная среда. Особенно отрадно видеть это в общеобразовательных школах. В данной статье рассматривается, как быстро и эффективно этого добиться путем развития интереса старшеклассников к народным промыслам при создании культурной среды в общеобразовательных школах.*

Ключевые слова: *культурная среда, народные промыслы, общеобразовательная школа, эстетическое воспитание, навыки, квалификация.*

Abstract. *It is very important that the cultural environment is formed in the modern society. It is especially gratifying to see this in secondary schools. This article discusses how to quickly and effectively achieve this by developing the interest of high school students in national handicrafts while creating a cultural environment in general education schools.*

Keywords: *cultural environment, national crafts, general education schools, aesthetic education, skills, qualifications.*

Bugungi kunda har bir jamiyatda madaniy muhitning ijobiy jihatlar bila boyitilganloigi juda ahamiyatlidir. Shu sababli umumta’lim maktablarida ham madaniy muhitni yaratish masalasi dolzarb hisoblanadi. Chunki kelajak yoshlarga, ularning madaniy va ma’rifiy jihatdan kamol topganligiga juda bog‘liq.

Xuddi shuni esdan chiqarmagan hola, umumta’lim maktablarida madaniy muhitni yaratishda o‘quvchilarda estetik jihatdan bilim, ko‘nikma, malakalarini shakllantirish va buning uchun mehnat ta’limidan keng foydalanish ham mumkin. Ayniqsa, o‘quvchilarning xalq hunarmandchiligi to‘g‘risidagi bilimlarini kengaytirish ularda nafaqat estetik tarbiyaning shakllanishida, balki milliy hunarmandchilikka bo‘lgan qiziqishlarining yuksalishiga sabab bo’ladi. Jumladan, o‘quvchilarda milliy hunarmandchilikka qiziqishning uyg‘onishi bilan sohaga doir kompetensiyalarni shakllantirish imkoniyati kengayadi.

Milliy hunarmandchilik haqidagi bilimlar asosan “Texnologiya va dizayn” yo‘nalishida beriladi. Aniqrog‘i bu yo‘nalish orqali o‘quvchilar xalq hunarmandchiligining quyidagi turlari bo‘yicha bilimlarga ega bo‘ladilar.: hunarmandlarning bozor munosabatlari asosidagi faoliyatlarini, uyushmalari va uning istiqbollarini, xalq hunarmandchiligi bo‘yicha ko‘rgazma va

tanlovlarni tashkil qilish va ishtirokchilarni tanlash qoidalarini, xalq hunarmandchiligini tanlangan yo‘nalishi bo‘yicha zamonaviy dizayn talablari bilan uyg‘unlashtirilgan mahsulot tayyorlash ish usullarini bilish. Demakki, bu sanalganlar to‘g‘risida mehnat ta’limi jarayonlarida o‘quvchilarda ko‘nikma va malaka hosil qilinar ekan, ularning milliy hunarmandchilikka nisbatan qiziqishlarini uyg‘otishda natijaga erishish yanada osonlashadi. Va bu bilan kelajakda xalq hunarmandchiligi yoki aynan milliy hunarmandchilik turi bo‘yicha qo‘li gul ustalarning, hunarmandlarning tarbiyalanishiga erishamiz.

Xalq hunarmandchiligi an’analari avloddan-avlodga o‘tib kelishi bilan birga taraqqiyotning yangi sifatiga ega bo’lmoqda. Bu jarayon, ayniqsa, hozirgi qayta qurulish davrida yanada yuqori samaralarga erishuv imkoniyatiga ega bo‘lib bormoqda. Binobarin, milliy hunarmandchilik san’atlarini o‘rgatish mashg‘ulotlarida xalq ustalari yaratgan asarlarining beqiyos ma’naviy qiymatlarini namoyish etish orqali yosh avlodda estetik didni shakllantirish, ularga zarur bilimlar va axloqiy tarbiya, berish, mehnat, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish, kasb tanlashga ruhiy va amaliy tayorlash vazifalari markaziy e’tiborda turadi. O‘zbek xalq hunarmandchiligi san’ati turlarining ko‘pligidan kelib chiqadigan o‘ziga xos ta’lim va tarbiya imkoniyatlari yaxshi natijalar beradi. *Birinchidan,* yakka kishi hech qachon xalq hunarmandchiligi san’atining hamma turlarini to‘liq o‘zlashtira olmaydi. Lekin umumiy darajada tanishish shaxsning yuqori madaniy darajaga erishuvida zarur shartdir. Bundan kelib chiqadiki, ushbu san’atni o‘rgatish ikki xil shaklda amalga oshirilishi mumkin: umumiy nazariy ma’lumotlarga ega bo‘lish yoki biror turini amaliy jiatdan to‘liq eqallash. *Ikkinchidan,* har bir murabbiy usta o‘zi chuqur egallagan san’at turini shogirdlariga chuqur o‘rgatish bilan cheklanishi mumkin. *Uchinchidan* har turli mahalliy sharoitlaridan kelib chiqqan holda, ushbu san’atning u yoki bu turi bo‘yicha mashg‘ulotlar tashkil etishda tanlash uchun keng imkoniyatlari mavjud.

Xalq hunarmandchiligining umumta’lim maktablari texnologiya ta’limiga kiritilishi o‘g‘il va qiz bolalar mehnatini tashkil etishning ko‘lamini yanada kengaytirishga, shahar va qishloq maktablarida mehnat ta’limi mashg‘ulotlarini tashkil etishni yanada yaxshilashga olib keladi. Chunki, ushbu ta’limning an‘anaviy ko‘rinishda shahar va qishloq maktablarida mashg‘ulotlarni tashkil etishda xalq hunarmandchiligi sohalari taraqqiyoti, ta’lim muassasani o‘rab o‘tgan ishlab chiqarish sohalarini hisobga olib, ularga bog‘lanish zaruriayati bor. Xalq hunarmandchiligi esa bevosita xalq xo‘jaligi (mahalliy) tarmoqlarga bog‘liq bo‘lmagan holda o‘quvchilarga turli umummehnat, maxsus ko‘nikmalarni o‘rgatishda didaktik imkoniyatlari behisobdir, deya yuqoridagi fikr-mulohazalarga xulosa yasash mumkin.

REFERENCES

1. Jalilova D.U. Psychological And Technological Features of Increasing the Efficiency of Educational Activity of Talented Students in Presidential Schools. Journal of Pedagogical Inventions and Practices ISSN NO: 2770-2367 (https://zienjournals.com).
2. Roila Yuldoshvoyevna Xaydarova. ORGANIZATION OF INDEPENDENT EDUCATION IN THE FIELD OF TECHNOLOGY IN PREPARING PUPILS FOR EDUCATION ON THE BASIS OF FOLK CRAFTS. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 2 ISSUE 4 APRIL 2023. 100-101p.
3. Roila Yuldoshvoyevna Xaydarova. METHODOLOGY OF FORMATION OF COMPETENCES OF PUPILS' INTEREST IN NATIONAL CRAFTS BASED ON THE

CLUSTER APPROACH. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 2 ISSUE 4 MARCH 2023. 373-374p.

4. Roila Yuldoshevna Xaydarova. CLUSTER TYPES AND ORGANIZATION OF THE PROCESSES OF LESSONS DEDICATED TO NATIONAL CRAFTS FROM TECHNOLOGY SCIENCE BASED ON THEM. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 2 ISSUE 4 MARCH 2023. 68-69p.
5. Roila Yuldoshevna Xaydarova. THE IMPORTANCE OF THE CLUSTER APPROACH IN MODERN EDUCATION. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 2 ISSUE 1 JANUARY 2023. 434-435p.
6. Roila Yuldoshevna Xaydarova. EFFECTIVENESS OF USING PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN FORMING THE COMPETENCES OF STUDENTS' INTEREST IN NATIONAL CRAFT. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME2 ISSUE 4 APRIL 2023 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337. 328-329p.
7. Roila Yuldoshevna Xaydarova. O‘QUVCHILARNI MILLIY HUNARMANDCHILIKKA QIZIQTIRISHDA FAN VA ISHLAB CHIQARISH HAMKORLIGINING KLASTERLI YONDASHUVLARI. “ UMUMIY O’RTA TA’LIM MAKTABLARIDA MADANIY MUHITNI YARATISHNING PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI: MUAMMO VA YECHIMLAR” MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI, MAY 15-16, 2023. MEHNAT TA’LIMI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI XALQ HUNARMANDCHILIGI ASOSIDA TARBIYALASH («Klaster yondashuv asosida o‘quvchilarni milliy hunarmandchilikka qiziqish kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi» mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasining tajriba-sinov ishlarining xulosasi sifatida). 271-272-betlar.
8. Roila Yuldoshevna Xaydarova. O‘QUVCHILARNI MILLIY HUNARMANDCHILIKKA QIZIQTIRISHDA FAN VA ISHLAB CHIQARISH HAMKORLIGINING KLASTERLI YONDASHUVLARI. “ UMUMIY O’RTA TA’LIM MAKTABLARIDA MADANIY MUHITNI YARATISHNING PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI: MUAMMO VA YECHIMLAR” MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI, MAY 15-16, 2023. 273-274-betlar.
9. Yulchiyeva M.T. O‘QUVCHILARNING IJODKORLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA FOYDALANILADIGAN METOD VA VOSITALARNING AHAMIYATI. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 1 ISSUE 8 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337. 198-201p.
10. https://t.me/jalilova_dilshoda_2292
11. https://t.me/ilmiy_yordam_beraman
12. https://cyberleninka.ru
13. http://scientists.uz

GLOBALLASHUV SHAROITIDA INNOVATSION TA’LIM MUHITINI TASHKL ETISH VA UNING MOBILLIGINI TA’MINLASH

N.J.Eshnaev
ChDPU Psixolgiya kafedrasi dotsenti

https://doi.org/10.5281/zenodo.7932740

Annotatsiya. *Ushbu maqolada globallashuvning o‘ziga xos jihatlari, jamiyat hayotida yuzaga keltirishi mumikn bo‘lgan oqibatlari, globallashuv sharoitida innovatsion ta’lim muhitini tashkl etish va uning mobilligini ta’minlash masalalari bilan bog‘liq omillarni ta’lim tizimining quyi bug‘unidan boshlash lozimligi xususida so‘z yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *globallashuv, “ta’lim dietasi” integratsiya, mobil, innovatsiya, ta’lim, milliy va muminsoniy qadriyat, jamiyat.*

Аннотация. *В данной стране говорится о специфических аспектах глобализации, ее возможных следствиях в жизни общества, необходимости начать с самих низов системы образования и факторов, связанных с вопросами организации инновационной образовательной среды и обеспечения ее мобильности в условиях глобализации.*

Ключевые слова: *глобализация, «образовательный рааион», интеграция, мобильность, инновации, образование, национально-человеческая ценность, общество.*

Abstract. *This article talks about the specific aspects of globalization, its possible consequences in the life of the society, the need to start from the bottom of the education system and the factors related to the issues of organizing an innovative educational environment and ensuring its mobility in the conditions of globalization.*

Keywords: *globalization, "educational diet" integration, mobile, innovation, education, national and human value, society.*

Kishilik jamiyati bugungi kunda global muammo va ularni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etishning yagona yo‘li sifatida ma’naviy va ma’rifiy uyg‘unlikni muvofiqlashtirish, uning optimal variantlarini demokratik tamoyillar negizida etnopsixologik faktorlarga tayangan holda tashkil etish masalasini kun tartibiga olib chiqmoqda. Shu nuqtai nazardan pedagog, psixolog, sotsiolog va boshqa soha vakillari tomonidan global muammo va ularni keltirib chiqaruvchi omillarni o‘rganish va bartaraf etishning asosiy manbasi milliy va umuminsoniy ma’naviy qadriyatlarga mos ravishda ta’lim va tarbiyani innovatsion ta’lim muhitini shakllantirishning konseptual g‘oyalariga muvofiq, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishga ustuvorlik bermoqda

Ta’lim muhitiga innovatsion yondashuv va ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, globallashuv jarayonining dastlabki paytlarida uning asl mohiyatini yaxshi tasavvur eta olmaganlik sababli, jamiyat yoshlari- globallashuv farovon hayot, demokratik tamoyillar ustuvorligi, erkin savdo yo‘lidagi to‘siqlarni olib tashlaydigan va barcha milliy iqtisodiyotni jamul jam qiladigan ijobiy hodisa ekanligiga ishonishgan.

Biroq bu jarayon ular aytgandek emas, balki jamiyatning barcha sohalriga kirib borib, uning milliy qadiriyatlari, turmush tarzi, hamda e’tiqod va psixologiyasiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Globallashuv rivojlangan mamlakatlarga foyda keltirib, uchinchi dunyo mamlakatalriga, ya’ni rivojlanyotgan mamlakatlarga, xususan, iqtisodiyoti past, jahon arenasida raqobatbardoshligi

yetarli bo‘lmagan mamlakatlarni inqiroz tomon yo‘naltiruvchi mexanizmlarga ega ekanligi yuzaga chiqmoqda. Globallashuv, uning davlat va jamiyatlar hayotida tutgan roli xususida I.I.Belyaev - ...globallashuv boshqa (rivojlanayotgan) mamlakatlar ijtimoiy – ma’naviy hayotiga salbiy ta’sir qilishi mumkin”[1] degan ilmiy mulohazalarini ilgari surgan.

Shuningdek, globallashuv oqibatlari natijasi sifatida rivojlanayotgan mamlakatlarga mehnat migratsiyasi tufayli subsidiyalangan hududlarda ishsizlikni ko‘payishi, tug‘ilishni pasayishi, atrof-muhit degradatsiyasi, milliy korxonalar va transmilliy korporatsiyalar o‘rtasidagi yuqori raqobat, bozorlarni monopollashuvining kuchayishi hamda iqtisodiy tafovutning oshishiga olib keladi. Globallashuv jamiyat milliy boyligi bo‘lgan ijodiy halokat sur’atlarini tezlashtiradi, odamlar va umuman jamiyat hayotning yangi shakllariga moslashishga nisbatan agressiyani keltirib chiqaradi hamda jamiyatda hukm surayotgan ideallar, qadriyatlar va an’analarni chiqarib tashlaydi. Uning o‘rnini davlat va jamiyat hamda millat va xalqqa xizmat qilmaydigan “zamonavi” “idel va qadriyat”larni taklif etadi.

Informatsion jamiyatning real voqeligi, barchamizni bugungi kundagi o‘zgarishlarga ongli va ratsional omillar nuqtai nazarida yondashuvni taqozo etgan holda, millatlar, xalqlar, davlatlar, umuman insoniyatning ma’naviy hayot haqidagi qarashlari, konsepsiyalari, g‘oya va mafkuralar, individual va ijtimoiy fikrlari o‘rtasidagi munosabatlar g‘oyat murakkab, hatto, ayrim hollarda, ziddiyatliligini namoyon qilmoqda.

Jamiyatimizda kechayotgan integratsion taraqqiyotning yoshlar tarbiyasiga ta’sirini o‘rganishda sotsiolog, psixolog, ma’naviyat, pedagog va gumanitar soha mutaxassislarini tashvishlantirayotgan muammolardan biri “kosmopolitizm g‘oyasi” va “ommaviy madaniyat” bo‘lib qolayotganligi hech kimga sir emas.

Mazkur muammolarni bartaraf etish yuzasidan qator ilmiy-nazariy taklif va tavsiyalr ilgari surilib, yoshlar hyotiga, xususan, jamiyat turmush- tarziga nisbatan ushbu yot g‘oyalarni salbiy ta’sirini menimallashtirish masalalari ilgari surilmoqda. Ushbu yondashuvlar negizida ishlab chiqilgan va ijtimoiy-ma’naviy ahamiyatga ega bo‘lgan ilg‘or konseptual mexanizmlarni jamiyat hayotining barcha bug‘unlariga to‘liq realizatsiya etish davr talabi bo‘lib qolmoqda.

XX asrning 90-yillarda vujudga kelgan ko‘p qutblilik va mafkuraviy plyuralizm, “global savdo tarmoqlar”, “sivilizatsion integratsiyalashuv”, “ommaviy madaniyat” dunyoning o‘zaro dialektik aloqa va ziddiyatlar birligi asosida harakat qiladigan ulkan, o‘zaro bir-biriga ta’sir etish kuchiga ega bo‘lgan sistema sifatida faoliyat ko‘rsatishini taqozo qilmoqda.

Bu jarayonning rivojlanish qonuniyat va tamoyillari, ba’zi mutaxassislar nuqtai nazaricha, butun dunyoda iqtisodiy va madaniy makonning paydo bo‘lishi, hamda yagona insoniy mushtaraklikning vujudga kelishi, axborot almashuv jarayonida yagona makonining barpo etilishi kishilik sivilizatsiyasining yangi shakli yuzaga kelishiga olib boradi [12] –degan taxminlar mavjud. Kosmopolitik g‘oya va uning mavjudligi, tarixiy o‘tmishi uzoq, milliy qadriyatlari boy va kelajagi buyuk bo‘lgan mustaqil davlatlarning ertangi kuni va yoshlari istiqboliga tahdid solishi mumkinligini e’tibordan chetda qoldirmagan holda, doimiy ogohlikni unitmaslik lozim.

Bugungi kunda jamiyatimiz yoshlar ma’naviy va madaniiy mobilligi, ongi va tafakkuri bilan bog‘liq bo‘gan masalalarni ilmiy nuqtai nazardan har tomonlama cho‘qur o‘rganish, tashqi ta’silardan himoya qila oladiga ijtimoiy-psixologik mobil “izalyatsion” mexanizmni yaratish davr talabi bo‘lib qolmoqda.

Biz tomonimizdan ilgari surilayotgan mobil ijtimoiy-psixologik “izalyatsion” mexanizm g‘oyasi davlat va jamiyat ma’naviy hayoti, uning taraqqiyot, hamda yoshlar istiqbolini ta’minlagan

holda ajdodlarigi munosib avlod bo‘lib qolishiga xizmat qilgan holda, millat sifatida ming yillar davomida uning mavjudligini ta’minlab beradi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu sohada keng qamrovli, davlat va jamiyat hayotiga daxldor bo‘lgan, Yangi O‘zbekiston shiori negizida ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan ilmiy-pedagogik yondashuvlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Bunda:

- ta’lim mazmunini axborot-informatsion xurujlarga qarshi kurashuvchi immunitetni shakllantirishga yo‘naltirish, hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni mavjud jarayonga muvofiqlashtirish lozim (bunda ta’lim oluvchilarga global informatsion tarmoqdan foydalanish madaniyati, ularning ongi va sog‘lom dunyoqarashini rivojlantiruvchi, hamda motivatsiya beruvchi manbalarga murojaat etishi, har qanday informatsiyaga nisbatan emotsional yondashmasligi, mavjud informatsiyalarni analiz va sintez qilish kompetentligini shakllantirish, o‘zlariga yot va tushunarsiz bo‘lgan ruhiy zo‘riqishga olib keladigan, psixikasiga salbiy ta’sir etadigan manbalar bilan tanishmaslik, ularni targ‘ib va tashviq etmaslik, bu ularning kelajagi va istiqboliga soya solishi xususida ochiq, xolis, har tomonlama ular tushunadigan tilda paralengvistik omillardan foydalangan holda yetkazish masalalarini o‘z ichiga oladi);

- ta’lim tizimining (maktabgacha ta’lim tizimidan-oliy ta’limgacha bo‘lgan) barcha bug‘inida sifat va samradorlikka erishish uchun pedagogik jarayonga “ta’lim dietasi” tushunchasini olib kirish zarur (bunda ta’lim oluvchiga uzatilayotgan bilimlar feltirlab, ularning yoshi va psixologik holati, qiziqishi, qobiliyati va iqtidori inobatga olinishi taqozo etiladi. Shuningdek, pedagog tomonida uzatilayotgan manbalar ta’lim oluvchini kuchli ruhiy zo‘riqishga olib kelmasligi, o‘qish va izlanish hamda o‘zlashtirishga nisbatan antipatiyani shakllantirmasligi, aksincha tez va yengil o‘zlashtirishga, bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqini oshirishga, ta’limga nisbatan simpatik munosabatni qaror toptirishga, motvatsion omillar kombinatsiyasini o‘zida mujassamlashtirgan yondashuvlarni o‘zida aks ettirish lozim);

- mavjud va kuchayib borayotgan vertual qaramlikni oldini olish va “texnogen madaniyat”ni milliy va umuminsoniy ma’naviyat “ta’siri doirasida” saqlab qolishning ijtimoiy–psixologik mexanizmlarini zamonaviy pedagogik omillar negizida jamiyat hayotiga singdirish (jamiyatning aksariyat a’zolari ijtimoiy tarmoqda faol bo‘lib, o‘z yaqinlaridan, qolaversa oila a’zolaridan borgan sari begonalashib borayotganligi, farzandi va boshqa oila a’zolari bilan suhbatlashishga nisbatan ular xarakterida sovuqqonlikning ortib borishi natijasida bir biriga bo‘lgan befarqlikni kuchayib borayotganligi, otalik va onalik, farzandlikka xos burch va majburiyatlarni unitilayotganligi, ta’lim va tarbiyaning mazmuniga jiddiy zarba berayotganligi, ma’naviy bo‘shliqni keltirib chiqarayotganligi, bu bo‘shliq boshqa yot omillar bilan to‘ldirilayotganligi, uning natijasida oilaviy ziddiyat ortib milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, hamda jamiyat barqarorligiga ko‘rinmas tahdidining ortib borishi, shaxslararo munosabatlarda konfliktlarning barcha turlarini yashirin va ochiq formalari ommalashagan holda boshqarib bo‘lmaydigan darajaga olib kelib qo‘yish ehtimolligini yuzaga keltirishi).

REFERENCES

1. Belyaev M.I.Konsepsiya natsionalnogo gosudarstva. - M.: «Milogiya», http://www.milogiya2007.ru/rusnaz
2. Budaeva T.I. Innovatsionniy potensial molodogo pedagoga: problemi i puti resheniya // Prepodavatel XXI vek. 2009.- № 2-1 - S. 32-36.

3. Vertakova Yu.V., Simonenko Ye.S. Upravlenie innovatsiyami. Teoriya i praktika. M., Izd-vo «Eksmo», 2008. - 432 s.
4. Zeer E.F., Kormilseva M.V. Sotsialno-lichnostnie kompetensii i professionalnaya mobilnost kak selevaya orientatsiya obrazovaniya // Sibirskiy pedagogicheskiy jurnal, 2009, №. 10, s. 72-78.
5. Kovalev M. Globalizatsiya kak sotsialniy fenomen // https://spkurdyumov.ru/globalization/globalizaciya-kak-socialnyj-fenomen/
6. Obodkova Ye.A., Novikov V.V. Sotsialno-psixologicheskoe upravlenie v period globalizatsii // https://www.researchgate. net/publication /326073826_ Socialno- psihologiceskoe _upravlenie_ v_period _globalizacii
7. Pankova T.N. Professionalnaya mobilnost kak neot’emlemaya xarakteristika sovremennogo spesialista v sisteme neprerivnogo professionalnogo obrazovaniya // Vestnik Voronej. gos. un-ta. Ser.: Problemi visshego obrazovaniya, 2013, №. 1, s. 99-102.
8. Usarov J.E., Babaxodjaeva L.G., Sharipova G.N., Eshnaev N.J. Pedagogik kompetentlik. Pedagogik kompetentlik. O‘quv qo‘llanma. – Chirchiq, 2021.-101 b.
9. Eshnaev N.J. Normatova Z.A. Xarakteristiki konflikta shkolnogo soobshestva i mexanizmi yego upravleniya // Jurnal nauchnix i prikladnix issledovaniy. Nauchno-prakticheskiy jurnal. 2022. №1, -S.12-15
10. Eshnaev N.J. Problemi kachestva i effektivnosti i perspektivi professionalnogo obrazovaniya prakticheskogo psixologa // Nauchniy obozrevatel. Nauchno-analiticheskiy jurnal, 2021.№ 11(131), -S. 22-25.
11. Eshnayev N.J., Ataxo‘jayeva Sh.A. Ta’limda diskriminatsiya va uning oqibatlari // Fan, ta’lim va amaliyot integratsiyasi. 2021. №2. Issn: 2181-1776.
12. Yuldasheva F. Metodologicheskie problemi protsessa globalizatsii. //Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari. 2008. № 2. -s.75.

ИНКЛЮЗИВ ТАЪЛИМ ШАРОИТИДА “ЧЕГАРАСИЗ ИМКОНИЯТЛАР - НОЁБ ҚОБИЛИЯТ” МОТИВАЦИОН ЛОЙИҲАСИНИ АМАЛГА ОШИРИШ ҲАМДА УНИНГ ИЖТИМОИЙ ПЕДАГОГИК – ПСИХОЛОГИК АҲАМИЯТИ

Кобилова Шахноза Худайшукуровна
Чирчиқ давлат педагогика университети Педагогика факультети Махсус педагогика кафедраси ўқитувчиси

https://doi.org/10.5281/zenodo.7932746

Аннотация. *Ушбу мақолада инклюзив таълим шароитида “Чегарасиз имкониятлар-ноёб қобилият” мотвацион лойиҳасини амалга ошириш ҳамда унинг ижтимоий педагогик – психологик аҳамияти таҳлил этилган ҳамда, инклюзив таълимни ташкил этишда таълим маконини барқарорлаштириш, педагогик шарт-шароитлар, психологик омилларни мотивацион жиҳатлари хусусида сўз юритилган.*

Калит сўзлар: *педагогика, инклюзив, мотивация, лойиҳа, қобилият, имконият, инклюзив таълим, психологик жараён, психологик хусусият, тамойил.*

Аннотация. *В данной статье анализируется реализация мотивационного проекта «Безграничные возможности-уникальные способности» и его социально-педагогико-психологическое значение в условиях инклюзивного образования, а также стабилизация образовательного пространства, педагогических условий, мотивационных аспектов психологической факторы организации инклюзивного образования.*

Ключевые слова: *педагогика, инклюзивность, мотивация, проект, способность, возможность, инклюзивное образование, психологический процесс, психологическая характеристика, принцип.*

Abstract. *This article analyzes the implementation of the motivational project "Endless Opportunities - Unique Abilities" and its socio-pedagogical and psychological significance in the context of inclusive education, as well as the stabilization of the educational space, pedagogical conditions, motivational aspects of the psychological factor in the organization of inclusive education.*

Keywords: *pedagogy, inclusiveness, motivation, project, ability, opportunity, inclusive education, psychological process, psychological characteristics, principle.*

Инклюзив таълим муҳитида ҳаёт хавфсизлиги муаммосини таҳлил қилишда, имконияти чекланган бола (ўқувчи)ларнинг хавфсизлиги ҳамда уни таъминлашни педагогик ва психологик омилларига эътибор бериш, бугунги кунда давлат ва жамият олдида турган долзарб масалалардан биридир.

Шу нуқтаи назардан биринчи навбатда, таълим тизимида имконияти чекланган бола (ўқувчи)ларда мотивацисион мувофиқликни таъминлаш, психолгик жиҳатдан ҳаёт фаолияти хавфсизлигига таъсир этувчи барча негативларни менималлаштириш, жисмоний ва руҳий зўриқишга олиб келувчи омилларни бартараф этиш билан боғлиқ масалалар илмий жиҳатдан тадқиқ этилиши лозим.

Шахс фаолият олиб борадиган муҳит ижтимоий барқарор мотивацион элемент компонентлари билан ташкил этилган бўлса, бу жараён ташқи таъсир ва хавфсизликка адекват муносабатда бўлишни асосий шарти ҳисобланади.

Англанган фаолият негизида қурилган тарбия ва индивидуал тажриба маҳсули бўлган мотивлар тизими, хавфсизликка бўлган муносабат, умуман шахснинг мотивацион муҳити, элементи сифатида нафақат унга бўлган эҳтиёжни фаоллаштиради, балки хавфсиз хатти-ҳаракатларни мувофиқлаштиради.

Имконияти чекланган бола (ўқувчи)ларнинг хавфсиз ҳаётга тайёргарлигини шакллантиришга ҳисса қўшадиган энг муҳим таркибий қисмлардан бири бу шахс фаолиятини рағбатлантириш бўлиб, уни ижтимоий – психологик омилларига эътибор қаратиш лозим.

Мотивация лотинча сўздан олинган бўлиб, - ҳаракатга ундаш, инсон ўз эҳтиёжларини фаол равишда қондириш қобилияти, ҳамда хулқ-атворини бошқарадиган, унинг йўналишини, ташкилийлигини, фаоллиги ва барқарорлигини белгиловчи физиологик ва психологик динамик жараёндир[8].

Мотивация муаммосининг ривожланиши, биринчи навбатда, инсон фаолияти манбаларини, унинг фаолиятига туртки берувчи кучларини таҳлил қилиш билан боғлиқ. Шу нуқтаи назардан дастлаб мотивация фаолият манбаси ва рағбатлантириш тизими сифатида талқин қилинади.

Мотивация А.Н.Леонтьевнинг концептуал моделида фаолият тузилишида мавжуд бўлган ўзаро боғлиқ компонентлар (эҳтиёж - мотив - мақсад, ҳаракат - операция) тизими сифатида эътироф этилса, С.Г.Рубинштейн нуқтаи назарича мотив шахс ривожланишининг ажралмас қисми бўлиб, дунёга, ўз фаолиятига ҳиссий ва қадрият муносабатини шакллантиришга йўналтирилган эҳтиёжларни юзага чиқаради дейди[7].

Инсон эҳтиёжларининг ривожланиш йўли схема бўйича ривожланади: биринчидан, инсон ўзининг ҳаётий эҳтиёжларини қондириш учун ҳаракат қилади, сўнгра ҳаракат қилиш учун ҳаётий эҳтиёжларини қондиради. Инсонни бошқарадиган икки турдаги эҳтиёжлар мавжуд: биологик ва ижтимоий, уларнинг пайдо бўлиши уларни қондиришга олиб келадиган фаолиятнинг ўзига хос хусусиятларига боғлиқ[1].

Шунингдек ўқув мотивацияси таълим фаолиятига киритилган мотивациянинг алоҳида тури сифатида қаралади. Ўқув мотивациясининг рағбатлантирувчи таркибий қисмларидан бири, бу мотивацион муҳитни мураккаб жараёнларини ажралмас кўринишларидан биридир[1;2;4;5].

Олиб борилган илмий изланиш натижасига кўра тадқиқотчиар томонидан мотивлар йўналиши ва мазмунига кўра қуйидагича таснифланган:

- ижтимоий (бурч, масъулият, таълимнинг бутун жамият учун аҳамиятини тушуниш);

- когнитив (кўпроқ билиш истаги, билимдон бўлиш);

- профессионал қиймат (истиқболли ва қизиқарли ишни олиш имкониятларини кенгайтириш);

- эстетик (ўрганиш - завқ, одамнинг яширин қобилиятлари ва истеъдодлари очилади);

- коммуникатив (инсоннинг интеллектуал даражасини ошириш ва янги танишлар орттириш орқали ижтимоий доирасини кенгайтириш имконияти);

- мақом-позицион (жамиятда ўқитиш ёки ижтимоий фаолият орқали интилиш маъқулланади);

- анъанавий-тарихий (жамиятда пайдо бўлган ва вақт ўтиши билан мустаҳкамланган стереотиплар);

- утилитар-когнитив (қизиқадиган алоҳида мавзуни ўрганиш ва ўз-ўзини тарбиялаш истаги);

- онгсиз мотивлар (қабул қилинган маълумотларнинг маъносини тўлиқ нотўғри тушуниш ва когнитив жараёнга тўлиқ қизиқиш йўқлиги асосида) [2].

Ушбу мотивларни йўналиши ва мазмунига кўра инклюзив таълим жараёнида таҳсил олаётган имконияти чекланган бола (ўқувчи)ларнинг ҳаёт фаолиятида катта аҳамият тутиб, уларни ижтимоий фаоллигини оширишга хизмат қилади. Инклюзив таълим муҳитида имконияти чекланган бола (ўқувчи)лар ҳаёт хавфсизлигини мотивацион рағбатлантирувчи фаолиятини ривожлантириш зарурияти мавжуд.

Инклюзив таълимдаги рағбатлантирувчи фаолият - бу имконияти чекланган бола (ўқувчи)лар хавфсизлигини ва жамиятда ижтимоий мослашувини шакллантиришнинг мақсадли педагогик жараёни ҳисобланади. Портер-Лоулернинг процессуал мотивлар тоифасига кирувчи хусусиятларидан келиб чиқиб, биз унинг асосий таркибий қисмларига эътибор қаратган ҳолда, имконияти чекланган бола (ўқувчи)ларни ижтмоий жиҳатдан қўллаб-қувватлаш нуқтаи назаридан келиб чиққан ҳолда “Чегарасиз имкониятлар-ноёб қобилият” мотвацион лойиҳасини амалиётга жорий этиш масаласини илгари сурамиз.



“Чегарасиз имкониятлар-ноёб қобилият” мотвацион лойиҳасини концептуал тамойиллари қуйдагилар билан асосланиши мақсадга мувофиқ.

Ногиронликка ижтимоий ёндашув тамойили. Бу тамойил имконияти чекланган болаларни ўраб турган муҳитнинг номукаммаллигига, стереотиплар ва нотўғри қарашларга асосланади ва ногиронликнинг ўзини бола муаммоси сифатида эмас, балки ногироннинг ўз ҳуқуқларини амалга оширишига тўсқинлик қиладиган жисмоний ва ижтимоий тўсиқлар муаммоси деб билади, ҳамда уни бартараф этиш имкониятларни юзага чиқаради.

Имконияти чекланган болаларнинг ўз ҳаёт йўлини танлаш ҳуқуқига эга ва қодир бўлиши керак деган мустақил ҳаёт тамойилга мувофиқлаштириш лозим.

Бу тамойил мустақил ҳаёт фалсафасига асосланган бўлиб, у шахсий танлов асосида ўз ҳаётини белгилаш, қарор қабул қилишда ва ҳаётнинг турли соҳаларида фаолиятни амалга оширишда бошқаларга қарамликни минималлаштириш, яъни психологик ва жисмоний қарамликни камайтириш омилларини таъминлайди.

Имконияти чекланган болаларнинг жамият аъзолари сифатида фаолиятни турли соҳаларида ўз ҳуқуқларини амалга оширишда тенглигини назарда тутадиган тенг имкониятлар принципидир.

“Чегарасиз имкониятлар-ноёб қобилият” мотвацион лойиҳасинидан кўзланган мақсад ва янгилиги ногиронлиги бўлган имконияти чекланган болаларнинг қобилиятларини арт-терапия орқали ривожлантириш ҳамда мослашув жараёнлари ва ижтимоий интеграциясини таъминлашдир.

Лойиҳанинг амалий аҳамияти шундан иборатки, имконияти чекланган болалар эркинроқ бўлиб, улар билан мулоқот қилиш осонроқ бўлади, ўзининг ўзига хослигидан уялмайди, ўз истеъдодини намоён этади ва улар билан бошқаларни лол қолдиради.

“Чегарасиз имкониятлар-ноёб қобилият” мотвацион лойиҳасини ижтимоий аҳамиятини асосланиши қуйидагилар билан изоҳланади.

Жамиятимизда турли ногиронлик белгиларига эга бўлган имконияти чекланган болалар мавжуд, аммо уларнинг аксарияти қобилиятини ровожлатирадиган ва ижтимоийлашувига рағбат берадиган тўгаракка қатнашмайди (бунақа тўгаракларнинг ўзи диярли йўқ) ва қўшимча таълим олмайди. Шундан келиб чиққан ҳода бу болаларнинг барчаси амалда фаол ҳаётдан узилган, улар кўпинча мулоқот ва ҳаракатда чекланган, шахсий ва касбий ўсиш имконияти ва истаги йўқ.

Маданият, санъат ва амалий санъат йўли билан реабилитация қилиш соҳасида имконияти чекланган болалар билан ишлашдаги мавжуд бўшлиқни, тавсия этилаётган “Чегарасиз имкониятлар-ноёб қобилият” мотвацион лойиҳаси орқали тўлдириш мақсадга мувофиқдир.

Имконияти чекланган болалар нинг ижтимоий мослашуви ва жамиятдаги ҳаёт шароитларига мослашиш муаммоси бизнинг лойиҳамиз ҳал қилиш ва юмшатишга қаратилган бугунги куннинг энг муҳим ва ўткир муаммоларидан биридир. Сўнгги пайтларда ногиронлиги бўлган имконияти чекланган болаларга бўлган муносабатда жиддий ўзгаришлар туфайли бу масала алоҳида аҳамиятга эгадир.

Ижодкорлик орқали реабилитация, ижтимоийлаштириш ва мослашиш - бу ижтимоий терапиянинг бир қисми бўлган инновацион технология ва имконияти чекланган болаларлар билан ишлаш амалиётида самарали йўналиш бўлиб хизмат қилади.

Бугунги кунда махсус педагогика ва психология соҳа вакллари “Ногиронлиги бўлган имконияти чекланган болаларларни психологик реабилитация қилишнинг долзарб муаммолари” бадиий ижоднинг барча кўринишлари билан фаолиятини мувофиқлаштириш ижтимоий аҳамиятдаги масалалардан бири эканлигини таъкидламоқда. "Имконияти чекланган болаларни ижтимоий-маданий реабилитация қилишнинг чуқур маъноси улар учун маданият ва санъатдан фойдаланиш имкониятини таъминлаш, шунингдек, уларни ижодий жараёнга жалб қилишдир". Бу жараён уларга ноёб қобилиятларини юзага чиқариш учун имконият манбаи бўлишдан ташқари, қобилиятларни намоён этиш мотиви ҳамдир.

Хулоса қилиб айтганда жамиятимизда имконияти чекланган болаларнинг ижтимоий мослашувига тизимли ёндашадиган, жумладан, махсус педагогика методлари билан уйғунлашган мотвацион арт-терапия усулларини ўз ичига олган марказлар мавжуд эмас. Ишончимиз комилки, лойиҳа ижтимоий аҳамиятга эга ва долзарб бўлиб, индивидуал таълимга жалб этилган талабалардан мақсадли гуруҳлар шакллантириш орқали махсус механизмни ишга утшириш, у орқали имконияти чекланган болаларни “чегарасиз муҳитга олиб кириш ва ноёб қобилиятларини” намоён этиш имкониятини мотвацион омилларини тўлиқ юзага чиқариш муҳити қарор топади.

REFERENCES

1. Божович Л. И. Личность и ее формирование в детском возрасте. — СПб. [и др.] : Питер, 2008. — 398 с.
2. Ильин Е.П. Мотивация и мотивы. – СПб., 2000; Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – СПб., 1999.
3. Кобилова Ш.Х. Инклюзив таълим маконини барқарорлаштириш ҳамда унинг педагогик шарт-шароитларини мувофиқлаштириш муаммо ва ечимлари / Таълим, фан ва инновация. -№6. 2022 –Б. 116–119
4. Кобилова Ш.Х. Инклюзив таълим шароитида ўқувчилар мотивини хавфсиз ҳаётга мувофиқлаштиришнинг педагогик-психологик омиллари / Касб-ҳунар таълими. Илмий-услубий, амалий, маърифий журнал. №1, 2023 -Б.269-275.
5. Кобилова Ш.Х. Инклюзив таълимда психологик-педагогик фаолият мувофиқлиги ҳамда унинг истиқболлари / European Journal of Interdisciplinary Research and Development, impactfa ctor 7.955, ISSN: 2720-5746 Volume.No.9.November–2022.-B.40–46
6. Кобилова Ш.Х. Инклюзив таълимдаги интеграцион жараён хавфсиз ҳаёт муҳитини барқарорлаштириш омили сифатида / Роль науки в развитии современного общества: материалы международной научно-практической конференции (31 января 2023г.,Омск) Отв. ред. Морозов С.А. – Издателство СПМ «Академия Науки», Омск.-2023-С.130-136.
7. *Леонтьев А.Н.* Проблемы развития психики. 3-е изд. М.: Изд-во Моск. ун-та, 1972; Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – СПб., 1999. Свободная энциклопедия Википедия [Электронный ресурс]. – Ре- жим доступа: http://ru.wikipedia.org/wiki/
8. Сидоренко Е. В. Мотивационный тренинг. – СПб., 2000; Хекхаузен Х. Мотивация и деятельность. Т. 1, 2. – М., 1986.
9. Формирование интереса к учению у школьников / Под ред. А.К. Марковой. – М., 1986. – 217 с.

MAXSUS FANLARNI O‘QITISHDA MODULLI O‘QITISH TAMOYILLARI PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

[1]Muxamedsaidov Bakijon Karimovich, [2]Rahimova Naima Sobirjon qizi, [3]Axrorov Nodir

[1]Nizomiy nomidagi TDPU Professional ta’lim metodikasi kafedrasi professori, t.f.n.

[2]Nizomiy nomidagi TDPU Texnologik ta’lim mutaxassisligi bo`yicha magistranti

[3]Nizomiy nomidagi TDPU Professional ta’lim fakulteti TMJ-201 gurux talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.7932755

Annotatsiya. *Maqolada modulli o‘qitish tamoyillari va ularga amal qilishning pedagogik asoslari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *modul, modulli o‘qitish, modulli o‘qitish tamoyili, modulli o‘qitish texnologiyasi.*

Аннотация. *В статье описаны принципы модульного обучения и педагогическая основа их реализатсии.*

Ключевые слова*: модуль, модульное обучение, принцип модульного обучения, технология модульного обучения.*

Abstract. *The article describes the principles of modular education and the pedagogical basis for their implementation.*

Keywords: *module, modular learning, principle of modular learning, technology of modular learning.*

O‘qitishning modulli texnologiyasi, o‘qitishning qabul qilingan tamoyillariga muvofiq ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi.

Quyidagi tamoyillar modulli o‘qitish texnologiyasining asosini tashkil etadi:

1.Faoliyatlik tamoyili:Bu tamoyil, modullar mutaxassisning faoliyat mazmuniga muvofiq shakllanishini anglatadi.

Bu tamoyilga ko‘ra modullar fan bo‘yicha faoliyat yondashuvi yoki tizimli faoliyat yondashuvi asosida tuzilishi mumkin. Modulli o‘qitish texnologiyasida fan bo‘yicha faoliyat yondashuvida, modullarni o‘quv rejasi va dasturlar tahlili natijasida, tuzishni taqozo etadi. Tizimli faoliyat yondashuvida, modullar bloki, mutaxassisning kasbiy faoliyat tahlili asosida, shakllantiriladi.

2.Tenglik, teng huquqlik tamoyili.Bu tamoyil, pedagog va o‘quvchining o‘zaro munosabati sub’ekt - sub’ekt xarakterligini belgilaydi.

Bu esa, modulli o‘qitish texnologiyasini, shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar toifasiga taalluqliligini ko‘rsatadi. YA’ni modulli o‘qitish texnologiyasi, shaxsning individual psixologik xususiyatlariga moslashgan bo‘ladi.

3. Tizimli kvantlash tamoyili. Bu tamoyil axborotni siqib berish nazariyasi, muhandislik bilimlar konsepsiyasi, didaktik birliklarni yiriklash nazariyalarining talablariga asoslanadi.

SHular bilan bir qatorda, bu tamoyil quyidagi psixologik-pedagogik qonuniyatlarni hisobga olishni taqozo etadi:

-katta hajmdagi o‘quv materiali, qiyinchilik bilan va xohishsiz (istalmasdan) eslanadi;

-ma’lum tizimda qisqartirilgan holda berilgan o‘quv materiali, osonroq o‘zlashtiriladi;

-o‘quv materialidagi, tayanch qismlarning ajratilib ko‘rsatilishi, eslab qolish faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

SHu bilan bir qatorda o‘quv materialining asosini ilmiylik va fundamentallik tashkil etish lozim.

Tizimli kvantlash tamoyili, o‘quv axborotning tegishli strukturasini modulda tuzish yo‘li bilan erishiladi.

Modul umumiy ko‘rinishda quyidagi elementlardan iborat bo‘lishi mumkin:

-tarixiy - bu muammo, teorema, masala, tushunchalarni tarixiga qisqacha sharx berish;

-muammoli - bu muammoni shakllantirish;

-tizimli - bu modul tarkibining tizimli namoyon etish;

-faollashtirish - bu yangi o‘quv materialini o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan tayanch iboralar va harakat usullarini ajratib ko‘rsatish;

-nazariy - bu asosiy o‘quv materiali bo‘lib, unda - didaktik maqsadlar, muammoni ifodalash, gipoteza (faraz)ni asoslash, muammoni echish yo‘llari ochib ko‘rsatiladi;

-tajribaviy - bu tajribaviy materialni (o‘quv tajribasi, ishni va boshqalarni) bayon etish;

-umumlashtirish - bu muammo echimining tasviri va modul mazmunini umumlashtirish;

-qo‘llanish - bu harakatlarning yangi usullarini va o‘rganilgan materialni amaliyotda ko‘llash bo‘yicha masalalar tizimini ishlab chiqish;

-xatoliklar - o‘quvchining modul mazmunini o‘rganishdagi o‘zlashtirishda kuzatiladigan bir turdagi xatoliklarini ochib tashlash, ularning sababini aniqlash va tuzatish yo‘llarini ko‘rsatish;

-ulanish - o‘tilgan modulni boshqa modullar bilan shu jumladan yondosh fanlar bilan bog‘liqligini namoyon etish;

-chuqurlashtirish - iqtidorli o‘quvchilar uchun yuqori murakkabli o‘quv materialini takdim etish;

-test-sinovlash - modul mazmunini o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirish darajasini testlar yordamida nazorat qilish va baholash.

O‘quv materialining o‘zlashtirilishiga mashg‘ulotlar paytida modulning amaliy ahamiyati qay darajada ochib ko‘rsatilganligi, modul mazmunini boshqa modullar bilan bog‘liqligi, shu modulni o‘rganishdagi o‘quvchilarning bir xil xatoliklari tahlili muhim ahamiyatga ega.

4.Motivatsiya (qiziqishni uyg‘otish) tamoyili.Bu tamoyilning mohiyati, o‘quvchining o‘quv-bilim olish faoliyatini rag‘batlantirishdan iborat bo‘ladi. Bu asosiy qoidadir.

Modulning o‘quv materialiga qiziqishni uyg‘otish, bilim olishga rag‘batlantirish, mashg‘ulotlar paytida faol ijodiy fikrlashga da’vat etish, modulning tarixiy va muammoli elementlarining vazifalari hisoblanadi.

5. Modullik tamoyili. Bu tamoyil o‘qitishni individuallashtiморishning asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Birinchidan, modulning dinamik strukturasi fan mazmunini uch xil ko‘rinishda namoyon etish imkoniyatini beradi:

-to‘la

-qisqartirilgan

-chuqurlashtirilgan.

O‘qitishning u yoki bu turini tanlash o‘quvchiga havola qilinadi.

Ikkinchidan, modul mazmunini o‘zlashtirishda, usul va shakllarning turliligida ham modullik namoyon bo‘ladi. Bu esa o‘qitishning faollashtirilgan shakl va usullari (dialog, mustaqil

o‘qish, o‘quv va imitatsion o‘yinlar va hokazo), hamda muammoli ma’ruzalar, seminarlar, maslahatlar bo‘lishi mumkin.

Uchinchidan, modullik, yangi materialni pog‘onasimon o‘zlashtirishda ta’minlanadi, ya’ni har bir fan va har bir modulda o‘qitish oddiydan murakkabga qarab yo‘nalgan bo‘ladi.

To‘rtinchidan, modulga kiruvchi o‘quv elementlarining moslanuvchanligi tufayli, o‘quv materialini muntazam ravishda yangilab turish imkoniyati ko‘zda tutiladi.

6. Muammolik tamoyili. Bu tamoyil muammoli vaziyatlar va mashg‘ulotlarni amaliy yo‘naltirilganligi tufayli, o‘quv materialining o‘zlashtirilish samaradorligini oshishiga imkon beradi. Mashg‘ulotlar paytida gipoteza (faraz) qo‘yiladi, uning asoslanganligi ko‘rsatiladi va bu muammoning echimi beriladi. Ko‘pchilik hollarda bizning o‘qituvchilar darslarda faqatgina dalillar keltiradilar (ular hatto yangi bo‘lsa ham), ammo misol uchun AQSHda o‘qituvchi masalani o‘rganish uslubini, o‘zi qo‘ygan muammoni echish yo‘llarini, tajriba xususiyatini, uning natijalarini ko‘rsatadi va tushuntiradi. YA’ni u tadqiqotchi sifatida namoyon bo‘ladi.

Birinchi navbatda, ayniqsa, ana shu narsa o‘quvchini qiziqtirib qo‘yadi, unda ijodiy fikrlash va faollikni tug‘diradi.

7. Kognitiv vizuallik (ko‘z bilan kuzatiladigan) tamoyil.Bu tamoyil psixologik-pedagogik qonuniyatlardan kelib chiqadi, ularga ko‘ra o‘qitishdagi ko‘rgazmalar, nafaqat surat vazifasini, shu bilan birga kognitiv vazifani bajargan taqdirdagina o‘zlashtirish unumdorligini oshiradi.

Aynan, shuning uchun kognitiv grafika-sun’iy intellekt nazariyasining yangi muammoli sohasi bo‘lib, murakkab ob’ektlar kompyuter suratchalari ko‘rinishida tasvir etiladi. Modulning tarkibiy tuzilmasi bo‘lib, rangli bajarilgan, kognitiv-grafik o‘quv elementlari (rasmlar bloki) xizmat qiladi. SHuning uchun rasmchalar, modulning asosiy bosh elementi hisoblanadilar. Bu esa:

Birinchidan, o‘quvchining ko‘rish va fazoviy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, ya’ni o‘rganish jarayoniga miyaning tasviriy o‘ng yarim shari boy imkoniyatlari qo‘shiladi.

Ikkinchidan, o‘quv materiali mazmunini o‘zida zich joylashtirib ravshan ko‘rsatuvchi surat (rasm), o‘quvchida tizimli bilim shakllanishiga yordam beradi.

Uchinchidan rangli suratlar, o‘quv informatsion materialni qabul qilinish va eslanish samarasini oshiradi, hamda o‘quvchilarni estetik tarbiyalash vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Insonning bilim olishi, fikrlashning xuddi ikkita mexanizmdan foydalanganidek bo‘ladi: ularning biri simvolli bo‘lsa, ikkinchisi geometrik (algebraik) bo‘ladi.

Kognitiv grafikaning asosiy vazifasi bilim olish jarayonining faollashtiruvchi fikrlashning simvolli va geometrik (algebraik) mexanizmlarni o‘z ichiga olgan, bilim berishni uyg‘unlashgan modellarini yaratishdan iboratdir.

Grafik (ko‘zga ko‘rinuvchi) axborot miyaning o‘ng yarim shari imkoniyatlarini faollashtiradi, oliy ma’lumotli mutaxassis uchun zarur bo‘lgan, tasviriy fikrlash qobiliyatini, intuitsiyasini rivojlantiradi. Buyuk olim A.Eynshteyn aytganidek «intuitsiya xaqiqatda eng katta boylikdir. Mening ishonchim komilki, bizning fikrlashimiz asosan simvollar orqali shu bilan birga biz anglamasdan kechadi». Haqiqatda ilm-fan gepotezasiz (farazsiz), faraz zsa intuitsiyasiz mavjud bo‘lmaydi.

Shu bilan birga, ko‘rgazmali axborot og‘zaki axborotdan ko‘ra, ahamiyatliroq va unumliroqdir. Ko‘rish mexanizmining axborotni qabul qilish qobiliyati, eshitishnikidan ko‘ra ancha yuqoridir. Bu esa o‘z navbatida, ko‘rish tizimiga, inson qabul qilinadigan axborotning qariyb 90 foizini etkazish imkoniyatini beradi. Undan tashqari ko‘rgazmali axborot bir vaqtning o‘zida beriladi. SHuning uchun axborotni qabul qilish va eslashga og‘zaki axborotdan ko‘ra kam

vaqt talab etiladi. Ko‘rgazmali axborot ishlatilganda, tasavvur hosil bo‘lishi og‘zaki bayondan ko‘ra o‘rtacha 5-6 martaba tezroq kechadi. Insonning ko‘rgazmali axborotdan ta’sirlanishi, og‘zaki axborotdan ko‘ra ancha yuqori bo‘ladi. Ko‘pchilik hollarda u oxirgisini o‘tkazib yuboradi. Ko‘rgazmali axborotni qayta takrorlash oson va aniqroqdir. Odamning ko‘rgazmali axborotga ishonchi, og‘zaki axborotdan ko‘ra yuqori bo‘ladi. SHuning uchun «yuz bor eshitgandan ko‘ra, bir bor ko‘rmoq afzalroqdir» deb bejiz aytilmagandir.

SHu bilan birga, ko‘rgazmali axborotda, qabul qilish va eslash unumi, uni ko‘rsatilishi orasidagi muddatni uzoqligiga bog‘liq bo‘lmaydi, og‘zaki axborotning o‘zlashtirilishi esa bunga bog‘liq bo‘ladi. O‘rni kelib yana bir muhim tafsilotni qayd etish lozim: simvolli-ko‘rgazmali axborotni qabul etish, o‘qitish samarasini oshiradi. SHuning uchun o‘quv-ilmiy adabiyotdan va kompyuter texnikasi vositasida olinadigan axborotni ko‘paytirishga shart-sharoit yaratish zarur. Bu esa, o‘qitishni individuallashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

REFERENCES

1. Ашурова С.Ю. Махсус фанларни модулли ўқитишнинг илмий-услубий асослари. Дисс... пед.ф.н. –Т.: 2005 .-180 б.
2. Олимов Қ. Т., Узоқова Л.П., Ҳалимов Э. З., Рустамов Р. М., Ашурова С.Ю. “Махсус фанларни ўқитиш методикаси». Тошкент, : “Фан” 2004 й.

BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI FANINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Mamaraximova Nafisa Ibroximovna
Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.7932757

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda o‘tiladigan yangi avlod darsliklari bo‘lgan ona tili va o‘qish savodxonligi fanining ahamiyati va holati haqida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *ona tili, o‘qish savodxonligi, fan, boshlang‘ich sinf, savodxonlik, dars samaradorligi.*

Аннотация. *В данной статье рассказано о значении и состоянии науки о родном языке и грамотности чтения, которая является учебником нового поколения для начальных классов.*

Ключевые слова: *родной язык, грамотность чтения, естествознание, начальная школа, грамотность, эффективность урока.*

Abstract. *This article talks about the importance and status of the science of mother tongue and reading literacy, which are new generation textbooks taught in primary grades.*

Keywords: *mother tongue, reading literacy, science, elementary school, literacy, classroom performance.*

Bugungi kunda yurimizda ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, umumiy o‘rta ta’lim ayniqsa ta’limning poydevori bo‘lgan boshlang‘ich ta’limga katta e’tibor qaratilmoqda. Umumiy o‘rta ta’limda eski davlat ta’lim standartlari (DTS) o‘rnini bosadigan va ta’limga o‘zgarishlar kirita oladigan Milliy o‘quv dasturi ishlab chiqildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq “Boshlang‘ich sinflarda yozish va o‘qish ko‘nikmalarini uyg‘unlikda shakllantirish maqsadida ona tili va o‘qish fanlarini yagona darslik asosida o‘qitib borish” kompleks chora-tadbirlar dasturiga kiritilishi ham bejiz emas, albatta. Bu esa boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilar dunyoqarashi, ijodiy tafakkuri, nutq madaniyati hamda badiiy matnni tushunish, uning mazmunini anglash va idrok etishning nazariy asoslari ilmiy, ilmiy-metodik jihatdan yuksak samaradorlikka erishishga zamin yaratadi.

Maktab ta’limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturini amalga oshirishning beshta asosiy yo‘nalishi bo‘yicha maktab ta’limini rivojlantirish, ta’lim tizimida qo‘llaniladigan ta’lim standarti va ta’lim dasturlarini takomillashtirish bo‘yicha yo‘riqnomalar ham tayyorlandi. Shunga ko‘ra, Xalq ta’limi vazirligi huzurida mamlakatimiz olimlari va tajribali amaliyotchi o‘qituvchilaridan iborat umumiy o‘rta ta’lim standartlari va o‘quv-metodik materiallar ekspertizasini o‘tkazish bo‘yicha ekspert guruhi tuzilib, ta’lim sohasida qo‘llaniladigan ta’lim standartlari va o‘quv dasturlarini takomillashtirish yuzasidan keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borildi. Guruhdagi boshlang‘ich umumiy o‘rta ta’lim fanlari bo‘yicha DTS asosida har bir sinf o‘quvchilarining bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yilgan talablarni qayta ko‘rib chiqish va ekspertiza natijalari asosida ularni takomillashtirish vazifalarini bajardilar.

Respublikamiz uzluksiz ta’lim tizimida umumiy o‘rta ta’lim asosiy tayanch bosqich bo‘lib, bu bosqichda o‘zbek tilidan o‘quvchilarga kundalik ijtimoiy hayotda davlat tilida og‘zaki va

yozma muloqot olib bora olishlariga qaratilgan tayanch bilimlar beriladi va o‘qitishning kommunikativ-nutqiy tamoyili asosida o‘quvchilarda o‘zbek tili bo‘yicha egallangan bilim va ko‘nikmalarni muloqot faoliyati jarayonida qo‘llash malakasi shakllantiriladi Bugungi kunda ta’limning eng asosiy tayanch bo‘g‘ini hisoblanuvchi umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun Milliy o‘quv dasturi ishlab chiqildi va “Milliy o‘quv dasturi” deb nomlanishining o‘zi bizga katta umidlar baxsh etmoqda. Shuningdek, o‘zbek tilini o‘qitish metodikasini tubdan isloh qilish, ayniqsa mamlakatimiz hududida istiqomat qiluvchi barcha millatlar va elatlarga o‘zbek tilini intensiv o‘rgatishni ta’minlaydigan zamonaviy darsliklar yaratish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biriga aylandi.

Umumiy o‘rta ta’limning Milliy o‘quv dasturi (MO‘D) o‘quv-me’yoriy hujjat bo‘lib, u o‘quv reja va fanlarning o‘quv dasturlari, o‘qitish metodologiyasi va baholashni ishlab chiqishga asos bo‘ladi. U bo‘yicha yaratilayotgan yangi darsliklar, o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanmalar, mashq daftarlari, o‘quv-metodik materiallar ta’limni rivojlantirishga xizmat qiladi. U pedagogik amaliyotni va baholash yondashuvlarini qo‘llab-quvvatlaydi va ushbu elementlarning barchasini birlashtirishga imkon beradigan dasturdir.

Shu paytgacha Ona tili va O‘qish fanlari alohida o‘qitilgan. Endi esa ushbu ikki fanni birlashtirgan “Ona tili va o‘qish savodxonligi” deb nomlangan yagona fan dars soati saqlab qolingan holatda tashkil etildi.

O‘qish fani, asosan, badiiy uslubdagi, mavhum tushunchalarni tashiydigan matnlardan iborat edi. Yangi darslik uchun tanlangan matnlar va she’rlar esa bolaning ijtimoiy hayotga kirishib keta olishida ko‘maklashadigan, ham badiiy, ham informativ, ham ilmiy-ommabop uslubdagi matnlardan iborat.

Ona tili va o‘qish savodxonligi fanini o‘qitishda asosiy e’tibor o‘quvchida tilga doir to‘rt ko‘nikma: o‘qib tushunish, tinglab tushunish, nutq so‘zlash va yozish hamda grammatik savodxonlikni shakllantirishga qaratiladi.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilar voqea-hodisalarni kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez qilishga o‘rgatish orqali ijodiy va tanqidiy tafakkurini, fikrlash doirasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ona tili va o‘qish savodxonligi fani ushbu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Ona tili va o‘qish savodxonligi fanini o‘qitishda quyidagi tamoyillarga tayaniladi:

1. Ta’lim berishda kommunikativ yondashuv, ya’ni tilning muloqot vazifasi birlamchidir. Shuningdek, integrativ, faoliyatga yo‘naltirilgan, onglilik, kashfiyotchilik, farqli va tanqidiy yondashuvlar e’tiborda bo‘lishi lozim.

2. Tilni amaliyotda qo‘llash, ya’ni matnni o‘qish orqali ham grammatika, ham uning qo‘llanishini o‘rgatishga asoslaniladi.

3. Grammatik savodxonlik doirasida o‘quvchining so‘z boyligini oshirish, so‘zlarning ma’no nozikliklari, farq va o‘xshashliklarini his qilish va anglab yetish, bexato talaffuz qilish va yozish, so‘zlarni bog‘lab gap, gaplardan esa matn tuza olish, birikmalardagi ma’noviy va grammatik, matndagi mantiqiy xatoliklarni topish va tuzatish, o‘zgalar fikrini to‘g‘ri anglash, bir fikrni turli shaklda ifodalash, uzilgan fikrning davomini tiklash kabi qator mantiqiy operatsiyalarni bajarish, nutq vaziyatini to‘g‘ri baholash va til imkoniyatlaridan unga mos ravishda foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish va malakasini o‘stirishga e’tibor qaratiladi.

4. O‘qish savodxonligi doirasida o‘quvchida to‘g‘ri, tez, ongli, ifodali o‘qish malakalarini shakllantirish, ularni oddiy kitob o‘quvchidan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon

darajasiga ko‘tarish; o‘qish orqali tevarak-atrof, borliq haqidagi bilimlarini kengaytirish, ularning dunyoqarashini boyitish; tafakkurida elementar adabiy tushunchalarni shakllantirish; har qanday uslubdagi matnni o‘qish va uni anglash, tanqidiy va kreativ fikrlash ko‘nikmasini oshirish nazarda tutiladi. 4. Barcha uslubdagi turli sohalarga oid matnlar bilan tanishish barobarida mashq va topshiriqlar orqali fanlararo integratsiya amalga oshiriladi.

5. O‘quvchining o‘qib, eshitib tushunish, og‘zaki va yozma nutq malakasini umumiy holda rivojlantirish maqsadida ularning har biriga alohida e’tibor qaratiladi.

6. Badiiy matn ustida ishlash jarayonida o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, tilning ifoda imkoniyatlarini tushunishi va his eta olishi, “so‘zni hazm qila olish” imkoniyatlari e’tiborga olinadi.

7. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarni voqea-hodisalarni kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez qilishga o‘rgatish orqali ijodiy tafakkuri, fikrlash doirasi shakllantirib boriladi.

8. Yozma nutq bilan bog‘liq beriladigan topshiriqlarda yozish strategiyalari taqdim etiladi. (Odatda bolaning bog‘lanishli nutqini o‘stirish, matn yaratish ko‘nikmasini rivojlantirish maqsadida savollar, rasmlar yoki kuzatuvlar asosida matn tuzish bilan bog‘liq mashq va topshiriqlar berib boriladi, ammo bu jarayonda qanday qilib yozish masalasi e’tibordan chetda qoladi. “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligida ushbu jihatlarga e’tibor qaratilgan: noto‘liq matnni to‘ldirish, berilgan namuna asosida yozish, taqdim etilgan tanlovlar asosida yozish; savollarga ketma-ketlikda javob yozish; syujetli rasmlar asosida matn yozish kabi).

Milliy o‘quv dasturi bo‘yicha yaratilayotgan yangi darsliklar, o‘qituvchilar uchun qo‘llanmalar – o‘qituvchi kitoblari, mashq daftarlari, o‘quv-metodik materiallar ta’limni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Yangi darsliklar – ona tili va o‘qish savodxonligi fani boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki va yozma savodxonligi hamda ijodiy va tanqidiy tafakkurlarini oshirishga xizmat qiladi. Bu fan orqali o‘quvchining savodi chiqadi, yozish va o‘qishni o‘rganadi. Bu esa keyinchalik ham o‘quvchilarga boshqa fanlarni yaxshi o‘zlashtirishga yordam beradi. Ona tili va o‘qish savodxonligi fani boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun poydevor vazifasini bajaradi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bunda asosiy vazifani albatta boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi egallaydi. Chunki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining savodini chiqarish o‘qituvchidan kasbiy mahorat va bilim talab etadi.

O‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma (O‘qituvchilar kitobi)da ona tili va o‘qish savodxonligi fanidan o‘tilayotgan nutqiy mavzular doirasida qanday malaka talablari qo‘yilgani, bunda qaysi jihatlarga e’tibor berish lozimligi, rejada ajratilgan soatlarga muvofiq darslarni tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar, darslikdagi mashq, topshiriqlarning bajarilish yechimi hamda matn, rasm, chizmalar ustida ishlashga oid metodik ko‘rsatmalar berilgan.

Mashq daftarida darslikda ishora qilingan, maxsus belgi bilan ajratilgan topshiriqlar bajarib boriladi. O‘quvchilar daftarga yozishlari, chizishlari, bo‘sh o‘rinlarni to‘ldirishlari, o‘qib va tinglab tushunish, matn tuzish bilan bog‘liq topshiriqlarni bajarishlari hamda rasmlarni bo‘yashlari mumkin.

Bugungi kunda o‘quvchilarning o‘qib tushunish, tinglab tushunish, nutq so‘zlash va yozish hamda grammatik savodxonlikni shakllantirish asosiy vazifa bo‘lib hisoblanadi. Shu jihatdan olib qaraganda, yangi avlod darsliklari o‘quvchilarning matn bilan ishlash salohiyatini oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu darsliklar o‘qituvchi uchun ham, o‘quvchi uchun ham qulay va oson. Yangi avlod darsligi bo‘lgan ona tili va o‘qish savodxonligi fani o‘quvchini ijodiy

yondoshishga undaydi. O‘quvchilarga ijodiy tafakkurni shakllantirishda ijodiy, mustaqil ishlar, nutq va tafakkurni rivojlantirishga doir bilimlarni mustaqil o‘zlashtirish malakalarini mustahkamlashi jihatidan ijodkorlikni shakllantiruvchi samarali vosita sanaladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, har bir boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi ona tili va o‘qish savodxonligi fanining ahamiyatini chuqur anglagan holda o‘qituvchilarga zarur bilimlarni va ko‘nikmalarni bera olishi zarur. Shundagina o‘qituvchilar kelgusida og‘zaki va yozma savodxonligi yuqori shaxslar bo‘lib yetishadi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qoshimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori
2. Zilola Madatova Milliy o‘quv dasturi: tahlillar va takliflar yoxud yomg‘irdan qochib, do‘lga tutildikmi? Xalq ta’limi. Umumiy o‘rta ta’lim 28 / 07 / 2021
3. Ona tili va o‘qish savodxonligi [Matn]: 2-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma / I. Azimova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 4-b.
4. Farsaxonova, M. (2022). 2-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligidagi matnlarni tushunish va anglash ko‘nikmalarini shakllantirish usullari. Boshlang‘ich ta’limda innovatsiyalar, (1).
5. Farsakhanova, D., & Azdamova, M. (2021). Boshlangich sinflarda sifat ustida ishlash bo‘yicha topshiriqlar tizimini ishlab chiqish. Журнал инновации в начальном образовании, 1(БТНА_1).

O‘QUV JARAYONINI ARALASH TA’LIM ASOSIDA TASHKIL ETISH

Allamova Shohista Shavkat qizi
CHDPU, Informatika va axborot texnologiyalari kafedrasi katta o‘qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.7932768

Annotatsiya. *Axborot hajmi va talabalarning mustaqil ishi ulushining ortishi, o‘qituvchi yagona manba bo‘lgan ta’lim jarayoni, shuningdek, talaba bilimning “passiv” ob’ekti sifatida ko‘rib chiqilishi – yangi ta’lim texnologiyalarini izlashni va talabalarga yo‘naltirilgan ta’limga o‘tish zaruratini talab qiladi. Maqolada ma’ruza mashg‘ulotlarini aralash ta’lim asosida tashkil etishni loyihalash haqida so‘z ketadi.*

Kalit so‘zlar: *Aralash ta’lim, mustaqil ta’lim, online ta’lim, Flipped classroom.*

Bugungi kunda ushbu vazifani amalga oshirishda aralash ta’lim ham muhim ahamiyatga ega. Aralash ta’lim asosida elektron texnologiyalarining hozirgi rivojlanish darajasi ta’lim tizimining innovatsion jarayonlarga intilishi bilan birgalikda oliy ta’lim muassasalaridagi o‘quv jarayonini o‘zgartirish va talabalarning mustaqil ta’lim vaqtini optimallashtirish zarurligini taqozo etmoqda.

Zamonaviy oliy ta’lim tizimida eng samarali innovatsion usullar va texnologiyalarni tanlash muammosi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Innovatsion usullar fan va axborot texnologiyalarining zamonaviy yutuqlaridan foydalanishga asoslangan usullardir. Aralash ta’lim jarayonini optimallashtirish, o‘quv materialini o‘zlashtirish uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan bo‘lib, bu ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi [1].

Aralash ta’lim asosida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi olimlar va pedagoglarni ta’lim jarayonida ulardan samarali foydalanishning tobora ko‘proq yangi imkoniyatlarini o‘rganishga undaydi. Oliy ta’limda aralash ta’lim asosida elektron ta’limning ahamiyati muttasil ortib bormoqda. Oliy ta’lim muassasalari aralash ta’limni qabul qilmoqdalar, chunki bu:

- raqamli dunyoda zamonaviy talabalarning yashash ehtiyojlarini qondiradi;
- pedagogik innovatsiyalarni rag‘batlantiradi;
- universitet ichidagi va universitetlararo miqyosda bilim almashish va hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradi;
- masofaviy ta’lim imkoniyatlarini kengaytiradi va talabalarning turli toifalari uchun ta’lim olish imkoniyatlarini soddalashtiradi.

Shuningdek, biz aralash ta’lim asosida o‘quv jarayonini tashkil etish talabalarga bir qator afzalliklarni berishini ham aniqladik:

– darsdan tashqari vaqtlarda mustaqil o‘rganish;
– o‘z bilimi uchun mas’uliyatni qabul qilish va anglash;
– arzon va sifatli elektron ta’lim resurslarini olish;
– o‘zaro yordam;
– o‘z ta’lim yutuqlarini tanqidiy baholash qobiliyati;
– AKT-kompetentligini rivojlantirish uchun sharoit yaratish.

Ta’limning bu turining kuchli tomonlari quyidagilardan iborat:

– qiziquvchi talabalar bir-biri bilan ishlaydi,
– individual mashg‘ulotlar uchun vaqtni oshirish;

– talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi muloqot yangi sifat va miqdoriy darajaga ko‘tariladi;

– yaxshi o‘qigan talabalar o‘z bilimlarini chuqurlashtirishlari mumkin, ortda qolganlar esa ularni quvib olish uchun ko‘proq imkoniyatga ega bo‘ladilar;


– talabalar kattalar hayoti uchun ko‘nikmalarga ega bo‘lishadi: guruhlarda ishlash va universitetda yoki keyingi kasbiy faoliyatda har qanday muammolarni hal qilishda jamoaviy ish muhim rol o‘ynashini tushunadilar [2].

Demak, bularning barchasi “Flipped Classroom” modelining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan chambarchas bog‘liqligidan dalolat beradi. [3]. Bu tarzda tashkil etilgan o‘quv mashg‘ulotlari talabalarda universal o‘quv faoliyatini shakllantirishga, shaxsiy fazilatlarni, ichki motivatsiyani va mas’uliyat hissini rivojlantirishga imkon beradi, chunki talabaning uyda qanchalik yaxshi tayyorgarlik ko‘rishi uning darsda qanchalik muvaffaqiyatli bo‘lishiga bog‘liq. Bundan tashqari, flipped classroom modeli zamonaviy jamiyatda talab qilinadigan faollik, mustaqillik, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, muloqot qobiliyatlari kabi fazilatlar va ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Talabalar sifatli va qulay o‘quv materiallarini qulay vaqtda va joyda ko‘rishlari mumkin. Ba’zan talabalar o‘qituvchidan biron bir narsani tushuntirishni so‘rashdan uyaladilar, chunki ular qolgan sinfdoshlari oldida ahmoq bo‘lib ko‘rinishidan qo‘rqishadi. Ushbu texnologiya ushbu psixologik momentni zararsizlantirishga imkon beradi, chunki talaba uyga tayyorgarlik paytida kerakli o‘quv materiallarini qayta-qayta o‘rganishi mumkin.

Odatda, an’anaviy o‘quv jarayoni (sinf ishi - sinfdan tashqari ish - sinf ishi) auditoriya (ma’ruza) jarayonida yangi materialni taqdim etish va tushuntirish, uni uy vazifasi sifatida mustahkamlash bo‘yicha topshiriqlarni bajarish, so‘ngra o‘zlashtirishni nazorat qilishdan iborat .

“Flipped Classroom” modeli yordamida tashkil etilgan o‘quv jarayoni esa elektron muhitda (elektron kurs) mustaqil ishlashdan boshlanadi.

Biz, “Informatikaning nazariy asoslari” fanining ma’ruza mashg’ulotini aralash ta’limning Flipped classroom modeli orqali loyihaladik. Unga ko’ra, biz aralash ta’limning Flipped classroom modelini o‘zaro bog‘langan elektron va sinf komponentlari yordamida amalga oshiriladigan “darsdan oldingi ish - sinfdagi ish” sikli sifatida ifodaladik (1-rasm).



1-rasm. Ma’ruza mashg‘ulotini Flipped classroom modeli orqali loyihalash

“Informatikaning nazariy asoslari” fanining ma’ruza mashg’ulotlarida darsdan oldingi ishlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- video ma’ruzalarni eshitish;
- taqdimotni o’qish;
- belgilangan mezonlar bo‘yicha boshqa talabalar (kamida ikkita) ishiga izox berish;

- mavzu materiallari asosida tayyorlangan savollarga javob berish (Quiz savollar)
- mustaqil ta’lim topshiriqlariga tayyorlanish.

Auditoriya darsiga talabalar mavzu bo‘yicha zarur bilimlarga ega bo‘lib va murakkabroq ma’lumotlarni idrok etishga, muhokamalarda qatnashishga va olingan bilimlarni amalda qo‘llashga tayyor bo‘lib keladilar.

Aralashtirilgan ta’lim bo‘yicha sinf darsi sinfdan oldingi ish natijalariga ko‘ra “talaba-o‘qituvchi”ning fikr-mulohazalarini o‘z ichiga oladi. Ma’ruza mashg‘ulotida mini leksiya o‘tildi, yangi mavzu doirasida talabalarning savollariga javob berildi, darsni umumlashtirildi, shuningdek, bilimlarni mustahkamlash va kengaytirish, ma’ruza mashg‘uloti qiziqarli o‘tishi uchun interfaol metodlardan (problem solving organayzeri) foydalanildi.

Shu tarzda tashkil etilgan o‘quv jarayonida mustaqil va auditoriya ishlari o‘rtasidagi chegara yo‘qoladi. Shu bilan birga, elektron va sinf komponentlarini integratsiyalashuvi muvaffaqiyatning asosiy omillariga aylanadi [4].

Ilmiy tadqiqot natijalariga ko‘ra, ma’ruza mashg’ulotlarida aralash ta’limning flipped classroom modelini qo‘llashda olingan ma’lumotlar hajmining ortishi qayd etildi va talabalar faol, mas’uliyatli, mustaqil bo‘lib, taklif qilingan materialni yaxshiroq o‘zlashtirdilar, bir-birlari bilan erkin muloqot qilishdi. O‘qituvchi endi darsda yangi materialni aniq aytib berishga ulgurmasligidan qo‘rqmaydi. U ma’ruzachi rolidan talabalar uchun maslahatchi darajasiga o‘tadi[5].

Aralash ta’lim asosida tashkil etilgan o’quv jarayonida boshqalarga o‘rgatish orqali o‘z-o‘zini o‘rganish jarayoni mavjud bo‘lib, bu ta’limning eng samarali usuli hisoblanadi.

Aralash ta’lim, bizningcha, talabalarni ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirishga yordam beradigan, talabaga o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini (vaqtni boshqarish, kuchlarni taqsimlash, tanqidiy fikrlash) shakllantiradigan, o‘qituvchiga har bir talabaga individual yondashish, har bir talabaning asosiy kamchiliklarini aniqlash va uning temperament xususiyatlarini xisobga olgan holda harakat traektoriyasini qurish imkonini beradigan texnologiyadir.

Demak, oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini aralash ta’lim asosida tashkil qilish sinf vaqtini tejash, o‘quv jarayonida yangi aloqa vositalaridan foydalanish, ob’ektiv baholash imkoniyati va innovatsion nazorat vositalaridan foydalanish, qobiliyatlarni rivojlantirish, o‘z faoliyatini rejalashtirish, bilimlarni sinfdan tashqari egallash va undan foydalanish qobiliyati, haqiqiy o‘quv materiallaridan foydalanish, talabaga yo‘naltirilgan yondashuvga tayanishga imkon beradi.

REFERENCES

1. Кастина Е.В. Модель смешанного обучения (Blended Learning) и ее использование в преподавании иностранных языков // Известия вузов. –2010. – №1 (2) . – С. 141.
2. Самарина Н. В. Оптимальная обучающая технология сегодня-«Переверну-тый класс» // Платон. – 2014. – № 1-3. – С. 62-64.
3. Зубова А. И. Особенности технология «Перевернутый класс» // Иностранные языки в школе. – 2019. – № 8. – С. 20-25.
4. Кузьмина Т.В. Студент в среде E-learning // Мос. гос. ун-т экономики, статистики и информатики, – 2008. 62 с.

5. Ш.Ш.Алламова. Организация учебного процесса на основе технологии перевернутого класса // Международную научно-практическую конференцию: «развитие науки и образования в XXI-веке». Москва -2023, С-5656

BOSHLANG’ICH SINFLARDA ONA TILI O‘QITISH METODIKASI MODULINI TAKOMILLASHTIRISHDA LOYIHAVIY TA’LIMNING AHAMIYATI

[1]Eshmurodova G.X., [2]Aziza Xushmurodova

[1]P.f.n., Qarshi xalqaro universiteti

[2]Qarshi xalqaro universiteti Boshlang’ich ta’lim I- kurs talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.7932778

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ona tili o‘qitish metodikasi modulini takomillashtirish yo‘llari, usul va vositalari bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar: *metodika, loyiha, analitik-sintetik ishlar, nutq o‘stirish, loyihalashtirish metodikasi.*

Аннотация. *В этой статье описаны способы, методы и инструменты для улучшения модуля методики обучения родному языку.*

Ключевые слова: *методология, дизайн, аналитико-синтетическая работа, развитие речи, методология проектирования.*

Abstract. *This article describes the ways, methods and tools to improve the module of mother tongue teaching methods.*

Keywords: *methodology, design, analytical-synthetic work, speech development, design methodology.*

Oliy ta`limning asosiy maqsadi zamon talablariga javob bera oladigan malakali, raqobatbardosh, yuksak bilimli, oliy ta`lim mutaxassisi talablariga o‘zi tanlagan yo‘nalishi yuzasidan talabga javob bera oladigan respublikaning ilm-fan, madaniyat, iqtisod, ijtimoiy sohalarini rivojlantirishda o‘z hissasini qo‘shadigan mustaqil fikrlay oladigan, yuksak ma`naviyatga bo‘lgan yuqori salohiyatli mutaxassislarni tayyorlashdir.

Hozirda ta’lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo‘nalishlardan biri interfol ta’lim va tarbiya usullarini joriy qilish, ta’lim texnologiyalari orqali darsni loyihaviy tashkil etishdan iborat. Loyihaviy ta’lim asosida darslar tashkil etilganda talabalarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o‘z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog‘lom muloqot, munozara, bahs olib boorish ko‘nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi. Bu masalada amerikalik psixolog va pedagog B.Blum bilish va emotsional sohalardagi pedagogik maqsadlarning taksonomiyasini yaratgan. U Blum taksonomiyasi deb nomlanadi. Taksonomiya – borliqning murakkab tuzilgan sohalarni tasniflash va sistemalashtirish nazariyasi. Blum tafakkurni bilish qobiliyatlari rivojlanishiga muvofiq oltita darajaga ajratdi. Unga ko‘ra tafakkurning rivojlanishi bilish, tushunish, qo‘llash, tahlil, umumlashtirish, baholash, baholash darajalarida bo‘ladi.

